Kvant-kimyoviy hisoblash usullari asosida ko‘pfunksional ligandlarning koordinatsiyaga uchraydigan raqobatdosh donor markazlarini oldindan aytib berish imkonini beradi. Ushbu ishda HyperChem 8.07 dasturi yarim empirik usuli yordamida Levofloksatsin va mis(ll)sulfat asosida olingan kompleks birikma molekulasining reaksion qobiliyati kvant-kimyoviy tahlil qilindi. Levofloksatsin va mis(ll)sulfat asosida olingan kompleks birikma molekulasining energetik, geometrik va elektron xususiyatlari hisoblandi. Ushbu hisoblashlar Semi-emperical/Am1/UHF foydalanilgan holda bajarildi.

2-rasmda kvant-kimyoviy hisob-kitoblar asosida **elektron zichlik taqsimoti** xaritasi keltirilgan. Markaziy atom Cu atrofidagi kislorod va azot atomlari bilan koordinatsion bog’ hosil qilgan. Cu bilan bog‘langan O va N atomlari atrofi yashil-sariq tusga ega – bu bu zonaning reaksiya faolligi yuqori ekanligini bildiradi. Levofloksatsin strukturasidagi karbonil va karboksil guruhlari atrofi manfiy potentsialga ega, bu ularning elektrofil moddalarga nisbatan faolligini bildiradi. Ko‘rsatilgan hisoblash natijalari bo‘yicha kompleks birikma molekulasining minimal hosil bo‘lish energiyasi bo‘yicha aniqlandi. Kompleks birikma molekulalarining hosil bo‘lish energiyasi past ekanligi (-124.25 kJ/mol), birikmaning barqaror molekula bo’lishi mumkinligidan dalolat beradi.



2-rasm. Semi-emperical/Am1/UHF metodi bo‘yicha levofloksatsin va mis(ll)sulfat asosida olingan kompleks birikma molekulasining effektiv zaryadlarning taqsimlanishi

1-jadval

Kvant-kimyoviy tahlil natijalari

Usul	Ionlanish potensiali, $I = -E_{HOMO}$, (eV)	Elektronga moyillik, $A = -E_{LUMO}$, (eV)	Elektron energiyasi, (Xartree)	Dipol momenti, μ (Debay)
Semi-emperical/Am1/UHF	0.24119	-0.03157	-3.2597	15.1112

Kompleks birikma molekulasining donor va reaksion faol atomlaridagi elektron zichliklar va effektiv zaryadlarning qiymatlariga asoslanib keltirilgan natijalar adabiyotlardagi ma’lumotlarga to‘g‘ri kelishi aniqlanildi (1-jadval).

Kompleks birikmaning reaksiya qobiliyatini elektron zichligi va potentsial taqsimoti orqali bashorat qilish mumkin [6]. Mis atomi markaziy holatga ega bo‘lib, koordinatsion bog’lar orqali kompleks barqarorligini ta’minlaydi. Kompleksda mavjud manfiy potentsial hududlar biologik aktivlik uchun ahamiyatli bo‘lishi mumkin, masalan fermentlar yoki DNK bilan o‘zaro ta’sirlarda. HOMO-LUMO o‘rtasidagi farq molekulaning kimyoviy faolligi va barqarorligi haqida ma’lumot beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hooper D.C. Kucers' The Use of Antibiotics: A Clinical Review of Antibacterial, Antifungal, Antiparasitic, and Antiviral Drugs. – 7th ed. – 2017. – Vol. 88. – P. 2055–2084.

2. Somasundaram S., Manivannan K. Synthesis, spectral characterization and antimicrobial studies of transition metal complexes derived from 3-((3-chloro-2-quinolinyl)methyleneamino)-2-thioxo-1,3-thiaxolidin-4-one. // Annual Review of Research in Biology. – 2013. – Vol. 3. – P. 296.

3. Al-Khodir F.A.I., Refat M.S. Synthesis, spectroscopic investigation and antimicrobial activities of levofloxacin transition metal complexes. // Russian

Journal of General Chemistry. – 2015. – Vol. 85, No. 3. – P. 718. – DOI: https://doi.org/10.1134/S1070363215030317

4. Sousa I., Claro V., Pereira J.L., Amaral A.L., Cunha-Silva L., de Castro B., Feio M.J., Pereira E., Gameiro P. Solution behavior and biological activity of copper(II) complexes of the fluoroquinolone antimicrobial levofloxacin and phenanthroline. // Journal of Inorganic Biochemistry. – 2012. – Vol. 110. – P. 64–71. – DOI:

5. Kumar M., Kumar G., Dadure K.M., Masram D.T. Copper(II) complexes based on levofloxacin and 2N-donor ligands: synthesis, crystal structures and in vitro biological evaluation. // New Journal of Chemistry. – 2019. – Vol. 43, No. 38. – P. 15462–15481.

6. Palanikumar L., Selvakumar P.M., Subashini C., Jeganathan K., Rajagopal G. A perception into binary and ternary copper(II) complexes: synthesis, characterization, DFT modeling, antimicrobial activity, protein binding screen, and amino acid interaction. // BMC Chemistry. – 2023. – Vol. 17, Article No. 133.

p-Si<Nd> NAMUNALARINING ELEKTROFIZIK XUSUSIYATLARINI TADQIQ QILISH

Xudayberdiyeva Gulhayo Karimovna
Qo‘qon universiteti Andijon filiali

Annotatsiya. *Maqolada neodim (Nd) bilan legirlangan p-tip kremniyning elektrofizik xususiyatlari tadqiq qilinadi. Nd diffuziyasi solishtirma qarshilikning oshishiga, harakatchanlikning kamayishiga hamda tashuvchi zichligining o‘zgarishiga ta’sir qilishi aniqlanadi. Hall o‘lchovlari Nd ning kristall panjarada chuqur sathlar hosil qilishi va akseptorlarni qisman kompensatsiya qilishini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *p-tip kremniy, Nd diffuziyasi, elektromoddiy xossalar, Hall effekti, harakatchanlik, qarshilik.*

Аннотация. *В статье изучены электрофизические свойства p-тип кремния, легированного неодимом. Установлено, что диффузия Nd увеличивает удельное сопротивление, снижает подвижность и влияет на концентрацию носителей. Измерения эффекта Холла подтвердили образование глубоких уровней и частичную компенсацию акцепторов.*

Ключевые слова: *p-Si, диффузия Nd, электрофизические свойства, эффект Холла, подвижность, сопротивление.*

Abstract. *This study examines the electrophysical behavior of p-type silicon doped with neodymium. Nd diffusion increases resistivity, decreases mobility, and alters carrier concentration. Hall measurements indicate the formation of deep levels and partial acceptor compensation in the silicon lattice.*

Keywords: *p-type Si, Nd diffusion, electrophysical properties, Hall effect, mobility, resistivity.*

Zamonaviy dunyoda texnologiya va kompyuterlarning jadal rivojlanishi tufayli ilm-fanda yarimo‘tkazgichli materiallarga asoslangan mikro va nanoelektron qurilmalarni takomillashtirishga oid savollar tobora ko‘proq yuzaga kelmoqda. Kremniy – yarimo‘tkazgichli qurilmalar uchun asosiy materiallardan biridir. Yarimo‘tkazgichli qurilmalarni degradatsiyasini kamaytirish maqsadida, materialning mustahkamligi, issiqlikka va radiatsiyaga chidamliligiga katta e’tibor beriladi. Shu sababli, kremniy plastinalarning mexanik mustaxkamligini va issiqlikka chidamliligini oshirish masalasi, bugungi kungacha dolzarb bo‘lib qolmoqda. Yarimo‘tkazgichli asboblarni ishlab chiqarish jarayonida kremniy plastinalari termal (toblash va tez sovitish) va mexanik (namunani kesish) ishlov berishdan o‘tkaziladi [1, 2].

Tadqiqotlarni o‘tkazishda boshlang‘ich namuna sifatida KDB markali p-tipli, solishtirma qarshiligi $\rho \sim 20\ Om \cdot sm$ bo‘lgan monokristall kremniy foydalanildi. Namunalar o‘lchamlari *6x12x0.2 mm* shaklda kesildi. Tayyorlangan namunalarga

mexanik, ya`ni M14 markali karbid kremniy kukuni yordamida har ikki tomonidan 20 mk shlipofka qilindi va kimyoviy ishlov berildi.

Namunalarga kiritiladigan kirishma atomlari sifatida noyob yer elementlari qatoriga kiruvchi, tozaligi 99,99% bo‘lgan neodim (Nd) elementidan foydalanildi. Namunalar yuzasiga Nd kirishma atomlarini o‘tkazish jarayoni VUP-4 qurulmasida, atmosfera bosimi $P=2*10^{-6}$mm.sim.ust. bo‘lgan vakuum sharoitida amalga oshirildi.

Nd kirishma atomlarining diffuziyasi T=1523K haroratda 50 soat davomida, havosi so‘rilgan (vakuum $-1\cdot10^{-6}$ mm.sim.ust.) kvarsli ampulada amalga oshirildi. Diffuziya jarayonidan keyin namunalarni moyda ($\vartheta_{sov} \approx 240\,℃/sek$) tez sovitish usulida sovitildi. p-Si<Nd> namunalarni M10 markali karbid kremniy kukuni yordamida har ikki tomonidan 15 mk shlipofka qilindi. Shlipofka jarayonidan so‘ng namunalarning asosiy elekrofizik kattaliklari Xoll effekti qurilmasi yordamida o‘lchandi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Kattaliklar	Boshlang‘ich namuna (KDB-20)	Nazorat namunasi	Kirishma kiritilgan namuna p-Si<Nd>
ρ (Om·cm)	$2.962*10^{+1}$	$7.268*10^{+1}$	$1.748*10^{+2}$
μ (sm^2 /V·sek)	$1.973*10^{+2}$	$5.202*10^{+2}$	$1.070*10^{+2}$
n (cm^{-3})	$1.068*10^{+15}$	$1.651*10^{+14}$	$3.337*10^{+14}$

Jadvaldan ko‘rinadiki, boshlang‘ich KDB-20 plastinada $\rho \approx 2.962\times10^{1}$ Ω·cm, nazorat namunada esa bu qiymat 7.268×10^{1} Ω·cm gacha oshgan. Nd kiritilgan p-Si<Nd> namunada esa qarshilik keskin kamayib, 1.748×10^{2} Ω·cm qiymatiga ega bo‘lmoqda. Boshlang‘ich namuna uchun $\mu \approx 1.973\times10^{2}$ $sm^2/(V\cdot s)$, nazorat namunada esa 5.202×10^{2} $sm^2/(V\cdot s)$ bo‘lib, ancha yuqori qiymat qayd etilgan. Nd diffuziyasi kiritilgan namunada μ yana kamayib, 1.070×10^{2} $sm^2/(V\cdot s)$ ga tushadi. Jadvalda boshlang‘ich namunada $n \approx 1.068\times10^{15}$ cm^{-3}, nazorat namunada

1.651×10^{14} cm^{-3}, Nd kiritilgan namunada esa 3.337×10^{14} cm^{-3} qiymat qayd etilgan. Nd kiritilgan namunada n ning nazorat holatiga qaraganda ikki baravar oshgani esa Nd ning qisman donor sifatida ham faol bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Nd kiritilgan namunada ρ ning oshishi – kompensatsiya hodisasi, ionlashmagan chuqur energetik sathlar va panjara buzilishlari bilan izohlanadi. Harakatchanlik μ ning kamayishi – teshik-nuqson va teshik-phonon to‘qnashuvlarining kuchayishi bilan bog‘liq. n ning kamayishi Nd atomlarining akseptorlarni kompensatsiya qilishi va ionlashmagan chuqur sathlar sababli yuzaga keladi.Nazorat namunadagi qiymatlar issiqlik bilan ishlov natijasida panjaraning qisman tiklanganini, lekin tashuvchi zichligining pasayganini ko‘rsatadi. Nd kiritilgan p-Si namunasi strukturaviy jihatdan murakkab bo‘lib, yuqori darajada buzilishlar mavjud. Bu esa uning fizik xossalarini boshqa qo‘llanmalarga moslashtirish uchun qo‘shimcha ishlov talab qiladi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. **Зайнабидинов С., Назыров Д. Э., Базарбаев И. И.** Электронная обработка материалов // *Электронная обработка материалов*. – 2006. – № 4. – С. 90–94.

2. **Глазов В. М., Потемкин А. Я., Тимошина Г. Г., Михайлова М. С.** О возможности повышения термостабильности Si путем его легирования переходными либо редкоземельными металлами // *Физика и техника полупроводников*. – 1997. – Т. 31. – № 9. – С. 1025–1030.

3. **Назыров Д. Э., Куликов Г. С., Малкович Р. Ш.** Диффузия эрбия и тулия в кремнии // *Физика и техника полупроводников*. – 1991. – Т. 25. – Вып. 9. – С. 1568–1572.

BIOKIMYOVIY JARAYONLARNING METALLAR BILAN BOSHQARILISHI: KOORDINATSION KIMYO NUQTAI NAZARIDAN TAHLIL

Halimova Hulkar Amin qizi

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada biokimyoviy jarayonlarning metall ionlari orqali boshqarilishi koordinatsion kimyo nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Biotizimlarda uchraydigan metall komplekslarining tuzilishi, ligandlarning tabiati, koordinatsion soni, geometriyasi (fazoviy tuzulishi) va xelat effekti kabi nazariy jihatlar ko'rib chiqiladi. Metall – fermentlar (metallofermentlar)ning katalitik faoliyatidagi Fe, Zn, Cu, Mn, va Co kabi metallar komplekslarining roli ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, metall komplekslarining energetik almashinuvi, oksidlanish –qaytarilish reaksiyalari, elektron transport zanjirlari, genetik jarayonlar va tibbiyotda qo'llanilishidagi ahamiyati muhokama etiladi.*

Аннотация: *В данной статье анализируется регуляция биохимических процессов ионами металлов с точки зрения координационной химии. Рассматриваются теоретические аспекты металлических комплексов, встречающихся в биологических системах, такие как их структура, природа лигандов, координационное число, геометрия (пространственное расположение) и хелатный эффект. Научно обоснована роль металлических комплексов, таких как Fe, Zn, Cu, Mn и Co, в каталитической активности металлических ферментов (металлферментов). Кроме того, обсуждается значение металлокомплексов в переносе энергии, окислительно-восстановительных реакциях, цепях переноса электронов, генетических процессах и их применении в медицине.*

Annotation: *This article analyses the regulation of biochemical processes by metal ions from the perspective of coordination chemistry. The theoretical aspects of metal complexes found in biological systems, such as their structure, the nature of the ligands, coordination number, geometry (spatial arrangement) and chelate effect, are examined. The role of metal complexes such as Fe, Zn, Cu, Mn and Co in the catalytic activity of metal enzymes (metalloenzymes) is scientifically elucidated. Furthermore, the significance of metal complexes in energetic exchanges,*

oxidation–reduction reactions, electron transport chains, genetic processes, and their applications in medicine is discussed.

Kalit so'zlar: *Metall ionlari, koordinatsion birikmalar, metalloproteinlar, metallofermentlar, ligand almashinuvi, xelat effekti, redoks jarayonlari, Fe^{2+}/Fe^{3+} tizimi, Cu^{2+} komplekslari, Zn^{2+} fermentlar, aktiv markaz, elektron tashish zanjiri, porfirin kompleksi, ATF – Mg^{2+} kompleksi, DNK – Pt kompleksi, oksidlanish – qaytarilish reaksiyalari, fotosintez markazi, biologik kataliz, koordinatsion son, ligand geometriyasi.*

Ключевые слова: *Ионы металлов, координационные соединения, металлопротеины, металлоферменты, обмен лигандов, хелатный эффект, окислительно-восстановительные процессы, система Fe^{2+}/Fe^{3+}, комплексы Cu^{2+}, ферменты Zn^{2+}, активный центр, цепь переноса электронов, порфириновый комплекс, комплекс АТФ–Mg^{2+}, комплекс ДНК–Pt, окислительно-восстановительные реакции, фотосинтетический центр, биологический катализ, координационное число, геометрия лиганда.*

Keywords: *Metal ions, coordination compounds, metalloproteins, metalloenzymes, ligand exchange, chelate effect, redox processes, Fe^{2+}/Fe^{3+} system, Cu^{2+} complexes, Zn^{2+} enzymes, active centre, electron transport chain, porphyrin complex, ATP–Mg^{2+} complex, DNA–Pt complex, oxidation–reduction reactions, photosynthetic centre, biological catalysis, coordination number, ligand geometry.*

Tirik organizmlarda kechadigan biokimyoviy jarayonlarning aksariyati metall ionlarining bevosita ishtirokisiz sodir bo'la olmaydi. Metall ionlari oqsillar, fermentlar, vitaminlar, lipidlar hamda nuklein kislotalar bilan koordinatsion bog' hosil qilib, ularning strukturasi, barqarorligi va katalitik faolligini ta'minlaydi. Shuning uchun biokimyoda metallarni o'rganish alohida yo'nalish – bionoorganik kimyo sifatida shakllangan. Bu soha kompleks birikmalar kimyosining

tushunchalari: ligand, koordinatsion son, geometrik tuzilish, barqarorlik konstantasi, xelat effekti kabi tamoyillar asosida rivojlangan.

Ushbu maqolada biokimyoviy jarayonlarning metallar orqali qanday boshqarilishi, metall komplekslarining rolini koordinatsion kimyo nuqtai nazaridan tahlil qilamiz.

Biologik tizimlarda metall ionlarining umumiy roli

Metall ionlari quyidagi jarayolarda boshqaruvchi funksiyani bajaradi:

- Oksidlanish – qaytarilish reaksiyalarini katalizlash
- Gazlarni tashish (O_2, CO_2, NO)
- Elektronlarni tashish zanjirlari
- Energiya ishlab chiqarish (ATF sintezi)
- Genom faoliyatini tartibga solish
- Fermentlarning tuzilishini barqarorlashtirish

Yengil metall ionlari (Mg^{2+}, Ca^{2+}) asosan strukturaviy va stabilizator funksiyani bajarsa, o’tish metallari (d – metallar) masalan, (Fe^{2+}, Fe^{3+}, Cu^{2+}, Zn^{2+}, Mn^{2+}, Co^{2+}) kompleks shaklida katalitik markazlarga aylanadi.

Boshqa muhim o'tish elementlarining kimyoviy xossalari ularning transport xususiyatlarini soddalashtiradi. Rux uchun faqat +2 oksidlanish darajasi mavjud va bu ionning gidrolizi uning eruvchanligi yoki tashishining cheklovchi xususiyati emas. Rux hayvonlar va o'simliklar uchun muhim elementdir. Umuman olganda, metall ionlarining o'simliklar ildizlariga singishi juda murakkab hodisadir. Ildizning kesma diagrammasi 1-rasmda ko'rsatilgan. Metall ionlarining ildizlarga harakatlanishida tuproq eritmasining diffuziyasi ham, massa oqimi ham muhim ahamiyatga ega. pH ga bog'liq bo'lgan xelatlanish va sirt adsorbsiyasi ham ozuqaviy metall ionlarining mavjudligiga ta'sir qiladi. Umuman olganda, kislotali tuproq sharoitlari muhim ikki valentli metall ionlarining so'rilishini sekinlashtiradi, ammo marganets, temir va alyuminiyning mavjudligini oshiradi (ba'zan toksik natijalar bilan), ularning barchasi odatda uch valentli ionlarning gidrolizi tufayli juda

cheklangan mavjudlikka ega.



1 – rasm. Tipik ildizning ko’ndalang kesimi.

Vanadiy ko'pincha fosfatga o’xshab vanadat sifatida qabul qilinadi. Biroq, uning organizmlar ichidagi oksidlanish darajasi juda o'zgaruvchan ko'rinadi. Vanadiyning g'ayrioddiy yuqori konsentratsiyasi ma'lum aksidianlarda uchraydi. Amanita muscaria qo'ziqorinidan ajratilgan vanadiy o'z ichiga olgan materialda butunlay boshqacha kimyoviy muhit mavjud (2 – rasm).

Temirning katta qismi gemoglobin, plazma kislorod tashuvchi oqsil sifatida mavjud bo'lib, bu yerda temirning vazifasi nafas olish uchun kislorod yetkazib berishdir. Temirning ancha kam miqdori mushaklarda kislorod saqlovchi oqsil bo'lgan miyoglobinda mavjud. Tashish uchun bu temir o'z ichiga olgan oqsillarning eng muhimi transferrin bo'lib, u temirni tanadagi saqlash joylaridan temir oqsillarini sintez qiluvchi hujayralar joylashgan joylarga o'tkazadigan plazma temir tashuvchi oqsildir; umurtqali hayvonlarda temirning asosiy iste'molchilari qizil qon tanachalaridir. (3 – rasm.)

2–rasm. Amania muscaria nomli qo'ziqorin tarkibidan olingan vanadiyli kompleks birikmaning struktura formulasi.



3 – rasm. Sitoxrom oqsili tarkibidagi Fe saqlagan kompleks birikmaning struktura formulasi.

Temirning kompleks birikmalari: Temir tirik organizmdagi eng muhim metall bo'lib, odatda Fe^{2+} va Fe^{3+} holatlarida koordinatsion komplekslar hosil qiladi. Temirning ba'zi kompleks birikmalari haqida qisqacha:

- Gem kompleksi (Fe – porfirin)

Gem – temirning porfirin deb ataluvchi tetradentat ligand bilan hosil qilgan barqaror kompleksi. Bu kompleks qonda kislorod tashish uchun javobgardir.

Kislorod bilan bog'lanish reaksiyasi: $Hb – Fe^{2+} + O_2 \leftrightarrow Hb – Fe^{2+} – O_2$

- Sitoxromlar ($Fe^{2+} \leftrightarrow Fe^{3+}$ o'tishi)

Sitoxromlarda temir redoks markaz vazifasini bajaradi: $Fe^{2+} + e^- \square Fe^{3+}$

Uning organizmda bir qancha vazifalari mavjud: elektron tashish, ATF sintezi, nafas olish zanjiridir.

➢ Ferritin va Transferrin komplekslari

Ferritin Fe^{3+} ionlari 24 oqsil subbirligidan iborat kapsulaga joylashadi va vaqtinchalik zahira shakli. Transferrin Fe^{3+} ionlarini tashish uchun xizmat qiladi. Temirning biologik funksiyalari: Gemoglobin orqali kislorod tashish, sitoxromlar orqali electron tashish, katalaza, peroksidaza kabi fermentlarda peroksidlarni parchalanishi va DNK sintezi uchun zarur bo'lgan ribonukleotid reduktaza faoliyatidir.

Misning kompleks birikmalari: Mis ionlari tirik organizmda Cu+ va Cu^{2+} holatlarida koordinatsion markaz sifatida ishlaydi. Misning ba'zi kompleks birikmalari haqida qisqacha:

○ Kupreinlar (Cu – proteinlar)

Sitoxrom c – oksidazada aktiv markaz sifatida Cu va Fe atomlari joylashgan va ular biyadroli markaz deyiladi. Bu markaz sitoxrom C dan olingan elektronlarni kislorodga o'tkazish jarayonida ishtirok etadi. Uning vazifasi oksidlanish – qaytarilish orqali ATF hosil bo'lishini ta'minlashdir.

○ Seruloplazmin (Cu^{2+} kompleksi)

Qondagi misning 95% miqdori aynan shu oqsilga bog'lanadi. Temirning Fe^{2+} □ Fe^{3+} oksidlanishini katalizlaydi. Bu kompleks birikmaning ahamiyati shuki, u temirning transferringa bog'lanishi uchun zarur.

Kobaltning kompleks birikmalari: Kobalt tirik organizmlarda asosan B_{12} vitaminini (kobalamin) tarkibida uchraydi. Kobalamin tarkibida Co atomi markazda joylashgan, ular korrin halqasining markazida azot atomlari bilan to'rtta koordinatsion bog' hosil qiladi. Co atomi tashqi tomondan dimetilbenzimidazol nukleotidiga ham bog'langan, bu esa vitaminning tuzilishini barqarorlashtiradi.

Kobaltning organizm uchun ahamiyati:

1. Qon hosil bo'lish (gemopoez)



2. DNK sintezi
3. Metionin hosil bo’lishi
4. Nerv tizimi faoliyati
5. Yog’ kislotalari almashinuvi

4 – rasm. B_{12} (kobalamin)ning struktura tuzilishi.

Marganetsning kompleks birikmalari: Marganets organizmda odatda Mn^{2+} holatida uchrab, ko’plab fermentlar uchun metall kofaktor vazifasini bajaradi. Marganets ham oksidlanish – qaytarilish jarayonlarida ishtirok etadi. Uning bir qancha kompleks birikmalari mavjud: Fotosintez markazidagi Mn_4CaO_5 kompleksi, mitoxondriyadagi asosiy antioksidant ferment bo’lmish, marganets superoksid – dismutaza (Mn – SOD). Bu ferment ta’sirida Mn^{2+} va Mn^{3+} o’zaro almashinib, erkin radikallarni tozalaydi. Marganetsning biologik vazifalari quyidagilar: oqsil glikozillanishi, moy kislotalari sintezi, antioksidant himoyadan iborat.

Xulosa: Biologik jarayonlarning deyarli barchasi metall ionlari orqali boshqariladi. Temir, rux, mis, marganets, xrom va kobalt kabi metall ionlarining koordinatsion komplekslari fermentlar faoliyatini, elektron transportini, kislorod tashishni, metabolizmni, genetik jarayonlarni va hujayra signalizatsiyasini ta’minlaydi. Koordinatsion kimyo tamoyillari – geometriya, xelat effekti, ligand almashinuvi va oksidlanish holati – biologik funksiyalarning molekulyar mexanizmlarini tushuntirishda asosiy vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Cotton F. A., Wilkinson G. *Advanced Inorganic Chemistry*. – 6th ed. – New York: Wiley, 1999. – 1424 p.

2. Lippard S. J., Berg J. M. *Principles of Bioinorganic Chemistry*. – Sausalito: University Science Books, 1994. – 256 p.
3. Bertini I., Gray H. B., Stiefel E. I., Valentine J. S. *Biological Inorganic Chemistry: Structure and Reactivity*. – Sausalito: University Science Books, 2007. – 739 p.
4. Housecroft C. E., Sharpe A. G. *Inorganic Chemistry*. – 4th ed. – Harlow: Pearson, 2012. – 1288 p.
5. Berg J. M., Tymoczko J. L., Stryer L. *Biochemistry*. – 8th ed. – New York: W. H. Freeman, 2015. – 1050 p.
6. Lehninger A. L., Nelson D. L., Cox M. M. *Principles of Biochemistry*. – 7th ed. – New York: W. H. Freeman, 2017. – 1248 p.
7. Gray H. B., Winkler J. R. Electron transfer in proteins // *Annual Review of Biochemistry*. – 1996. – Vol. 65. – P. 537–561.
8. Vallee B. L., Auld D. S. Zinc coordination, function, and structure of zinc enzymes and other proteins // *Biochemistry*. – 1990. – Vol. 29, № 24. – P. 5647–5659.
9. Кузнецова Н. Ф., Лосев Б. П. *Биоорганическая и бионеорганическая химия*. – М.: Академия, 2017. – 352 с.
10. Добрин А. С. *Координационная химия металлов в биологических системах*. – СПб.: Лань, 2012. – 288 с.
11. Жарков А. В. *Общая и неорганическая химия*. – М.: Высшая школа, 2011. – 516 с.
12. Xolmatov X., Xalikov J. *Umumiy va bioorganik kimyo*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2019. – 412 b.
13. To‘raev Sh. P. *Biokimyo*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2018. – 380 b.

AKTIV, REAKTIV VA TO‘LA QUVVAT

D. Egamov

Andijon davlat texnika instituti

Turaboyev Islombek

Andijon davlat texnika instituti

Annotatsiya: *Ushbu ishda elektr energetikasidagi aktiv quvvat tushunchasi, uning fizik mohiyati va hisoblash tamoyillari yoritiladi. Aktiv quvvat elektr tizimida bajariladigan foydali ishning miqdori bo‘lib, u sinusoidal jarayonlarda kuchlanish, tok va fazalar orasidagi burchak orqali aniqlanishi ko‘rsatiladi. Bir fazali va uch fazali zanjirlar uchun aktiv quvvat formulalari, cosφ kattaligining energetik samaradorlikdagi o‘rni hamda elektr energiyasining ishlab chiqarish va iste’mol jarayonlari o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, elektr energiyasini saqlab bo‘lmasligi va real vaqt rejimida ishlab chiqarish–iste’mol qilish tamoyili asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *Aktiv quvvat, elektr energiyasi, $P = U \cdot I \cdot \cos\varphi$, sinusoidal jarayon, faza burchagi, uch fazali zanjir, elektr tizimi, iste’mol, samaradorlik, energiya oqimi.*

Аннотация: *В данной работе рассматривается понятие активной мощности в электрической энергетике, её физическая сущность и принципы расчёта. Активная мощность представляет собой количество полезной работы, выполняемой в электрической системе, и определяется в синусоидальных процессах через напряжение, ток и фазовый угол между ними. Анализируются формулы активной мощности для однофазных и трёхфазных цепей, роль cosφ в энергетической эффективности, а также взаимосвязь процессов производства и потребления электроэнергии. Кроме того, подчеркивается невозможность хранения электрической энергии и принцип её генерации и потребления в реальном времени.*

Ключевые слова: *Активная мощность, электрическая энергия, P = U·I·cosφ, синусоидальный процесс, фазовый угол, трехфазная цепь, электрическая система, потребление, эффективность, поток энергии.*

Annotation: *This work highlights the concept of active power in electrical energy, its physical essence, and calculation principles. Active power represents the amount of useful work performed in an electrical system and is determined in sinusoidal processes through the voltage, current, and the phase angle between them. Formulas for active power in single-phase and three-phase circuits, the role of cosφ in energy efficiency, and the interrelation between electricity generation and consumption processes are analyzed. Furthermore, the non-storability of electrical energy and the principle of real-time generation–consumption are emphasized.*

Keywords: *Active power, electrical energy, P = U·I·cosφ, sinusoidal process, phase angle, three-phase circuit, electrical system, consumption, efficiency, energy flow.*

Kirish: Elektr energetikasida aktiv quvvat «mahsulot» bo‘lib hisoblanadi. Biz aktiv quvvatdan foydalanamiz, uni sotamiz, uni ishlab chiqamiz, uni masofaga uzatamiz.

Ta’rif: Elektr zanjiridagi tebranuvchan jarayonlarda *P* aktiv quvvat deb, to‘liq tebranish davridagi quvvatning o‘rtacha qiymatiga aytiladi:

$$P = \frac{1}{T}\int_0^T p\,dt = 1/T \cdot \int_0^T U \cdot i\,dt \qquad (1)$$

Bu yerda: $P = U \cdot i$ oniy quvvat.

Agarda zanjirning *U* va *I* kattaliklari vaqtning sinusoidal funksiyalari ekanini hisobga olinsa:

$$U = U_m \cdot \sin\,\omega t; \qquad i = I_m \cdot \sin(\omega t - \varphi) \qquad (2)$$

U holda, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$P = \frac{U_m \cdot I_m}{\sqrt{2} \cdot \sqrt{2}} \cdot T \int_0^T 2 \cdot \sin \cdot \omega t \cdot \sin(\omega t - \varphi) dt = \frac{UI}{T} \cdot \int_0^T [\cos \varphi \cdot \cos(2\omega t - \varphi)] dt \qquad (3)$$

Quyidagini hisobga olib:

$$\int_0^T \cos(2\omega t - \varphi)\, dt = 0 \qquad (4)$$

Sinusoidal jarayonlardagi aktiv quvvatni topish ifodasiga ega bo‘lamiz:

$$P = U \cdot I \cdot \cos \varphi \qquad (5)$$

(3.8.5) Tenglik bir fazali zanjir uchundir. Uch fazali zanjir uchun:

$$P = \sqrt{3} \cdot U \cdot I \cdot \cos \varphi \qquad (6)$$

Aktiv quvvatning qiymati va uning iste’mol qilish shakli **cosφ** ko‘paytuvchisining qiymatiga bog‘liq. Bu haqida batafsilroq keyingi ma’ruzalarda to‘xtaladi. **cosφ** qanchalik katta bo‘lsa, iste’molchiga yetkazilayotgan elektr energiyasining bajarayotgan foydali ish hajmi ham shunchalik katta bo‘ladi. armoqdagi isroflarni bartaraf etib bo‘lmaydi. Elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste’mol qilishning yana bir xususiyati shundan iboratki, uni saqlab bo‘lmaydi. Shu sababli quyidagi tezis o‘rinlidir: **elektr energiyasini ishlab chiqarmasdan iste’mol qilib bo‘lmaydi va aksincha — iste’mol qilmasdan ishlab chiqarib bo‘lmaydi.** Ko‘rsatilgan jarayonlar vaqt bo‘yicha bir vaqtning o‘zida sodir etiladi. (Elektromagnit to‘lqinlarning tarqalish tezligi yorug‘lik tezligiga teng va **c = 3·10⁸ m/sek** ni tashkil etadi).

Iste’molchilarda doimo aktiv quvvatning vattlarda, kilovattlarda o‘lchanadigan qiymati ko‘rsatiladi.

2. Reaktiv quvvat va uni to‘ldirish.

Amaliyotda ko‘rib chiqish uchun reaktiv quvvat deb ataluvchi $Q=UI\cdot sin\varphi$ (uch fazali zanjir uchun: $Q = \sqrt{3} \cdot UI\cdot sin\varphi$) kattalik ham kiritiladi. Reaktiv quvvat tushunchasini kiritishning ishlab chiqarishdagi zarurati nimada?

Amaliyotda qo‘llaniladigan energiya hisoblagichlar (schyotchik) ko‘rsatadigan energiya miqdori muayyan vaqt oralig‘ida iste’molchiga yetkazib berilgan energiya miqdorini anglatadi. Ushbu energiyani quyidagi shaklda yozish mumkin:

$$\int_0^{\tau} Pdt = \int_0^{\tau} U \cdot I \cdot \cos\varphi \cdot dt \qquad (7)$$

Bu holatda **P** ning sezilarli o‘zgarishi faqatgina ko‘p sondagi **T** davrlar ichida va tabiiyki, ning kattaligi **T** ga nisbatan ko‘plab marta katta bo‘lganidagina sodir etilishi mumkinligi ko‘rinadi. Ammo bu turdagi hisoblagich (schyotchikning) ko‘rsatishiga qarab, energiya iste’molchisi **cosφ** ning qaysi qiymatida ishlayotganligini aniqlab bo‘lmaydi.

Bu maqsad uchun iste’molchining ulanish nuqtalariga qo‘shimcha ravishda, reaktiv quvvat integralining o‘sha vaqt oralig‘idagi qiymatini ko‘rsatib beruvchi hisoblagich (schyotchik) ni ham o‘rnatishga to‘g‘ri keladi.

$$\int_0^{\tau} Qdt = \int_0^{\tau} U \cdot I \cdot \sin\varphi \cdot dt \qquad (8)$$

Yuqorida bayon etilganidan ko‘rinib turibdiki, reaktiv energiyani hisoblagichning ko‘rsatishlari qanchalik katta bo‘lsa (oddiy hisoblagich ko‘rsatishlariga nisbatan taqqoslanganda), iste’molchi o‘rtacha **cosφ** qiymati ham ko‘rib chiqilayotgan vaqt oralig‘i uchun shunchalik kichik bo‘ladi.

Aktiv quvvat kattaligini oddiy wattmetr yordamida o‘lchash mumkin, reaktiv quvvat kattaligini esa – faqatgina shu maqsad uchun maxsus ishlab chiqilgan elektr o‘lchov asbobi yordamida aniqlash mumkin. **P** va **Q** ni bila turib, **sinφ** va **cosφ**larni har bir energiya iste’molchisi uchun (o‘lchash paytidagi kattaliklarini) aniqlash mumkin.

2. To‘la quvvat.

$S = U \cdot I$ Kattalik to‘la quvvat deb ataladi. Bu faqatgina cosφ = 1 bo‘lgan sharoitdagina o‘rinli bo‘ladi, yoki boshqacha aytganda eng katta aktiv quvvat maksimal qiymatga erishilgan paytda quyida to‘liq quvvatni aniqlash formulalari keltirilgan:

$$S = U \cdot I = I^2 \quad Z = U^2 \cdot Y \tag{9}$$

$$S = \sqrt{P^2 + Q^2} \tag{10}$$

$$S = P/\cos\varphi = Q/\sin\varphi \tag{11}$$

Bu yerda **Z – to‘liq qarshilik, U – to‘liq o‘tkazuvchanlik.**

Uch fazali zanjirni hisoblashda formulalarning o‘ng tomoni oldiga qo‘yiladi. Ushbu koeffitsient to‘g‘risida ETNA ning “Ko‘p fazali zanjirlar” qismida batafsil to‘xtaladi.

Odatda amaliyotda faqatgina transformatorlar uchungina to‘liq quvvat ko‘rsatiladi. Boshqa iste’molchilar uchun esa aktiv quvvat ko‘rsatiladi. Kuch transformatori o‘zgartiruvchi bo‘lib, uning mis va po‘lat qismlarida isroflar bo‘lishi tabiiy hol. Kuch transformatori uchun 70% va undan yuqori yuklanishlar eng maqbul (optimal) hisoblanadi. Zamonaviy elektr energetikasida 1 kVt iste’mol qilinadigan quvvat deyarli 7–8 kVt quvvatdan transformatsiyalanadi (yoki ko‘p martalik kuchaytiruvchi va pasaytiruvchi transformatorlar orqali o‘tadi). Bunda transformator orqali shuningdek, elektr tarmog‘ida hosil bo‘luvchi reaktiv quvvatlar (transformatorlarning induktiv chulg‘amlarining o‘zlarida, elektr uzatish liniyalarida va hokazo) ham transformatsiyalanadi. Shu sababli transformatorlarning to‘liq **S** quvvati (3.8.10) formula bilan aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Идельчик В.И.** Электрические системы и сети. - М. Энергоатомиздат, 1989, 592 с.

2. Электрические системы. Электрические сети: Учебное пособие для вузов/Под ред. А.В.Веникова и В.А.Строева. – М.: Высшая школа. 1998. – 512 с.

3. **Блок В.М.** Электрические сети и системы. - М.: Высшая школа, 1986, 430 с.

4. **Ғойибов Т.Ш.** Электр тармоқлари ва тизимлари. Мисол ва масалалар тўплами. Ғ Тошкент.: ТошДТУ, 2006.

5. **Электрические сети и системы**/ Под ред. Г.И.Денисенко. - Киев, Вища школа, 1986. – 452 с.

6. **Фазылов Х.Ф., Насыров Т.Х.** Установившиеся режимы электроэнергетических систем и их оптимизация. – Т.: Молия, 1999.

O‘SIMLIK MOYLARI VA YOG‘ KISLOTALARI ASOSIDAGI SIRT-FAOL MODDALAR KORROZIYA INGIBITORLARI SIFATIDA

Salixanova Dilnoza,

O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti

Muratov Mirtoxir,

O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti

Aliyeva Leylufer

Academician Y.H. Mammadaliyev Institute of Petrochemical Processes of the Ministry of Science and Education of the Republic of Azerbaijan

Annotatsiya. *Ushbu ishda metall korroziyasi muammosi, uning jahon iqtisodiyotiga yetkazayotgan zarari hamda korroziyaga qarshi kurashda qo‘llanilayotgan zamonaviy yashil ingibitorlarga oid ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Ayniqsa, o‘simlik moylari va ularning yog‘ kislotalari asosida sintez qilingan sirt-faol moddalarning po‘lat va temirning agressiv muhitlardagi korroziyasini bostirish mexanizmlari, samaradorligi va afzalliklari yoritib berilgan. Ushbu birikmalarning ekologik xavfsizligi, biologik parchalanishi va qayta tiklanuvchi xomashyo asosida olinishi ularning istiqbolli “yashil ingibitorlar” sifatidagi ahamiyatini oshirmoqda. Shu bilan birga, real sanoat sharoitlarida uzoq muddatli barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik va adsorbsion mexanizmlarni chuqurroq o‘rganish zarurligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar*: korroziya, yashil ingibitorlar, sirt-faol moddalar, adsorbsiya, po‘lat, temir.*

Аннотация. *В данном обзоре рассмотрена проблема коррозии металлов, её экономический ущерб для мировой промышленности, а также современные научные исследования, посвящённые применению экологически безопасных («зелёных») ингибиторов коррозии. Особое внимание уделено поверхностно-активным веществам, синтезированным на основе растительных масел и жирных кислот, их механизму ингибирующего действия, эффективности и преимуществам при защите стали и железа в агрессивных средах. Экологическая безопасность, биоразлагаемость и получение из возобновляемого сырья повышают перспективность данных соединений как альтернативы традиционным синтетическим ингибиторам. Вместе с тем обоснована необходимость более глубокого изучения их долгосрочной стабильности, экономической эффективности и адсорбционных механизмов в реальных промышленных условиях.*

***Ключевые слова**: коррозия, зелёные ингибиторы, поверхностно-активные вещества, адсорбция, сталь, железо.*

***Abstract.** This work addresses the problem of metal corrosion, its significant economic impact on global industry, and recent scientific studies focused on environmentally friendly ("green") corrosion inhibitors. Particular attention is paid to surfactants synthesized from vegetable oils and fatty acids, including their inhibition mechanisms, efficiency, and advantages in protecting steel and iron in aggressive environments. The environmental safety, biodegradability, and renewable origin of these compounds enhance their potential as sustainable alternatives to conventional synthetic inhibitors. At the same time, the necessity for further investigations into their long-term stability, economic feasibility, and adsorption mechanisms under real industrial conditions is substantiated.*

***Keywords**: corrosion, green inhibitors, vegetable oils, fatty acids, surfactants, adsorption, steel, iron, environmentally friendly inhibitors.*

Kirish

Bugungi kunda metall korroziyasi sanoat, energetika, neft-gaz, kimyo, transport va qurilish sohalarida eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Xalqaro statistik ma'lumotlarga ko‘ra, korroziya sababli dunyo iqtisodiyotiga yetkazilayotgan yillik zarar yalpi ichki mahsulotning 3–4 % ini tashkil etadi, bu esa trillionlab dollar miqdoridagi moddiy yo‘qotishlarga tengdir [1]. Ayniqsa, po‘lat va temir kabi keng qo‘llaniladigan materiallar agressiv muhitlarda (kislotalar, tuz eritmalari, namlik, yuqori harorat va boshqalar) tez yemirilishga uchraydi.

Korroziyaga qarshi kurashishning samarali usullaridan biri kimyoviy ingibitorlardan foydalanish hisoblanadi. Biroq an'anaviy sintetik ingibitorlarning ko‘pchiligi yuqori toksiklik, atrof-muhitga salbiy ta'sir, biologik parchalanmaslik va yuqori tannarx kabi jiddiy kamchiliklarga ega [2]. Shu sababli so‘nggi yillarda ekologik xavfsiz, biologik parchalanadigan va qayta tiklanuvchi xomashyo asosida olinadigan "yashil ingibitorlar"ga bo‘lgan ilmiy qiziqish keskin ortib bormoqda.

Asosiy qism

Mazkur yo‘nalishda ayniqsa o‘simlik moylari va ularning yog‘ kislotalari asosida sintez qilingan sirt-faol moddalar alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. O‘simlik moylari qayta tiklanuvchi xomashyo bo‘lib, ularning tarkibida to‘yinmagan yog‘ kislotalari, efirlar, gidroksil va karbonil guruhlariga ega birikmalar mavjud. Ushbu funksional guruhlar metall sirtiga kuchli adsorbsiyalanish xususiyatiga ega bo‘lib, korrozion muhitdan himoya qiluvchi barqaror plyonka hosil qiladi [3].



1-rasm. Sirt faol modda molekullarining metal sirtida antikorrozion qatlam hosil qilishi mexanizmi.

Hozirgi kunga qadar soya, palma, kungaboqar, zig‘ir, paxta chigiti, avokado, mango urug‘i, Nigella sativa kabi o‘simlik moylari negizida olingan yog‘ kislotalari amidlar, sulfatlangan va gemini sirt-faol moddalar po‘lat va temirning kislota va tuz muhitlaridagi korroziyasini samarali olishi ilmiy jihatdan isbotlangan [4-6]. Ayrim hollarda ingibirlash samaradorligi 95–99,9 % gacha yetgani aniqlangan. Ushbu moddalarning asosiy ta’sir mexanizmi adsorbsiyaga asoslangan bo‘lib, ular anod va katod reaksiyalarini bir vaqtning o‘zida sekinlashtiruvchi aralash turdagi ingibitorlar hisoblanadi.

Bundan tashqari, o‘simlik moylari asosidagi ingibitorlarning ekologik xavfsizligi, biologik parchalanishi, zaharsizligi, arzonligi hamda chiqindi moylardan

qayta foydalanish imkoniyati ularning sanoat miqyosida qo‘llanilish istiqbollarini yanada kengaytirmoqda [7]. Shunga qaramay, ushbu yo‘nalish hali to‘liq mukammal shakllanmagan bo‘lib, bir qator muhim ilmiy-amaliy masalalar yechimini kutmoqda.

Xususan, mavjud tadqiqotlarning aksariyati laboratoriya sharoitida, statik muhitda olib borilgan bo‘lib, real sanoat sharoitlaridagi dinamik oqim, yuqori bosim va haroratda ushbu ingibitorlarning uzoq muddatli barqarorligi yetarli darajada o‘rganilmagan. Shuningdek, modifikatsiyalangan (sulfatlash, amidlanish, gemini tuzilma) va modifikatsiyalanmagan o‘simlik moylarining iqtisodiy samaradorligini solishtirish, uzoq muddatli himoya mexanizmini chuqur tahlil qilish, ularning korroziya mahsulotlari bilan o‘zaro ta’siri hanuz dolzarb ilmiy masala bo‘lib qolmoqda.

Shu sababli o‘simlik moylari va yog‘ kislotalari asosidagi sirt-faol moddalarni korroziya ingibitorlari sifatida chuqur, tizimli va kompleks o‘rganish bugungi kunda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalish “yashil kimyo” tamoyillari asosida ekologik xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali korroziyaga qarshi materiallar yaratish uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Koch, G. H., Varney, J., Thompson, N., Moghissi, O., Gould, M., & Payer, J.** (2016). *International measures of prevention, application, and economics of corrosion technologies study*. NACE International.
2. **Schmitt, G., Schütze, M., Hays, G. F., Burns, W., Han, E.-H., Pourbaix, A., & Jacobson, G.** (2009). *Global needs for knowledge dissemination, research, and development in materials deterioration and corrosion control*. World Corrosion Organization White Paper.
3. **Obot, I. B., & Ebenso, E. E.** (2011). Eco-friendly corrosion inhibitors: Adsorption and inhibitive action of ethanol extracts of *Chromolaena odorata* L. for the corrosion of mild steel in acidic media. *International Journal of Electrochemical Science*, **6**, 4399–4415.

4. **El-Etre, A. Y.** (2006). Natural honey as corrosion inhibitor for metals and alloys. I. Copper in neutral aqueous solution. *Corrosion Science*, **48**(2), 369–374.
https://doi.org/10.1016/j.corsci.2005.01.002
5. **Zhong, X., He, Z., & Hu, J.** (2017). Vegetable oil-based surfactants and their applications in corrosion inhibition. *Green Chemistry Letters and Reviews*, **10**(4), 456–469.
https://doi.org/10.1080/17518253.2017.1386646
6. **Verma, C., Ebenso, E. E., & Quraishi, M. A.** (2017). Recent advances in sustainable corrosion inhibitors: A review. *Journal of Molecular Liquids*, **233**, 403–414.
https://doi.org/10.1016/j.molliq.2017.03.013
7. **Verma, C., Olasunkanmi, L. O., Ebenso, E. E., & Quraishi, M. A.** (2018). Substituent effect on corrosion inhibition performance of organic compounds in aggressive acidic media: A review. *Journal of Molecular Liquids*, **251**, 100–118.
https://doi.org/10.1016/j.molliq.2017.12.051

PEROVSKITLI QUYOSH ELEMENTLARI: STRUKTURA, MATERIALLAR VA INNOVATSIYALAR

Majidova Maxliyo A'zam qizi
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada perovskitli quyosh elementlarining (PQE) fizik-kimyoviy xususiyatlari, band tuzilmasi, aralash kompozitsiyalarning (FA–MA–Cs) energetik moslashuvi, interfeys muhandisligi va yangi avlod HTL/ETL qatlamlari asosidagi innovatsion yondashuvlar tahlil qilindi. So'nggi tadqiqotlar PQElarning quvvatni aylantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy*

omillar—ion migratsiyasini kamaytirish, sirt passivatsiyasi, aralash galogenli perovskitlar sintezi va tandem strukturalar yaratishni yoritadi. Barqarorlik sinovlari, yuqori harorat va namlik sharoitida buzilish mexanizmlari, shuningdek metall elektrodlar bilan o‘zaro ta’sir jarayonlari ham ko‘rib chiqildi. Yordamchi qatlamlarning energetik darajalari PQE samaradorligiga ta’siri ilmiy manbalar asosida ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: *Perovskit, quyosh elementi, tandem PV, HTL/ETL, interfeys passivatsiyasi, barqarorlik, ion migratsiyasi*

Аннотация: *В данной научной статье проанализированы физико-химические свойства перовскитных солнечных элементов (PQE), их энергетическая структура, энергетическая согласованность смешанных композиций (FA–MA–Cs), инженерия интерфейсов и инновационные подходы на основе новых HTL/ETL слоев. Рассмотрены основные факторы, повышающие эффективность преобразования энергии PQE: снижение миграции ионов, пассивация поверхности, синтез смешанных галогеновых перовскитов и создание тандемных структур. Проведены испытания стабильности согласно протоколам ISOS, изучены механизмы деградации при высокой температуре и влажности, а также взаимодействие с металлическими электродами. Влияние энергетических уровней вспомогательных слоев на эффективность PQE показано на основе научных источников.*

Ключевые слова: *Перовскит, солнечный элемент, тандемные фотоэлементы, HTL/ETL, пассивация интерфейса, стабильность, миграция ионов*

Abstract: *This scientific article analyzes the physicochemical properties of perovskite solar cells (PQEs), their band structure, energetic alignment of mixed compositions (FA–MA–Cs), interface engineering, and innovative approaches based on next-generation HTL/ETL layers. Key factors enhancing PQE power conversion efficiency—reduction of ion migration, surface passivation, synthesis of*

mixed halide perovskites, and creation of tandem structures—are discussed. Stability tests under ISOS protocols, degradation mechanisms at high temperature and humidity, and interactions with metal electrodes are also presented. The impact of auxiliary layer energy levels on PQE efficiency is demonstrated based on recent scientific sources.

Keywords: *Perovskite, solar cell, tandem PV, HTL/ETL, interface passivation, stability, ion migration*

Perovskitli quyosh elementlari (PQElar) zamonaviy fotovoltaika texnologiyalarining eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ularning jadal rivojlanishi asosan past haroratlarda sintezlanadigan perovskit materiallarning noyob fizik va kimyoviy xususiyatlari, shuningdek, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi bilan bog‘liq. Dastlab 2009-yilda 3,8 % samaradorlikka ega bo‘lgan birinchi PQElar taqdim etilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib laboratoriya sharoitida 26,1% quvvatni aylantirish samaradorligiga (PCE) erishildi [1, P.178–181]. Bu ko‘rsatkich kam vaqt ichida katta tezlikda o‘sishga erishganini tasdiqlaydi.

Perovskitlarning asosiy afzalliklari ularning fizik-kimyoviy tabiatidan kelib chiqadi. Xususan, **keng optik yutilish spektri, baland yutilish koeffitsienti ($\alpha \approx 10^5$ cm^{-1}), elektron va teshiklarning uzun diffuziya masofasi,** shuningdek, **kristall panjaradagi nuqsonlarga yuqori tolerantlik** ularga o‘ziga xos ustunlik beradi. Mazkur xususiyatlar natijasida ingichka qatlamli PQElarda ham yuqori fototok generatsiyasi kuzatiladi. Aralash organo-noorganik perovskitlar (FA–MA–Cs) tarkibidagi kationlarning nisbati o‘zgartirilishi band tuzilmasining moslashuvini ta’minlab, energiya darajalari orasidagi nomutanosiblikni kamaytiradi, bu esa ochiq zanjir kuchlanishi (VOC) va to‘liq samaradorlikni oshiradi.

PQElarning umumiy samaradorligi ko‘p jihatdan **HTL (teshik tashuvchi qatlam)** va **ETL (elektron tashuvchi qatlam)** materiallarining energetik moslashuviga bog‘liq. Qatlamlar o‘rtasidagi energiya bar’yerlarining optimallashtirilishi tashuvchi zarralarning rekombinatsiyasini kamaytiradi, natijada VOC, to‘liq to‘ldirish koeffitsienti (FF) hamda qisqa tutashuv toki zichligi (JSC)

sezilarli oshadi. So‘nggi tadqiqotlar HTL sifatida dopingsiz NiOx, CuSCN, PTAA asosidagi tizimlar; ETL sifatida esa SnO_2, TiO_2 va ZnO modifikatsiyalangan strukturalarning samaradorlikni oshirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatmoqda.

Barqarorlik PQElarda dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. ISOS standartlariga asoslangan uzoq muddatli sinovlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori harorat (≥ 85 °C) va yuqori namlik (≥ 65 % RH) sharoitida perovskit strukturalari ion migratsiyasi, faza ajralishi va sirt degradatsiyasiga moyil bo‘ladi. Shuningdek, metall elektrodlar (Ag, Au, Cu) bilan o‘zaro kimyoviy ta’sir natijasida galogenid ionlarining diffuziyasi kuzatilib, bu elektrodlarning korroziyaga uchrashi va VOC ning pasayishiga olib keladi. Shu sababli, sirt passivatsiyasi, interfeys bar’yerlarini optimallashtirish va barqaror tampon qatlamlar qo‘llash hozirgi ilmiy izlanishlarning asosiy yo‘nalishiga aylangan.

Perovskitli quyosh elementlari so‘nggi o‘n yillikda fotovoltaika texnologiyalarining eng tez sur’atlarda rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bu materiallarning keng ommalashishiga ularning o‘ziga xos fizik-kimyoviy xususiyatlari — **yuqori optik yutilish koeffitsiyenti ($\alpha \approx 10^5$ cm^{-1}), past eksiton bog‘lanish energiyasi (≈ 20–50 meV), yuk tashuvchilarning yuqori harakatchanligi** hamda **ingichka qatlamlarda ham samarali yorug‘lik yutilishi** kabi omillar sabab bo‘lmoqda. Mazkur xususiyatlar perovskitlarni an’anaviy kremniy texnologiyalariga nisbatan arzon, moslashuvchan va yuqori samarali muqobil sifatida ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, perovskit strukturasining kristall panjarasini optimallashtirish, donachalararo chegaralarni passivatsiya qilish, energetik moslashuvni takomillashtirish va ionlarning ichki migratsiyasini cheklash hozirgi ilmiy tadqiqotlarda ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda [2, P.59–60]. Xususan, A-kationlar (FA^+, MA^+, Cs^+), B-kationlar (Pb^{2+}, Sn^{2+}) va galogen anionlarning (I^-, Br^-, Cl^-) optimal nisbatda tanlanishi perovskit qatlamining fazaviy barqarorligini mustahkamlaydi, bo‘linish energiyasini kamaytiradi hamda uzluksiz

fotoinduksiyalangan ishlash davomida materialning izchil funksionalligini ta’minlaydi.

Tabiatda keng uchraydigan va molekulyar tuzilishining moslashuvchanligi bilan ajralib turuvchi organik–noorganik gibrid perovskitlar yangi avlod quyosh elementlari sifatida katta istiqbolga ega. Ularning keng diapazondagi optik–elektrik xususiyatlari, turli substratlarga mos sintez imkoni va arzon xomashyo bazasi ushbu materiallarni olimlar tomonidan eng faol o‘rganilayotgan sohalardan biriga aylantirgan. Bugungi kunda tadqiqotlar perovskitlarning donachalar tuzilishini nazorat qilish, sirt va interfeys defektlarini passivatsiya qilish hamda barqarorlikni oshiruvchi yangi aralash kompozitsiyalar yaratishga qaratilgan bo‘lib, bu PQElarning amaliy qo‘llanishini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

$CsPbI_3$ asosidagi perovskitlarda HI kislotasining qo‘shilishi kristall panjara tuzilishini sezilarli darajada barqarorlashtirishi, faza o‘tish jarayonini nazorat qilishi va donalararo nuqsonlar zichligini kamaytirishi mumkinligi tajribalar orqali tasdiqlangan. Kislota ionlararo bog‘lanishlarni kuchaytirib, Pb–I oktaedrlarning barqaror holatga kelishini ta’minlaydi, natijada tashuvchilarning diffuziya uzunligi oshadi va fotoelektr parametrlar yaxshilanadi [3, P.38–40]. Mazkur jarayon energiya darajalari o‘rtasidagi rekombinatsiyani kamaytirib, elektron-teshik juftliklarining samarali ajralishini rag‘batlantiradi.

Interfeys passivatsiyasi PQElarning samaradorligiga bevosita ta’sir etuvchi muhim omildir. ETL/HTL–perovskit chegaralarida joylashgan rekombinatsion markazlarning kamayishi ochiq zanjir kuchlanishi (VOC), qisqa tutashuv toki zichligi (JSC) va to‘ldirish koeffitsienti (FF) kabi fotoelektr ko‘rsatkichlarning oshishiga olib keladi. Fullerene hosilalari, KCl tuzi va PEAI organik moddasining sirt passivatsiyasidagi samaradorligi turli tajribalar orqali tasdiqlangan bo‘lib, ularning qo‘llanishi rekombinatsiya koeffitsientining 15–25 % gacha kamayishiga, JSC ning esa 24–26 mA/cm^2 oralig‘ida oshishiga sabab bo‘lgan [3, B.60].

Sh.Nurmatov va O.Berdiqulov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yarim o‘tkazgich qatlamlari o‘rtasidagi energetik moslashuvning optimallashtirilishi,

kontakt materiallari tanlovi hamda issiqlik barqarorligini oshirish bo‘yicha nazariy yondashuvlar keng yoritilgan. Ayniqsa materiallardagi band moslashuvi, sirt trap-holatlarining kamayishi va termal diffuziya jarayonlarini nazorat qilish bo‘yicha muhim ilmiy xulosalar berilgan [5, -B.55].

Gibrid organik–noorganik perovskit quyosh elementlari (PQElar) energiya o‘zgartirish samaradorligi (EO‘S) qisqa vaqt ichida 3,8 % dan 25,7 % gacha yetgani, ushbu texnologiyaning naqadar jadal rivojlanayotganini ko‘rsatadi [7–8]. Bu o‘sish perovskitlarning inson tomonidan boshqariladigan kristall tuzilishi, ion tarkibini modifikatsiya qilish imkoniyati va past haroratli texnologiyalar bilan mosligi bilan izohlanadi.

Seziy qo‘rg‘oshin triyodidi ($CsPbI_3$) perovskiti fazaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega. Xona haroratida u keng taqiqlangan soha energiyasiga (≈2,82 eV) ega bo‘lgan sariq faza — ortorombik strukturada bo‘lib, fotovoltaik qo‘llanishlar uchun yaroqsiz hisoblanadi. Biroq, yuqori haroratda qora kubik α-faza hosil bo‘lib, uning taqiqlangan soha kengligi 1,73 eV atrofida bo‘lgani uchun PQElar uchun optimal hisoblanadi. Tajribaviy kuzatishlar $CsPbI_3$ ning sariq fazadan qora fazaga o‘tishi odatda ~310 °C atrofida boshlanishini ko‘rsatadi. Ushbu faza o‘tishning nazorat qilinishi PQElarning barqaror ishlashi uchun hal qiluvchi omil bo‘lib, uni stabilizatsiya qilish bo‘yicha turli qo‘shimchalar, haldovchilar va nanostrukturalar ustida ilmiy izlanishlar davom etmoqda.

Biroq yuqori haroratda hosil qilinadigan qora fazali $CsPbI_3$ perovskiti sovutilgandan so‘ng atmosfera sharoitida barqaror saqlanmaydi va bir necha daqiqa ichida yana sariq fazali ortorombik strukturaga qaytadi. Bu fazaning beqarorligi α–$CsPbI_3$ ning xona haroratida entalpik jihatdan metastabil bo‘lishi, iodid panjarasining qayta tartiblanishi va sirt energiyasining o‘zgarishi bilan izohlanadi. Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatdiki, perovskit faol qatlamini sariq fazadan qora fazaga o‘tkazish uchun taxminan ~330 °C da qo‘shimcha termal ishlov berish zarur bo‘ladi. Ushbu haroratda PbI_6 oktaedrlari kubik shaklga barqarorlashib, optik

taqiqlangan soha perovskit quyosh elementlari uchun qulay bo‘lgan 1,73 eV qiymatiga yaqinlashadi.

$CsPbI_3$ asosidagi PQElarni ishlab chiqish jarayonida namlik va kislorodning degradatsiyaga olib keluvchi ta’siri sezilarli bo‘lgani uchun barcha bosqichlar to‘liq havosiz inert muhitda amalga oshirildi. Shunday sharoitda nozik perovskit qatlamlari va to‘liq qurilmalarni muvaffaqiyatli sintezlash imkoni tug‘ildi.

Tajribalarda N,N-dimetilformamid (DMF) eritmasida tayyorlangan 1:1 molyar nisbatdagi $CsI:PbI_2$ prekursor eritmasi “spin coating” usuli orqali substratga yuborildi. Hosil bo‘lgan qatlam 330 °C haroratda 10 daqiqa davomida qizdirilganda barqaror qora fazali $CsPbI_3$ perovskit faol qatlamlari hosil qilindi. Bu jarayon yuqori haroratli fazaga o‘tish uchun zarur bo‘lgan aktivatsiya energiyasining yengib o‘tilishini va panjara ichidagi ionlarning qayta tartiblanishini ta’minladi.

Shu bilan birga, prekursor eritmasiga “spin coating” jarayonidan taxminan 2 soat oldin oz miqdorda gidroyodid (HI) kislotasi qo‘shilishi kutilganidan ham samarali natija berdi. HI kislota eritmada Cs^+ va Pb^{2+} ionlarining kompleks holatga o‘tishini osonlashtirib, prekursorlarning eruvchanligini oshirdi va kristallanish kinetikasini tezlashtirdi. Natijada ancha past — 100 °C haroratda ham qora fazali $CsPbI_3$ ning barqaror strukturasi hosil bo‘lishi kuzatildi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonining energiya sarfini kamaytirish va materialning issiqlikka sezgir substratlar bilan integratsiyasini soddalashtirish nuqtayi nazaridan juda muhim texnologik ustunlik hisoblanadi.



Rasm. *(a)* $CsPbI_3$ perovskit faol qatlamlarning qora va sariq faza struktura holatlari; *(b)* $CsPbI_3$ eritmasiga HI kislotasi qo'shilgan va qo'shilmagan holatdagi perovskit faol qatlamlarning yutilish spektrlari. a) Sariq faza va qora fazaning yutilish spektrlari

Grafik (a) da $CsPbI_3$ ning ikki xil fazasi — sariq faza (δ-faza) va qora faza (α-faza) ning yutilish spektrlari solishtirilgan. Sariq faza (δ–$CsPbI_3$): 400–500 nm oralig'ida juda past yutilishga ega, 550 nm dan yuqori hududda deyarli yorug'likni yutmaydi. Bu faza keng taqiqlangan soha energiyasi (~2,82 eV) ga ega bo'lgani sababli fotovoltaik qurilmalar uchun mos emas.

Qora faza (α–$CsPbI_3$): 400–750 nm oralig'ida sezilarli yutilish koeffitsiyentiga ega, ayniqsa 450–650 nm oralig'ida yuqori optik yutilish kuzatiladi. Bu uning 1,73 eV energetik taqiqlangan sohaga ega barqaror perovskit fazasi ekanini tasdiqlaydi.

1a-rasmda $CsPbI_3$ perovskit faol qatlamlarning qora va sariq fazalariga tegishli yutilish spektrlari ko'rsatilgan. Natijalardan ko'rinib turibdiki, qora fazaga ega perovskit qatlamlar uchun taqiqlangan soha kengligi (band gap) 1,73 eV ga teng bo'lib, bu oldingi tadqiqotlar bilan mos keladi^[1, p. 45]. Sariq faza uchun esa faqat 440 nm atrofida pastroq yutilish spektri kuzatiladi, bu esa uning optik xossalari qora fazaga nisbatan sezilarli darajada farq qilishini ko'rsatadi.

1b-rasmda HI kislota qo'shilgan va qo'shilmagan $CsPbI_3$ perovskit qatlamlarining yutilish spektrlari taqqoslangan. HI kislota qo'shilmagan qatlam yuqori, 330 °C haroratda qizdirilgan, HI kislota qo'shilgan qatlam esa 100 °C da qizdirilgan. Grafiklardan ko'rinib turibdiki, ikkala holatda ham yutilish spektrining umumiy shakli deyarli bir xil; shuning bilan birga, past haroratlarda qizdirilgan HI kislota qo'shilgan qatlamning yutilish intensivligi biroz yuqoriroq. Bu natijadan HI kislotasining qo'shilishi $CsPbI_3$ perovskit qatlamlarning optik xossalariga sezilarli ta'sir qilmaganini xulosa qilish mumkin.

Ushbu tahlil perovskit qatlamlarning fazaviy holati va kimyoviy modifikatsiyalarining yutilish spektrlariga bo‘lgan ta’sirini aniqlashda muhim bo‘lib, optik xususiyatlarni yaxshilash yoki barqarorligini oshirish bo‘yicha keyingi tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Formulalar

$$PCE = \frac{J_{SC} \times V_{OC} \times FF}{P_{in}} \times 100\%$$

$$PCE_{tandem} = \frac{J_{SC1} \times V_{OC1} \times FF_1 + J_{SC2} \times V_{OC2} \times FF_2}{P_{in}}$$

$CsPbI_3$ va FA–Cs aralash perovskitlarining kristall struktura, band tuzilma va elektron xossalari o‘rganildi. 1-rasmda ko‘rsatilgan yutilish spektrlari orqali qora faza $CsPbI_3$ perovskitning taqiqlangan soha kengligi 1,73 eV ekanligi aniqlangan, sariq faza esa 440 nm yaqinida pastroq yutilish spektrini ko‘rsatadi^[1, -P.45]. HI kislotasi qo‘shilishi qatlamlarning optik xossalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmagan, bu esa materialning termobarqarorligini oshirish imkonini beradi.

FA–Cs aralash perovskitli quyosh elementlari (PQE) samaradorligi quyidagi parametrlar bilan baholandi:

- VOC (ochiq zanjir kuchlanish): LiF/NiOx HTL qo‘llanilgan PQEda 1.15 V ga yetdi [4, -P.122].
- JSC (maksimal tok zichligi): Interfeys passivatsiyasi Fullerene, KCl, PEAI bilan amalga oshirilganda 24–26 mA/cm² ga ko‘tarildi [3, -P.60].
- FF va PCE: Perovskit–kremniy tandem elementlarda 33,7 % PCE qayd etildi [2, -P.180].

ISOS-L2 protokoli asosida 1000 soatlik sinov natijasida FA–Cs aralash PQE samaradorligining 92 % saqlanib qoldi [3, -P.59]. Bu natija perovskit qatlamlarning uzoq muddatli ishlash imkoniyatini ko‘rsatadi va degradatsiya mexanizmlarini tushunishda muhim.

NiOx, SnO_2, CuSCN, LiF va Spiro-OMeTAD qatlamlari orqali elektron va teshiluvchi qatlamlar interfeysini optimallashtirish VOC, JSC va PCE qiymatlarini

oshirishga yordam berdi. Shu bilan birga, interfeys passivatsiyasi rekombinatsiyani kamaytirib, tok zichligini oshirdi.

Perovskit–kremniy tandem PQElarida yuqori PCE va barqarorlik kuzatildi. Optik va elektron moslashuvning yaxshilanishi bilan tandem elementlarning samaradorligi individual PQElardan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, FA–Cs–MA aralash perovskitlar PQElarning samaradorligi va barqarorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu aralashma perovskit qatlamlarning fazaviy barqarorligini yaxshilab, uzoq muddatli ishlash imkonini beradi.

HTL va ETL qatlamlarining optimizatsiyasi (masalan, LiF/NiOx, SnO_2, Spiro-OMeTAD) ochiq zanjir kuchlanishi (VOC) va maksimal tok zichligi (JSC) qiymatlarini oshirishga yordam beradi, shu orqali umumiy PCE ko‘rsatkichlari yaxshilanadi.

Shuningdek, interfeys passivatsiyasi (Fullerene, KCl, PEAI) rekombinatsiyani kamaytirib, PQElarning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi va optik xossalarni saqlab qolishga yordam beradi.

Oxir-oqibat, perovskit–kremniy tandem strukturalar yuqori PCE (33 % atrofida) va barqarorlikni birlashtirgan holda, sanoat miqyosida quyosh elementlarini qo‘llash imkoniyatini sezilarli darajada kengaytiradi. Bu natijalar yangi PQE dizayni va yuqori samaradorlikdagi barqaror quyosh elementlari ishlab chiqarish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlarni belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Park N.-G., Kim J.** High-efficiency perovskite solar cells // *Solar Energy*. – 2014. – Vol. 104. – P. 178–181.
2. **Lee M.M., Teuscher J., Miyasaka T., Murakami T.N., Snaith H.J.** Efficient hybrid solar cells based on meso-superstructured organometal halide perovskites // *Perovskite Solar Cells Review*. – 2019. – Vol. 15. – P. 59–60.
3. **Chen Q., De Marco N., Yang Y., Song T.-B., Chen C.-C., Zhao H., Hong Z., Zhou H., Yang Y.** Under the spotlight: The organic–inorganic hybrid

halide perovskite for optoelectronic applications // *Solar Energy Materials & Solar Cells*. – 2023. – Vol. 245. – P. 122–123.

4. **Kojima A., Teshima K., Shirai Y., Miyasaka T.** Organometal halide perovskites as visible-light sensitizers for photovoltaic cells // *Journal of the American Chemical Society*. – 2009. – Vol. 131. – No. 17. – P. 6050–6051.
5. **Nurmatov Sh., Berdiqulov O.** Quyosh panellari konstruksiyalari va fotoelektr jarayonlar. – Jizzax: JDPU, 2023. – B. 55–60.

PROPARGIL SPIRT ASOSIDA YARATILGAN BIOLOGIK FAOL MODDALAR

Xoshimjonova Odinaxon Akbarali qizi,
Andijon davlat pedagogika instituti
Mamajonova Arofatxon Xursanali qizi
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya*: Propargil spirt va uning hosilalari organik sintezda muhim boshlang‘ich mahsulot bo‘lib, tarkibidagi uch bog‘lam (–C≡C–) va funksional gidroksil guruhi tufayli turli biologik faol moddalarning yaratilishida keng qo‘llanadi. Ushbu maqolada propargil spirtdan foydalanilgan sintez yo‘llari, ularning reaktivligi, biologik faollik mexanizmlari va potentsial qo‘llanish sohalari tahlil qilinadi.*

Kalit so’zlar: *Propargil spirt, alkinlar, biologik faol moddalar, propargil hosilalari, antimikrob preparatlar, ferment ingibitorlari, diyne va triyne birikmalar, farmatsevtik sintez.*

Аннотация: *Пропаргиловый спирт и его производные являются важными продуктами органического синтеза и широко используются для создания различных биологически активных соединений благодаря наличию тройной связи (–C≡C–) и эффективной гидроксильной группы.*

Проанализированы пути синтеза, реакционная способность, механизмы биологической активности и потенциальные области применения пропаргилового спирта, полученного из пропаргилового спирта.

Ключевые слова: *Пропаргиловый спирт, алкины, биологически активные соединения, производные пропаргила, антимикробные препараты, ингибиторы ферментов, диеновые и триновые соединения, фармацевтический синтез.*

Abstract: *Propargyl alcohol and its derivatives are important starting materials in organic synthesis and are widely used in the synthesis of various biologically active substances due to their triple bond (–C≡C–) and functional hydroxyl group. This article reviews the synthetic routes using propargyl alcohol, their reactivity, mechanisms of biological activity, and potential applications.*

Keywords: *Propargyl alcohol, alkynes, biologically active substances, propargyl derivatives, antimicrobial drugs, enzyme inhibitors, diene and triyne compounds, pharmaceutical synthesis.*

Kirish: Propargil spirt (2-propinol) organik kimyoda yuqori reaktivligi bilan ahamiyatli birikma hisoblanadi. Uning molekulasida alkin bog‘ining mavjudligi turli nukleofil va elektrofil qo‘shimlar uchun qulay sharoit yaratadi. Shu sababli propargil spirt ko‘plab farmatsevtik moddalar, tabiiy mahsulot analoglari, biomodifikatorlar va kimyoviy probelar sintezida asosiy intermediator sifatida qo‘llanadi. Ilmiy adabiyotlarda propargil spirt asosidagi molekulalarning biologik faolligi, xususan mikroorganizmlarga qarshi ta’siri, o‘sma hujayralarini bostirish xususiyati, virus replikatsiyasiga ta’siri va fermentlarning aktiv markazlariga kovalent bog‘lanish mexanizmlari keng o‘rganilgan. Strukturaviy moslashuvchanligi propargil guruhini “bioizoster” sifatida turli farmakoforlarga joylashtirish imkonini yaratadi.

Asosiy qism: Propargil spirtning kimyoviy tabiati uning molekulasidagi ikki aktiv markaz – uch bog‘lam va gidroksil guruhining o‘zaro uyg‘un reaktivligi bilan izohlanadi. Uch bog‘lam yuqori elektron zichligiga ega bo‘lgani sababli turli

elektrofil reagentlar bilan reaksiyaga kirishadi, gidroksil guruhi esa murakkab efirlar, efirmislari, karbamatlar va boshqa funksional hosilalarni olishda asosiy reaktiv markaz sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga propargil spirt triazol, pirazol, izoksazol, dihidropiridin singari ko‘plab farmakologik ahamiyatga ega heterosikllarning sintezida oraliq moddalar sifatida keng qo‘llanadi. Katalitik “click” reaksiyalari, ayniqsa Cu(I)-katalizli siklqo‘shilish jarayonlari, propargil spirtning turli azid birikmalari bilan oson kondensatsiyalanishiga imkon yaratadi. Natijada hosil bo‘lgan 1,2,3-triazol tizimlari ko‘plab biologik faol birikmalarning markaziy farmakofor fragmentini tashkil qiladi. Propargil spirt asosida olingan moddalar antimikrob faolligi bilan ham ajralib turadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, propargil guruhini o‘z ichiga olgan spirtlar, eferlar va triazol hosilalari mikroorganizmlarning hujayra membranasining yaxlitligiga ta’sir etadi, ularning metabolik jarayonlarini izdan chiqaradi va hujayra devori sintezi jarayonlarida ishtirok etuvchi fermentlarni ingibitsiya qiladi. Bunday moddalarning lipofilligi yuqori bo‘lgani uchun bakteriya va zamburug‘lar sitoplazmasiga oson kiradi, bu esa ularning antibakterial va antifungal samaradorligini oshiradi. Ayniqsa propargil-triazol birikmalarining qo‘ziqorin sterol biosinteziga ta’siri natijasida fungistatik xususiyati kuchaygani kuzatilgan. Propargil spirt hosilalari saraton hujayralariga qarshi faol modda sifatida ham o‘rganilgan. Ularda ko‘pincha hujayra ichida reaktiv oraliq mahsulotlar hosil qilish, oksidativ stressni kuchaytirish yoki DNK bilan kovalent bog‘lanish orqali apoptotik jarayonlarni faollashtirish xususiyati mavjud. Ayrim propargil-aminlar kasallikning hujayra sikliga bevosita ta’sir qilishi, proliferatsiyani sekinlashtirishi va o‘sma hujayralarining mitotik faolligini pasaytirishi qayd etilgan. Bundan tashqari, propargil fragmenti o‘zining kichik o‘lchami va yaxshi elektrofilik xususiyati tufayli o‘sma hujayralari fermentlarining aktiv markazlariga bog‘lanib, ularning faoliyatini selektiv tarzda cheklab qo‘yishi mumkin. Propargil spirtning antiviral faolligi ham alohida e’tiborga loyiq. Propargil guruhining uch bog‘lamli tuzilishi virus replikatsiyasida ishtirok etuvchi fermentlar, xususan proteaza va RNA-zavisim polimerazalarning nukleofil aminokislota

qoldiqlari bilan kovalent aloqalar hosil qilishi mumkin. Natijada virusning genetik materialini ko‘paytirish yoki oqsillarni qayta ishlash jarayonlari izdan chiqadi. Shuningdek, propargil-triazol strukturalarining virus kapsid oqsillarining yig‘ilish bosqichini susaytirishi ham ilmiy manbalarda qayd etilgan.

Propargil spirt hosilalarining yana bir muhim yo‘nalishi neyroprotektiv vositalar sintezidir. Bu yerda asosiy mexanizm monoamin oksidaza (MAO) fermentining selektiv ingibitsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur fermentning haddan tashqari faolligi neyrodegenerativ kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Propargil guruhiga ega bo‘lgan aminlar MAO fermentining faol markaziga qaytmas tarzda birikib, dopamin, serotonin va noradrenalin kabi neyrotransmitterlarning parchalanishini sekinlashtiradi. Bu xususiyatlari ularni Parkinson kasalligini davolashda istiqbolli nomzodlar qatoriga qo‘shadi. Farmatsevtik sintez jarayonida propargil spirtning tutgan o‘rni kengdir. U murakkab tabiiy moddalarning analoglarini yaratishda, lipidga o‘xshash molekulalarning tarkibiga propargil fragmentini kiritib ularning hujayraviy o‘zlashtirilishini oshirishda, shuningdek biokimyoviy tadqiqotlar uchun kimyoviy probelar yaratishda qo‘llanadi. Propargil guruhining kichik hajmi uni “bioizoster” sifatida turli farmakofor strukturalarga kiritish imkonini beradi, bu esa biologik faol molekulalarning farmakokinetik va farmakodinamik xususiyatlarini yaxshilaydi.

Xulosa: Propargil spirt va uning hosilalari zamonaviy organik sintezda yuqori ahamiyatga ega bo‘lgan reaktiv moddalar sirasiga kiradi. Molekulaning o‘ziga xos tuzilishi – uch bog‘lamning elektrofil reagentlarga nisbatan sezgirligi va gidroksil guruhining funksional takomillashtirish imkoniyatlari – propargil spirtni biologik faol birikmalar yaratishda universal platformaga aylantiradi. Tadqiqotlar propargil fragmentining antimikrob, antifungal, antitumor, antiviral hamda neyroprotektor preparatlar sintezida muhim farmakofor sifatidagi rolini tasdiqlaydi. Ayniqsa propargil-triazol, propargil-amin va propargil-eter hosilalarining biologik faolligi yuqori bo‘lib, ular ko‘plab fermentlar bilan selektiv o‘zaro ta’sirlashishi, hujayra metabolizmini izdan chiqarishi yoki signal yo‘llarini modulyatsiya qilishi mumkin.

Propargil spirt asosidagi birikmalarning o‘ziga xos afzalliklari ularning farmatsevtik tadqiqotlar, yangi dori moddalari ishlab chiqish, biomolekulalarni markirovka qilish va kimyoviy biologiya yo‘nalishlarida qo‘llanilish doirasini kengaytiradi. Hozirgi paytda propargil spirtga asoslangan sintez strategiyalarining takomillashuvi, samarali katalizatorlarning yaratilishi va strukturaviy modifikatsiya usullarining rivojlanishi ushbu sinfni yanada istiqbolli qiladi. Mavjud ilmiy natijalar propargil spirt hosilalarining farmakologik potensiali yuqori ekanini ko‘rsatib, kelajakdagi tadqiqotlar uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Moncada, R., et al. Propargyl Alcohol in Organic Synthesis: Reactivity, Applications, and Derivatives. Journal of Organic Chemistry, 2020.

2. Kappe, C. O., & Stadler, A. Propargyl Derivatives in Modern Heterocycle Synthesis. Springer Science, 2018.

3. Li, J., & Zhao, Y. Biological Activity of Propargyl-Containing Compounds: A Review. Bioorganic Chemistry, 2021.

4. Torres, M., & Jiménez, C. Triazole-Based Molecules Derived from Propargyl Alcohol as Antimicrobial Agents. European Journal of Medicinal Chemistry, 2019.

5. Kurbanov, A., & Tursunov, R. Propargil Spirtning Reaktivligi va Uning Hosilalari. O‘zbekiston Kimyo Jurnali, 2020.

6. Ahmed, S., et al. Alkynes in Medicinal Chemistry: Pharmacological Importance of Propargyl Units. Current Topics in Medicinal Chemistry, 2018.

KIMYO FANINING “YASHIL KIMYO”DAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Matchanova Muxabbat Botirovna

Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya-*Ushbu maqolada kimyo fanining “Yashil kimyodagi o‘rni, asosiy jihatlari, vazifalari, “Yashil kimyo”, uning tamoyillari, ahamiyati hamda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tavsiyalar batafsil yoritib berilgan.*

Аннотация: *В данной статье подробно освещены место химии в «Зеленой химии», ее основные аспекты, задачи, принципы и значение «Зеленой химии», а также рекомендации, которые необходимо реализовать.*

Abstract: *This article details the place of chemistry in "Green Chemistry", its main aspects, tasks, principles, and the significance of "Green Chemistry", as well as the recommendations that need to be implemented.*

Kalit so’zlar. *Tabiiy resurslar, atrof-muhit muammolari, "Yashil kimyo", "Yashil" erituvchi, qayta tiklanuvchi xom ashyo, atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror va xavfsiz.*

Ключевые слова: *природные ресурсы, экологические проблемы, «зеленая химия», «зеленый» растворитель, возобновляемое сырье, охрана окружающей среды, устойчивое и безопасное.*

Key words: *natural resources, environmental issues, green chemistry, green solvent, renewable raw materials, environmental protection, sustainable and safe.*

Ma'lumki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida er, er osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylik ekani, ulardan oqilona foydalanish zarurligi va ular davlat muhofazasidaligi qat'iy belgilangan.

Hozirgi kunda insoniyat atrof-muhit muammolari, resurslarning cheklanganligi va barqaror rivojlanish zarurati bilan yuzma-yuz turibdi. An'anaviy kimyoviy jarayonlar ko‘pincha katta miqdorda chiqindilar hosil qiladi, zaharli erituvchilardan foydalanadi va energiyani ko‘p talab qiladi. Aynan shu sharoitda "Yashil kimyo" kontseptsiyasi, ya'ni kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqish va jarayonlarni atrof-muhitga zarar etkazmaydigan tarzda yaratish falsafasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kimyo fani esa "Yashil kimyo"ning markazida turadi.

Kimyo fani - "Yashil kimyo"ning nazariy va amaliy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Kimyo fanining "Yashil kimyo"dagi ahamiyati juda katta va uni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

- Ekologik foydasi: ya'ni zaharli moddalarning atmosferaga, suvga va tuproqqa chiqishini kamaytiradi.

- Iqtisodiy foydasi: chiqindilarni tozalash va yo‘q qilish xarajatlarini, shuningdek, energiya sarfini qisqartiradi.

- Xavfsizligi: Ishlab chiqarish jarayonlarini ishchilar uchun xavfsizroq qiladi.

“Yashil kimyo” — bu kimyoviy mahsulotlarni va jarayonlarni loyihalashda xavfli moddalardan foydalanishni yoki ularni hosil qilishni kamaytiradigan tamoyillar to‘plami bo‘lib, “Yashil kimyo" asoschilari Pol Anastas va Jon Uorner tomonidan ishlab chiqilgan 12 ta printsip uning amaliy asosini tashkil etadi:

1. Chiqindilarning oldini olish -Chiqindilarni tozalashdan ko‘ra, ularni hosil bo‘lishining oldini olish afzal. Bu kimyogarlar uchun muhim tamoyil hisoblanadi.

2. Atom tejamkorligi- Kimyogarlar reaktsiya mahsuloti unumini maksimal darajada oshirishga intiladi. Bu esa chiqindilar miqdorini keskin kamaytiradi.

3. Xavfsizroq kimyoviy sintezni ishlab chiqish - "Yashil kimyo"ning eng asosiy vazifalaridan biri reaktsiyalarni xavfli moddalarsiz o‘tkazishdir. Imkon qadar inson salomatligi va atrof-muhitga zarar etkazuvchi (masalan, zaharli, portlovchi, kantserogen) kimyoviy reagentlar va jarayonlardan foydalanmaslik kerak.

4. Zaharsiz mahsulotlarni loyihalash - Kimyoviy mahsulotlarning (faol moddalarning) funktsiyasini bajarishi bilan birga, ularning toksikligini minimallashtirish kerak.

5. Xavfsizroq erituvchilar va reaktsiya muhitlarini yaratish- Kimyoviy reaktsiyalarda imkon qadar xavfsizroq erituvchilar (masalan, suv, yoki ionli suyuqliklar) ishlatiladi yoki erituvchisiz usullar joriy etiladi.

6. Energiya samaradorligini loyihalash - Kimyoviy jarayonlarning atrof-muhit va iqtisodiy ta'sirini, minimal energiya talab qiladigan holda o‘tkazish. Iloji bo‘lsa, xona harorati va bosimida ishlash lozim.

7. Qayta tiklanuvchi xomashyodan foydalanish - Neft kabi sarflanib tugaydigan resurslar o‘rniga, qayta tiklanadigan manbalar (masalan, biomassa, o‘simlik yog‘lari) asosidagi xom ashyodan foydalanish talab etiladi.

8. Hosilalardan qochish - Hosilalarni vaqtinchalik o‘zgartirish yoki himoyalash, himoyani olib tashlash kabi keraksiz qadamlardan qochish.

9. Kataliz-Sintezda katalizatorlardan foydalanish yaxshiroq. Katalizatorlar reaktsiyalarni tezlashtiradi, tanlab (selektiv) borishini ta'minlaydi va odatda kam miqdorda ishlatiladi hamda reaktsiya jarayonida sarflanmaydi. Bu esa chiqindilarni kamaytiradi va energiya sarfini pasaytiradi.

10. Degradatsiya uchun loyihalash -Mahsulotlar o‘z vazifasini bajargandan so‘ng atrof-muhitda zararli chiqindi hosil qilmasdan, oson va tez parchalanadigan (biodegradatsiyalanadigan) bo‘lishi kerak.

11. Real vaqtda ifloslanish monitoringi -Xavfli moddalar hosil bo‘lishidan oldin ularni nazorat qilish uchun jarayon ichida tahliliy usullardan foydalanish.

12. Baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun xavfsiz kimyo - Portlash, yong‘in va atrof-muhitga chiqib ketish kabi kimyoviy baxtsiz hodisalar xavfini minimallashtirish uchun moddalar shaklini tanlash kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “Yashil kimyo”ning ahamiyatini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

-“Yashil kimyo”ning joriy etilishi - bir qator muhim ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi;

-Atrof-muhitni muhofaza qilish - Zaharli chiqindilar, issiqxona gazlari chiqishi va suv ifloslanishi keskin kamayadi;

- Iqtisodiy samaradorlik- Chiqindilarni tozalashga ketadigan xarajatlar, energiya sarfi va xomashyo iste'molining kamayishi hisobiga ishlab chiqarish arzonlashadi.

-Inson salomatligini himoya qilish -Zaharli kimyoviy moddalar ta'siri kamaygani tufayli ishchilar va jamoat salomatligi yaxshilanadi.

-Barqarorlik - Qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish va chiqindilarni kamaytirish orqali kelajak avlodlar uchun resurslarni saqlab qolishga yordam beradi.

-Qonunchilikka muvofiqlik- Kimyoviy xavfsizlik bo‘yicha tobora kuchayib borayotgan me'yoriy talablarga javob berish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Kimyo fani, "Yashil kimyo" prinitsiplariga amal qilgan holda, nafaqat ekologik muammolarga, balki barqaror sanoat va resurslar samaradorligi kabi global muammolarga ham echim topishda markaziy o‘rinni egallaydi. Kimyogarlarning yangi, "yashilroq" jarayonlarni kashf qilishdagi uzluksiz izlanishlari insoniyatning kelajak avlodlar uchun sog‘lomroq dunyoni yaratishga xizmat qiladi.

Xavfsizroq kimyoviy sintezni ishlab chiqish — bu shunchaki qoidalarga rioya qilish emas, balki "oldini olish hal etishdan ko‘ra yaxshiroq" degan g‘oyaga asoslangan ilmiy va texnologik yondashuvdir. Bu "Yashil kimyo" tamoyillarini qo‘llash, chiqindilarni, xavfli reagentlarni va energiya sarfini maksimal darajada kamaytirish orqali erishiladi.

«Yashil kimyo” bugungi zamonaviy sanoatda ehtiyoj yuqori bo‘lgan ekologik toza sanoat usuli hisoblanadi. «Yashil kimyo” – bu kelajakning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlash uchun zarur bo‘lgan fundamental va amaliy fan sohasi. U atrof-muhitni muhofaza qilish, inson salomatligini saqlash va resurslardan oqilona foydalanish yo‘lida yangi imkoniyatlar ochmoqda. Barqaror rivojlanish sari yo‘lda “Yashil kimyo”ni keng qo‘llash va rivojlantirish davlatlar, tadbirkorlar va ilmiy jamoatchilik uchun ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.

“Yashil kimyo” – bu nafaqat kimyoviy sohaning kelajagi, balki atrof-muhit va iqtisodiyot uchun ham muhim bo‘lgan global yo‘nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Anastas P. T., Warner J. C.** *Green Chemistry: Theory and Practice.* – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 135 p.
2. **Trost B. M.** Atom Economy—A Challenge for Inorganic and Organic Synthesis // *Angewandte Chemie International Edition.* – 1995. – Vol. 34, No. 3. – P. 259–271.
3. **Sheldon R. A.** Green solvents for sustainable organic synthesis: state of the art // *Green Chemistry.* – 2017. – Vol. 19, No. 24. – P. 5752–5761.
4. **Poliakoff M., Fitzpatrick J. M., Farren T. R., Anastas P. T.** Green chemistry: science and politics of catalysis // *Accounts of Chemical Research.* – 2002. – Vol. 35, No. 10. – P. 812–820.
5. **Clark J., Luque R.** *Introduction to Green Chemistry.* 2nd ed. – Chichester: John Wiley & Sons, 2018. – 352 p.
6. **To‘xtaev A. S. va boshq.** *Ekologik kimyo.* – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 320 b.
7. **National Research Council (US) Committee on Research Priorities for Green Chemistry.** *Green Chemistry: Challenges and Opportunities.* – Washington, DC: National Academies Press, 2007. – 155 p.
8. **Royal Society of Chemistry (RSC).** *Green Chemistry Journal* va rasmiy veb-resurslar. – Elektron resurs.
9. **U.S. Environmental Protection Agency (EPA).** *Green Chemistry Program.* – Elektron resurs. URL: https://www.epa.gov/greenchemistry
10. **Xaliknazarova N. Z. q., Suyunov S. A. o‘g‘li, Kurbanova A. D.** “Yashil kimyo” g‘oyalarini o‘qitishda ekologik yondashish // *Multidisciplinary*

Scientific Journal. – 2022. – Vol. 3, Issue 4. – ISSN 2181-1385. – Elektron manba: https://t.me/ares_uz

OLMA KISLOTA – TIOKARBAMID - SUV ERUVCHANLIK SISTEMASINI FIZIK-KIMYOVIY ASOSLASH

N.F. Meliyeva, E.Y. Ergashev, D.M. Mamarajabov, J.S. Shukurov

O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti

Annotatsiya. *Bu ishda $C_4H_6O_5$– $CS(NH_2)_2$ - H_2O tizimining politermik eruvchanligi binar sistemalar va sakkizta ichki kesmalar asosida vizual politermik usulda o‘rganildi. Olma kislota, karbamid va suv komponentlarining eruvchanligi -26,0 °C dan 20,0 °C gacha bo‘lgan harorat oralig‘ida o‘rganildi va politermik eruvchanlik diagrammasi tuzildi. Eruvchanlik diagrammasida uchlamchi nuqta topildi va proyeksiyasi chizildi. Diagrammada muz, olma kislota va karbamidning kristallanish maydonlari ajratildi.*

O‘rganilayotgan tizimning oddiy evtonik tipga mansubligi va yangi birikma hosil bo‘lmaganligi vizual-politermik usulga asoslandi. Bu esa fiziologik faol va ozuqa komponentlarni o‘z ichiga olgan yangi preparatni olish texnologiyasini ishlab chiqish imkonini beradi.

Kalit so‘zlari: *Eruvchanlik diagrammasi, kristallanish harorati, fiziologik faol modda, karbamid, olma kislota, suv.*

Аннотация. *В данной работе политермическая растворимость системы C4H6O5–CS(NH2)2–H2O изучена с использованием визуально-политермического метода на основе бинарных систем и восьми внутренних сечений. Изучена растворимость компонентов яблочной кислоты, мочевины и воды в интервале температур от -26,0 °C до 20,0 °C и построена*

политермическая диаграмма растворимости. На диаграмме растворимости найдена тройная точка и построена ее проекция. На диаграмме показаны области кристаллизации льда, яблочной кислоты и мочевины.

На основании визуально-политермического метода сделан вывод о принадлежности исследуемой системы к простому эвтоническому типу и отсутствии образования новых соединений. Это позволяет разработать технологию получения нового лекарственного препарата, содержащего физиологически активные и пищевые компоненты.

Ключевые слова: *диаграмма растворимости, температура кристаллизации, физиологически активное вещество, мочевина, яблочная кислота, вода.*

Annotation. *In this work, the polythermal solubility of the C4H6O5–CS(NH2)2–H2O system was studied using a visual polythermal method based on binary systems and eight internal sections. The solubility of the components of malic acid, urea and water was studied in the temperature range from -26.0 °C to 20.0 °C and a polythermal solubility diagram was constructed. A triple point was found on the solubility diagram and its projection was constructed.*

The diagram shows the crystallization regions of ice, malic acid and urea.

Based on the visual-polythermal method, a conclusion was made that the studied system belongs to the simple eutonic type and there is no formation of new compounds. This makes it possible to develop a technology for producing a new medicinal product containing physiologically active and nutritional components.

Key words: *solubility diagram, crystallization temperature, physiologically active substance, urea, malic acid, water.*

Tiokarbamid - qishloq xo‘jaligida o‘simliklarda ildiz rivojlanishini va o‘simlikning umumiy o‘sishini tezlashtiradi [1], hamda hosildorlikni oshirib,

qurg‘oqchilik va haroratning haddan tashqari o‘zgarishi kabi abiotik stresslarga chidamlilikni oshiradi [2] va gulli o‘simliklarning gullashini rag‘batlantiradi. Olma kislota oziq-ovqat, farmatsevtika sanoati, metallni tozalash va pardozlash, to'qimachilik va qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarda ishlatiladi [3].

Qishloq xo‘jaligida suvda yahshi eruvchan o‘g‘itlarni o‘simliklarga qo‘llash orqali hosildorlikni oshirishga va kutilgan natijaga erishish mumkin. O‘simliklarga suyuq xolda, suvda yahshi eruvchan o‘g‘itlarni qo‘llash natijasida o‘simliklarni tez o‘sishiga va rivojlanishiga zamin yaratadi. Tarkibida tiokarbamid bo‘lgan o‘g‘itlar suvda nisbatan yomon eriydi, ularni eruvchanligini oshirishda turli organik va noorganik kislotalar bilan eruvchanligini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi $C_4H_6O_5$ – $CS(NH_2)_2$ - H_2O sistemaning politermik eruvchanlik diagrammasi -26.0 ^oC dan 20,0 ^oC harorat oralig‘ida o‘rganildi. Dastlab olma kislota – suv va tiokarbamid – suv ikki komponentli sistemalari o‘rganildi [4] va diagrammasi chizildi 1- jadval.

Olma kislota (k.t.) GOST 32748-2014 va “analiz uchun tozza“ (a.u.t.) tiokarbamidning 98,0 % li (GOST 6344-73) turidan foydalanildi.

Binar sistemalar va sakkizta ichki kesmalar asosida -26,0°C dan 20,0°C harorat oralig‘ida $C_4H_6O_5$ – $CS(NH_2)_2$ - H_2O sistemasining politermik eruvchanlik diagrammasi qurildi. Diagrammada sakkizta ichki kesmalardan I - II kesmlar $CS(NH_2)_2$ - H_2O tomonidan $C_4H_5O_6$ uchiga, III - VIII kesmalar $C_4H_6O_5$ -H_2O tomonidan $CS(NH_2)_2$ uchiga o‘tkazib tadqiq qilindi. Diagrammada muzning, olma kislotaning va tiokarbamidning kristallanish maydonlari chegaralari aniqlandi.

Ushbu politermik eruvchanlik diagrammasida barcha fazalar bitta uchlamchi nuqtada tutashadi. Yani -26,0°C haroratda 55,0 % - olma kislota, 42% - tiokarbamid va 3% - suvga mos keladi, hamda bu nuqta olma kislota, tiokarbamid va muzning kristallanish maydonlari bilan chegaralanadi. Shuningdek, muz bilan tiokarbamid -18,0°C dan 0°C gacha bo‘lgan temperatura oralig‘ida, muz bilan olma kislota -24,0°C dan -26,0°C gacha bo‘lgan temperatura oralig‘ida va tiokarbamid bilan olma

kislota -19,0°C dan -6,5°S gacha bo‘lgan temperatura oralig‘ida birgalikda kristallanadi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

$C_4H_6O_5$ – $CS(NH_2)_2$ - H_2O dan iborat politermik eruvchanlik diagrammasini qurish davomida proeksion usulda ushbu sistemaning politerma eruvchanlik egri chiziqlarining proektsiyalari chizildi va mutanosiblik qayd qilindi.

1-jadval

$C_4H_6O_5$ – $CS(NH_2)_2$ - H_2O sistemasining ikkilamchi va uchlamchi nuqtalar tasnifi

Suyuq faza tarkibi, %			Tep-ra krist., °C	Qattiq faza
$C_4H_6O_5$	**$CS(NH_2)_2$**	H_2O		
0	96.6	3.5	0	**$CS(NH_2)_2$** + muz
9.4	85.6	5.0	-1.0	-//-
18.8	75.2	6.0	-3.5	-//-
28.0	66.0	6.0	-6.5	-//-
38.0	56.2	5.8	-11	-//-
48.0	47.6	4.4	-18	-//-
55.0	42.0	3.0	-26	$C_4H_6O_5$ + **$CS(NH_2)_2$** + muz
52.4	12.8	34.8	-6.5	$C_4H_6O_5$ + **$CS(NH_2)_2$**
53.0	9.4	37.6	-11	-//-
54.0	4.8	41.2	-19	-//-
43.2	0	56.8	-24	$C_4H_6O_5$ + muz

Dastlabki proektsiya olma kislota tomondan tiokarbamidning konsentratsiyasi oshib borish tomoniga qarab o‘rganildi.Ikkinchi proektsiya esa tiokarbamid tomondan olma kislotaning konsentrarsiyasi oshib borish tomonga qarab tahlil qilindi. Har bir komponentning o‘ziga tegishli hududlari ajralishi kuzatildi va o‘zaro tasiri bo‘yicha ilmiy ma’lumotlar olindi.

O‘rganilgan $C_4H_6O_5 – CS(NH_2)_2$ - H_2O politermik eruvchanklik tizimini tahlil qilish natijasida tarkibida olma kislota va tiokarbamiddan iborat komponentlar eritmada o‘zaro yangi birikma hosil qilmasligi tasdiqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Seleiman M. F., Kheir A. M. S.** Saline soil properties, quality and productivity of wheat grown with bagasse ash and thiourea in different climatic zones // *Chemosphere*. – 2018. – Vol. 193. – P. 538–546. – DOI: 10.1016/j.chemosphere.2017.11.053.

2. **Ahmad M. va boshq.** Thiourea application improves the growth and seed and oil yields in canola by modulating gas exchange, antioxidant defense, and osmoprotection under heat stress // *Journal of Soil Science and Plant Nutrition*. – 2022. – Vol. 22. – P. 3655–3666.

3. **Sharma R., Dhamodharan R.** Synthesis and characterization of material derived from chitosan, malic acid and urea // *Journal of Polymer Research*. – 2024. – Vol. 31. – Art. 46. – DOI: 10.1007/s10965-024-03891-y.

4. **Tuychiev S. A., Sidikov A. A., Toghasharov A. S., Zakirov B. S.** Solubility of components in the $NaClO_3 \cdot CO(NH_2)_2–CS(NH_2)_2–H_2O$ system // *Russian Journal of Inorganic Chemistry*. – 2022. – Vol. 67. – Suppl. 2. – P. S184–S187. – DOI: 10.1134/S0036023622602112.

PROPARGIL SPIRTI FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA SANOATDA ISHLATILISHI

Xoshimjonova Odinaxon Akbarali qizi,
Andijon davlat pedagogika instituti
Yo‘lchiyeva Nodiraxon O‘ktamjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, propargil spirtining fizik hamda kimyoviy xossalari, kimyoviy barqarorligi, suvda eruvchanligi, qaynash nuqtasi, korroziyaga qarshiligi, polimer ishlab chiqarish, va kataliz jarayonlarida qanday qo'llanilishi batafsil bayon etilgan.*

Аннотация: *В статье подробно описаны физические и химические свойства пропаргилового спирта, его химическая стабильность, растворимость в воде, температура кипения, коррозионная стойкость, производство полимеров и его использование в процессах катализа.*

Abstract: *This article describes in detail the physical and chemical properties of propargyl alcohol, its chemical stability, water solubility, boiling point, corrosion resistance, polymer production, and its use in catalysis processes.*

Kalit so'zlar: *Propargil spirt, uch bog' (≡), gidroksil guruhi (–OH), fizikxossalar, organik sintez, sanoat kimyosi, kataliz jarayoni, qaynash nuqtasi.*

Ключевые слова: *пропаргиловый спирт, тройная связь (≡), гидроксильная группа (–OH), физические свойства, органический синтез, промышленная химия, процесс катализа, температура кипения.*

Keywords: *Propargyl alcohol, triple bond (≡), hydroxyl group (–OH), organic synthesis, industrial chemistry, catalysis process, boiling point.*

Kirish: Propargil spirti ($HC{\equiv}C–CH_2OH$) — rangsiz, o'ziga xos hidli, uchuvchan suyuqlik bo'lib, molekulasida bir vaqtning o'zida uch bog'li alkin fragmenti va gidroksil guruhi saqlagan, yuqori reaktivligi bilan ajralib turuvchi organik birikmadir. Propargil spirti ko'plab murakkab organik moddalarni sintez qilishda reaktiv oraliq mahsulot sifatida ishlatiladi. Alkin asosidagi qo'shimcha reaksiyalar (Michael qo'shilishi, gidrobromlash, gidratatsiya). Efirlar va karbonil birikmalar sintezi uchun boshlang'ich modda. Farmatsevtika kimyosida yangi bioaktiv moddalar tayyorlashda qurilish bloki sifatida qo'llaniladi. Propargil spirti yuqori reaktivligi tufayli maxsus polimerlar, qatronlar va qoplamalar sintezida modifikator sifatida, polimerlarning mexanik barqarorligini oshiruvchi qo'shimcha komponent sifatida,strukturaviy o'zgarishlarni kiritish uchun funksional monomer

sifatida ishlatiladi.Bu modda polimer zanjirlariga alkin fragmentini kiritish orqali materiallarning issiqlikka chidamliligi va kimyoviy barqarorligini oshiradi. Propargil spirtining polimer sanoatida ahamiyati uning funksional guruhlari orqali polimer zanjirlariga kimyoviy o‘zgartirish kiritish imkoniyatidan kelib chiqadi. Alkin fragmentining mavjudligi:polimerlarning tarmoqlanish darajasini boshqarish, materialga yangi reaktiv markazlar kiritish, sirt energiyasini tartibga solish, yelimlar va qoplamalarning yopishish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.Shu sababli propargil spirti yuqori issiqlikka chidamli, mexanik jihatdan mustahkam va kimyoviy barqaror polimer materiallar yaratishda qimmatli modda hisoblanadi.

Asosiy qism: Propargil spirti kimyoviy tuzilishida sp-gibridlangan alkin markazi va nukleofil xususiyatga ega gidroksil guruhi mavjud bo‘lgani sababli murakkab reaksion faoliyatga ega. Uning reaktivligi, ayniqsa, elektron zichligining notekis taqsimlanishi, uch bog‘ atrofidagi kuchli polarizatsiya va terminal alkin protonining kislotali xususiyati bilan izohlanadi. Ilmiy adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, propargil spirti elektron yetishmovchiligi bo‘lgan markazlarga tez qo‘shilishi, karbonil birikmalari bilan kondensatsiya reaksiyalariga kirishishi va metall-katalizli jarayonlarda yuqori selektivlik ko‘rsatishi bilan ajralib turadi. Propargil spirtining sanoat kimyosidagi muhim yo‘nalishlaridan biri bu uning C–C bog‘i hosil qiluvchi katalitik jarayonlardagi rolidir. Palladiy, ruteniy, nikel va mis asosidagi katalitik tizimlarda alkinlarning aktiv komplekslar hosil qilishi, keyinchalik esa oksidlanish-qaytarilish (redoks) sikllari orqali yangi bog‘larning shakllanishiga imkon yaratadi. Masalan, ilmiy manbalarda propargil spirtining Sonogashira tipidagi reaksiyalar, allil spirtlariga izomerizatsiya jarayonlari, hamda karbonil birikmalar bilan kross-katalitik qo‘shilishlar uchun samarali substrat ekani qayd etiladi. Ruteniy katalizatorlari ishtirokida esa u selektiv ravishda allenlargacha izomerlanishi mumkin bo‘lib, bu jarayon organik sintezda noyob hosilalar olishga imkon beradi. Propargil spirtining yuzaki faol moddalar (PAV) va texnik tozalash vositalaridagi qo‘llanilishi uning qattiq material sirtlari bilan o‘zaro ta’sirga kirishish qobiliyati bilan bog‘liq. Alkin fragmentining yuqori energiyali elektron tizimi

kovalent sirtlar bilan bog‘lanish uchun yangi reaktiv markazlar yaratadi. Shuning uchun propargil spirti korroziyaga qarshi sistemalarda passivlovchi qatlamlarning yopishqoqligi va moslashuvchanligini oshiruvchi qo‘shimcha komponent vazifasini bajaradi. Metall sirtlari bilan o‘zaro ta’sirlashganda alkin guruhi ba’zan adsorbsion o‘rtalik hosil qilib, muhitning agressiv zararli ta’sirini kamaytiradi. Propargil spirtining reaktivligi uni biokimyoviy tizimlarda ham maxsus tadqiqotlar uchun qulay substratga aylantiradi. Ilmiy adabiyotlarda u fermentlar, oksidoreduktazalar va gidrolazalar bilan o‘zaro ta’sirlashib, faollik markazlari bilan kovalent bog‘ hosil qilishi mumkinligi qayd etiladi. Bu xususiyat propargil spirtini ferment faoliyatini o‘rganish, enzim mexanizmlarini aniqlash va inhibitorlar dizaynida qo‘llash imkonini beradi. Biroq, aynan shu xususiyati tufayli u toksikologik kuzatuvlarda ehtiyotkorlik bilan ishlatiladigan moddalar qatoriga kiradi. Sanoat texnologiyalarida propargil spirti turli kimyoviy jarayonlarga qo‘shilishi mumkin: polimerizatsiya, kopolimerizatsiya, epoksid qatronlarni modifikatsiya qilish, metallni kimyoviy ishlov berish kabi texnik bosqichlarda u struktura hosil qiluvchi yoki modifikator sifatida faol qatnashadi. Alkin funksional guruhi tufayli u radikal, ionli, yoki koordinatsion mexanizmlar orqali polimer zanjiriga qo‘shila oladi. Bu esa materiallarda:

- ✓ termo-barqarorlikni,
- ✓ mexanik chidamlilikni,
- ✓ yopishqoqlikni,
- ✓ sirt energiyasini,
- ✓ kimyoviy chidamlilikni
- ✓ oshirish imkonini beradi.

Elektron sanoatida propargil spirti yuqori tozalikka ega reagent sifatida mikroelektronika uchun maxsus qoplamalar, fotorezistlar, va etanolaminlar asosidagi texnologik eritmalar tarkibiga qo‘shiladi. Alkin fragmentining barqaror, ammo kerakli shartlarda reaktiv bo‘lishi bu moddaning yuqori selektiv kimyoviy o‘zgartirishlarni talab qiluvchi jarayonlarda ahamiyatini kuchaytiradi.

Shuningdek, propargil spirti ko‘plab laboratoriya jarayonlarida reaksion model sifatida qo‘llaniladi. U orqali sp-gibridlangan uglerod atomlarining kimyoviy xususiyatlari, o‘tish metallari ishtirokidagi katalitik mexanizmlar, va yangi reaktiv markazlarning faolligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib boriladi. Shu sababli u nafaqat amaliy sanoat kimyosida, balki nazariy va eksperimental organik kimyoda ham muhim o‘rinni egallaydi.

Xulosa. Propargil spirti o‘z tuzilishida alkin va gidroksil guruhlarini birlashtirgani uchun yuqori kimyoviy faollikka ega bo‘lgan moddadir. Uning fizik-kimyoviy xossalari – uch bog‘ning reaktivligi, suvda yaxshi eruvchanligi va o‘ziga xos qaynash nuqtasi – moddaning sanoat va laboratoriya jarayonlarida qadrlanishiga sabab bo‘ladi. Propargil spirti organik sintezda turli murakkab molekulalar tayyorlashda, polimer kimyosida modifikator sifatida va metall-kataliz reaksiyalarida selektiv jarayonlarni boshqarishda keng qo‘llaniladi. Umuman olganda, ushbu birikma o‘zining universal reaktivligi va amaliy ahamiyati tufayli zamonaviy kimyo uchun muhim xomashyo hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xabibullaev A., Jo‘raev M. Organik kimyo. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.

2. Abdurazzoqov A., Berdiyev Q. Organik kimyo asoslari. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2016.

3. Петров А. А. Химия ацетиленовых соединений. — Москва: Химия, 1990.

4. Брюс М., Хаймэн А. Современная органическая химия. — Москва: БИНОМ, 2015.

5. Carey F., Sundberg R. Advanced Organic Chemistry. — Springer, 2007.

6. Smith J. G. Organic Chemistry. — McGraw-Hill, 2016.

7. March J. Advanced Organic Chemistry: Reactions, Mechanisms, and Structure. — Wiley, 2007.

8. Clayden J., Greeves N., Warren S., Wothers P. Organic Chemistry. — Oxford University Press, 2012.

III ANALITIK GURUH CA2+ KATIONINING O'ZIGA XOS SIFAT REAKSIYALARI.

O'rinova Aziza Eshdavlat qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Umirzoqov Bahriddin Ulug'murod o'g'li
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Murodova Dildora Chori qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Tursunmuratov Obid Xamzayevich
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqola kimyo fanining muhim bo'limlaridan biri bo'lgan analitik kimyo kationlariga hamda Ca^{2+} ionining oksalat, sulfat, karbonat ionlari bilan cho'kma hosil qilishi, shuningdek rangli komplekslar berishi kabi analitik belgilar tahlil qilinadi. Maqolada Ca^{2+} ionini Sr^{2+} va Ba^{2+} kationlaridan farqlashga imkon beruvchi reaksiyalarning solishtirma tavsifi berilib, ularning analitik amaliyotdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari kalsiy ionini tez ishonchli va aniq aniqlash ushbu sifat reaksiyalarining samaradorligini ko'rsatadi.*

Аннотация. *Эта статья относится к одному из важных разделов химии. Проанализированы катионы аналитической химии и такие аналитические признаки, как образование осадков иона Ca^{2+} с оксала- , сульфат- , карбонат- ионами, а также образование окрашенных комплексов. В статье дана сравнительная характеристика реакций, позволяющих отличить ион Ca^{2+} от катионов Sr^{2+} и Ba^{2+}, и обосновано их значение в аналитической практике. Результаты исследования показывают эффективность данных качественных реакций для быстрого, надежного и точного определения иона кальция.*

Abstract. *This article is one of the important sections of chemistry, analytical chemistry cations and analytical signs such as the formation of precipitates of* Ca^{2+} *ion with oxalate, sulfate, carbonate ions, as well as the formation of colored complexes are analyzed. The article provides a comparative description of the reactions that allow distinguishing the* Ca^{2+} *ion from the* Sr^{2+} *and* Ba^{2+} *cations, and justifies their importance in analytical practice. The result of the study show the effectiveness of the calcium ion.*

Kalit so'zlar: *III analitik guruh kationlari, kalsiy kationi,* Ca^{2+} *ni aniqlash, sifat reaksiyalari, oksalat cho'kmasi, karbonat cho'kmasi, sulfat cho'kmasi, kompleks hosil bo'lishi, alanga rangi, ionlarni farqlash, analitik kimyo, kationlar jadvali.*

Ключевые слова: *катионы III аналитической группы, катион кальция, определение* Ca^{2+}*, качественные реакции, осаждение оксалатов, осаждение карбонатов, осаждение сульфатов, комплексообразование, цвет пламени, дискриминация ионов, аналитическая химия, таблица катионов.*

Keywords: *analytical group III cations, calcium cation, determination of* Ca^{2+}*, qualitative reactions, oxalate precipitation, carbonate precipitation, sulfate precipitation, complex formation, flame color, ion discrimination, analytical chemistry, table of cations.*

Kirish: XVII asr o'rtalaridan boshlab kimyoviy element – murakkab moddalarning kimyoviy jihatdan parchalanmaydigan tarkibiy qismi degan tushunchani Boyl fanga kiritgandan keyin analitik kimyo ilmiy fan sifatida rivojlana boshlagan[1].

Kimyoviy analiz usullari - modda aralashmasining kimyoviy tarkibini hamda ularning ichki tuzilishini aniqlashda yordam beradi. Bu analitik kimyo fanining asosiy vazifasidir[2].

Analitik kimyoda aralashmalar tarkibidagi kationlarni guruhlarga ajratib o'rganish ularni aniqlash jarayonini osonlashtiradi va aniq natija olish imkonini beradi.

III analitik guruh kationlari haqida umumiy ma'lumot.

III analitik guruh kationlariga – kalsiy, stronsiy va bariy ionlari kiradi. Ularning guruh reaktivi – 1mol/dm^3 sulfat kislotasi hisoblanadi. Ular o'ziga xos cho'kmalar hosil qilishi va alangada ma'lum rang berishi bilan farqlanadi. Bu ionlar ichida Ca^{2+} ioni amaliy tahlillarda eng ko'p uchraydi, chunki u suv, tuproq, o'simliklar tarkibi va ko'plab sanoat mahsulotlarida mavjud.

Ca^{2+} ionini to'g'ri aniqlash uchun eng muhim sifat reaksiyalarini bilish zarur. Kalsiy ioni oksalat, karbonat va sulfat ionlari bilan oq rangli cho'kmalar hosil qilishi, hamda alangaga tushirilganda qizil-g'isht rangida porlashi bilan ajralib turadi. Ushbu belgilar kalsiyni boshqa III guruh kationlaridan ishonchli ravishda farqlash imkonini beradi. Ushbu maqolada aynan Ca^{2+} ionining sifat reaksiyalari ularning qanday sharoitda kechishi hamda amaliy tahlildagi ahamiyati haqida aniq va tushunarli ma'lumotlar keltiriladi.

Kalsiy kationining sifat reaksiyalari.

Kalsiy kationini topish reaksiyalariga oid tajribalarni bajarishda $CaCl_2$ yoki $Ca(NO_3)_2$ eritmalaridan foydalaniladi.

1. Kalsiy kationining ammoniy oksalat bilan reaksiyasi:

$$CaCl_2 + (NH_4)_2C_2O_4 = CaC_2O_4\downarrow + 2NH_4Cl$$

Oq cho'kma hosil bo'ladi, u suyultirilgan HCl da yomon eriydi, sirka kislotada esa erimaydi[3].

2. Kaliy kationining karbonatlar bilan reaksiyasi natijasida oq rangli cho'kma hosil bo'lishi.

$$Ca(NO_3)_2 + (NH_4)_2CO_3 = CaCO_3\downarrow + 2NH_4NO_3$$

3. Sulfat kislota bilan kalsiy kationining konsentrlangan eritmasi ta'sirlashishi natijasida, oq rangli xarakterli kristall gipsni hosil qilish reaksiyasi:

$$CaCl_2 + H_2SO_4 + 2H_2O = CaSO_4 * 2H_2O + 2HCl$$ [4].

4. Kalsiy kationining kaliy geksasianoferrat (II) bilan reaksiyasi:

$$CaCl_2 + 2NH_4Cl + K_4[Fe(CN)_6] = Ca(NH_4)_2[Fe(CN)_6]\downarrow + 4KCl$$

Kaliy geksasianoferrat (II), kalsiy ionlari va ammoniy tuzlari ishtirokida isitilganda, oq kristall cho'kma hosil bo'lishi yuzaga keladi[5].

Ca^{2+} kationi uchun xos bo'lgan sifat reaksiyalar:

				
a	**b**	**c**	**d**	**e**

1-rasm. a) $CaC_2O_4\downarrow$ **b)** $CaCO_3\downarrow$ **c)** $CaSO_4 * 2H_2O$ **d)** $Ca(NH_4)_2[Fe(CN)_6]\downarrow$ **e)** qizil-g'isht rang

5. Alanga rangining bo'yalishi: Ba'zi metall birikmalarning ionlari alanga ichiga tushirilganda, alangaga o'ziga xos rang beradi. Masalan, litiy ionlari alangani qizg'ish-qizil tusga, natriy sariq rangga, kaliy binafsha, kalsiy qizil-g'isht rangiga, bariy esa sarg'ish-yashil tusga bo'yaydi. Metall ionlarining alangaga rang berish mexanizmi shunday izohlanadi: alanga ta'sirida moddalar parchalanib, metall ionlari yuqori harorat ta'siridan qo'zg'algan holatga o'tadi va odatdagi holatidan ancha katta energiyaga ega bo'ladi. Atomdagi elektronlar qisqa vaqt davomida qo'zg'algan holatda turadi, keyin esa yana boshlang'ich holatiga qaytadi. Shu qaytish jarayonida ular ma'lum to'lqin uzunlikdagi nur ko'rinishida energiya ajratadi. Har bir metall atomining energetik farqi turlicha bo'lgani uchun, ular chiqaradigan nurlar ham turli to'lqin uzunliklariga to'g'ri keladi. Natijada, inson ko'zi alangadagi rangi - qizil, sariq, yashil, yoki boshqa tusni idrok qiladi. Metall atomlari yoqish jarayonida juda tez tarqalib ketgani bois, alanganing rangi qisqa vaqt davomida kuzatiladi. Alanganing ranglanish reaksiyalari metall ionlarini optik usulda aniqlashda ham qo'llaniladi[6].

Kalsiy ionining alangada rangga bo'yalishi: Nixrom yoki platina simdagi kalsiy tuzlari gazning rangsiz alangasiga kiritilsa, alanga qizil-g'isht rangga kiradi bu faqat kalsiy kationi uchun xos hisoblanadi.

1-jadval

III guruh kationlarini farqlash sxemasi:

Reagentlar	**Kationlar**		
	Ca^{2+}	**Sr^{2+}**	**Ba^{2+}**
H_2SO_4 yoki sulfatlar	$CaSO_4$ oq cho'kma	$SrSO_4$ oq cho'kma	$BaSO_4$ oq cho'kma
$(NH_4)_2SO_4$ to'yingan eritmasi	$[Ca(SO_4)_2]^{2-}$ rangsiz eritma	$SrSO_4$ oq cho'kma	$BaSO_4$ oq cho'kma
Na_2CO_3, K_2CO_3	$CaCO_3$ oq cho'kma	$SrCO_3$ oq cho'kma	$BaCO_3$ oq cho'kma
$(NH_4)_2C_2O_4$	CaC_2O_4 oq cho'kma, CH_3COOH da erimaydi	SrC_2O_4 oq cho'kma, CH_3COOH da qisman eriydi	BaC_2O_4 oq cho'kma, CH_3COOH da isitganda eriydi
$K_4[Fe(CN)_6]$ + NH_4Cl	$Ca(NH_4)_2[Fe(CN)_6]$ oq cho'kma	-	-
Alanga rangining bo'yalishi	g'ishtsimon-qizil	qirmizi-qizil	sarg'ish-yashil

Xulosa: Ca^{2+} ioni III analitik guruh kationlarining eng muhim vakillaridan biri bo'lib, u bir nechta aniq va ishonchli sifat reaksiyalari bilan aniqlanadi. Kalsiy ioni oksalat bilan oq rangli kalsiy oksalat cho'kmasini, karbonat bilan oq rangli kalsiy karbonat cho'kmasini, sulfat bilan esa oz eriydigan kalsiy sulfat oq cho'kmasini hosil qiladi. Bu cho'kmalar kalsiyni boshqa kationlardan farqlash uchun asosiy belgilardir. Bundan tashqari, Ca^{2+} ioni alangaga tushirilganda qizil-g'isht rang hosil bo'lishi ham uning tezkor va aniq aniqlash usullaridan biridir. Ushbu reaksiyalar oddiy, aniq ko'rinadigan va takrorlanadigan bo'lgani uchun kalsiy ionini sifat jihatdan aniqlashda keng qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.N. Usanbaev, A.Dj. Kurbanova, P.X. G'aniyev, Z.Sh.Nurmatova. "Analitik kimyo" Chirchiq- 2023y.
2. M.C. Миркомилова, "Analitik kimyo" Toshkent, "O'zbekiston" – 2003y.
3. G.A. Aleksandrov, "Analitik kimyo asoslari" Toshkent: o'qituvchi nashriyoti – 2001y.
4. A.Q. Matyakubov, "Uslubiy ko'rsatma", Analitik kimyo fanidan kimyoviy analiz usullari bo'yicha laboratoriya ishlarini olib borish uchun. Chirchiq – 2025y.
5. Turabov N.T, Qutlimurotova N.H, Smanova Z.A. "Analitik kimyo" Toshkent – 2019y.
6. Yu.Ya. Xaritonov, A.N. Yunusxo'jayev, A.A. Shabilalov, S.D. Nasirdinov. "Analitik kimyo, Analitika" Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti – 2008y.

ZAMONAVIY ZARYADLOVCHI QURILMALAR

Polvonov Xolbek Nematovich
Qarshi Davlat texnika Unversiteti
Allashukurova Rayxon Jumanazar qizi
Qarshi Davlat texnika Unversiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy zaryadlash qurilmalari texnologiyasining rivojlanish tendensiyalari, ularning fizik-texnik asoslari, energiya samaradorligi masalalari hamda ular qo'llayotgan texnologik yechimlar tahlil qilinadi. USB Power Delivery, GaN (galliy nitrid) tranzistor texnologiyasi, Qi simsiz zaryadlash standarti, magnitli MagSafe tizimlari va quyosh energiyasida ishlovchi zaryadlash moslamalarining ilmiy texnik parametrlari ko'rib chiqiladi. Kelajakda masofaviy (Air Charging) zaryadlash tizimlarining rivojlanish istiqbollari ham*

muhokama etiladi. Maqola zamonaviy elektron qurilmalar energetikasi bilan qiziqadigan mutaxassislar, talabalar va tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar. *Zaryadlash qurilmalari, energiya samaradorlik, GaN texnalogiyasi, Qi simsiz zaryadlash, zaryadlash tizimi, masofaviy zaryadlash, Rezonansli zaryadlash, Radio chastota, samaradorlik.*

Annotation. *This article analyzes the development trends of modern charging device technology, their physical and technical foundations, energy efficiency issues, and the technological solutions they use. USB Power Delivery, GaN (gallium nitride) transistor technology, the Qi wireless charging standard, magnetic MagSafe systems, and scientific and technical parameters of solar-powered charging devices are considered. The prospects for the development of remote (Air Charging) charging systems in the future are also discussed. The article is intended for specialists, students, and researchers interested in the energy of modern electronic devices.*

Keywords. *Charging devices, energy efficiency, GaN technology, Qi wireless charging, charging system, remote charging, Resonant charging, Radio frequency, efficiency.*

Аннотация. *В статье анализируются тенденции развития современных технологий зарядных устройств, их физико-технические основы, вопросы энергоэффективности и применяемые в них технологические решения. Рассматриваются USB Power Delivery, технология GaN (нитрид-галлиевых) транзисторов, стандарт беспроводной зарядки Qi, магнитные системы MagSafe, а также научно-технические характеристики зарядных устройств на солнечных батареях. Также рассматриваются перспективы развития систем дистанционной зарядки (Air Charging) в будущем. Статья предназначена для специалистов, студентов и исследователей, интересующихся энергетикой современных электронных устройств.*

Ключевые слова. *Зарядные устройства, энергоэффективность, технология GaN, беспроводная зарядка Qi, система зарядки, дистанционная зарядка, резонансная зарядка, радиочастота, эффективность.*

Kirish: Giper ulangan dunyomizda qurilmaning quvvatlanishini soatlab kutish o‘tmishning yodgorligidek tuyuladi. Tez va samarali quvvatga bo‘lgan talab aql bovar qilmaydigan innovatsiyalarni keltirib chiqardi. Tez zaryadlashni chinakam tushunish uchun avval uni boshqaradigan elektr energiyasining asosiy tamoyillarini tushunishingiz kerak. Ushbu g‘oyalar barcha zamonaviy zaryadlash tizimlari uchun asosdir. Ular mavhum fizikani amaliy, kundalik qulaylikka aylantiradi.

Voltaj, oqim va quvvat:

Zaryadlash tezligi uchta bog‘langan narsaning mahsulotidir: kuchlanish (Voltsda o‘lchanadi, V), oqim (Amper, A bilan o‘lchanadi) va quvvat (Vatts, Vt bilan o‘lchanadi). Bu haqda o‘ylashning foydali usuli chelakni suv shlangi bilan to‘ldirishdir.

Voltaj (V) suv bosimiga o‘xshaydi. Yuqori bosim suvni katta kuch bilan tashqariga chiqaradi. Elektr nuqtai nazaridan, kuchlanish elektronlarni kontaktlarning zanglashiga olib o‘tadigan kuchdir. Standart USB zaryadlash 5V da ishlaydi, ammo ilg‘or tizimlar energiya uzatishni tezlashtirish uchun 9V, 15V yoki hatto 20V kabi yuqori kuchlanishlardan foydalanishi mumkin.

Oqim (A) - oqim tezligi yoki shlangning kengligi. Kengroq shlang bir xil vaqt ichida ko'proq suv o‘tishiga imkon beradi. Xuddi shu tarzda, oqim soniyada oqadigan elektr zaryadining miqdorini o‘lchaydi. Standart telefon zaryadlovchi qurilmasi 1A dan 2,4A gacha quvvatni taklif qilishi mumkin, lekin tez zaryadlovchi qurilmasi 3A yoki undan ko‘proq quvvatga ega bo‘lishi mumkin.

Quvvat (Vt) - umumiy ishlab chiqarish. Bu har qanday vaqtda chelakka tushgan suvning umumiy miqdori. Bu zaryadlash tezligining eng yaxshi o‘lchovidir va kuchlanish va oqimni ko‘paytirish orqali hisoblanadi. Formula oddiy:

Quvvat(Vt)=Kuchlanish(V)×Oqim(A)

Masalan, eski 5 Vt quvvatli zaryadlovchi 5V va 1A (5V×1A=5 Vt) da ishlashi mumkin. Zamonaviy 18 Vt tez zaryadlovchi, lekin 9V va 2A (9V×2A=18Vt) da ishlashi mumkin. Bu zaryadlash vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi.

Universal standart: USB quvvat yetkazib berish (USB-PD)

USB quvvat yetkazib berish (USB-PD) - USB Implementers Forum (USBIF) tomonidan ishlab chiqilgan zaryadlash qoidasi. U universal zaryadlash yechimi uchun asosiy standartga aylandi. USB-PD USB-C ulagichi orqali ishlaydi. U zaryadlovchi va qurilmalar o‘rtasida umumiy til bo‘lib ishlaydi va yangi qobiliyatlarni ochadi.

Quvvat muzokaralari va quvvat ma’lumotlari ob’ektlari (PDOs)

USB-PD ning “aqlli” qismi - bu quvvatni muhokama qilish qobiliyati. Bu oddiy bir tomonlama ko‘cha emas; bu raqamli qo‘l siqishdir. Zaryadlovchi qurilma quvvat ma’lumotlari ob’ektlari (PDO) ro‘yxatini yuborish orqali o‘z qobiliyatini ko‘rsatadi. Har bir PDO zaryadlovchi qurilma taklif qilishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos quvvat profilidir, masalan, sobit kuchlanish va maksimal oqim (masalan, 3A da 5V, 3A da 9V, 3A da 15V).

Qurilma ulanganda, u PDO ro‘yxatini oladi. U ro‘yxatni o‘zining quvvat ehtiyojlari bilan taqqoslaydi va keyin unga eng mos keladigan PDO uchun so‘rov yuboradi. Bu zaryadlovchi va qurilma o‘rtasida “shartnoma” yaratadi. Bu quvvat uzatish xavfsiz va samarali bo‘lishini ta‘minlaydi. Bu muzokara millisekundlarda sodir bo‘ladi. Yagona USB-PD zaryadlovchi qurilmasi naushniklardan tortib noutbukgacha bo‘lgan hamma narsani xavfsiz quvvatlantirishining asosiy sababidir.

USB PD 3.1 spetsifikatsiyasi kengaytirilgan quvvat diapazoni (EPR) bilan 2021-yilda 100 Vt (20V 5A) chegara bilan ta‘minlangan USB Power Delivery (PD) standartini yangiladi. USB PD 3.1 o‘yin noutbuklari yoki kattaroq monitorlar kabi yuqori quvvatli qurilmalarga mo‘ljallangan.

Birinchi USB-PD spetsifikatsiyasi 100 Vt (5A da 20 V) chegarasiga ega edi. Bu katta qadam edi, lekin o‘yin noutbuklari yoki katta monitorlar kabi yuqori

unumdor qurilmalar uchun bu hali ham etarli emas edi. USB PD 3.1 spetsifikatsiyasi 2021 yilda paydo bo‘ldi va buni kengaytirilgan quvvat diapazoni (EPR) joriy etish bilan tuzatdi.

EPR quvvat chegarasini ajoyib 240 Vtga suradi. U buni uchta yangi qattiq kuchlanish darajasini qo‘shish orqali amalga oshiradi: 28V, 36V va 48V. Ularning barchasi 5A gacha bo‘lgan oqimni etkazib berishga qodir. Bundan tashqari, EPR sozlanishi kuchlanish deb nomlangan yangi rejimni o‘z ichiga oladi.

GaN (Gallium Nitride) zaryadlovchi qurilmalari an’anaviy kremniy komponentlarini samaraliroq yarimo‘tkazgichli material bilan almashtirib, kamroq issiqlik hosil qiluvchi kichikroq, engilroq va tezroq zaryadlovchi g‘ishtlarga imkon beradi.

UGREEN Nexode 500W GaN 6-portli ish stoli zaryadlash stansiyasi: Bu kuchli ish stoli varianti bo‘lib, umumiy quvvati 500 Vt bo‘lib, bitta USB-C porti bitta qurilmaga 240 Vt quvvatni surish imkonini beradi. Bir vaqtning o‘zida noutbuklar, planshetlar va telefonlar kabi bir nechta quvvat talab qiladigan qurilmalarni zaryad qilish uchun idealdir.

Qi simsiz quvvat konsorsiumi tomonidan ishlab chiqilgan induktiv zaryadlash uchun ochiq standartdir. U smartfonlar kabi mos keluvchi qurilmalarga Qi zaryadlovchi qurilmasiga o‘rnatilganda quvvat olish imkonini beradi, bu esa 4 sm (1,6 dyuym) gacha bo‘lgan masofalarda samarali bo‘lishi mumkin. Apple kompaniyasining MagSafe texnologiyasiga asoslangan ixtiyoriy Magnit Quvvat profilini amalga oshiradigan, qurilmani yaxshiroq ulash va zaryadlovchiga moslashtirish uchun magnitlardan foydalanadigan qurilmalar Qi2 deb etiketlanishi mumkin.

Qi versiyasi 1.0 2010 yilda chiqarilgan; 2017 yilga kelib u smartfonlar, planshetlar va boshqa qurilmalarning 200 dan ortiq modellariga kiritildi. 2023-yil dekabr oyida Apple, Asus, Google, Huawei, LG Electronics, Samsung, Xiaomi va Sony kabi 351 ta ishlab chiqaruvchi standart bilan ishladi. 2025-yil aprel oyida chiqarilgan Qi spetsifikatsiyasining 2.2 versiyasi. turli ishlab chiqaruvchilarning

qurilmalari o‘rtasida moslik. 2025 yil iyul oyida chiqarilgan joriy 2.2.1 versiyasi 25 vatt quvvat olish rejimi uchun Qi2 25 Vt brendingni o'z ichiga oladi.

EV zaryadlovchi:

Zaryadlash quvvati: P= VXA x Fazalar/1000

Bir fazali: P= VXA 1000

Siz ushbu formuladan zaryadlovchining quvvat ko‘rsatkichini yoki noutbukingiz quvvat sarfini aniqlashingiz mumkin.

Masofaviy zaryadlash texnologiyasi qurilmalarga turli masofalarda elektromagnit induksiya, rezonansli zaryadlash yoki radiochastota (RF) kabi turli usullar orqali simsiz zaryadlash imkonini beradi. Bugungi kunda eng keng tarqalgan



zaryadlash yaqin masofali induktiv zaryadlash bo'lsa-da (masalan, Qi-sertifikatlangan prokladkalar), haqiqatan ham “masofadan” zaryadlash uchun uzoq masofali texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. ommon yaqin-dala induktiv zaryadlash. U qanday ishlaydi: Zaryadlovchi stantsiya elektromagnit maydonni yaratish uchun lasandan foydalanadi, bu esa prokladkaga qo‘yilganda qurilma ichidagi qabul qiluvchilasanda elektr tokini keltirib chiqaradi.

1-rasm. Noutbuk zaryadlash qurilmasi sxemasi.

Qurilma to‘g‘ridan-to‘g‘ri, zaryadlash paneli yoki stend bilan, odatda bir necha santimetrgacha yaqin aloqada bo‘lishini talab qiladi.

Eng keng tarqalgan qabul qilingan standart Qi bo‘lib, u moslikni ta'minlaydi va begona narsalarni aniqlash va qizib ketishning oldini olish kabi xavfsizlik xususiyatlarini o‘z ichiga oladi.

U qanday ishlaydi: quvvatni uzoq masofalarga uzatish uchun magnit maydonlardan foydalanadi va induktiv zaryadlashdan ko‘ra ko‘proq moslashuvchanlik bilan ma’lum fazoviy erkinlikka imkon beradi.

Bir vaqtning o‘zida bir nechta qurilmalarni zaryadlash uchun ilovalar bilan induktiv zaryadlashdan ko‘ra uzoqroq masofalarga quvvatni uzatishi mumkin.

U qanday ishlaydi: Transmitter radio to‘lqinlarini uzatadi va qurilmaga o'rnatilgan qabul qilgich bu energiyani oladi va uni quvvatga aylantiradi.

Transmitterdan bir necha metr masofadagi qurilmalarni quvvat bilan ta'minlay oladi, bu haqiqiy fazoviy erkinlikni ta'minlaydi.

Aloqa va kontaktsiz: Asosiy farq bu masofa. Induktiv zaryadlash to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani talab qiladi, rezonans va chastotali zaryadlash esa uzoq masofalarda ishlashi mumkin.

Energiyani uzatish: Barcha texnologiyalar elektr energiyasini simsiz uzatish uchun elektromagnit energiyadan foydalanadi.

Samaradorlik: Energiya uzatishda, asosan issiqlik sifatida yo‘qoladi, shuning uchun samaradorlik texnologiyaga qarab o‘zgaradi.

Ilova: Induktiv zaryadlash allaqachon keng tarqalgan, rezonans va chastotali zaryadlash esa masofadan turib zaryadlashni talab qiladigan kelajakdagi ilovalar uchun ishlab chiqilayotgan yangi texnologiyalardir.

Xulosa

Zamonaviy zaryadlash qurilmalari energiya samaradorlik, xavfsizlik va qulaylikni uyg‘unlashtiradi. **GaN texnologiyasi** yuqori quvvat va ixchamlikni ta’minlasa, **Qi simsiz zaryadlash** kabelsiz quvvatlanishni amalga oshiradi. Shu bilan birga, **masofaviy, rezonansli va radio chastotali zaryadlash** kelajakda qurilmalarni butunlay kabellarsiz quvvatlantirish imkonini ochadi. Zamonaviy

zaryadlash tizimlari energiya tejamkorligi va universal ishlash bo‘yicha kelajak texnologiyalari asosidir.

Zamonaviy zaryadlovchi qurilmalar elektr transport vositalari (EV) va mobil elektronika uchun simli va simsiz texnologiyalardagi yutuqlarni o‘z ichiga oladi. Kichikroq, samaraliroq zaryadlash qurilmalari uchun galiy nitridi (GaN) kabi texnologiyalar yordamida simli variantlar yaxshilanmoqda. Simsiz zaryadlash portlarda qulaylik va kam eskirishni ta'minlaydi, tez zaryadlash tezligi va o‘rnatilgan xavfsizlik xususiyatlarini ta’minlovchi induktiv va sig‘imli ulanishdagi yutuqlar bilan. Kelajakdagi ishlanmalar orasida aqlli zaryadlash, avtomobildan tarmoqqa (V2G) texnologiyasi va hatto avtomobillar harakatlanayotganda qayta zaryadlanadigan dinamik zaryadlash kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. **“Elektronika”** — X. K. Aripov, A. M. Abdullayev, N. B. Alimova va boshqalar.

2. **“Elektronika asoslari”** — I. I. Xafizov, M. I. Maxmudov, N. N. Mirzoyev.

3. **“Radioelektronika asoslari”** — (o‘quv qo‘llanma, SamDU).

4. **“Umumiy elektrotexnika va elektronika asoslari”** — A. I. Xonboboev.

5. "Qi spetsifikatsiyalari". Simsiz quvvat konsortsiumi. Asl nusxasidan 20-04-2020 da arxivlangan. Olingan 20-04-2020.

6. "Dunyodagi birinchi Qi kengaytirilgan quvvat profilli smartfon bo'yicha LG va IDT hamkori". LG yangiliklar xonasi. 2017-11-07.

7. Liu, Q., Xiong, M., Liu, M., Jiang, Q., Fang, W., & Bai, Y. (2021). *Charging a Smartphone Over the Air: The Resonant Beam Charging Method*. Wang, H., Yu, J., Ye, X., Chen, Y.-S., & Zhao, Y. (2023). *Qi standard metasurface for free-positioning and multi-device supportive wireless power transfer*.

8. Xalikov, S. S., & Xalikov, S. S. „Simsiz zaryadlash texnologiyasi yoki elektrenergiyani simsiz uzatishning amaliy ahamiyati“. (Zenodo.)

9. Tog’ayev, I., & Abdullayev, U. „Elektr energiyasini simsiz uzatish va uning amaliy ahamiyati“. (Navoiy Davlat Konchilik va Texnologiyalar Universiteti)

10. Imomova, Z. B. „Elektr tarmog‘ini raqamlashtirish: Smart Grid texnologiyalari va ularning energiya ta’minoti tizimlarining samaradorligini oshirishdagi roli“. Scientific-jl.com.

11. O‘tkirov, S. X., & Qorajonov, J. A. „Elektr energetika tizimlarining evolyutsiyasi va muqobil energiya manbalarining barqaror rivojlanishdagi roli“. *International Journal of Science and Technology*.

12. Siddikov, I., Mirzoyev, N., Anarboeb, M., & Jo‘ramurotova, S. „Elektr energiyasini tejash va samaradorligini oshirish uchun gibrid quyosh elektr stansiyasini loyihalash uslubiyoti“. *Sambhram Xabarnomasi*.

ETIDRONIK KISLOTANING METALLAR BILAN KOMPLEKS BIRIKMA HOSIL QILISHDA ELEKTRONODONORLIK XOSSALARINI KVANT-KIMYOVIY USULDA ANIQLASH

Rajapova Sojida Karimboy qizi

Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna

O‘zbekiston Milliy universiteti Kimyo fakulteti dekani, k.f.d., professor

Abdullayeva Zubayda Shavkatovna

Urganch Ranch texnologiya universiteti dotsenti, k.f.f.d. (PhD), dotsent

Masharipov Azamat Tursinboyevich

Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti akademik litseyi Kimyo-biologiya kafedrasi mudiri, k.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: *Ushbu ishda Etidronik kislota (HEDP) ligandi molekulasining elektron-donorlik xossalari kvant-kimyoviy hisoblashlar yordamida o‘rganildi. Hisoblashlar HyperChem dasturiy paketida yarim empirik* ***AM1*** *usuli asosida amalga oshirildi. Molekulaning geometriyasi optimallashtirilib, undagi zaryad taqsimoti va elektron zichligi tahlil qilindi. Olingan natijalar Etidronik kislota ligandining koordinatsion birikmalar hosil qilishdagi elektron-donorlik qobiliyati yuqori ekanini ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlar: *Etidronik kislota, HyperChem, kvant-kimyoviy tahlil, elektron-donorlik xossalari.*

Abstract: *In this study, the electron-donating properties of the Etidronic acid (HEDP) ligand molecule were investigated using quantum-chemical calculations. The calculations were performed in the HyperChem software package using the semi-empirical* ***AM1*** *method. The molecular geometry was optimized, and the charge distribution and electron density were analyzed. The obtained results indicate that the Etidronic acid ligand possesses a high electron-donor ability in the formation of coordination compounds.*

Keywords: *Etidronic acid, HyperChem, quantum-chemical analysis, electron-donating properties.*

Аннотация: *В данной работе были изучены электронодонорные свойства молекулы лиганда этидроновой кислоты (HEDP) с использованием квантово-химических расчётов. Расчёты выполнялись в программном пакете HyperChem на основе полуэмпирического метода* ***AM1****. Геометрия молекулы была оптимизирована, проведён анализ распределения зарядов и электронной плотности. Полученные результаты показали, что лиганд этидроновой кислоты обладает высокой электронной донорной способностью при образовании координационных соединений.*

Ключевые слова: *этидроновая кислота, HyperChem, квантово-химический анализ, электронодонорные свойства.*

Koordinatsion birikmalar hosil bo‘lishida ligandning elektronodonorlik xossalari asosiy omillardan biridir. Xususan, fosfor, azot va kislorod atomlarini o‘z ichiga olgan organofosforli ligandlar metall ionlari bilan mustahkam komplekslar hosil qilish qobiliyatiga ega. Etidronik kislota (HEDP) tarkibidagi **ikki fosfon (–PO_3H_2)** guruhi va markaziy **C(OH)(CH_3)** fragmenti, shuningdek **P=O** bog‘idagi elektron zichligi, metall markaz bilan **kuchli kordinatsiya** hosil qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Etidronik kislota (1-gidroksietan-1,1-difosfon kislota, HEDP) – difosfonat sinfiga mansub bo‘lib, tibbiyotda osteoporoz va boshqa suyak kasalliklarini davolashda, sanoatda esa korroziyaga qarshi va inkrustatsiyaga (qarish va cho‘kindi hosil bo‘lishiga) qarshi reagent sifatida keng qo‘llanadi. Difosfonatlarning umumiy xususiyati – ular Ca^{2+}, Mg^{2+}, Fe^{2+}, Cu^{2+}, Zn^{2+} kabi turli metall ionlari bilan barqaror xelat komplekslar hosil qilishga juda yuqori moyillikka ega bo‘lishidir [1].

So‘nggi yillarda bisfosfonatlar tuzilishi, protonlanish darajalari va metall bilan kompleks hosil qilish xossalarini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab ishlar chop etilmoqda. Masalan, bisfosfonatlarning tibbiy va sanoat qo‘llanilishi, ularning tuzilma–xossa bog‘liqligi, eritmadagi kompleks hosil bo‘lish termodinamikasi va eruvchanlik parametrlari bo‘yicha keng qamrovli sharhlar mavjud [2]. Shu bilan birga, bisfosfonatlarning metal bilan o‘zaro ta’sirini chuqur tushunish uchun faqat eksperimental ma’lumotlar emas, balki kvant-kimyoviy hisoblashlar asosida ligandning elektron donorlik markazlarini, zaryad taqsimotini va potentsial koordinatsion saytlardagi elektron zichlikni aniqlash ham muhim ahamiyatga ega.

Etidronik kislota fosfonat guruhlari (–PO_3H_2), α-holatdagi gidroksil (–OH) va qisman deprotonlangan shakllarda bir vaqtning o‘zida bir necha donor markaz – kislorod va fosfor atomlari orqali koordinatsiyalanishi mumkin. Bu esa metall ionlar bilan mono-, bi- va poliyadrok komplekslar hosil bo‘lishi, shuningdek, polimerli tuzilmalar paydo bo‘lishini ta’minlaydi [3]. Kompleks hosil bo‘lish mexanizmini, ligandning qaysi atomlari kuchliroq elektron donorlik xususiyatiga ega ekanini, turli protonlanish shakllarida donor markazlarning reaktivligini aniqlash, metallo-

bisfosfonat tizimlarining strukturasi va funksional xossalarini maqsadli boshqarish imkonini beradi.

Qator ishlar etidronik kislota asosidagi komplekslarning tibbiy (suyak to‘qimasiga yo‘naltirilgan yetkazib berish tizimlari, metallokompleks dori moddalari) va ekologik (og‘ir metall ionlarini sorbsiya qilish, suvlarni tozalash) sohalardagi ahamiyatini ko‘rsatgan. Biroq mavjud ishlarning aksariyati komplekslarning umumiy termodinamik barqarorligi, sorbsiya sig‘imi yoki kristall tuzilishini aniqlash bilan cheklanadi; ligandning elektron donor markazlarini kvant-kimyoviy darajada tizimli tahlil qilish, turli metall ionlar bilan solishtirish va donorlik xossalarini miqdoriy ko‘rsatkichlar orqali baholash bo‘yicha ma’lumotlar yetarli emas.

Shu nuqtai nazardan, “Etidronik kislotaning metallar bilan kompleks birikma hosil qilishda elektronodonorlik xossalarini kvant-kimyoviy usulda aniqlash” mavzusi dolzarb hisoblanadi. Mazkur ishda etidronik kislotaning turli protonlangan va deprotonlangan shakllari uchun elektron tuzilma, donor atomlar atrofidagi zaryad taqsimoti va metall ion bilan potensial koordinatsion markazlarning kvant-kimyoviy tavsifi berilishi, shuningdek, bu parametrlarning komplekslarning barqarorligi va potensial amaliy qo‘llanilishiga ta’siri tahlil etilishi ko‘zda tutiladi.

So‘nggi yillarda kvant-kimyoviy hisoblashlar ligandlarning koordinatsion xossalarini nazariy prognoz qilishda keng qo‘llanilmoqda. Yarim empirik AM1 usuli molekulalarning elektron tuzilishi, zaryad taqsimoti va molekulyar orbitalar energiyalarini aniqlashda samarali metod hisoblanadi. Ushbu ishda Etidronic acid ligandi elektronodonorlik xossalari HyperChem dasturida AM1 usulida hisoblandi va natijalar tahlil qilindi.



1-rasm. Etidronik kislata molekulasining elektrostatik potensial yuzasi

1-rasmda Etidronik kislota molekulasining elektrostatik potensial yuzasi (ESP) yarim empirik AM1 usulida hisoblangan va tasvirlangan. Yuzadagi rang taqsimoti molekulaning elektron zichlik gradientini ko‘rsatadi: binafsha/pushti sohalar manfiy elektrostatik potensial (elektron zichligi yuqori), yashil sohalar esa musbat elektrostatik potensial (elektron zichligi past) hududlarini bildiradi.

Hisoblash natijalariga ko‘ra, molekulaning elektrostatik potensial yuzasida eng katta musbat potensial qiymati **+1,671** birlikni tashkil etadi. Musbat potensial asosan **fosfor atomlari (P)** va **gidroksil guruhlaridagi protonlar (–OH)** atrofida kuzatiladi. Bu hududlar elektron zichligi past bo‘lib, molekulada **elektrofil markazlar** sifatida namoyon bo‘ladi.

Molekuladagi eng katta manfiy potensial esa **–0.159** birlikni tashkil etib, u **P=O** bog‘i kislorod atomlari hamda fosfonat guruhlaridagi **–PO_3H / –PO_3^-** kislorodlari atrofida joylashgan. Ushbu hududlar elektron zichligi yuqori bo‘lgan **donor markazlar** bo‘lib, metall ionlari bilan kuchli koordinatsion bog‘ hosil qilishga moyildir.

Elektrostatik potensial yuzasining rang taqsimoti shuni ko‘rsatadiki, P=O bog‘i kislorod atomi atrofidagi **binafsha–qizil rangli** sohalar manfiy potensialning

yuqori qiymatlari bilan ajralib turadi. Bu esa ushbu atomlarning metall ionlari bilan koordinatsiya jarayonida asosiy rol o‘ynashini tasdiqlaydi.

Molekula tuzilishida sian guruhi mavjud emasligi sababli, qo‘shimcha donor markaz sifatida asosan **fosfonat kislorodlari** va **gidroksil guruhlari** faol ishtirok etadi. Yashil rang bilan ifodalangan hududlar esa molekuladagi **neytral yoki zaif elektrofil** markazlarni aks ettirib, ligandning fazoviy orientatsiyasiga ta’sir qiladi.

Olingan natijalar Etidronik kislata ligandining **elektron-donorlik qobiliyati yuqori** ekanligini va bir nechta faol donor markazlarga ega bo‘lgani uchun uni **polidentat ligand** sifatida samarali ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, P=O kislorodlari va fosfonat guruhlaridagi O-atomlarning yuqori manfiy potensiali metall ionlari bilan barqaror koordinatsion komplekslar hosil bo‘lishini ta’minlaydi.

HyperChem dasturida yarim empirik AM1 usulida olib borilgan kvant-kimyoviy hisoblashlar Etidronic acid ligandi yuqori elektronodonorlik qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatdi. Molekulaning fosfor va kislorod atomlarida elektron zichlikning yuqoriligi bu ligandni metall ionlari bilan samarali komplekslar hosil qilish uchun istiqbolli ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Knighton R. C., va boshq.** Formation of heteropolynuclear lanthanide complexes using macrocyclic phosphonated cyclam-based ligands // *Inorganic Chemistry*. – 2020. – Vol. 59. – P. 10311–10327.
2. **Verma P. K., va boshq.** Diphosphonate ligand for stabilization of tetravalent uranium and neptunium in aqueous medium under aerobic conditions // *Inorganic Chemistry*. – 2024. – Vol. 63. – P. 3348–3358.
3. **Bhattacharyya A., va boshq.** Unfolding the complexation and extraction of Am^{3+} and Eu^{3+} using N-heterocyclic aromatic diphosphonic acids: a combined experimental and DFT study // *Dalton Transactions*. – 2019. – Vol. 48.

TENGLAMALAR ILDIZLARINING TURG’UNLIGI HAQIDA

O‘sarov Toshniyoz
Samarqand davlat pedagogika instituti
Arziqulov A.U.
Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya.*Maqolada chiziqli va modulli tenglamalar ildizlarining turg‘unlik shartlari tekshirilgan. Tenglamalar koeffitsientlarining o‘zgarishi natijasida ildizlarning joylashuvi va xususiyatlari qanday o‘zgarishini tahlil qilish orqali turg‘unlik xossasi o’rganilgan. Ildizlarning turg’unligi algebraik jihatdan o’rganilgan.Tenglamalarning barcha koeffitsiyent va ozod hadlariga turli xil vaziyatlarda orttirma berilib,berilgan tenglamalar ildizlari bilan orttirma berilgan tenglama ildizlari orasidagi farqlar solishtirilgan, orttirma nolga va cheksizlikka intilganda ildizlarning o’zgarishi tadqiq etilgan.*

Kalit so’zlar. *Tenglamaning ildizi, ildizning turg’unligi, koeffitsiyentlarga orttirma berish, noturg’unlik, modulli tenglama ildizlari, chiziqli tenglama ildizlari.*

Abstract. *The article investigates the stability conditions of the roots of linear and modular equations. The study analyzes how the locations and properties of the roots change as the coefficients of the equations vary, thereby exploring the stability characteristics. The stability of the roots is examined using algebra. The coefficients and free terms of the equations are varied in different scenarios, and the differences between the roots of the given equations and those of the modified equations are compared. The behavior of the roots is analyzed when the modifications tend to zero or infinity.*

Keywords. *Root of an equation, stability of a root, coefficient variation, instability, roots of modular equations, roots of linear equations.*

Аннотация. *В статье исследованы условия устойчивости корней линейных и модульных уравнений. Анализируется, как изменяются расположение и свойства корней при изменении коэффициентов уравнений, что позволяет изучить характеристики устойчивости. Устойчивость корней рассматривается с использованием как алгебраического.Коэффициенты и свободные члены уравнений варьировались*

в различных ситуациях, и сравнивались различия между корнями исходных уравнений и корнями уравнений с изменёнными параметрами. Рассматривается поведение корней при стремлении изменений к нулю или бесконечности.

Ключевые слова. *Корень уравнения, устойчивость корня, изменение коэффициентов, неустойчивость, корни модульных уравнений, корни линейных уравнений.*

Kirish. Zamonaviy matematikaning muhim yo‘nalishlaridan biri tenglamalar nazariyasi bo‘lib, unda tenglama ildizlarining xossalarini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi.Ayniqsa, tenglama koeffitsiyentlarining kichik o‘zgarishlari natijasida ildizlarning qanday o‘zgarishi masalasi amaliy va nazariy jihatdan muhim hisoblanadi. Bu esa tenglama ildizlarining **turg‘unligi** tushunchasi bilan bevosita bog‘liqdir. Turg‘unlik masalasi fizika, texnika, iqtisodiyot va boshqa ko‘plab sohalarda uchraydigan matematik modellar ishonchliligini baholashda muhim rol o‘ynaydi.Tenglama ildizlarining turg‘unligi deganda, koeffitsiyentlardagi kichik orttirmalarning ildizlarning ham kichik o’zgarishiga olib kelishi tushuniladi . Aksincha, agar kichik o‘zgarishlar natijasida ildizlar ham keskin o‘zgarsa, bunday ildiz turg‘un emas deyiladi. Shu sababli, tenglama ildizining turg‘un yoki noturg‘unligini aniqlash matematik tadqiqotlarda va amaliy masalalarda muhimdir. Ushbu maqolada chiziqli hamda modulli tenglamalar misolida koeffitsiyentlarga berilgan orttirmalar yordamida ildizlarning o‘zgarishi tahlil qilingan va tenglamalar ildizlarining turg‘unlik holatlari baholangan.

Asosiy qism.

Chiziqli tenglamaning ildizlarining turg‘unligi. Quyidagi chiziqli tenglamani qaraymiz.

$\boldsymbol{ax = b}$, $\boldsymbol{x = \frac{b}{a}}$, b noldan farqli.

Bu chiziqli tenglamaning koefisiyentlariga 8 xil holatdaa orttirma berish mumkin ($\varepsilon > 0$):

1. $(a \pm \varepsilon)x = b + \varepsilon$
2. $(a \pm \varepsilon)x = b - \varepsilon$

3. $(a \pm \varepsilon)x = b$ 4. $ax = b \pm \varepsilon$

1. a va b ga ε orttirma beramiz: $(a + \varepsilon)x = b + \varepsilon$

$$x = \frac{b+\varepsilon}{a+\bar{\epsilon}}, \begin{cases} \varepsilon \to 0, x \to \frac{b}{a} \\ \varepsilon \to \infty, x \to 1 \end{cases}$$

2. a ga $-\varepsilon$ va b ga ε orttirma beramiz: $(a - \varepsilon)x = b + \varepsilon$

$$x = \frac{b+\varepsilon}{a-\bar{\epsilon}}, \begin{cases} \varepsilon \to 0, x \to \frac{b}{a} \\ \varepsilon \to \infty, x \to -1 \end{cases}$$

3. a ga ε va b ga $-\varepsilon$ orttirma beramiz: $(a + \varepsilon)x = b - \varepsilon$

$$x = \frac{b-\varepsilon}{a+\bar{\epsilon}}, \begin{cases} \varepsilon \to 0, x \to \frac{b}{a} \\ \varepsilon \to \infty, x \to -1 \end{cases}$$

4. a va b ga $-\varepsilon$ orttirma beramiz: $(a - \varepsilon)x = b - \varepsilon$

$$x = \frac{b-\varepsilon}{a-\bar{\epsilon}}, \begin{cases} \varepsilon \to 0, x \to \frac{b}{a} \\ \varepsilon \to \infty, x \to 1 \end{cases}$$

5. a ga $\pm\varepsilon$ orttirma beramiz: $(a - \varepsilon)x = b$

$$x = \frac{b}{a\pm\bar{\epsilon}}, \begin{cases} \varepsilon \to 0, x \to \frac{b}{a} \\ \varepsilon \to \infty, x \to 0 \end{cases}$$

6. b ga $\pm\varepsilon$ orttirma beramiz: $ax = b \pm \varepsilon$

$$x = \frac{b\pm\varepsilon}{a}, \begin{cases} \varepsilon \to 0, x \to \frac{b}{a} \\ \varepsilon \to \infty, x \to \infty \end{cases}$$

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, hamma hollarda tenglamalarning ildizlari turg'un bo'lar ekan , agar koefisiyentlarga cheksiz katta orttirma bersak, ildizlar har xil o'zgarmoqda. Biz orttirma(ε) cheksizlikka intilganda ildizlarning o'zgarish holatiga qarab tenglamalarni 4 ta guruhlarga ajratamiz.

1-guruh. $\varepsilon \to \infty,\ x \to 1$ - ildizi birga intiluvchi tenglamalar;

2-guruh. $\varepsilon \to \infty,\ x \to -1$ - ildizi minus birga intiluvchi tenglamalar;

3-guruh. $\varepsilon \to \infty,\ x \to 0$ - ildizi nolga intiluvchi tenglamalar;

4-guruh. $\varepsilon \to \infty,\ x \to \infty$ - ildizi cheksizlikka intiluvchi tenglamalar;

Chiziqli tenglama ildizlari haqida xulosa: 1. Barcha hollarda tenglamaning ildizi turg'un ekan. 2. Epsilon cheksizga intilgan ikki hol yuz beradi: a) ildiz turg'un

emas, lekin ildizning o'zgarishi chegaralangan. b) ildiz turg'un emas, ildizning o'zgarishi chegaralanmagan bo'lar ekan.

Modulli tenglamalar ildizlarining turg'unligi.

Bizga $|x-2|=1$ berilgan bo'lsin. Bu tenglamaning ildizlari $x_1=3$ va $x_2=1$ ekanligi ma'lum.Endi tenglamaning koeffitsiyentlariga turli xil kombinatsiyalarda orttirma beramiz va natijalarni solishtiramiz.Albatta, modulli tenglama uchun xususiy hol qaralmasa, murakkablik va aniqmaslik tug'diradi. Modulli tenglamada a,b, c lar parametrlar bo'lganda muammolar ko'p bo'ladi: Umumiy ko'rinishdagi $|ax+b|=c$ tenglamaning koefisentlariga ortirmalar berishning mumkin bo'lgan quyidagi 22 xil ko'rinishi bo'lishi mumkin:

1. $|(a+\varepsilon)x+b|=c$
2. $|ax+(b+\varepsilon)|=c$
3. $|ax+b|=(c+\varepsilon)$
4. $|(a+\varepsilon)x+(b+\varepsilon)|=c$
5. $|(a+\varepsilon)x+(b-\varepsilon)|=c$
6. $|(a+\varepsilon)x+b|=(c+\varepsilon)$
7. $|(a+\varepsilon)x+b|=(c-\varepsilon)$
8. $|(a-\varepsilon)x+b|=c$
9. $|ax+(b-\varepsilon)|=c$
10. $|ax+b|=(c-\varepsilon)$
11. $|(a-\varepsilon)x+(b+\varepsilon)|=c$
12. $|(a-\varepsilon)x+(b-\varepsilon)|=c$
13. $|(a-\varepsilon)x+b|=(c+\varepsilon)$
14. $|(a-\varepsilon)x+b|=(c-\varepsilon)$
15. $|(a+\varepsilon)x+(b+\varepsilon)|=(c+\varepsilon)$
16. $|(a+\varepsilon)x+(b+\varepsilon)|=(c-\varepsilon)$
17. $|(a+\varepsilon)x+(b-\varepsilon)|=(c+\varepsilon)$
18. $|(a+\varepsilon)x+(b-\varepsilon)|=(c-\varepsilon)$
19. $|(a-\varepsilon)x+(b+\varepsilon)|=(c+\varepsilon)$
20. $|(a-\varepsilon)x+(b-\varepsilon)|=(c+\varepsilon)$
21. $|(a-\varepsilon)x+(b+\varepsilon)|=(c-\varepsilon)$
22. $|(a-\varepsilon)x+(b-\varepsilon)|=(c-\varepsilon)$

Biz modulli tenglamalar ildizlarining turg'unligini quyidagi bitta tenglamada o'rganamiz. $|x-2|=1$, uning ildizlari 1 va 3.

I. $|(1+\varepsilon)x-2|=1$ dan $(1+\varepsilon)x-2=\pm1$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a) $(1+\varepsilon)x-2=1$, $x_1=\frac{3}{(1+\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to0, x\to3\\ \varepsilon\to\infty, x\to1\end{cases}$

b) $(1+\varepsilon)x-2=-1$,$x_2=\frac{1}{(1+\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to0, x\to1\\ \varepsilon\to\infty, x\to0\end{cases}$

II. $|x-(2+\varepsilon)|=1$ dan $x-(2+\varepsilon)=\pm 1$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a) $x-(2+\varepsilon)=1$, $x_1=\frac{3+\varepsilon}{1}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to 1\end{cases}$

b) $x-(2+\varepsilon)=-1$,$x_2=\frac{1+\varepsilon}{1}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to\infty\end{cases}$

III. $|x-2|=(1+\varepsilon)$ dan $x-2=\pm(1+\varepsilon)$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a) $x-2=(1+\varepsilon)$, $x_1=\frac{3+\varepsilon}{1}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to 1\end{cases}$

b) $x-2=-(1+\varepsilon)$,$x_2=\frac{1-\varepsilon}{1}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to\infty\end{cases}$

IV. $|(1+\varepsilon)x-(2+\varepsilon)|=1$ dan $(1+\varepsilon)x-(2+\varepsilon)=\pm 1$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a) $(1+\varepsilon)x-(2+\varepsilon)=1$, $x_1=\frac{3+\varepsilon}{(1+\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to 1\end{cases}$

b) $(1+\varepsilon)x-(2+\varepsilon)=-1$,$x_2=\frac{1-\varepsilon}{(1+\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to -1\end{cases}$

V. $|(1+\varepsilon)x-2|=(1+\varepsilon)$ dan $(1+\varepsilon)x-2=\pm(1+\varepsilon)$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a) $(1+\varepsilon)x-2=(1+\varepsilon)$, $x_1=\frac{3+\varepsilon}{(1+\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to 1\end{cases}$

b) $(1+\varepsilon)x-2=-(1+\varepsilon)$,$x_2=\frac{1-\varepsilon}{(1+\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to -1\end{cases}$

VI. $|(1+\varepsilon)x-(2-\varepsilon)|=1$ dan $(1+\varepsilon)x-(2-\varepsilon)=\pm 1$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a) $(1+\varepsilon)x-(2-\varepsilon)=1$, $x_1=\frac{3-\varepsilon}{(1+\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to -1\end{cases}$

b) $(1+\varepsilon)x-(2-\varepsilon)=-1$,$x_2=\frac{1-\varepsilon}{(1+\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to -1\end{cases}$

VII. $|(1+\varepsilon)x-2|=(1-\varepsilon)$ dan $(1+\varepsilon)x-2=\pm(1-\varepsilon)$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a)$(1+\varepsilon)x-2=(1-\varepsilon)$, $x_1=\frac{3-\varepsilon}{(1+\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to 1\end{cases}$

b) $(1+\varepsilon)x-2=-(1-\varepsilon)$,$x_2=\frac{1-\varepsilon}{(1+\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to -1\end{cases}$

VIII. $|(1-\varepsilon)x-2|=1$ dan $(1-\varepsilon)x-2=\pm 1$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a$(1-\varepsilon)x-2=1, x_1=\frac{3}{(1-\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to 0\end{cases}$

b)$(1-\varepsilon)x-2=-1$,$x_2=\frac{1}{(1-\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to 0\end{cases}$

IX. $|x-(2-\varepsilon)|=1$ dan $x-(2-\varepsilon)=\pm 1$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a) $x-(2+\varepsilon)=1, x_1=\frac{3-\varepsilon}{1}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to -\infty\end{cases}$

b) $x-(2+\varepsilon)=-1$,$x_2=\frac{1-\varepsilon}{1}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to -\infty\end{cases}$

X. $|x-2|=(1-\varepsilon)$ dan $x-2=\pm(1-\varepsilon)$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a) $x-2=(1-\varepsilon)$, $x_1=\frac{3-\varepsilon}{1}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to -\infty\end{cases}$

b) $x-2=-(1-\varepsilon)$,$x_2=\frac{1+\varepsilon}{1}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to \infty\end{cases}$

XI. $|(1-\varepsilon)x-(2+\varepsilon)|=1$ dan $(1-\varepsilon)x-(2+\varepsilon)=\pm 1$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a) $(1-\varepsilon)x-(2+\varepsilon)=1, x_1=\frac{3+\varepsilon}{(1-\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to -1\end{cases}$

b) $(1-\varepsilon)x-(2+\varepsilon)=-1$,$x_2=\frac{1+\varepsilon}{(1-\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to -1\end{cases}$

XII. $|(1-\varepsilon)x-(2+\varepsilon)|=1$ dan $(1-\varepsilon)x-(2+\varepsilon)=\pm 1$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a) $(1-\varepsilon)x-(2-\varepsilon)=1, x_1=\frac{3-\varepsilon}{(1-\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to 1\end{cases}$

b) $(1-\varepsilon)x-(2-\varepsilon)=-1$,$x_2=\frac{1-\varepsilon}{(1-\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to 1\end{cases}$

XIII. $|(1-\varepsilon)x-2|=(1-\varepsilon)$ dan $(1-\varepsilon)x-2=\pm(1-\varepsilon)$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a) $(1-\varepsilon)\,x-2=(1-\varepsilon), x_1=\frac{3-\varepsilon}{(1-\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to 1\end{cases}$

b) $(1-\varepsilon)x-2=-(1-\varepsilon)$,$x_2=\frac{1+\varepsilon}{(1-\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to -1\end{cases}$

XIV. $|(1-\varepsilon)x-2|=(1-\varepsilon)$ dan $(1-\varepsilon)x-2=\pm(1+\varepsilon)$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a) $(1-\varepsilon)\,x-2=(1+\varepsilon)$, $x_1=\frac{3+\varepsilon}{(1-\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to -1\end{cases}$

b) $(1-\varepsilon)\,x-2=-(1+\varepsilon)$,$x_2=\frac{1-\varepsilon}{(1-\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x1\infty\end{cases}$

XV. $|(1+\varepsilon)x-(2+\varepsilon)|=(1+\varepsilon)$ dan

$(1+\varepsilon)x-(2+\varepsilon)=\pm(1+\varepsilon)$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a)$(1+\varepsilon)\,x-(2+\varepsilon)=(1+\varepsilon)$, $x_1=\frac{3+2\varepsilon}{(1+\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to 2\end{cases}$

b) $(1+\varepsilon)\,x-(2+\varepsilon)=-(1+\varepsilon)$,$x_2=\frac{1}{(1+\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to 0\end{cases}$

XVI. $|(1+\varepsilon)x-(2-\varepsilon)|=(1+\varepsilon)$ dan

$(1+\varepsilon)x-(2-\varepsilon)=\pm(1+\varepsilon)$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a)$(1+\varepsilon)\,x-(2-\varepsilon)=(1+\varepsilon)$, $x_1=\frac{3}{(1+\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to 0\end{cases}$

b) $(1+\varepsilon)\,x-(2-\varepsilon)=-(1+\varepsilon)$,$x_2=\frac{1-2\varepsilon}{(1+\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to -2\end{cases}$

XVII. $|(1+\varepsilon)x-(2+\varepsilon)|=(1-\varepsilon)$ dan

$(1+\varepsilon)x-(2+\varepsilon)=\pm(1-\varepsilon)$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a)$(1+\varepsilon)\,x-(2+\varepsilon)=(1-\varepsilon)$, $x_1=\frac{3}{(1+\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to 0\end{cases}$

b) $(1+\varepsilon)\,x-(2+\varepsilon)=-(1-\varepsilon)$,$x_2=\frac{1+2\varepsilon}{(1+\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to 2\end{cases}$

XVIII. $|(1+\varepsilon)x-(2-\varepsilon)|=(1-\varepsilon)$ dan

$(1+\varepsilon)x-(2-\varepsilon)=\pm(1-\varepsilon)$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a)$(1+\varepsilon)\,x-(2-\varepsilon)=(1-\varepsilon)$, $x_1=\frac{3-2\varepsilon}{(1+\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to -2\end{cases}$

b) $(1+\varepsilon)\,x-(2-\varepsilon)=-(1-\varepsilon)$,$x_2=\frac{1}{(1+\varepsilon)}$, $\begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to 0\end{cases}$

XIX. $|(1-\varepsilon)x-(2+\varepsilon)|=(1+\varepsilon)$ dan

$(1-\varepsilon)x-(2+\varepsilon)=\pm(1+\varepsilon)$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a)$(1-\varepsilon)\,x-(2+\varepsilon)=(1+\varepsilon),\ x_1=\frac{3+2\varepsilon}{(1-\varepsilon)},\ \begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to -2\end{cases}$

b) $(1-\varepsilon)\,x-(2+\varepsilon)=-(1+\varepsilon), x_2=\frac{1}{(1-\varepsilon)}, \begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to 0\end{cases}$

XX. $|(1-\varepsilon)x-(2-\varepsilon)|=(1+\varepsilon)$ dan

$(1-\varepsilon)x-(2-\varepsilon)=\pm(1+\varepsilon)$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a)$(1-\varepsilon)\,x-(2-\varepsilon)=(1+\varepsilon),\ x_1=\frac{3}{(1-\varepsilon)},\ \begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to 0\end{cases}$

b) $(1-\varepsilon)\,x-(2-\varepsilon)=-(1+\varepsilon), x_2=\frac{1-2\varepsilon}{(1-\varepsilon)}, \begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to 2\end{cases}$

XXI. $|(1-\varepsilon)x-(2+\varepsilon)|=(1-\varepsilon)$ dan

$(1+\varepsilon)x-(2+\varepsilon)=\pm(1+\varepsilon)$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a)$(1-\varepsilon)\,x-(2+\varepsilon)=(1-\varepsilon),\ x_1=\frac{3}{(1-\varepsilon)},\ \begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to 0\end{cases}$

b) $(1-\varepsilon)\,x-(2+\varepsilon)=-(1-\varepsilon), x_2=\frac{1+2\varepsilon}{(1-\varepsilon)}, \begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to -2\end{cases}$

XXII. $|(1-\varepsilon)x-(2-\varepsilon)|=(1-\varepsilon)$ dan

$(1-\varepsilon)x-(2-\varepsilon)=\pm(1-\varepsilon)$ tenglamaga ega bo'lamiz.

a)$(1-\varepsilon)\,x-(2-\varepsilon)=(1-\varepsilon),\ x_1=\frac{3-2\varepsilon}{(1-\varepsilon)},\ \begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 3\\ \varepsilon\to\infty, x\to 2\end{cases}$

b) $(1-\varepsilon)\,x-(2-\varepsilon)=-(1-\varepsilon), x_2=\frac{1}{(1-\varepsilon)}, \begin{cases}\varepsilon\to 0, x\to 1\\ \varepsilon\to\infty, x\to 0\end{cases}$

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, hamma hollarda modulli tenglamaning ildizlari turg'un bo'lar ekan.

Biz orttirma(ε) cheksizlikka intilganda ildizlarning o'zgarish holatiga qarab tenglamalarni 7 ta guruhlarga ajratamiz.

1-guruh. $\varepsilon\to\infty,\ x\to 1$ - ildizi birga intiluvchi tenglamalar;

2-guruh. $\varepsilon\to\infty,\ x\to -1$ - ildizi minus birga intiluvchi tenglamalar;

3-guruh. $\varepsilon\to\infty,\ x\to 0$ - ildizi nolga intiluvchi tenglamalar;

4-guruh. $\varepsilon\to\infty,\ x\to 2$ - ildizi cheksizlikka intiluvchi tenglamalar;

5-guruh. $\varepsilon\to\infty,\ x\to -2$ - ildizi cheksizlikka intiluvchi tenglamalar;

6-guruh. $\varepsilon \to \infty,\ x \to \infty$ - ildizi cheksizlikka intiluvchi tenglamalar;

7-guruh. $\varepsilon \to \infty,\ x \to -\infty$ - ildizi cheksizlikka intiluvchi tenglamalar;

Bulardan tashqari:

$\varepsilon \to 1$ intilganda ildizlari 2 ga intiladigan tenglamalar

$\varepsilon \to 1$ intilganda ildizlari 0 va 2 ga intiladigan tenglamalar

$\varepsilon \to 1$ intilganda ildizlari 1/2 ga intiladigan tenglamalar

$\varepsilon \to 1$ intilganda ildizlari 0 va 1 ga intiladigan tenglamalar

$\varepsilon \to 1$ intilganda ildizlari $0\ va\ 4$ ga intiladigan tenglamalar

$\varepsilon \to 1$ intilganda ildizlari 2 va 4 ga intiladigan tenglamalar

1. $\begin{cases} \varepsilon \to 0, x \to x_1 = 3\ yoki\ x_2 = 3 \\ \varepsilon \to \infty, x \to 1 \end{cases}$

2. $\begin{cases} \varepsilon \to 0, x \to x_1 = 3\ yoki\ x_2 = 3 \\ \varepsilon \to \infty, x \to -1 \end{cases}$

3. $\begin{cases} \varepsilon \to 0, x \to x_1 = 3\ yoki\ x_2 = 3 \\ \varepsilon \to \infty, x \to 2 \end{cases}$

4. $\begin{cases} \varepsilon \to 0, x \to x_1 = 3\ yoki\ x_2 = 3 \\ \varepsilon \to \infty, x \to -2 \end{cases}$

5. $\begin{cases} \varepsilon \to 0, x \to x_1 = 3\ yoki\ x_2 = 3 \\ \varepsilon \to \infty, x \to 0 \end{cases}$

6. $\begin{cases} \varepsilon \to 0, x \to x_1 = 3\ yoki\ x_2 = 3 \\ \varepsilon \to \infty, x \to \infty \end{cases}$

7. $\begin{cases} \varepsilon \to 0, x \to x_1 = 3\ yoki\ x_2 = 3 \\ \varepsilon \to \infty, x \to -\infty \end{cases}$

Xulosa. Ushbu maqolada chiziqli va modulli tenglamalarning ildizlarining turg'unligi ko'rsatilgan. Ildizlari turg'un bo'lmaydigan tenglamalar orttirmaning ayrim holatlari bo'yicha guruhlarga ajratilgan.

Natijalar ildizlarning turg'un yoki noturg'unligini baholashda amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Olingan xulosalar matematik modellashtirish, texnika va tabiiy fanlarda tenglamalar yechimlarining ishonchliligini baholashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. **Самарский А. А., Гулин А. В.** Численные методы. – М.: Наука, 1989. – 432 с.
2. **Крылов В. И.** Приближённые вычисления. – М.: Высшая школа, 1985. – 320 с.
3. **Калиткин Н. Н.** Численные методы. – М.: Наука, 1978. – 512 с.
4. **Демидович Б. П., Марон И. А.** Основы вычислительной математики. – М.: Физматгиз, 1980. – 368 с.
5. **Абдуқодиров А. А., Алиҳамедов Ш. А.** Сонли усуллар. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – 306 б.
6. **Раҳмонов М.** Ҳисоблаш математикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 284 б.
7. **Бахтиёров Б., Жўраев А.** Алгебра ва сонли усуллар. – Тошкент: Университет, 2012. – 340 б.
8. **Burden R. L., Faires J. D.** Numerical Analysis. – Boston: Cengage Learning, 2011. – 872 p.
9. **Atkinson K.** An Introduction to Numerical Analysis. – New York: John Wiley & Sons, 1989. – 693 p.
10. **Stoer J., Bulirsch R.** Introduction to Numerical Analysis. – New York: Springer, 2002. – 744 p.

CARTHAMUS TINCTORIUS L. GULLARIDAN AJRATILGAN FLAVONOIDLARNING YURAK-QON TOMIR TIZIMIGA FOYDALI TA'SIRI

Tillayeva Gavxar Sarmonovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Carthamus tinctorius L. (saflor) gullaridan ajratilgan flavonoidlarning yurak-qon tomir tizimiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqotlar flavonoidlarning kuchli antioksidant, yallig'lanishga qarshi, qon bosimini tartibga soluvchi va lipid metabolizmini qo'llab-quvvatlovchi xususiyatini ko'rsatadi. Carthamus tinctorius L. gullaridan flavonoidlarni ajratish, ularning kimyoviy xususiyatlari va yurak-qon tomir tizimidagi biologik faolligi haqida ilmiy ma'lumotlar keltiriladi. Tadqiqot natijalari flavonoidlarning antioksidant, antiaterosklerotik va kardiohimoya xususiyatlariga ega ekanini ko'rsatadi. Ushbu biologik faol birikmalar yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va ularni davolashda tabiiy qo'shimcha vosita sifatida istiqbolli ekanini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari xalqaro farmatsevtika va kardiologiya konferensiyalarida taqdim etish uchun muhim ilmiy ma'lumotlarni beradi. Carthamus tinctorius L. — qadimdan dorivor o'simlik sifatida qo'llanib kelinadi va uning gullari tarkibida boy flavonoidlar majmuasi mavjud. Ushbu komponentlar yurak-qon tomir tizimi faoliyatini yaxshilash, hujayra himoya mexanizmlarini mustahkamlash va qon aylanishini normallashtirishda muhim o'rin tutadi. Flavonoidlarning biologik faolligi ularning antioksidantlik xususiyatiga asoslanadi. Bundan tashqari safflor gulidan ajratib olingan flavonoid inson asab tizimiga ham muhum ta'sir etishi bilan ajralib turadi. Shu munosabat bilan hozirda Carthamus tinctorius L gullaridan ajratib olinadigan flavanoidlar dunyo olimlari tomonidan keng qamrovli chuqur ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.*

Аннотация: *В данной статье изучено влияние флавоноидов, выделенных из цветов Carthamus tinctorius L. (сафлора), на сердечно-сосудистую систему. Исследования показывают, что флавоноиды обладают сильными антиоксидантными, противовоспалительными свойствами, регулируют артериальное давление, а также оказывают содействующее влияние на липидный обмен. Приведены научные данные об извлечении флавоноидов из цветов Carthamus tinctorius L., их химических свойствах и биологической активности в сердечно-сосудистой системе. Результаты исследования подтверждают антиоксидантные, антиатеросклеротические и кардиопротекторные свойства флавоноидов. Эти биологически активные соединения перспективны как природное вспомогательное средство для профилактики и лечения сердечно-сосудистых заболеваний. Полученные данные представляют важную научную ценность для международной фармацевтики и кардиологии. Carthamus tinctorius L. с древних времён используется как лекарственное растение и содержит богатый комплекс флавоноидов. Эти компоненты улучшают деятельность сердечно-сосудистой системы, укрепляют клеточные защитные механизмы и играют значимую роль в нормализации кровообращения. Биологическая активность флавоноидов основана на их антиоксидантных свойствах. Кроме того, флавоноиды, выделенные из цветков сафлора, оказывают важное влияние на нервную систему человека. В связи с этим в настоящее время флавоноиды, выделенные из цветов Carthamus tinctorius L., широко изучаются мировыми учёными, и проводятся глубокие научные исследования.*

Abstract: *This article examines the effect of flavonoids isolated from the flowers of Carthamus tinctorius L. (safflower) on the cardiovascular system. Research demonstrates that flavonoids possess strong antioxidant and anti-inflammatory properties, regulate blood pressure, and support lipid metabolism. Scientific data are presented on the extraction of flavonoids from*

Carthamus tinctorius L. flowers, their chemical characteristics, and their biological activity within the cardiovascular system. The study results confirm the antioxidant, anti-atherosclerotic, and cardioprotective properties of the flavonoids. These biologically active compounds are considered promising natural adjuncts for the prevention and treatment of cardiovascular diseases. The findings provide valuable scientific information for international pharmacy and cardiology. Carthamus tinctorius L. has long been used as a medicinal plant and contains a rich complex of flavonoids. These components improve cardiovascular function, strengthen cellular defense mechanisms, and play an important role in normalizing blood circulation. The biological activity of flavonoids is based on their antioxidant properties. In addition, flavonoids extracted from safflower flowers have a significant effect on the human nervous system. For this reason, flavonoids isolated from Carthamus tinctorius L. flowers are currently being extensively studied by scientists worldwide, and comprehensive scientific research is underway.

Kalit so‘zlar :*Carthamus tinctorius L., saflor gullari, flavonoidlar, yurak-qon tomir tizimi, antioksidant faollik, yallig‘lanishga qarshi ta’sir, lipid profil, tromb hosil bo‘lish xavfi, tabiiy bioaktiv modda, antioksidant, glikozid, qand kasali, metabolizm.*

Ключевые слова: *Carthamus tinctorius L., флавоноиды, сердечно-сосудистая система, антиоксидантная активность, воспаление, липидный профиль, тромбоз, диабет, метаболизм.*

Keywords: *Carthamus tinctorius L., flavonoids, cardiovascular system, antioxidant activity, inflammation, lipid profile, thrombosis, diabetes, metabolism.*

DOLZARBLIK : Carthamus tinctorius Yurak-qon tomir kasalliklari dunyo miqyosida eng ko‘p uchraydigan surunkali kasalliklardan biri bo‘lib, ularning rivojlanishida oksidlovchi stress, yallig‘lanish va lipid metabolizmining buzilishi muhim rol o‘ynaydi. Sintetik antioksidantlar va lipidni tartibga soluvchi dorilar uzoq muddatli qo‘llanilganda salbiy yon ta’sirga ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli tabiiy o‘simlik manbalaridan, xususan Carthamus tinctorius L. gullaridan

flavonoidlarni ajratib olish va ularni yurak-qon tomir tizimida foydalanish dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi. Yurak-qon tomir tizimi inson organizmining asosiy biologik jarayonlarini ta’minlaydi. .[1]

Yurak qon tomir tizimida ko’p uchraydigan holatlardan biri qonni quyuqlashishi bu aksar yoshi katta qariyalar urtasida tez-tez uchraydigan va hattoki salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo’lgan jiddiy havfdir. Qon tomir yulida hosil bo’lgan tromblar insonni yurak zo’riqishiga , nafas olish tizimini zaiflashishiga va buni oqibatida inson organizmiga qon bir meyorda aylanmaydi, qon bilamizki transport vazifasini bajaradi. Tomir yo’lida tromblar hosil bo’lishi yurakka qon orqali boradigan foydali mineral moddalarni, vitaminlarni yetib bormasligi sabab yurakda zaiflashish kabi og’ir asoratlarni paydo qiladi. Safflor gulidan ajratib olingan flavanoidlar yurak-qon tizimi uchun foydali ta’sir etishi bilan alohida ajralib turadi. Shu munosabat bilan hozirda Carthamus tinctorius L gullaridan ajratib olinadigan flavanoidlar dunyo olimlari tomonidan keng qamrovli chuqur ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari qand kasali (diabet mellitus)da safflor gulidan ajratib olinadigan flavonoid muhum o’ringa ega. Qand kasali bu inson tanasida shira yani glyukoza miqdorini buzulishi bilan yuzaga chiqadigan havfli kasallik hisoblanadi. Uning asosiy mehanizmi insulin yetishmasligi yoki insulinga to’qimalarning sezgirligi kamayib ketishi asos bo’ladi. Pankreatik hujayralarning insulinni ishlab chiqarishi kamayadi. Insulin inson organizmida yetarli miqdorda bo’lsa ham, hujayralar uni qabul qila olishmaydi. Qonda glukoza miqdori meyoridanda oshib ketadi. To’qimalarda inson uchun muhum bo’lgan energiya miqdori pala partishlik yuzaga kelib izdan chiqadi. Buni oqibatida yurak qon- tomir kasalliklari, infarkt, insult, retinopatiya hattoki oyoq qo’llarda chirish yani (gangrena) yuzaga kelishi mumkin. Qand kasalligi global salomatlik uchun xavf-xatar bo’lib kelmoqda. Antioksidantligi bu erkin radikallarni naytrallab, stressni kamaytiradigan hossasidir. Uzi erkin radikallarni nima sababdan neytrallashga etibor qaratiladi. Chunki hujayralarda metabolizm natijasida hosil bo’ladigan, DNK ,oqsillar, va lipidlarga zararlovchi faol kislorod

shakillari tushuniladi. Antioksidantlarni muhum hususiyati yani vazifasi hujayralarni erkin radikallar hisobiga oksidlanishini oldini oladi. Yallig'lanishni kamaytiradi, qand kasalligi va yurak hastaliklaridan himoya qiladi, qarish jarayonini sekinlashtiradi. Erkin radikallar va oksidlovchi stress qon tomir endoteliga zarar yetkazib, ateroskleroz, gipertenziya, miokard infarkti kabi kasalliklarni rivojlantiradi. Shu sababli tabiiy antioksidantlar, xususan flavonoidlar, kardioprotektiv vosita sifatida keng o'rganilmoqda. Bundan tashqari hozirgi kunda insonlar o'rtasida aksiliratsiya yani erta rivojlanish insonlarni yoshiga nisbatan katta ko'rinishi buni oqibatida erta qarish organizmning biologik funksiyalarini sekin astalik ila pasayib borishi bilan yuzaga chiqadigan jarayonni yuzaga keltirmoqda. Buni asosiy sabablari hujayralarda oksidativ stressing ortib borishi. Telomerlarning qisqrishi, DNK dagi mutatsiyalarni yig'ilib qolishi. Surunkali yallig'lanish kabi asoratlar natijasi hisoblanadi. Flavanoidlarni ijobiyligi inson organizmidagi biologik jarayon metabolizm yani moddalar almashinuviga ham asosiy muhum o'rin tutadi yani energiya ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, uglevod, oqsil, yog' almashinuvida gormonlar sintezida, hujayralarni o'sishida asosiy rol uynaydi. Yallig'lanishda yani organizmning zararlanishida, infeksiyalarga qarshi inson tanasini kurashuvchanligini 10-20 barobar kurashuvchanligini oshirishda safflor guli flavanoidi o'rni beqiyos. Yana bir muhum jarayonda lipidlar yani qon zardobidagi yog'larni miqdorini sezilarli darajada muvozanatlashda muhum biologik faol modda sanaladi. Aterosiklerozda yani arteriya devorida yog' to'planishi, yurak eshimik kasalligida, insult havfida juda samarali ta'sir ko'rsatadi. Carthamus tinctorius L. gullari qadimdan xalq tabobatida dorivor o'simlik sifatida ishlatilgan. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar esa saflor tarkibidagi flavonoidlarning antioksidant, yallig'lanishga qarshi va lipid profilini yaxshilash xususiyatini aniqlagan. Bu o'simlikning yurak-qon tomir tizimiga foydali ta'siri ilmiy jihatdan tasdiqlanmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA: Tadqiqot uchun Carthamus tinctorius L. gullari O'zbekiston janubidan yig'ib olindi. Ekstraksiya 70% etanol yordamida

amalga oshirildi. Ajratilgan moddalar HPLC, UV-spektrofotometriya va mass-spektrometriya orqali tahlil qilindi. Antioksidant faollik DPPH va ABTS testlari yordamida baholandi. .[3]

Antioksidant xususiyat: Saflor flavonoidlari DPPH radikalini 65–82% darajada neytralladi, bu esa ularning kuchli antioksidant ekanini tasdiqlaydi. Yurak mushagiga himoya: Flavonoidlar miokard hujayralarini kislorod yetishmasligi sharoitida himoya qiladi va hujayra oksidlanishining oldini oladi. Qon bosimi va lipid profili: Flavonoidlar endotel hujayralarida NO sintezini rag‘batlantirib, vazodilatatsiya orqali qon bosimini me’yorda ushlab turadi. Shu bilan birga, LDL oksidlanishini kamaytirib, ateroskleroz xavfini pasaytiradi. .[4]

Yallig‘lanishga qarshi ta’sir: Flavonoidlar tomir yallig‘lanishini kamaytiradi, trombotsitlarning ortiqcha faolligini nazorat qiladi va qon ivish xavfini kamaytiradi. Olingan flavonoidlar tarkibida kversetin, luteolin va kaempferol asosiy ulushni tashkil qildi. Antioksidant testlar ularning erkin radikallarni yuqori darajada zararsizlantirishini ko‘rsatdi. Yurak hujayralari ustida olib borilgan tadqiqotlar flavonoidlarning oksidlovchi stressni kamaytirishi va endotelial funksiyani yaxshilashini tasdiqladi. Natijalar xalqaro ilmiy manbalar bilan solishtirilib tahlil qilindi. Flavonoidlarning yurak mushaklarini ishemiya va oksidlovchi shikastlanishdan himoya qilishi ularning yuqori terapevtik salohiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Tadqiqot, shuningdek, ularni fitoterapiya va farmatsevtik preparatlar tarkibida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi. .[5]

XULOSA: Carthamus tinctorius L. gullaridan ajratilgan flavonoidlar yurak-qon tomir tizimi uchun foydali biologik faol modda hisoblanadi. Ular antioksidant, yallig‘lanishga qarshi, lipid metabolizmini qo‘llab-quvvatlovchi va vazodilatator xususiyatga ega. Shu bilan birga, flavonoidlar tromb hosil bo‘lish xavfini kamaytiradi va yurak mushagiga himoya qiladi. Ushbu maqola natijalari xalqaro konferensiyalarda taqdim etish uchun ilmiy asos yaratadi va tabiiy flavonoidlar asosida kardioprotektiv preparatlar ishlab chiqishga istiqbolli yo‘l ochadi. Flavonoidlarning yurak-qon tomir tizimiga ta’sir mexanizmlari ularning

antioksidantlik, yallig‘lanishga qarshi, trombotsitlar agregatsiyasini kamaytiruvchi, endotelial funktsiyani normallashtiruvchi xususiyatlariga asoslanadi. Ular erkin radikallarni neytrallaydi, oksidlovchi stressni pasaytiradi, azot oksidi sintezini kuchaytiradi va qon tomir devorining elastikligini tiklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Inlibrary.uz.** Computer engineering bo‘yicha maqola [Elektron resurs]. – URL: https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/25341 (murojaat sanasi: 12.12.2025).
2. **Yormatova D.Yo., Xushvaqtova X.S.** Moyli ekinlar. – Samarqand: Zarafshon, 2008. – ___ b.
3. **Уралов А.И., Печеницын В.П.** Структурные особенности и возрастные изменения клонов *Allium stipitatum* Regel (Alliaceae) // Ботанический журнал. – Санкт-Петербург, 2018. – Т. 103. – № 1. – С. 94–110.
4. **Ганижонов Д., Оралов А., Мустафакулов М.** Maxsar (*Carthamus tinctorius* L.) o‘simligi va uni tibbiyotda qo‘llash // Современные инновационные исследования: актуальные проблемы и тенденции развития. – 2022. – Т. 1. – № 1. – С. 267–269.
5. **Inlibrary.uz.** ZITDMRT ilmiy maqola [Elektron resurs]. – URL: https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5313 (murojaat sanasi: 12.12.2025).
6. **Wu Z., et al.** Current advances of *Carthamus tinctorius* L.: a review of its application and molecular regulation of flavonoid biosynthesis // *Medicinal Plant Biology*. – 2024. – T. 3. – № 1. – P. ___.
7. **Abdumannon U., Iroda M., Dilyorbek G.** Technology of production of oil of mahsar // *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*. – 2023. – P. 344–348.
8. **Уралов А., Мустафакулов М., Ганиянов Д.** Maxsar (*Carthamus tinctorius* L.) o‘simligining antioksidantlik xususiyatini o‘rganish //

Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – № 2. – С. 395–398.

9. **Abbasi T.U., et al.** Eco-friendly production of biodiesel from *Carthamus tinctorius* L. seeds using bismuth oxide nanocatalysts derived from *Cannabis sativa* L. leaf extract // *Process Safety and Environmental Protection*. – 2024. – Т. 191. – P. 710–722.
10. **Аблат Н., Лю Р., Аблимит М., Сан Ю., Сюй Ф., Чжао Х. и др.** Профилактическое действие стандартизированного флавоноидного экстракта сафлора на модели болезни Паркинсона у крыс // *Neuropharmacology*. – 2022. – Т. 217. – Art. 109209. – DOI: 10.1016/j.neuropharm.2022.109209.
11. **Абуова З., Тургумбаева А., Джумагазиева А., Рахимов К., Джусупкалиева А.** Исследование компонентного состава и антимикробной активности офтальмологической эмульсии на основе цветков сафлора (*Carthamus tinctorius* L.) // *International Journal of Microbiology*. – 2022. – P. 1–8. – DOI: 10.1155/2022/3181270.
12. **Адамска И., Бернацка П.** Биологически активные вещества в цветках сафлора и их применение в медицине и функциональных продуктах // *International Journal of Food Science*. – 2021. – P. 1–23. – DOI: 10.1155/2021/6657639.
13. **Агили Хорасани С.М.Х.** Махзан аль-Адвия. – Тегеран: Тегеранский университет медицинских наук, 2011. – ___ с.

SHIRIN MAKKAJO‘XORI (ZEA MAYS L SACCHARATA) NAV VA DURAGAYLARINING RIVOJLANISH FAZALARIDA BARGLARIDAGI PIGMENTLAR MIQDORI

Kaxxorova Umida Raximjon qizi

Kattaqo‘rg‘on Davlat Pedagogika instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shirin makkajo‘xori (Zea mays L. saccharata) ning turli nav va duragaylarida rivojlanish fazalari davomida barglardagi asosiy pigmentlar — xlorofill* ***a****, xlorofill* ***b****, umumiy karotinoidlar miqdorining o‘zgarishi o‘rganildi. Tadqiqotlar vegetatsiyaning 3–4 barg, 7–8 barg, poyaning bo‘yin bag‘ri davri va sut pishish fazalarida olib borildi. Barg pigmentlarining spektrofotometrik tahlili asosida nav va duragaylarning fotosintetik faoliyati hamda ekologik barqarorlik darajasining farqlanishi aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, yuqori hosildor duragaylarda xlorofill kontsentratsiyasi barqarorroq bo‘lib, kechki fazalarda ham yuqori darajada saqlanadi. Ushbu ilmiy ish seleksiya jarayonlarida fiziologik ko‘rsatkichlarni hisobga olish zarurligini asoslab beradi.*

Abstract. *This article examines the changes in the content of major leaf pigments—chlorophyll a, chlorophyll b, and total carotenoids—in various varieties and hybrids of sweet corn (Zea mays L. saccharata) during different developmental stages. The research was conducted at the 3–4 leaf stage, 7–8 leaf stage, stem node formation stage, and the milk ripening phase. Based on spectrophotometric analysis of leaf pigments, differences in photosynthetic activity and the level of ecological stability among the varieties and hybrids were identified. The results showed that high-yielding hybrids maintain a more stable chlorophyll concentration, which remains at a high level even at later developmental stages. This study substantiates the importance of considering physiological and biochemical indicators in the plant breeding process.*

Аннотация*. В данной статье изучены изменения содержания основных пигментов листьев — хлорофилла a, хлорофилла b и общих каротиноидов — у различных сортов и гибридов сахарной кукурузы (Zea mays L. saccharata) в процессе онтогенеза. Исследования проводились в фазах 3–4 и 7–8 листьев, в фазе образования узла стебля и в фазе молочной спелости. На основании спектрофотометрического анализа листовых пигментов выявлены различия в фотосинтетической активности и уровне экологической устойчивости*

сортов и гибридов. Полученные результаты показали, что у высокоурожайных гибридов концентрация хлорофилла более стабильна и сохраняется на высоком уровне даже на поздних стадиях развития. Данная научная работа обосновывает необходимость учёта физиолого-биохимических показателей в селекционном процессе.

Kalit so‘zlar. Shirin makkajo‘xori, Zea mays L. saccharata, pigmentlar, xlorofill a, xlorofill b, karotinoidlar, vegetatsiya fazalari, duragay, spektrofotometriya, fotosintez.

KIRISH

Makkajo‘xori (Zea mays L.) dunyoda eng keng yetishtiriladigan don ekinlaridan biri bo‘lib, uning shirin navlari oziq-ovqat sanoati, konserva ishlab chiqarish va dietik mahsulotlar tayyorlashda alohida o‘rin tutadi. Shirin makkajo‘xorining hosildorligi va ozuqaviy qiymati ko‘plab omillarga, jumladan, fotosintez jarayonining samaradorligiga bevosita bog‘liq.

Fotosintez intensivligi esa o‘z navbatida barg pigmentlari — xlorofillar va karotinoidlar miqdoriga bog‘liq. Xlorofill pigmentlari yorug‘lik energiyasini o‘zlashtirishda asosiy ahamiyatga ega bo‘lsa, karotinoidlar nafaqat yordamchi pigment sifatida, balki oksidlovchi stressdan himoya qiluvchi antioksidantlar sifatida ham xizmat qiladi. Shuning uchun ularning miqdoridagi o‘zgarishlar o‘simlikning ekologik sharoitga moslashuvini, stresslarga chidamliligini va hosildorlik potentsialini aks ettiradi.

ASOSIY QISM

Makkajo‘xori (Zea mays L.) dunyoning barcha mintaqalarida keng yetishtiriladigan strategik ahamiyatga ega ekinlardan biridir. Uning shirin navlari — *Zea mays L. saccharata* — oziq-ovqat sanoatida muhim rol o‘ynaydi. Shirin makkajo‘xorining asosiy xususiyati qo‘vxokidagi shakarlarning yuqori bo‘lishi va ularning sut pishish davrigacha saqlanishidir. Biroq ushbu navlarning ekologik va fiziologik barqarorligi ko‘p jihatdan barg pigmentlari tarkibiga bog‘liq.

Zea mays L. saccharata ning morfologik va fiziologik xususiyatlari. Shirin makkajo‘xori boshqa makkajo‘xori tiplari bilan umumiy biologik xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, ayrim belgilari bilan ajralib turadi:

- Donlaridagi saxaroza miqdori yuqori bo‘ladi.
- Don to‘qimalarida shirinlikni ta’minlovchi *sugary (su)* genining faoliyati yuqori.
- Vegetatsiya davrining boshida barglar yorqin yashil, o‘rta fazalarda esa pigmentlar eng yuqori darajada to‘planadi.
- Fotosintetik apparat harorat o‘zgarishiga sezgir bo‘lib, pigmentlar tarkibidagi o‘zgarishlar sharoitga moslashuvni aks ettiradi.

Barg pigmentlari: turlari va ahamiyati. Shirin makkajo‘xori barglarida uchraydigan asosiy pigmentlar quyidagilardir:

O‘rta faza (7–8 barg)

- Fotosintetik apparat to‘liq rivojlanadi.
- Xlorofill **a** va **b**, shuningdek karotinoidlar maksimal darajada to‘planadi.
- Shirin makkajo‘xorining genotiplarida farqlar aynan shu fazada yaqqol ko‘rinadi.

Poya bo‘yin bag‘ri fazasi

- O‘simlikning o‘sish sur’ati eng yuqori davr.
- Pigmentlar barqaror, ammo issiq havo yoki qurg‘oqchilikda xlorofill degradatsiyasi boshlanishi mumkin.

Donlarning sut pishish fazasi

- Pigmentlar miqdori kamayib boradi.
- Karotinoidlar fotooksidlanishdan himoya qilib, o‘simlikning so‘nuvchi fotosintez faoliyatini qo‘llab turadi.
- Duragaylarda pigment pasayishi nisbatan sekin kechadi, navlarda esa tezroq kuzatiladi.

Pigmentlar miqdori va hosildorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:

- Xlorofill miqdori yuqori bo‘lgan genotiplar fotosintez koeffitsientiga ega bo‘ladi.
- Xlorofill a/b koeffitsienti 2,5–3 oralig‘ida bo‘lgan o‘simliklar ekologik stresslarga chidamliroq.
- Karotinoidlar miqdori yuqori bo‘lgan duragaylar issiq mavsumda hosildorlikni yaxshiroq saqlaydi.
- Pigmentlar ko‘rsatkichlari bo‘yicha kuchli genotiplar ko‘pincha hosildorlikning yuqori potentsialiga ega bo‘ladi.

Spektrofotometriya. Eng keng tarqalgan usul. 80 % etanolda ekstraksiya qilinadi, 470 nm, 649 nm va 665 nm da o‘lchanadi. Pigmentlar konsentratsiyasi maxsus formulalar orqali hisoblanadi.

Pigmentlar va ekologik omillar ta’siri. Shirin makkajo‘xori pigmentlarining to‘planishi tashqi sharoitlarga sezilarli darajada bog‘liq:

- **Harorat:** yuqori harorat xlorofill parchalanishini tezlashtiradi.
- **Yorug‘lik:** yetishmasligi pigmentlar sintezini sekinlashtiradi.
- **Suv tanqisligi:** karotinoidlar sintezi oshib, himoya mexanizmlari kuchayadi.
- **Tuproq unumdorligi:** azot yetishmasligi xlorofill miqdorini kamaytiradi.

Zea mays L. saccharata barglaridagi pigmentlar o‘simlikning rivojlanishi, fotosintetik faoliyati va ekologik omillarga moslashuvini belgilovchi asosiy fiziologik ko‘rsatkichlardandir. Xlorofill va karotinoidlarning miqdor dinamikasini o‘rganish orqali shirin makkajo‘xorining qaysi nav yoki duragayning ekologik barqarorligi va hosildorlik potentsiali yuqori ekanini aniqlash mumkin.

Pigment ko‘rsatkichlari seleksiyada, qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini takomillashtirishda va stressga chidamli genotiplarni tanlashda muhim ilmiy asos yaratadi.

Fotosintez jarayonida pigmentlarning tutgan o‘rni beqiyosdir. Xlorofilllar, karotinoidlar va boshqa yordamchi pigmentlar o‘simlikning yorug‘lik energiyasidan foydalanish darajasini belgilaydi. Shu bois, *Zea mays L. saccharata* barglaridagi pigmentlarning miqdori va dinamikasini o‘rganish o‘simlikning

rivojlanishi, stressga chidamliligi va hosildorligini baholashda muhim omil hisoblanadi.

Shirin makkajo‘xorining nav va duragaylari o‘rtasidagi fiziologik farqlarni chuqur o‘rganish seleksiyada yuqori fotosintetik samaradorlikka ega genotiplarni tanlashda samarali yondashuvlardan biridir.

Tadqiqot uchun shirin makkajo‘xorining 3 ta nav va 2 ta duragayi tanlab olindi. Ekinlar To‘rtko‘l tumani sharoitida standart agrotexnika asosida parvarish qilindi. Barg pigmentlari quyidagi vegetatsiya fazalarida o‘lchandi:

1. 3–4 barg chiqarish davri
2. 7–8 barg fazasi
3. Poya bo‘yin bag‘ri davri
4. Sut pishish fazasi

Pigment miqdori 80 % etanolda ekstraksiya qilinib, 470, 649 va 665 nm to‘lqin uzunliklarida spektrofotometrik usulda aniqlangan.

Xlorofill a miqdorining o‘zgarishi. Tajriba natijalariga ko‘ra, xlorofill **a** ning eng yuqori ko‘rsatkichlari 7–8 barg davrida qayd etildi. Ushbu fazada fotosintetik apparat faol rivojlanadi va barglar maksimal yashil rangga ega bo‘ladi. Duragaylar orasida “D–2” namunasi 1,42 mg/g gacha bo‘lgan yuqori natijani ko‘rsatdi. Navlarda esa bu ko‘rsatkich o‘rtacha 1,10–1,25 mg/g oralig‘ida bo‘lgan.

Xlorofill b miqdorining dinamikasi. Xlorofill **b** fotosistem I va II ning barqarorligini ta’minlaydi. Uning miqdori ham aynan o‘rta vegetatsiya bosqichida yuqori bo‘lib, keyingi fazalarda pasayish kuzatildi. Duragaylarda xlorofill b ning kamayishi sustroq bo‘lgani tufayli fotosintezning davomiyligi uzaygan.

Karotinoidlar miqdorining o‘zgarishi. Karotinoidlar barcha fazalarda navlarga nisbatan duragaylarda yuqoriroq bo‘lib, ayniqsa stress omillar (yuqori harorat, qurg‘oqchilik) ta’sirida barqarorroq bo‘lib qoldi. Bu ularning antioksidant faoliyatiga bog‘liq.

Nav va duragaylar o‘rtasidagi umumiy farqlar.

Natijalar umumlashtirilganda:

- Duragaylar pigmentlar kontsentratsiyasining **eng yuqori va barqaror** darajasiga ega.
- Navlarda pigmentlar miqdori tez kamayuvchi bo‘lib, fotosintez samaradorligi pastroq bo‘lgan.
- Karotinoidlar miqdorining yuqoriligi duragaylarning **stressga chidamli** ekanini ko‘rsatadi.
- Xlorofill a/b nisbati duragaylarda optimal bo‘lib, bu ularning ekologik sharoitga yaxshi moslashganini tasdiqlaydi.

XULOSA

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, shirin makkajo‘xori nav va duragaylarida barg pigmentlari miqdori o‘simlikning rivojlanish fazalariga qarab sezilarli darajada o‘zgaradi. Duragaylar pigmentlar miqdori bo‘yicha navlarga nisbatan ustunlikka ega bo‘lib, bu ularning yuqori fotosintetik faolligini, yaxshiroq moslashuvchanligini va potentsial yuqori hosildorligini bildiradi.

Pigmentlar tarkibini o‘rganish seleksionerlarga samarali genotiplarni ajratib olish, shuningdek agrotexnik chora-tadbirlarni optimallashtirish imkonini beradi. Kelgusida pigmentlar bilan bog‘liq genetik markerlarni ishlab chiqish seleksiya jarayonini yanada takomillashtirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Arnon D. I.** Copper enzymes in isolated chloroplasts // *Plant Physiology*. – 1949. – Vol. 24, № 1. – P. 1–15.
2. **Lichtenthaler H. K.** Chlorophylls and carotenoids: Pigments of photosynthetic biomembranes // *Methods in Enzymology*. – 1987. – Vol. 148. – P. 350–382.
3. **Taiz L., Zeiger E.** Plant Physiology. – Sunderland, MA : Sinauer Associates, 2010. – 782 p.

4. **Titov A. F., Kaznina N. M.** Plant responses to abiotic stress factors // *Journal of Stress Physiology & Biochemistry*. – 2016. – Vol. 12, № 4. – P. 51–63.
5. **O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi.** Makkajo‘xori seleksiyasi bo‘yicha metodik qo‘llanma

ANIQ FANLARNI O‘QITISHDA SUN’IY INTELEKT (AI) DAN FOYDALANISH

Usmonov Erkin To‘lqin o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Annotatsiya. *Maskur maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan, xususan, aniq fanlar (matematika, fizika, kimyo, informatika)ni o‘qitishda foydalanishning dolzarbligi, imkoniyatlari va istiqbollari tadqiq qilinadi. AI asosidagi vositalar ta’limni shaxsiylashtirish, murakkab matematik va fizik tushunchalarni vizuallashtirish, algoritmik masalalarni yechish, kodlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘qituvchilarni ma’lumotlar tahlili asosida qaror qabul qilishda qo‘llab-quvvatlash kabi qirrali imkoniyatlarni taqdim etadi.*

Kalit so‘zlar. *Sun’iy intellekt (AI). Ta’lim texnologiyalari. Shaxsiylashtirilgan ta’lim. Virtual laboratoriyalar. Dasturlash ta’limi. Vizual modellashtirish. Adaptiv o‘rganish. O‘qituvchi malakasi. Raqamli ta’lim. Innovatsion usullar. O‘quv samaradorligi. Pedagogik integratsiya. AI platformalari.*

Аннотация. *В данной статье исследуется актуальность, возможности и перспективы использования технологий искусственного интеллекта в современном образовательном процессе, в частности при преподавании точных наук (математики, физики, химии, информатики).*

Инструменты на основе ИИ предоставляют широкие возможности для персонализации обучения, визуализации сложных математических и физических понятий, решения алгоритмических задач, развития навыков программирования, а также поддержки преподавателей в принятии решений на основе анализа данных.

Ключевые слова: *Искусственный интеллект (AI). Образовательные технологии. Персонализированное обучение. Виртуальные лаборатории. Обучение программированию. Визуальное моделирование. Адаптивное обучение. Квалификация преподавателя. Цифровое образование. Инновационные методы. Эффективность обучения. Педагогическая интеграция. AI-платформы.*

Abstract. *This article examines the relevance, opportunities, and prospects of using artificial intelligence technologies in modern education, particularly in the teaching of exact sciences (mathematics, physics, chemistry, computer science). AI-based tools provide diverse possibilities such as personalized learning, visualization of complex mathematical and physical concepts, solving algorithmic problems, developing coding skills, and supporting teachers in data-driven decision-making.*

Keywords: *Artificial Intelligence (AI). Educational technologies. Personalized learning. Virtual laboratories. Programming education. Visual modeling. Adaptive learning. Teacher competency. Digital education. Innovative methods. Learning efficiency. Pedagogical integration. AI platforms.*

Kirish. Zamonaviy texnologiyalar hayotimizning barcha sohalarini, shu jumladan ta’limni ham tubdan o‘zgartirmoqda. Sun’iy intellekt inson intellektiga o‘xshash vazifalarni, xususan, o‘rganish, tushunish, mulohaza yuritish va muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan tizimlarni yaratishga qaratilgan fan va texnologiya sohasidir. Ta’limda AI nafaqat yangi o‘quv vositalari sifatida, balki ta’lim jarayonini tashkil etishning o‘zini qayta shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Aniq fanlar — bu matematika, fizika, kimyo, informatika kabi fanlar bo‘lib, ularning asosiy xususiyati mantiqiy fikrlash, aniq hisoblash, eksperimental isbotlash va algoritmik yondashuvni talab qilishidir. Aynan shu xususiyatlar tufayli aniq fanlar AI texnologiyalaridan foydalanish uchun eng unumli sohalardan hisoblanadi. Ushbu maqolada AI ning aniq fanlar darslariga integratsiyasi, uning afzalliklari va kelajakdagi istiqbollari muhokama qilinadi.

Aining aniq fanlar ta’limidagi ahamiyati va imkoniyatlari. Aniq fanlarni o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri — mantiqiy fikrlash, analitik qobiliyat, matematik modellashtirish va algoritmik yondashuvni rivojlantirishdir. AI bu maqsadlarga turli yo‘llar bilan xizmat qilishi mumkin.

AI algoritmlari har bir o‘quvchining bilim darajasi, o‘rganish uslubi, zaif va kuchli tomonlarini tahlil qilib, ularga moslashtirilgan mashqlar, qo‘shimcha materiallar va individual o‘quv yo‘nalishlarini taklif qiladi. Matematikada o‘quvchi tenglamalar yechishda xato qilayotgan bo‘lsa, AI uni aniq qaysi bosqichda adashayotganini aniqlab, shu bosqichga oid qo‘shimcha mashqlar taklif qilishi mumkin. Fizikada har bir o‘quvchi uchun turli darajadagi masalalar generatsiya qilinishi, murakkablik darajasi avtomatik sozlanib turilishi mumkin.

AI yordamida abstrakt tushunchalarni modellashtirish aniq fanlar o‘qitishda muhim ahamiyatga ega. Matematikada 3D geometrik figuralarni aylantirish, grafik funktsiyalarni real vaqtda o‘zgartirish, differensial tenglamalarning yechimlarini vizuallashtirish mumkin. Fizikada kvant mexanikasi, yorug‘likning tarqalishi, elektr va magnit maydonlarni interfaol 3D modellar orqali ko‘rsatish imkoniyati mavjud. Kimyoda esa molekulalarning 3D tuzilishi, kimyoviy reaksiyalarning dinamik jarayoni, orbitalarning shakllarini vizuallashtirish mumkin.

Avtomatik masala yechish va tahlil qilish AI ning yana bir kuchli tomonidir. AI o‘quvchilarga masalalarni bosqichma-bosqich yechish yo‘lini ko‘rsatadi, har bir bosqichni tushuntiradi. O‘quvchining yechimidagi mantiqiy yoki hisoblash xatolarini aniqlab, tushuntirish beradi. Shuningdek, o‘quvchi darajasiga mos yangi va noyob masalalar yaratish imkoniyati mavjud.

Kodlash va dasturlash ta’limida AI dan yordam olish hozirgi kunda keng tarqalgan. AI asosidagi platformalar kod yozishda yordam beradi, xatolarni tuzatadi, kodni optimallashtiradi. Murakkab algoritmlarni tushuntirish, ularning ishlash printsipini animatsiyalar orqali ko‘rsatish mumkin.

Virtual laboratoriyalar va xavfsiz eksperimentlar aniq fanlarning muhim qismidir. AI yordamida xavfli kimyoviy reaksiyalarni virtual muhitda o‘tkazish, asboblarni virtual boshqarish imkoniyati paydo bo‘ladi. Fizikada qimmat va murakkab laboratoriya jihozlarisiz tajribalar o‘tkazish mumkin bo‘ladi.

Aniq fanlar o‘qitishda turli AI vositalari va platformalaridan foydalanish mumkin. Matematika uchun Photomath, Microsoft Math Solver kabi vositalar telefon kamerasiga tutilgan masalani skanerlab, batafsil yechim va tushuntirish beradi. Wolfram Alpha esa matematik, fizik va kimyoviy masalalarni yechish, grafik chizish imkoniyatini taqdim etadi. Khan Academy AI tutor shaxsiylashtirilgan matematika kurslarini taklif qiladi.

Dasturlash va informatika sohasida GitHub Copilot kod yozishda yordamchi bo‘lib, algoritmlarni taklif qiladi. Code.org AI kurslari sun’iy intellekt asoslari haqida interfaol kurslarni o‘z ichiga oladi. LeetCode AI helper dasturlash masalalarini yechishda maslahat beruvchi vazifasini bajaradi.

Umumiy o‘quv platformalari orasida DreamBox, ALEKS kabi matematika o‘rganish uchun adaptiv platformalar, Labster virtual kimyo va fizika laboratoriyalari, Google's AI Experiments esa AI asosidagi interfaol matematik va fizik ilovalarni taklif qiladi.

O‘qituvchi va o‘quvchilarning yangi rol va kompetensiyalari. AI texnologiyalarining kirib kelishi bilan o‘qituvchi va o‘quvchining roli sezilarli darajada o‘zgaradi. O‘qituvchi endi yagona bilim manbai emas, balki AI integratori, ma’lumotlar tahlilchisi, mentor va kreativ dars dizayneri sifatida faoliyat yuritadi. O‘qituvchi darsda qaysi AI vositalarini qanday vaqtda qo‘llashni bilishi, AI tomonidan taqdim etilgan o‘quvchilar natijalarini tahlil qilishi,

o‘quvchilarni AI dan unumli foydalanishga yo‘naltirishi, AI yordamida innovatsion dars ishlanmalari yaratishi kerak bo‘ladi.

O‘quvchilar esa AI savodxonligi, tanqidiy fikrlash, algoritmik fikrlash va raqamli hamkorlik kabi yangi kompetensiyalarni egallashlari talab qilinadi. O‘quvchilar AI vositalaridan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari, AI takliflarini baholash va tekshirish qobiliyatini rivojlantirishlari, masalalarni ketma-ket bosqichlarga ajratish mahoratini oshirishlari, AI vositalari yordamida guruh loyihalarini bajarish malakasiga ega bo‘lishlari zarur.

Qiyinchiliklar, cheklovlar va etik masalalar. AI ni aniq fanlar ta’limiga joriy etishda bir qator qiyinchiliklar va cheklovlar mavjud. Pedagogik muammolar orasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatiga ta’sir, matematik masalalarni yechishda jarayon emas, natijaga e’tibor qaratish kabi muammolar mayjud. AI ga tayanish kreativlikni pasaytirishi mumkin.

Texnik va resurs cheklovlari rivojlanayotgan mamlakatlar uchun alohida muammo hisoblanadi. Qimmat texnika va dasturiy ta’minot, internetga doimiy ulanish zarurati aniq fanlarni o‘qitishda AI dan foydalanishni qiyinlashtiradi.

Etik va akademik muammolar orasida o‘quvchilarning yechimlarni AI dan nusxa ko‘chirishi, xususiy ma’lumotlarning himoyasi, AI tomonidan generatsiya qilingan ma’lumotlarning ishonchliligi kabi masalalar muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston kontekstida esa o‘zbek tilidagi kontent yetishmasligi, matematik terminlar, tushuntirishlar o‘zbek tilida etarli emasligi, qishloq-shahar infratuzilmasi tafovuti, o‘qituvchilarning texnologik tayyorgarligi yetarli darajada emasligi kabi muammolar mayjud.

Aniq fanlarda AI integratsiyasi uchun takliflar. Aniq fanlarda AI integratsiyasini samarali tashkil etish uchun bir qator choralar ko‘rish zarur. O‘qituvchilarni tayyorlashda AI pedagogikasi kurslari tashkil etish, ustoz-shogird modelini joriy qilish, doimiy malaka oshirish dasturlarini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Mahalliy kontent yaratish bo‘yicha o‘zbek tilidagi matematik AI yordamchisi ishlab chiqish, milliy o‘quv dasturiga mos AI mashqlar banki yaratish, virtual laboratoriyalarni mahalliylashtirish zarurati mayjud.

Maktablararo hamkorlikni rivojlantirish uchun AI resurs markazlari tashkil etish, onlayn o‘quv platformalari orqali resurslarni bo‘lishish, tajriba almashish forumlari o‘tkazish foydali bo‘ladi.

Baholash tizimini yangilash esa AI yordamida masala yechish jarayonini baholash, proyekt asosidagi baholash usullarini joriy etish, o‘quvchilarning AI bilan ishlash ko‘nikmalarini baholash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Aniq fanlarni o‘qitishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish — bu nafaqat zarurat, balki zamon talabi hisoblanadi. AI aniq fanlarni yanada qiziqarli, amaliy va shaxsiylashtirilgan qilish, har bir o‘quvchining potensialini to‘liq ro‘yxga chiqarish imkoniyatini beradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun muhim vazifa — bu texnologiyalarni "slepos" nusxalash emas, balki milliy ta’lim talablari, tilimiz va madaniyatimizga moslashtirish, shu bilan birga, raqamli tafovutni kamaytirish uchun harakat qilishdir. AI o‘qituvchini almashtirmaydi, lekin u samaraliroq, kreativroq va natijaliroq o‘qitish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Rasulov A. B., Xalimov A. A. Sun’iy intellekt asosida ta’lim tizimini raqamlashtirish: istiqbollar va muammolar. "Fan va texnologiyalar" ilmiy jurnali. Toshkent, 2022.
2. Karimov N. R. Zamonaviy axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt yordamida aniq fanlarni o‘qitish metodikasi. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. "Raqamli ta’lim – 2030" konsepsiyasi. Toshkent, 2021.
4. Abduraxmanova G. T. Sun’iy intellekt texnologiyalarining matematika ta’limidagi o‘rni. "Yosh olim" ilmiy-ushubiy jurnali. Samarqand, 2023.

5. Ismoilov T. A. Informatika va dasturlash asoslarini o‘qitishda AI vositalaridan foydalanish. "Zamonaviy ta’lim" jurnali. Toshkent, 2023.
6. Holmes, W., & Miao, F. (2023). Guidance for generative AI in education and research. UNESCO.
7. Baker, T., & Smith, L. (2019). Educ-AI-tion rebooted? Exploring the future of artificial intelligence in schools and colleges. Nesta.

ELEKTR TARMOQLARIDA O‘TKAZGICHLARNI TO‘G‘RI TANLASHNING USUL VA VOSITALARINING TAHLILI

D. Egamov

Andijon davlat texnik institut

Validinov Abduraxmon

Andijon davlat texnik institut

Annotatsiya:*Ushbu maqolada hozirgi sharoitda elektr tarmoqlarida energiya isrofini kamaytirish yoqilg‘ini tejashning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanishi haqida fikr mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *energiya isrofini, elektr tarmoqlari, rudotermik pechlari, induktsiyali eritish pechlari, qarshilik pechlari, termik qurilmalari, isrofning hisobiy va texnik miqdori.*

Аннотация: *В этой статье приводятся размышления о том, что в современных условиях сокращение потерь энергии в электросетях является одним из важных направлений экономии топлива.*

Ключевые слова: *потери энергии, электрические сети, рудотермические печи, индукционные плавильные печи, сопротивительные*

печи, термические установки, расчетное и техническое количество потерь.

Annotation: *This article discusses the idea that reducing energy wastage in electrical networks is one of the important directions for saving fuel under current conditions.*

Keywords: *energy wastage, electrical networks, rudothermic furnaces, induction melting furnaces, resistance furnaces, thermal devices, calculated and technical amount of waste.*

Kirish: Hozirgi davrda mavjud elektr energiya isrofini kamaytirish tadg‘irlarini uch gruppaga bo‘linadi: tashkiliy, texnik va elektr energiyani hisobiy va texnik qayd etish tizimini takomillashtirish tadbirlari.

Tashkiliy tadbirlarni qo‘llash amalda hech qanday qo‘shimcha mablag‘ni talab etmaydi. Texnik tadbirlar qo‘shimcha kapital mablag‘larni talab etadi.

Kuchlanishni uch fazali simmetrik tizimi uchta fazada kuchlanishni modul va faza bo‘yicha bir xilligi bilan tavsiflanadi. Nosimmetrik tartibda fazalarda kuchlanish bir xil emas. Elektr tarmoqlarida nosimmetrik tartibi quyidagi holatlarda bo‘ladi:

1. Fazalarda yuklama bir xil bo‘lmaganda;
2. Tarmoq elementlari va liniyani to‘liq bo‘lmagan faza tartibida ishlashi;
3. Liniya fazalari parametrlarini har xil bo‘lishi.

Ko‘p holatlarda kuchlanish nosimmetriyasi faza yuklamalarining har xilligidan paydo bo‘ladi. 0,38 kVli shahar va qishloq elektr tarmoqlarida kuchlanish nosimmetriyasi asosan bir fazali kichik quvvatli yoritish va maishiy elektr iste’molchilarini ulanishi sababli yuzaga keladi. Bunday yuklamalar soni katta bo‘lmaganligi uchun ularni fazalar bo‘yicha bir xil taqsimlash kerak.

Yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlarida nosimmetriya bir fazali katta quvvat elektr iste'molchilari bo‘lishidan yuzaga keladi. 0,38-10 kV sanoat tarmoqlarida nosimmetriyani asosiy manbalari rudotermik pechlari, induktsiyali eritish pechlari, qarshilik pechlari, termik qurilmalari, har xil quvvatli payvandlash uskunalaridir.

Tarmoq elementlarini to‘liq bo‘lmagan fazada ishlashi, qisqa vaqtli bir yoki ikki fazani qisqa tutashuvdan (QT) o‘chirilishidan yoki fazalar bo‘yicha tuzatishda uzoq vaqtli o‘chirishdan yuzaga keladi. Bir fazali qisqa tutashuvda avtomatik qayta ulash (AQU) samara beramsa, liniyani shikastlangan fazasini o‘chirish uchun liniyalar ayrim fazalar bo‘yicha boshqariladigan qurilmalar bilan jihozlanadi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR:

Tarmoqqa bir va ko‘p fazali nosimmetrik yuklamalarni ulanishi natijasida kelib chiqqan nosimmetriya, ko‘ngdalang nosimmetriya deyiladi. Ko‘ndalang nosimmetriya ba'zi bir elektr energiya iste'molchilaring ayrim fazalaridagi aktiv va reaktiv qarshiliklarining tengsizligi tufayli kelib chiqadi.

Fazalararo kuchlanish nosimmetriyasi teskari ketma-ketlik, faza nosimmetriyasi esa nol ketma-ketlik tashkil etuvchilarning mavjudligidan hosil bo‘ladi. Kuchlanishlarning to‘g‘ri-U1, teskari-U2, nol-U0 ketma-ketlik simmetrik tashkil etuvchilari quyidagi ma'lum tengliklar asosida aniqlanadi.

Kuchlanish nosimmetriya darajasi kuchlanishning nosimmetrik koeffitsienti Ye2 % bilan xarakterlanadi. U teskari ketma-ketlik kuchlanish U2 ni nominal chiziqli kuchlanish U_{nom} ga nisbati bilan ifodalanadi.

$$E = \frac{U2}{U_{nom}} \cdot 100\% \qquad (4)$$

Kuchlanish nosimmetriyasi elektr energiya sifatining meyorlashtirilgan

ko‘rsatkichi hisoblanadi. Elektr energiya sifatini meyoriy nosimmetriya koeffitsienti E2≤2%. Agar nosimmetriya koeffitsienti belgilangan qiymatdan oshib ketsa, uni pasaytirish choralarini ko‘rish zarur.

Kuchlanish nosimmetriyasini elektr iste’molchilari ishiga ta’siri. Kuchlanish nosimmetriyasi elektr energiya isrofini oshishiga elektr ta’minot tizimining hamma bo‘g‘ini va elektr jihozlari ishonchliligini kamaytiradi. Sinxron mashinalarning qo‘shimcha qizib ketishi va statordan teskari ketma-ketlik toklari oqishi natijasida isrof ko‘payadi, bu esa asosiy aylantiruvchi momentga teskari bo‘lgan moment hosil bo‘lishiga olib keladi. Elektr mashinalarining teng bulmagan faza toklarida uzoq ishlashi turbogenerator va sinxron kompensatorlar uchun faza toklari farqi statorning nominal tokidan 10%, gidrogeneratorlar uchun esa 20% dan, oshmasligi kerak.

Asinxron yuritgachlarda nosimmetriya qo‘shimcha qizib ketishga va aylantiruvchi momentga teskari bo‘lgan moment hosil bo‘lishiga olib keladi. Uncha katta bo‘lmagan kuchlanish nosimmetriyasida ham teskari ketma-ketlik hosil bo‘ladi. Bu tok, to‘g‘ri ketma-ketlik tokiga ustma-ust tushadi. Bu holda mator qizib ketishi natijasida motor quvvati kamayib, izolyatsiyani eskirishi tezlashadi. Kuchlanish nosimmetriyasi 4% bo‘lganda to‘la quvvat ishlab turgan asinxron yuritgich ishlash muddati 2 marta kamayadi.

Kuchlanish nosimmetriyasida kondensator batareyalari reaktiv quvvatini fazalar bo‘yicha noteks yuklanishi natijasida kondensatorlarda o‘rnatilgan reaktiv quvvatdan to‘liq foydalanishga erishilmaydi. Bunda nosimmetriya bo‘lgan fazada reaktiv quvvatni tarmoqqa qaytarilishi boshqa fazalarga nisbatan ancha kam bo‘lganligi uchun kondensator batareyalarining nosimmetriya darajasi ancha oshadi

Ta’minlovchi tarmoqda kuchlanish nosimmetriyasini kamaytirish uchun nosimmetrik yuklamalarni qisqa tutashuv quvvati katta bo‘lgan tarmoq uchastkalariga, katta quvvatga ega bo‘lgan nosimmetrik yuklamalarni ajratib

alohida transformatorlarga ulanadi. Bir fazali yuklamalar hamma fazalarga teng va aniq taqsimlanadi.

Har bir fazaga bir fazali yuklamalarni teng taqsimlash har doim ham kuchlanish nosimmetriyasini yetarli darajada kamaytirmaydi. Bunday holda maxsus simmetriyalovchi qurilmalardan foydalaniladi.

Yuklamalar grafigi xarakteriga qarab simmetriyalovchi qurilmalar boshqariladigan va boshqarilmaydigan qilib tayyorlanadi.

O‘zgarmas yuklama grafigiga va quvvat koeffitsienti birga yaqin bo‘lgan bir fazali elektr energiya iste’molchilarini simmetriyalash uchun SHteyntmettsning boshqarilmaydigan sxemasidan foydalaniladi.

Boshqariladigan simmetriyalovchi qurilmalarning boshqarilmaydigan simmetriyalovchi qurilmalaridan farqi shundaki, kondensator batareyasi va drossel quvvati, parallel ulangan kondensatorlarning bir qism sektsiyasini drossel chulg‘amidan ajratish sxema sim yoki ayrim drossellarni o‘chirish bilan rostlanadi. Droselli ajratgichli simmetriyalovchi sxemani aniq sharoitdan kelib chiqqan holda boshqariladigan va boshqarilmaydigan qilib tayyorlash mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR:

Simdan o‘tayotgan tok uni va izolyatsiyani qizdiradi. Simlarni uzoq ishlashini ta’minlash uchun ularning harorati ruxsatlangan haroratdan oshmasligi kerak. Bu haroratga uzoq muddatli yuklamaning mumkin bo‘lgan qiymati, (uzoq muddatli oqadigan ruxsatlangan tok) ma’lum bir sharoitda ma’lum bir tashqi muhit haroratidagi sovutishga to‘g‘ri keladi.

Har xil turdagi simlar uchun ruxsatlangan harorat har xil sharoitlar uchun aniqlangan, masalan, HL larini ochiq simlari uchun yuqorida keltirilgan ruxsatlangan harorat, simlarning uchastkalarini bir-biri bilan elektr va mexanik ravishda ulaydigan biriktiruvchi kontaktlarini normal ishlash sharoitini hisobga olib aniqlangan. Binolar ichida o‘tkazilgan ochiq simlar uchun ruxsatlangan harorat yong‘indan saqlash talablariga asosan aniqlanadi.

Kabellar uchun, yuqori haroratda kabel qog‘ozini shikastlanishidan saqlash va kabel ichidagi tarkibiy gaz qismchalarining sonini oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik ko‘zda tutiladi, chunki bu gazni ionlanishiga va kabelni teshilishiga olib keladi.

Agar, ruxsatlangan qizish harorati θрухфваφθур ma’lum bo‘lsa, unda Irux toki tufayli vaqt birligi davomidagi simdagi ajralayotgan issiqlikni quyidagi ifodadan aniqlash mumkin.

P rux

Tuzatuv koeffitsienti Ktuz simni rasmiy ish sharoitidan haqiqiy ish sharoitining farqini hisobga oladi. Tuzatuv koeffitsienti kirgiziladi, masalan, atrof muhitning haroratiga, oralaridagi masofaga bog‘langan ravishda bir tanщeyada joylashgan kabellar soniga, suvda yotqiziladigan kabellar uchun, bloklardagi kabellar va boshqalar uchun, bu koeffitsientlar tegishli jadvallarda keltirilgan. Agarda bir necha tuzatuv koeffitsientlarini hisobga olish kerak bo‘lsa, unda umumiy tuzatuv koeffitsienti Ktuz ularni ko‘paytmasiga teng bo‘ladi. Shunday hollarda, qachonki simlarning kesim yuzasi qizish shartiga asosan topilgan, uzoq muddatli ruxsatlangan qizdirish toki quyidagi ifodadan aniqlanadi

Bir qator iste’molchilar (31.1-rasm) qaytariladigan – qisqa vaqtli yuklama bilan ishlaydi. Bu yuklamalarni ta’minlaydigan simlar uchun quyidagi ifodadan aniqlanadigan uzoq muddatli toklarni qiymatiga qaraganda katta toklarga ruxsat etiladi:

$$I'_{rux.t} = \sqrt{0,8751} / UB_{ruxt}, \quad (9)$$

bu yerda UB- ulanish vaqti koeffitsienti, ish vaqti tish ning davr vaqti tD ni nisbatiga teng bo‘ladi. Bu ifodadan mis simlarning kesim yuzasi 6 mm^2 dan va alyumin simlarning kesim yuzasi 10 mm^2 dan katta bo‘lganda foydalanish mumkindir.

Kesim yuzasi katta bo‘lganda bir kabelning o‘rniga bir necha kichik yuzali kabellarni qo‘llash qulaydir, (ammo almashtiriladigan kabel 150 mm^2 dan kichik bo‘lmasligi kerak. Buni quyidagidan tushuntirsa bo‘ladi: kesim yuzasi katta bo‘lgan simlar va kabellarda qizish darajasi bo‘yicha ruxsatlangan tokni zichligi kichik yuzalilarga qaraganda kichik bo‘ladi, chunki sim va kabellarning kesim yuzasi qancha katta bo‘lsa uning o‘lchov birligiga to‘g‘ri keladigan sovitish maydoni shuncha kichik bo‘ladi.

Iqtisodiy zichlikka asoslanib tanlangan 110 kV va undan yuqori kuchlanishli HL larining simlari tojlanishni paydo bo‘lish sharoitlari va radio aloqa uskunalariga halaqit darajasi bo‘yicha tekshirilishi shart.

Tojlanishga bo‘lgan isrof elektr maydonining kuchlanganligiga bog‘liqdir. Simning diametri oshishi bilan maydonning ish paytidagi kuchlanganligiga teskari bog‘langan holda kamayadi. Shunday qilib, tojlanishga bo‘lgan isrofni kamaytirish uchun simning kesim yuzasini oshirish (yoki fazani bo‘lish) kerak. Texnik – iqtisodiy hisoblarni tojlanishga bo‘lgan isrof 330 kV va undan yuqori kuchlanishli (E-28 kV/sm bo‘lganda) liniyalarda hisobga olinadi. Fazaning eng kichik kesim yuzasi uning bo‘linishini hisobga olganda 330 kV kuchlanish uchun 500 mm^2ga

yaqin bo‘ladi. 900 mm^2 -500 kV uchun, 1200 mm^2-750 kV uchun va 2400 mm^2-1150 kV uchun [A].

Kuchlanganlikni pasaytirish uchun eng ta’sirli tadbir, faza simlarini bo‘lishdir, bu tufayli tojlanishga bo‘lgan o‘rtacha yillik quvvat isrofini bir necha marta kamaytiriladi. 330-500 kV HL larini loyihalashdagi ko‘p tajribalarga asosan amaliyotda 330 kV kuchlanishli liniyalarning fazasi bo‘lingan ikki simga egadir, 500 kV kuchlanishli liniyalarning fazasi esa 3 simga egadir.

Tojlanishga bo‘lgan energiya isrofini aniqlash uchun avval elektr maydonining ish paytidagi kuchlanganligini aniqlash kerak. Chetdagi simlar uchun faza bo‘lingandagi kuchlanganlik, kV/sm, teng:

2. **Liu M., et al.** The weakly negative permittivity with low-frequency-dispersion behavior in percolative carbon nanotubes/epoxy nanocomposites at radio-frequency range // *Advanced Composites and Hybrid Materials*. – 2022. – Vol. 5, No. 3. – P. 2021–2030.
3. **Hanehara S., Yamada K.** Interaction between cement and chemical admixture from the point of cement hydration, absorption behaviour of admixture, and paste rheology // *Cement and Concrete Research*. – 1999. – Vol. 29, No. 8. – P. 1159–1165.
4. **Cheng X.** Effect of raw material on application performances of super plasticizer : dissertation. – Beijing : University of Technology, 2010.

TURP *(raphanus sativus)* NING SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATLARINI KIMYOVIY TARKIBI ORQALI BAHOLASH

Asqarov Ibrohim Rahmonovich

Andijon davlat universiteti

Xojmatov Maxsadbek Mo’ydinovich

Andijon davlat universiteti

Turg'unova Gulhayo Ibroximjon qizi

Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turp (raphanus sativus) ning shifobaxshlik xususiyatlari tarkibidagi vitamin va minerallarning inson salomatligidagi o'rni haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan hamda Turp ekstrakti tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdori labaratoriya sharoitida aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *turp, vitaminlar, shifobaxsh xususiyatlar, sog'liq, immunitet, antioksidantlar, fitonsidlar, mineral moddalar, ovqat hazm qilish, sog'lom ovqatlanish*

Аннотации: *В данной статье подробно рассмотрены лечебные свойства редиса (Raphanus sativus), роль содержащихся в нём витаминов и минералов для здоровья человека, а также приведены данные о количественном определении водорастворимых витаминов в составе экстракта редиса, выполненные в лабораторных условиях*

Ключевые слова: *редис, витамины, лечебные свойства, здоровье, иммунитет, антиоксиданты, фитонциды, минеральные вещества, пищеварение, здоровое питание*

Annotation: *This article provides detailed information on the medicinal properties of radish (Raphanus sativus), the role of the vitamins and minerals it contains in human health, and presents laboratory-based determinations of the amounts of water-soluble vitamins in radish extract*

Keywords: *radish, vitamins, healing properties, health, immunity, antioxidants, phytoncides, minerals, digestion, healthy nutrition*

Kirish: Turp inson salomatligi uchun muhim bo'lgan biologik faol moddalar, vitaminlar va minerallarga boy bo'lgan ildizmevalardan biridir. Uning oq, qizil, qora va yashil turlari mavjud bo'lib, har biri o'ziga xos kimyoviy tarkib va shifobaxsh xususiyatlarga ega. Turpning oziq-ovqat sifatidagi qadri, avvalo, uning tarkibidagi

vitaminlar, fermentlar, fitonsidlar va mikroelementlarning boy majmuasi bilan belgilanadi. [1.2].

Turp tarkibida C vitamini, B guruh vitaminlari **(B1, B2, B3, B6),** RR (niatsin), K va E vitaminlari muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa C vitamini miqdorining yuqoriligi organizmning immun tizimini mustahkamlash, shamollashga qarshi tabiiy himoya hosil qilishda katta ahamiyatga ega. Bu vitamin kuchli antioksidant bo‘lib, hujayra yangilanishi, teri elastikligi, qon tomir devorlarini mustahkamlashda muhim ro’l o‘ynaydi. **B** guruhi vitaminlari asab tizimi faoliyati, modda almashinuvi, energiya ishlab chiqarilishi va yurak faoliyatida ishtirok etadi. Turpdagi B1 va B6 vitaminlari nerv impulslarining o‘tishini yaxshilaydi, charchoqqa qarshi kurashadi, aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar uchun foydali hisoblanadi. Niatsin (RR vitamini) esa qon aylanishini yaxshilab, yurak-qon tomir tizimi kasalliklarining oldini olishda yordam beradi. [3.4].

Turpdagi E vitamini tabiiy antioksidant bo‘lib, organizmni erkin radikallar ta’siridan himoya qiladi, qarish jarayonini sekinlashtiradi. K vitamini esa qon ivishini tartibga soladi va suyak to‘qimasining mustahkamligini ta’minlaydi. Ushbu vitaminlarning uyg‘unligi turpni nafaqat oziq-ovqat sifatida, balki profilaktik ahamiyatga ega bo‘lgan mahsulot sifatida ham qadrlashga imkon beradi. Turp iste’moli ovqat hazm qilishni yaxshilaydi, jigar faoliyatini faollashtiradi, safro ajralishini kuchaytiradi. Undagi tolalar ichak faoliyatini me’yorlashtirib, toksinlarning organizmdan chiqishiga yordam beradi. Kaliy moddasi yurak faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi va organizmdagi suyuqlik muvozanatini tartibga soladi[5.6.9].

Shuningdek, turpning past kaloriyali bo‘lishi uni parhez ovqatlanish uchun qulay qiladi. Qora turp sharbatining o‘pka kasalliklarida, ayniqsa bronxit va kuchli yo‘tal holatlarida samarali ekani xalq tabobatida keng qo‘llanadi. Oq turp esa oson hazm bo‘lishi va yumshoq ta’siri bilan farq qiladi [10].

Shu sababdan biz Andijon Davlat Unversiteti ,,Xalq tabobati va Tovarlar kimyosi’’ labaratoriyasida Andijon Viloyati iqlim sharoitida yetishtirilgan yashil

rangli Turp ekstrakti tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdorini “yuqori samarali suyuqlik xromatogafiyasi” usulida aniqladik. Quyida batafsil ma’lumotlar keltirilgan

Tajriba qism.

Foydalanigan reaktiv va jihozlar. Vitamin B_{12} “Rhydburg Pharmaceuticals” (Germaniya), C vitamin “Carl Roth GmbH” (Germaniya), B_9 “DSM Nutritional Products GmbX” dan (Germaniya), B_1, B_2, B_3, B_6, PP vitaminlar “BLDPharm” (Xitoy) olingan. HPLC darajadagi tozalikda suv, asetonitril, kimyoviy toza markadagi sirka kislota va natriy gidroksidi reaktivlaridan foydalanildi.

O’simlik tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdorini Yaponiyaning Shimadzu kompaniyasida ishlab chiqarilgan LC-40 Nexera Lite yuqori samarali suyuqlik xromatografida amalga oshirildi [7.8].

Standart eritmalarni tayyorlash. C (CAS 50-81-7), B_1 (CAS 59-43-8), B_6 (CAS 58-56-0), B_3 (CAS 59-67-6), B_{12} (CAS 68–19–9) va PP (CAS 98-92-0) vitaminlarning eritmalari (100 mg/l) har bir vitaminning 5 mg dan miqdori 50 ml 0,1 N li HCl eritmasida eritib tayyorlanadi. B_2 (CAS 83-88-5) va B_9 (CAS 59-30-3) vitaminlarining standart eritmalari ushbu vitaminlarning 5 mg ni 50 ml 0,025% natriy gidroksid eritmasida eritib tayyorlandi. So‘ngra dastlabki B_1, B_6, B_3, B_{12}, PP vitaminlardan 200 mkl dan olib aralashtirildi va har bir vitaminning konsentratsiyasi 14.286 mg/l dan bo’lgan eritma tayyorlandi. Shu tariqa 7.143, 3.571, 1.786 mg/l dan standart eritmalar tayyorlandi. Vitamin C ning ham 286, 143, 71.5, 57.2 mg/l konsentratsiyali standart eritmalari tayyorlandi. Kalibrlovchi grafik tuzish uchun 0 mg/l konsentratsiya uchun toza suv ishlatildi.

Namuna ekstraktini tayyorlash. Suvda eruvchan vitaminlarni ekstraksiya qilish uchun tekshiriladigan namunadan 1 gr o’lchab olinib, 50 ml hajmli konussimon kolbaga solindi va 25 ml 0,1 N li HCl eritmasi qo’shildi. Aralashma GT SONIC-D3 (Xitoy) markali ultratovushli vannada 60 ^oC haroratda 20 daqiqa davomida ekstraksiya qilindi. So’ngra aralashma sovitilib, filtrlandi hamda o’lchov

kolbasida suv bilan 25 ml ga yetkazildi. Ekstraktdan 1,5 ml miqdori 0,22 mkm li shpritsli filtrda filtrlanib vialaga solindi hamda analiz uchun foydalanildi.

Xromatografik sharoitlar.

Vitaminlarni aniqlash. Standart eritmalar va namuna ekstrakti LC-40D nasosi, SIL-40 avtosampleri, SPD-M40 foto-diod matritsali detektoridan (PDA) iborat LC-40 Nexera Lite yuqori samarali suyuqlik xromatografi va LabSolutions ver. 6.92 dasturiy ta’minoti yordamida tahlil qilindi. Shim pack GIST C18 (150 × 4,6 mm; 5 mkm, Shimadzu, Yaponiya) teskari fazali kolonkasi hamda asetonitril (A) va sirka kislotaning suvdagi 0,25 % li eritmasi (B) dan tashkil topgan gradientli harakatchan faza (1-jadval) qo'llanildi. In'ektsiya hajmi 10 mkl, oqim tezligi 0,6 ml/min va kolonka termostati harorati 40 °C etib belgilandi. Har bir vitaminning analitik signali (cho'qqi maydoni) uchta to'lqin uzunliklari 265, 291, 550 nm da qayd etildi (1-3 rasmlar). Vitamin C ni aniqlash uchun 15 daqiqali gradiyent ishlatildi (2-jadval) va analitik signal 265 nm to‘lqin uzunlikda o‘lchandi.

1-jadval. Vitaminlarni aniqlashda harakatchan faza gradiyent dasturi.

Vaqt, daqiqa	Atsetonitril (A), %	0,5 % li sirka kislota (B), %
0	0	100
3	0	100
14	20	80
17	50	50
18	0	100
25	Tugatish	

2-jadval. Vitamin C miqdorini aniqlashda harakatchan faza gradiyent dasturi.

Vaqt, daqiqa	Atsetonitril (A), %	0,5 % li sirka kislota (B), %
0	0	100

2	0	100
6	50	50
6,01	0	100
15	Tugatish	



1-rasm. Vitaminlar standart eritmasining xromatogrammasi.

Olingan natijalar.

Namuna ekstrakti tarkibidagi vitaminlarni aniqlash. Namuna ekstrakti xromatogrammasi (3-4 rasmlar) olindi hamda natijalar asosida 100 g namuna tarkibidagi vitaminlar miqdorlari quyidagi formula bilan hisoblanib 3-jadvallarda keltirildi.

$$X = \frac{C_{vit} \cdot V_{ekstrakt}}{m_{namuna}} \cdot 100\ g$$

Bu yerda, X – 100 gram namuna tarkibidagi vitaminlarning miqdori, mg;

C_{vit} – ekstrakt tarkibidagi vitaminning YuSSX usuli bilan aniqlangan konsentratsiyasi, mg/l;

$V_{ekstrakt}$ – namuna ekstraktining hajmi, l;

m_{namuna} – ekstrakt tayyorlash uchun tortib olingan namuna massasi.



2-rasm. Namuna ekstrakti tarkibidagi vitaminlarni aniqlash xromatogrammasi.

3-jadval.

Ekstraktdagi vitaminlarning miqdori va ushlanish vaqtlari.

Vitamin	Ushlanish vaqti, sek	Konsentratsiya, mg/l	100 g namunadagi miqdor, mg
Vitamin B_1	2,95	2,742	6,855
Vitamin B_3	5,682	2,07	5,175
Vitamin PP	7,755	0,282	0,705
Vitamin B_9	16,941	0,115	0,288
Vitamin B_2	18,936	0,484	1,210
Vitamin B_6	6,336	0,429	1,073
Vitamin B_{12}	Aniqlanmadi	0	0,000

XULOSA

1. Turpning kimyoviy tarkibi bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar uchun namuna olib, olingan namunalarni suvli va spirtli ekstraktlari “Tovarlar kimyosi va Xalq tabobati” ilmiy laboratoriyasida tayyorlandi.

2. Turp ekstrakti tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdori YuSSX usulida 100 gr namunadagi vitamin B_1 ning miqdori 6.855 mg bo‘lishi aniqlandi va bu eng yuqori natija ekanligini ko’rsatdi.

3. Turp ekstrakti tarkibidagi suvda eruvchan vitaminlar miqdori YuSSX usulida 100 gr namunadagi vitamin B_3 ning miqdori 5.175 mg bo‘lishi aniqlandi.

4. Turpning vitaminli tarkibidan kelib chiqib, olingan ekstraktlar yoki damlama va sharbatlar asosida turli kasalliklarni davolashda amalda foydalanish mumkinligi izohlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Asqarov I. R.** *Tabobat qomusi.* – Toshkent, 2019.
2. **Asqarov I. R.** *Fitoterapiya.* – Toshkent, 2023.
3. **World Health Organization.** *Vitamins and minerals in human nutrition.* – 2nd ed. – Geneva : WHO Press, 2021.
4. **Mamatqulov B., Jo‘rayev A.** *O‘simlikshunoslik asoslari.* – Toshkent : O‘qituvchi, 2019.
5. **Hasanov O.** *Oziq-ovqat mahsulotlari kimyosi.* – Toshkent : Fan va texnologiya, 2020.
6. **To‘xtayev F.** *Fitoterapiya asoslari.* – Toshkent : Tib nashriyoti, 2018.
7. **Asqarov I. R., Abdullayev S. S. o‘g‘li, Mamatqulova S. A., Abdulloyev O. S., Abdulloyev S. X.** Suvda eruvchan vitaminlar miqdorini YUSSX usulida aniqlash metodikasini ishlab chiqish (chilonjiyda misolida) // *Farg‘ona davlat universiteti ilmiy jurnali*. – 2024. – Vol. 30, No. 5. – Available at: https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/4679
8. **United States Department of Agriculture.** *USDA National Nutrient Database: Raphanus sativus nutrition report.* – 2023.

9. **Kazakov A. A.** *Lekarstvennye rastenija i ih primenenie.* – Moskva : Meditsina, 2017.
10. **Singh N., Kaur R.** Nutritional and medicinal value of radish (*Raphanus sativus* L.) // *Journal of Food Science & Health*. – 2022.

AMINOKISLOTALAR KIMYOSI, METABOLIZMI, BIOSINTEZI, PARCHALANISHI VA FIZIOLOGIYADAGI ROLI

Halimova Hulkar Amin qizi

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aminokislotalarning kimyoviy tuzilishi, tasnifi va xossalari chuqur tahlil qilinadi. Aminokislotalar metabolizmining asosiy bosqichlari – transaminatsiya, oksidativ deaminatsiya, dekarboksillanish va uglevodlar hamda yog'lar almashinuvi bilan o'zaro bog'liqlik ilmiy asosda bayon etiladi. Shuningdek, oqsillar biosintezida ishtirok etuvchi aminokislotalarning hosil bo'lish mexanizmlari, muhim metabolik yo'llar (aminokislotalarning anabolizmi va katabolizmi), ularning parchalanishi natijasida hosil bo'ladigan metabolitlar, Krebs sikli bilan bog'lanishi va energetik ahamiyati yoritiladi. Fiziologik nuqtai nazardan, aminokislotalarning neyrotransmitterlar, gormonlar va bioaktiv moddalarning sintezdagi roli, organizmning o'sishi, regeneratsiyasi va homeostazini ta'minlashdagi ahamiyati keng qamrovda tahlil etiladi. Mavzu zamonaviy biokimyo yondashuvlari asosida batafsil o'rganilib, tibbiyot, biotexnologiya va molekulyar biologiya uchun amaliy ahamiyati ko'rsatilgan.*

Аннотация: *В данной работе представлен углубленный анализ химической структуры, классификации и свойств аминокислот. Научно обоснованы основные этапы метаболизма аминокислот — трансаминирование, окислительное дезаминирование, декарбоксилирование и взаимосвязь с углеводным и липидным обменом. Кроме того, обсуждаются механизмы образования аминокислот, участвующих в биосинтезе белков, ключевые метаболические пути (анаболизм и катаболизм аминокислот), метаболиты, образующиеся в результате их распада, их связь с циклом Кребса и их энергетическое значение. С физиологической точки зрения подробно анализируется роль аминокислот в синтезе нейротрансмиттеров, гормонов и биологически активных веществ, а также их важность для обеспечения роста, регенерации и гомеостаза организма. Тема подробно изучается на основе современных подходов биохимии и демонстрируется ее практическое значение для медицины, биотехнологии и молекулярной биологии.*

Annotation: *This work provides an in-depth analysis of the chemical structure, classification, and properties of amino acids. The fundamental stages of amino acid metabolism—transamination, oxidative deamination, decarboxylation, and their interrelationship with carbohydrate and lipid metabolism—are scientifically elucidated. Furthermore, the mechanisms of formation of the amino acids involved in protein biosynthesis, the key metabolic pathways (anabolism and catabolism of amino acids), the metabolites produced as a result of their breakdown, their connection to the Krebs cycle, and their energetic significance are also discussed. From a physiological perspective, the role of amino acids in the synthesis of neurotransmitters, hormones, and bioactive substances, and their importance in ensuring the growth, regeneration, and homeostasis of the organism, are extensively analysed. The topic is studied in detail based on modern biochemistry approaches, and its practical significance for medicine, biotechnology, and molecular biology is demonstrated.*

Kalit so'zlar: *Aminokislotalar, kimyoviy tuzilish, metabolizm, transaminatsiya, diaminatsiya, dekarboksillanish, biosintez, katabolizm, oqsil biosintezi, Krebs sikli, neyrotransmitterlar, bioaktiv moddalar, fiziologik rol, energetik almashinuv, biokimyo.*

Ключевые слова: *аминокислоты, химическая структура, метаболизм, трансаминирование, диаминирование, декарбоксилирование, биосинтез, катаболизм, биосинтез белка, цикл Кребса, нейротрансмиттеры, биологически активные вещества, физиологическая роль, энергетический обмен, биохимия.*

Keywords: *Amino acids, chemical structure, metabolism, transamination, diamination, decarboxylation, biosynthesis, catabolism, protein biosynthesis, the Krebs cycle, neurotransmitters, bioactive substances, physiological role, energy metabolism, biochemistry.*

Aminokislotalar tirik organizmlarda oqsillarni tashkil qiluvchi asosiy monomer birliklardir. Ular nafaqat oqsillarning tarkibiy qismi, balki ko'plab metabolik jarayonlarning markazida turadigan muhim biokimyoviy moddalardir. Aminokislotalar kimyoviy tuzilishidagi farqlar, funktsional guruhlari va stereokimyoviy xususiyatlari orqali turli fiziologik vazifalarni bajaradi. Ular oqsillar biosintezi, fermentlarning faolligi, gormonlar va neyrotransmitterlarning hosil bo'lishi hamda organizmning energiya almashinuvini ta'minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Aminokislotalarning metabolizmi – bu transaminatsiya, deaminatsiya, dekarboksillanish kabi asosiy jarayonlarni o'z ichiga olgan murakkab biokimyoviy tizimdir. Mazkur jarayonlar organizmning plastiklik ehtiyojlarini, azot muvozanatini va energiya ta'minotini nazorat qilib turadi. Shu bois aminokislotalar kimyosi, biosintezi va parchalanish mexanizmlarini chuqur o'rganish biokimyo, tibbiyot va biotexnologiya uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Aminokislotalar molekulasida karbon alfa – atomi, amin guruhi (- NH_2), karboksil guruhi (- COOH), vodorod atomi va o'ziga xos radikal (R – guruh) bo'ladi. R – guruhning tarkibi va tuzilishi aminokislotalarning fizik – kimyoviy xossalarini belgilaydi. Aminokislotalar suvli eritmada oson ionlanadi. Aminokislotalarning turli uglerod atomlari yunon alifbosiga muvofiq ketma – ket nomlanadi. Masalan:



α-Amino acid (R = side chain)

β-Amino acid (R = side chain)

γ-Amino acid (R = side chain)

Aminokislotalar quyidagi mezonlarga ko'ra tasniflanadi:

- **Kimyoviy tabiatiga ko'ra:** Alifatik, aromatik, geterosiklik.
- **Qutbliligiga ko'ra:** Gidrofob va gidrofil aminokislotalar.
- **Olinish usuliga ko'ra:** Essensial (organizmdan tashqaridan olinadi) va Noessensial (organizmdan sintezlanadi)gan aminokislotalar.

Alifatik aminokislotalarga quyidagilar kiradi:

Name	Symbol	Structural formula at neutral pH
With aliphatic side chains		
Glycine	Gly [G]	
Alanine	Ala [A]	
Valine	Val [V]	
Leucine	Leu [L]	
Isoleucine	Ile [I]	
With side chains containing hydroxylic (OH) groups		
Serine	Ser [S]	
Threonine	Thr [T]	
Tyrosine	Tyr [Y]	See aromatic amino acids
With side chains containing sulfur atoms		
Cysteine	Cys [C]	
Methionine	Met [M]	
With side chains containing acidic groups		
Aspartate	Asp [D]	
Glutamate	Glu [E]	



Aminokislotalar amfoter xususiyatga ega, ya’ni ular ham kislota, ham asos sifatida reaksiyaga kirisha oladi. Shu sababli, izoelektrik nuqta, pH ga bog’liq ionlanish va elektroforez kabi xususiyatlar ular uchun juda muhim.

Aminokislotalarning kimyoviy xossalari: Aminokislotalarning asosiy kimyoviy reaksiyalari ularning funksional guruhlari bilan bog'liq:

- ❖ **Karboksil guruhining reaksiyalari:** Esterlanish va amidlanish reaksiyalari
- ❖ **Amin guruhining reaksiyalari:** Asillanish va alkillanish reaksiyalari
- ❖ **Dekarboksillanish reaksiyalari:** Aminokislotalardan biogen aminlar – serotonin, dopamin, gistamin va boshqalarning hosil bo'lish reaksiyasi
- ❖ **Transaminatsiya:** Aminokislotalar o'z amin guruhini ketokislotalarga o'tkazadi va yangi aminokislotalar hosil bo'ladi. Ushbu reaksiyalar metabolizmning asosiy bosqichlariga bevosita bog'langan.





Aminokislotalarning metabolizmi: **Transaminatsiya:**

Transaminatsiya jarayoni aminotransferaza fermentlari ishtirokida kichadi. Bunda bir aminokislotadan amin guruhi ketokislotaga o'tadi. Pirodoksalfosfat (B_6 vitamini) koferment sifatida ishtirok etadi. Ushbu jarayon organizmning azot balansini boshqarishda va aminokislotalar o'zaro aylanishida muhim rol o'ynaydi.

Oksidativ deaminatsiya: Glutamat degidrogenaza fermenti ishtirokida glutamatning amin guruhi NH_4^+ ko'rinishida ajralib chiqadi. Ushbu ammoniy detoksifikatsiya jarayonlari uchun, xususan, urea sikli orqali zararsizlantiriladi.

Dekarboksillanish: Aminokislotalar dekarboksillanganda biogen aminlar hosil bo'ladi. Masalan:

- Triptofandan – serotonin
- Tirozindan – dopamine, adrenalin, noradrenalin
- Gistidindan – gistamin

Bu moddalar organizmda neyrotransmitter va gormon sifatida muhim fiziologik rol o'ynaydi.

Aminokislotalarning biosintezi: Noessensial aminokislotalar organizmda quyidagi asosiy yo'llar orqali hosil bo'ladi:

- **Transaminatsiya orqali sintezlanish** (alanin, aspartat, glutamat)
- **Shikimat yo'li** orqali aromatik halqali birikmalarning hosil bo'lishi (bakteriya va o'simliklarda)
- **Krebs siklining oraliq mahsulotlari** orqali (oksaloatsetat, alfa – ketoglutarat hosilalari).

Essensial aminokislotalar (valin, leysin, izoleysin, fenilalanin, lizin va boshqalar) inson organizmida sintezlanmaydi, ularni oziq – ovqat orqali olish talab etiladi.

Aminokislotalarning parchalanish va energetik ahamiyati: Aminokislotalar parchalanganda ularning uglevodorod skeleti Krebs sikliga kiruvchi metabolitlarga aylanadi. Ular quyidagilarga bo'linadi:

- **Glukogen aminokislotalar:** Glukoza hosil qilishi mumkin (alanin, serin, treonin)
- **Ketogen aminokislotalar:** Keton tanachalari hosil qiladi (leysin, lizin)
- **Aralash turdagilar:** Ikkala yo'lga ham kirishadi (izoleysin, fenilalanin, triptofan).

Parchalanish jarayonlari energiya ishlab chiqarishda, ayniqsa uzoq davom etuvchi ochlik yoki jismoniy faollikda muhim rol o'ynaydi.

Aminokislotalarning fiziologik roli: Aminokislotalar quyidagi jarayonlarda ajralmas ahamiyatga ega:

- **Neyrotransmitterlar sintezi:** Glutamat – qo'zg'atuvchi mediator; GABA – tormozlovchi mediator.

- **Gormonlar va bioaktiv moddalar sintezi:** Tiroksin, adrenalin, gistamin.
- **Oqsil va fermentlar qurilishi:** Hujayralar yangilanishi, o'sish jarayonlari, immunitet
- **Homeostazni ta'minlash:** Kislota – asos muvozanati, azot balansi.
- **Energetik ta'minot:** Ozuqa moddalar yetishmovchiligi vaqtida ATP manbai.

Ularning organizmdagi vazifalari, ko'lamining kengligi, aminokislotalarni biokimyoning eng muhim ob'ektlaridan biriga aylantiradi.



XULOSA

Aminokislotalar kimyoviy tuzilishi, turli xossalari va metabolik o'zgarishlari bilan organizmning barcha hayotiy jarayonlarida asosiy o'rin tutadi. Ular oqsil sintezi, neyrotransmitterlar va gormonlar ishlab chiqarilishi, energiya almashinuvi va homeostazni saqlash kabi jarayonlarning markazida turadi. Aminokislotalarning biosintezi va parchalanish yo'llarini chuqur o'rganish nafaqat biokimyo fanining

rivojlanishi, balki tibbiyot, farmasevtika, biotexnologiya sohalarida yangi ilmiy natijalarga erishish imkonini beradi. Shu bois aminokislotalar biokimyosi tirik organizmlarning molekulyar asoslarini tushunishda muhim ilmiy poydevor hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. **Абдурахмонов И.** Биохимия : дарслик. – Ташкент : Ўқитувчи, 2014. – 456 с.
2. **Ходжаев А., Турсунов М.** Биорганик ва биоколлоид кимё : дарслик. – Ташкент : ТДТУ нашриёти, 2020. – 312 с.
3. **Мусурманова М.** Биокимё асослари : ўқув қўлланма. – Ташкент : TDIU нашриёти, 2018. – 280 с.
4. **Леминг С., Филипенко А.** Биохимия : учебник. – Москва : Геотар-Медиа, 2016. – 752 с.
5. **Скулачев В. П.** Биоэнергетика. – Москва : Наука, 2015. – 368 с.
6. **Berg J. M., Tymoczko J. L., Stryer L.** Biochemistry. – New York : W. H. Freeman, 2015. – 1050 p.
7. **Nelson D. L., Cox M. M.** Lehninger Principles of Biochemistry. – New York : W. H. Freeman, 2021. – 1300 p.
8. **Voet D., Voet J. G.** Biochemistry. – Hoboken : Wiley, 2011. – 1600 p.
9. **Garrett R., Grisham C.** Biochemistry. – Boston : Cengage Learning, 2016. – 1200 p.
10. **Campbell M. K., Farrell S. O.** Biochemistry. – Boston : Cengage Learning, 2021. – 900 p.
11. **Meister A.** Biochemistry of the Amino Acids. – New York : Academic Press, 1965. – 1095 p.
12. **Fasman G. D.** CRC Handbook of Biochemistry and Molecular Biology: Proteins and Amino Acids. – Boca Raton : CRC Press, 2010. – 640 p.
13. **Schäfer H.** Amino Acid Metabolism. – Berlin : Springer, 2002. – 280 p.

14. **Voet D.** Fundamentals of Biochemistry: Life at the Molecular Level. – Hoboken : Wiley, 2019. – 1200 p.
15. **Harper's Illustrated Biochemistry.** – New York : McGraw-Hill, 2018. – 720 p.
16. **Nelson D. L.** Amino Acid Catabolism and the Urea Cycle // *Annual Review of Biochemistry*. – 2019. – Vol. 88. – P. 105–139.
17. **Smith Q.** Amino Acid Biosynthesis Pathways in Humans // *Journal of Molecular Biology*. – 2017. – Vol. 429. – P. 350–372.

JO‘XORI (SORGHUM BICOLOR L.) BARGLARINING UMUMIY SUV MIQDORIGA NAMLIK VA SHO‘RLANISHNING TA’SIRI

Jumanov O‘tkir To‘lqin o‘g‘li

Guliston davlat universiteti

Kenjayev Aziz Abitqulovich

Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot Sirdaryo viloyatining quruq iqlim sharoitida jo‘xori (Sorghum bicolor L.) navlarining namlik tanqisligi va sho‘rlanish stresslariga fiziologik javoblarini baholashga bag‘ishlangan. Ish davomida “Daulet”, “Grif 619” va “Grif 616” genotiplarining barglarida suv miqdori gravimetrik usulda aniqlanib, stress omillari ta’sirida uning kamayish darajasi va moslashuvchanlik koeffitsiyenti hisoblandi. Natijalar ko‘rsatdiki, namlik stressi sharoitida “Daulet” navi suvni ushlab qolish qobiliyati bo‘yicha eng yuqori barqarorlikni namoyon etib, suv miqdorining bor-yo‘g‘i 3,1 % kamayishi bilan ajralib turdi. Sho‘rlanish tajribasida esa “Grif 616” navi eng past yo‘qotish (2,8 %) va yuqori moslashuvchanlik koeffitsiyenti bilan ajraldi. Genotiplar o‘rtasidagi farqlar ularning fiziologik va

genetik moslashuv mexanizmlariga bog‘liqligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari jo‘xorining qurg‘oqchilik va sho‘rlanishga chidamli navlarini yaratish bo‘yicha seleksiya dasturlarini ilmiy asoslash, shuningdek, suv resurslari tanqis bo‘lgan hududlar uchun barqaror agroekotizimlar shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega.

Аннотация. В данной работе представлены результаты исследования физиологических ответов сортов сорго (Sorghum bicolor L.) на воздействие дефицита влаги и засоления в условиях засушливого климата Сырдарьинской области. В ходе эксперимента определено содержание воды в листьях сортов «Даулет», «Гриф 619» и «Гриф 616» гравиметрическим методом, а также рассчитан коэффициент адаптации при различных стрессовых условиях. Установлено, что при водном стрессе сорт «Даулет» проявляет наибольшую устойчивость, демонстрируя снижение содержания воды всего на 3,1 %. При солевом стрессе наивысшую устойчивость показал сорт «Гриф 616», у которого уменьшение водного содержания составило лишь 2,8 %. Различия между генотипами связаны с их генетически обусловленными физиологическими механизмами адаптации. Полученные результаты имеют важное значение для селекции засухо- и солеустойчивых сортов сорго, а также для разработки устойчивых агроэкосистем в условиях дефицита водных ресурсов.

Abstract. This study presents the physiological responses of sorghum (Sorghum bicolor L.) genotypes to drought and salinity stress under the arid climatic conditions of the Syrdarya region. Leaf water content of the varieties “Daulet,” “Grif 619,” and “Grif 616” was measured using the gravimetric method, and their adaptability coefficients under stress conditions were calculated. The results showed that under moisture deficit, the variety “Daulet” exhibited the highest tolerance, with leaf water content decreasing by only 3.1%. Under salinity stress, the variety “Grif 616” demonstrated the strongest tolerance with a minimal reduction of 2.8%. Differences among genotypes were associated with genetically determined

physiological adaptation mechanisms. The findings are significant for breeding programs aimed at developing drought- and salt-tolerant sorghum varieties and for establishing resilient agroecosystems in regions with limited water resources.

Kalit so‘zlar: Jo‘xori, suv rejimi, sho‘rlanish, cheklangan namlik, moslashuvchanlik koeffitsiyenti, fiziologik chidamlilik, abiotik stress.

Ключевые слова: Сорго , водный режим, засоленность, ограниченная влажность, коэффициент адаптивности, физиологическая устойчивость, абиотический стресс.

Keywords: Sorghum, water regime, salinity, limited moisture, adaptability coefficient, physiological tolerance, abiotic stress.

Kirish

Iqlim o‘zgarishi, global isish va suv resurslarining keskin kamayib borayotgan hozirgi davrda **ekinlarning suv rejimiga chidamliligini baholash** agrar ishlab chiqarish tizimining eng muhim strategik yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston sharoitida suv resurslari asosan Amudaryo va Sirdaryo havzalariga bog‘liq bo‘lib, ularning hajmi va sifat ko‘rsatkichlari yil sayin pasaymoqda. Bu esa qishloq xo‘jaligi ekinlari, ayniqsa **sug‘oriladigan dehqonchilikda yetishtiriladigan donli ekinlar** uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda.

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, suv tanqisligi nafaqat o‘simliklarning o‘sish va rivojlanishiga, balki ularning **fotosintetik faoliyatiga, transpiratsiya jarayoniga, suv balansiga va metabolik almashinuv tizimlariga** ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu boisdan o‘simliklarning suv ta’minotiga nisbatan moslashuvchanligi, fiziologik bardoshlilik darajasi hamda suvni tejab sarflash qobiliyatini o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Bu jarayonda **jo‘xori (Sorghum bicolor L.)** o‘zining fiziologik, morfologik va biokimyoviy xususiyatlariga ko‘ra diqqatga sazovor bo‘lgan ekin hisoblanadi.

Jo‘xori — yuqori harorat va past namlik sharoitida ham barqaror o‘sib, biomassani to‘play oladigan **C_4 tipidagi fotosintezga ega o‘simlik** bo‘lib, u **qurg‘oqchilik, sho‘rlanish va issiqlikka nisbatan yuqori chidamlilik** xususiyati bilan ajralib turadi. Shu sababdan, u Sirdaryo viloyatining kontinentallashgan, yozda issiq va quruq, qishda esa nisbatan sovuq bo‘lgan iqlim sharoitida yetishtirish uchun istiqbolli ekin sifatida baholanadi.

Barglardagi umumiy suv miqdori o‘simliklarning suv rejimiga moslashuvchanligini ifodalovchi eng muhim fiziologik ko‘rsatkichlardan biri sanaladi. Bu parametr nafaqat suv bilan ta’minlanish darajasini, balki o‘simlik to‘qimalaridagi **turgor holati, hujayra suvi ushlab turish qobiliyati, osmotik bosim** va **protoplazmaning kolloid holatini** ham aks ettiradi. O‘simlik barglarida suv miqdorining barqaror saqlanishi — ularning abiotik stress (namlik tanqisligi, sho‘rlanish, yuqori harorat) sharoitida yashovchanligini belgilovchi asosiy mezondir.

Mazkur tadqiqot **Sirdaryo viloyatining tabiiy-iqlimiy sharoitida** o‘tkazilib, jo‘xorining turli genotiplarida suv tanqisligi va sho‘rlanish stresslari ta’sirida barglardagi suv miqdorining o‘zgarish dinamikasi o‘rganildi. Tajribalar davomida o‘simliklarning **namlik rejimi, tuz konsentratsiyasi va fiziologik javob reaksiyalari** o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilindi. Shuningdek, **moslashuvchanlik koeffitsiyenti** aniqlanib, har bir navning stress omillariga nisbatan bardoshlilik darajasi solishtirildi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, turli genotiplar namlik va sho‘rlanish stresslariga nisbatan turlicha javob qaytaradi: ayrim navlarda suv miqdori keskin kamaygan bo‘lsa, boshqalarida u **minimal yo‘qotishlar bilan barqaror saqlanib qolgani** kuzatildi. Bu esa jo‘xori genotiplarining fiziologik chidamlilik darajasi genetik omillar bilan chambarchas bog‘liqligini va seleksiya jarayonlarida bu belgidan samarali foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.

Shu tarzda olib borilgan ilmiy izlanishlar **O‘zbekistonning qurg‘oqchil va sho‘rlanishga moyil hududlarida** jo‘xori kabi stressga bardoshli ekinlarning

fiziologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish orqali **barqaror agroekotizimlarni shakllantirish** hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish strategiyasini ishlab chiqishga ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqotning maqsadi — **jo‘xori navlarining (Daulet, Grif 619, Grif 616)** barglarida namlik va sho‘rlanish ta’sirida suv miqdori o‘zgarishini tahlil qilish hamda **moslashuvchanlik koeffitsiyentini** aniqlashdan iborat.

Tadqiqot usullari- Tajriba **laboratoriya sharoitida** o‘tkazilgan bo‘lib, jo‘xori barglarida suv miqdori gravimetrik usulda o‘lchangan.

Namlik stressi — cheklangan sug‘orish sharoiti;

Sho‘rlanish stressi — NaCl eritmasi bilan sun’iy sho‘rlangan tuproqda o‘stirish orqali modellashtirilgan;

Moslashuvchanlik koeffitsiyenti (M%) quyidagi formula asosida hisoblangan:

$$M=100-(\text{tajriba}/\text{nazorat})\times 100$$

Natijalar va tahlil 1 va 2-jadvallarda keltirilgan bo‘lib, 1-jadvalda namlik stressi ta’sirida o‘simlik barglaridagi suv miqdori, 2-jadvalda esa sho‘rlanish stressi ta’sirida suv miqdorining o‘zgarish darajasi batafsil ko‘rsatilgan.

1-jadval.

Jo‘xori navi	**Optimal namlik (%)**	**Cheklangan namlik (%)**	**Nazoratga nisbatan (%)**	**Moslashuvchanlik koeffitsiyenti (%)**
Daulet	74,2±0,4	71,9±0,6	96,9	3,1
Grif 619	70,7±0,7	67,2±0,7	95,0	4,9

Jo‘xori navi	**Optimal namlik (%)**	**Cheklangan namlik (%)**	**Nazoratga nisbatan (%)**	**Moslashuvchanlik koeffitsiyenti (%)**
Grif 616	73,6±0,2	70,7±0,3	96,0	3,9

Natijalarga ko‘ra, **“Daulet”** navi suv tanqisligi sharoitida o‘zining **yuqori fiziologik bardoshliligi** bilan ajralib turdi — tajriba davomida barglardagi umumiy suv miqdori nazorat holatiga nisbatan atigi **3,1 % ga kamaydi.** Bu ko‘rsatkich ushbu navda suv tanqisligiga qarshi **ichki suvni saqlash mexanizmlari**, jumladan, hujayra turgorini barqaror ushlab turish, suv yo‘qotilishini cheklovchi **stomatal regulyatsiya** va **osmotik moslashuv** jarayonlarining samarali ishlashini ko‘rsatadi.(1-jadval)

2-jadval.

Jo‘xori navi	**Sho‘rlanmagan (%)**	**Sho‘rlangan (%)**	**Nazoratga nisbatan (%)**	**Moslashuvchanlik koeffitsiyenti (%)**
Daulet	73,3±0,3	69,2±0,2	94,4	5,5
Grif 619	69,5±0,5	65,5±0,6	94,2	5,8
Grif 616	70,2±0,3	68,2±0,4	97,1	2,8

Sho‘rlanish sharoitida esa “Grif 616” **navi boshqa sinovdan o‘tkazilgan jo‘xori navlariga nisbatan** eng yuqori moslashuvchanlik ko‘rsatkichini **namoyon etdi (M = 2,8%). Bu ko‘rsatkich mazkur navda** tuz stressiga qarshi fiziologik himoya mexanizmlarining **yaxshi rivojlanganligini bildiradi. Xususan, “Grif 616” barglarida** osmotik bosimni barqaror ushlab turuvchi moddalarning (prolin, shakar va ion balansini saqlovchi kationlar) **miqdori yuqori bo‘lishi tufayli hujayra turgorini saqlab qolish qobiliyati oshgan. Natijada o‘simlikning suvni ushlab turish darajasi pasaymagan, metabolik jarayonlar nisbatan barqaror kechgan. Bu esa “Grif 616” navining** sho‘rlangan sharoitlarda o‘sish va rivojlanishni davom ettira olish salohiyatiga**, ya’ni** yuqori fiziologik chidamlilik va genetik moslashuvchanlikka **ega ekanini ko‘rsatadi.**

Tajriba natijalariga ko‘ra: namlik tanqisligi va sho‘rlanish sharoitida jo‘xori barglarining suv miqdori 3–6% gacha kamaygan. “Daulet” navi suv tanqisligiga nisbatan bardoshli, “Grif 616” esa sho‘rlanish stressiga nisbatan yuqori moslashuvchanlik ko‘rsatgan. Suv miqdorining nisbiy pasayishi moslashuvchanlik koeffitsiyenti bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu parametr jo‘xori genotiplarining stressga chidamlilik darajasini baholash uchun muhim fiziologik mezon ekanligi tasdiqlandi. Olingan natijalar jo‘xorining turli genotiplarida suv tanqisligi va sho‘rlanishga qarshi moslashuv jarayonlari genetik va fiziologik omillar bilan chambarchas bog‘liq ekanligini, shuningdek, bu belgilar seleksiya dasturlarida qurg‘oqchilikka va sho‘rlanishga bardoshli navlarni yaratishda samarali foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi.

Foydalanilagan adabiyotlar.

1. **Kenjayev A., Xolliev A.** Makkajo‘xori navlari chidamliligining ekofiziologik ko‘rsatkichlari // *Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi*. – 2023. – № 2/6. – B. 48–53.

2. **[Mualliflar ko‘rsatilmagan].** O‘simliklarning abiotik omillarga chidamliligini baholovchi biologik va ekologik belgilar // *Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi*. – 2023. – № 2/1. – B. 80–84.
3. **Kappas M., Kushiev K. H., Kenjaev A., Uzaydullaev Sh., Ibrakhimov H., Renchin T.** Strategy to restore abandoned irrigated land using *Glycyrrhiza glabra*: case study from Central Asia // *International Journal of Agricultural Innovation and Research*. – 2016. – Vol. 5. – P. 310–323.
4. **Kushiev K., Ismailova K. M., Rakhmonov I., Kenjaev A.** The role of licorice for remediation of saline soils // *Open Journal of Science and Technology*. – 2021. – Vol. 3, No. 7. – P. 10–20.

LEUCANIA LOREYI (Duponchel, 1827) TUNLAMINING BIOLOGIYASI VA EKOLOGIYASI

Mutalibov Mahammadjon Muhammadmaruf o‘g‘li
Andijon davlat universiteti
Yuldashev Farruxbek Ergashboyevich
Andijon davlat universiteti
Abdujabborov Muslimbek Murodjon o‘g‘li
Andijon davlat universiteti
G‘ulomova Munira Rahmatullo qizi
Andijon davlat universiteti
Xafizova Odinaxon Tuxtasinovna
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada* ***Leucania loreyi (Mythimna loreyi)*** *tunlamining biologiyasi, ekologiyasi, tarqalishi va donli ekinlarga yetkazadigan zarari ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotlarda Tunisning turli*

hududlarida kapalakning populyatsiya zichligi, zararlanish darajasi, rivojlanish bosqichlari hamda ob-havo omillarining hasharot dinamikasiga ta'siri o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, M. loreyi makkajo'xori va oq jo'xori kabi muhim don ekinlarining asosiy zararkunandalaridan bo'lib, uning populyatsiyasi iqlim sharoitiga sezilarli darajada bog'liq. Zararkunandaning yuqori zichligi ekin hosildorligini keskin kamaytirishi mumkin. Tadqiqotlar ushbu hasharotga qarshi samarali nazorat tizimini ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: *Leucania loreyi, Mythimna loreyi, tunlam, zararkunanda, populyatsiya zichligi, biologiya, ekologiya, makkajo'xori, oq jo'xori, zarar darajasi, iqlim omillari, monitoring, don ekinlari.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы биология, экология, распространение и вред, наносимый Leucania loreyi (Mythimna loreyi), на основе научных источников. В исследовании изучены плотность популяции, степень повреждения, особенности развития и влияние климатических факторов на динамику насекомого в различных регионах Туниса. Полученные результаты показывают, что M. loreyi является одним из основных вредителей важных зерновых культур, таких как кукуруза и сорго, а численность его популяции значительно зависит от климатических условий. Высокая плотность вредителя может существенно снижать урожайность. Исследования подчеркивают необходимость разработки эффективной системы контроля данного насекомого.*

Ключевые слова: *Leucania loreyi, Mythimna loreyi, совка, вредитель, плотность популяции, биология, экология, кукуруза, сорго, степень повреждения, климатические факторы, мониторинг, зерновые культуры.*

Annotation: *This article analyzes the biology, ecology, distribution, and damage caused by Leucania loreyi (Mythimna loreyi) based on scientific sources. The research examined population density, infestation levels, developmental stages, and the influence of climatic factors on the insect's dynamics across different*

regions of Tunisia. The findings indicate that M. loreyi is one of the major pests of important cereal crops such as maize and sorghum, and its population is strongly influenced by environmental conditions. High pest density can significantly reduce crop yields. The studies emphasize the necessity of developing an effective control strategy against this insect.

Key words: *Leucania loreyi, Mythimna loreyi, noctuid, pest, population density, biology, ecology, maize, sorghum, damage level, climatic factors, monitoring, cereal crops.*

Kirish: *Leucania loreyi* (Duponchel, 1827) *Mythimna loreyi* yoki makkajo‘xori barg tunlami, *Loreyi* bargi qurti, kosmopolit guruch qurti, guruch kesuvchi qurti, donli qurti yoki soxta armiya qurti kabi nomlar bilan ataladi. Bu tur birinchi marta 1827-yilda Filogen Avgust Jozef Dyuponchel tomonidan kashf etilgan [6,7,11], Bu hashorat Tunisda paydo bo‘lgan M. loreyi Afrika, Avstraliya, Yaqin Sharq va Osiyoda uchraydi [13]. Bu tur Sharqiy Osiyoda mahalliy tur hisoblanadi [12]. U Afrikada makkajo‘xori, oq jo‘xori (sorgo) va boshqa don ekinlariga katta zarar yetkazayotgan invaziv hasharot zararkunandasi *Spodoptera frugiper*da ustidagi tadqiqot loyihasi doirasida o‘tkazilgan tekshiruvlar davomida ko‘p miqdorda aniqlandi. Ushbu tur bo‘yicha tadqiqotlar Tunisdagi ush bu hasharotning morfologik va molekulyar identifikatsiyasi, tarqalishi, populyatsiya zichligi va yetkazgan zarari bo‘yicha birinchi tadqiqotlarni o‘tkazilgan. Tekshiruvlar Tunisning shimoliy va janubiy qismidagi asosan makkajo‘xori va oq jo‘xori ekiladigan to‘rtta mintaqada (Jenduba, Bizerte, Nabeul, Gabes) o‘tkazilgan. Dala sharoitida to‘plangan ma'lumotlarga tutqichlar yordamida voyaga yetgan hasharotlarni monitoring qilish, zararlanish darajasi va zararkunandaning uchrash chastotasi kiritilgan. Ob-havo parametrlari bilan korrelyatsiyalar o‘rganildi. Umuman olganda, olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, *M. loreyi* Tunisning barcha tekshirilgan hududlarida yaxshi o‘rnashgan. Shu sababli, bu zararkunandani boshqarish uchun nazorat dasturi zarur. Bundan tashqari, ushbu hasharotning

Tunisdagi strategik don ekinlariga (bug‘doy) ga yetkazadigon zarari yuqori ekanligi ushbu zararkunandaning atroflicha o‘rganilishi kerakligi ko‘rsatmoqda[7].

2020 va 2021-yillarda Tunisdagi donli ekinlarga, xususan makkajo‘xori va oq jo‘xori (sorgo) ekinlariga zarar yetkazuvchi rivojlanayotgan Lepidoptera zararkunandalarni o‘rganish uchun tekshiruvlar o‘tkazilgan. Jenduba, Bizerte, Nabeul va Gabes mintaqalariga o‘rnatilgan tutqichlardan bir tur yig‘ilib. Shu tariqa, ushbu tadqiqot uning identifikatsiyasi, tarqalishi, populyatsiya zichligi va yetkazgan zarari bo‘yicha birinchi hisobotni taqdim etdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, *M. loreyi* barcha tekshirilgan hududlarda ko‘p uchrab, 2020-yilda oq jo‘xori va makkajo‘xori ustidagi voyaga yetgan kapalaklarning umumiy tutib olinishi mos ravishda 4779 va 9499 taga yetgan. Bundan tashqari, o‘rtacha zararlanish foizi avgust oyida Jenduba va Bizerte mintaqalari uchun mos ravishda 31.05% va 20.69% bilan eng yuqori darajaga yetgan, Gabes va Nabeul mintaqalarida esa eng yuqori zararlanish iyul oyida kuzatilib, o‘rtacha mos ravishda 13.54% va 21.35% ni tashkil etganli tadqiqotlarda aniqlangan.

Asosiy qism. Kornosor [10] ning xabar berishicha, *M. loreyi* ayniqsa makkajo‘xorini zararlashi va makkajo\xorida so‘ta hosil bo‘lishi va changlanishdan oldin sodir bo‘lsa, hosilni sezilarli darajada kamaytiradi [14] makkajo‘xori *M. loreyi* uchun optimal o‘simlik ekanligini, bu eng yaxshi biologik ko‘rsatkichlarga olib kelishini ko‘rsatdi (lichinka o‘sish davomiyligi 18, 20 kun, tuxumdan g‘umbakka omon qolish darajasi 68%, urg‘ochi g‘umbak og‘irligi 32,4 mg). Avvalroq, Kornosor [10] *M. loreyi* bargning zararlashi, makkajo‘xoriga erta o‘sish bosqichlaridan (2–4 barg hosil bo‘lganda) chang to‘kishgacha hujum qilishini va asosan kech ekilgan makkajo‘xorida jiddiy yo‘qotishlarga sabab bo‘lishini ta'kidlagan. Shunga o‘xshash tarzda, Sertkaya va Bayram [19] *M. loreyi*ning *Z. mays*ga sezilarli iqtisodiy zarar yetkazishini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, Guo va boshqalar [5] M. loreyi odatda yaqin tur bo‘lgan *Mythimna separata* (Walker 1865) bilan birga uchrashini va o‘simliklarga katta zarar yetkazishini xabar qildi. Qurtlar o‘simliklarning ichiga kiradi va rivojlanayotgan so‘ta va ro‘vaklari bilan oziqlanadi.

Qolaversa, Hirai va boshqalar [8] *M. loreyi* ning ekin mahsulotlarida sezilarli yo‘qotishlarga olib kelishini ta'kidlagan.

Mythimna loreyi makkajo‘xori o‘simligining ildizlaridan tashqari barcha qismlariga zararlaydi [20]. Yangi chiqqan lichinkalar yumshoq barglar bilan oziqlanib va ularning chetlarida teshiklar hosil qiladi. Lichinkalar ulg‘aygan sari, ular rivojlanayotgan yuqori qismlar va barglarning yangi o‘simtalari bilan oziqlanib, o‘simlikning turli qismlariga zarar yetkazisb, ular poyalar bilan oziqlanishga o‘tib va sut pishish davridagi donlar bilan oziqlanadi. Ular ko‘p miqdorda paydo bo‘lganida, makkajo‘xoriga iqtisodiy zarar yetkazadi [21]. U makkajo‘xori ekinlarining muhim zararkunandalaridan biri hisoblanadi, chunki uning o‘simlikka yetkazgan zarari hosilni kamaytirshga [22], garchi hattoki hosil yo‘qotilishga olib keladi[2].

M. loreyi ning populyatsiya dinamikasiga harorat, nisbiy namlik, yog‘ingarchilik va shamol tezligi kabi iqlim parametrlari ushbu turning populyatsiya dinamikasiga sezilarli ta'sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi [21]. Bundan tashqari, hasharotlarning rivojlanishi optimal diapazonni talab qiladi, chunki har qanday yuqori yoki past harorat rivojlanish, ko‘payish va omon qolishga turlicha ta'sir qilishi mumkin [24]. Qin va boshqalar [14] tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, M. loreyi 18 dan 30 °C gacha bo‘lgan haroratlarda rivojlanishi, omon qolishi va tuxum qo‘yishi mumkin. Bundan tashqari, harorat hasharotlarning bir nechta hayot tarixi o‘zgaruvchilari, mavsumiylik, hasharotlar faolligi va dala sharoitida populyatsiya dinamikasiga eng katta ta'sir ko‘rsatadi [7]. Voyaga yetgan hasharot ko‘pincha tunda, ayniqsa quyosh botganda, tashqariga chiqadi va faol bo‘lishi kuzatiladi. Voyaga yetgan hasharot faol harakat qiladi va u pilla ichidan harf shaklidagi tirqish orqali chiqib ketadi. Pillaning orqa tomonida, paydo bo‘lishidan so‘ng darhol, voyaga yetganlar taxminan besh daqiqa davomida qanotlari to‘liq hajmga yetguncha juda sekin turli yo‘nalishlarda harakatlanadi [5].

M. loreyi avlodlarining soni mamlakatiga qarab farq qiladi; Koreyada bir avlod, Niderlandiya, Shimoliy Amerika va Kosta-Rikada esa ikki avlod kuzatilgan

[9]. Markaziy O‘rta yer dengizi (Sitsiliya) mintaqasida bu tur kapalak martdan noyabrgacha uchraydi [17]. Bundan tashqari, Salis va boshqalar [18] hasharot zichligi ekinga yetkazilgan zararga sezilarli ta'sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Shuningdek, bu mualliflar populyatsiya zichligidagi o‘zgarishlar va hasharotlarning o‘ta ko‘payishi asosan biotik va abiotik cheklovlar ta'sirida bo‘lishini ta'kidlaganlar. Bundan tashqari, Wang va boshqalar [23] *M. separata* ning populyatsiya zichligining oshishi ekinlarga ko‘proq zarar yetkazishini ko‘rsatdi. Xuddi shunday, bu mualliflar hasharotlar zichligini o‘rganish qishloq xo‘jaligi zararkunandasining biologiyasi haqidagi bilimimizni kengaytirishi va tegishli boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishga yordam berishini ko‘rsatdi. Makkajo‘xori va oq jo‘xori Tunisda cheklangan ekish maydonlariga ega bo‘lgan ikkinchi darajali don ekinlari bo‘lib, asosan ozuqa ishlab chiqarishni ta'minlash uchun ishlatiladi [3.4]. Rishi va Khokhar [15] tomonidan berilgan tavsifga asoslanib, morfologik identifikatsiya ushbu turning Lepidoptera turkumi, Noctuidae oilasi va *Mythimna* avlodiga mansub ekanligini ko‘rsatdi: Urg‘ochi tanasining (♀) uzunligi taxminan 14 mm bo‘lsa, erkak voyaga yetgan kapalak (♂) uchun 16.3 mm ni tashkil etdi (1-rasmga qarang)



a b c d

1-rasm

***Leucania loreyining* hayot sikli; a-tuxumlari, b-qurti, c-kapalagining vertikal ko‘rinishi d-kapalagining gorizantal ko‘rinishi**

Erkak jinsiy a’zolarini (genitaliya) tekshirish saccus ni uzaytiruvchi uzun, egilgan tikan (2-rasmga qarang) mavjudligini ko‘rsatdi, bu Rungs [16] ga ko‘ra *M. loreyi* ni xarakterlaydi.



2-rasm

***Mythimna loreyi* ning erkak jinsiy a'zolari (genitaliyasi).**

2020-yilda, Jenduba va Bizerte uchun ***Mythimna loreyi*** zararlanish avgust oyida maksimal darajaga yetgan, o‘rtacha foizlar mos ravishda 31.05% va 20.69% ni tashkil etgan. Gabes va Nabeul mintaqalarida esa eng yuqori zararlanish iyul oyida kuzatilgan 2021-yilda esa: Jenduba va Bizerte uchun o‘rtacha zararlanish foizlari avgust oyida mos ravishda 24.2% va 18.41% ni tashkil etdi. Gabes va Nabeul dalalari uchun esa bu ko‘rsatkichlar iyul oyida (mos ravishda) qayd etildi. Jenduba dalalari (makkajo‘xori va oq jo‘xori ekilgan eng katta maydonlarga ega mintaqa) uchun umumiy zararlanish darajasi 2020-yilda 22.58 ± 0.1 ni, 2021-yilda esa 18.24 ± 0.23 ni tashkil etgan.

Bu hashorot bugungi kunda mamlakatimizda ham makkajo‘xori va jo‘xori don ekinlariga hamma katta zarar keltirmoqda. Makkajo‘xori ozuqabob ekin bo‘lib, undan xalq xo‘jaligida keng foydalaniladi. Lekin keyingi yillarda ushbu ekinga bir nechta turdagi tunlam va parvonalar jiddiy zarar yetkazib xosilni 60-70 % gacha nobud bo‘lishiga olib kelmoqda. Ushbu zararkunanda hammaxo‘r bo‘lganligidan 50 dan ortiq qishloq xo‘jalik ekinlariga zarar yetkazadi. Bunday hodisalar Andijon va Farg‘ona viloyatlarida qayd qilingan. Odatda ko‘pgina hammaxo‘r entomofaglar (trixogrammalar) tabiiy sharoitlarda zararkunandalarni mustaqil ravishda kamaytirib tura olmaydi. Chunki, ularning rivojlanishi zararkunandaning tegishli turi ko‘payishi bilan mos kelmaydi. Bunday entomofaglarning nufuzi qo‘shimcha xo‘jayinlarga bog‘liq bo‘ladi va sust ortib boradi.

Entomofaglarning tur tarkibi hamda bioekologik xususiyatlari zararkunandalarning butun rivojlanish davri davomida doimiy uchastkalarda sistemali kuzatish olib borish yo‘li bilan o‘rganiladi.

Trixogramma entomofagining boshqa turlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda takidlanishicha agar trixogrammani qo‘llash jarayonida nisbiy havo namligi 75% dan yuqori bo‘lsa, trixogrammalarning zararkunanda tuxumlarini zararlash biologik samaradorligi 85% gacha bo‘lishi, agarda nisbiy havo namligi 45% gacha bo‘lgan hududlarda qo‘llanilganda esa biologik samardorlik 4-17% ni bo‘lib, bunda trixogrammani dalaga chiqarish sarfi gektariga 100-150 mingtani tashkil etgan. Bu esa trixogramma turlarini zararkunanda turlariga nisbatan qo‘llanilganda uning tur tarkibi va qo‘llash sharoitlarga katta ahamiyat berilishi zarurligini ko‘rsatadi. Makkajo‘xori va jo‘xorida barg tunlami sonini kamaytirishda uning tuxumlariga qarshi *Trichogramma chilonis* turini samaradoriligini o‘rganish maqsadida zararkunanda tuxumlarga nisbatan har hil miqdorda qo‘llab kuzatuvlar olib borilishi va unga andoza sifatida *Trichogramma pintoi Voegele* turi ham zararkunanda tuxumlariga qarshi qo‘llanilishi yuqori natija ko‘rsatadi [1].

Trixogramma turlarini zararkunanda tuxumlariga qarshi biologik samaradorligini o‘rganish maqsadida bir nechta tajribalar olib borildi. Tajribalar makkajo‘xorining “O‘zbekiston-601” navining 5 ga maydonida makkajo‘xori barg tunlamining tuxumlari aniqlangan maydonda o‘tkazildi. Bunda tajribalar makkajo‘xori gullash davriga to‘g‘ri keldi. Makkajo‘xori *M. loreyi* tarqalgan maydonda zararkunanda tuxumlarining o‘rtacha miqdori o‘rganildi. Unga ko‘ra makkajo‘xori maydoni dioganal kesma bo‘ylab 10 ta joyidan jami 10 m^2 maydon ko‘zdan kechirilganda zararkunanda kapalagi tuxumlar to‘pi o‘rtacha har 100 dona o‘simlikda 3-4 dona borligi aniqlandi. Har to‘pda o‘rtacha tuxumlar soni 22-26 donani tashkil etdi [7].

Another key innovation in English language teaching is the growing emphasis on communicative language learning, which encourages the use of English for meaningful interaction rather than the memorization of grammar rules. This approach transforms the classroom into a space where communication becomes the central goal, and learners are encouraged to express ideas, ask questions, collaborate with peers, and engage in discussion-based activities. Communicative learning shifts the focus from accuracy to fluency and promotes language use in authentic contexts. Students learn to negotiate meaning, interpret messages, and adapt their speech to different situations skills that are essential for real-world interaction. Furthermore, the communicative approach reduces language anxiety by creating a supportive environment where errors are viewed as natural parts of the learning process rather than failures.

In addition to communication-based learning, project-based learning has emerged as an influential method in modern language education. This approach involves students in long-term tasks such as research projects, multimedia presentations, interviews, and community-based assignments. Through such projects, learners apply the language to real problems, develop teamwork skills, and connect classroom knowledge to real-life situations. Project-based learning fosters autonomy, responsibility, and creativity because students take an active role in organizing their tasks, gathering information, and presenting outcomes. It also integrates the four language skills - speaking, listening, reading, and writing—into

one cohesive learning process, making it particularly effective for holistic language development.

Gamification represents another innovative trend that has significantly influenced English language teaching. By incorporating elements of games—such as points, levels, badges, timed activities and friendly competitions—teachers can transform the learning atmosphere and make lessons more engaging. Gamification is especially effective for vocabulary acquisition and grammar practice because it encourages repetition in an enjoyable format. For many learners, games reduce psychological barriers, increase participation, and create a sense of achievement. Research has shown that gamified activities can improve memory retention and enhance learners' willingness to take risks in speaking. When students experience enjoyment and positive emotions during learning, they become more motivated and confident, which ultimately supports long-term academic success.

Another highly influential innovation is the integration of artificial intelligence into the language learning process. AI-powered platforms provide personalized learning experiences by analyzing student performance, identifying strengths and weaknesses, and Speech recognition systems help learners refine their pronunciation and fluency, while AI chatbots simulate real communication and allow practice without time limitations. Artificial intelligence expands the opportunities for personalized and autonomous practice, thus addressing the diverse needs of learners with different skill levels and learning preferences. The availability of such tools marks a new stage in language pedagogy, where data-driven insights support both teaching and assessment.

Despite the many advantages of these innovative approaches, implementing them effectively requires careful planning, teacher preparation, and institutional support. Not all classrooms have equal access to digital resources, and not all teachers are trained to integrate technology into their lessons. Moreover, innovation should complement not replace traditional methods that have proven effective. The key challenge is to find a balance that meets learning objectives, aligns with

curriculum requirements, and respects individual learning differences. When applied thoughtfully, innovative methods contribute to a flexible, dynamic, and learner-centered environment that prepares students for academic and professional communication in English.

Overall, innovative approaches in English teaching represent a significant shift from passive learning to active, collaborative, and meaningful engagement with language. They empower students to take responsibility for their learning, encourage creativity, and create opportunities for authentic communication. As educational contexts continue to evolve, the importance of such approaches will only increase, making innovation not just an optional enhancement but a fundamental component of effective language education.

REFERENCES

1. **Harmer J.** The Practice of English Language Teaching. — London : Pearson, 2015. — 448 p.
2. **Richards J. C., Rodgers T. S.** Approaches and Methods in Language Teaching. — Cambridge : Cambridge University Press, 2014. — 419 p.
3. **Dörnyei Z.** Motivational Strategies in the Language Classroom. — Cambridge : Cambridge University Press, 2001. — 155 p.
4. **Innovation in Language Learning and Teaching** / ed. by H. Reinders. — London : Palgrave Macmillan, 2016. — 292 p.
5. **Thomas M.** Digital Language Learning and Teaching. — New York : Routledge, 2020. — 240 p.
6. **Godwin-Jones R.** Emerging Technologies in Language Learning // *Language Learning & Technology*. — 2018. — Vol. 22, No. 2. — P. 2–11.

METHODS AND PROCEDURES OF LEXICOLOGICAL ANALYSIS

Muxtorova Dildoraxon Baxriddin qizi
Farg'ona davlat universiteti
Dushatova Shohsanam Bahtiyorovna
Farg'ona davlat universiteti

Abstract: *Lexicological analysis is a crucial field in linguistics, focusing on the study of words, their meanings, usage, and relationships within language systems. This article explores various methods and procedures of lexicological analysis, including traditional approaches and modern techniques like corpus-based analysis. The paper discusses the significance of understanding lexical semantics, word formation, etymology, and phraseology. Additionally, the study covers the role of context and the dynamic nature of vocabulary in language change. The article provides a comprehensive overview of tools and approaches employed in lexicological research, contributing to a deeper understanding of linguistic structures.*

Keywords: *lexicological analysis, lexical semantics, corpus-based analysis, word formation, etymology, phraseology, vocabulary change.*

Аннотация: *Лексикологический анализ — это важная область в лингвистике, которая изучает слова, их значение, использование и отношения в языковой системе. Статья направлена на изучение различных методов и процедур лексикологического анализа, включая традиционные подходы и современные техники, такие как анализ на основе корпуса. В работе рассматривается значимость понимания лексической семантики, словообразования, этимологии и фразеологии. Также обсуждается роль контекста и динамичность лексики в процессе языковых изменений. Статья предоставляет всеобъемлющий обзор инструментов и подходов, применяемых в лексикологическом исследовании, что способствует более глубокому пониманию лингвистических структур.*

Ключевые слова: *лексикологический анализ, лексическая семантика, анализ на основе корпуса, словообразование, этимология, фразеология, изменения лексики.*

Annotatsiya: *Leksikologik tahlil — bu lingvistikada so‘zlar, ularning ma'nosi, qo‘llanilishi va til tizimidagi o‘zaro aloqalarni o‘rganishga qaratilgan muhim bir soha. Ushbu maqola leksikologik tahlilning turli usullari va protseduralarini, jumladan, an'anaviy yondashuvlar va zamonaviy texnikalar, masalan, korpus asosidagi tahlilni o‘rganishga qaratilgan. Maqolada leksik semantika, so‘z hosil qilish, etimologiya va frazeologiyaning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, kontekstning roli va til o‘zgarishidagi leksikaning dinamik tabiati tahlil qilinadi. Ushbu maqola leksikologik tadqiqotda qo‘llaniladigan vositalar va yondashuvlar haqida keng qamrovli tasavvur beradi va lingvistik tuzilmalarni chuqurroq tushunishga hissa qo‘shadi.*

Kalit so‘zlar: *leksikologik tahlil, leksik semantika, korpus asosidagi tahlil, so‘z hosil qilish, etimologiya, frazeologiya, leksika o‘zgarishi.*

INTRODUCTION

Understanding a language's word structure, meaning, and usage is greatly aided by the study of lexicology, a subfield of linguistics. It is a dynamic field that examines the relationships, meanings, and historical development of words in addition to their particular usage. The goal of lexicological analysis is to reveal the intricacies of vocabulary and its historical development through a variety of techniques and processes. The domains of word formation, etymology, and semantics were the main focus of traditional lexicological analytic techniques. However, new methods have surfaced with the development of corpus linguistics and contemporary computing tools, enabling scholars to study language patterns on a broader scale and analyze big text corpora.

The primary techniques and processes used in lexicological analysis are examined in this article, with a focus on both traditional and modern methodologies. The difficulties and benefits of each approach are examined, along with how linguists research the lexicon with the aid of resources like dictionaries, word lists, and digital corpora[6]. The essay also emphasizes the significance of comprehending lexical semantics, contextual usage's influence, and language's dynamic nature. To improve comprehension of language structure and vocabulary evolution, this work attempts to present a thorough review of lexicological analysis.

METHODOLOGY

To examine the structure, meaning, and development of words within a language, lexicological analysis combines conventional and contemporary research methodologies. The research incorporates various data sources, tools, and techniques to provide a comprehensive understanding of lexical phenomena.

A primary method used in this analysis is corpus-based analysis, which involves scrutinizing large collections of texts (corpora) to identify patterns of word usage, frequency, and distribution[7]. By utilizing digital corpora, the study can access extensive language data, facilitating an empirical and objective analysis of lexical elements. The corpus-based method is particularly valuable for analyzing contemporary language usage, where word meanings and frequencies evolve rapidly.

The study of etymology is another crucial method for tracing the beginnings and historical development of words. The study comprises a detailed analysis of historical documents, dictionaries, and linguistic databases to look into how words have evolved in meaning and form throughout time. Etymological research is essential to understanding the long-term shifts and modifications in language.

[6]Crystal, D. (2010). The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press

[7]Jackson, H., & Amvela, E. Z. (2007). Words, Meaning and Vocabulary. Bloomsbury.

The study also makes use of lexical semantics analysis, which is concerned with the meaning of words and how they relate to one another. This method identifies terms with several meanings, such as polysemy, hyponymy, antonymy, and synonymy. Semantic analysis aims to uncover the nuances of word meanings, especially how context and usage influence them. To investigate how lexical phenomena appear in various linguistic systems, a comparative study of languages or dialects is also carried out. This comparison facilitates the identification of both language-specific and universal trends in the formation, meaning, and usage of words.

Recognizing that social, cultural, and geographical factors frequently impact language usage, the study also takes sociolinguistic concerns into account. This approach sheds light on how vocabulary varies throughout social groups, occupations, and geographical regions, revealing how language is dynamic and constantly changing.

Lastly, to facilitate both quantitative and qualitative analysis, the study makes use of sophisticated digital tools and databases. To examine word frequency, collocations, and concordances in corpora, programs like AntConc and WordSmith Tools are used. Additionally, lexical resources such as the Oxford English Dictionary and WordNet are used for word origin research and semantic analysis.

Through the integration of these diverse techniques and resources, this research offers a thorough and sophisticated way of comprehending lexicological analysis and its consequences for the more general study of language structure and development.

DISCUSSION AND RESULTS

The findings of this study, which combined conventional and contemporary analytical techniques to investigate the structure, usage, and evolution of words in language, offer important insights into lexicological phenomena[8]. The study illuminates historical and modern language patterns through the use of corpus-based

[8]Bauer, L. (2003). Introducing Linguistic Morphology. Edinburgh University Press.

analysis, etymological research, lexical semantics, and word formation analysis. The corpus-based analysis revealed significant trends in word distribution and frequency across different literature genres. Functional words were more common, but lexical words showed greater diversity in terms of context-dependent meaning and semantic range. Furthermore, the meaning of terms like "cloud," which historically denoted meteorological occurrences, has changed significantly in the context of digital technology. These results demonstrate the fluidity of language and the efficiency of corpus-based approaches in monitoring changes in word usage over time.

The study of etymology made a substantial contribution to our knowledge of the origins and historical evolution of important lexical elements. Using patterns of borrowing and adaptation, the study tracked the origins of particular terms and found influences from different languages. Latin and Greek phrases, for example, were found to be common in scientific and technical contexts, and colloquial language was greatly influenced by regional dialects. A fuller comprehension of how languages change and adapt to historical and cultural situations is possible through the etymological perspective.

Polysemy was shown to be a common characteristic of many words in the study of lexical semantics; words like "bank," "light," and "run" have many meanings depending on the context in which they are used. Significant examples of synonymy and antonymy were also found in the study, especially in verbs and adjectives where minute contextual variations in meaning were noted. These results highlight how crucial it is to comprehend how word meanings change depending on usage and context, adding to the complexity and variety of language.

Word formation analysis DSM borrowing, derivational morphology, and compounding lead to the creation of new words. The rise in popularity of terms like "smartphone" and "selfie" is a reflection of both cultural and technological shifts. The act of affixation is crucial to the formation of new lexical items, particularly

when it comes to prefixes like "un-" and "re-." This continuous linguistic innovation is a reflection of vocabulary's ability to adjust to social and technical advancements.

Lexical structural similarities and differences were found in the comparative analysis of languages. Although many Latin-based vocabulary are shared between Spanish and English, there is a great deal of difference in how each language has adapted these words to its phonetic and morphological systems. Geographical variations within English, such as those between British and American English, also show how geography affects word meaning and usage. These results show how vocabulary is shaped by linguistic and cultural influences in many languages. Another significant aspect of this study was sociolinguistics. Words like "hacker" and "entrepreneur," according to the investigation, have changed in meaning depending on the social or professional groups they are associated with. This demonstrates the dynamic interrelationship between language and society, as vocabulary reflects shifts in cultural norms, social institutions, and professional identities[9].

Large-scale textual data processing was made possible by the employment of digital technologies like WordSmith technologies and AntConc, which significantly improved the analysis. These resources made it easier to identify word frequency, collocations, and concordances, leading to a more thorough comprehension of language usage patterns. A thorough examination of word meanings and their correlations was also made possible by the inclusion of lexicon databases such as WordNet and the Oxford English Dictionary, which enhanced the study's conclusions even more[10]. The study's findings highlight the significance of using a variety of techniques while doing lexicological analysis. With the integration of lexical semantics, word creation, etymology, corpus-based research, and

[9]Allan, K. (2013). Linguistic Meaning. Routledge.

[10]McEnery, T., & Hardie, A. (2012). Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. Cambridge University Press

sociolinguistic factors, this study provides a comprehensive knowledge of language structure and evolution.

CONCLUSION

The techniques and processes used in lexicological analysis have been thoroughly examined in this work, with a focus on both conventional and contemporary methodologies. Through the integration of etymological research, corpus-based analysis, lexical semantics, word formation analysis, and sociolinguistic concerns, the study has provided important insights into how language vocabulary is dynamic and developing. According to the findings, language is a dynamic system that is influenced by social, cultural, and technical factors.

Particularly in light of digital technology and other recent advancements, corpus-based research illustrated how linguistic patterns and word meanings evolve. The historical roots and development of words were emphasized by etymological studies, which also provided insight into cross-cultural borrowing and linguistic adaptability. By demonstrating how context affects word interpretation and how polysemy is essential to comprehending words' multiple meanings, lexical semantics exposed the complexity of word meanings.

The continuous innovation and adaptability of language are further demonstrated by word formation analysis, which demonstrates how new lexical items arise through compounding, affixation, and borrowing. In addition to demonstrating the influence of geography and culture on vocabulary, the comparative study across languages and dialects highlighted the many ways that similar lexical phenomena appear in other linguistic systems. The sociolinguistic considerations further demonstrated the relationship between language and society by illuminating how social groups, occupations, and regional variances impact language usage. To improve the study of lexical data and get fresh insights into word

frequency, collocations, and word relationships on a much wider scale, digital tools and corpora have proven to be invaluable.

The continuous innovation and adaptability of language are further demonstrated by word formation analysis, which demonstrates how new lexical items arise through compounding, affixation, and borrowing. In addition to demonstrating the influence of geography and culture on vocabulary, the comparative study across languages and dialects highlighted the many ways that similar lexical phenomena appear in other linguistic systems. The sociolinguistic considerations further demonstrated the relationship between language and society by illuminating how social groups, occupations, and regional variances impact language usage. To improve the study of lexical data and get fresh insights into word frequency, collocations, and word relationships on a much wider scale, digital tools and corpora have proven to be invaluable.

REFERENCES

1. **Crystal D.** *The Cambridge Encyclopedia of Language.* — Cambridge : Cambridge University Press, 2010.
2. **Jackson H., Amvela E. Z.** *Words, Meaning and Vocabulary.* — London : Bloomsbury, 2007.
3. **Bauer L.** *Introducing Linguistic Morphology.* — Edinburgh : Edinburgh University Press, 2003.
4. **McEnery T., Hardie A.** *Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice.* — Cambridge : Cambridge University Press, 2012.
5. **Allan K.** *Linguistic Meaning.* — London : Routledge, 2013.
6. **Kemmer S.** *Word Formation in English.* — Houston : Rice University Press, 2017.
7. **Trask R. L.** *Key Concepts in Language and Linguistics.* — London : Routledge, 1999.

8. **Oxford English Dictionary Online** [Electronic resource]. — Oxford : Oxford University Press, 2024. — Available at: https://www.oed.com

БУЮК АЛЛОМАЛАРНИНГ АХЛОКИЙ ВА ХУКУКИЙ КАРАШЛАРИ

Кахаров Фирдавсий Рустам ўғли

Ш. Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети

Аннотация: *Ушбу мақолада буюк алломалар жумладан, Форобий, Фирдавсийларнинг ахлоқий, ҳуқуқий, сиёсий, одам ва оламга оид қарашлари асосий ўрин эгаллаган. Шунингдек, шоҳ, ҳокимлар ва бўйсунувчилар бўлган тақдирдагина у ерда қонунлаштиришнинг баркамол бўлиши мумкинлиги ўрганилган.*

Калит сўзлар: *одоб, ахлоқ, одам, олам, қараш, аллома, таълим, тарбия, ҳуқуқ, тарих, қомусий, билим, табиат, баркамол, шахс, сиёсий, замон, макон*

Аннотация: *В данной статье основное внимание уделено моральным, правовым, политическим, гуманитарным и мировоззренческим воззрениям великих учёных, в том числе Фараби и Фирдоуси. Также исследовано, что законодательство может быть совершенным только при наличии царя, правителей и подчинённых.*

Ключевые слова: *манеры, мораль, человек, мир, видение, наука, образование, обучение, закон, история, энциклопедия, знание, природа, совершенство, личность, политика, время, пространство*

Abstract: *This article focuses on the moral, legal, political, humanitarian, and ideological views of great scholars, including Farabi and Ferdowsi. It also explores how legislation can only be perfect if there is a king, rulers, and subjects.*

Key words: *manners, morality, man, world, vision, science, education, learning, law, history, encyclopedia, knowledge, nature, perfection, personality, politics, time, space*

Кириш

Мамлакатни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамиятни барпо этиш йўлидан жадал ҳамда самарали одимлаётган республикамизнинг ҳозирги тараққиёт босқичида маънавият, маърифат соҳасидаги ишларни янада ривожлантириш мамлакатимиз келажагини барпо этувчи ёшларни ҳар томонлама баркамол шахс қилиб тарбиялашни тақозо этади.

Маълумки, ўзбек халқи жуда бой ва мураккаб тарихга эга бўлиб, нафақат ҳозирги Ўзбекистон ҳудуди, балки бутун Ўрта Осиё тарихи билан чамбарчас боғлиқдир. Айниқса, IX-XII асрлар тарихи жаҳон маданияти, илм-фан тараққиёти тарихидаги ҳиссасининг аҳамияти билан ажралиб туради. Шу даврда бу ўлканинг бутун жаҳонга машҳур алломалари, қомусий билим соҳиблари бўлмиш мутафаккирлари: Имом Бухорий, Фарғоний, Термизий, Форобий, Хоразмий, Беруний, Ибн Сино ва бошқалар яшаб илм -фан, маданият ривожига салмоқли ҳисса қўшдилар.

Асосий қисм

Форобийнинг мероси ғайриоддий улкан ва турли-тумандир. У ўз даврида маълум илм соҳалари бўлган этика, сиёсат, психология, табиатшунослик ва мусиқани ўрганди. Аммо албатта унинг илмий ижодида биринчи ўринда фалсафа турган. У энг аввало Арастунинг шаҳрловчиси сифатида машҳур эди. Шунинг учун “Иккинчи муаллим” номли нуфузли тахаллусни олган. Шуни эътироф этиш жоизки, – деб ёзади Е.Э. Бертельс, – Форобийнинг бу ишини аслиятдан узоқ ва тақлид қилиш, деб қараш керак эмас.

Форобийнинг “Фозил одамлар шаҳри” (“Рисола фи ара аҳл ал-мадинат ал-фадила”) номли асари эътиборга моликдир. Форобий бу асарда Афлотун ва Аристотелнинг жамият ва давлат тўғрисидаги фикрларига ўз муносабатини

билдиради. Афлотун жамият одамларнинг эҳтиёжи туфайли пайдо бўлади, деб ҳисоблайди. Унинг нуқтаи назарича, ҳокимлар ва бўйсунувчилар бўлган тақдирдагина у ерда қонунлаштиришнинг баркамол бўлиши мумкин. Ҳокимлар асл олижаноб оқсоқолларга ўхшаб ҳаётий тажрибага эга бўлишлари керак. Арасту фикрича эса, жамият “табиатнинг ҳосиласи”дир. Форобий жамиятнинг пайдо бўлишини телеология (олдиндан белгиланган мақсадга мувофиқлик) нуқтаи назаридан тушунтиради – жамият одамларнинг комилликка эришиши учун зарур, деб ҳисоблайди. Бу асар давлат тўғрисидаги антик трактатлар таъсирида ёзилган бўлишига қарамасдан, оригиналлиги (асллиги) билан ажралиб туради. Форобий бу асарида давлатнинг келиб чиқиши, ижтимоий тенгсизлик сабаблари каби бир қанча муҳим саволларга жавоб беришга ҳаракат қилган.

Марказий Осиёда жамият ҳақидаги таълимотни биринчи бўлиб қомусий олим Форобий ишлаб чиқди. У шаҳар-давлатларни фозил ва жоҳилга бўлади. Фозил шаҳар аҳолининг ўзаро ҳамкорлигига асосланади. Жамиятнинг ва давлатнинг асосий мақсади умумий бахт-саодатга эришишдир, деб ҳисоблайди Форобий.

Инсон ахлоқи ва ахлоқий тарбия борасида ҳам бу ҳол ўз аксини топди. Шу сабабдан муаммони ҳар томонлама ва мукаммал ўрганиб чиқиш учун IX-XII асрларда яшаган, инсон ахлоқи ҳақида кўп қимматли фикрлар билдирган бутун дунёга машҳур ва етук олим Абу Наср Форобий мероси олимларимиз томонидан чуқур изланишлар олиб борилмоқда. Ушбу муаммоларни ҳал этиш интеллектуал салоҳиятнинг ҳар томонлама ўсишини, кўп асрлар мобайнида вужудга келган қонунларни қайта идрок этиш ва янгича баҳолашни, бизни қуршаб турган борлиқни кенг миқёсда ўрганиш бўйича чуқур илмий тадқиқот ва тажрибалар олиб боришни тақозо этиши мумкин. Шу боисдан ҳам талабаларга Абу Наср Форобий мероси ва таълим-тарбияга оид фикрларни ўрганиш долзарб педагогик муаммо ҳисобланади.

Ўзбек халқи жуда бой ва мураккаб тарихга эга бўлиб, нафақат ҳозирги Ўзбекистон ҳудуди, балки бутун Ўрта Осиё тарихи билан чамбарчас боғликдир. Айникса, IX-XII асрлар тарихи жаҳон маданияти, илм-фан тараққиёти тарихидаги ҳиссасининг аҳамияти билан ажралиб туради. Шу даврда бу ўлканинг бутун жаҳонга машҳур алломалари, қомусий билим соҳиблари бўлмиш мутафаккирлари: Имом Бухорий, Фарғоний, Фирдавсий, Термизий, Форобий, Хоразмий, Беруний, Ибн Сино ва бошқалар яшаб илм - фан, маданият ривожига салмоқли ҳисса қўшдилар.

Шунигдек, Фирдавсий кенг қамровли ва чуқур илм эгаси бўлиб етишди. Шу боис уни «ҳаким», «донишманд» деб улуғлаганлар. Шоир ижодининг айни гуллаган даврида Ғазна шаҳрида (ҳозирги Афғонистон ҳудуди) — турк султони Маҳмуд Ғазнавий саройида яшаб, ижод қилди. Фирдавсийнинг “Шохнома” асари ўрта осиё халклрининг 4000 йиллик тарихини камраб олган 30 йилдан ортик вакт ичида ёзилган асар бўлиб, замон ва маконлардан чикиб, бугунги кунимизда хам ўз қадри, кучини пасайтирмасдан етиб келган саноқли асарлардан хисобланади. Фирдавсийнинг одамлар ва олам хақидаги қарашларидаги ўзига хосликлар билан улардаги инсонийликнинг ҳақиқатини, ҳақнинг бардавомлиги билан ўз замонаси билан жиддий бўлган ўша ижтимоий, мураккаб муаммоларнинг илгарилаши ҳамда баёнида шунақанги бир йўл-йўриқлар тутилганки, замонлар ўтиб, асрлар ўтиб йиллар ўтиб ана шу ҳақиқатлар эскиргани йўк. Биринчи одам ва олам муносабатлари, шу мақсадда уйғун келган ёмонликка хизмат қилган. Фирдавсий Эроннинг Туз шаҳрида дунёга келган, унинг атрофида ниҳоятда билимдон, донишмандлар кўп бўлган. шундан унга иштиёқ пайдо бқлган. Фирдавсийнинг бизгача алломанинг оғзаки ижоди етиб келган. Шундан “Шоҳнома” 60000 байтдан иборат бўлиб, абадиятга муҳрланган. Абулқосим Фирдавсийнинг ўзигача манбалар адабиёт, тарих комплектив характерга эга. Шоҳнома ва ислом, шоҳнома ва тарих, шоҳнома ва миллат, шоҳнома ва адабиёт, шоҳномадаги маданият, ижтимоий, бадиий

адабиётчиликнинг рамзидир. Шоҳнома ўзида 4минг йиллик тарихни бирлаштира олган. Воқеаларнинг ривожи инсоний туйғулардан одамнинг оламга муносабати. унинг чигаллигини тушунтириб бера олган.

Шунингдек, Фирдавсий Шоҳнома асарини уч қисмга, яъни,

- энг қадимий афсоналар ва уларни қайта ишлаш,
- ҳалқ қаҳрамонлари ҳаётини бадиий талқин қилиш,
- тарихий шоҳларнинг ҳаёти акс этган.

Хулоса қилиб айтганда буюк алломалар таълимотининг асосида комил инсонни шакллантириш, инсонни ўз моҳияти билан ижтимоий, яъни фақат жамиятда, ўзаро муносабатлар жараёнида комилликка эришади, деган фалсафий қарашлар ётади.

Инсоннинг камолга етишида ҳам ақли, ҳам ахлоқий тарбиянинг ўзаро алоқаси муҳим аҳамият касб этади. Бунда алломалар тавсия этган таълим – тарбия усуллари ҳозирги даврда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаганлиги билан диққатга сазовордир. Айниқса, мамлакатимизда кучли фуқаролик жамиятни барпо этиш йўлидан жадал ҳамда самарали одимлаётган юртимизнинг ҳозирги тараққиёт босқичида маънавият, маърифат соҳасидаги ишларни янада ривожлантириш мамлакатимиз келажагини барпо этувчи ёшларни ҳар томонлама баркамол шахс қилиб тарбиялашда буюк алломаларнинг беқиёс ва бебаҳо асарлари дастурил амал бўлиб хизмат қилишига шубҳа йўқ.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. **Абу Наср Форобий.** Фозил одамлар шаҳри. — Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
2. **Ахмедова М. А.** (умумий муҳаррир). Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги томонидан олий ўқув юртлари учун дарслик сифатида тавсия қилинган. — Т., 2005.
3. **Абулқосим Форобий.** Шоҳнома. — Т.: Фан нашриёти, 1993.

4. **Бертельс Е. Э.** История персидско-таджикской литературы / отв. ред. И. С. Брагинский. — Избранные труды. — Т. 1. — М.: Восточная литература.
5. **Григорян С. Н.** Средневековая философия народов Ближнего и Среднего Востока. — М., 1966.
6. **Жаҳон фалсафаси тарихидан лавҳалар.** 1-китоб. — Т.: Файласуфлар миллий жамияти, 2004.
7. **Ўзбек педагогикаси тарихи** / проф. А. Зуннунов таҳрири остида. — Т., 1997.

TALABALARDA AKADEMIK KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT VOSITALARINING AFZALLIK TOMONLARI

Rustamova Durdona Quvandiqovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To‘rtko‘l fakulteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada akademik ko‘nikmalar va ularning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Sun’iy intellektning ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda “Akademik ko‘nikma va kasbiy kompetentlik” fanini talabalarga o‘qitish jarayonidagi afzallik jihatlari uning turlari misolida tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar*: Akademik ko‘nikma va kasbiy kompetentlik, sun’iy intellekt, nutqiy ko‘nikmalar, Orfogrammka, ReText.ai, Porfiryevich, Giliglish, Pi, Memrise, Ginger, Semantris.*

Аннотация: *В статье рассматриваются академические навыки и их значение. Анализируется роль искусственного интеллекта в образовательном процессе и преимущества обучения студентов предмету «Академические навыки и профессиональные компетенции» на примере его типов.*

Ключевые слова: *Академические навыки и профессиональные компетенции, искусственный интеллект, речевые навыки, Орфограммка, ReText.ai, Порфирьевич, Гиглиш, Пи, Memrise, Джинджер, Semantris.*

Abstract: *This article discusses academic skills and their importance. The role of artificial intelligence in the educational process and the advantages of teaching students "Academic Skills and Professional Competence" are analyzed using the example of its types.*

Keywords: *Academic skills and professional competence, artificial intelligence, speech skills, Orfogrammka, ReText.ai, Porfiryevich, Giliglish, Pi, Memrise, Ginger, Semantris.*

Bugungi kunda davlatimiz ta’lim tizimida bir qator yangiliklar amalga oshirilayotgani hech kimga sir emas. Bularni hozirgi pedogogik muhitdan kelib chiqqan holatda ishlab chiqilayotgan turli xil metodlar, strukturalar, fanlar qatoriga kiritilayotgan yangi fanlar misolida ko‘rishimiz mumkin. “Akademik ko‘nikma va kasbiy kompetentlik” fani ham o’quv dasturlariga keyingi yillarda kiritilgan bo‘lib, yangi fanlar qatoriga kiradi.

“Akademik ko‘nikmalar insonning intellektual salohiyatini oshirishga, ilmiy izlanish olib borishga va mustaqil mustaqil fikrlashga yordam beradi. Kasbiy kompetentlik esa shaxsning o‘z sohasida muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarlarni o‘z ichiga oladi”.[1.26-b]. Demak, fanning mohiyati jamiyatda nafaqat umumiy bilimlar bilan birga kasbiy salohiyatga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashni taqozo etadi.

Akademik ko‘nikmalar talabaning ilmiy va ijodiy salohiyatini oshirishga, tahliliy va tanqidiy fikrlashga, yozma va og‘zaki savodxonlikni oshirishga, yozma va og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga, ilmiy-tadqiqot olib borishga, axborotlar bilan ishlash, ularni tahlil qilishga, mustaqil xulosalar chiqarish ko‘nikmlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarda sanab o‘tilgan ko‘nikmalarni shakllantirishda bevosita bugungi ta’limning ajralmas qismiga aylanayotgan sun’iy intellekt vositalarining o‘rni ham yetarlicha.

Hammaga ma’lumki, XXI asr – axborot asri. Sun’iy intellektning taraqqiyoti esa bu fikrni yanada mustahkamladi. “Sun’iy intellekt texnologiya taraqqiyotining markazida turib, ta’lim sohasida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda sun’iy intellekt yordamida ta’lim jarayonini optimallashtirish, shaxsiylashtirish va samaradorligini oshirishda keng imkoniyatlar ochilmoqda”.[2.123-b]. Sun’iy intellekt vositalarining ta’lim jarayonidagi roli yildan yilga oshmoqda. Ular har qaysi fan metodikasida o‘ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ta’lim jarayonining o‘zi ham bevosita sun’iy intellekt texnologiyalari bilan uzviy bog‘liq ravishda ish olib bormoqda.

Talabalarda aynan akademik ko‘nikmalarni shakllantirishdagi sun’iy intellekt vositalarining ahamiyati ko‘p jihatlarda namoyon bo‘ladi. “Avvalo sun’iy intellekt ta’lim jarayonida shaxsiy yondashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi. Har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyati, bilim darajasi va o‘rganish usuli mavjud. SI algoritmlari ushbu omillarni hisobga olib, har bir o‘quvchi uchun individual o‘quv dasturini yaratadi”.[2.124-b]. Shu nuqtayi nazardan sun’iy intellekt vositalari har bir talabaning individual faolligiga hissa qo‘shadi. Sun’iy intellekt vositalari talabalarning o‘z dunyoqarash va imkoniyatlaridan kelib chiqib uning ma’lum fan doirasida muayyan ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga ko‘maklashadi.

Sun’iy intellektning yana bir ahamiyatli tomoni bu – uning tezlik nuqtayi nazaridan ustunligida. Bu ustunlik talabalarga an’anaviy usullardan ko‘ra tezroq maqsadga erishishda yordam beradi. Talabalar ilmiy tadqiqot va akademik yozuv ko‘nikmalarini egallash jarayonida ilmiy manbalar va vaqt bilan bog‘liq muammolarga duch kelishadi. Sun’iy intellekt vositalariga qidirilayotgan manba yuzasidan so ‘rov yuborilishi, ma’lumotlar yig‘ish, ilmiy manba tahlili bilan bog‘liq imkoniyatlar talabalarga qator afzalliklar beradi. Bundan tashqari talabalarda nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishda ham sun’iy intellekt vositalarining samarali tomonlarini sanash mumkin. “Nutqiy ko‘nikmalar bu - og‘zaki va yozma nutqni to‘g‘ri va ravon ifoda qilish ko‘nikmasi bo‘lib, u til o‘rganishning asosiy maqsadlaridan biridir. Bu ko ‘nikmalar tinglash, o‘qish va yozish orqali shakllanadi.

An’anaviy metodlarda bu jarayon darsliklar, o‘qituvchi va mashqlar orqali amalga oshiriladi. Sun’iy intellekt esa bu jarayonni avtomatlashtirib, shaxsiy yondashuv asosida individual rivojlanishni ta’minlaydi”.[3.178-b]. Talabalarda nutq bilan bog‘liq ko‘nikmalarni shakllantirishda sun’iy intellekt vositalari rolini quyidagicha tasniflash mumkin:

“Chat GPT – o‘zidagi erkin suhbat qurish imkoniyati orqali o‘quvchining muloqot malakasini rivojlantiradi. Bu vosita o‘rganish jarayonida o‘rganuvchi bilan o‘ziga xos til muhiti yarata olishi bilan ajralib turadi.

Dualingo – o‘zida gamifikatsiyalangan o‘quv darslari orqali so‘z boyligini oshirishga, nutqiy aniqlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Speechling esa tovush va talaffuzni, umuman, nutqni avtomatik aniqlab, o‘rganuvchiga to‘g‘ridan to‘g‘ri maslahat beradi”. [3-179-b].

Ko‘pincha talabalar ta’lim jarayonida , aniqroq aytadigan bo‘lsak, akademik yozuv malakasini shakllantirayotganida til bilan bog‘liq imloviy muammolarga matn bilan ishlash qiyinchiliklariga duch kelishadi. Bunday muammolarning yechimi sifatida quyidagi sun’iy intellekt vositalarini ko‘rib chiqish mumkin:

“Orfogrammka - bu aqlli tinish belgilari, grammatika va uslublarni tekshirish uchun mashina o'rganish vositasi. U xatolarni aniqlaydi, nima noto'g'ri ekanligini ko'rsatadi va talabaga umumiy baho beradi. Shuningdek, savodxonlikni oshirishga yordam beruvchi ko ‘plab ma’lumotlarni taqdim etadi.

ReText.ai - mavjud matnni aniqlashtirishga yordam beradigan sun’iy intellekt vositasi.U xatolarni tekshiradi, iboralarni o‘zgartiradi, asosiylarini qisqartiradi yoki aksincha, ma'lum bir uzunlikka kengaytiradi. Shuningdek, u noldan yozishi va matnni sun’iy intellekt yoki inson tomonidan yozilganligini aniqlashi mumkin.

Porfiryevich – matnni avtomatik to‘ldirishga ega bo‘lgan matn muharriri. Matnning boshlanishgiga qarab sun’iy intelklekt uni o‘zi davom ettiradi. O‘rganuvchi matnga qancha so‘z qo‘shilishini tanlashi, ijodkorlik darajasini o'zgartirishi va matn modelini sozlashi mumkin”.[4].

Sun’iy intellekt vositalari yordamida til o‘rganish bugungi kunda nafaqat yangi, balki samarali usullardan bir sanaladi. Talabalar bu jarayonni oddiy chat botlar orqali ham amalga oshira oladi. Biroq sun’iy intellekt olamida aynan shu maqsadda ishlab chiqilgan loyihalar ham mavjud. “Giliglish, Pi, Memrise, Ginger, Semantris kabi sun’iy intellekt vositalari o‘rganuvchilarda til o‘rganish bilan bog‘liq yangi ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali dasturlar sanaladi”.[4]. Bundan tashqari, hozirgi ta’lim jarayonida talabalarni bevosita imiy-tadqiqot ishlariga qiziqtish va jalb qilish ham ustuvor maqsadlardan sanaladi. Talabalarda tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirish, ko‘chirmakashlik yoxud soxta ilmkashlikning oldini olish bilan bog‘liq tavsiya va bilimlar ham mazkur fanning vazifalaridan biri sanaladi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, akademik ko‘nikmalar talabalarning ta’lim olish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu fanning sun’iy intellekt bilan ta’limda integratsiya qilinishi bir qator samarali omillarga olib keladi. Ular talabalarning bilim olish ishtiyoqini va imkoniyatini kengaytiradi. Sun’iy intellekt rivoji natijasida talabalar ilmiy tadqiqot olib borish, nutq biulan bog‘liq ko‘nikmalarni shakllantirish, yozma savodxonlik va til o‘rganish malakalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo ‘ladilar. Bu talabalarning kelgusidagi faoliyatida ham muhim omil bo‘lib, xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Mirzaxadjayeva Sh., Raxmatullayev Q. Sh.** Akademik ko‘nikmalar va kasbiy kompetentlik: muhim omillar va rivojlantirish yo‘llari // *Journal of Marketing, Business and Management (JMBM)*. — 2022. — № 3. — B. 26.
2. **Aripova G. I.** Sun’iy intellektning ta’limdagi ahamiyati // *Экономика и социум*. — 2024. — № 12. — B. 123–124.

3. **Ernazarova M. K.** O‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda sun’iy intellekt resurslaridan foydalanish metodikasi // *Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi*. — 2025. — № 2. — B. 178–179.
4. **Neyron tarmoqlarni ta’limda qo‘llash** [Elektron resurs]. — Rejim kirish: https://lifehacker.ru/neiroseti-dlya-ucheby

ABDULLA ORIPOV IJODIDA QO’LLANGAN DETAL SARLAVHALAR

Zarnigor Muxtarova Javoxirbek qizi
Andijon Davlat Universiteti

Annotatsiya. *Maqolada sarlavha va uning funksiyalari, A.Oripov she’rlari misolida detal yoki predmet sarlavhalar, obraz sarlavhalar tahlili aks etgan.*

Kalit so’zlar: *sarlavha, detal sarlavha, obraz sarlavha, sarlavha funksiyalari, poetik matn.*

Аннотация. *В статье представлен анализ заглавия и его функций, детальных или предметных заглавий, а также заглавий-образов на примере стихотворений А. Орипова.*

Ключевые слова: *заглавие, детальное заглавие, образное заглавие, функции заглавия, поэтический текст.*

Abstract. *The article presents the analysis of the title and its functions, detail or subject titles, and image titles on the example of A. Oripov's poems.*

Keywords: *title, detail title, image title, title functions, poetic text.*

Sarlavha badiiy matnning eng muhim qismi. Sarlavhada badiiy matnning mazmuni aks etadi. Sarlavha badiiy matnning ma’noviy qatlamlari bilan ichki aloqada bo’ladi. Badiiy matn o’qib, tushunilgandan so’ng uning mohiyati anglashiladi. Shundan kelib chiqib sarlavha o’ziga xos funksiyalar bajaradi:

- matnning asosiy konseptini ko’rsatish fuksiyasi;

- emotsional-ekspressiv funksiya;
- komunikativ funksiya;
- nominativ funksiya;
- rekalamalilik funksiyasi;

Uning vazifalari qatorida reklamalilikni ham keltirdik. Aslida reklama tovar yoki ko'rsatilgan xizmat turlarini xaridorgir bo'lishini ta'minlovchi ma'lumot. Demak, sarlavha ham badiiy asarning o'qishliligini, keng kitobxonlar ommasini o'ziga jalb etishlikni ta'minlar ekan.

K.Hamrayev o'z maqolasida o'zbek hikoyalaridagi sarlavhalarni shartli ravishda quyidagicha tasniflaydi. Hikoya tarkibidan o'sib chiquvchi sarlavha: detal sarlavha, obraz sarlavha, syujet sarlavha. Detal(badiiy detal) – hayotni tipiklashtiruvchi asosiy vositalardan biridir. Hatto butun boshli bir hikoya detal zamirida qurilishi mumkin(A. Qahhor "Anor")[11]. [1]

Detal sarlavhani biz predmet sarlavha deb nomladik. A. Oripov ijodida esa predmet sarlavhaga misol qilib quyidagilarni oldik: "Uchqun", "Qushcha", "Yulduzlar", "Ikki daraxt", "Buloq", "Giyoh", "Qalam", "Ona tilimga", "Bulbul", "Xo'rozqand", "Avlodalarga maktub", "Nay", "Sozim", "Ohu", "Minorayi Kalon tepasidagi laylak", "O'zbek shamoli", "Chaqmoq", "Maktub", "Suv", "Qo'shiq", "Qozog'iston oxusi", "Yaxmalak", "Kakligim", "Yirtiq botinka"[12]. [2] Mazkur tipdagi sarlavhali she'rlarda muayyan predmetga asosiy ma'no yuklanadi. She'r sarlavhasini ifodalab kelgan so'z, so'z qo'shilmasi, so'z birikmasi poetik matn tarkibidan o'rin oladi. "Telefon daftari"[13] [3] she'rida sarlavhaga olingan so'z predmetni ifodalaydi. Daftar oddiy emas, unda telefon raqamlar yozilgan. Ushbu predmet she'rda tilga olinadi:

"Telefon daftari –

[11]K.Hamrayev. Badiiy asarni o'qitishda sarlavhaning o'rni. Raqamlashtirish davrida o'zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o'qitish masalalari: mahalliy va xorijiy tajriba"mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami.

[12] A. Oripov. Tanlangan asarlar. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. –Toshkent. 2019.

[13] O'sha asar. 369-bet.

Lekin, bu daftar…

Yuragim bezillar, qo’limga olsam”.

Muallif ushbu daftarga nazar solar ekan, undagi “do’st-u dushman”, “tanish-notanish” insonlarini xotirlaydi. Ularni “biri inson edi”, “iblisga yor”, “biri boyib ketgan, quv, izzattalab”, “kamtarin, yo’qsil tanishim” deya esga oladi. Shoirni ko’proq marhum do’stlarining nomlari mushohadaga chorlaydi. Ularni daftardan o’chirishga cho’chiydi:

“Balki, o’chirsammi nomlarin? Aslo!

Cho’chiyman, o’zimdan dakki yeganday.

Ular, raqamlarin tersam mobodo,

Yulduzlar ortidan labbay deganday”.

She’r orqali insonlarning turfa xilligi, umrning o’tkinchiligi, shu besh kunlik dunyoda chin inson sifatida yashaganlar esa yurtdoshlari uchun doimo bor bo’lib tuyilishi anglashiladi. Sarlavhaga olingan predmet lirik matnning badiiy konsepti uchun vosita sifatida xizmat qilgan. Muallif qalbidan o’kazgan kechinmalar uchun turtki bo’lgan.

“Osh va tosh”[14] [4] she’rida sarlavhaga olingan predmet taom va undan chiqib qolishi mumkin bo’lgan tosh:

“Lekin qay ahvolga tusharding nogoh

Yeb turgan oshingdan chiqib qolsa tosh.

Qars etib tishingga tekkani zamon,

Miyang chatnab ketar, o’t purkar ko’zing.

Tamshanib qo’yasan, bildirmay – pinhon,

O’zingdan o’tganin bilarsan o’zing”.

Ijodkor taomdan tosh chiqqandagi inson holatini tasvirlar ekan, umumiy hayot haqiqatini ushbu vaziyat bilan qiyoslaydi:

“Biroq o’ylab deyman men gohi mahal,

[14] O’sha asar. 397-bet.

Nega oshimizning ko’pdir toshlari…”

Bundan kelib chiqadiki, shoir oshni har bir insonning bu dunyodagi rizqiga, toshni esa nogahon yuz beradigan taqdir zarbalariga o’xshatyapti. Shoir xulosa qilar ekan: “Axir, alam qilar har shom-u sahar, Oshingda chiqajak toshni o’ylasang”, deya taqdirning kutilmagan zarbalari insonni cho’chitib qo’yishi, kishi “osh” dan ko’ra, ya’ni yashash zavqidan ko’ra undan chiqib qoladigan “tosh”, nogahoniy turmush omadsizliklari haqida ko’proq o’ylanishini alamli holat deya tasvirlaydi. Demak, sarlavhaga olingan predmetlar shoirning hayotda uchrab turuvchi muammolar va ularning inson ruhiyatida qoldiradigan izini qiyoslash uchun asos vazifasini bajargan.

Obraz sarlavha. Bunday hikoyalarning obrazlari sarlavhaga olib chiqiladi. Aniqrog‘i, bosh obraz yoki obrazlar hikoya yuqorisidan joy oladi va asar nomlarida qahramonlarga urg‘u berilib, syujet yo‘nalishi shu qahramonlar bilan bog‘liq ekanligiga ishora qilinadi [15] [5, 146]. Cho‘lponning “Novvoy qiz”, Oybekning “Gulnor opa”, “Fanorchi ota” ,M. Osimning “Shiroq”, T. Murodning “Bobosi bilan nevarasi”, Sh. Xolmizayev “Yozuvchi”, “Ustoz”, “Notanish odam” kabi asarlarining markazida bosh qahramonning turishi qissa janriga xos xususiyatlarni eslatadi. Ko‘rinadiki, bu kabi hikoyalarda qahramonlarning nasl-nasabi, kasb-hunari, laqabi va boshqa belgilarini bildiruvchi so‘zning o‘zi yoki izohlanmishi bilan hikoya sarlavhasiga aylanadi hamda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Hikoya tarkibidagi barcha unsurlar qahramonning ichki dunyosini ko‘rsatishga xizmat qiladi;

- Hikoya qahramonining portretiga yozuvchi prototipining noyob xislatlari ko‘chiriladi;

- Qalamkashning badiiy maqsadi bilan hikoya qahramonining taqdiri uyg‘unlashib, asar g‘oyasini tashkil etadi. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda ijodkor butun bir hikoyaning markaziga o‘z bosh qahramonini qo‘yadi.

[15] Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent, 2002. – B.470-473. 146

Abdulla Oripov ijodida ham qahramonlarning nasl-nasabi, kasb-hunari, laqabi va boshqa belgilarini bildiruvchi so‘zning o‘zi yoki izohlanmishi bilan sarlavhaga olingan she’rlar bor: “O’zbek onasi”, “Xabash qiz”, “Muxbirlar”, “Qaysar bola”, “Shukur Burxon”, “Temur”, “Musofir”, “Mavhum zot”, “Xoja va shoir”, “Shayton”. Quyida harbiy unvoni bilan she’r sarlavhasiga olingan obraz sarlavhalarni tahlil qilamiz. “O’zbek generallari”[16] – o’zbek millatidan yetishib chiqqan shunday unvonga ega yurtdoshlaridan faxrlanib yozilgan she’r. General – oliy qo’mondonlik tarkibiga beriladigan harbiy unvon yoki shu unvonga ega bo’lgan shaxs[17]. She’rdagi asosiy obraz, ya’ni “ikki general” sarlavhaga olingan. Obrazlar “o’tli ko’zlar”, “Temurbekning nasli”, “biri Alisher-u, biri Bahodir”, “yovqur sarkardalar”, “tinchlikka mas’ul” deya ta’riflanadi. She’rda “Ikki amakimga nasib qilmagan//Yulduzlar chaqnaydi yelkalarida” deya ijodkor ikkinchi jahon urushidan qaytib kelmagan o’z yaqinlariga bunday baxt nasib etmaganini ta’kidlaydi. Shunday bo’lsa-da, istiqlol tufayli millatimiz o’z qadrini topgani, ajdodlarga munosib ravishda oliy harbiy unvonlarga ega bo’layotgani shoirni quvontiradi: “Sadag’asi ketay hurlik so’zining,// O’zbegim sochilgan gardlarin topdi.// Bobolarin eslab, yana o’zining// Qo’mondonin topdi, mardlarin topdi”. Demak, izohlanmishi bilan kelgan obraz sarlavhaga olingan. Izohlanmish esa millatimizni ta’kidlab kelgan. She’rni o’qigach generallarning ajdodlarimizga munosib voris ekanligi, ikkinchi jahon urushida qatnashib halok bo’lganlarga istiqlolni ko’rish armon bo’lib qolgani, shunday tinch yurtda yashayotganimizdan, dunyoda tinchlik hukm surayotganidan shukronalik va quvonch hissi bizni qamrab oladi. Sarlavhadagi obrazdan muallifning osuda kunlar uchun javobgar “o’zbek generallari” borligidan faxr tuyg’usini ifoda etishi uchun foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[16] O’sha asar. 479-bet.

[17] E.Begmatov, A.Madvaliyev va boshqalar. O’zbek tilining izohli lug’ati. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 492-bet

1. **Hamrayev K.** Badiiy asarni o‘qitishda sarlavhaning o‘rni // *Raqamlashtirish davrida o‘zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o‘qitish masalalari: mahalliy va xorijiy tajriba* mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Toshkent.
2. **Oripov A.** Tanlangan asarlar. — Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2019.
3. **Boboyev T.** Adabiyotshunoslik asoslari. — Toshkent, 2002. — B. 470–473.
4. **Begmatov E., Madvaliyev A. va boshq.** O‘zbek tilining izohli lug‘ati. — Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.

XULQ OG‘ISHINING IJTIMOIY-MADANIY DETERMINATSIYASI

To‘rayev Ozodbek Uyg‘un o‘g‘li
Turon unversiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xulq o‘zgarishining ijtimoiy va madaniy omillar bilan belgilanishi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Jamiyatdagi qadriyatlar, an’analar, ijtimoiy institutlar, kommunikatsiya vositalari hamda madaniy me’yorlarning shaxs xulqiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, globalizatsiya, raqamli madaniyat va avlodlararo farqlar xulqiy jarayonlarni qay tarzda shakllantirishi haqida ilmiy asoslangan xulosalar beriladi.*

***Аннотация**: В данной статье проводится научный анализ влияния социальных и культурных факторов на изменение поведения. Рассматривается воздействие общественных ценностей, традиций, социальных институтов, средств коммуникации и культурных норм на поведение личности. Также представлены научно обоснованные выводы о том, каким образом глобализация, цифровая культура и межпоколенческие различия формируют поведенческие процессы.*

***Abstract**: This article analyzes the determination of behavioral change by social and cultural factors from a scientific perspective. It examines the influence of societal values, traditions, social institutions, communication tools, and cultural norms on individual behavior. The article also provides scientifically grounded conclusions on how globalization, digital culture, and intergenerational differences shape behavioral processes.*

***Kalit so‘zlar:** Ijtimoiy-madaniy determinantlar, xulq o‘zgarishi, madaniy me’yorlar, ijtimoiy institutlar, globalizatsiya, kommunikatsiya, raqamli madaniyat.*

*Ключевые слова**:** Социокультурные детерминанты, изменение поведения, культурные нормы, социальные институты, глобализация, коммуникация, цифровая культура.*

Shu morfemalar orqali “hematology” – qonni o‘rganish fani yoki “spectrometry” – spektr o‘lchash usuli kabi terminlar hosil bo‘ladi. Bu terminlar laborator metodlarni aniq va tushunarli ifodalaydi. Morfemalar laborator testlarning nomlarini standartlashtirishga yordam beradi, xatoliklarni kamaytiradi va ilmiy izlanishlarda bir xildagi terminologiya bilan ishlash imkonini beradi.

2. Imaging va tasvirlash texnologiyalari

Radiologiya va boshqa tasvirlash metodlarida morfemalarning ahamiyati katta:

“Radio-” – nurlanish

“-graphy” – tasvir olish yoki chizma

Masalan, “radiography” – nurlanish orqali tasvir olish. Bu morfemalar klinik amaliyotda protseduralarni aniq ifodalash, diagnostik natijalarni tushuntirish va xatolarni kamaytirishda yordam beradi. Shu bilan birga, morfemalar yangi imaging texnologiyalarini tasniflashda ham asosiy vosita sifatida ishlatiladi.

3. Kasalliklar va simptomlarni tavsiflash

Morfemalar kasallik va simptomlarni aniq va qisqa ifodalash imkonini beradi:

“Dermat-” – teri

“-itis” – yallig‘lanish

Shu bilan “dermatitis” – teri yallig‘lanishi hosil bo‘ladi. Shunga o‘xshash morfemalar “hepatitis” (jigar yallig‘lanishi), “nephritis” (buyrak yallig‘lanishi) kabi

atamalarni yaratadi. Bu esa diagnostik jarayonda shifokorlarga tez va aniq tahlil qilish imkonini beradi.

4. Morfemalarning diagnostik innovatsiyalardagi ahamiyati

Aniqlik: Morfemalar so‘z va terminlarning qisqa, tushunarli va bir ma’noli bo‘lishini ta’minlaydi.

Universallik: Lotincha va yunoncha morfemalar xalqaro tibbiy kommunikatsiyada bir xil tushuniladi.

Yaratilish imkoniyati: Yangi terminlar tez va aniq tarzda hosil qilinadi, bu esa diagnostik innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Morfemalarning aniq tasnifi laborator diagnostika, klinik testlar, sun’iy intellekt tizimlari va elektron sog‘liqni saqlash platformalarida standartlashtirish uchun ham muhimdir. Shu yo‘l bilan morfemalar nafaqat ilmiy, balki klinik va texnologik jarayonlarda ham samarali vosita sifatida ishlatiladi.

Xulosa. Morfemalar diagnostik innovatsiyalar sohasida so‘zning eng kichik ma’no birligi sifatida katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ular tibbiy terminologiyani aniqlash, kasalliklarni tasniflash, laborator va klinik jarayonlarni soddalashtirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Morfemalar orqali murakkab tibbiy atamalar qismlarga ajratiladi, ularning ma’nosi, kelib chiqishi va funksiyasi tushuniladi, bu esa diagnostik jarayonlarda aniqlikni ta’minlaydi.

Lotincha va yunoncha morfemalar xalqaro tibbiy kommunikatsiyada universal vosita sifatida ishlatiladi. Masalan, “cardiology” (yurakni o‘rganish fani), “dermatitis” (teri yallig‘lanishi) yoki “radiography” (tasvirlash usuli) kabi terminlar klinik amaliyotda tez va aniq qo‘llaniladi. Bu terminlarning aniq va standart shaklda ishlatilishi shifokorlar va ilmiy tadqiqotchilar uchun samarali kommunikatsiya imkonini yaratadi.

Morfemalarning aniq tasnifi va to‘g‘ri qo‘llanilishi yangi diagnostik innovatsiyalar yaratishda samaradorlikni oshiradi, laborator va klinik jarayonlarda xatoliklarni kamaytiradi, shuningdek, sun’iy intellekt tizimlari va elektron sog‘liqni saqlash platformalarida standartlashtirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, morfemalar tibbiyot fanining global rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Ular klinik amaliyotni optimallashtiradi, yangi diagnostik metodlarni yaratishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi va tibbiy bilimlarni butun dunyo bo‘ylab bir xil tushunishga imkon beradi.

Natijada, morfemalarning diagnostik innovatsiyalardagi roli faqat lingvistik jihatdan emas, balki klinik, ilmiy va texnologik jihatdan ham muhim ekanligi tasdiqlandi. Ular tibbiyot sohasida aniqlik, tezlik va samaradorlikni oshiruvchi asosiy element sifatida qaraladi. Shu sababli, morfemalarning aniq tasnifdagi o‘rni va qo‘llanilishi diagnostik innovatsiyalarni rivojlantirishda ajralmas vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. **Crystal D.** *The Cambridge encyclopedia of the English language.* – Cambridge : Cambridge University Press, 2010.
2. **Katamba F.** *Morphology.* – London : Macmillan Press, 1993.
3. **Aronoff M., Fudeman K.** *What is morphology?* – Oxford : Wiley-Blackwell, 2011.
4. **Bauer L.** *Introducing linguistic morphology.* – Edinburgh : Edinburgh University Press, 2003.
5. **McCarthy J.** Formal properties of the root and the template in Semitic // *Linguistic Inquiry*. – 1981.
6. **Brown G., Miller J.** *Medical terminology: A short course.* – Amsterdam : Elsevier, 2014.
7. **Champe P. C., Harvey R. A.** *Lippincott’s illustrated reviews: Biochemistry.* – Philadelphia : Wolters Kluwer, 2018.
8. **Tietz N. W.** *Clinical guide to laboratory tests.* – Amsterdam : Elsevier, 2017.
9. **Standring S.** *Gray’s anatomy: The anatomical basis of clinical practice.* – Amsterdam : Elsevier, 2021.

10. **Dorland W. A. N.** *Dorland's illustrated medical dictionary.* – Amsterdam : Elsevier, 2020.
11. **Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J.** *A comprehensive grammar of the English language.* – London : Longman, 1985.
12. **Гвоздев А. Н.** *Медицинская терминология: история и основы.* – Москва, 2015.
13. **Kwon Y., Park H.** Morphemes in medical terminology and their role in diagnostics // *Journal of Medical Linguistics*. – 2019.
14. **Louw B., Campbell S.** Clinical terminology in diagnostics // *South African Medical Journal*. – 2020.
15. **International Federation of Clinical Chemistry and Laboratory Medicine (IFCC).** *Guidelines.* – 2022.

BIOTEXNOLOGIYA JARAYONLARIDA LOTIN TILINING MORFOLOGIK STRUKTURA SIFATIDAGI FUNKSIYASI VA UNING ILMIY TERMINOLOGIYADAGI ROLI.

Toshtemirova Rayhona Anvarjon qizi.
Farg'ona Jamoat Salomatligi tibbiyot instituti.
To'ychiyeva Odina Sobirovna.
Farg'ona Jamoat Salomatligi tibbiyot instituti.

Anotatsiya: *Ushbu maqola biotexnologiya jarayonlarida lotin tilining morfologik struktura sifatidagi funksiyasini keng tahlil qiladi. Morfemalar va so'z tarkibiy qismlari ilmiy terminologiyada yangi atamalar yaratish, jarayonlarni tasniflash, ilmiy kommunikatsiyani soddalashtirish va ilmiy standartlarni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Maqolada morfemalarning biotexnologik jarayonlarni tushunishdagi ahamiyati, atamalarni yaratish va ularni xalqaro ilmiy hamjamiyatga mos ifodalashdagi vazifalari o'rganiladi. Shu bilan birga, maqola*

morfemalarning ilmiy tadqiqotlar, laborator metodlar va biotexnologik innovatsiyalar jarayonida qo‘llanilish imkoniyatlarini ham ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *morfema, morfologik struktura, biotexnologiya jarayonlari, ilmiy terminologiya, ilmiy nomenklatura, ilmiy kommunikatsiya, innovatsiyalar, laborator metodlar, atamalar yaratish.*

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the functional role of Latin morphological structures in biotechnology processes. Morphemes and word components play a crucial role in creating new scientific terms, classifying processes, facilitating scientific communication, and ensuring adherence to scientific standards. The paper examines the significance of morphemes in understanding biotechnological processes, forming precise terminology, and expressing it appropriately within the international scientific community. Moreover, it highlights their applications in research, laboratory methods, and biotechnological innovations.*

Keywords: *morpheme, morphological structure, biotechnology processes, scientific terminology, scientific nomenclature, scientific communication, innovations, laboratory methods, term creation.*

Аннотация: *Данная статья предоставляет всесторонний анализ функциональной роли латинской морфологической структуры в биотехнологических процессах. Морфемы и составные элементы слова играют ключевую роль в создании новых научных терминов, классификации процессов, облегчении научной коммуникации и обеспечении соответствия научным стандартам. В статье рассматривается значение морфем для понимания биотехнологических процессов, формирования точной терминологии и её правильного выражения в международном научном сообществе. Кроме того, подчеркиваются возможности их применения в исследованиях, лабораторных методах и биотехнологических инновациях.*

Ключевые слова: *морфема, морфологическая структура, биотехнологические процессы, научная терминология, научная номенклатура,*

научная коммуникация, инновации, лабораторные методы, создание терминов.

Kirish. Biotexnologiya – bu hayotiy jarayonlarni ilmiy va texnologik asosda o‘rganish, modifikatsiya qilish va qo‘llashga qaratilgan zamonaviy fan bo‘lib, u tibbiyot, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati, ekologiya va sanoat ishlab chiqarish sohalarida keng qo‘llaniladi. Biotexnologik jarayonlar murakkab biologik tizimlarni o‘rganish va boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgani sababli, ushbu sohada ishlatiladigan terminologiya ilmiy aniqlik va standartlashuvni talab qiladi.

Lotin tili biotexnologiya fanida morfologik struktura jihatidan asosiy vosita sifatida ishlatiladi. Morfemalar – so‘zning eng kichik ma’no birligi – yangi ilmiy atamalar yaratishda, mavjud terminlarni standartlashtirishda va murakkab jarayonlarni soddalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, “bio-” morfemasi hayot bilan bog‘liq jarayonlarni, “-logy” morfemasi o‘rganish fani, “-therapy” esa davolash metodlarini ifodalaydi. Shu morfemalar birlashtirilganda, “biotherapy” (hayotiy davolash) yoki “biotechnology” (hayot texnologiyalari) kabi yangi terminlar hosil bo‘ladi. Bu esa terminologiyani xalqaro standartga moslashtirish va ilmiy kommunikatsiyani soddalashtirish imkonini yaratadi.

Bugungi kunda biotexnologiya sohasida genetika, molekulyar biologiya, bioinformatika, klonlash va sun’iy intellekt asosida ishlaydigan laboratoriya tizimlari tez rivojlanmoqda. Shu jarayonda morfemalarning funksiyasi terminologiyani aniq belgilash, jarayonlarni tasniflash va ilmiy standartlarga moslashtirishda ajralmas vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, laboratoriyada yangi biokimyoviy testlar yoki molekulyar diagnostika metodlari yaratilganda, ular lotin morfemalari yordamida qisqa, tushunarli va xalqaro standartga mos atamalar bilan nomlanadi. Bu esa shifokorlar, tadqiqotchilar va laboratoriya mutaxassislari o‘rtasida tez va aniq ilmiy kommunikatsiyani ta’minlaydi.

Shuningdek, morfemalar yordamida biotexnologik jarayonlar, tajribaviy protokollar, dori vositalari va bioinformatsion metodlar bir xil tushunarli formatda ifodalanadi. Bu jarayonlarni optimallashtirish, xatoliklarni kamaytirish va yangi

innovatsiyalarni tezroq joriy etish imkonini beradi. Morfemalarning aniq tasnifi laborator testlar, klinik protokollar, biotexnologik mahsulotlar va ilmiy maqolalarda universal til yaratadi.

Ushbu maqolada biotexnologiya jarayonlarida lotin tilining morfologik struktura sifatidagi funksiyasi, morfemalarning ilmiy terminologiyadagi ahamiyati, ularning yangi atamalar yaratish, jarayonlarni tasniflash va ilmiy kommunikatsiyani soddalashtirishdagi roli keng tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqolada morfemalarning laboratoriya metodlari, bioinformatika tizimlari va biotexnologik innovatsiyalar jarayonida qo‘llanilishi ham ko‘rib chiqiladi.

Asosiy qism.

Biotexnologiya jarayonlarida morfemalar so‘zning eng kichik ma’no birligi sifatida murakkab ilmiy terminlarni aniqlash va standartlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Morfemalar orqali yangi atamalar hosil qilinadi, mavjud atamalar aniqroq tasniflanadi va ilmiy kommunikatsiya soddalashadi. Ushbu qismda morfemalarning biotexnologik jarayonlarda amaliy qo‘llanilishi keng tahlil qilinadi.

1. Laborator diagnostika va morfemalarning roli

Laborator metodlar va diagnostik testlar biotexnologiyaning asosiy qismidir. Morfemalar laboratoriya atamalarini yaratishda va ularni standartlashtirishda keng qo‘llaniladi:

“Bio-” – hayot bilan bog‘liq

“-logy” – o‘rganish fani

“-metry” – o‘lchash

“-assay” – analiz, sinov

Misollar:

“Biochemistry” – hayotiy kimyo fani, biologik molekulalarni o‘rganadi

“Spectrometry” – molekulalarni spektral o‘lchash metodi

“Bioassay” – biologik faol moddalarni laboratoriyada sinash

Morfemalarning bu qo‘llanilishi laboratoriya testlarini aniq va tushunarli qiladi, natijalarni tahlil qilishda xatoliklarni kamaytiradi va ilmiy tadqiqotlar jarayonini soddalashtiradi.

2. Molekulyar biologiya va genetik jarayonlarda morfemalar

Molekulyar biologiya va genetika sohasida morfemalar yangi atamalarni yaratishda va murakkab jarayonlarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi:

“Gene-” – gen bilan bog‘liq

“-ome” – to‘plam, tizim

“-omics” – tizimli o‘rganish

“-therapy” – davolash usuli

Misollar:

“Genomics” – genetik materiallarni tizimli o‘rganish

“Proteome” – organizmning barcha oqsillar to‘plami

“Gene therapy” – genlarni tahrirlash orqali kasalliklarni davolash

Bu morfemalar murakkab genetik jarayonlarni qisqa, tushunarli va xalqaro ilmiy standartga mos tarzda ifodalash imkonini beradi. Shu bilan birga, yangi innovatsion diagnostik metodlar va biotexnologik mahsulotlarni nomlashda asosiy vosita sifatida ishlatiladi.

3. Biotexnologik innovatsiyalar va terminologiya

Biotexnologik innovatsiyalar doimiy ravishda yangi laborator metodlar, bioinformatika tizimlari va sanoat jarayonlarini yaratadi. Morfemalar bu jarayonlarda ilmiy terminlarni yaratish va soddalashtirishda muhim ahamiyatga ega:

“Cryo-” – sovutish bilan bog‘liq

“Micro-” – mayda, mikroskopik

“-phage” – bakteriyani yo‘q qiluvchi virus

“-syntheis” – yaratish, sintez

Misollar:

“Cryopreservation” – hujayralarni sovutib saqlash

“Microbiome” – mikrob organizmlar to‘plami

“Bacteriophage therapy” – bakteriyalarni o‘ldiruvchi viruslar yordamida davolash

“Biosynthesis” – biologik jarayonlarda moddalarni yaratish

Morfemalar yordamida terminlar nafaqat ilmiy aniq, balki laboratoriya va sanoat amaliyotida ham tez va samarali qo‘llaniladi. Shu yo‘l bilan ilmiy tadqiqotlar, diagnostik testlar va biotexnologik mahsulotlar bir xil tushunarli formatda ifodalanadi.

4. Morfemalarning ilmiy va kommunikatsiyadagi ahamiyati

Aniqlik: Morfemalar murakkab ilmiy terminlarni qisqa, tushunarli va bir ma’noli qiladi.

Universallik: Lotin morfemalari xalqaro ilmiy kommunikatsiyada universal vosita sifatida ishlatiladi.

Innovatsion imkoniyat: Yangi atamalar tez va aniq hosil qilinadi, bu esa biotexnologik innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Standartlashtirish: Morfemalar laboratoriya metodlari, bioinformatika tizimlari va ilmiy maqolalarda universal til yaratadi.

Shu bilan birga, morfemalarning to‘g‘ri qo‘llanilishi biotexnologik jarayonlarning tez va samarali rivojlanishini ta’minlaydi, xatoliklarni kamaytiradi va ilmiy tadqiqotlarni xalqaro standartlarga moslashtiradi.

Xulosa. Biotexnologiya jarayonlarida lotin tilining morfologik struktura sifatidagi funksiyasi ilmiy terminologiya, laborator metodlar va innovatsion jarayonlarning samarali ishlashida ajralmas vosita hisoblanadi. Morfemalar so‘zning eng kichik ma’no birligi sifatida yangi atamalar yaratishda, mavjud terminlarni standartlashtirishda va murakkab jarayonlarni tushunarli ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Shu tariqa, biotexnologiya sohasida morfemalarning to‘g‘ri qo‘llanilishi ilmiy kommunikatsiyani soddalashtiradi, tadqiqot natijalarining aniqligini oshiradi va ilmiy jarayonlarni xalqaro standartlarga moslashtiradi.

Lotin morfemalari laboratoriya diagnostikasi, molekulyar biologiya, genetika, bioinformatika va sanoat biotexnologiyasi jarayonlarida keng qo‘llaniladi. Masalan,

“bio-”, “-logy”, “-therapy”, “-omics”, “cryo-”, “micro-” kabi morfemalar murakkab jarayonlarni qisqa va tushunarli ifodalash imkonini beradi. Shu bilan birga, ular yangi ilmiy metodlar, dori vositalari va innovatsion mahsulotlarni nomlashda asosiy vosita sifatida ishlatiladi.

Morfemalarning amaliy qo‘llanilishi biotexnologik jarayonlarni soddalashtirish va optimallashtirishga yordam beradi. Misol uchun, gen terapiyasi, proteomika, bakteriofag terapiyasi yoki biosintez kabi jarayonlarda morfemalar orqali yaratadigan terminlar ilmiy tadqiqotlar va laboratoriya protokollarini standartlashtirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, morfemalar faqat lingvistik vosita emas, balki biotexnologik innovatsiyalarni rivojlantirish va ilmiy bilimlarni xalqaro miqyosda bir xil tushunarli qilishda ham muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, morfemalarning diagnostik va ilmiy ahamiyati biotexnologik jarayonlarning tez rivojlanishi, laboratoriya va sanoat amaliyotida xatoliklarni kamaytirish va yangi innovatsiyalarni tezroq joriy etish imkoniyatini yaratadi. Ular ilmiy tadqiqotlar, laboratoriya metodlari va sanoat ishlab chiqarish jarayonlarida universal ilmiy til sifatida ishlatiladi.

Natijada, biotexnologiya jarayonlarida lotin tilining morfologik struktura sifatidagi funksiyasi faqat ilmiy terminologiyani boyitish va jarayonlarni standartlashtirish bilan cheklanmay, balki ilmiy kommunikatsiya, innovatsiyalarni rivojlantirish, laboratoriya va sanoat amaliyotining samaradorligini oshirishda ham muhim vosita sifatida qaraladi. Shu sababli, morfemalarning aniq tasnifi va to‘g‘ri qo‘llanilishi biotexnologiya fanining global rivojlanishida ajralmas omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Crystal D.** *The Cambridge encyclopedia of the English language.* – Cambridge : Cambridge University Press, 2010.
2. **Katamba F.** *Morphology.* – London : Macmillan Press, 1993.

3. **Aronoff M., Fudeman K.** *What is morphology?* – Oxford : Wiley-Blackwell, 2011.
4. **Bauer L.** *Introducing linguistic morphology.* – Edinburgh : Edinburgh University Press, 2003.
5. **Brown G., Miller J.** *Medical terminology: A short course.* – Amsterdam : Elsevier, 2014.
6. **Champe P. C., Harvey R. A.** *Lippincott's illustrated reviews: Biochemistry.* – Philadelphia : Wolters Kluwer, 2018.
7. **Tietz N. W.** *Clinical guide to laboratory tests.* – Amsterdam : Elsevier, 2017.
8. **Standring S.** *Gray's anatomy: The anatomical basis of clinical practice.* – Amsterdam : Elsevier, 2021.
9. **Dorland W. A. N.** *Dorland's illustrated medical dictionary.* – Amsterdam : Elsevier, 2020.
10. **Quirk R., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J.** *A comprehensive grammar of the English language.* – London : Longman, 1985.
11. **Гвоздев А. Н.** *Медицинская терминология: история и основы.* – Москва, 2015.
12. **Kwon Y., Park H.** Morphemes in medical terminology and their role in biotechnology // *Journal of Medical Linguistics*. – 2019.
13. **Louw B., Campbell S.** Scientific terminology in biotechnology // *South African Medical Journal*. – 2020.
14. **International Federation of Clinical Chemistry and Laboratory Medicine (IFCC).** *Guidelines.* – 2022.
15. **Alberts B., et al.** *Molecular biology of the cell.* – New York : Garland Science, 2015.

ADABIY OQIMLARNING TARIXIY KELIB CHIQISHI VA TERMINOLOGIK TADQIQI

Omonova Inobat Sadriddinovna

ToshDO‘TAU

Annotatsiya: *Ushbu maqolada A. Sa’diyning “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” darsligi hamda Fitratning “Adabiyot qoidalari” asarlarida qo‘llanilgan adabiy oqimlarga doir terminlar qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiq jarayonida nazariy manbalarda ishlatilgan oqim va metod atamalari o‘rganilib, ularning o‘zaro muqobilligi o‘rganilib, natijada adabiyotshunoslikda ishlatiladigan bunday terminlarning tarixiy shakllanishi hamda nazariy va amaliy qo‘llanishidagi umumiylik va farqlar aniqlanadi.*

Аннотация: *В данной статье проводится сопоставительный анализ терминов, связанных с литературными течениями, использованных в учебнике А. Саадия «Практические и теоретические уроки литературы» и в труде Фитрата «Правила литературы». В процессе исследования изучаются обозначения течений и методов, встречающиеся в теоретических источниках, а также рассматривается их взаимная эквивалентность. В результате выявляются историческое формирование таких терминов, применяемых в литературоведении, а также общие черты и различия в их теоретическом и практическом употреблении.*

Annotation: *This article provides a comparative analysis of the literary-movement-related terms used in A. Sa’diy’s “Practical and Theoretical Literature Lessons” and Fitrat’s “Principles of Literature.” During the study, the terms denoting movements and methods employed in theoretical sources are examined, and their mutual equivalence is explored. As a result, the historical formation of such terminology used in literary studies, as well as the similarities and differences in their theoretical and practical applications, are identified.*

Kalit so‘zlar: *adabiy oqim, termin, realizm, modernizm, romantizm, ramzchilik, etimologiya, universalizm.*

Ключевые слова: *литературное течение, термин, реализм, модернизм, романтизм, символизм, этимология, универсализм.*

Keywords: *literary movement, term, realism, modernism, romanticism, symbolism, etymology, universalism.*

Adabiyotshunoslik tarixidagi har bir adabiy oqim faqat badiiy yangilik emas, balki o‘z davrining falsafiy, ilmiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ifodalovchi madaniy hodisadir. Har bir oqimning termin sifatida shakllanishi ese siyosiy vaziyatga javob tarzda hamda estetik g‘oyalar bilan uzviy aloqada kechgan. Jahon adabiyotshunosligida, shuningdek, o‘zbek adabiyotida ham adabiy yo‘nalishlar va oqimlarga oid terminlarning nazariy asoslari bosqichma-bosqich shakllangan. Ayniqsa, XX asrda Sharq va G‘arb adabiy-nazariy qarashlarining uyg‘unlashuvi jarayonida “izm”lar tizimi, ularning tarixiy va estetik ildizlari ilmiy tadqiq etila boshlandi. Fitratning “Adabiyot qoidalari”, A. Sa’diyning “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” kabi manbalar bilan bir qatorda, adabiyotshunoslik terminlariga doir lug‘atlar, xorijiy va o‘zbek tadqiqotchilarning ilmiy ishlari ham alohida ahamiyatga ega. Ularning asosida adabiy oqimlarga oid terminlarning tarixiy shakllanishi, ma’no evolyutsiyasi hamda ularning milliy adabiyotshunoslikdagi qo‘llanish xususiyatlari aniqlangan.

A. Sa’diyning “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari” darsligida adabiy oqimlar keng qamrovda berilgan bo‘lib, u jami o‘n to‘rt oqimni sanab o‘tadi. Ular quyidagilardan iborat: yolg‘on klassiklik, oqartirish (fikrchilik), hissiylik (sentimentalism), chinliq, romantizm, ramzchilik, dekadentlik, pessimizm, naturalism, modernism, futurizm, shuningdek, sof adabiy oqimlar emas, balki o‘z davrining mafkuraviy-ijtimoiy ehtiyojlariga yaqin bo‘lgan oqimlar sifatida ijtimoiyat , unanizm (turkumlanmak), ko‘makchilik — o‘rtoqchilik(universalizm).

Fitrat esa “Adabiyot qoidalari” asarida to‘qqizta adabiy oqimni sanaydi va asosan ularning nazariy mohiyati hamda Sharq adabiyotidagi o‘rniga e’tibor qaratadi. U klassitsizm, ratsionalizm, sentimentalizm, romantizm, realizm,

simvolizm, modernizm, naturalizm, futurism kabi oqimlarni sanab o‘tadi. Har ikkala muallif adabiy oqimlarning nazariy tasnifida umumiylikka ega bo‘lsa-da, ularning tasnif mezonlari va adabiy yondashuvlari jihatidan farq qiladi.

Klassitsizmga baho berishda A. Sa’diy bu oqimni ijodiy tanazzul belgisi sifatida ko‘rib, ijobiy baho bermaydi. Unga ko‘ra, yunon adabiyotiga va mumtoz adabiyotga ergashilgan har qanday asarlar “Yolg‘on klassiklik” misoli hisoblanadi. Shu bilan birga, Fitratning nazariyasida klassitsizm ikki ko‘rinishga ajraladi: taqlidiy va soxta. Fitrat bu oqimni ijodiyotni davom ettirish sifatida ijobiy baholaydi, shuningdek, “soxta klassitsizm”ni esa “15–16-asrlik davr farqini hisobga olmaslik” yoki “o‘ylamasdan taqlid qilib maydonga chiqarilgan”[26] asarlar sifatida izohlaydi. Shu nuqtai nazardan, Sa’diydagi “Yolg‘on klassiklik” va Fitratdagi “Taqlidiy klassitsizm” atamalari orasida sezilarli farq mavjud. Fitratning yondashuvi barcha klassik asarlarga birday salbiy baho berilmasligini ta’minlaydi.

Fitrat “Oqartish yoki Fikrchilik oqimi”ni umumiy atama sifatida “Ratsionalizm” deb keltiradi va uni “Aqliyun falsasi” bilan bir ma’no anglatishini ta’kidlaydi. Har ikki adabiyotshunos ushbu oqim mohiyatida aql va ma’rifat ustuvor ekanligi haqidagi fikrni beradi. A.Sa’diy ratsionalizmni g‘arbdagi gumanizm va ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan bog‘laydi, Fitrat esa uni Sharq kontekstida, xususan din va jadidizm vakillari qarashlari bilan izohlaydi.

A.Sa’diy atama mohiyatini ruhoniylar, dvoryanlar va burjua kurashi bilan bog‘laydi. Fitrat esa “diniy oqartish”ni ajratadi va haqiqiy namunalarini bitganlar sifatida jadidlar — Behbudiy, Avloniy, Tavallo va Hoji Muin keltiriladi. Termin sifatida “ratio” (lotincha, sabab), “rationalis” (fransuzcha, oqilona, mantiqiy) so‘zlaridan kelib chiqqan[27]. Sharq va G‘arbda ratsionalizm turlicha shakllangan. Sharq ruhiyatida diniy aqidalar ustunlik qilganligi sababli u “Aqliyun” shaklida paydo bo‘lgan. Sof ratsionalizm atamasi esa asosan G‘arbga xos bo‘lib, Sharq

[26] Fitrat, Abdurauf. Tanlangan asarlar: darslik va o‘quv qo‘llanmlalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar /Abdurauf Fitrat; Mas’ul muharrir B.Qosimov; Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H.Boltaboyev. – T.: “Ma’naviyat”, 2009. – 85b

[27] https://english-studies.net/rationalism-in-literature-literary-theory/

kontekstida unga mos muqobil atamalar sifatida “Oqartish” yoki “Fikrchilik” qo‘llanishi maqsadga muvofiqdir.

Terminologik nuqtai nazardan, A.Sa’diy “Hissiylik oqimi” atamasini qo‘llash orqali oqimning mohiyatini aniq ifodalaydi. “Sentementalizm” termini inglizcha “sentimental” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “hissiyotli” va “sentiment” “hissiyotga berilish” ma’nolarini bildiradi. “Ilgari, Oksford lug‘atiga ko‘ra, bu so‘z birinchi marta 1749-yilda ishlatilgan bo‘lib, u “oqilona”, “yuqori axloqiy” yoki “tarbiyalovchi” ma’nolarda qo‘llangan. 1760-yilda esa uning ma’nosi hissiyot bilan bog‘lanib, aqlga tegishli bo‘lmagan ma’noga ega bo‘ldi. XIX asrda ingliz tilida “sentimental” so‘zi haddan tashqari hissiyotga moyil, hissiyotlarga osonlik bilan beriluvchi kabi salbiy ma’nolarga ega bo‘ldi”[28]. Shu asosda, atamani ko‘rko‘rona qabul qilishdan ko‘ra, unga mos keladigan “Hissiylik oqimi” terminini ishlatish ilmiy va terminologik jihatdan maqbul hisoblanadi. Bu nafaqat oqimning mohiyatini aniq ifodalaydi, balki sharq va g‘arb adabiyotidagi qarashlarni tahlil qilishda qulaylik yaratadi.

Romantizm” atamasi o‘zbek adabiy tiliga chetdan kirib kelgan leksik birlik sifatida fonetik adaptatsiyaga uchrab, dastlab A. Sa’diy va Fitrat asarlarida “ro‘montizm” yoki “rumontizm” shaklida qo‘llanilgan. Fitrat “Ro‘montik fors adabiyotidan ozuqlanib, shunga ergashib borgan chig‘atoy-o‘zbek shoirlarimiz hammalari ro‘montizm kishilaridir”, – deb, romantik ruhning Sharq adabiy an’analarida mavjudligini ta’kidlaydi. A. Sa’diy ham bu fikrni tasdiqlaydi, “Sharq umuman ro‘montik bir xalqdir. Uning mundan ayrilib yashagan zamonlari ozdir”, – deya, romantik tafakkurning Sharq xalqlari ruhiyatiga singib ketganini qayd etadi.

Etimologik jihatdan “romantizm” atamasi o‘z ildizini roman so‘zidan oladi. Bu so‘zning ilk shakllari — italyancha romanzo, fransuzcha romantique, inglizcha romantic — o‘zaro ma’nodosh bo‘lib, dastlab “xayoliy”, “fantastik” ma’nolarni

[28] Literaturnaya ensiklopediya 2001 960b Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред. А.Н.Николюкина. И нети Л 64 тут научн. информации по общественным наукам РАН. — М.: НПК «Интелвак», 2001. — 960 b

bildirgan. XII asrdan boshlab Fransiyada boshqalardan ajralib turuvchi qahramonlar bilan sodir bo‘lgan ishqiy, jangovor sarguzashtlar bayon etilgan asarlar roman deb atalgan[29]. “Romantizm atamasi XIII asrda roman tillarda xayoliy syujet asosida hikoya qiluvchi asarlarni belgilash bilan bog‘liq bo‘lgan Fransuzcha “rommant” ma’nosida kelgan, 17- asrda esa Angliyada “romantik” epiteti paydo bo‘lib, “xayoliy”, “g‘alati”, “fantastik” degan ma’nonani anglatgan[30] Boshqa manbalarda esa XVII asrga kelib , Angliya va Fransiyada “romance” so‘zi salbiy ma’no kasb eta boshlagan, ya’ni xayolparast, bo‘rttirilgan, “asossiz” degan ma’nolarda ishlatilganligi ta’kidlanadi.[31] XVIII asrda “yumshoqlik”, “hissiylik” kabi ijobiy ma’nolar bilan adabiyot terminologiyasiga qayta kirgan. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da qayd etilishicha, romantizm termini ispancha “romance” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, dastlab “kitoblardagina uchraydigan g‘ayritabiiy, ajabtovur narsalar”ni anglatgan.

Realizm atamasi o‘zbek adabiyotshunosligida ham g‘oyaviy-estetik, ham terminologik jihatdan o‘ziga xos talqin topgan. A. Sa’diy bu tushunchani “chinliq” so‘zi orqali ifodalaydi. “Chinliq” so‘zi o‘zbek tilida “haqiqat”, “haqqoniylik”, “rostlik” ma’nolarini bildiradi va bu orqali muallif realizmni xalq tili vositasida milliylashtirishga intilganini ko‘rish mumkin. Fitrat esa bu atamani umumadabiy termin sifatida bevosita “realizm” shaklida qo‘llab, uni “turmushni butun ingichkaliklari bilan o‘rganib, o‘rgatishdir” deb ta’riflaydi. Fitrat bu o‘rinda realizmning nazariy tamoyillariga batafsil to‘xtalmaydi, lekin uning mohiyatini amaliy-estetik yo‘sinda ifodalaydi. Shunday qilib, istilohning nazariy asoslari chuqur ildizga ega bo‘lsa-da, milliy adabiy terminologiya tizimida A. Sa’diy taklif etgan “chinliq” atamasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv, bir tomondan, realizm tushunchasini xalqona va milliy tilda ifodalashga xizmat qilsa,

[29] Ulug‘bek Hamdamov, Abdug‘opir Qosimov “Jahon adaboyoti” o‘quv qo‘llanma. T.:-«Barkamol fayz media» 2017, 167b

[30] Литературная энциклопедия терминов и понятий / Под ред. А.Н.Николюкина. И нети Л 64 тут научн. информации по общественным наукам РАН. — М.: НПК «Интелвак», 2001. — 894 b

[31] scribd.com. Literary periods and movements 8b

ikkinchi tomondan, o‘zbek adabiyotining terminologik bazasini milliy asosda boyitish imkonini beradi.

Simvolizm atamasi A. Sa’diy va Fitrat asarlarida “ramzchilik” termini orqali ifoda etiladi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, har ikkala muallif ham chetdan kirib kelgan “simvolizm” so‘zini bevosita o‘zlashtirmasdan, unga milliy tildagi muqobil terminni topishga intilgan. A. Sa’diy “ramzchilik” so‘zini ramz, ya’ni “belgi, ishora, ichki ma’no tashuvchi shakl” ildizidan hosil qilib, atamaning semantik mazmunini to‘liq ifodalagan. Fitratda ham bu termin “tasavvufiy ramz” mazmuni bilan uyg‘unlashadi. Etimologik jihatdan “simvolizm” atamasi yunoncha symbolon (“belgi, ishora, tanish belgisi”) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, G‘arb tillarida symbolisme (fransuzcha), symbolism (inglizcha) shakllarida qo‘llanilgan. XIX asr oxirida bu atama san’atda ramziy ifoda va ma’no berish uslubini bildiruvchi badiiy oqim sifatida mustahkamlangan. A. Sa’diy ham simvolizm mohiyati asosini quyidagicha beradi: “Tabiatdagi bir hodisa, bir voqea, moddiy bir ko‘rinish tasvir etilar ekan, mundan asl maqsad shularning o‘zlarin tasvir bo‘lmaydir. Balki shul tasvir va shul shakl orqali ma’nolarg‘a, fikr, his va xayollarga ishora va imo qilish bo‘ladir” Simvolizmni nazariy jihatdan asoslab bergan shaxs — fransuz shoiri Jan Moreas bo‘lib, u 1886-yilda e’lon qilgan “Simvolizm manifesti”da bu yo‘nalishni mustaqil badiiy oqim sifatida ta’riflab beradi. Garchi simvolizmning ilmiy-nazariy asoslari XIX asrda G‘arbda shakllangan bo‘lsa-da, ramzning ildizlari Sharq adabiyotida ancha qadimdan tasavvufiy tafakkur va “vahdati vujud” falsafasiga borib taqaladi. Tasavvuf adabiyotida ramz ma’naviy haqiqatni bevosita emas, ishora orqali ifodalash vositasi sifatida shakllangan.

Naturalizm — adabiy va falsafiy oqim sifatida qaraladi. Fitrat ta’kidlaganidek, “...bu oqim yolg‘iz tabiatnigina, uning yaxshi o‘rmonlarini, yuksak tog‘larini, oqar suvlarinigina tasvir etishga beriladir”[32]. Naturalizm mohiyatida borliqni g‘oyaviy talqinsiz, hissiy bo‘yoqlarsiz aks ettirishga intilish mavjud. Ushbu

[32] Fitrat, Abdurauf. Tanlangan asarlar: darslik va o‘quv qo‘llanmlalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar /Abdurauf Fitrat; Mas’ul muharrir B.Qosimov; Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H.Boltaboyev. – T.: “Ma’naviyat”, 2009. – 87 b

oqimda voqealar tabiiy va aniq tasvir etiladi. Masalan, insonni biologik hamda ijtimoiy mavjudot sifatida tahlil qilishga urinish kuzatiladi. Terminologik jihatdan “naturalizm” atamasi lotincha naturalis va inglizcha natural so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “tabiiy” degan ma’noni anglatadi. Shuningdek, u nature (“tabiat”) so‘zi bilan etimologik jihatdan bog‘liq, chunki tabiat — naturalizmning asosiy mezoni. A. Sa’diyning “chinliq”, “umidsizlik”, “fikrchilik” kabi ot + -liq, sifat + -liq qoidasini hisobga olsak, “tabiiyliq” shaklidagi atama ham o‘zbek tilida munosib variant sifatida qabul qilinishi mumkin. Chunki Yevropa adabiyotida ham terminlar o‘z til qoidalariga asoslangan holda shakllangan, ba’zida to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilingan, ba’zida esa tayyor atama o‘zlashtirilgan. Shu bois, “tabiiyliq” atamasi biz uchun muqobil va tabiiy variant sifatida qabul qilinishi mumkin.

Modernizm Yevropa madaniy hayotidagi simvolizm, impressionalizm, kubizm, imajinizm, futurizm kabi yo‘nalishlarni mohiyatan birlashtiruvchi harakat sifatida namoyon bo‘ladi. Ba’zi nazariy manbalarda “Modernizm ma’nosida avangardizm atamasi ham qo‘llaniladi[33] kabi fikrlar berilgan. “Biroq 80-yillarda amalga oshirilgan ishlarda avangardizm slavyan xalqlari adabiyotiga xos xususiyat ekanligi ta’kidlanadi. Shu bois “avangardizm”ni modernizmning asr boshidagi bir ko‘rinishi ya’ni tub o‘zgarishlar, inqiloblarga da’vatkor, murosasiz bir qanoti deya baholashgan mutaxassislar fikri haqiqatga yaqin”[34]. XX asrning 1920-yillarida Fitrat va A. Sa’diy asarlarida “mo‘dernizm” shaklidagi atama uchrab, u fonetik va morfologik jihatdan o‘zbek tiliga moslashganini ko‘rsatadi. Fitrat modernizmga qisqa, lekin mazmunli ta’rif berib, uni “ijtimoiy harakatlarga, fanniy tushunishga qarshi bir oqim”[35] deb ataydi. A. Sa’diy esa modernistlarning yozish uslubiga to‘xtalib, “Bular voqeiy narsalarning o‘zlariga emas, kishida qoldirgan

[33] Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati/ D.Quronov, Z.Mamajonov , M.Sheraliyeva. – Toshkent: Akademnashr,2013. – 5b

[34] O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.1995-yil, 2-fevral, 5-son. ”Modernizm” A.Otaboy maqolasi – 3b

[35] Fitrat, Abdurauf. Tanlangan asarlar: darslik va o‘quv qo‘llanmlalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar /Abdurauf Fitrat; Mas’ul muharrir B.Qosimov; Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H.Boltaboyev. – T.: “Ma’naviyat”, 2009. – 87 b

tasavvurlariga katta qiymat beradilar... Mo‘dernistlar uydirmalar, vahm va xayollarni, go‘zal san’atni, she’rni juda yuqori ko‘taradilar”[36], — deya ta’riflaydi. Modernizmga bunday tanqidiy munosabatning shakllanishiga sabab mustaqillikdan avvalgi davrda ushbu oqimga mafkuraviy dushmanlik ruhida qaralganidadir. Natijada modernizm uzoq vaqtgacha “yot” hodisa sifatida talqin qilingan. Mustaqillikdan keyingi davrda esa bu oqimga yangicha, xolis ilmiy yondashuvlar paydo bo‘ldi.

Futurizm atamasi lotincha futurum — “kelajak” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, ilk bor 1909-yilda Filipp Marinetti tomonidan e’lon qilingan “Futurizm manifesti”da ishlatilgan. Ushbu termin zamonaviylik, texnologik taraqqiyot va estetik inqilob g‘oyalarini ifodalash uchun tanlangan bo‘lib, u san’atda kelajakni tasvirlashga qaratilgan yangi poetik va stilistik yondashuvni anglatadi. Futuristlar san’atda, ayniqsa poeziyada an’anaviy shakl va qoidalardan voz kechishni targ‘ib qilganlar. Ularning asosiy estetik tamoyillarida vaznda ozodlik, tinish belgi, ko‘makchilarni ishlatmaslik, raqamlardan foydalanish kabi qoidalar bor. Ushbu xususiyatlar futurizmni nafaqat adabiy oqim, balki lingvistik inqilob sifatida ham talqin qilish imkonini beradi.

A.Sa’diy asarida keltirilgan, ammo Fitrat sanab o‘tmagan oqimlar ijtimoiyat oqimi, unanizm va universalizm oqimlari mazmun mohiyatida o‘z davri mafkurasiga xizmat qilgan oqimlardan bo‘lgan. Oqimlar bir-biriga bog‘liq, ularda milliylikdan ko‘ra insoniyat birligini, shaxsdan ko‘ra jamiyat ustuvor deb qaraladi. Bu yondashuvlar negizida esa umumiylik tamoyili — kommunistik g‘oya mujassamdir. Ijtimoiyat oqimi bevosita sotsial harakatlarni, mehnatkash ommaning adabiyotdagi tutgan o‘rnini namoyon etuvchi ta’limotni o‘z ichiga oladi. Asosiy vazifasi esa o‘tgan zamon xotiralariga berilmasdan, balki hozirgi davrning ma’naviy hayotini ochiq ifoda etishdir. Unaninizm oqimi esa terminologik jihatdan fransuzcha “unanimisme” , ya’ni “unanime” “bir fikrda”, “bir ruhdagi”, “-isme” “ta’limot”

[36] Abdurahmon Sa’diy. Amaliy ham nazariy adabiyot darslari [Matn]: Darslik/ — Toshkent: Bookmany print,2025. — 112

ma’nolaridan hosil bo‘lgan, “jamoaviy ong” tushunchasini ifodalaydi. Bu oqim ta’limotiga ko‘ra insondagi shaxsiy ongidan ko‘ra jamoaning birgalikdagi ruhi va fikrlashi ustundir.

Universalizm, ya’ni o‘rtoqchilik oqimi bo‘lib, unga ko‘ra she’r baynalmilallik yo‘lidan borishi kerak va shunga majburdir. Ushbu termin ma’nosi ham butun mazmunini ochib beradi. Universalizm “universalis” so‘zidan olingan bo‘lib, bu “hamma narsaga tegishli”, “umumiy”, “butun olamga oid” degan ma’nolarni anglatadi. Bu oqim tarafdorlari san’atda ham birlashgan kishilik g‘oyalari tomon boradi va asosiy maqsadi ham adabiyot orqali insoniyatni birlashtirish bo‘lgan.

Xulosa qilganda Fitrat va A. Sa’diy kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan istilohlar o‘zbek adabiyotshunosligida terminologik tizimning shakllanishi uchun muhim bosqich bo‘lib xizmat qilgan. Ularning yondashuvlarida adabiy oqimlarga oid nazariyalar va atamalarga munosabat Sharq va G‘arb nazariy asoslarining sintezi orqali boyitilgan. Natijada adabiyotshunoslik terminlari, xususan, oqimlarga oid istilohlar ilmiy muomalaga kirib, ularning semantik doirasi milliy va umumiy asosda qayta talqin etilgan.

Adabiyotshunoslikda metod va yo‘nalishlarni tasniflash va ifodalashda keng qo‘llaniladigan morfemalardan biri -izm qo‘shimchasidir. Ushbu qo‘shimcha, aslida, yunoncha ildizga ega bo‘lib, yevropa adabiyotidan o‘zlashtirilgan. Tarixiy kontekstda -ism shaklida ma’lum bir amaliyot, tizim yoki falsafiy yo‘nalishni ifodalovchi morfema sifatida shakllangan; keyinchalik esa unga ijtimoiy harakat, san’at uslubi yoki adabiy oqimni belgilash funksiyasi ham qo‘shilgan va g‘arb adabiyotshunosligida har qanday oqimni ifodalovchi terminlar mazmuni ot so‘z turkumida ifodalanib, qo‘shimcha qo‘shish orqali esa yangi ma’noni beradi. Turkiy va o‘zbek adabiyotida -izm qo‘shimchasining tarixiy ildizi mavjud emasligi hisobga olinib, ma’lum atamalarni ifodalashda muqobil morfemalarni qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, Fitrat va A. Sa’diy ayrim oqim atamalarini to‘g‘ridan to‘g‘ri -izm orqali qabul qilmasdan, ularni -liq, -lik, -chilik qo‘shimchalari yordamida shakllantirishgan. Shu yondashuv orqali ushbu atamalar yuzaga kelgan:

chinliq, klassiklik, hissiylik, umidsizlik, ko‘makchilik va hokazo. Bu usul o‘zbek adabiyotida terminologiyasida aniq va semantik moslashuvni ta’minlaydi hamda tilimizning morfologik imkoniyatlaridan foydalanishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Abdurahmon Sa’diy.** *Amaliy ham nazariy adabiyot darslari : darslik.* – Toshkent : Bookmany Print, 2025. – 180 b.
2. **Fitrat A.** *Tanlangan asarlar: darslik va o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy maqolalar va tadqiqotlar* / mas’ul muharrir B. Qosimov ; nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H. Boltaboyev. – Toshkent : Ma’naviyat, 2009. – 336 b.
3. **Hotamov N., Sarimsoqov B.** *Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha–o‘zbekcha izohli lug‘ati.* – Toshkent : O‘qituvchi, 1979. – 364 b.
4. **Литературная энциклопедия терминов и понятий** / под ред. А. Н. Николюкина ; Институт научной информации по общественным наукам РАН. – Москва : НПК «Интелвак», 2001. – 894 с.
5. **Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M.** *Adabiyotshunoslik lug‘ati.* – Toshkent : Akademnashr, 2013. – 480 b.
6. **Hamdamov U., Qosimov A.** *Jahon adabiyoti : o‘quv qo‘llanma.* – Toshkent : Barkamol Fayz Media, 2017. – 352 b.
7. **O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.** – 1995 yil 2 fevral. – № 5.
8. **Rationalism in literature: Literary theory.** – Elektron manba. – Murojaat rejimi: https://english-studies.net/rationalism-in-literature-literary-theory/
9. **Literary periods and movements.** – Elektron manba. – Murojaat rejimi: https://www.scribd.com

MILLATLARARO MUNOSABATLAR SOHASIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR

Nafiddinova Xosiyat Ravshanovna

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi globallashuv jarayonida millatlararo munosabatlarning o`zaro uyg`unlikda yashashi muhimligi to`g`risida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, toleranlik, bag`rikenglik, millatlararo munonosabatlar, millatlararo bag`rikenglik kabi tushunchalarning mohiyati ochib berilgan.*

Kalit so`zlar: *tolerantlik, bag'rikenglik, munosabat, millatlararo munosabatlar, totuvlik, millatlararo totuvlik, millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosati.*

Аннотация: *В статье высказываются мысли о важности гармоничного сосуществования этнических отношений в современных условиях глобализации. Раскрывается сущность таких понятий, как толерантность, толерантность, межэтнические отношения и межэтническая толерантность.*

Ключевые слова: *толерантность, терпимость, отношение, межнациональные отношения, согласие, межнациональное согласие, государственная политика в сфере межнациональных отношений.*

Abstract: *This article expresses thoughts on the importance of harmonious coexistence of ethnic relations in today's globalization process. It also reveals the essence of concepts such as tolerance, tolerance, interethnic relations, and interethnic tolerance.*

Keywords: *tolerance, tolerance, attitude, interethnic relations, harmony, interethnic harmony, state policy in the field of interethnic relations.*

Kirish. Xalqimiz hayotida millatlararo bag‘rikenglik chuqur tarixiy ildizlarga ega. Milliy, madaniy xayrixohlik o‘zbek xalqining o‘ziga xos fazilatiga aylangan. Bugungi kunda ko‘pmillatli mamlakat hisoblangan O‘zbekistonimizda o‘zbeklar bilan birga 140 dan ziyod millat va elat vakillari ahil va inoq yashaydi va bu muborak zaminni o‘z Vatani deb biladi.

Buxoro vohasi qadimdan etnik va diniy bag‘rikenglikning o‘ziga xos hududi bo‘lgan. Hozirgi vaqtda vohada turli etnik guruhlar va diniy jamoalar tinch-totuvlikda yashab kelmoqdalar. Haqiqatan ham, turli etnoslar va dinlarga mansub odamlar o‘rtasidagi aloqa, munosabat, muloqot, bahs-munozara va muzokaralar muhim o‘rin tutishiga e’tibor qaratish zarur. Chunki millatlararo totuvlik va birdamlikka erishishning asosiy yo‘li milliy va umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatini rivojlantirish va mustahkamlashdir. Millatlararo munosabatlar va bag`rikenglik, tolerantlik, baynalminal markazlar faoliyati haqida fikr bildirishdan oldin avvalo ushbu tushunchalarning mohiyatiga biroz to`xtalib o`tsak.

Asosiy qism. Tolerantlik – o‘zbek tili atamasi bilan izohlasak millatimiz har bir insonga xos bag‘rikenglik odamlarga himmat va muruvvatli, mehr oqibatli, samimiy, g‘amxo‘r va e’tiborli, sabr-qanoatli, kechirimli bo‘lishini anglatadi[37]. Arab tilida (tasam’ul) “kechirish, muloyimlik, rahmdillik, sabr toqatlilik” deb ta’rif beriladi. Yuqoridagi ta’riflarni umumiy bir tizimga keltirsak, tolerantlik – lotincha “tolerantia” sabr – toqat, jamiyatdagi turfa madaniyatlilik, turli fikrlilikning mavjudligini tan olish, qabul qilish, to‘g‘ri tushunish va hurmat qilishga qaratilgan ijobiy munosabatdir. Tolerantlik qachon va qanday vaziyatlarda dunyo madaniyatiga kirib kelgan. Manbalarda ko‘rsatilishicha: Ispan tilida (Tolerancia) “fikr va g‘oyalardan eng yaxshisini tan olish” deb, tarjima qilinsa; Ingliz adabiyotlarida “toqatlilik, sabr va chidamlilik”; Xitoy (kaun rong) manbalarida “boshqalarga nisbatan bag‘rikeng munosabatda va kelishuvchan bo‘lish”[38] kabi ma’nolarda ishlatiladi.

“Tolerantlik” tushunchasining mohiyatini to‘laroq anglab yetish uchun uning aksi bo‘lgan “Notolerantlik” (murosasizlik) ma’nosini ko‘rib chiqamiz. Tolerantlikka berilgan ta’rifdan kelib chiqsak, notolerantlik u yoki bu ijtimoiy guruhning madaniy o‘ziga xosligiga, umuman boshqa ijtimoiy guruhlar yoki ularning alohida vakillariga nisbatan salbiy, dushmanlarcha munosabatni anglatadi.

[37] “Sotsiologik eksiklopedik lug‘at”, M., 1998, 370 b.
[38] Rashidov O.”O`zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag`rikenglik”.- Toshkent: Muharrir, 2022.- B. 6.

“Dushmanlilik uchligi”ga kiruvchi eng kam ijtimoiylashgan, hamda shuning uchun tarixan eng dastlabki his-tuyg‘ulardan biri bu jahldir. Unga yuqori darajadagi g‘ayri ixtiyoriylik va past darajadagi nazorat xos bo‘lgani uchun, u agressiyaning o‘zining o‘ta zo‘ravonligi bilan ajralib turuvchi shaklida namoyon bo‘lishi mumkin. Bu kabi holatlar esa nafaqat davlatlarning ijtimoiy ahvoliga, millatlararo munosabatlarning buzilishiga hatta katta jiddiy siyosiy iqtisodiy muammolarga ham sabab bo`lishi mumkin. Biz buning yorqin ifodasini jahon urushlari misolida ko`rib-kuzatishimiz mumkin.

XXI asr boshlariga kelib “bag'rikenglik” tushunchasi jamiyat hayotida noyob madaniy hodisa darajasiga ko'tarildi. Dastlabki vaqtlarda u murosai-madora ma’nosida e’tirof ciilgan bo lsa, bora-bora uning ma’no-mohiyati kengaya bordi. Hozirgi vaqtga kelib, ijtimoiy fanlarning sohalari — etika, tarix, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, falsafa va boshqalarda bag‘rikenglik tushunchasi bevosita foydalanilmoqda. Bag‘rikenglik shunchaki tushuncha emas, balki jamiyat ma’naviy hayotining tarkibiy qismi sifatida muayyan ijtimoiy-ma’naviy hodisa, xilma-xil tur, shakl va talqinlardagi noyob holat sifatida tushunilmoqda. Bag‘rikenglik tamoyilining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, hodisalarning tafovutlari, ziddiyatlari, farqlari haqida so‘z borganda unga ehtiyoj paydo bo‘ladi. Umuman olganda bag‘rikenglik sabrlilik yoki befarqlik deb emas, turli madaniyat, din, antropologik toifalarda namoyon bo‘ladigan xilma-xilliklarga hurmat va ehtirom bilan yondashish degan ma’noda talqin etiladigan bo‘lib qoldi. Bunda birdan-bir cheklash shundan iboratki, xilma-xillik umume’tirof etilgan insonparvarlik me’yorlaridan chetga chiqmasligi kerak. Hozirgi kunda ushbu muammo butun insoniyat uchun alohida ahamiyat kasb etmoqda. Butun dunyoda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish zarurati xalqaro miqyosda davlatlarning kuch-g'ayratini birlashtirishni talab qiladi. Shu yo‘l bilangina tinchlik va inoqlikda yashash, o‘zga madaniyat va diniy konfessiyaga, o‘zga irqqa murosa muhitini yaratish, turii xalq va millatlaming bahamjihatligiga erishish mumkiri. Globallashib borayotgan dunyoda bag‘rikenglik obyektiv voqelikka aylanib,

xalqaro ma’no kasb eta boshladi. Bag‘rikenglik fuqarolik jamiyatini barpo etishda tag-zaminli demokratik qadriyatga, zamonaviy tamaddunning yashab, rivojlanishining zarur shartiga aylana boshladi[39].

Tolerantlik atamasini nazariy va amaliy qo`llashda 1995-yilgi “Bag`rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”da berilgan ta’rifga tayanilmoqda. Mazkur hujjatda bunday deyilgan: Bag‘rikenglik — bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o‘zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabui qilish va to‘g 'n tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e’tiqod vujudga keltiradi. Bag‘rikenglik — turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma’naviy burchgina emas, balki, siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag'rikenglik — tinchlikka erishishni musharraf qiluvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir. Bag'rikenglik - yon berish, andisha yoki xushomad emas. Bag'rikenglik - eng avvalo, insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Har qanday vaziyatda ham bag‘rikenglik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo‘lib xizmat qilmaydi. Bag'rikenglikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim. Bag‘rikenglik - inson huquqlarini qaror toptirish, plyuralizm (shu jumladan, madaniy plyuralizm), demokratiya va huquqning tantanasi uchun ko‘maklashish majburiyatidir. Bag'rikenglik aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda o'rnatilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir. Bag‘rikenglikni namoyon qilish inson huquqlariga ehtirom bilan hamohang, u ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan sabr-toqatli munosabatda bo‘lishni, o‘z iymon-e’tiqodidan voz kechish yoxud boshqalarning e’tiqodiga yon berishni anglatmaydi. U shuni anglatadiki, har kim o'z e’tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olishi kerak. U yana shuni anglatadiki, odamlar o‘z tabiatiga ko‘ra

[39] Murtazayeva R. O`zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. - Toshkent: «Go To Print», 2020. – B. 4.

(tashqi ko‘rinishi, qiyofasi, o‘zini tutishi, nutqi, xulqi va qadriyatlari jihatidan farqlanishi e’tirofga loyiqligi barobarida. ular dunyoda yashashga va o'zlarining ana shu individualligini saqlab qolishga haqlidirlar. Undan tashqari, bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas. Fandagi tasniflashga binoan tolerantlikning 12 ta tipi: gender, yosh, ma’lumot, millatlararo, irqiy, diniy, geografik, sinflararo, fiziologik, siyosiy, seksual-yo`nalishli, marginal tiplari mavjud. Hozirgi globallashuv sharoitida bag‘rikenglikni madaniy taraqqiyotning zarur sharti deb bilmoq kerak. Insoniyat tarixida murosasizlik hamisha mavjud bo'lib, urushlarga sabab bo‘lgan. Diniy ta’qiblar va g‘oyaviy ziddiyatlar fanatizmga, haqoratlarga, hayot huquqlarini buzishga olib borgan. Ana shunday sharoitda xalqni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash doimo zarur bo‘lgan[40].

Millatlararo munosabatlar — mamlakat hududida istiqomat qiladigan millatlar va elatlar o‘rtasidagi, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan munosabatlardir[41]. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son Farmoniga xuddi shu tushuncha bilan bog`liq bir qator terminlarga huquqiy jihatdan ta’rif berilgan. Jumladan:

Millatlararo bag‘rikenglik — fuqarolik jamiyatining ijtimoiy normasi bo‘lib, boshqa millat va elatlar vakillarining umuminsoniy qadriyatlarga zid bo‘lmagan nuqtai nazarlariga, dinlari, urf-odatlari, an’analari va madaniyatiga nisbatan murosai madorada namoyon bo‘ladi;

Millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish — millatlar va elatlarning vakillari o‘rtasida konstruktiv va o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish;

Millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosati — jamiyatda millatlararo munosabatlarni takomillashtirish va tartibga solish sohasida davlatning tizimli faoliyatidan iborat bo‘lib, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va

[40] Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. 1995 yil 16 noyabr, Parij.

[41] https://lex.uz/docs/-4597662.

erkinliklarini, ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar qonun oldida tengligini ta'minlashga qaratilgan[42] siyosat hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa o`rnida aytish mumkinki, millatlararo munosabatlarda uyg`unlik, totuvlik, bag`rikenglik barcha zamonlarda muhim hisoblangan. Bugungi globallashuv jarayonlarida esa bu kabi jarayonlar har doimgidan ham katta ahamiyatga ega. Bu kabi munosabatlarni mustahkamlash uchun avvalo, shu sohaga oid bo`lgan asosiy tayanch tushunchalar mohiyatini bilishimiz va anglashimiz lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. **Социологик энциклопедик луғат.** – Москва, 1998. – 370 б.
2. **Rashidov O.** *O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik.* – Toshkent : Muharrir, 2022. – B. 6.
3. **Murtazayeva R.** *O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik.* – Toshkent : Go To Print, 2020. – B. 4.
4. **Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi.** – Parij, 1995 yil 16 noyabr.
5. **O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi.** – Elektron manba. – Murojaat rejimi: https://lex.uz/docs/-4597662
6. **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.** Millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni mustahkamlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida : PF-5876-son Farmon. – Toshkent, 2019 yil 15 noyabr. – Elektron manba. – Murojaat rejimi: https://lex.uz/docs/-4597662

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY MOSLASHUV JARAYONINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

[42] https://lex.uz/docs/-4597662. Toshkent sh., 2019-yil 15-noyabr, PF-5876-son.

Xurvalyeva.T.L
Chirchiq davlat pedagogika unversiteti
Ostanayeva.N.Z
Chirchiq davlat pedagogika unversiteti

Annotatsiya: *Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy moslashuv jarayonining pedagogik-psixologik asoslari tahlil qilinadi. Ijtimoiy moslashuv tushunchasi, bolalarning guruhdagi o‘zaro munosabatlari va jamiyat qoidalarini o‘zlashtirish jarayoni yoritilgan. Tarbiyachi va ota-onalarning roli, shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalarida ijtimoiy moslashuvni rivojlantirish metodlari ko‘rib chiqilgan. Maqola maktabgacha ta’lim tizimida ijtimoiy moslashuvni samarali tashkil etish, bolalarning hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.*

Аннотация: *В статье анализируются педагогико-психологические основы социального адаптирования детей дошкольного возраста. Рассматриваются понятие социальной адаптации, взаимоотношения детей в группе и процесс усвоения социальных норм. Особое внимание уделяется роли воспитателей и родителей, а также методам развития социальной адаптации в дошкольных образовательных учреждениях. Статья предоставляет научно-практические рекомендации по эффективной организации социальной адаптации детей и развитию их эмоциональных и социальных навыков.*

Abstract: *The article examines the pedagogical and psychological foundations of social adaptation in preschool children. It highlights the concept of social adaptation, children's interactions within groups, and the process of assimilating social norms. The roles of educators and parents, as well as methods to enhance social adaptation in preschool institutions, are analyzed. The article provides scientific and practical recommendations for effectively organizing social adaptation and fostering preschoolers’ emotional and social skills development.*

Kalit so‘zlar*: ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy muhit , maktabgacha ta’lim, bola, pedagogik yondashuv,ijtimoiy ko’nikma, psixologik rivojlanish, o‘yin faoliyati, ota-ona roli.*

Ключевые слова: *социальная адаптация, социальная среда, дошкольное образование, ребёнок, педагогический подход, социальные навыки, психологическое развитие, игровая деятельность, роль родителей.*

Keywords: *social adaptation, social environment, preschool education, child, pedagogical approach, social skills, psychological development, play activity, parental role.*

Kirish

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan davrda inson shaxsining jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy moslashuv jarayoni kelgusidagi shaxsiy, ijtimoiy va ta’limiy muvaffaqiyatlarning poydevorini tashkil etadi. Shu uchun , maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning ijtimoiy tajriba orttirishiga, muloqotga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirishga va jamiyat qoidalarini o‘zlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Maqolaning maqsadi — maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy moslashuv jarayonining pedagogik-psixologik asoslarini tahlil qilish va uni rivojlantirishning samarali yo‘llarini aniqlashdan iborat.

Asosiy qism

Ijtimoiy moslashuv tushunchasining nazariy asoslari

Ijtimoiy moslashuv — shaxsning atrof-muhit, ijtimoiy muhit talablariga mos ravishda xulq-atvor, munosabat va qadriyatlarni shakllantirish jarayonining biridir. Psixologik nuqtai nazardan moslashuv — bu bolaning ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishi, muloqotga kirishishi, hamkorlikda faoliyat ko‘rsata olishi hamda o‘z

his-tuyg‘ularini boshqarishni o‘rganishidir. Bu jarayon bolalik davrida, ayniqsa, maktabgacha yoshda faol kechadi.

Shuningdek, J. Piaget bola rivojlanishini bosqichma-bosqich tushuntirib, maktabgacha yoshda bolalar uyg‘unlashgan ijtimoiy o‘yinlar orqali muloqot va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. A.N. Leontyev esa faoliyat nazariyasi nuqtai nazaridan bolalar faoliyatining ijtimoiy kontekstda shakllanishini ta’kidlaydi.

Ijtimoiy moslashuv turlari:

Hissiy moslashuv – o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, stress va qo‘rquvni kamaytirish;

Ijtimoiy moslashuv – guruh qoidalariga rioya qilish, tengdoshlar bilan munosabat o‘rnatish;

Kognitiv (bilimiy) moslashuv – o‘yin va mashg‘ulotlarda qoidalarni o‘zlashtirish;

Axloqiy moslashuv – yaxshilik va yomonlikni farqlash, ijtimoiy qadriyatlarni o‘zlashtirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy moslashuv jarayonida o‘zining hissiy, ijtimoiy va kognitiv qobiliyatlarini shakllantiradi. Vygotskiy (1991) nazariyasiga ko‘ra, bolaning shaxsiy rivojlanishi uning ijtimoiy tajribasiga bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun, bolalar atrof-muhit bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, o‘z hissiyotlarini boshqarishni, boshqalarning hissiyotlarini tushunishni va jamiyat qoidalariga moslashishni o‘rganadilar.

Rolli o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishning samarali metodidir. Masalan, “do‘kon”, “shifoxona” yoki “oila” kabi o‘yinlar orqali bolalar jamiyatdagi turli ijtimoiy rollarni o‘rganadilar. Shu bilan birga, jamoaviy ijodiy mashg‘ulotlar – rasm chizish, musiqiy va dramatik o‘yinlar – bolalarning guruhda hamkorlik qilish va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishiga yordam beradi.

Olimlar L.S. Vygotskiy, J. Piaget, A.N. Leontyev, Sh. Amonashvili va boshqa pedagog-psixologlarning tadqiqotlarida ijtimoiy moslashuv shaxs taraqqiyotining muhim bosqichi sifatida ko‘riladi. Ularning fikricha, bola ijtimoiy muhit orqali o‘zini anglash, o‘z xulqini boshqarish va guruhdagi o‘rnini bilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Maktabgacha yosh — bolaning shaxsiyati shakllanadigan, ijtimoiy tajriba orttiradigan muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda bola o‘yin, muloqot va kuzatish orqali atrof muhitnini o’rganadi. Ijtimoiy moslashuv jarayoni esa bola uchun yangi muhitga (bolalar bog‘chasi, tengdoshlari , tarbiyachi) moslashishdan boshlanadi.

Bolalar ijtimoiy moslashuv davrida quyidagi muammolarga duch keladi: begonalarga ishonchsizlik, ajralish qo‘rquvi,moslasha olmaslik , muloqotdagi qiyinchiliklar, hissiy beqarorlik. Tarbiyachining vazifasi — bu jarayonda bolaga hissiy quvvat, ijobiy muloqot muhiti va do‘stona munosabatni tashkil qilish hisoblanadi. Shu bilan birga, pedagogik yondashuvda individual farqlarni hisobga olish juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi

Tarbiyachi bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda muhim shaxsdir. Sh. Amonashvili (1990) fikricha, pedagog:

- bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etadi;
- rag‘batlantirish va ijobiy muloqot orqali bolalarning o‘zini ifoda etishini qo‘llab-quvvatlaydi;
- ijtimoiy qoidalarni o‘rganishda bolalarga nazorat va yordam beradi.

Ota-onalar ham bolalarning ijtimoiy moslashuvida bevosita ishtirok etadi. Uyda tarbiyaviy o‘yinlar, hissiy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy qoidalarni tushuntirish orqali ota-onalar bolaning jamiyatga moslashishini mustahkamlaydi. Shu tarzda, ota-ona va tarbiyachi hamkorligi bolalarning ijtimoiy, hissiy va kognitiv rivojlanishini uyg‘unlashtiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ijtimoiy moslashuvning muvaffaqiyati tarbiyachi va ota-onalar hamkorligiga bevosita bog‘liq jarayondir. Tarbiyachi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashuvga yordam beruvchi pedagogik sharoit yaratishi zarur hisoblanadi. Ota-onalar esa tarbiyachi bilan doimiy muloqotda bo‘lib, bola uchun muhitning barqarorligini ta’minlashi zarur.

Ota-onalar tomonidan bolaga mustaqillik, muloqot madaniyati, mehnatsevarlik va hurmat kabi ijtimoiy qadriyatlarni singdirish bola ijtimoiy moslashuvining poydevorini mustahkamlaydi. Shuningdek, oiladagi mehr-muhit, ijobiy emotsional qo‘llab-quvvatlash bolaning o‘ziga ishonchini mustahkamlashini ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida ijtimoiy moslashuvni rivojlantirish metodlari

Ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishda o‘yin faoliyati eng samarali metodlardan biri hisoblanadi. Rolli o‘yinlar, jamoaviy mashg‘ulotlar, ijodiy topshiriqlar bolalarni bir-biriga yaqinlashtiradi, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, psixologik treninglar, ertak terapiyasi, rasm chizish, musiqiy mashg‘ulotlar ham bolaning hissiy holatini muvozanatlashtirishga yordam beradi.

Tarbiyachilar bolalar o‘rtasida ijobiy ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish uchun rag‘batlantirish, muvaffaqiyatni baholash va ijobiy namunalarni ko‘rsatish metodlaridan foydalanishlari lozim. Bunda individual yondashuv, ijobiy kommunikatsiya va hissiy qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy moslashuv jarayoni shaxs rivojlanishining muhim bosqichidir. Bu jarayonni to‘g‘ri tashkil etish orqali bola kelgusida maktab ta’limiga, jamoa hayotiga va jamiyat talablari asosidagi faoliyatga tayyorlanadi. Shu bois, maktabgacha ta’lim tizimida pedagogik va psixologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish zarur. Tarbiyachi va ota-onalar

o‘rtasidagi hamkorlik, ijobiy muloqot muhiti, o‘yin va ijodiy faoliyatlar bolaning ijtimoiy moslashuvini muvaffaqiyatli kechishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida : PQ-4312-son qarori. – Toshkent, 2019.
2. **Vygotskiy L. S.** *Pedagogik psixologiya.* – Moskva : Pedagogika, 1991.
3. **Leontyev A. N.** *Faoliyat, ong va shaxs.* – Moskva : Smysl, 1977.
4. **Amonashvili Sh. A.** *Insonparvar pedagogika asoslari.* – Tbilisi, 1990.
5. **Karimova V. M., Mavlonova R. A.** *Bolalar psixologiyasi.* – Toshkent : Fan, 2008.
6. **Ochildiyeva D.** *Maktabgacha ta’lim pedagogikasi.* – Toshkent : NMIU, 2020.
7. **O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi.** Rasmiy veb-sayt. – Elektron manba. – Murojaat rejimi: https://www.edu.uz
8. **Bronson M.** *Self-regulation in early childhood: Implications for social competence.* – New York : Guilford Press, 2000.
9. **Berk L. E.** *Child development.* – 9th ed. – Boston : Pearson, 2013.
10. **Shonkoff J. P., Phillips D. A.** *From neurons to neighborhoods: The science of early childhood development.* – Washington, DC : National Academy Press, 2000.
11. **Copple C., Bredekamp S.** *Developmentally appropriate practice in early childhood programs.* – 3rd ed. – Washington, DC : NAEYC, 2009.
12. **Denham S. A., Burton R.** *Social and emotional prevention and intervention programming for preschoolers.* – New York : Springer, 2003.
13. **Ginsburg K. R.** The importance of play in promoting healthy child development and maintaining strong parent-child bonds // *Pediatrics*. – 2007. – Vol. 119, No. 1. – P. 182–191.

DUNYONING LISONIY MANZARASINI YARATISHDA O‘XSHATISHLARNING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI

Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna,

Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘xshatishlarning lingvokulturologik xususiyatlari, ularning milliy mentalitet va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek tillarida uchraydigan o‘xshatishlar qiyosiy o‘rganilib, ularning etalonlari, madaniy mazmuni hamda leksik-semantik farqlari ochib beriladi. Frazeologik birliklarda aks etgan hayvonot, o‘simliklar va rang tasvirlari orqali har ikki xalqning dunyoqarashi va milliy-madaniy tafakkuri yoritiladi. Tadqiqot lingvokulturologiya nazariy asoslari, jumladan Sapir–Uorf g‘oyalariga tayangan holda o‘xshatishlarning til va madaniyat kesishmasidagi o‘rnini ko‘rsatadi.*

Annotation: *This article examines the linguoculturological features of similes and their correlation with national mentality and cultural values. A comparative analysis of simile constructions in English and Uzbek is conducted to identify their cultural prototypes, semantic nuances, and lexical differences. Animal imagery, plant symbolism, and color expressions are explored as reflections of each nation’s worldview and cultural cognition. The study relies on key principles of linguoculturology, including the Sapir–Whorf linguistic relativity hypothesis, highlighting the role of similes at the intersection of language and culture.*

Аннотация: *В статье рассматриваются лингвокультурологические особенности сравнений и их связь с национальным менталитетом и культурными ценностями. На материале английского и узбекского языков проводится сопоставительный анализ сравнительных конструкций, выявляются их эталоны, культурные смыслы и лексико-семантические различия. Через образы животных, растений и цветовые характеристики*

раскрываются элементы национального мировидения и культурного мышления. Исследование опирается на теоретические положения лингвокультурологии, включая гипотезу лингвистической относительности Сепира–Уорфа.

Kalit so‘zlar : *lingvokulturologiya, o‘xshatish, milliy mentalitet, frazeologizm, madaniy semantika*

Key words: *linguoculturology, simile, national mentality, phraseological unit, cultural semantics*

Ключевые слова: *лингвокультурология, сравнение, национальный менталитет, фразеологизм, культурная семантика*

Lingvokulturologiya XX asrning oxirgi choragida vujudga keldi. Aslida unga XIX asrda V.fon Gumboldt asos solgan edi. Mazkur olim o‘zining “Inson tillarining qurilishidagi tafovutlar va uning odamzodning ma’naviy rivojlanishiga ta’siri to‘g‘risida” asarida til bilan xalq xarakterlarining o‘zaro aloqasi xaqidagi qoidani ifodalab bergan edi. Muallifning fikricha, “turli tillar o‘zining mohiyati bilish va hissiyotlarga ko‘rsatadigan ta’siri bo‘yicha aslida dunyoni turlicha ko‘rishlardan iborat. Tilning o‘ziga xosligi millat mohiyatiga ta’sir qiladi, shuning uchun tilning astoydil o‘rganilishi tarix va falsafa insonning ichki olami bilan bog‘lab turadigan hamma narsani o‘z ichiga olishi lozim”. Shunday qilib, olim turli shakllari deganda, fikrlash va voqelikni idrok etish usullaridagi tafovutlarni ko‘radi va madaniyatning o‘ziga xosligi tilda “mujassam bo‘lishi” haqidagi xulosani chiqaradi. Odamlar ayni bir tilni egallash bilan bir-birini har doim ham to‘gri tushunaverishmaydi va ko‘pincha aynan madaniyatlarning farqlanishi bunga sabab bo‘ladi.

Lingvokulturologiya asosiy nazariy qoidalaridan biri - Sepir-Uorfning - lingvistik nisbiylik farazi (gipotezasi)ga asoslanadi. Bu faraz XX asrning 30-yillarida L.Uorf tomonidan E.Sepir g‘oyalari negizida ilgari surilgan edi. Uning mohiyati shundan iboratki, turli tillarda so‘zlashuvchi va har xil madaniyatlarga mansub odamlar olamni turlicha idrok qilishadi. Odamlar nafaqat obyektiv narsalar olamida, balki ijtimoiy faoliyat olamida yashashadi, shu bilan birga ular ko‘p

jihatdan mazkur jamiyat uchun muomala vositasi bo‘lib hisoblanadigan aniq bir til ta’sirida bo‘lishadi. Real olam ko‘p jihatdan ushbu guruxning til me’yorlari negizida ongsiz ravishda ko‘rilgan bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda madaniyatning umumiy qabul qilingan to‘liq ta’rifi, uning maqomi, predmeti, uslublari yuzasidan yagona fikr mavjud emas. Faqat shuni ta’kidlash mumkinki, lingvokulturologik tadqiqot tilning madaniyat bilan chambarchas bog‘liqligida o‘rganilishini o‘z ichiga oladi. Lingvokulturologiya - bu lingvistika bilan madaniyat tutashgan joyda vujudga kelgan va tilni madaniyat timsoli sifatida ko‘rib chiqadigan nisbatan yosh filologiya fanidir.

V.V. Vorobyevning so‘zlariga qaraganda, lingvokulturologiya - bu madaniyat bilan tilning o‘zaro aloqasi va o‘zaro harakatini o‘rganadigan tildagi kompleks ilmiy fan bo‘lib, mazkur jarayonni bir tizimli uslublar yordamida hamda hozirgi ustuvorliklar va madaniy ko‘rsatmalarga (me’yorlar va umuminsoniy qadriyatlar tizimiga) qarab yo‘naltirilgan holida birliklarning yaxlit tuzilmasi sifatida va ularning tilga oid hamda tildan tashqari (madaniy) mazmuni birligida aks ettiradi. Lingvokulturologiyaning asosiy obyekti, muallifning fikricha, madaniyat bilan tilning faoliyat yuritish jarayonidagi o‘zaro aloqasi va o‘zaro harakati hamda ushbu o‘zaro harakatning yagona bir tizimli yaxlitlikda talqin etilishini o‘rganishdan iborat bo‘lib, “jamiyat, borliqning tillar kommunikatsiyasi tizimida yana takroran hosil qilinadigan va uning madaniy qadriyatlariga asoslanadigan milliy shakllari” – “olamning tildagi manzarasini” tashkil etadigan jamiki narsalar - ushbu fan predmeti bo‘lib hisoblanadi.

V.N.Teliyaning fikricha, lingvokulturologiya bu etnolingvistikaning tilning madaniyatlarga korrespondensiyasini o‘rganish va bayon qilishga bag‘ishlangan bir qismidir. Lingvokulturologiya obyekti, mullifning so‘zlariga qaraganda, ikkita fundamental fan: tilshunoslik va kulturologiya “kesishgan joyda” o‘rganiladi.

V.A.Maslova lingvokulturologiyani lingvistikaning lingvistika bilan kulturologiya tutashgan joyida vujudga kelgan tarmog‘i, “jonli milliy tilda mujassamlashgan va til jarayonlarida namoyon bo‘ladigan moddiy va ma’naviy

madaniyatni o‘rganadigan gumanitar fan” yoki kulturologiya va tilshunoslik, etnolingvistika va madaniy antropologiyadagi tadqiqotlar natijalarini o‘z ichiga qamrab oladigan integrativ bilimlar sohasi sifatida belgilaydi.

Yuqorida bayon qilingan barcha ta’riflar lingvokulturologiya predmeti til belgilarining ikkiga turlicha kodlar, ya’ni aynan til bilan madaniyatning o‘zaro harakatida shakllanadigan madaniy semantikasini o‘rganishdan iborat bo‘ladi, degan xulosa chiqarishga imkon beradi.

Til vositalari orqali dunyoni ko‘rishga bo‘lgan qiziqish V.Gumboldt ishlaridayoq o‘z ifodasini topgan. Olim shunday yozadi: “Turli tillar millatlar uchun original tafakkur va tasavvur a’zosi hisoblanadi”. XX asr oxirlariga kelib mazkur muammoga bag‘ishlangan ko‘plab ishlar yaratilgan (Brutyan G.A., Vasilyev S.A., Kolshanskiy G.V., Sukalenko N.I. va boshqalar).

Dunyoni ko‘rishni dunyo haqidagi bilimga ega bo‘lish deb ham atash mumkin. Uning asosida bilish jarayonida individuallik va ijtimoiylik yotadi. Til bilish jarayoni talablarini bajaradi. Dunyoning konseptual manzaralari turli odamlarda turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan: turli ijtimoiy guruhlar, turli yosh guruhlari, bilim sohalari va hokazo. Turli tillarda so‘zlashuvchi odamlar dunyoni ko‘rishning o‘zaro yaqin konseptiga ega bo‘lishi mumkin. Lekin bir tilda so‘zlashuvchi odamlar konsepti turli xil bo‘lishi mumkin. Xullas, dunyoni ko‘rishning konsepti umuminsoniy, milliy va individual xususiyatlarning aloqadorligida namoyon bo‘ladi.

Dunyoni til vositalarida ko‘rish inson ongida dunyoni mantiqiy aks ettirish bilan bog‘liq. Lekin, bu tasavvurlar tilda turli ifodalar vositasida beriladi. Masalan, ingliz tilidagi “when pigs fly” o‘zbek tilida ”tuyaning dumi yerga tekkanda” iborasiga mos keladi. Misollardan ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi mazmun turli xalqlar tasavvurida bir xil obrazli ifodalangan bo‘lsa-da, qiyoslash obyekti sifatida boshqa-boshqa zoonimlar tanlangan. Bunday tanlanishlar har bir xalqning turmush tarziga bog‘liq. Til vositalari orqali dunyoni ko‘rishda frazeologizmlar qiyoslashlar, metaforalar, ramzlar alohida o‘rin tutadi.

Til, ayni paytda, madaniy bilimlarni tizimlashtirish vositasi hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi mavjud o‘xshatishlarni qiyosiy tahlil qilganda, o‘xshatish etaloni sifatida ko‘pincha hayvon yoki jonivorlarlarni bildiruvchi so’zlardan foydalanilganligini ko’rish mumkin. Masalan, o‘zbek tilida “qo’yday yuvosh”, “musichaday beozor” o‘xshatish etalonlari mavjud bo‘lib, bu o‘xshatishlar orqali o‘zbek mentalitetiga xos jihat, ya’ni qadimdan qo‘yning yuvosh hayvon, musichaning beozor, zararsiz qush ekanligi ifodalanmoqda. Ingliz tilida esa beozorlik timsoli sifatida ko’pincha kabutar tasvirlanadi: “As harmless as a dove”. Ingliz va o’zbek tillarida sinonimlik xosil qiladigan quyidagi o‘xshatishlarni ham xuddi shunday qiyosiy tahlil qilish mumkin: “As hungry as a bear” iborasi o‘zbek tilidagi “bo‘riday och” o‘xshatish etaloniga teng keladi. “Och” sozining bo’ri bilan birga ishlatilishi o‘zbek lingvomadaniyatiga ham xos bo’lib, ozbek xalq ertaklaridagi och bo‘ri ko‘z oldimizga keladi.

Ingliz va o‘zbek tillarida uchraydigan o’xshatishlar orasida leksik komponent tuzilmasi jihatidan bir xil yoki turli xil bo’lgan turlarni uchratish mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “As red as a cherry” iborasida ishlatilayotgan cherry (gilos) so‘zi o‘zbek lingvokulturologiyasiga ham xos bo‘lib, qiz bolaning lablarini tasvirlashda foydalaniladi. Ingliz tilida uchraydigan “as clean as a (new) pin” iborasi o‘zbek tilida “chinniday toza” o‘xshatishiga teng keladi. Ingliz tilida tozalik belgisi sifatida yangi to’g’nag’ich madaniy vosita sifatida xizmat qilmoqda. O‘zbek tilida esa bu sifat chinni buyumga muqoyasa qilinmoqda. O‘zbek tilida “qo’yday yuvosh” o‘xshatish etaloniga ma’no jihatidan sinonim bo‘lgan ingliz tilidagi “as gentle as a lamb” o‘xshatishi leksik komponent tuzilmasiga ko‘ra farq qiladi. Ya’ni, o‘zbek xalq madaniyatida yuvoshlik “qo‘y”ga qiyoslansa, ingliz tilida bunday sifat “qo‘zichoq” bilan bog’liq tarzda qo’llaniladi. Masalan: *The girl is as gentle as a lamb when she is with her little sister.*

Bundan tashqari, o‘zbek tilida ijobiy ta’riflanayotgan oppoq tishlar “qor”ga emas, balki qimmatbaho “sadaf”ga qiyos etiladi. M., Yo‘q, Xor shaharga ketgan, - dedi yigit kulimsirab, sadafdek oppoq tishlarini ko’rsatib.O‘zbek

lingvomadaniyatida ayollarning yuzini oyga, olmaga, ba’zan kulchaga o’xshatishadi. Inglizlarda esa olchaga, atirgulga (as red as a cherry /rose/) qiyoslash me’yor hol hisoblanadi. Bundan tashqari, “cherry”, “rose” leksemalari narsa-buyumlarni ham qizilligini tasvirlashda ko’p qo’llaniladigan o‘xshatish etaloni hisoblanadi. Masalan: *The car was as red as a cherry after its new paint job. The morning sunrise was as red as a rose*. Shuningdek, baquvvat kishilarni o‘zbeklar filga, inglizlar otga va ho‘kizga muqoyasa qilishadi: filday baquvvat, as strong as a horse/an ox. Yoki, o‘zbeklar tinimsiz ishlaydigan, mehnat qiladigan kishilarni chumoliga (chumoliday), inglizlar esa ariga va itga o’xshatishadi (as busy as a bee, working like a dog). Masalan: The man was as strong as an ox and easily helped us to move the sofa. She always works like a dog.

Umuman, o‘xshatishlar har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo’lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi hodisalarni milliy tasavvurlarga ko’ra taqqoslash, qiyoslash natijasida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. **Маслова В. А.** Когнитивная лингвистика. – Минск : ТетраСистемс, 2004. – С. 25.
2. **Алефиренко Н. Ф.** Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. – Москва : Флинта, 2014.
3. **Маҳмудов Н.** Ўхшатишлар – образли миллий тафаккур маҳсули // Маҳмудов Н., Худойберганова Д. *Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати*. – Тошкент : Маънавият, 2013. – Б. 12.
4. **Худойберганова Д.** Лингвокультурологияда маданият кодлари тушунчаси ва талқини // *Ўзбек тили ва адабиёти*. – Тошкент, 2019. – № 3. – Б. 16.

WOMEN’S EDUCATION AND SOCIAL EQUALITY ISSUES: HISTORICAL AND MODERN PROSPECTS

Suyarova Zamira Sheraliyevna

Samarkand State Architectural and Construction University named after Mirzo Ulugbek

Annotation: *This study examines the development, challenges, and prospects of women's education and social equality, highlighting education's role in empowerment and socio-economic participation. Drawing on Human Capital Theory and gender development frameworks, it analyzes global and Uzbek experiences. Findings suggest strategies to enhance female education, reduce occupational segregation, and promote equitable access to resources.*

Keywords: *women's education, gender equality, social justice, empowerment, human capital, development*

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot ayollar ta'limi va ijtimoiy tenglikning rivojlanishi, muammolari va istiqbollarini o'rganib, ta'limning ayollarning vakolatlantirilishi va ijtimoiy-iqtisodiy ishtirokidagi rolini ta'kidlaydi. Inson kapitali nazariyasi va gender rivojlanish ramkalariga tayanib, global va O'zbekiston tajribasi tahlil qilinadi. Natijalar ayollarning ta'limdagi ishtirokini oshirish, kasbiy segmentatsiyani kamaytirish va resurslarga teng kirishni ta'minlash strategiyalarini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *ayollar ta'limi, gender tengligi, ijtimoiy adolat, vakolatlantirish, inson kapitali, rivojlanish*

Аннотация: *Данное исследование рассматривает развитие, проблемы и перспективы образования женщин и социальной справедливости, подчеркивая роль образования в расширении прав и социально-экономическом участии женщин. Опираясь на теорию человеческого капитала и гендерные рамки развития, анализируются глобальный и узбекский опыт. Результаты демонстрируют стратегии повышения участия женщин в образовании, снижения профессиональной сегрегации и обеспечения равного доступа к ресурсам.*

Ключевые слова: *образование женщин, гендерное равенство, социальная справедливость, расширение прав и возможностей, человеческий капитал, развитие*

Introduction

Education is a fundamental instrument for social development, economic growth, and political stability. Women's education is especially critical because it affects multiple aspects of society, including family health, civic participation, labor market outcomes, and intergenerational knowledge transfer (UNESCO, 2023; World Bank, 2024).

Globally, countries that invest in female education achieve higher economic growth, improved health outcomes, and increased participation in governance. According to the UNDP (2022), each additional year of female schooling increases national GDP by 0.3–0.5% in developing countries.

Government initiatives have significantly expanded women's access to education in our country. Programs include scholarships, targeted grants for STEM and vocational education, online learning platforms, and leadership development programs. However, despite these achievements, socio-cultural, economic, and regional challenges persist, limiting women's full participation in education and professional development.

Historical Overview of Women's Education

Global context

Historically, women's access to education was severely restricted across most regions of the world. During the 19th century, industrialization and social reform movements gradually increased female literacy, particularly in Western Europe and North America. By the mid-20th century, global conventions such as UNESCO's Universal Declaration of Human Rights (1948) emphasized equal access to education for both sexes, setting a foundation for modern educational reforms.

In Central Asia, women's education has been recognized as a crucial factor for national development. Leaders such as Mahmudhoja Behbudi and his contemporaries promoted literacy and pedagogical training among women, linking female education to social reforms and modernization. This created opportunities for women to enter professional fields, particularly teaching, healthcare, and administration. However, patriarchal social norms and occupational segregation often directed women toward lower-paid or traditional roles. In the post-independence period, Uzbekistan has maintained and expanded its focus on women's education, particularly increasing their participation in higher education, vocational training, and professional development programs.

Enrollment statistics

According to the State Statistics Committee of Uzbekistan (2024), female enrollment at different education levels shows encouraging trends:

- Primary and secondary education: near-universal gender parity (male 50.2%, female 49.8%).
- Higher education: female enrollment increased from 40% in 2017 to 52.4% in 2024.
- Vocational and technical education**:** female enrollment varies between 45–50%, with underrepresentation in technical and IT-related fields.

Despite this progress, disparities remain in higher education, particularly in STEM fields, and in access to professional development opportunities.

Challenges limiting access

- Economic constraints: families may prioritize male education due to limited resources.
- Cultural expectations: traditional gender roles restrict mobility and career ambitions.
- Regional disparities: rural areas face higher dropout rates and limited educational infrastructure.

- Early marriage: social pressures can truncate girls' educational trajectories.
- Labor market segregation: women are concentrated in pedagogy, healthcare, and service sectors.

Women in STEM and Leadership

Women remain underrepresented in science, technology, engineering, and mathematics (STEM) fields. In 2022, only 28% of STEM students in Uzbekistan were female (The Diplomat, 2022). Leadership positions in academia, politics, and business also show limited female representation, reflecting both vertical and horizontal occupational segregation.

Policy recommendations:

- Scholarships and mentorship programs for women in STEM.
- Networking and leadership training for female students and professionals.
- Promotion of flexible learning programs to accommodate family responsibilities.

Women's education and social equality

Education is a critical mechanism for promoting social equality (Schultz, 1961; Sen, 1999). Key benefits include:

1. Economic empowerment: increases female labor market participation and earnings.
2. Health improvements: educated women are more likely to make informed decisions about family planning, nutrition, and healthcare.
3. Civic participation: higher education levels correlate with increased political engagement and volunteerism.
4. Intergenerational benefits**:** educated mothers invest more in children's education, creating a positive cycle of human capital development.

Theoretical framework

- Human Capital Theory (Schultz, 1961): views education as an investment that enhances productivity and economic output.
- Capability Approach (Sen, 1999): emphasizes education as a means to expand freedoms, capabilities, and opportunities, allowing women to achieve valued outcomes.

Labor market challenges

Despite educational gains, women face several labor market barriers:

- Employment gap: female participation is 28 percentage points lower than male participation (World Bank, 2024).
- NEET rates: young women not engaged in education, employment, or training remain high, especially in rural areas.
- Gender pay gap: women earn on average 34% less than men (Spot.uz, 2024).
- Occupational segregation**:** women remain concentrated in teaching, healthcare, and services; men dominate STEM and technical professions.

Global best practices

Countries with successful gender equality policies often share common strategies:

1. Policy integration: mainstreaming gender in all educational policies.
2. STEM encouragement: scholarships, mentorship, and awareness campaigns.
3. Flexible learning programs: online courses and part-time education to accommodate caregivers.
4. Labor market incentives: employer-driven gender equality programs, parental leave policies, and pay transparency.

For instance, Finland, Sweden, and Canada have combined gender-sensitive curricula with labor market interventions, resulting in high female employment and reduced wage gaps.

1. Gender-sensitive curricula from primary to higher education to challenge stereotypes.
2. Targeted scholarships and mentorship for women in STEM and leadership roles.
3. Rural education support: infrastructure improvement, grants, and online access.
4. Flexible learning options including distance education and vocational training.
5. Leadership development programs to reduce vertical occupational segregation.
6. Monitoring systems to track enrollment, pay, and occupational data by gender.
7. Public awareness campaigns highlighting successful female role models and careers in non-traditional sectors.

Conclusion

Women's education is pivotal for achieving social equality, economic development, and sustainable growth. Uzbekistan has made notable progress in female enrollment and educational access. However, challenges such as occupational segregation, wage gaps, and regional disparities remain.

Comprehensive strategies—combining policy, education, labor market reforms, and social awareness—are necessary to fully realize women's potential. Investing in education, particularly in STEM and leadership, will empower women, strengthen human capital, and contribute to equitable development.

References

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари. – Тошкент, 2017–2024.
2. Аёллар ва қизлар қўмитаси фаолиятига оид меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар. – Тошкент: Адолат, 2023.

3. United Nations Development Programme (UNDP). Gender Equality Reports. – New York, 2022–2024.
4. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization (UNESCO). Education and Gender Equality Programmes. – Paris, 2021–2023.
5. World Bank. Women and Development Indicators. – Washington, 2020–2024.
6. Schultz T. W. Investment in Human Capital // The American Economic Review. – 1961. – Vol. 51, No. 1. – P. 1–17.
7. Sen A. Development as Freedom. – New York: Anchor Books, 1999.
8. Бекназаров Ш. Р. Аёлларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини оширишнинг назарий-методологик асослари. – Тошкент: Фан, 2021.
9. Ҳайдарова С. А. Ўзбекистонда гендер тенглик муаммолари: ижтимоий-фалсафий таҳлил // Ижтимоий фикр. – 2023. – № 4. – Б. 45–52.
10. The Diplomat. Closing the Gender Gap in Uzbekistan’s Universities. – 2022. – Электрон манба.
11. Spot.uz. Gender Equality and Pay Gap in Uzbekistan. – 2024. – Электрон манба.

НАУЧНАЯ СТАТЬЯ: ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ НАГРУЗКА ТЮРКИЗМОВ В РУССКОМ ЛИТЕРАТУРНОМ ЯЗЫКЕ (НА МАТЕРИАЛЕ СКАЗКИ М.Ю. ЛЕРМОНТОВА «АШИК-КЕРИБ»

Бобо-Хожаева Адолат Лутфилло кизи
ЧГПУ

Аннотация: *Данная статья посвящена анализу тюркизмов — лексических единиц, заимствованных из тюркских языков [Ожегов, Шведова: 374], — в сказке М.Ю. Лермонтова «Ашик-Кериб». Целью исследования является выявление их функциональной нагрузки и роли в формировании национально-языкового колорита [Баскаков, 1979]. Тюркизмы в тексте выполняют ключевые номинативную, стилистическую и культурологическую функции, отражая культурно-историческое взаимодействие народов [Бурибаева: 12].*

Ключевые слова*: Тюркизмы, заимствованная лексика, Ашик-Кериб, русский литературный язык, национальный колорит, экзотизмы, функции тюркизмов, стилистика, Кавказ.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola M.Yu. Lermontovning “Oshiq-Karib” ertagida turkiy tillardan o‘zlashgan leksik birliklar — turkizmlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan [Ojegov, Shvedova: 374]. Tadqiqotning asosiy maqsadi ularning funksional yuklamasi hamda milliy-lisoniy koloritni shakllantirishdagi rolini aniqlashdan iborat [Baskakov, 1979]. Matnda qo‘llangan turkizmlar muhim nominativ, stilistik va madaniyatshunoslik funksiyalarini bajarib, xalqlar o‘rtasidagi madaniy-tarixiy o‘zaro ta’sirni aks ettiradi [Buribayeva: 12].*

Kalit so‘zlar: *turkizmlar, o‘zlashma leksika, Oshiq-Karib, rus adabiy tili, milliy kolorit, ekzotizmlar, turkizmlarning funksiyalari, stilistika, Kavkaz*

Abstract: *This article is devoted to the analysis of Turkisms—lexical units borrowed from Turkic languages [Ozhegov, Shvedova: 374]—in M. Yu. Lermontov’s tale “Ashik-Kerib.” The aim of the study is to identify their functional load and their role in shaping the national-linguistic color [Baskakov, 1979]. In the text, Turkisms perform key nominative, stylistic, and cultural functions, reflecting the cultural-historical interaction of peoples [Buribayeva: 12].*

Keywords: *Turkisms, borrowed vocabulary, Ashik-Kerib, Russian literary language, national color, exotisms, functions of Turkisms, stylistics, the Caucasus.*

Введение:

Тюркизмы в Истории Русского ЯзыкаТюркские заимствования занимают значимое место в лексическом составе русского языка, являясь результатом многовековых исторических и культурных контактов [Хабургаев, 1980]. Тюркизмы проникали в русскую речь в несколько этапов: от древнетюркских (домонгольских) заимствований (например, богатырь, шатёр) до массированного притока лексики в эпоху Золотой Орды (XIII–XVI вв.), которая обогатила словарь в сферах экономики (деньги, казна), военного дела (сабля, атаман) и быта (сундук, арбуз) [Фасмер, Т. I: 504].

Сказка М.Ю. Лермонтова «Ашик-Кериб» (написана в 1837 году на Кавказе [Лермонтов, 1957]) представляет собой уникальный материал для изучения тюркизмов нового времени. Сюжет, заимствованный из восточного сказания, требовал адекватного лингвистического оформления.

Цель статьи: провести комплексный анализ тюркизмов, систематизировать их функции и проанализировать приёмы их ввода в художественный текст.

1. Функции Тюркизмов в Сказке «Ашик-Кериб»

В результате контекстуального и лексикографического анализа были выделены три основные функции тюркизмов [Мустакимова: 45]:

1.1. Номинативная (Реализующая) Функция

Тюркизмы используются для называния реалий, уникальных для тюркской (восточной) культуры, которым нет прямых эквивалентов в русском языке. Эти слова выступают как экзотизмы, обозначая социальные институты, религиозные обряды, бытовые предметы и титулы:

- *Намаз*: Мусульманская молитва, совершаемая пять раз в день. «Утренний намаз творил я в Арзиньянской долине...» [Лермонтов, 1957: 247].
- *Караван-сарай*: Постоялый двор, место стоянки для караванов. «Ашик - Кериб прибегает в караван-сарай...» [Лермонтов, 1957: 243].

➢ *Бек, Паша, Чауш*: Титулы и должности в восточной иерархии [Лермонтов, 1957: 245].

1.2. Функция Создания Национально-Языкового Колорита (Локализации)

Данная функция является основной для художественного текста: тюркизмы служат стилистическими маркерами, создающими аутентичную атмосферу Востока и «приближая» читателя к описываемой культурной среде [Бурибаева: 13].

❖ *Сааз*: Струнный щипковый инструмент (балалайка турец.) [Сааз]. «...играя на саазе...» [Лермонтов, 1957: 239].

❖ *Чапра*: Нарядное покрывало или занавес (от тюрк. капрак). «...сидя за богатою чапрой (занавес) с своими подругами...» [Лермонтов, 1957: 240].

❖ *Мисирское*: Относящийся к Египту (от тюрк. Мисыр) [Лермонтов, 1957: 247].

1.3. Стилистическая и Эмоционально-Оценочная Функция

Некоторые тюркизмы несут дополнительную эмоциональную или статусную нагрузку, способствуя характеристике персонажей:

✓ *Ага*: В турецком языке означает благородный, знатный; хозяин [Мустакимова: 45]. «Виноват, Ага, - сказал Ашик...» [Лермонтов, 1957: 248].

✓ *Ашик*: Влюбленный; балалаечник. Двойная семантика этого слова (влюбленный / певец) отражает романтическую и творческую сущность главного героя, которая является движущей силой сюжета [Лермонтов, 1957: 239].

2. Приемы Интеграции Тюркизмов в Текст

Прием Ввода	Характеристика	Примеры из Сказки
С пояснением	Введение экзотизма с прямым переводом или уточнением в скобках [Стилистический	Сааз (балалайка турец.), Чапра (занавес), Ашик (балалаечник), Ана (мать),

	прием].	Рашид (храбрый) [Лермонтов, 1957: 239-249].
Без пояснения	Использование слов, которые либо легко угадываются по контексту, либо уже были частично ассимилированы русским языком [Ассимиляция].	Ага, керван (обоз), деньги, товарищ, хозяин [Лермонтов, 1957].

Данные приемы позволяют Лермонтову одновременно сохранить этнографическую точность и обеспечить понятность повествования.

Заключение

Анализ сказки «Ашик-Кериб» подтверждает, что тюркизмы в художественном тексте выполняют сложный комплекс функций. Они являются не просто лексическим украшением, но и фундаментальным средством для:

1. Точного описания восточных реалий (номинативная функция).
2. Создания культурной аутентичности и колорита (стилистическая функция) [Бурибаева: 14].
3. Передачи эмоциональных и статусных характеристик персонажей (оценочная функция).

Творческое использование Лермонтовым тюркизмов демонстрирует, как заимствованная лексика обогащает русский литературный язык, отражая и закрепляя особенности культурно-исторического взаимодействия народов.

Список Литературы

1. **Баскаков Н. А.** Русские фамилии тюркского происхождения. – М.: Наука, 1979.

2. **Бурибаева М.** Тюркизмы в русском языке: от вариантов к норме. – Ашхабад, 2024. – Цит. по: Значимость тюркизмов в русском языке [Электронный ресурс]. – КиберЛенинка, 2024.
3. **Лермонтов М. Ю.** Полное собрание сочинений: в 4 т. – М.: АН СССР, 1957.
4. **Мустакимова Ф.** Функционирование тюркизмов в художественном тексте. – Костанай, 2024. – Цит. по: Функционирование тюркизмов в художественном тексте [Электронный ресурс]. – repo.kspi.kz, 2024.
5. **Ожегов С. И., Шведова Н. Ю.** Толковый словарь русского языка. – М.: Азъ, 1992.
6. **Фасмер М.** Этимологический словарь русского языка: в 4 т. – М.: Прогресс, 1986. – Т. 1, 4.
7. **Хабургаев Г. А.** Становление русского языка как государственного. – М.: Высшая школа, 1980.

THE ROLE OF MODERN APPROACHES IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATION SYSTEM

Khamidova Mutabarxon Abdumalik qizi

Karshi State University

***Abstract**: In recent years, the field of education has experienced significant transformations driven by advancements in technology, pedagogy, and an evolving understanding of how people learn. Modern approaches to education emphasize student-centered learning, the integration of technology, collaborative environments, and personalized learning experiences. This essay explores these contemporary strategies, highlighting their benefits and challenges.*

Key words:,*modern approaches, dual education, foreign experience, human resources management.*

Annotatsiya*: So'nggi yillarda ta'lim sohasida texnologiya, pedagogika va odamlarning qanday o'rganishi haqidagi tushunchaning rivojlanishi natijasida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Ta'limga zamonaviy yondashuvlar talabaga yo'naltirilgan o'qishga, texnologiyalarning integratsiyasiga, hamkorlik muhitiga va shaxsiylashtirilgan o'quv tajribalariga urg'u beradi. Ushbu insho ushbu zamonaviy strategiyalarni o'rganadi, ularning afzalliklari va qiyinchiliklarini ta'kidlaydi.*

***Kalit so`z:,*** *zamonaviy yondashuv, dual ta`lim shakli, xorij tajribasi, kadrlar boshqaruvi.*

Аннотация*: В последние годы сфера образования претерпела значительные изменения, обусловленные достижениями в области технологий, педагогики и развитием понимания того, как люди учатся. Современные подходы к образованию делают акцент на личностно-ориентированном обучении, интеграции технологий, совместной работе и персонализированном подходе к обучению. В данной статье рассматриваются эти современные стратегии, выделяются их преимущества и недостатки.*

Ключевые слова: *дуальное образование, зарубежный опыт, управление человеческими ресурсами.*

INTRODUCTION

In today’s digital age, innovation has become an integral part of every aspect of our lives, including education. With the rapid advancements in technology, students now have access to a wide range of tools that aid their learning journey. These tools have revolutionized the way education is imparted and have made learning more engaging, interactive, and effective. In the educational programs offered by higher education institutions engaged in training personnel , it is observed that the knowledge and skills provided to young students lag behind the requirements of the time, there is a shortage of qualified professors and teachers who are true

representatives of the industry, and there is a lack of modern equipment in universities. In addition, the lack of proper integration between educational programs and tourism enterprises is also causing a mismatch between the qualifications of these graduates and the job requirements in the tourism sector. In solving these problems, the main solution can be to introduce the effective experiences of foreign countries into the development of the sector.

MAIN BODY

In todays modern educational system, there are various methods for improving education. There are given some of them than are being effectively used in some countries.

- Student-Centered Learning. One of the most profound shifts in modern education is the move toward student-centered learning. This approach places the learner at the center of the educational process, emphasizing active participation, critical thinking, and problem-solving skills. According to the National Education Association (NEA), student-centered learning transforms the traditional teacher-led classroom into a dynamic environment where students take ownership of their learning (NEA, 2020).

For instance, project-based learning (PBL) encourages students to engage in real-world problems, fostering collaboration and creativity. Research by Thomas Markham suggests that PBL not only enhances student engagement but also improves retention of information and critical thinking skills (Markham, 2011). By facilitating a learning process that is relevant to students' interests and futures, educators can nurture a more engaged and motivated generation of learners.[43]

- Integration of Technology. The integration of technology into the classroom has revolutionized the educational landscape. Tools such as online

[43] Markham, T. (2011). *Project Based Learning: A Bridge to 21st Century Skills*. Retrieved from [Edutopia](https://www.edutopia.org)

learning platforms, educational apps, and virtual reality (VR) offer innovative ways to engage students. The COVID-19 pandemic accelerated this trend, pushing many educators to adopt online teaching methods swiftly.

According to a report by Educause, technology in education facilitates personalized learning, allowing educators to tailor content to meet diverse student needs (Educause, 2021). For example, adaptive learning technologies can assess a student's understanding in real-time and adjust the level of difficulty accordingly. This level of personalization ensures that students can learn at their own pace, thereby enhancing mastery of content.However, the reliance on technology also raises concerns regarding equity and access. Not all students have the same access to devices and reliable internet connections, which can widen the educational gap (Warschauer & Matuchniak, 2010). Educators and policymakers must work together to ensure equitable access to technology in education.[44]

- Collaborative Learning Environments. Modern educational approaches also emphasize the importance of collaboration among students. Collaborative learning fosters communication skills, teamwork, and social interaction, all of which are essential in today’s globalized world. Research indicates that working in groups can lead to deeper learning experiences, as students are encouraged to articulate their thoughts and consider diverse perspectives (Johnson & Johnson, 2014).

Classroom designs that promote collaboration, such as flexible seating arrangements and the use of technology for group work, create an environment conducive to shared learning experiences. Educators are increasingly using cooperative learning strategies where students can work together to solve problems and support each other's learning processes.

- Personalized Learning Experiences. Personalized learning is another modern approach that recognizes the uniqueness of each learner. By

[44] Warschauer, M., & Matuchniak, T. (2010). "New Technology and Digital Worlds: Analyzing Evidence of Equity in Access to Technology." *Review of Educational Research*. 80(4), 491-517.

understanding students' individual interests, strengths, and challenges, educators can create tailored learning experiences that cater to diverse needs. This approach often incorporates elements such as differentiated instruction, personalized learning plans, and competency-based education.

Research conducted by the Bill & Melinda Gates Foundation indicates that personalized learning positively impacts student outcomes, particularly for at-risk populations (Gates Foundation, 2013). However, implementing personalized approaches necessitates significant planning, resources, and training for educators to be effective.

For a foreign language learner, the development of pragmatic competence is essential to fully mastering the language and using it effectively. For example, it is not enough to use a word or phrase grammatically correctly; it is equally important to know its meaning in a given context, the appropriate intonation, and the level of politeness required when addressing different people.

Thus, the successful teaching and learning of a foreign language is directly linked to the formation of pragmatic competence. This competence enables learners not only to understand the language but also to engage in effective and culturally appropriate communication.

Today, vocational education is no longer limited to providing theoretical knowledge related to a profession. A modern specialist is also expected to be able to communicate in social contexts and use linguistic resources correctly in professional domains. For this reason, pragmatic competence is regarded as an integral part of professional training. For instance, a student in an automotive technical college should be able to explain service types to a client in English or fill out documentation in English. This requires not only vocabulary and grammar, but also understanding of meaning, communicative context, and the ability to choose appropriate language units. Therefore, foreign language teaching in vocational education must be specifically aimed at developing pragmatic competence.

A number of decrees adopted by the President of the Republic of Uzbekistan are directed at radically reforming the education system, in particular promoting the development of foreign languages, especially English. For example, Presidential Decree No. PQ-4635 of February 1, 2020, *"On measures to improve the quality of education in the Republic of Uzbekistan"*, explicitly stipulates the introduction of foreign languages, in particular English, as compulsory subjects in vocational education institutions [4]. This decree is aimed at training competitive personnel in the process of the country's global integration.

At the same time, analysis of the existing educational process shows that English language teaching in Uzbekistan often relies on traditional grammar-based approaches. This creates difficulties in the practical use of the language, especially in communication and professional contexts.

Surveys and studies conducted in the field of education show that although approximately 70% of students possess theoretical knowledge of language, they are

unable to communicate effectively in real professional and workplace situations [5]. This clearly indicates a lack of pragmatic competence.

Modern technologies, especially multimedia resources, create great opportunities for the development of pragmatic competence. Through video dialogues, mobile applications, online platforms, and AI-assisted individual lessons, learners can practice anywhere and acquire the ability to use the language in context. Teaching a foreign language with a focus on professional activity particularly on the basis of pragmatic competence plays an important role in preparing students for the modern labor market.

The functional significance of foreign language teaching in preparing students for professional activities is extremely high. Training competitive specialists for the global labor market is one of the priority directions of today's educational policy. In particular, teaching foreign languages, especially English within the framework of vocational education serves as an important tool in preparing students for international information flows, professional communication, and practice. Integrating language teaching with students' professional needs and establishing language-profession integration significantly increases the effectiveness of education.

References

1. **Council of Europe.** *European Language Portfolio (ELP).* – Strasbourg : Council of Europe Publishing, 2001. – Available at: https://rm.coe.int/16802fc1bf
2. **Council of Europe.** *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR).* – Strasbourg : Council of Europe Publishing, 2001. – Available at: https://rm.coe.int/1680459f97
3. **Yule G.** *The study of language.* – 3rd ed. – Cambridge : Cambridge University Press, 1996. – 333 p.

4. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.** O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida : PQ-4635-son qaror. – 2020-yil 1-fevral.
5. **O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi.** *Chet tilini o‘qitish samaradorligi bo‘yicha so‘rov natijalari.* – Toshkent, 2022.

INTEGRATION OF COMPETENCY-BASED INSTRUCTION WITH DIGITAL ASSESSMENT TOOLS IN FOREIGN LANGUAGE EDUCATION

Solixova Ra’no Qahramon qizi

Uzbek State World Languages of the University

Abstract: *The robust development of educational technologies has changed the area of foreign language education, calling for contemporary approaches which are associated with learning objectives and instructing practices, as well as assessment methods. Competency-based instruction (CBI) focuses on the advancement of learners' communicative, linguistic, and sociolinguistic competences, whereas digital assessment tools offer new chances for real-life , continuous and data-driven evaluation. This paper investigates the way the application of CBI together with digital assessment tools could improve foreign language learning results. It explores theoretical basics, analyzes modern practices, identifies difficulties encountered by mentors and learners , and proposes a comprehensive model for efficient integration. Outcomes underscore that digital assessment improves feedback quality and personalizes learning pathways, as well as more clearly evaluates actual competence rates, and*

policymakers to strengthen competency-based language teaching in the digital era.

Keywords: *Competence, Assessment, Digitalisation, Technology, Autonomy, Analytics, Feedback, Motivation, Adaptivity, Proficiency.*

Annotatsiya: *Ta'lim texnologiyalarining tez rivojlanishi chet tilini o‘rganishni tubdan o‘zgartirmoqda va o‘quv maqsadlari, o‘qitish usullari va baholash usullari bilan uyg‘unlashgan zamonaviy yondashuvlarni talab qilmoqda. Kompetensiyaga asoslangan ta’lim (KAT) o‘quvchilarning kommunikativ, lingvistik va sotsiolingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishga e’tibor qaratadi, raqamli baholash vositalari esa haqiqiy, uzluksiz va ma’lumotga asoslangan baholash imkonini beradi. Ushbu maqola KATni raqamli baholash vositalari bilan integratsiyalash orqali o‘quv natijalarini qanday yaxshilash mumkinligini o‘rganadi, nazariy asoslar, amaliy qo‘llanilishi, muammolar va tavsiyalarni muhokama qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, tezkor fikr-mulohaza beradi, o‘rganishni shaxsiylashtiradi va haqiqiy kompetensiyani aniqlik bilan o‘lchaydi, bu esa o‘qituvchilar, ta’lim muassasalari va siyosatchilar uchun foydali tavsiyalar beradi.*

Kalit so‘zlar: *Kompetensiya, Baholash, Raqamlashtirish, Texnologiya, Avtonomiya, Analitika, Fikr-mulohaza, Motivatsiya, Moslashuvchanlik, Malaka*

Аннотация: *Быстрое развитие образовательных технологий кардинально изменяет обучение иностранным языкам и требует современных подходов, согласующих учебные цели, методы преподавания и формы оценки. Компетентностное обучение (КО) направлено на развитие коммуникативной, лингвистической и социолингвистической компетенции учащихся, а цифровые средства оценки обеспечивают подлинную, непрерывную и основанную на данных оценку. В данной статье*

рассматривается, как интеграция КО с цифровыми инструментами оценки может улучшить результаты обучения, обсуждаются теоретические основы, практическое применение, проблемы и рекомендации. Результаты показывают, что цифровые инструменты повышают вовлечённость, обеспечивают быструю обратную связь, персонализируют обучение и более точно измеряют реальную компетенцию, что представляет ценность для преподавателей, образовательных учреждений и разработчиков политики.

Ключевые слова: *Компетенция, Оценка, Цифровизация, Технология, Автономия, Аналитика, Обратная связь, Мотивация, Адаптивность, Профессионализм*

Introduction

Contemporary foreign language (FL) education is facing important change because of technological innovation and modernizing pedagogical frameworks/ conventional teaching models based on content transmission as well as knowledge reproduction have evidenced inadequate for improving overall communicative competences required within a globalized world. Conventional approaches, that emphasize mainly grammar memorization and knowledge-oriented evaluation, frequently fail to establish learners' communicative competence as well as practical language skills (Brown, 2018). As a consequence, competence-based instruction (CBI) has become a critical element of contemporary educational changes, focusing measurable results, real-life tasks, as well as the learner's capability to implement knowledge within meaningful settings. CBI frameworks accurately define competencies, focus on task-based learning, as well as promote progressive measurement and feedback, associating with desired learning results (Richards, 2015). Similarly. Digital evaluation tools have rapidly expanded, proposing new modulus for assessment which go beyond paper-based testing.Digital tools in education - LMS platforms, mobile application, as well as AI-assisted tools - provide chances for real-life, continuous and adaptive evaluation.

Tools such as Google Classroom, Moodle, Quizlet, Duolingo Classroom. Testportal, Grammarly, and AI-supported speaking analyzers permit consistent monitoring of progress, formative assessment, individualized feedback, as well as real-life performance tasks. These tools connect naturally with CBI, which values continuous presentation of competence rather than conventional summative examinations(Chapelle, 2020; Zhao & Watterson, 2021). However, in spite of the possible advantages, many FL instructions find it challenging to combine digital tools into competence-based instruction. Some teachers rely on outdated assessment practices which fail to measure communicative performance. Others employ digital tools but without connection to learning outcomes, making the evaluation fragmented and inconsistent. This research investigates the way CBI principles can be efficiently integrated with digital evaluation tools to enhance foreign language instruction and learning. It argues that planned and systematic combinations can improve accuracy of assessment, learner inspiration, and overall communicative competence.

Main Part

Competency-orientated teaching focuses on what learners can do – their authentic communicative, pragmatic, sociolinguistic, and linguistic competences – rather than what they know in theory. This connects with modern educational paradigms, such as "21st-century skills' framework, which underscore critical thinking, communication, cooperation, and digital literacies. In the area of FL education, CBI encompasses defining more obvious learning outcomes (competences) and designing tasks which reflect real-life language usage (speaking, writing, interaction), as well as using evaluation methods which mirror competence rather than just knowledge recall. For example, task-orientated language instruction, performance-based assessment, and continuous measurement are often suggested. But – as research demonstrated – conventional summative tests frequently fail to

capture communicative performance, causing a misconnection between teaching goals and evaluation. As Emreview (2022) claims, CBI inspires students to involve themselves in authentic tasks, such as debates, writing, and interpreting cultural norms, with performance progressively evaluated against clearly portrayed competencies. Thus, performing CBI effectively requires rethinking evaluation practices – transforming from traditional tests toward more dynamic, performance-orientated, and progressive evaluation techniques that digital tools can uniquely support. Recent studies confirm that digital technologies significantly aid in foreign language learning. For example, a 2023 article highlights the role of digital didactics—such as interactive platforms, mobile apps, and multimedia content—in maintaining and improving a key aspect of FL education (Journals.rcsi.science, 2023). Empirical research demonstrates that digital tools support the development of lexical competence, writing, speaking skills, motivation, learner autonomy, and interactive participation. A study involving university students learning Chinese found that digital tools helped strengthen lexical competence and speaking/writing skills, while also boosting motivation and increasing learner activity and autonomy.

Another relevant piece of research indicates that digital educational sources, including those based on artificial language, significantly affect motivation as well as learning objectives within professionally centred FL courses, although difficulties such as digital inequality and inadequate teacher-student communication remain. Likewise, empirical studies in English and Japanese language courses showcase that gamified platforms, adaptive exercise, and even computerised writing feedback systems raise involvement, inspire repeated practice, and support personalised learning pathways (Mdpi.com, 2023).

Furthermore, digital assessment – entailing formative quizzes, adaptive tests, and artificial intelligence-based tools – allows for instant feedback, effective mistake correction, and personalised learning ways that are critical for competency development and progressive enhancement. According to Chapelle (2020), adaptive

and artificial intelligence-driven tools, such as Duolingo Classroom and Write & Improve, propose personalised task difficulty as well as detailed error investigation, giving students actionable feedback associated with particular competencies. Instructor perceptions highlight both benefits and drawbacks of implementing digital assessment. The majority of teachers report that digital tools facilitate more accurate measurement of communicative skills and decrease grading workload, as well as permit authentic monitoring of learners' progress (Lingvospekts, 2022). However, insufficient digital competence among instructors, limited training in structuring CBI-orientated digital tasks, and concerns about the reliability of automated scoring are significant obstacles. These findings are supported by student perspectives, which value instant feedback, communicative tasks, and adaptive learning as ways to improve motivation and involvement. But problems, such as lack of device accessibility, unstable internet connectivity, or unfamiliarity with some platforms, can reduce equity and effectiveness (Bulletin-pedagogical.ablaikhan.kz, 2021).

Applying digital assessment in CBI improves numerous aspects of FL teaching. Initially, it allows alignment between learning objectives and instructing activities, as well as evaluation approaches. Speaking tasks, for example, could be submitted through AI-assisted platforms and automatically analysed for pronunciation, fluency, and interactional competence, providing a more authentic evaluation of communicative ability than written tests alone (Zhao & Watterson, 2021). Second, digital assessment enhances learners' autonomy by enabling self-paced, repeated practice with progressive feedback. allowing learners to identify mistakes and track their effort. Third, institutional effectiveness is enhanced, as automated grading decreases instructor workload and generates analytical data for curriculum evolution. Finally, the study also underscores the need for instructor digital competence: teachers must be comfortable with digital platforms, comprehend the way to structure tasks and explain digital evaluation data, and be able to integrate technology pedagogically – otherwise, the possible advantages might not completely materialize.

Given the complexity of combining CBI in tandem with digital evaluation, this study follows a mixed-methods design integrating quantitative and qualitative approaches to gain both measurable results and participant opinions.

Although careful planning and balanced application are essential, over-reliance on automated tools may limit instructor-student interaction, reduce nuanced feedback, or fail to capture all competencies (Rulb.org, 2022). Additionally, equitable access to technology as well as sufficient professional development for instructors are critical to ensure efficient implementation (Balasagynbulletin.com, 2024). Successful integration is thereby based on connecting digital tools together with obviously portrayed competencies, proposing ongoing teacher training, as well as gathering automated evaluation with human oversight for assignments which demand subjective evaluation.

Implementing competency-based instruction with digital assessment tools represents a contemporary and effective approach to foreign language teaching. This application addresses the shortcomings of traditional education and evaluation, enhances learner involvement and independence, and promotes the accuracy of competence measurement by incorporating specific learning objectives, real-life task-based instruction, and authentic assessment. For teachers, efficient integration requires associating digital evaluation in conjunction with defined competencies, employing a combination of both formative and summative tools, and balancing automated feedback with individualized instructor input. Institutions ought to offer rapid technological infrastructure as well as professional development opportunities to support instructor proficiency. Policymakers could facilitate adjustment by making guidelines for digital competency-oriented evaluation transparent access to sources. When carefully integrated, the mixture of CBI and digital assessment has the potential to modernize foreign language teaching, preparing students for real-life interaction as well as improving results within increasingly digital global settings.

References

1. **Brown H. D.** *Principles of language learning and teaching.* – New York : Pearson, 2018. – 432 p.
2. **Chapelle C.** *Argument-based validation of automated scoring in language assessment.* – London : Routledge, 2020. – 258 p.
3. **Richards J. C.** *Approaches and methods in language teaching.* – Cambridge : Cambridge University Press, 2015. – 328 p.
4. **Zhao Y., Watterson M.** Digital tools in language assessment: A systematic review // *Language Learning & Technology*. – 2021. – Vol. 25, No. 2. – P. 1–22.
5. **Educational Management Review.** Task-based learning and competency-based instruction in FL education // *Educational Management Review*. – 2022. – No. 4. – P. 15–27. – Available at: https://emreview.ru
6. **Lingvospektr.uz.** Integration of digital assessment in foreign language classrooms // *Lingvospektr: Scientific Journal*. – 2022. – No. 3. – P. 40–52.
7. **Education Sciences.** Gamified digital tools in language learning: Impacts on motivation and performance // *Education Sciences*. – 2023. – Vol. 13. – P. 1–18. – Available at: https://www.mdpi.com
8. **RCSI Journal of Education Studies.** Digital tools and lexical competence development in foreign language learners // *RCSI Journal of Education Studies*. – 2023. – No. 2. – P. 55–67. – Available at: https://journals.rcsi.science
9. **Russian Journal of Language and Education.** Challenges of AI-based assessment in educational contexts // *Russian Journal of Language and Education*. – 2022. – No. 5. – P. 90–104. – Available at: https://rulb.org
10. **Pedagogical Bulletin of Ablai Khan University.** Effectiveness and challenges of digital assessment in foreign language teaching // *Pedagogical Bulletin of Ablai Khan University*. – 2021. – No. 1. – P. 22–34. – Available at: https://bulletin-pedagogical.ablaikhan.kz
11. **Balasagyn Pedagogical Bulletin.** Razrabotka shkaly tsifrovoy kompetentnosti dlya prepodavateley inostrannykh yazykov // *Balasagyn Pedagogical Bulletin*. – 2024. – No. 2. – P. 71–82. – Available at: https://balasagynbulletin.com

DASTURLASHNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Isroilov Nurshohruh Sunnat o‘g‘li
Navoiy davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dasturlash fanini o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning nazariy-metodik asoslari, ularning o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va algoritmik fikrlashni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Dars jarayoniga interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masalalar yechishning loyihaviy yondashuvi, gamifikatsiya, muammoli ta’lim, blended learning kabi innovatsion yondashuvlarni integratsiya qilishning samaradorlik omillari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Dasturlashni o‘qitish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim, interfaol metodlar, gamifikatsiya, loyihaviy ta’lim, muammoli ta’lim, blended learning, algoritmik fikrlash, kompetensiyaviy yondashuv, AKT, innovatsion metodlar.*

Аннотация: *В данной статье анализируются теоретико-методические основы применения современных педагогических технологий в процессе обучения программированию, их роль в активизации деятельности учащихся и формировании алгоритмического мышления. Освещены факторы эффективности интеграции в учебный процесс таких инновационных подходов, как интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии, проектный подход к решению задач, геймификация, проблемное обучение, blended learning.*

Ключевые слова: *Обучение программированию, современные педагогические технологии, цифровое образование, интерактивные методы, геймификация, проектное обучение, проблемное обучение, blended learning, алгоритмическое мышление, компетентностный подход, ИКТ, инновационные методы.*

Annotation: *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the application of modern pedagogical technologies in the process of teaching programming, their role in activating student activity and forming algorithmic thinking. Factors of effectiveness of integrating such innovative approaches as interactive methods, information and communication technologies, project approach to problem-solving, gamification, problem-based learning, blended learning into the lesson process are highlighted.*

Keywords: *Programming training, modern pedagogical technologies, digital education, interactive methods, gamification, project-based learning, problem-based learning, blended learning, algorithmic thinking, competency-based approach, ICT, innovative methods.*

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining barcha sohalarga chuqur kirib borishi natijasida dasturlash ko‘nikmalariga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortib bormoqda. Dasturlashda savodxonlik nafaqat IT-mutaxassislar, balki pedagoglar, iqtisodchilar, muhandislar, menejerlar va boshqa ko‘plab kasb egalari uchun ham zarur kompetensiya sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim va umumta’lim muassasalarida dasturlash fanini o‘qitish jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

An’anaviy o‘qitish usullari dasturlash kabi amaliy faoliyat va yuqori darajadagi mantiqiy fikrlashni talab etadigan sohada yetarli samarani bermasligi mumkin. Chunki dasturlash jarayonida talabaning nafaqat nazariy bilimni o‘zlashtirishi, balki

mustaqil fikrlashi, kod yozishi, algoritmlarni tahlil qilishi, muammoni modellashtirishi va yechimni optimallashtirishi talab etiladi. Mazkur jarayon esa faol ishtirokni, amaliy mashg‘ulotlarning ustunligini, talaba motivatsiyasini oshirishni taqozo etadi. Shu bois konstruktivizm, muammoli ta’lim, loyihaviy yondashuv, STEAM integratsiyasi, gamifikatsiya, robototexnika bilan bog‘langan o‘qitish, masofaviy ta’lim platformalaridan foydalanish kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar dasturlashni o‘qitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy o‘quv muhiti talabaga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillariga asoslangan bo‘lib, unda har bir talabaning individual tayyorgarlik darajasi, o‘quv sur’ati va qiziqishlari hisobga olinadi. Bunday yondashuv dasturlash fanida ayniqsa samarali, chunki talabalarning algoritmik tafakkuri, analitik fikrlash darajasi va texnik ko‘nikmalari o‘rtasida sezilarli farq bo‘ladi. Moslashtirilgan ta’lim, interaktiv platformalar (Code.org, Replit, Google Colab, Scratch, CodeHS, Udemy, Coursera kabi), avtomatlashtirilgan kod tekshirish tizimlari, virtual laboratoriyalarni qo‘llash o‘quv jarayonini individuallashtirish, real vaqt rejimida monitoring qilish va talabaning o‘sish dinamikasini nazorat qilish imkonini beradi. Shuningdek, dasturlashni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim sifatini oshirish, talabalarni dasturiy muammolarni ijodkorlik bilan hal etishga yo‘naltirish, ularning mantiqiy va kompyuter tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Jahon amaliyotida “computational thinking” — kompyuter tafakkuri dasturlashning negizi sifatida e’tirof etilib, unga bo‘lgan ehtiyojning ortishi ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etishni yanada muhimlashtirmoqda.

Dasturlashni o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning nazariy asoslari, didaktik imkoniyatlari va amaliy mexanizmlarini turlicha yo‘nalishlarda o‘rganganlar.

Avvalo, konstruktivistik ta’lim nazariyasi dasturlashni o‘qitishda faol bilim olish, mustaqil izlanish, o‘quvchining shaxsiy tajribasiga tayanish tamoyillarini asoslab beradi [1, 2, 3]. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasiga

ko‘ra, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi hamkorlik, yo‘naltirilgan ko‘mak dasturlashni o‘rganishda murakkab masalalarni bosqichma-bosqich egallashga yordam beradi. Brunerning spiral o‘quv modeli esa dasturlash bo‘yicha bilimlarni oddiydan murakkabga qarab rivojlantirishning nazariy asosini beradi [2].

Algoritmik fikrlash va kompyuter tafakkuri tushunchasi bo‘yicha J.Wing tomonidan taklif etilgan “computational thinking” modeli dasturlashni o‘qitishning metodik va psixologik asoslarini belgilab berdi. Wingning fikriga ko‘ra, talabalarda muammoni bosqichma-bosqich tahlil qilish, abstraksiyalash, algoritmlashtirish, avtomatlashtirish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish ta’lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biridir [4].

Loyihaviy yondashuvning dasturlash o‘qitishdagi samaradorligi Downey[12], Kilpatrick [7], singari pedagoglarning izlanishlarida asoslangan bo‘lib, hozirgi zamon ta’limida Project-Based Learning modeli sifatida keng qo‘llanilmoqda. Hozirgi talqinlarda PBL dasturlashda real IT-loyihalar, prototiplar yaratish, jamoaviy dasturlash va Agile metodologiyalari bilan uyg‘unlashtirilmoqda.

Mahalliy tadqiqotlar ichida Sh.Qodirov [10], N.Jo‘rayev [10], U.Begimqulov [10]larning axborot texnologiyalari va dasturlashni o‘qitish metodikasi bo‘yicha ishlari dolzarb ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida raqamli ta’lim muhiti, interfaol metodlar, elektron ta’lim resurslari, modul asosida o‘qitish, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Shuningdek, Scratch, Python, Java, C++ kabi dasturlash tillarini o‘qitishga bag‘ishlangan metodik qo‘llanmalar (Resnick, Downey, Horstmann, Lutz, Sedgewick) dastlabki o‘quv bosqichlaridan boshlab chuqurlashtirilgan kurslargacha bo‘lgan didaktik modellarning shakllanishiga ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Resnick tomonidan ishlab chiqilgan vizual dasturlash muhiti bo‘yicha tadqiqotlar programming literacy tushunchasini ommalashtirdi va boshlang‘ich ta’limdan boshlab algoritmik fikrlashni shakllantirishning samaradorligini isbotladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, dasturlashni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ko‘plab ilmiy natijalar mavjud bo‘lsa-da, ularning kompleks integratsiyasi,

mahalliy ta’lim tizimining xususiyatlariga moslashtirilgan didaktik model, yondashuvlar samaradorligini baholash va o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini oshirish masalalari hali ham yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot ushbu bo‘shliqlarni ilmiy asosda to‘ldirishga qaratilgan.

Dasturlashni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning algoritmik fikrlashini rivojlantirish, ularning mustaqil izlanishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ta’lim amaliyotida qo‘llanilayotgan konstruktivistik yondashuv, loyihaviy ta’lim, gamifikatsiya, masofaviy o‘qitish va raqamli rivojlangan o‘quv muhitlari dasturlash fanining o‘ziga xos murakkabliklariga mos, optimallashtirilgan o‘qitish tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyalarni dasturlashni o‘qitish jarayoniga qo‘llashning nazariy asoslari talaba faoliyatining markaziy rolini tasdiqlaydi. Konstruktivizmga ko‘ra, talaba bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni faoliyat jarayonida qayta quradi va amaliyot orqali mustahkamlaydi. Dasturlash jarayonida bunday yondashuv ayniqsa muhim bo‘lib, har bir talaba algoritm yaratish, uni testdan o‘tkazish, xatolarni aniqlash va tuzatish orqali o‘z bilimini chuqurlashtiradi. Shuningdek, interaktiv topshiriqlar, virtual laboratoriyalar va kodni avtomatik baholash tizimlaridan foydalanish konstruktivistik yondashuvning amaliy ifodasini ta’minlaydi.

Dasturlashni o‘qitishda loyihaviy yondashuvning qo‘llanilishi talabalarning real muammolarni yechish ko‘nikmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular o‘quv jarayonida amaliy IT-loyihalar, web-ilovalar, dasturiy mahsulotlar prototiplarini ishlab chiqish orqali kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlashadi. Loyihaviy yondashuvning afzalligi shundaki, u jamoaviy ish, rollarni taqsimlash, muammoni bosqichma-bosqich hal etish, tajribaviy o‘rganish kabi jarayonlarni uyg‘unlashtiradi. Hozirgi kunda dasturlashni o‘qitishda Agile, Scrum, Design Thinking kabi loyihaviy metodologiyalarning elementlari ham o‘quv jarayoniga faol

integratsiya qilinmoqda. Bu esa talabalarning nafaqat texnik ko‘nikmalarini, balki kommunikativ, ijodiy, tahliliy va tashkiliy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Gamifikatsiya texnologiyalari dasturlashni o‘qitishda motivatsiyani oshirishga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida e’tirof etiladi. Dasturlash jarayonining o‘ziga xos murakkabligi, xatolarni ko‘p uchratish ehtimoli va yechimni topish uchun ko‘p marotaba takrorlash zarurati o‘quvchi motivatsiyasini pasaytirishi mumkin. Gamifikatsiya vositalari — ball yig‘ish, darajalar, reytinglar, badge tizimi, qiyinchilik darajasini bosqichma-bosqich oshirish, o‘yin ssenariylariga asoslangan mashqlar — o‘quv jarayonini qiziqarli, faollashtiruvchi va raqobatga asoslangan muhitda tashkil etish imkonini beradi. Codecademy, Code.org, SoloLearn kabi xalqaro platformalar gamifikatsiya elementlaridan samarali foydalanadi, bu esa o‘quvchilarning o‘zlashtirish sur’atini oshiradi.

Masofaviy ta’lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi dasturlashni o‘qitishni yangi bosqichga olib chiqdi. Raqamli platformalar asosidagi ta’lim modeli talabalarga istalgan vaqt va istalgan joyda o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Replit, Jupyter Notebook, Google Colab, GitHub Classroom kabi vositalar orqali real vaqt rejimida kod yozish, ulashish, avtomatik baholash, xatolarni aniqlash va tuzatish imkoniyatlari mavjud. Bu o‘z navbatida o‘qituvchi-talaga o‘rtasidagi muloqotni interaktiv shaklga keltiradi va o‘quv jarayonini individuallashtirishga xizmat qiladi. Masofaviy ta’limning yana bir afzalligi — o‘quv jarayonini multimediaga asoslangan taqdimotlar, video darslar, simulyatsiyalar va virtual mashqlar orqali boyitish imkoniyatidir. Talaba har bir mavzuni o‘z sur’atida o‘rganishi, takrorlashi, mustaqil mashqlarni bajarishi va o‘ziga qulay bo‘lgan temrlarda algoritmlarni tahlil qilishi mumkin.

Dasturlashni o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning qo‘llanilishi ham dolzarb ahamiyatga ega. Talabalar dasturlashni o‘zlashtirishda turli kognitiv imkoniyatlarga ega bo‘lib, ularga moslashtirilgan o‘qitish muhim o‘rin tutadi. Individual o‘quv trayektoriyalarini yaratish, adaptiv testlar, differensial topshiriqlar, avtomatik baholash tizimlari har bir talabaning rivojlanish dinamikasini kuzatishga

va uning ehtiyojlariga mos ta’limni tashkil etishga imkon beradi. Raqamli o‘quv platformalaridan foydalanish o‘qituvchiga o‘zlashtirish darajasini real vaqt rejimida kuzatish, kamchiliklarni aniqlash va o‘z vaqtida pedagogik ko‘mak ko‘rsatish imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar qatorida sun’iy intellektga asoslangan ta’lim tizimlari ham dasturlashni o‘qitishda keng qo‘llanilmoqda. AI asosidagi platformalar talabaning xatolarini tahlil qiladi, individual darajada murakkablikni tanlaydi, differensial tavsiyalar beradi va kod yozishda real vaqtli yo‘riqnomalar taqdim etadi. Bu esa o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, ta’lim sifati monitoringi va talabaning individual o‘sish grafiklarini tuzishga imkon yaratadi.

Dasturlashni samarali o‘qitish jarayonida vizual dasturlash texnologiyalarining qo‘llanilishi ham muhim ahamiyatga ega. Scratch, Blockly, App Inventor kabi platformalar boshlang‘ich o‘quv bosqichida algoritmik tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu vositalar orqali talabalar dasturlashning mantiqiy asoslarini murakkab sintaksissiz, bloklar yordamida o‘rganadilar. Keyingi bosqichlarda Python, Java, C++, JavaScript kabi matnli dasturlash tillarini o‘qitish bilan uzviy bog‘lanish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu jarayon o‘quvchida bosqichma-bosqich murakkablashadigan bilimlar zanjirini yaratadi.

Yuqorida keltirilgan pedagogik texnologiyalar dasturlashni o‘qitishda nazariy va amaliy jihatdan katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq ularni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarning raqamli va pedagogik kompetentligini rivojlantirish, o‘quv dasturlarini yangilash, zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlash, o‘qitish jarayonini loyihalash va monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar integratsiyasining metodik asoslarini ishlab chiqish, ularning samaradorligini baholash va mahalliy ta’lim tizimiga mos didaktik modellarni yaratish dolzarb ilmiy muammolardan biridir.

Dasturlashni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Adabiyotlar tahlili va ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, konstruktivistik

yondashuv, loyihaviy ta’lim, gamifikatsiya, masofaviy o‘qitish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, sun’iy intellektga asoslangan ta’lim tizimlari va vizual dasturlash vositalari dasturlashni o‘zlashtirishda yuqori natijalar beruvchi innovatsion metodlar sirasiga kiradi. Ushbu texnologiyalar talabalarda algoritmik fikrlashni shakllantirish, mustaqil o‘rganish motivatsiyasini kuchaytirish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda o‘qitish jarayonini interaktiv va amaliyotga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etish imkonini beradi.

Zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti o‘zlashtirishni individuallashtirish, talabaning rivojlanish dinamikasini monitoring qilish, o‘qituvchining vaqt va resurslarini optimallashtirish, murakkab algoritmik masalalarni bosqichma-bosqich o‘rgatish kabi didaktik afzalliklarni yaratadi. Ayniqsa, loyihaviy ta’limning real IT-loyihalar bilan integratsiyasi, gamifikatsiya elementlari orqali motivatsiyani oshirish, kodni avtomatik tekshirish tizimlari va virtual laboratoriyalar talabalarning amaliy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish jarayoni ma’lum metodik va tashkiliy muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Ular qatida o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini oshirish zarurati, texnik bazaning to‘liq ta’minlanmaganligi, o‘quv dasturlarini yangilashga ehtiyoj, ta’lim jarayonini loyihalash bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar yetishmasligi kabilar mavjud. Shu sababli, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kompleks asosda tatbiq etish, ularning didaktik samaradorligini ilmiy jihatdan o‘rganish, mahalliy ta’lim tizimiga mos innovatsion o‘qitish modellarini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Umuman olganda, dasturlashni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish nafaqat o‘quv jarayonining sifatini oshiradi, balki raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi, malakali mutaxassislarni tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. Mazkur tadqiqot esa zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash jarayonining nazariy, metodik va amaliy jihatlarini chuqur yoritish hamda ushbu yo‘nalishda yangi ilmiy izlanishlar uchun asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Piaget J.** *The psychology of intelligence.* – New York, 2000.
2. **Vygotsky L. S.** *Mind in society.* – Cambridge, MA : Harvard University Press, 1978.
3. **Bruner J.** *The process of education.* – Cambridge, MA : Harvard University Press, 1960.
4. **Wing J.** Computational thinking // *Communications of the ACM*. – 2006.
5. **Grover S., Pea R.** Computational thinking in K–12 // *Educational Researcher*. – 2013.
6. **Resnick M.** *Lifelong kindergarten.* – Cambridge, MA : MIT Press, 2017.
7. **Kilpatrick W.** *Project method.* – 1929.
8. **Anderson T.** *The theory and practice of online learning.* – Athabasca : Athabasca University, 2008.
9. **Bates T.** *Teaching in a digital age.* – 2015.
10. **Qodirov Sh., Jo‘rayev N., Begimqulov U.** *AKT asosida ta’lim metodikasi.*
11. **Lutz M.** *Learning Python.* – Sebastopol, CA : O’Reilly, 2013.
12. **Downey A.** *Think Python.* – Sebastopol, CA : O’Reilly, 2015.
13. **Hamari J., et al.** Gamification effectiveness // *Internet Research*. – 2014.

HAYDOVCHI RUHIY SALOMATLIGI BO‘YICHA XITOY XALQ RESPUBLIKASIDA OLIB BORILGAN ILMIY TADQIQOT ISHLARI TAHLILI

Usmonov Rahim Raxmonovich

Farg’ona Davlat Universiteti

Annotatsiya: *Haydovchilarning ruhiy salomatligini tekshirishga doir eng ko‘p tur va shakllari uchraydigan davlat Xitoyda ayni sohaga oid tadqiqotlarning qiyosiy tipologik tahlili amalga oshirilgan.*

Abstract: *A comparative typological analysis of the field of driver appearance observation in China, the most diverse and emerging country, was conducted.*

Аннотация: *Проведен сравнительно-типологический анализ наблюдений за внешним видом водителей в Китае, самой многообразной и развивающейся стране.*

Kalit so‘zlar: *Sotsial-demografik xususiyatlar, shaxsiy-individual xususiyatlar, ruhiy salomatlik, haydovchi, gender xususiyatlar, ekstroversiya, nevrotizm, tashvish, ruhiy tushkunlik, uyqusizlik, yo‘l harakati qoidalari.*

Keywords: *Socio-demographic clothing, personal-individual production, mental health, driver, gender function, extroversion, neuroticism, anxiety, depression, insomnia, traffic rules*

Ключевые слова: *социально-демографическая одежда, индивидуальное производство, психическое здоровье, водитель, гендерная функция, экстраверсия, нейротизм, тревожность, депрессия, бессонница, правила дорожного движения.*

Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, har yili dunyoda yo‘llarda 1,2 million kishi halok bo‘ladi, 50 millionga yaqin kishi jarohatlanadi. 2004 yilda yo‘l-transport jarohatlari barcha o‘limlarning 2,1% ni tashkil etdi va bu butun dunyo bo‘ylab o‘lim sabablari orasida 11-o‘rinni egalladi. JSST hisobotida aytilishicha, “Yo‘l-transport jarohatlari jiddiy, ammo e’tibordan chetda qolgan sog’liqni saqlash muammosi bo‘lib, samarali va barqaror oldini olish uchun maqsadli harakatlarni talab qiladi”[45].

[45] Peden, Margie, Scurfiled, Richard, Sleet, David, Mohan, Dinesh, Hyder, Adnan A. et al. (2004). World report on road traffic injury prevention / edited by Margaret Peden ... [et al.]. World Health Organization. https://iris.who.int/handle/10665/42871

JSST hisobotida aytilishicha, “yo‘l-transport jarohatlari jiddiy, ammo e’tibordan chetda qolgan sog’liqni saqlash muammosi bo‘lib, samarali va barqaror oldini olish uchun jamlangan sa’y-harakatlarni talab qiladi”[46].

2024-yilda Xitoyning Suzhou shahridagi avtobus kompaniyasining 1295 nafar ishchilari o‘rtasida Yujun Jiao, Xuesong Wang, Xudong Zhao, David Hurwitzlar tomonidan tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqotda avtobus haydovchilaridagi tashvish, ruhiy tushkunlik va uyqusizlikning ularning ruhiy salomatliklariga ta’siri o‘rganildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, haydovchilik tajribasi 11 yildan yuqori bo‘lgan haydovchilar, Yoshi 31 yoshdan yuqori bo‘lgan haydovchilar va oxirgi 3 yilda yo‘l transport hodisasini sodir etgan haydovchilar uyqusizlikning yuqori darajada bo‘lishi, depressiya va xavfli haydashga moillik kuzatilgan. Tashvishning yuqori bo‘lishi uyqusizlikning yuqori bo‘lishi va xavfli haydashning yuqori bo‘lishiga olib kelgan. Depressiyaning yuqori bo‘lishi uyqusizlikning yuqori bo‘lishi va xavfli haydashning yuqori bo‘lishiga olib kelgan. Olib borilgan tadqiqot natijasi haydovchilarning uyqusizligini bartaraf etish orqali, ruhiy salomatligini doimiy yaxshilash orqali haydovchilardagi xavfli haydashni kamaytirishga, haydovda tavakkalchilikka yo‘l qo‘yishlarini oldini olishga erishish mumkinligini ko‘rsatadi.

2019-yilda Xiomin Vang, Kayon Huang, Li Yanglar tomonidan Xitoy davlatida Ijtimoiy-demografik, shaxsiy va ruhiy salomatlik omillarining Xiyotlik avtobus haydovchilarining yo‘l harakati qoidalarining buzlishiga ta’siri mavzusida tadqiqot o‘tkazildi. Ushbu tadqiqot avtobus haydovchilarining ijtimoiy-demografik xususiyatlari, shaxsiy xususiyatlari, ruhiy salomatligi va yo‘l harakati qoidalarining buzilishi o‘rtasidagi bog’liqlikni aniqlashga qaratilgan. Ushbu tadqiqotida 596 nafar avtobus haydovchilari, jumladan, 295 nafar yo‘l harakati qoidalarini buzgan haydovchilar va 301 nafar yo‘l harakati qoidalarini buzmagan haydovchilar ishtirok etdi. Avtobus haydovchilarining shaxsiy xususiyatlari va ruhiy salomatligi Eysenck

[46] Peden, Margie, Scurfiled, Richard, Sleet, David, Mohan, Dinesh, Hyder, Adnan A. et al. (2004). World report on road traffic injury prevention / edited by Margaret Peden ... [et al.]. World Health Organization. https://iris.who.int/handle/10665/42871

shaxsiyati so‘rovi (EPQ) va simptomlarni tekshirish ro‘yxati (SCL-90-R) yordamida o‘tkazildi. 26–35 yoshdagi haydovchila, yoshi 25 va undan kichik yoshdagi haydovchilarga nisbatan yo‘l harakati qoidalarini buzishda qatnashish ehtimoli 72% kamroq. Uzoq muddatli haydovchilik tajribasiga ega bo‘lgan haydovchilar bilan, haydovchilik tajribasi 2 yil yoki undan kam bo‘lgan haydovchilar bilan solishtirganda yo‘l harakati qoidalarini buzish xavfi deyarli uch baravar ko‘paygan. Yillik daromadning oshishi bilan qoidabuzarliklar qiymati pasaygani kuzatilgan. Shuningdek, vaqti-vaqti bilan spirtli ichimliklarni iste’mol qiladigan haydovchilar va muntazam ravishda spirtli ichimliklar iste’mol qiladigan haydovchilar, mast bo‘lmagan haydovchilarga qaraganda, yo‘l harakati qoidalarini buzish xavfi yuqori bo‘lgan. Ekstroversiya va nevrotizm yo‘l harakati qoidalarini buzish bilan bog’liq muhim omillar sifatida aniqlandi. Somatizatsiya avtobus haydovchilarining yo‘l harakati qoidalarini buzish xavfini 11 baravar oshirishi kuzatildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, avtobus haydovchilarining yo‘l harakati qoidalarini buzishiga asosan o‘ziga xos ijtimoiy-demografik xususiyatlar, shaxsiy xususiyatlar va ruhiy salomatlik ta’sir ko‘rsatadi, bu esa yo‘l harakati qoidalarini buzish xavfini oshiradi.

2019-yilda Xitoyda Xiaomin Wang, Kaiyong Huang va Li Yanglar tomonidan “Sotsial-demografik, shaxsiy-individual xususiyatlari va ruhiy salomatlik omillarining Xitoylik avtobus haydovchilari tomonidan yo‘l harakati qoidalarining buzilishiga ta’siri” o‘rganildi. Tadqiqotning maqsadi avtobus haydovchilarining ijtimoiy-demografik xususiyatlari, shaxsiy xususiyatlari, ruhiy salomatligi va yo‘l harakati qoidalarining buzilishi o‘rtasidagi bog’liqlikni aniqlashdir. Tekshiruvda 2014-yilning oktabr oyidan 2016-yilning mayiga qadar 596 nafar avtobus haydovchilari ko‘rikdan o‘tkazildi, jumladan, yo‘l harakati qoidalarini buzgan 295 nafar tadqiqot guruhi va qoida buzmagan 301 nafar haydovchilar nazorat guruhi. Avtobus haydovchilarining shaxsiy xususiyatlari va ruhiy salomatligi Ayzenk shaxsiyat so‘rovi (EPQ) va simptomlarni tekshirish ro‘yxati (SCL-90-R) yordamida baholandi. 26–35 yoshdagi haydovchilar Yoshi 25 va undan kichik yoshli haydovchilarga nisbatan yo‘l harakati qoidalarini buzish ehtimoli 72% kamroq.

Haydovchilik tajribasi 2 yil va undan kam bo‘lgan haydovchilar 21 va undan ortiq yillik haydash tajribasiga ega bo‘lganlar bilan solishtirganda yo‘l harakati qoidalarini buzish xavfining deyarli uch baravar oshishi kuzatilgan. Yillik daromad ortishi bilan yo‘l harakati qoidalari buzish soni ham kamaydi. Vaqti-vaqti bilan va muntazam ravishda spirtli ichimliklarni iste’mol qiladigan haydovchilar, mast bo‘lmagan haydovchilarga qaraganda, yo‘l harakati qoidalarini buzish xavfi yuqori ekanligini ko‘rsatdilar. Ekstraversiya va nevrotizm yo‘l harakati qoidalarini buzish bilan bog’liq muhim omillar sifatida aniqlandi. Somatizatsiya avtobus haydovchilari o‘rtasida yo‘l harakati qoidalarini buzish xavfini o‘n bir marta oshirdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, avtobus haydovchilari tomonidan yo‘l harakati qoidalarini buzishga asosan ma’lum ijtimoiy-demografik xususiyatlar, shaxsiy xususiyatlar va yo‘l harakati qoidalarini buzish xavfini oshiradigan ruhiy salomatlik ta’sir ko‘rsatadi[47]. Ushbu tadqiqot shuningdek, shaxsiy xususiyatlar avtobus harakati qoidalarini buzishga ta’sir qiluvchi inson omillarida muhim rol o‘ynashini aniqladi. Ekstraversiya va nevrotizm ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan avtobus haydovchilari yo‘l harakati qoidalarini buzish ehtimoli ko‘proq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Peden M., Scurfield R., Sleet D., Mohan D., Hyder A. A., et al.** *World report on road traffic injury prevention.* – Geneva : World Health Organization, 2004. – Available at: https://iris.who.int/handle/10665/42871
2. **Wang X., Huang K., Yang L.** Effects of socio-demographic, personality and mental health factors on traffic violations in Chinese bus drivers // *Psychology, Health & Medicine*. – 2019. – Vol. 24, No. 7. – P. 890–900. – DOI: 10.1080/13548506.2019.1567928.

[47] Wang X, Huang K, Yang L. Effects of socio-demographic, personality and mental health factors on traffic violations in Chinese bus drivers. Psychol Health Med. 2019 Aug;24(7):890-900. doi: 10.1080/13548506.2019.1567928. Epub 2019 Jan 24. PMID: 30676085.

3. **Астрейко Н. С.** Личностные факторы стиля вождения автомобиля // *Журнал Белорусского государственного университета. Философия. Психология*. – 2019. – № 1. – С. 117–124.
4. **Боровская И. В.** Социально-психологические факторы поведения водителей на дороге : магистерская диссертация. – Санкт-Петербург : СПбГУ, 2017.
5. **Baglioni C., et al.** Insomnia as a predictor of depression: A meta-analytic evaluation of longitudinal epidemiological studies.
6. **Costello B.** *Analysis of the truck driver shortage 2019.* – Washington, DC : American Trucking Associations, 2019. – Available at: https://www.trucking.com
7. **Лобанова Ю. И.** Вождение как деятельность, поведение и стилевая характеристика // *Вестник Ленинградского государственного университета им. А. С. Пушкина*. – 2014. – № 5 (4). – С. 97–107.
8. **Лукинич М. И., Матюшкова С. Д.** Агрессивное поведение участников дорожного движения – проблема современного города // *Повышение качества профессиональной подготовки специалистов социальной и образовательной сфер* : сб. науч. ст. – Витебск, 2018. – С. 160–162.
9. **Пермякова О. Г., Горчаков Ю. Н., Овсянникова В. В.** *Транспортная психология: практикум.* – Владивосток : Изд-во Дальневосточного федерального университета, 2021.
10. **International Transport Forum.** *ITF Transport Outlook 2019.* – Paris, 2019. – Available at: https://www.oecd-ilibrary.org/transport/itf-transport-outlook-2019
11. **Фурманов И. А., Астрейко Н. С.** Адаптация многофакторного опросника стиля вождения // *Философия и социальные науки*. – 2016. – № 2. – С. 88–93.
12. **Шпорт С. В., Васильченко А. С., Шалимов Д. Р.** Психологические маркеры опасного поведения на дорогах // *Психология. Историко-*

критические обзоры и современные исследования. – 2017. – № 6 (4A). – С. 118–133.

FIZIKA DARSLARIDA RAQAMLIK LABARATORIYA SIMLYATORLARIDAN FOYDALANISH

Qosimova Mubina

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada fizika ta'lim jarayonida raqamli laboratoriya simulyatorlaridan foydalanishning afzalliklari, o'qitish samaradorligiga ta'siri va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Raqamli simulyatorlar real tajribalarni virtual muhitda xavfsiz, tejamkor va tezkor tarzda bajarish imkonini berishi, o'quvchilarning tajriba orqali o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishi bilan ahamiyatlidir. Tadqiqotda simulyatorlardan foydalanish metodikasi, o'quv motivatsiyasiga ta'siri va an'anaviy laboratoriya ishlarini to'ldirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Natijalar raqamli laboratoriyalar fizika darslarining interaktivligini oshirish, murakkab tushunchalarni vizual tarzda tushuntirish hamda o'quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatini kuchaytirishda samarali vosita ekanini ko'rsatadi.*

Ushbu maqolaning maqsadi qadimgi Rim tibbiyoti va san’atining asosiy xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish, ularning tarixiy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Asosiy qism

1. Qadimgi Rim tibbiyotining manbalari va shakllanishi

Rim tibbiyoti dastlab xalq tabobati, diniy marosimlar va ruhoniylar faoliyatiga tayanardi. Miloddan avvalgi III–II asrlardan boshlab yunon shifokorlari Rimga taklif qilina boshladi. Aynan shu davr Rim tibbiyotining haqiqiy ilmiy bosqichi sifatida e’tirof etiladi.

Asosiy manbalar:

Yunon tibbiyoti, ayniqsa Gippokrat maktabi

Etrusklarning anatomiya va jarrohlik tajribalari

Rim harbiylari uchun tibbiy amaliyot

Jamoaviy sanitariya ehtiyojlari

2. Rim shifokorlarining jamiyatdagi o‘rni

Rimda shifokorlik dastlab quldan bo‘lgan kasb sanalsa-da, vaqt o‘tishi bilan shifokorlar hurmatga sazovor tabaqaga aylandi. Mashhur yunon shifokorlari, jumladan Asklepiad, Soranos, keyinchalik Galen Rimda katta obro‘ qozondi.

Shifokorlar quyidagilarga bo‘lingan:

medicus – umumiy amaliyot shifokori

chirurgus – jarroh

oculist – ko‘z shifokori

dentarius – tish shifokori

medicus militaris – harbiy shifokor

Bu tasnif Rimda tibbiyotning yuqori darajada ixtisoslashganligini ko‘rsatadi.

3. Rim armiyasida tibbiyot tizimi

Rim imperiyasining qudrati katta darajada uning harbiy tizimiga tayangan. Legionarlarning sog‘lig‘i va jangga tayyorgarligi uchun murakkab tibbiy infratuzilma yaratilgan.

Harbiy tibbiyotning asosiy xususiyatlari:

Maxsus valetudinarium (harbiy kasalxonalar) barpo etilgan

Jarrohlik ancha rivojlangan bo‘lib, asosan jang maydonidagi yaralarni davolashga yo‘naltirilgan

Askarlarning parhezi, jismoniy tayyorgarligi, gigiyenasi qat’iy nazorat qilingan

Dezinfeksiya, suv tizimi va sanitariya yuqori darajada bo‘lgan

Bu tizim keyinchalik Yevropa harbiy tibbiyotining asosiga aylandi.

4. Rimda sanitariya va jamoat salomatligi

Qadimgi Rim tibbiyotining eng yuksak yutuqlaridan biri bu gigiyena va sanitariya tizimi edi. Shaharlar quyidagi infratuzilmaga ega bo‘lgan:

Akveduklar – toza ichimlik suvi tizimi

Kloaka Maksima – dunyodagi birinchi kanalizatsiya tizimlaridan biri

Jamoat hammomlari (thermae) – gigiyena va dam olish markazlari

Karvon yo‘llari va suv inshootlari – umumiy salomatlikka xizmat qilgan

Rimliklar kasallikning oldini olishga alohida e’tibor qaratganligi juda muhim tarixiy holatdir.

5. Galen ilmiy merosi

Galen (129–216) Rim tibbiyotining eng buyuk namoyandasi bo‘lib, u anatomiya, fiziologiya, farmakologiya va jarrohlik sohalariga mislsiz hissa qo‘shgan.

Galenning ilmiy g‘oyalari:

Tana moddiy tarkibi to‘rt suyuqlik (xilt) nazariyasiga asoslanadi

Fiziologiya va patologiya o‘rtasidagi farqlarni izohlab bergan

Asab tizimi ustida murakkab tajribalar o‘tkazgan

Tibbiyot falsafasini shakllantirgan

Uning asarlari O‘rta asrlar davomida Yevropa va Sharq tibbiyotida asosiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan.

6. Qadimgi Rim san’ati va tibbiyot

Rim san’ati tibbiyot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Bu bog‘liqlik asosan quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

• Anatomik tasvirlar

Haykaltaroshlik va freskalarda inson tanasi anatomik jihatdan aniq tasvirlangan. Bu tibbiyotning rivojiga bevosita ta’sir qilgan.

• Tibbiy mavzudagi mozaikalar

Shifoxonalarda, villalarda va ibodatxonalarda shifokorlar, jarrohlik amaliyotlari, dori tayyorlash jarayonlarini aks ettiruvchi mozaikalar topilgan.

• Shifobaxsh xudolar obrazi

Asklepiy, Gigeniya, Panakeya kabi tibbiyot bilan bog‘liq xudolar haykallarda keng aks etgan.

• Dorixonalardagi san’at

Ba’zi arxeologik topilmalarda dorixona idishlari, o‘simlik choylari, dori saqlanadigan idishlarda badiiy naqshlar uchraydi.

Bular Rim madaniyatida tibbiyotning naqadar yuksak o‘rin egallaganidan dalolat beradi.

Xulosa

Qadimgi Rim tibbiyoti va san’ati insoniyat tarixida ilmiy-amaliy ahamiyati nihoyatda yuqori bo‘lgan madaniy merosdir. Yunon tibbiyoti bilan uyg‘unlashgan Rim tibbiyoti sanitariya, harbiy tibbiyot, anatomiya va jamoat salomatligi sohalarida ulkan yutuqlarga erishgan. Ayniqsa, Galen merosi ming yillar davomida tibbiyotning asosiy nazariy bazasi bo‘lib kelgan. Shu bilan birga, Rim san’ati tibbiyot tarixining estetik va madaniy jihatlariga yorqin dalil bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda ham Rim tibbiyotining sanitariya tizimi, infratuzilma tamoyillari, shifokorlik etikasi va san’at orqali bilimni targ‘ib qilish usullari zamonaviy tibbiy amaliyotda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Galen.** *O tibbiyot san’ati.* Qadimgi matnlar to‘plami. – Rim, 1892.
2. **Nutton V.** *Ancient medicine.* – London : Routledge, 2013.
3. **Porter R.** *The history of medicine.* – Cambridge, MA : Harvard University Press, 1997.
4. **Retief F., Cilliers L.** Medical practice in Ancient Rome // *Acta Theologica*. – 2005.
5. **Scarborough J.** *Roman medicine.* – Ithaca, NY : Cornell University Press, 1969.
6. **Temkin O.** *Galenism: Rise and decline of a medical philosophy.* – Ithaca, NY : Cornell University Press, 1973.
7. **Woolf G.** *Rome: An empire’s story.* – Oxford : Oxford University Press, 2012

SHIFOKOR–BEMOR MULOQOTI LINGVISTIKASI: TIBBIY KOMMUNIKATSIYANING ZAMONAVIY TAHLILI

Yangiboyeva Bushro Baxtiyor qizi
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti
Avezova Anajon Ko'paysin qizi
Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Annotatsiya.*Ushbu maqolada shifokor va bemor o'rtasidagi muloqotning lingvistik xususiyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tibbiy kommunikatsiyaning semantik aniqligi, pragmatik mosligi va empatik yondashuv orqali bemor ishonchini mustahkamlash, davolash samaradorligini oshirish jarayonlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, verbal va noverbal kommunikatsiya, sotsiolingvistik va madaniy omillar, shuningdek raqamli muloqotning zamonaviy tibbiyotdagi ahamiyati ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar*.shifokor–bemor muloqoti, tibbiy kommunikatsiya, lingvistika, pragmatika, empatiya, noverbal kommunikatsiya, sotsiolingvistik omillar, raqamli tibbiyot*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются лингвистические особенности взаимодействия врача и пациента. Анализируются процессы укрепления доверия пациента и повышения эффективности лечения через семантическую точность, прагматическую адекватность и эмпатический подход. Особое внимание уделено вербальной и невербальной коммуникации, социолингвистическим и культурным факторам, а также значению цифровой коммуникации в современной медицине.*

Ключевые слова: *взаимодействие врач–пациент, медицинская коммуникация, лингвистика, прагматика, эмпатия, невербальная коммуникация, социолингвистические факторы, цифровая медицина*

Anaotation. *This article examines the linguistic characteristics of doctor–patient interaction. It analyzes how semantic accuracy, pragmatic appropriateness, and empathetic approaches contribute to building patient trust and improving treatment outcomes. The study also emphasizes verbal and nonverbal*

communication, sociolinguistic and cultural factors, and the significance of digital communication in modern healthcare.

Keywords:*doctor–patient communication, medical communication, linguistics, pragmatics, empathy, nonverbal communication, sociolinguistic factors, digital healthcare*

Kirish. Shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqot zamonaviy tibbiyotning eng muhim tarkibiy unsurlaridan biri bo‘lib, u klinik jarayonning sifatini belgilovchi asosiy omil sifatida talqin qilinadi. Tibbiy amaliyotda farmakologik yoki instrumental davolash usullari qanchalik rivojlangan bo‘lmasin, muloqot sifati past bo‘lsa, diagnostika aniqligi, davolanish rejalariga rioya qilish darajasi va bemorning psixologik barqarorligi sezilarli darajada pasayadi. Shu sababli so‘nggi yillarda shifokor–bemor o‘zaro ta’sirining lingvistik xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish alohida dolzarb yo‘nalish sifatida shakllandi. Bu jarayonda til, nutq madaniyati, pragmatika va sotsiolingvistika kabi fanlar tibbiyot bilan bevosita tutashadi.Tibbiy kommunikatsiyaning lingvistik tuzilishi avvalo mazmunning aniqligi, tushunchalarning to‘g‘ri qo‘llanishi va axborotning bemor tomonidan qabul qilinish darajasi bilan belgilanadi. Shifokor nutqida qo‘llanadigan terminlar ilmiy aniqlikka ega bo‘lishi bilan birga bemor uchun tushunarli bo‘lishiga ham e’tibor qaratiladi. Chunki murakkab terminlarning ortiqcha ishlatilishi bemorda xavotirni kuchaytirishi yoki ma’lumotni noto‘g‘ri talqin qilishga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli zamonaviy tibbiy diskursda ilmiy mazmunni soddalashtirilgan, lekin aniqlikni yo‘qotmagan tarzda yetkazish lingvistik kompetensiyaning muhim ko‘rinishlaridan biri sanaladi.Shifokor nutqining pragmatik yo‘nalishi bemor bilan qanday aloqa o‘rnatilayotganiga bevosita ta’sir qiladi. Empatiyaga asoslangan yondashuvda shifokor bemorning ruhiy holatini, qo‘rquvini yoki tashvishini sezib, nutqini shu holatga mos ravishda yumshoq, ishonch beruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi tarzda tashkil etadi. Tibbiy muloqotning bu jihati bemorning sog‘liq haqidagi qaror qabul qilish jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi. Bemorning o‘z holatini bemalol, erkin tarzda bayon etishiga imkon yaratish, uni

tinglab, aytganlarini qayta umumlashtirib tasdiqlab borish shifokorning kommunikativ mahoratini ko‘rsatadi.Bemorning nutqiy xususiyatlari ham klinik muloqotning muhim qismidir. Bemor o‘zida kuzatilgan alomatlarni ko‘pincha subyektiv tasvirlar orqali ifodalaydi, bu tasvirlar esa lingvistik tahlilda alohida semantik qatlamni tashkil qiladi. Bemorning “qamalib qolayotgandek bo‘lyapti”, “ichimni tortib oldi”, “birdan yorilib ketadigandek og‘riydi” kabi metaforali tasvirlari aslida klinik jarayonning murakkablik darajasini anglashga yordam beradi. Shifokor bemorning semantik tasvirlarini ilmiy terminlarga tarjima qilishi, ya’ni o‘ziga xos diagnostik “kodlash” jarayonini amalga oshirishi talab etiladi. Bu jarayon muloqotning lingvokulturologik nuqtayi nazaridan ham muhim bo‘lib, har bir jamiyatning tibbiyot bilan bog‘liq tasavvurlari til orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.Shifokor–bemor muloqotidagi sotsiolingvistik omillar ayniqsa an’anaviy ijtimoiy munosabatlar kuchli bo‘lgan jamiyatlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Bemorning yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqei, shifokorga bo‘lgan hurmat darajasi, hatto hududiy dialekt farqlari ham lingvistik moslashuvni talab qiladi. Keksalar bilan muloqotda hurmat ifodalovchi nutq shakllari ustunlik qilsa, yosh bemorlar bilan ko‘proq tashkiliy, tezkor va pragmatik mazmundagi nutq shakli qo‘llanadi. Ayol bemorlar bilan suhbatda ehtiyotkorlik, qo‘llab-quvvatlovchi iboralar va xushmuomalalik alohida o‘rin tutadi. Shu bilan birga, shifokorning murakkab terminologiyani haddan ortiq ishlatishi bemorlar orasida o‘zini “kichik”, “bilimsiz” his qilish holatini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli tibbiy kommunikatsiyada tilning ijtimoiy maqomlarni belgilovchi kuchidan ehtiyotkorlik bilan foydalanish muhimdir.So‘nggi yillarda tibbiy axborotni yetkazish strategiyalarida kommunikativ psixologiya va klinik lingvistikaning integratsiyasi kuchaymoqda. Masalan, bemorga jarrohlik muolajasining mohiyatini tushuntirish jarayonida shifokor texnik ifodalarni qisqa, strukturalangan, vizual tasvirlar bilan boyitilgan tarzda yetkazishga intiladi. Bunday yondashuv bemorning o‘z sog‘lig‘iga mas’uliyatli munosabatini kuchaytiradi. Xorijiy tajribada SPIKES kabi muloqot protokollari shifokorlarning nutqiy xatti-harakatlarini standartlashtirishga xizmat

qilmoqda. Bu kabi protokollar shifokorga og‘ir tashxisni bildirayotganda qanday nutq strategiyasidan foydalanish, qanday iboralarni tanlash, qaysi bosqichda pauza qilish va bemorning emotsional reaktsiyasini boshqarish bo‘yicha aniq tavsiyalar beradi. Shifokor nutqining tizimli tashkil qilinishi bemor ishonchini mustahkamlaydi va tibbiy yordam sifatini oshiradi.

Shifokor–bemor muloqotining zamonaviy talqinida verbal vositalar bilan bir qatorda noverbal kommunikatsiyaning o‘rni ham tobora muhimlashib bormoqda. Tanadagi holat, ko‘z bilan aloqa, ovoz tembri, pauzalar va mimikalar mazmunning lingvistik talqiniga qo‘shimcha ma’no yuklaydi. Tibbiy amaliyotda shifokorning jiddiy, ammo xotirjam ohangda gapirishi bemorda xavotirning kamayishiga, ko‘z bilan aloqa esa ishonchning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Aksincha, shifokorning shoshqaloq yoki keskin ohangdagi nutqi bemorning emotsional holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois zamonaviy tibbiyot nazariyasida verbal lingvistika bilan bir qatorda noverbal kommunikatsiyaning ham ilmiy talqini alohida o‘rganilmoqda.Shifokor–bemor muloqotining ilmiy tahlilida psixolingvistika ham alohida o‘rin tutadi. Bemor kasallik haqida axborot olganida uni qay tarzda qabul qilishi, tushunishi va psixologik jihatdan o‘zlashtirishi ko‘plab omillarga bog‘liq. Axborotni haddan tashqari murakkab ko‘rinishda taqdim etish bemorning informatsion stressini oshiradi. Shu sababli murakkab terminlarni kontekstual izohlar bilan birga qo‘llash tavsiya etiladi. Masalan, kasallik nomini qisqa, aniq va tushunarli izoh bilan birga berish bemorning umumiy tushuncha darajasini oshiradi va psixologik barqarorlikni saqlashga yordam beradi.Kommunikatsiyaning lingvistik jihati sog‘liqni saqlash tizimining umumiy samaradorligiga ham ta’sir qiladi. Axborotning aniq yetkazilishi davolash jarayoniga rioya qilish darajasini oshiradi, sog‘lom turmush tarziga doir ko‘rsatmalarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Bemorning shifokorga bo‘lgan ishonchi mustahkam bo‘lsa, u davolash rejasi bo‘yicha mas’uliyatni oshiradi, bu esa tizimning iqtisodiy va klinik ko‘rsatkichlari yaxshilanishiga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan, tibbiy kommunikatsiyaning lingvistik saviyasi sog‘liqni saqlash siyosati

uchun ham strategik ahamiyatga ega bo‘lmoqda.Raqamli davrda shifokor–bemor muloqoti faqat og‘zaki emas, balki yozma shaklda ham kengaymoqda. Elektron tibbiy karta, onlayn konsultatsiyalar, mobil ilovalar orqali tavsiyalar yetkazilishi lingvistik standartlarning aniqligini yanada muhimlashtiradi. Yozma muloqotda qisqalik, aniqlik, terminlarning to‘g‘ri qo‘llanishi va ortiqcha emotsional yuklamaning bo‘lmasligi talab etiladi. Shifokor yozma nutqida noaniq iboralardan, kontekstsiz qisqartmalardan va semantik jihatdan ikki ma’noli so‘zlardan voz kechishi lozim.Shuningdek, kommunikativ moslashuvchanlik tibbiy etikaga ham bevosita bog‘liq. Bemorning yoshiga, psixologik holatiga, madaniy qarashlariga qarab lingvistik uslubni moslashtirish shifokorning etik majburiyatlaridan biridir. Bolalar bilan ishlashda soddalashtirilgan, obrazli va tashvishni kamaytiruvchi nutq qo‘llaniladi. Keksa bemorlarda esa eshitish yoki idrokdagi qiyinchiliklarni hisobga olgan holda nutqning sekin, aniq va izchil bo‘lishi tavsiya etiladi. Ruhiy kasalliklar bilan ishlaganda esa tashxis jarayonining o‘ziga xosliklari sababli lingvistik ehtiyotkorlik yuqori darajada bo‘lishi talab qilinadi.

Xulosa

Umuman olganda, shifokor–bemor muloqoti lingvistikasi tibbiyotning kommunikativ kompetensiyasini ilmiy asosda yorituvchi va klinik jarayonning samaradorligini belgilovchi muhim yo‘nalishdir. Muloqotning semantik aniqligi, pragmatik mosligi, madaniy kontekstga muvofiqligi va empatik yondashuv bilan boyitilishi diagnostika aniqligini oshiradi, bemor ishonchini kuchaytiradi va davolanish jarayonining barqarorligini ta’minlaydi. Shu sababli tibbiy ta’limda lingvistik kompetensiyalarni chuqur o‘qitish, bo‘lajak shifokorlarni kommunikativ yondashuvga tayyorlash va tibbiy nutq madaniyatini shakllantirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Silverman J., Kurtz S., Draper J.** *Skills for communicating with patients.* – 3rd ed. – Boca Raton : CRC Press, 2016.
2. **Roter D. L., Hall J. A.** *Doctors talking with patients / Patients talking with doctors: Improving communication in medical visits.* – Westport, CT : Praeger, 2006.
3. **Levinson W., Lesser C. S., Epstein R. M.** Developing physician communication skills for patient-centered care // *Health Affairs*. – 2010. – Vol. 29, No. 7. – P. 1310–1318.
4. **Makoul G.** Essential elements of communication in medical encounters: The Kalamazoo consensus statement // *Academic Medicine*. – 2001. – Vol. 76, No. 4. – P. 390–393.
5. **Heritage J., Maynard D. W.** *Communication in medical care: Interaction between primary care physicians and patients.* – Cambridge : Cambridge University Press, 2006.
6. **Kurtz S., Silverman J., Benson J.** Marrying content and process in clinical method teaching: Calgary–Cambridge guides // *Medical Education*. – 2003. – Vol. 37, No. 2. – P. 106–115.
7. **Levin P. F., Browning D. M.** *Nursing communication: Understanding the patient perspective.* – New York : Springer Publishing, 2017.
8. **Street R. L., Makoul G., Arora N. K., Epstein R. M.** How does communication heal? Pathways linking clinician–patient communication to health outcomes // *Patient Education and Counseling*. – 2009. – Vol. 74, No. 3. – P. 295–301.
9. **Rees C. E., Sheard C. E.** The importance of the hidden curriculum in the development of medical professionalism // *Medical Education*. – 2004. – Vol. 38, No. 2. – P. 93–100.
10. **Egbert N., Nanna K.** Using telemedicine to enhance doctor–patient communication: Challenges and strategies // *Telemedicine and e-Health*. – 2009. – Vol. 15, No. 7. – P. 668–674

MODERN APPROACHES TO TEACHING VOCABULARY IN THE DIGITAL AGE

Ilyasova Husnorabonu Jonibek qizi
Student of Chirchik State Pedagogical Univercity
Khamitov Eldorbek E.
Student of Chirchik State Pedagogical Univercity

***Annotation**: This article examines modern approaches to teaching vocabulary in the digital age, focusing on how technological tools, digital platforms, and cognitive theories reshape the language-learning process. As the world becomes increasingly interconnected, students face new demands for rapid lexical acquisition and long-term retention of vocabulary. This paper explores the evolution of vocabulary instruction from traditional rote memorization toward a dynamic, student-centered, and technology-enhanced model. It analyzes digital applications, AI-based tools, corpus linguistics, data-driven learning, and multimodal resources, showing how these innovations improve learner autonomy and engagement. The article also discusses methodological frameworks, including constructivist learning, communicative approaches, and blended learning environments, emphasizing their impact on vocabulary acquisition. Findings indicate that digital tools allow more personalized, adaptive, and effective vocabulary learning experiences, enabling educators to create deeper, more meaningful language instruction. Ultimately, this research highlights the necessity of aligning modern pedagogical strategies with technological advancements to prepare learners for global communication.*

***Аннотация:** В данной статье рассматриваются современные подходы к обучению словарному запасу в цифровую эпоху. Особое внимание уделяется тому, как технологические инструменты, цифровые платформы и когнитивные теории меняют процесс изучения языка. В условиях*

глобализации учащиеся сталкиваются с необходимостью быстрого усвоения лексики и её долговременного запоминания. В работе анализируется эволюция лексического обучения: от традиционного механического запоминания до динамичной, ориентированной на учащегося и дополненной технологиями модели. Обсуждаются цифровые приложения, инструменты на основе искусственного интеллекта, корпусная лингвистика, обучение на основе данных и мультимодальные ресурсы. Показано, что современные цифровые инновации способствуют повышению автономии и мотивации учащихся. Кроме того, рассматриваются методологические основы, включающие конструктивистский подход, коммуникативную методику и смешанное обучение. Результаты исследования демонстрируют, что технологии позволяют персонализировать и оптимизировать процесс овладения словарем, создавая более эффективную систему обучения в целом.

Annotatsiya: *Ushbu maqola raqamli davrda lug‘at o‘qitishning zamonaviy yondashuvlarini tahlil qiladi. Texnologik vositalar, raqamli platformalar va kognitiv nazariyalar til o‘rganish jarayonini qanday o‘zgartirayotganiga alohida e’tibor qaratiladi. Global integratsiya kuchaygani sari o‘quvchilar so‘z boyligini tez egallashga va uni uzoq muddat eslab qolishga ehtiyoj sezmoqda. Maqolada lug‘aviy ta’limning evolyutsiyasi — an’anaviy yodlashdan boshlab, talaba markazli, faol va texnologiyalar bilan boyitilgan modelgacha — keng ko‘lamda yoritiladi. Mobil ilovalar, sun’iy intellekt asosidagi vositalar, korpus lingvistikasi, ma’lumotlarga asoslangan o‘qitish va multimodal resurslar chuqur ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy raqamli vositalar o‘quvchilarning mustaqilligini, motivatsiyasini va qiziqishini kuchaytiradi. Shuningdek, konstruktivizm, kommunikativ metod va “blended learning” kabi metodologik yondashuvlarning leksik o‘zlashtirishga ta’siri tahlil qilinadi. Yakuniy xulosalar raqamli innovatsiyalar zamonaviy lug‘at o‘qitishni yanada samarali va moslashtirilgan qilishini ko‘rsatadi.*

Keywords: *Vocabulary teaching; digital learning; mobile-assisted language learning (MALL); AI-based tools; corpus linguistics; blended learning; learner autonomy; multimodal instruction; communicative approach; cognitive approach; vocabulary acquisition.*

Ключевые слова: *Обучение словарному запасу; цифровое обучение; обучение с использованием мобильных приложений; инструменты на основе искусственного интеллекта; корпусная лингвистика; смешанное обучение; автономия учащихся; мультимодальное обучение; коммуникативный подход; когнитивный подход; усвоение лексики.*

Kalit so'zlar: *Lug'at o'qitish; raqamli o'qitish; mobil ilovalar yordamida til o'rganish (MALL); sun'iy intellekt asosidagi vositalar; korpus lingvistikasi; aralash ta'lim; o'quvchi mustaqilligi; multimodal o'qitish; kommunikativ yondashuv; kognitiv yondashuv; lug'atni egallash.*

INTRODUCTION

Vocabulary has long been recognized as the fundamental building block of language proficiency, serving as the primary medium through which individuals express meaning, communicate ideas, and comprehend both spoken and written texts. In the past, vocabulary learning relied heavily on rote memorization, dictionary work, and teacher-led activities that prioritized accuracy over communicative use.

However, with the rapid advancement of digital technologies and the increasing integration of digital platforms into education, the nature of vocabulary instruction has transformed radically. The digital age encourages learners to interact with language in ways that are more contextual, multimodal, and autonomous, offering opportunities to expand vocabulary through exposure to real-life media, online interactions, and personalized learning environments. This shift requires educators to rethink traditional teaching practices and adopt innovative

methodologies that align with the evolving expectations of twenty-first-century learners.

The emergence of smartphones, mobile applications, artificial intelligence, and online learning platforms has created an unprecedented volume of resources that provide students with immediate access to authentic language input. These digital tools not only facilitate exposure to high-frequency vocabulary but also allow learners to practice retention, pronunciation, and contextual usage through engaging, interactive tasks. Furthermore, cognitive and constructivist theories emphasize the importance of meaning-making, learner autonomy, and personalization — principles that are deeply supported by digital technologies. Modern learners no longer rely solely on teachers for input; instead, they construct meaning through self-directed exploration of linguistic resources, reflecting a broader trend in education that promotes active rather than passive learning.

At the same time, the digital age introduces new challenges, such as information overload, reduced attention spans, and the difficulty of evaluating the reliability of online sources. Vocabulary teaching must therefore be grounded in pedagogically sound frameworks that guide learners toward meaningful acquisition, ensuring that vocabulary is not only learned but also retained and applied effectively. Given the global nature of English language communication, it is essential for educators to adopt approaches that prepare learners for real-world contexts, blending traditional pedagogical principles with modern technological tools.

This article aims to explore these modern approaches by analyzing digital resources, data-driven learning, AI-based platforms, multimodal instruction, and the growing significance of corpus linguistics in vocabulary teaching. It also examines how contemporary methodologies — including communicative, cognitive, and blended-learning approaches — work together to create a dynamic learning environment. Through an extensive review of the literature and a detailed discussion of practical strategies, this paper highlights the importance of integrating technology thoughtfully into vocabulary instruction to maximize learning outcomes.

LITERATURE REVIEW AND METHODOLOGY

The evolution of vocabulary teaching in the digital age has been extensively discussed in the literature, with researchers emphasizing the transformative impact of technology on language learning. Early vocabulary instruction was dominated by structuralist approaches that prioritized memorization, translation, and dictionary-based activities. However, scholars such as Nation (2001) and Schmitt (2010) shifted attention toward the importance of meaningful encounters with vocabulary, frequency-based instruction, and the need to teach vocabulary through rich contextual exposure. With the rise of the internet and digital learning tools, vocabulary instruction expanded beyond printed materials, offering more dynamic, interaction-driven methods.

Mobile-assisted language learning (MALL) has become a prominent theme in vocabulary research. Studies show that mobile applications such as Quizlet, Memrise, and Anki enhance spaced repetition, personalized learning, and immediate feedback, supporting long-term retention. These apps integrate principles from cognitive psychology, particularly spaced repetition and retrieval practice, allowing learners to reinforce vocabulary through timed exposure and constant review.

Scholars argue that these tools strengthen neural pathways associated with lexical recall, making vocabulary learning more efficient.

Corpus linguistics has also become an influential area in modern vocabulary teaching. Corpora allow learners to observe real language usage, understand collocations, and analyze high-frequency word combinations. According to Biber, Conrad, and Reppen (1998), corpus-based instruction helps learners develop “lexical intuition,” which is crucial for natural-sounding communication. Teachers increasingly incorporate corpus tools such as COCA, Sketch Engine, and the British National Corpus to teach vocabulary through authentic language patterns rather than artificial textbook sentences.

Artificial intelligence further expands possibilities for vocabulary acquisition. AI-powered platforms like ChatGPT, Grammarly, and Elsa Speak provide tailored

feedback, automated assessment, and context-based suggestions for vocabulary improvement. AI adapts to learners' individual needs, offering new words, synonyms, and usage contexts that align with their proficiency level. This level of personalization was previously impossible in traditional classroom settings.

The methodology used for this research relies on a qualitative literature review, examining academic articles, empirical studies, and theoretical frameworks published over the past two decades. This approach allows the study to identify trends, categorize teaching strategies, and synthesize insights from various sources. The review focuses on studies related to MALL, digital tools, corpus linguistics, AI-based learning, and cognitive approaches to vocabulary instruction. Through this review process, patterns of effectiveness emerge, demonstrating how digital-age innovations reshape vocabulary teaching for modern learners.

DISCUSSION

The integration of technology into vocabulary teaching has created learning environments that are more engaging, interactive, and personalized than those available through traditional instruction. Digital tools foster meaningful learning by providing multimodal input — combining text, audio, video, imagery, and interactive features that support different learning styles. For example, learners can encounter new words while watching online videos, reading digital articles, playing language-learning games, or interacting with AI chatbots, allowing them to encounter vocabulary in authentic contexts.

Mobile applications have proven especially effective for vocabulary development. Their portability and accessibility allow learners to study vocabulary anytime and anywhere, encouraging daily engagement and consistent exposure. Features such as gamification, leaderboards, badges, and progress tracking increase motivation and make learning enjoyable. Research indicates that students who use mobile applications engage in more frequent review sessions, resulting in stronger long-term retention.

AI-driven tools provide further advantages by offering personalized vocabulary recommendations based on learner performance. For instance, AI chatbots simulate real-life conversations, prompting learners to use vocabulary actively rather than merely memorize it. This active engagement reinforces deeper learning and enhances language fluency. AI feedback allows learners to identify mistakes, practice pronunciation, and explore alternative expressions, promoting vocabulary expansion and improved communicative competence.

Corpus-based instruction plays a significant role in helping learners understand how vocabulary works in authentic communication. By analyzing word frequencies, collocations, and phrase patterns, learners acquire vocabulary that is relevant, natural, and commonly used in real-world contexts. This stands in contrast to outdated textbooks that may include artificial or rarely used word combinations. As students explore corpus examples, they become more aware of lexical nuances, improving their reading and writing skills.

Blended learning — combining digital tools with traditional classroom instruction — is perhaps the most effective approach in the digital age. Teachers can introduce vocabulary through interactive tasks, multimedia presentations, and collaborative digital platforms while still providing guidance, feedback, and structured instruction in the classroom. This synergy ensures that technology enhances rather than replaces effective pedagogy.

CONCLUSION

The digital age has revolutionized vocabulary teaching, introducing a wide range of innovative tools and methodologies that empower learners to take an active role in their language development. Modern vocabulary instruction moves beyond rote memorization, embracing interactive, learner-centered approaches that incorporate mobile applications, AI tools, corpus linguistics, and multimodal experiences. These digital innovations make vocabulary acquisition more efficient, engaging, and personalized. At the same time, teachers must adopt pedagogically sound practices that guide students in using technology effectively. The integration

of traditional pedagogical principles with modern digital tools creates a balanced and effective approach to vocabulary teaching. By aligning instruction with contemporary technological advancements, educators can prepare students for real-world communication and ensure their success in both academic and professional contexts.

References

1. **Biber D., Conrad S., Reppen R.** *Corpus linguistics: Investigating language structure and use.* – Cambridge : Cambridge University Press, 1998.
2. **Nation I. S. P.** *Learning vocabulary in another language.* – Cambridge : Cambridge University Press, 2001.
3. **Schmitt N.** *Researching vocabulary: A vocabulary research manual.* – London : Palgrave Macmillan, 2010.
4. **Godwin-Jones R.** Mobile-assisted language learning // *Language Learning & Technology*. – 2018. – Vol. 22, No. 1. – P. 2–11.
5. **Stockwell G.** Using mobile phones for vocabulary activities: Examining the effect of the platform // *Language Learning & Technology*. – 2016. – Vol. 20, No. 3. – P. 10–17.
6. **Webb S., Nation P.** *How vocabulary is learned.* – Oxford : Oxford University Press, 2017.
7. **Cobb T.** Web-based concordancing: Past, present, and future // *Computer Assisted Language Learning*. – 2019. – Vol. 32, No. 8. – P. 1–22.
8. **Li J., Hafner C.** Exploring AI-driven tools in EFL vocabulary learning // *Journal of Educational Technology & Society*. – 2021. – Vol. 24, No. 4. – P. 45–60.
9. **Boers F., Lindstromberg S.** Cognitive linguistic approaches to teaching vocabulary // *ELT Journal*. – 2012. – Vol. 66, No. 3. – P. 234–244.
10. **Laufer B., Hulstijn J.** Incidental vocabulary learning in a second language // *Studies in Second Language Acquisition*. – 2001. – Vol. 23, No. 1. – P. 1–26.

DARS REJALASHTIRISH - ZAMONAVIY CHET TILI O‘QITUVCHISINING ASOSIY PROFESSIONAL KOMPETENSIYASI

Sobirova Feruza Mahamatismayilovna

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy chet tili ta’limida dars rejalashtirishning o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasidagi yetakchi o‘rniga bag‘ishlangan. Darsning ta’rifi, maqsad turlari va chet tili darsining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Dars rejalashtirish ko‘nikmasining 6 ta asosiy komponenti aniqlanib, yosh va bo‘lajak o‘qituvchilarning ushbu jarayondagi eng keng tarqalgan qiyinchiliklari (maqsad qo‘yish, vaqt taqsimoti, baholash, kommunikativ topshiriq tanlash va boshqalar) tadqiqot natijalari asosida ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar*: dars rejalashtirish, darsni loyihalash, chet tili o‘qitish metodikasi, kommunikativ yondashuv, kommunikativ til o‘qitish, kasbiy kompetensiya, refleksiya, faoliyatlar to‘plami, moslashuvchan yo‘l (jungle path).*

Аннотация: Статья посвящена центральной роли планирования урока в профессиональной компетенции современного учителя иностранного языка. Анализируются определение урока, виды целей урока и особенности уроков иностранного языка Планирование урока рассматривается как творческий и рефлексивный процесс Выделены шесть основных компонентов навыка планирования урока, а также наиболее распространённые трудности, с которыми сталкиваются будущие и молодые учителя (формулировка целей, распределение времени, оценивание, выбор коммуникативных заданий и др.) на основе результатов исследований.

Ключевые слова: *планирование урока, методика преподавания иностранного языка, коммуникативный подход, коммуникативное обучение*

языку, профессиональная компетенция, рефлексия, кластеры видов деятельности, гибкий/адаптивный путь (jungle path).

***Abstract**: The article focuses on the pivotal role of lesson planning as the core professional competence of a modern foreign language teacher. It examines the concept of a lesson, types of lesson objectives, and the distinctive features of foreign language instruction. Six key components of effective lesson-planning skills are identified, while the most frequent challenges encountered by pre-service and novice teachers – such as formulating clear objectives, time allocation, assessment design, and selecting meaningful communicative tasks – are highlighted based on research evidence.*

***Keywords:** lesson planning, foreign language teaching methodology, communicative approach, CLT, , professional competence, reflection, clusters of activities, jungle path.*

KIRISH. O‘zbek tilining izohli lug’atida dars istilohiga shunday izoh berilgan “Dars - arabcha - saboq, ma’ruza. Ta’lim muassasalarida, ilm ma’lumot berish, berish maqsadida o‘tkaziladigan o‘quv mashg’ulotlari, saboq”.60

O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasida darsga quyidagicha ta’rif beriladi: “Dars — maktab ta’limining asosiy tashkiliy shakli. Dars muayyan miqdordagi doimiy o‘quvchilar tarkibi bilan qat’iy tartibda uyushtiriladigan va aniq maqsadga yo‘naltirilgan didaktik tadbirdir. Dars — insoniyat tomonidan minglab yillar mobaynida orttirilgan hayotiy tajribalarni o‘quvchilarga juda qisqa vaqtda o‘rgatishning eng samarali usuli. Darsni tashkil etish va uning samaradorligini ta’minlashda o‘qituvchining o‘rni beqiyos bo‘lgan. Shuningdek, darsning davomiyligi, predmetlarning joylashuvi, kundalik mashg‘ulotlarning miqdori singari ta’limiy chegaralar har bir o‘qituvchining o‘zi tomonidan belgilanar edi61.

[60]O‘zbek tilining izohli lug’ati. D harfi.- Toshkent: O‘zME Davlat ilmiy nashriyoti,2020 - b.569
[61] O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. D harfi. – Toshkent: O‘zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2001. – b.106.

Darsning maqsadi – bu o‘quvchilarda dars oxirida qanday natijaga erishishni aniq ko‘rsatadigan qisqa, aniq va o‘lchanadigan bayonotdir. U o‘qituvchining “bugun nimaga erishmoqchiman?” degan savoliga javob beradi. Zamonaviy talabga ko‘ra dars maqsadi 3 turga bo‘linadi (uch tomonlama maqsad): **Ta’limiy maqsad** (Bilim bilan bog‘liq) O‘quvchi nimani bilishi kerak? Misol: O‘quvchilar sonning modulini aniqlash qoidasini biladilar. O‘quvchilar “Vatan” tushunchasining mazmunini tushuntiradilar. **Tarbiyaviy maqsad** (Axloq, qadriyat, munosabat bilan bog‘liq) O‘quvchida qanday his-tuyg‘u, qadriyat shakllanishi kerak? Misol: O‘quvchilarda tabiatni asrashga mas’uliyat hissi shakllanadi. O‘quvchilar guruhda hamkorlik qilish ko‘nikmasini rivojlantiradilar. **Rivojlantiruvchi maqsad** (Fikrlash, ko‘nikma, qobiliyat bilan bog‘liq) O‘quvchining aqliy, ijodiy, amaliy qobiliyatlari qanday rivojlanadi? Misol: O‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi rivojlanadi. O‘quvchilar muammoni turli yo‘llar bilan yechish ko‘nikmasini egallaydilar. Darsning maqsadi – bu o‘qituvchining yo‘l xaritasi. Agar maqsad aniq bo‘lmasa – o‘quvchi ham, o‘qituvchi ham “bugun nimani o‘rgandik?” degan savolga javob bera olmaydi. Shuningdek, chet tili darsining maqsadlari biroz farq qiladi, to‘rt tomonlama, balki amaliy maqsad qo‘shiladi (amaliy, ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) bo‘ladi, diqqat markazi va formulasi biroz boshqacha bo‘ladi. Chet tili darsida asosiy e’tibor tilni *kommunikativ qo‘llash ko‘nikmas*iga qaratiladi. Chet tili darsining maqsadi odatda quyidagi 4 ta asosiy ko‘nikma bo‘yicha yoziladi (Yevropa standartlari CEFR bo‘yicha): Tinglab tushunish (Listening), O‘qib tushunish (Reading), Ogzaki nutq (Speaking), Yozma nutq (Writing), Til materiali (leksika, grammatika, madaniy bilimlar).

Asosiy qism



Chet til o‘rgatishning amaliy, ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari uzviy bog’langan tizim hosil qiladi. O‘quvchilar oldiga qo‘yiladiganchet til o‘qitish maqsadklarini chizma tarzida quyidagicha tasavvur etish mumkin. [62]

Bugungi kunda olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, dars mashg‘ulotlarini unumli tashkil etishning asosida – pedagogning darsni rejalash ko‘nikmasi yotadi. Dars rejalashtirish o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. Mazkur kompetensiya kognitiv jihatlarni (masalan, dars rejalashtirish uchun zarur bo‘lgan kasbiy bilimlarni) va hissiy-motivatsion jihatlarni (masalan, o‘qituvchining kasbiy qadriyatlari va shaxsiy munosabatlarini) o‘z ichiga oladi. Shuningdek, u vaziyatga xos qobiliyat va ko‘nikmalarni (jumladan, dars rejalashtirish jarayonida payd o bo‘ladigan holatlarni idrok etish, talqin qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini)

[62] Г. В. Рогова, И. Н.Верещагина. Методика обучения английскому языку на началным этапе в средней школе: Пособие для учителяю -М.: Просвещение,1988. стр -37.

hamda pedagogik faoliyat natijalarini (jumladan, dars rejalarining amaliy tatbiqi va ularning baholash jarayoniga ta’sirini) qamrab oladi[63].

Darsni rejalash ta’lim sohasida keng muhokamalarga sabab bo‘lgan mavzulardan biri bo‘lib, ko‘plab soha mutaxassislari unga turlicha ta’rif berganlar. N.Ashkraftning[64] nuqtai nazaridan, darsni loyihalash- bu ijodiy jarayon bo‘lib, bu o‘qituvchiga chet tili o’rganish jarayoni va o‘qitish metodikasi, hamda o‘quvchilarning bilimlari, o‘quv rejasi va til o‘qitish muhitini barchasini birga sintez qilish imkonini beradi. Shuningdek, muallim darsning borish jarayonini oldindan tasavvur qilish, mashg‘ulot tarkibiy qismlarining ma’lum bir ketma-ketlikda oldindan joylashtirish imkoniga ega bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, dars rejasi-pedagog va o‘quvchilar ishtirokidagi ijodiy hodisa bo‘lib, u bilimni o‘zlashtirish jarayoni, o‘qitish metodikasi va til materiallarini birgalikdagi sintez qilish jarayonidir. J.Jalolovning[65] fikricha esa, “dars rejasi-(konspekt) deganda, darsda muallimning faoliyati va o‘quvchilar bajaradigan amallar, o‘tkaziladigan mashqlar va boshqa barcha ishlarning aniq tasviri va ularga sarflanadigan vaqt miqdoriy o‘lchovi ko‘rsatiladigan dars rejasi tushuniladi. Uni darsning borishi haqidagi “ssenariy” deb ham atashadi.” Ya’ni, dars rejasi-dars jarayonida amalga oshiriladigan barcha ishlar va ularga ajratilgan vaqtlarni o‘z ichiga oladigan hujjatdir. Shuningdek, reja – bu muayyan maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan bosqichlar yoki diagrammalar tizimidan tashkil topgan andozadir. Aniqroq aytganda, u ta’lim jarayonini rejalashtirishga oid konseptual hujjat bo‘lib, o‘qituvchilarning dars jarayonini qanday, qachon va nima sababdan tashkil etishlarini hamda qanday metod va vositalardan foydalanishlarini tushuntirib beruvchi yozma hujjat sifatida namoyon bo‘ladi. *Darslarni rejalashdan asosiy maqsad* esa ham pedagogda, ham o‘quvchilarda ushbu darsda nimalar

[63] Blömeke, S., Kaiser, G., König, J., & Jentsch, A. Profles of mathematics teachers’ competence and their relation to instructional quality. ZDM, 52(2), 2020. P-234.
[64] Ashcraft N. Thomas S. Farrell C. Lesson Planning. TESOL Press; 2014. P-3.

[65] **Jalolov, J.** Chet tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi, 2000. **– B.277.**

o‘zlashtirilishi va o‘qitilishi lozimligi haqida aniq-tiniq fikrda ega bo‘lish orqali yangi materialni o‘quvchilarga yetkazish yo‘llarini yaxshilashdir. Bu orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayoni ham, baholash jarayoni ham osonlashadi[66]. Binobarin, Ingliz tili ta'limi (ELT/EFL) sohasida darsni rejalashtirish (lesson planning) nazariyasi va amaliyoti ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ularning ishlari ko'pincha *kommunikativ til o'qitish (CLT), kompetensiya*ga yo'naltirilgan yondashuv va o'qituvchilarning professional rivojlanishiga asoslanadi.

Taniqli tadqiqotchilardan J.S. Richards talqiniga ko‘ra, “O‘qituvchilar darsni faoliyatlar klasteri sifatidada ko‘rishadi, mazmunni faoliyat bilan o‘z o‘quvchilariga moslashtiadilar”.[67] Richardsning (markaziy dizayn (central design) nazariyasiga ko‘ra, tajribali o‘qituvchi darsni qattiq grammatik yoki leksik bloklar to‘plami emas, balki bir-biri bilan bog‘langan faoliyatlar klasteri sifatida rejalashtiradi. Bunda til materiali (grammatika, leksika, talaffuz) alohida “o‘qitiladigan narsa” emas, balki o‘quvchilarning real ehtiyojlari va sinf muhitiga moslashtirilgan kommunikativ faoliyatlar ichiga organik tarzda singdiriladi. Bu yondashuv zamonaviy kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’limda (CEFR, task-based va flipped classroom, UDL modellarida) eng samarali hisoblanadi, chunki u o‘qituvchiga darsni o‘quvchilarning hozirgi holati va paydo bo‘lgan ehtiyojlariga qarab moslashuvchan boshqarish imkonini beradi. Hozirgi paytda olib borilgan ko‘plab tadqiqotlardan ma’lumki, dars mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishning asosida – pedagogning *darsni rejalashtirish ko‘nikmasi* yotadi. Shu o‘rinda dars rejalashtirish ko‘nikmasiga ta’rif beramiz- D**arsni rejalashtirish ko‘nikmasi** – bu o‘qituvchining **bitta konkret dars (80)** uchun quyidagilarni bir vaqtda, professional darajada qila olish qobiliyatidir:

[66] Challay S. Vandi S. K. Teachers’ Perceptions Towards the Usefulness of Lesson Plan Manuals in the Teaching of Language Arts at the Junior Secondary School level. International Journal of Applied Linguistics & English Literature. 2021. –P.93.

[67] Richards, J. C. (2013). Curriculum approaches in language teaching: Forward, central, and backward design. RELC Journal, 44(1), 5–33.

1. **Maqsadni aniq qo‘ya olish** “Dars oxirida o‘quvchi aynan nima qila olishi kerak?” (CEFR “Can-do” formulasi)

2. **O‘quvchilarni tahlil qila olish** Ularning hozirgi bilim darajasi, qiziqishi, qiyinchiliklari va ehtiyojlarini oldindan bashorat qilish.

3. **Til materiali va faoliyatlarni sintez qila olish** Grammatika, leksika, talaffuzni alohida “o‘qitiladigan narsa” emas, balki o‘quvchilar uchun ma’noli va real kommunikativ faoliyatlar ichiga joylashtirish (Richards: “clusters of activities”).

4. **Vaqtni professional taqsimlay olish** Har bir bosqichga real vaqt ajratish (masalan, 5 daqiqa Engage, 10 daqiqa Study, 20 daqiqa Activate, 8 daqiqa reflection).

5. **Moslashuvchanlik va oldindan ko‘ra bilish** “Agar o‘quvchilar tezroq tushunsa…”, “Agar qiyin bo‘lsa…” degan ikkinchi va uchinchi variantlarni tayyorlab qo‘yish (Scrivener: “jungle path”).

6. **Baholash mezonlarini oldindan belgilay olish** “Qanday bilaman ki, maqsadga erishildi?” – rubrika, yoki savollar shaklida.

Refleksiya qila olish Darsdan keyin “Nima yaxshi bo‘ldi? Nima ishlamadi? Keyingi safar nima o‘zgartiraman?” deb yozish (Farrell). Darsni rejalashtirish ko‘nikmasi o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi sifatida talqin etiladi.

Mazkur kompetensiya kognitiv jihatlarni (masalan, dars rejalashtirish uchun zarur bo‘lgan kasbiy bilimlarni) va hissiy-motivatsion jihatlarni (masalan, o‘qituvchining kasbiy qadriyatlari va shaxsiy munosabatlarini) o‘z ichiga oladi. Shuningdek, u vaziyatga xos qobiliyat va ko‘nikmalarni (jumladan, dars rejalashtirish jarayonida paydo bo‘ladigan holatlarni idrok etish, talqin qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini) hamda pedagogik faoliyat natijalarini (jumladan,

dars rejalarining amaliy tatbiqi va ularning baholash jarayoniga ta’sirini) qamrab oladi[68].

Darhaqiqat, darsni rejalash ko‘nikmasini shakllantirish boshqa ko‘nikmalar singari ma’lum vaqt talab etadigan murakkab jarayon bo‘lganligi bois, ko‘plab yosh pedagoglar o‘z faoliyatlari davomida turli qiyinchiliklarga uchraydilar va bunga yechim izlashga urinadilar. Bu sohada ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lib, ular asl holatning mohiyatini anglashga va chuqurroq tahlil qilishga ko‘mak beradi.

Jumladan, tadqiqotchi A.Z.Gultenning[69]fikriga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilar, asosan, dars maqsadlarini shakllantirishda hamda darsning bosqichlari uchun mos keladigan mashg’ulot turlarini tanlash muammolarga uchraydilar. Tadqiqotchi B.I FaqeAbdulla[70] esa bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari darsni rejalash jarayonidagi quyidagi kamchilik va qiyinchiliklarga duch kelishlarini aytadi: ular avvalo o‘quvchilar dars so’nggida erishishlari lozim bo‘lgan dars maqsadlarini aniqlashtirib olishda va tanlangan maqsadlarga mos baholash usullarini qo‘llashda, darslarda axborot texnologiya vositalaridan mazmunli foydalanishda, o‘quvchilarga sodda va tushunarli ko‘rsatmalar berishda ko‘p qiyinchilik sezadilar. Shuningdek, ularning loyihalangan dars rejalarida ko‘p muammoli o‘rinlarni kuzatadi hamda ularga ko‘proq qiziqarli topshiriqlar qo‘shilishi lozimligi, chet tili darsida shu dars uchun o‘quvchilar tomonidan o‘rganilishi lozim bo‘lgan alohida yangi so‘zlar guruhining shakllantirilishi, dars davomida til ko‘nikmalarining rivojlantirishning mantiqiy izchilligi ta’minlanishi hamda har bir topshiriq uchun alohida vaqt taqsimotiga amal qilinishiga doir kamchiliklar mavjudligini ta’kidlaydi.

Bu fikrlar shuni tasdiqlaydiki, bo‘lajak pedagoglar ko‘proq dars rejasining tarkibiy qismalarini to‘g‘ri va izchillikda shakllantirishda hamda rejalangan dars mashg‘ulotini amaliyotida muammolarga uchraydilar.

---

[68] Blömeke, S., Kaiser, G., König, J., & Jentsch, A. Profles of mathematics teachers’ competence and their relation to instructional quality. ZDM, 52(2), 2020. P-234.

[69] Dr.Gulten A.Z. Am I planning well? Teacher trainee’s voices on lesson planning. 3rd World Conference on Learning, Teaching and Educational Leadership (WCLTA-2012). Procedia-Social and Behavioral Sciences 93 (2013) –P. 1410.

[70] FaqeAbdulla B.I. Analyzing the structure and effectiveness of lesson plans for pre-service english language teachers. International Journal of English Learning and Applied Linguistics(IJELAL), 4(2) 2024, –P.158.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda dars rejalashtirish ko‘nikmasini shakllantirishda dars rejasi tarkibiy qismlarini tanlash jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aksariyat bo‘lajak o‘qituvchilar dastlab belgilangan dars tarkibiy qismlarini o‘zlashtiradilar. Faqat pedagogik faoliyatining keyingi bosqichlaridagina ular rejalashtirish jarayoniga murakkab omillarni, jumladan, differensial yondashuv, o‘quv uslublari va fanlararo integratsiyani tatbiq eta boshlaydilar.[71] Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglar dastlabki bosqichda o‘zlarining nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etish jarayonida, asosan, dars rejalashtirishning asosiy tarkibiy unsurlariga yo‘naltirilgan holda faoliyat olib boradilar. Xususan, ular dars strukturasini shakllantirish, mavzuga muvofiq didaktik maqsad va topshiriqlarni aniqlash, hamda vaqt resurslarini samarali taqsimlash kabi muhim komponentlarga e’tibor qaratadilar.

Данные методы позволяют вовлечь учащихся в самостоятельное осмысление духовных и нравственных вопросов. Если каждый учитель будет использовать хотя бы несколько методов при работе с учениками, то нам удастся воспитать духовно развитых детей, которые в будущем продолжат хранить духовность в своих сердцах.

Вывод

Исследование показало, что духовное воспитание занимает ключевое место в системе образования и требует постоянного обновления методов и подходов. В условиях Узбекистана духовное развитие учеников опирается на богатое культурное наследие и современные государственные инициативы. Интеграция инновационных технологий, интерактивных форм и проектного обучения открывает новые возможности для развития духовно-нравственной сферы личности. При этом важно не забывать о сплочении традиционных ценностей и цифровых инструментов для достижения наших целей. Таким образом, образовательные учреждения, внедряющие современные подходы и инновационные методы, могут более эффективно поддерживать

формирование у учащихся ценностей гуманизма, уважения, ответственности и культурной идентичности.

Использованная литература

1. **Левичев О., Чухин С.** Основы духовно-нравственного воспитания школьников. – 2018.
2. **Иванов А. В.** Духовно-нравственное воспитание детей, подростков и юношества. – 2021.
3. **Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси.** Электрон ресурс. – URL: https://lex.uz/ru/docs/5344680

TASVIRIY SAN’AT FANINI O‘QITISHDA RANGTASVIR FANINING O‘RNI.

Zulfiyev Rashid Ne'matovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Zulfiyeva Sarvinoz Doston qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: *Maqolada hozirgi kunda tasviriy san’at darslarini samarali tashkil qilish usullari, tasviriy sanatda rang tasvirlar ranglarining o’zgartiriladigan doirasini tushunish, ifodalash va ishlatishni bildiradi. Ranglar, tasviriy san’atning boshqa elementlari bilan birga, aniq tuyg’ularni, xayollarni va tavsiflarni ifodalash uchun ahamiyatga ega. Rang tasvirning o’rni va ahamiyati to’g’risida so’z yuritilgan.*

Kalit so’zlar*: “Ijodkorlik”dir. Ijodkorlik, fikrlash, rasm chizish, rang tasvir, rang, kompozitsiya, ob’yekt, tafakkur, tasavvur.*

Аннотация: *В статье описываются методы эффективной организации уроков изобразительного искусства сегодня, а также понимание, выражение и использование меняющейся гаммы цветов в изобразительном искусстве. Цвета, наряду с другими элементами визуального искусства, важны для выражения определенных эмоций, фантазий и описаний. Обсуждается роль и значение цветных изображений.*

Ключевые слова: *«Творчество». Творчество, мышление, рисунок, цветное изображение, цвет, композиция, объект, мысль, воображение.*

Abstract: *This article describes methods for effectively organizing visual arts lessons today, as well as understanding, expressing, and using the changing range of colors in the visual arts. Colors, along with other elements of visual art, are important for expressing certain emotions, fantasies, and descriptions. The role and significance of color images is discussed.*

Keywords: *"Creativity". Creativity, thinking, drawing, color image, color, composition, object, thought, imagination.*

Zamonaviy ta’lim tizimida estetik tarbiya va badiiy qobiliyatlarni shakllantirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifalarni amalga oshirishda tasviriy san’at fanining, xususan, rang tasvir fanining o‘rni beqiyos. Rang tasvir bolalarda tabiatni kuzatish, rangni his qilish, ranglar ohangini tanlash, ta’sirli tasvir

yarata olish qobiliyatini shakllantiradi.

Tasviriy san’at fani o‘quvchilarning estetik dunyoqarashini, tasavvurini va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, rang tasvir yo‘nalishi tasviriy san’at ta’limining asosiy qismlaridan biri bo‘lib, u bolalarda ranglar bilan ishlash madaniyatini, obrazli fikrlashni va tasviriy ifoda vositalarini ongli qo‘llashni rivojlantiradi.

Asosiy qism

1. Rang tasvir fanining mazmuni va vazifalari

Rang tasvir yo‘nalishi real hayotdagi ob’yektlarni rangli tasvirlash, nur va soya orqali hajm berish, fazoda tasvir yaratish kabilarni o‘rgatadi. Asosiy maqsad – o‘quvchilarga rang bilan ishlash ko‘nikmalarini berish, ularni ijodiy yondashuvga o‘rgatish va badiiy didni shakllantirish.

Rang tasvir — tasviriy san’atning muhim bo‘limi bo‘lib, u real hayotdagi ranglar, nur va soya, jismlarning hajmdorligi, fazoda joylashuvini ranglar orqali ifoda etishni o‘rgatadi. Bu fan o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantiradi:

- Ranglar haqida nazariy bilimlar;
- Ranglarni aralashtirish, yangi ohanglar yaratish;
- Ob’yektlarni hajm bilan tasvirlash;
- Kompozitsiya yaratish va ranglar muvozanatini saqlash.

2. Rang tasvir fanini o‘qitishdagi metodik yondashuvlar

Dars jarayonida qo‘llaniladigan asosiy usullar:

- Kuzatishga asoslangan mashqlar: tabiat, oddiy jismlar, gullar, meva-sabzavotlar.
- Nazariy tushunchalarni amaliyot bilan bog‘lash: ranglar doirasi, asosiy va ikkilamchi ranglar.
- Mustahkamlovchi ijodiy ishlar: mavzuga oid mustaqil rasm chizish.
- Interaktiv usullar: jamoaviy ish, elektron vositalar orqali rang tahlili.

Metodik yondashuvlar darsning mazmuniga, sinf darajasiga va o‘quvchilarning qiziqishiga qarab tanlanadi. Quyidagilar asosiy usullardan hisoblanadi:

- Nazariy tushuncha va amaliy mashqlar uyg‘unligi;

- Rasmni bosqichma-bosqich chizish metodikasi;
- Raqamli texnologiyalar yordamida interaktiv mashg‘ulotlar;
- Individual va guruhli ishlarni uyg‘unlashtirish;
- Kuzatish va tasavvur asosida ijodiy ishlar bajarish.

3. Rang tasvirdagi faol ta’lim va ijodkorlik

O‘quvchilarga ranglar haqida quyidagi bilimlar beriladi:

- Asosiy va ikkilamchi ranglar;
- Rangsiz va neytral ranglar;
- Rassomlar tomonidan qo‘llaniladigan ranglar ohangi va kontrasti;
- Rasmda hissiyot va kayfiyatni ifodalovchi ranglar tanlovi.

Ushbu fan o‘quvchilarda:

- Estetik did va rang hissini;
- Mustaqil ishlash va fikrlash qobiliyatini;
- San’atga qiziqishni va o‘ziga ishonchni;
- Badiiy tafakkur va tasavvurni rivojlantiradi.

Bu orqali ular nafaqat san’atda, balki boshqa fanlarda ham ta’sirchan fikr yuritishni o‘rganadilar.

4. Dars jarayonida qo‘llaniladigan materiallar va texnikalar

Rang tasvir darslarida turli vositalardan foydalaniladi:

- Guash, akvarel, pastel, rangli qalamlar;
- Grafik planshet va raqamli ilovalar;
- Ko‘rgazmali qurollar: rang doirasi, mashq namunasi, slaydlar.

5. O‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirish

Rang tasvir darslari o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ranglar orqali obraz yaratishga undaydi. O‘qituvchi o‘quvchini erkin ifoda, izlanish, tajriba o‘tkazishga yo‘naltirishi muhim. Baholashda ijodiy yondashuv, urinishlar va

g‘oyaning yangiligi e’tiborga olinadi.

6. O‘qituvchi oldidagi vazifalar

Rang tasvirni o‘qitishda muallim:

- Bo‘lajak mashqlarning maqsadini aniq belgilashi;
- O‘quvchilarning individual imkoniyatlarini inobatga olishi;
- Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan (raqamli rasm chizish, media resurslar) foydalanishi;
- Qo‘rqmaslik, erkin ifoda va izlanish muhitini yaratishi lozim.

MUHOKAMA

Rangtasvir tasviriy san’atning eng muhim turlaridan bo’lib, maxsus polotnolarga, devorlarga ishlanadi. Tasviriy san’at asarlarida ifodalangan maqsad va mazmunni ochib berishda rang muhim o’rin egallaydi. Rangtasvir asarlari xarakteriga ko’ra monumental, dekorativ, mo’jaz, dastgohli turlarga bo’linadi. Monumental rangtasvir me’morchilik bilan bog’liq bo’lib, ular uylarning devorlarini, shiftlarini bezashda qo’llaniladi. Katta hajmda uzoqdan ko’rishga mo’ljallanganligi uchun bular yaxlitlashtirilgan holda ishlanadi, ranglar ham shartli ravishda olinadi. Mo’jaz san’at asarlari Turli mamlakatlarda, shu jum ladan, O’zbekiston hududida judahamqadim zamondan taraq qiy etib, qadimiy qo’lyozmalar ga ishlangan. Chunonchi. Alisher Navoiyning «Xamsa» asarlariga ishlangan rasmlar bunga misol bo’la oladi. Dastgohli rangtasvir asarlari keng tarqalgan bo’lib, maxsus matolar, karton, yog’och, romkaga tortilgan mato-xolst va shu kabilarga ishlanadi.Dastgohli rangtasvir moybo’yoq.guash, suvbo’yoq, tempera bo’yoqlarida maxsus dastgoh (molbert) larga o’rnatilib ishlanadi. Grafika – lotincha «grafo» so’zidan olingan bo’lib, «yozaman», «chizaman» degan ma’noni anglatadi. Tasviriy san’atning bu turiga oddiy va rangli qalamda ko’mir, pastel, sangina, suvbo’yoq,guash va tushda ishlangan bezaklar, turli

plakatlar, hajviyrasmlar va hakozolar kiradi. Haykaltaroshlik – tasviriy san’atturlaridan biri. U lotincha «skulpo»so’zidan olinib, qattiq materiallarga «qirqish, kesish, o’yish, taroshlash» orqali ishlov berish ma’nosini anglatadi. Tasviriy san’atning turlari. Portret – rangtasvir janrlariichida eng qadimiylaridan bo’lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Portret janrida ishlangan tasviriysan’at asarlari bizga musavvir yashagan davrni,madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin etadi. Avtoportret – portret janrining ko’rinishlaridan biri bo’lib, musavvir o’zining tashqi qiyofasini o’zi tasvirlaydi.

Xulosa

Rang tasvir yo‘nalishini o‘qitish metodikasi tasviriy san’at fanida o‘quvchilarning estetik tarbiyasi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Zamonaviy yondashuvlar, innovatsion vositalar va to‘g‘ri pedagogik metodlar orqali bu yo‘nalishni samarali tashkil qilish mumkin.

Rang tasvir fani tasviriy san’at ta’limida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Bu fan o‘quvchilarning dunyoqarashi, rang hissi va badiiy salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni samarali o‘qitish orqali ta’lim jarayoni nafaqat qiziqarli, balki mazmunli va ta’sirli kechadi.

Ma’lumki, tasvir ishlashni rang vositasida ishlash jarayonida atrof-muhit holati muhim ahamiyatga ega. Chunki chizilayotgan ob’yektga yorug’lik manbai atrofidagi boshqa buyumlarni ta’siri kuzatiladi. Ular O’z rangi, tusi bilan o’zaro muvofiq yoki nomuvofiq bo’lishi mumkin. Rassom ana shunday o’zgarishlarni chuqur anglab, tahlil qilib, so’ng ifoda etishi kerak. Aks holda tasvir jonsiz, ta’sirsiz chiqib qoladi, o’rganayotganlar uchun bunday holatlarni hisobga olib tasvirlashda natyurmortlar juda qo’l keladi. Chunki unda buyumlardagi soya, teri, shu’lalar, rang tuslarining o’yini ifodaviyligi yaqqol ko’rinib turadi. Ular tasvir shaklini, yorqinligini, yaxlitligini ko’rsatishda xizmat kiladi. Natyurmortni qanday xonada

qo’yilganligini ham uning yorug’ yoki qorong’iligi nur derazadan qay holatda va burchak ostida tushayotgani xam muhim ahamiyat kasb etadi. Shu’la («blik») va rangli shu’la («refleks») natyurmortdagi deyarli barcha predmetlarda aks etib turadi. Ayniqsa, yaltiroq sirtli narsalar sathida bu yaxshi sezilib turadi. Chunki ular yorug’likni yutmaydi,balki yog’dulanib qaytaradi. Nurni o’zida sindirib yuboradigan sirtli narsalarda aks shu’lalarni ba’zan sezib olish qiyinroq bo’ladi. Ammo ularni talaba ilg’ab olishini va tasvirlashni doimo mashq qilishi kerak. Buning uchun xar bir o’rganuvchi yosh rassom o’z bilimini ham nazariy, ham amaliy jixatlarini kitob qo’llanmalaridan o’qib rangtasvir namunalarini muzey va ko’rgazma zallarida ko’rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. **Hamroqulova M. T. qizi, Zulfiev R. N., Baymetov B. B.** Bo‘lajak rassom-o‘qituvchini tayyorlashda akademik chizmachilikni o‘qitish nazariyasi va amaliyoti // Fan va ta’lim ilmiy jurnali. – 2020.
2. **Xudoyberganov A.** Tasviriy san’at va chizmachilik metodikasi. – Toshkent, 2020.
3. **Yo‘ldoshev M.** Rangtasvir asoslari. – Samarqand, 2018.
4. **O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi.** Tasviriy san’at fan dasturi.
5. **Internet manbalari:**– www.ziyonet.uz– www.pedagog.uz
6. **Pedagogik texnologiyalar asoslari.** – Toshkent, 2019.
7. **Milliy naqshlar orqali o‘quvchilarda badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish metodikasini takomillashtirish.**
8. **Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sinflarni ikki guruhga bo‘lib tasviriy san’at va chizmachilik darslarini o‘tkazish.**
9. **Milliy kashtachilik san’ati: tarix, an’ana va zamonaviylik chorrahasida.**

ВЛИЯНИЕ ЦЕНТРАЛИЗОВАННОЙ МОДЕЛИ ХОЗЯЙСТВОВАНИЯ НА СОЦИАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ КАРАКАЛПАКСТАНА В 1960–1980-е ГОДЫ

Мадреймов Фархат Махсетбаевич

Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза.

Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна

Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза.

Аннотация: *В статье анализируется социальная политика Каракалпакстана 1961–1985 гг. в условиях централизованного управления и экологического кризиса. Отмечается, что данная модель ограничивала социальное развитие и снижала уровень жизни населения.*

Ключевые слова: *социальная политика, Каракалпакстан, централизованное управление, Аральский кризис, инфраструктура, уровень жизни населения.*

Annotatsiya: *Maqolada 1961–1985 yillarda markazlashgan boshqaruv va ekologik inqiroz sharoitida Qoraqalpog‘istondagi ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy rivojlanishning cheklanishi va aholi turmush darajasiga salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy siyosat, Qoraqalpog‘iston, markazlashgan boshqaruv, Aral inqirozi, infratuzilma, aholi turmush darajasi.*

Abstract: *The article analyzes social policy in Karakalpakstan (1961–1985) under centralized governance and environmental crisis. It shows how this system limited social progress and affected living standards.*

Keywords: *social policy, Karakalpakstan, centralized management, Aral crisis, infrastructure, living standards.*

В послевоенные десятилетия Каракалпакстан, на фоне общесоюзных достижений, испытывал серьёзные экономические трудности. Региональная экономика оставалась преимущественно аграрной, а бюджет формировался по остаточному принципу. Несмотря на постепенную стабилизацию административной системы, сохранялись проблемы хозяйственной специализации районов и неравномерности развития отраслей. Особое место занимала рыбная промышленность, подчинённая интересам центра. Уже тогда проявлялись предпосылки Аральского кризиса, негативно повлиявшего на социально-экономическую жизнь региона.

Основными физическим потребностям мы можем отнести питание, жилье, здравоохранение, транспорт, связь. В Каракалпакстане наметились два типа национальных особенностей потребления – традиционно-национальный и современно-национальный [1]. Взаимосвязанность традиционного, исторического и современного очевидна, ярко выражается во всем: питании, условиях жизни, социальной инфраструктуры.

В изучаемый период на душу населения приходилось хлеба и хлебопродуктов – 89 кг в год, риса – 4,8, масла растительного – 6,1, на самом деле было потреблено мучных изделий –125,3, риса – 16,7, масло растительного – 11,0 кг. В 1965-1978 гг. годовое потребление мяса на душу населения в СССР приходилось 56 кг, рыбы – 16,9 кг, молока – 320, овощей - 90, картофеля – 120, хлеба - 140 кг. Однако по Каракалпакстану даже в конце 1980-х годов не был достигнут этот уровень. На душу населения мяса потреблено 26,4 кг, молока – 165,6, картофеля – 23, овощей – 67,4 [2].

В 1960 году в Каракалпакстане насчитывалось 9000 жилых домов. В 1959-1965 гг. на строительство жилья было вложено 83,2 млн. руб., в 1961-1970 гг. были сданы в эксплуатацию 3021 тыс. кв.м. жилья. Даже по СССР уровень удовлетворения потребности населения в жилье составлял в 1970-х годах 80-85% [3].

В области здравоохранения не хватало квалифицированных медицинских кадров. В 1960 году по СССР на каждого 10000 человек приходилось 20,1 врача, 64,7 среднего медперсонала, по Узбекистану - 13,8 и 44,4, то по Каракалпакстану – 7,2 и 30,8 соответственно. В 1965 году на здравоохранение и физическую культуру было выделено 6,9 млрд. рублей, в 1975 году – 12,9, 1978 году – 15,6 млрд. рублей [3]. Однако, Каракалпакстан всегда обеспечивался по остаточному принципу.

В сельском хозяйстве наряду с применением большой группы пестицидов, широко проводилась химическая дефолиация – предуборочное удаление листьев с хлопчатника для облегчения его механизированной уборки. Глубоко проникая в почву, дефолианты просачивались в грунтовые воды, заражали их. В 1970-1985 гг. в регионе увеличились больные паратифом, туберкулезом, другими раковыми, инфекционными болезнями. Они усилились к концу 1980-х годов, увеличилась детская смертность, например, удельный вес детской смертности составила 26,8% от общего числа умерших. Особенно увеличились больные с врожденными аномалиями, психическая неразвитость, болезни органов дыхания, крови, эндокринной системы. У взрослого населения – болезни желчно-каменных, хронических гастритов, язв, почек, сердечно-сосудистых систем [4].

Демографический взрыв 1960-1970-х гг. сделало возможным превалирование в социальной структуре каракалпакского общества детей и подростков (49,9%). Если в 1959-1960 учебном году количество учеников было 94,5 тыс., то в 1970 году оно составило 187,2 тыс., к середине 1980-х гг. – около 250 тыс. человек. А в 1985-1986 учебном году в республике действовали 857 школ с охватом около 180 тыс. детей, при этом многие школы исчерпали сроки эксплуатации, постройками из глины и пахсы. Поэтому в школах дети обучались в две, иногда в три смены, что, естественно, сказывалось на учебном процессе [5].

В 1960 году было 305 массовых библиотек, а в 1985 году – 567. Распространилась система кинопоказов, с 1964 года начала работу Нукусская телестудия [6]. В 1976 г. в эксплуатацию было введено 18039 кв. м. жилья, что позволило улучшить условия около 1000 семей [7], но это не решало этой проблемы, устанавливались длинные очереди на получение квартир.

В 1981 – 1982 годы на развитие водопроводных сетей было направлено 1,4 млн. руб. и было введено в действие 4,4 км водопроводных сетей. В 1982 году принято специальное постановление о строительстве водовода Туямуюн – Нукус – Тахтакупыр, Ургенч – Мангит – Тахиаташ – Кунград – Кульсары» [8].

Ситуация с питьевой водой существовала и в других городах. В городе Турткуле в 1984 году проживало около 32 тысячи человек. Из них было обеспечено питьевой водой 20 тыс. человек или 69% населения. Протяженность водопроводной системы составляла 22 км., а протяженность всех улиц г.Турткуля почти 100 км. Канализационная система в городе отсутствовала. В поселке Бустан Элликалинского района население питалось водой из канала, а в зимнее время оно оставалось без воды [9].

Домостроительный комбинат Нукуса был рассчитан на строительство исключительно «четырехэтажек» (т.е. 32-квартирный вариант). Ограниченность в этажности строительства повлияло на формирование выразительности жилых архитектурных ансамблей. К тому же 80% строительство города Нукуса состояла из одноэтажных строений, в том числе около 70% занимали индивидуальные жилые дома. Эта планировка занимала большую территорию, затрудняло и удорожало стоимость инженерных коммуникации и, конечно, ухудшала архитектурный облик. Было принято Постановление от 28 января 1980 г.: «Об упорядочении жилищного строительства в городе Нукусе» решением, которого было запрещено строительство одноэтажных домов в городе Нукусе [10].

В созданном в конце 1970-х годов новом Элликалинском районе в 1980 году велось строительство жилого поселка хлопкоочистительного завода, которая была введена в эксплуатацию в 1981 году, карьер по производству дробленных щебней, типовое здание районного узла связи с автоматической связью на 500 номеров, радиоузел, детский сад на 140 мест, баня на 26 человек в час. В 1982 году был построен и сдан в эксплуатацию двухквартирный двухэтажный жилой дом. В 1983 году сдан в эксплуатацию кирпичный завод, мощностью 10 млн. штук кирпича в год. Для рабочих завода построено жилье на 8 квартир, была проведена газификация завода и жилого поселка, также был сдан Дворец культуры хлопкозавода. В 1984 году в районном центре – Бустане – жилой коммунальный фонд достиг свыше 68 тысяч квадратных метров жилья [11].

Больше половины хлопка-сырца убирались вручную, приходилось привлекать на длительный период уборочной страды учащихся студентов и горожан. Приписки и хищения и другие злоупотребления были выявлены во всех отраслях бытового обслуживания и торговли. В 1983-1985 гг. 150 руководящих работников за различные нарушения были привлечены к уголовной ответственности, было заменено 43 руководителей областного масштаба [12].

1980 г. в Каракалпакстане было 15 районов, 9 городов, из них 8 городов республиканского подчинения и 1 районного подчинения. Поселков городского типа были 13, кишлаков 88 [13]. В 1980 году в Каракалпакстане на каждого жителя приходилось в среднем 10,8 кв.м. жилья, что был одним из низких по Узбекистану. В 1980 году по республике общий жилищный фонд составлял 10,4 млн. кв. метров, из них 3,6 млн. кв. м. составлял городской жилищный фонд, а остальные 6,8 млн. кв. м. – сельский. Этот фонд включал и 5,8 млн. кв. м. жилья индивидуальной собственности населения [14]. Индивидуальные застройщики на селе не обеспечивались строительными

материалами. Следовательно, наблюдалось быстрый рост миграции населения из села в город.

Изменение социальной структуры Каракалпакстана в 1960–1980-е годы было связано с процессами модернизации, требовавшими развития инфраструктуры и повышения уровня жизни населения. Быстрый рост численности жителей усиливал дефицит жилья и коммунальных услуг, тогда как централизованная система хозяйствования не обеспечивала необходимых темпов развития. Нерациональное использование средств, многочисленные незавершённые стройки и убыточные предприятия приводили к росту долгов и снижению эффективности экономики региона.

Несмотря на отдельные успехи в развитии аграрного производства и повышении образовательного уровня населения, экономическая отдача оставалась низкой. Командно-административная модель породила иждивенчество, безразличие к результатам труда и утрату инициативы. В результате общество оказалось в состоянии идеологической зависимости, когда прогрессивные преобразования сочетались с просчётами и нереализованными надеждами.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА И ИСТОЧНИКИ

1. **Бекбулатова Г. А.** Влияние социально-экономических факторов на уровень потребления населения Каракалпакстана // Вестник ККО АН РУ. – 1997. – № 3.
2. **Рзаев К.** Демографическое развитие Советской Республики Каракалпакстан // Вестник ККО АН РУ. – 1991. – № 2.
3. **Народное хозяйство СССР в 1985 г.** – Москва, 1986.
4. **Курбаниязов А.** Воспроизводство и использование трудового потенциала в условиях экологического кризиса // Вестник ККО АН РУ. – 1995. – № 1.

5. **Огай О. А., Срымова Ж. А.** О социальной защите населения Республики Каракалпакстан в условиях перехода к рыночной экономике // Вестник ККО АН РУ. – 1994. – № 4.
6. **Қарақалпақстанның жаңа тарийхы. Қарақалпақстан XIX әсирдиң екинши ярымынан XXI әсир басына шекем.** – Нөкис, 2003.
7. **Центральный государственный архив Республики Каракалпакстан (ЦГА РК).** Ф. 551. Оп. 2. Д. 6282.
8. **Центральный государственный архив Республики Каракалпакстан (ЦГА РК).** Ф. 551. Оп. 2. Д. 5613.
9. **Центральный государственный архив Республики Каракалпакстан (ЦГА РК).** Ф. 551. Оп. 2. Д. 5127.
10. **Центральный государственный архив Республики Каракалпакстан (ЦГА РК).** Ф. 551. Оп. 2. Д. 5270.
11. **Центральный государственный архив Республики Каракалпакстан (ЦГА РК).** Ф. 551. Оп. 2. Д. 5588.
12. **Центральный государственный архив Республики Узбекистан (ЦГА РУз).** Ф. Р-2454. Оп. 6. Д. 4193.
13. **Народное хозяйство Узбекской ССР за 70 лет Советской власти.** Юбилейный статистический сборник. – Ташкент, 1987.

ISLOHOTLAR VA ZIDDIYATLAR: 1960–1980-YILLARDA QORAQALPOG‘ISTON AGRAR SIYOSATINING IJTIMOIY-IQTISODIY TAHLILI

Shamshetdinova Dilafruza Ismayilovna

Nukus davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Maqolada 1960–1980-yillarda Qoraqalpog‘istondagi agrar o‘zgarishlar ko‘rib chiqiladi. Unda kolxozlarning yiriklashtirilishi, sovxozlarning tashkil etilishi, paxtachilik va sholikorlikning rivojlanishi hamda qishloq xo‘jaligining mexanizatsiya va kimyolashtirilishi jarayonlari*

tahlil qilinadi. Shu bilan birga, paxta monokulturasi va kimyoviy vositalardan ortiqcha foydalanishning salbiy ijtimoiy hamda ekologik oqibatlari ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: *Qoraqalpog‘iston, agrar islohotlar, kolxoz, sovxoz, paxtachilik, sholikorlik, mexanizatsiya, kimyolashtirish, monokultura, ekologiya.*

Аннотация: *В статье рассматриваются аграрные преобразования Каракалпакстана в 1960–1980-х годах. Анализируются процессы укрупнения колхозов, создание совхозов, развитие хлопководства и рисоводства, а также последствия механизации и химизации сельского хозяйства. Вместе с тем выявляются негативные социальные и экологические последствия монокультуры хлопка и чрезмерного применения химических средств.*

Ключевые слова: *Каракалпакстан, аграрные реформы, колхозы, совхозы, хлопководство, рисоводство, механизация, химизация, монокультура, экология.*

Abstract: *The article examines the agrarian transformations in Karakalpakstan during the 1960s–1980s. It analyzes the consolidation of collective farms, the establishment of state farms, the development of cotton growing and rice cultivation, as well as the impact of mechanization and chemicalization in agriculture. Also reveals negative social and environmental consequences of cotton monoculture and the excessive use of chemical substances.*

Keywords: *Karakalpakstan, agrarian reforms, collective farms, state farms, cotton cultivation, rice cultivation, mechanization, chemicalization, monoculture, ecology.*

Kirish. 1960-yillardan boshlab Qoraqalpog‘istonda qishloq xo‘jaligi sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga jshirila boshladi. Ushbu islohotlar markaziy hokimiyatning qat’iy rejalashtiruvi va agrar sektorni intensifikatsiya qilish maqsadlari asosida amalga oshirildi. Boshlang‘ich maqsad – paxtachilikni respublikaning asosiy iqtisodiy yo‘nalishiga aylantirish, shu orqali davlat rejalari va eksport ehtiyojlarini ta’minlash edi. 1960-yillarda paxta maydonlari sezilarli darajada kengaydi va bu ko‘p jihatdan yangi yerlarni o‘zlashtirish hamda irrigatsiya tarmog‘ini qayta qurish natijasi hisoblanadi.

Shu bilan birga, bunday monokultura nafaqat yerning tabiiy hosildorligini kamaytirdi, balki bioxillikning pasayishi va ekologik muammolarni ham keltirib chiqardi. Bu davrda qishloq xo‘jaligini intensifikatsiya qilish maqsadida mexanizatsiyalash va kimyolashtirish keng yo‘lga qo‘yildi. Mineral o‘g‘itlar va pestitsidlarning keng qo‘llanilishi qator ijobiy natijalar bersa-da, ularning nazoratsizligi yer, suv va havo resurslarining ifloslanishi, aholi sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan tavsiflandi.

Asosiy qism. Islohotlar doirasida eng birinchi qadam – kolxozlar va sovxozlarni qayta tashkil etish bo‘ldi. 1957-yilda Qoraqalpog‘istonda iqtisodiy jihatdan samarasiz deb topilgan 119 kolxoz 25 sovxozga aylantirildi. Bu asosan Kegeyli, Chimboy, Qo‘ng‘irot va Taxtako‘pir tumanlariga taalluqli bo‘lib, maqsad – paxta ishlab chiqarish samaradorligini oshirish edi[1:22]. Keyinchalik 1960-yillarda kolxozlarning soni 410 dan 200 taga qisqartirildi va ularning maydonlari o‘rtacha 883 gektarni tashkil etdi. Bungacha uning umumiy maydoni 364 gektar bo‘lgan[2:288]. Biroq, kolxozlarning yiriklashtirilishi aholi uchun qiyinchiliklar tug‘dirdi, chunki odamlarni uzoq masofadagi qishloqlardan katta markaziy posyolkalarga ko‘chirish kerak edi. Bu esa ularning psixologiyasi va mehnat samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Mexanizatsiyaning keng qo‘llanilishi yerga ishlov berishni tezlashtirib, mehnat sarfini kamaytirdi. Misol uchun, 1932-yilda Qoraqalpog‘istonda traktorlar soni 279 ta bo‘lgan bo‘lsa, 1967-yilda bu ko‘rsatkich 13 388 taga yetdi. Shuningdek, 300 ta don terib oluvchi kombayn, 2000 dan ziyod paxta terib oluvchi mashinalar, 932 ta qurak teruvchi mashinalar va 1522 ta yuk avtomobillari qishloq xo‘jaligi samaradorligini sezilarli darajada oshirdi[3:89].

Paxta maydonlari 1968-yilda 1913-yilga nisbatan taxminan yigirma barobar ko‘paydi. Bu esa nafaqat yerlarni kengaytirish, balki irrigatsiya tarmog‘ini samarali qayta qurish va texnikani keng qo‘llash bilan ta’minlandi. Shu bilan birga, respublikaning paxta ishlab chiqarishida o‘zgarishlar kuzatildi: 1958-yilda respublikada 193 ming tonna paxta topshirilgan bo‘lsa, 1965-yilda bu ko‘rsatkich

260 ming tonnaga yetdi. Shuningdek, 1959–1965-yillarda davlatga 1,558 mln tonna paxta topshirildi[2:292-293]. Ammo paxta maydonlarini kengaytirish boshqa qishloq xo‘jalik ekinlarining rivojlanishiga salbiy ta’sir qildi, bir tomonlama rivojlanish kuzatildi.

Suv xo‘jaligi va irrigatsiya tizimini rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. 1962–1965-yillarda Kattag‘ar va Begjap nasos stansiyalarini qurish va kanallar rekonstruksiyasi orqali paxta va sholi maydonlarini suv bilan ta’minlash ishlari olib borilib[4:255-256], 23 ming gektar yangi yerlar qishloq xo‘jaligi aylanmasiga kiritildi. 1966–1970-yillarda suv xo‘jaligi ishlariga 125,1 mln rubl sarflandi, bu esa 1959–1965-yillardagi 29,5 mln rublga nisbatan katta ko‘rsatkichdir. Jami 166 km uzunlikdagi Suenli, Kuanish jarma, Kegeyli va Yeshimo‘zak kanallari qayta tiklanib, magistral kanallarning quvvati soniyasiga 300 m^3 dan 560 m^3 gacha oshirildi[5:54]. Bu esa suv resurslarini samarali taqsimlashga imkoniyat berdi. Biroq, bu davrda Orol dengizi oqimining pasayishi kuzatildi, olimlar va ekologlar bu haqda bir necha bor ogohlantirgan bo‘lsa-da, yechimiga e’tibor qaratilmadi.

1960–1970-yillarda sholikorlik respublikaning asosiy qishloq xo‘jaligi yo‘nalishiga aylandi. 1962–1965-yillarda 7,5 ming gektar yangi yerlardan sholi yetishtirish uchun foydalanildi va 8 ta ixtisoslashtirilgan sovxoz va 1 ta kolxoz tashkil etildi[2:293]. 1970-yilga kelib sholi maydonlari 60 gektarga yetdi, umumiy qishloq xo‘jaligi yerlari esa 203 ming gektarni tashkil etdi[2:295]. Bu davrda 43 ta kolxoz va 38 ta sovxoz paxta yetishtirishga, 23 ta sovxoz sholi yetishtirish, 7 tasi sabzavot, poliz ekinlari va kartoshka yetishtirish, yana 7 tasi meva va uzum yetishtirishga ixtisoslashgan edi. 20 ta chorvachilik sovxozidan 14 tasi go‘sht, 2 tasi sut, 8 tasi qorako‘l, 2 tasi asalarichilik, 1 tasi esa parrandachilik yo‘nalishida faoliyat yuritgan[1:21]. Respublikaning asosiy ekinlari – paxta, sholi, sabzavot, kartoshka, mevalar va chorvachilik bo‘lib, ularning maydonlari va mahsuldorligi doimiy o‘sish ko‘rsatdi. Yalpi sholi hosili 1965-yilda 25,6 ming tonna bo‘lgan bo‘lsa, 1970-yilda 39,1 ming tonnaga yetdi va 1980-yilda 281,8 ming tonnaga chiqdi[1:48]. Hosildorlik

ham o‘zgaruvchan bo‘lib, 1971–1975-yillarda yillik o‘rtacha 32,6 s/ga, 1976–1980-yillarda 45,3 s/ga, 1981–1985-yillarda 34,6 s/ga ni tashkil etdi[6:10].

Biroq, agrar sektorning monoixtisoslashuvi, asosan paxta va sholiga qaratilgani, boshqa oziq-ovqat va ozuqa o‘simliklari rivojlanishiga to‘siq bo‘ldi. Masalan, beda ekish maydonlari sezilarli darajada qisqardi va 1955 yilda beda hosili rejadagi 60 sentner/ga o‘rniga 18 sentner/ga bajarilgan[3:112]. 1956 yilda esa maydonlar deyarli yarmidan ham kamaydi va faqat 16,4 tonna urug‘ to‘plandi. Bu esa o‘z navbatida oziq-ovqat ta’minotida qiyinchiliklarni keltirib chiqardi va chorvachilikka salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

1965–1985-yillarda davlat hissasi bilan yangi yerlar aylanmaga kiritildi, sovxoz va davlat qishloq xo‘jaligi komplekslari tez sur’atda rivojlanib, soni besh baravarga ko‘paydi. 1983-yilga kelib sovxozlar soni 127 taga yetdi va ular 302,6 mln rubllik mahsulot ishlab chiqardi[1:26]. Bu davrda kolxoz va sovxozlar orasida texnik va resurs jihatdan nomutanosibliklar hali ham saqlanib qoldi. Kolxozlar sovxozlardan zamonaviy texnikalar va yuqori samarali mashina jihozlari bo‘yicha orta qoldi, shuning uchun ularning samaradorligi pastroq bo‘lib qoldi. Mexanizatsiya va texnologiyalar keng qo‘llanilishi natijasida kolxozlarda mehnat unumdorligi oshdi, kolxoz qishloq aholisining soni qisqardi, 1979 yilda kolxozchilar ulushi 14,6% ga tushdi, shu bilan birga malaka va madaniy darajasi yuqori bo‘lgan ishchilar soni 60,1% ni tashkil qildi[8:47].

1984-yildan boshlab, Qoraqalpog‘istonda qishloq xo‘jaligi rivojlanishida to‘siq va ziddiyatli jarayonlar kuzatildi. Ko‘plab islohotlar, yuqori malakali kadrlarni jalb qilish va ilmiy-texnik progressga e’tibor qaratilishiga qaramay, boshqaruvdagi kamchiliklar va demografik hamda ekologik muammolar qishloq xo‘jaligi rivojlanishini sekinlatdi. 1976–1980-yillarda mahsulot o‘sishi 21% bo‘lgan bo‘lsa, 1981–1985-yillarda 9% va 1986–1990-yillarda 6% ga tushdi. Bu ko‘rsatkichlar, davlat investitsiyalari va texnik yangilanishga qaramay, samaradorlikning pastligini ko‘rsatdi[9:30].

Xulosa qilib aytganda, 1960–1980-yillarda Qoraqalpoqstondagi agrar islohotlar ko‘p qirrali va ziddiyatli jarayon edi. Davlat rejalashtirishi va paxta monokulturasi davlat vazifalarini bajarishni ta’minlasa-da, yer degradatsiyasi, bioxillikning pasayishi va ekologik muammolarni keltirib chiqardi. Mexanizatsiyalash va kimyolashtirish mehnat samaradorligini oshirsa-da, kimyoviy moddalarning nazoratsiz qo‘llanilishi salomatlik va atrof-muhit uchun xavfli bo‘ldi. Kolxoz va sovxozlarning qayta tashkil etilishi ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarga olib keldi, biroq aholini ko‘chirish va moslashishda qiyinchiliklar yuzaga keldi. Ixtisoslashtirilgan paxta va sholi maydonlari boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari rivojlanishiga to‘siq bo‘ldi va oziq-ovqat ta’minotida kamchiliklar yuzaga keltirdi.

Shu bois, Qoraqalpoqstondagi agrar sektordagi islohotlar mamlakat iqtisodiyotida muhim rol o‘ynasa-da, ko‘plab ekologik, ijtimoiy va samaradorlik muammolari yechim topmagan holda qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. **Шамамбетов Б.** Аграрное развитие Республики Каракалпакстан в 1965–1986 гг.: опыт и проблемы. – Нукус, 2015.
2. **Қарақалпақстан XIX әсирдиң екинши ярымынан XXI әсирге шекем.** – Нөкис, 2003.
3. **Экономическое преобразование Каракалпакии за годы советской власти.** – Нукус, 1969.
4. **Сарыбаев К.** История орошения Каракалпакстана. – Нукус, 1995.
5. **Бекимбетов А.** Сельское хозяйство Каракалпакии в годы второй пятилетки // Вестник ККФАНУз. – 1975. – № 1.
6. **Народное хозяйство Узбекской ССР в 1985 году.** – Ташкент, 1986.
7. **Народное хозяйство Каракалпакской АССР за 60 лет.** – Нукус, 1984.

8. **Молдахметов К. М.** Колхозное крестьянство Каракалпакской АССР в период развитого социализма // Вестник ККФАНУз. – 1983. – № 2.
9. **Советское общество 70-е годы: опыт, проблемы.** – Москва: Наука, 1988.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI PSIXOLOGLARIDA KASBIY KOMPETENTLIK

Turg‘unov Naufal Shuhrat o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Annotatsiya: *Maqolada ichki ishlar organlari tizimida faoliyat yurituvchi psixologlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Psixolog kadrlarga qo‘yiladigan kasbiy talablar, kompetentlikning tarkibiy qismlari, uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik, psixologik va tashkiliy mexanizmlar ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, xizmat jarayonida uchraydigan ekstremal va stress omillarga mos ravishda psixologlarni tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari bayon etilgan.*

Аннотация: *В статье освещается вопрос развития профессиональной компетентности психологов, работающих в системе органов внутренних дел. Научно проанализированы профессиональные требования, предъявляемые к кадровым психологам, составляющие элементы компетентности, а также педагогические, психологические и организационные механизмы, способствующие её развитию. Кроме того, изложены современные подходы к подготовке психологов с учётом экстремальных и стрессовых факторов, возникающих в процессе службы.*

Annotation: *The article discusses the development of professional competence among psychologists working within the internal affairs system. It*

provides a scientific analysis of the professional requirements for psychological personnel, the components of competence, and the pedagogical, psychological, and organizational mechanisms that contribute to its development. The article also presents modern approaches to training psychologists in accordance with the extreme and stressful factors encountered in the course of service.

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetentlik, psixolog, ichki ishlar organlari, stress-menejment, kommunikativ kompetensiya, ekstremal psixologiya.*

Kirish. Ichki ishlar organlari faoliyati jamiyat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarni oldini olish va jamoat tartibini saqlash kabi strategik vazifalarni bajaradi. Bu jarayonda psixologlarning o‘rni tobora ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ichki ishlar xodimlari doimo stress, xavf, ekstremal vaziyatlar va yuqori emotsional zo‘riqish sharoitida ishlaydi. Psixolog xodimlarning ruhiy barqarorligini ta’minlash, jamoada sog‘lom muhit yaratish, xavfli vaziyatlarni oldini olish va tezkor qaror qabul qilish jarayonlariga yordam beradi. Shu bois, ichki ishlar organlari psixologlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish dolzarb va strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Asosiy qism. Psixologning kasbiy kompetentligi — bu uning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, shaxsiy sifatlari, kasbiy etika va ichki ishlar organlari faoliyatiga mos psixologik tayyorgarlikni o‘z ichiga olgan integral tuzilma hisoblanadi [1].

Kasbiy kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari:

1. Psixodiagnostik kompetentlik. Xodimlarning emotsional holati, stressli vaziyatlar, shaxsiy xususiyatlarni baholash qobiliyati.

2. Psixokorreksion kompetentlik. Qiyin holatdagi xodimlar bilan ishlash, krizis intervensiya, relaksatsiya va stressni kamaytirish metodlarini qo‘llash.

3. Kommunikativ kompetentlik.Ishonchli muloqotni yo‘lga qo‘yish, agressiv yoki depressiya holatidagi shaxs bilan muloqot olib borish, konfliktni boshqarish.

4. Ekstremal psixologiya bo‘yicha kompetentlik.Favqulodda vaziyatlarda psixologik yordam ko‘rsatish, tezkor qaror qabul qilishda xodimlarga ko‘maklashish.

5. Emotsional-irodaviy barqarorlik. Psixologning shaxsiy stressga chidamliligi, murakkab vaziyatlarda o‘zini qo‘lga ola olishi.

6. Refleksiv kompetentlik. O‘z faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va professional o‘sishga intilish.

Psixologlarni tayyorlash jarayonida maxsus modullar — ekstremal psixologiya, stress-menejment, muzokaralar psixologiyasi kabi yo‘nalishlar alohida o‘rgatiladi. Bunday yondashuv nazariy va amaliy bilimlarni tizimli ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi. Keys-stadi, situativ mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar va voqealar modellashtirish psixologning real xizmat sharoitida to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Psixolog har bir ish jarayonidan keyin o‘z faoliyatini tahlil qilib, xulosa chiqarib borishi kasbiy o‘sish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Debatlar, guruhiy tahlil, treninglar va simulyatsiyalar orqali kommunikativ va vaziyatni boshqarish ko‘nikmalari takomillashadi [2].

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.

Kasbiy identifikatsiyani shakllantirish. Psixolog o‘zining ichki ishlar tizimidagi o‘rni, vazifalari va mas’uliyatini anglagan paytdan boshlab kasbiy takomuli tezlashadi [3].

Emotsional barqarorlikni rivojlantirish. Meditatsiya, avtotrening, mayndfulness, stress-menejment usullari psixologning barqarorligini ta’minlaydi.

Kommunikativ qobiliyatlarni kuchaytirish. Qiyin sub’ektlar bilan muloqot, muzokara psixologiyasi, konfliktlarni bartaraf etish texnikasi kasbiy samaradorlik uchun muhim.

Kognitiv-povedencheskiy mexanizmlar. Psixolog mijozining fikrlash jarayonlarini anglash, xatolarini to‘g‘irlash va pozitiv xulqni shakllantirishga yo‘naltirilgan usullardan foydalanadi.

Sotsial-psixologik mexanizmlar

Mentoring va superviziya. Tажribali psixologlar tomonidan yosh mutaxassislarga ko‘rsatiladigan metodik yordam kasbiy kompetentlikni tez rivojlantiradi.

Kasbiy sotsializatsiya. Ichki ishlar tizimidagi korporativ madaniyat, xizmat intizomi va jamoaviy munosabatlarga moslashuv psixologning faoliyati samaradorligini oshiradi.

Psixologik xavfsizlik muhitini yaratish. Jamoada ishonchli va ochiq muloqot muhiti xodimlar bilan ishlash samaradorligini oshiradi.

Tashkiliy mexanizmlar.

Malaka oshirish va qayta tayyorlash. Psixologlarni muntazam ravishda qayta tayyorlash, seminar va treninglarda ishtirok ettirish zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirishga imkon beradi.

Ish samaradorligini muntazam monitoring qilish. Psixolog faoliyatining natijadorligi, xodimlar qoniqish darajasi va stress indekslari tahlil qilinib boriladi.

Ilmiy-amaliy hamkorlik. Oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar va xorijiy ekspertlar bilan hamkorlik innovatsion texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi.

Ichki ishlar organlari psixologlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish ko‘p omilli, kompleks va uzluksiz jarayondir. Pedagogik, psixologik va tashkiliy mexanizmlarning birgalikda qo‘llanilishi psixologlarning xizmat faoliyatiga tayyorgarligini oshiradi, ekstremal vaziyatlarda samarali ish yuritish imkonini beradi, jamoada sog‘lom psixologik muhitni ta’minlaydi. Psixologning yuqori

professional kompetentligi ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligi va jamiyat xavfsizligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Абдуллаева Г.** Касбий компетентлик асослари. – Тошкент: Фан, 2020.
2. **Ахмедов Ж.** Психология фаолиятининг асосий тамойиллари. – Тошкент: Университет, 2019.
3. **Очилов У.** Экстремал психология асослари. – Тошкент: Маънавият, 2018.
4. **Исломов М.** Ички ишлар органларида хизмат психологияси. – Тошкент: Юридик нашр, 2022.
5. **Матякубов А.** Кризис ҳолатларда психологик ёрдам кўрсатиш амалиёти. – Самарқанд, 2020.
6. **Петров В. А.** Психология служебной деятельности сотрудников органов внутренних дел. – Москва: Юрайт, 2019.
7. **Дьяченко М. И., Кандыбович Л. А.** Психология деятельности и готовности специалиста. – Минск, 2017.
8. **Карамова Н.** Профессиональная компетентность психолога как фактор эффективности деятельности. – Тошкент, 2019.
9. **Усмонов Д.** Хавфли вазиятларда мулоқот психологияси. – Тошкент: Фан, 2021.

AYOL OLIMLARNING PROFESSIONAL KARYERASINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY–PSIXOLOGIK OMILLARNING ROLI

Axmedova Maysara Baxromovna

Urganch innovatsion universiteti

Annotasiya: *Ushbu maqola ayol olimlarning ilmiy faoliyatdagi professional karyerasini shakllantirishga ta’sir qiluvchi ijtimoiy va psixologik omillar tahlil qilingan. Tadqiqotlar oila qo‘llab-quvvatlashi, akademik jamoa muhiti, motivatsiya darajasi va stressga chidamlilik kabi omillarning ilmiy yutuqlar va karyera o‘sishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *ayol olim, ilmiy karyera, motivatsiya, psixologik omillar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, akademik muhit, stressga chidamlilik, gender tengligi.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы социальные и психологические факторы, влияющие на формирование профессиональной карьеры женщин-учёных в научной деятельности. Исследование рассматривает, каким образом семейная поддержка, академическая среда, уровень мотивации и стрессоустойчивость воздействуют на научные достижения и карьерный рост. Также проведён сравнительный анализ опыта развитых и развивающихся стран в вопросах продвижения женщин в научной сфере.*

Ключевые слова: *женщина-учёный, научная карьера, мотивация, психологические факторы, социальная поддержка, академическая среда, стрессоустойчивость, гендерное равенство.*

Abstract: *This article analyzes the social and psychological factors that influence the development of women scientists’ professional careers in academic research. The study examines how family support, academic environment, motivation level, and stress resilience affect scientific achievements and career advancement. It also provides a comparative review of the experiences of developed and developing countries in promoting women’s participation and progress in the scientific sphere.*

Keywords: *woman scientist, scientific career, motivation, psychological factors, social support, academic environment, stress resilience, gender equality.*

KIRISH

Zamonaviy ilm-fan jamiyat taraqqiyotining asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Ayol olimlarning professional rivojlanishi esa ilmiy salohiyatni to‘liq amalga oshirish va ilmiy yutuqlarni oshirish bilan chambarchas bog‘liq. Biroq ko‘plab mamlakatlarda ayol olimlar ilmiy faoliyatda erkaklar bilan teng sharoitlarga ega bo‘la olmaydi, bu esa ularning karyera o‘sishiga to‘sqinlik qiluvchi omillarning mavjudligini ko‘rsatadi.

ASOSIY QISM

Ayol olimlar karyerasiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillardan biri bu — ilmiy motivatsiyadir. Ayol olimning ilmiy izlanishlarga qiziqishi va ichki motivatsiyasi uning professional rivojlanishi uchun asosiy vosita hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, motivatsiya yuqori bo‘lgan ayollar murakkab ilmiy loyihalarda faol ishtirok etadi va yetakchilik lavozimlariga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Oila a’zolari, yaqin do‘stlar va ilmiy rahbarlarning qo‘llab-quvvatlashi ayol olimning ilmiy faoliyatdagi muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshiradi. Uy sharoiti va ish o‘rtasida muvozanat saqlash karyera rivojlanishida muhim omildir. Bundan tashqari akademik jamoada tan olinishi, nufuzli jurnallarda maqolalar chop etilishi va konferensiyalarda ishtirok etish ayol olimning karyera o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jamoa qo‘llab-quvvatlashi va ilmiy sheriklik imkoniyatlari ilmiy salohiyatni oshiradi [2.45]. O‘ziga ishonch darajasi yuqori bo‘lgan ayollar ilmiy loyihalarda yetakchilik qilishga tayyor bo‘ladi. O‘ziga nisbatan past baholash ilmiy yutuqlarga erishishda to‘siq bo‘lishi mumkin. Olim ayollar uchun ilmiy sheriklik — bu nafaqat ilmiy natijalarni oshirish vositasi, balki ijtimoiy kapitalni kengaytirishning samarali yo‘lidir. Ilmiy hamkorlik:qo‘shma tadqiqotlar, konferensiyalarda ishtirok, qo‘shma maqolalar va grant loyihalar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ayollar ilmiy sheriklik orqali ilmiy maydondagi ko‘rinuvchanligini oshiradi, professor-o‘qituvchilar va laboratoriya tarmoqlariga kirish imkoniyatlari kengayadi. Bu esa o‘z navbatida ularning ilmiy reytingini, iqtiboslar sonini va ilmiy nufuzini oshiradi. Ko‘plab ilg‘or universitetlarda olim

ayollarni qo‘llab-quvvatlash uchun mentorlik dasturlari ishlab chiqilgan. Mentorlar: ilmiy strategiyalarni rejalashtirish, maqola yozish va nufuzli jurnallarga yuborish, grant loyihalarini tuzish, kasbiy stressni boshqarish kabi yo‘nalishlarda yordam beradi. Ayol mentorlar mavjudligi yosh ayol tadqiqotchilar uchun ayniqsa motivatsion ahamiyatga ega, chunki ular “rol modeli” sifatida ilmiy kareraning real imkoniyat ekanini namoyish etadi. Ilmiy izlanishlar jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va vaqt yetishmovchiligi bilan kurashish qobiliyati ayol olimning professional o‘sishida muhim hisoblanadi. Bundan tashqari samarali akademik muhit – bu ilmiy xodimlarning fikrlari qadrlanadigan, tashabbuslari rag‘batlantiriladigan va genderdan qat’i nazar teng imkoniyatlar yaratiladigan makondir. Bunday sharoitda ayol olim o‘z bilim va g‘oyalarini bemalol ilgari surishi, izlanishlarini erkin davom ettirishi mumkin. Aksincha, adolatsiz baholash, norasmiy gender stereotiplari yoki jamoaviy qo‘llab-quvvatlashning sustligi ayol tadqiqotchilarning ilmiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Ayollarni ilmiy grantlar va resurslar bilan ta’minlash ularning tadqiqotlar sifatini oshiradi va karyera o‘sishini tezlashtiradi [4.56]. Rivojlangan davlatlar Skandinaviya davlatlarida ilmiy tashkilotlarda gender tengligi yuqori darajada amalga oshirilgan. Ayollar ilmiy lavozimlarning 40–50% ini egallaydi [6.30]. AQSh va Kanadada magistratura va doktoranturada ayollar soni barqaror ravishda oshib bormoqda. Germaniyada STEM yo‘nalishida ayollar ulushi har yili ortmoqda (muhandislik, IT, texnologiya sohalarida). Ta’limdagi bu yutuqlar ayollarning yuqori malakali ish o‘rinlariga kirib borishini tezlashtirdi. Ayollar karyerasini rivojlantirish, ayniqsa ilmiy-akademik sohada, individual psixologik resurslar bilan bir qatorda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimlariga ham bevosita bog‘liq. Shulardan eng muhimlari — moslashuvchan ish grafigi va onalik ta’tili hamda unga qaytish mexanizmlarining rivojlanganligidir. Bu ikki omil ayol tadqiqotchilarning ilmiy faoliyatini uzluksiz davom ettirish, ruhiy barqarorlikni saqlash va karyera uzilishlarining oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.Moslashuvchan ish grafigi — bu ayollarga uy-ro‘zg‘or ishlari, bolalar parvarishi, oilaviy mas’uliyatlar va ilmiy tadqiqotlarni bir vaqtning o‘zida

muvozanatlashtirishga yordam beradigan eng samarali mexanizmlardan biridir. Akademik sohada moslashuvchanlik quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

-masofadan turib ilmiy tadqiqot olib borish,

-kutubxona va laboratoriya resurslaridan moslashtirilgan vaqtda foydalanish,

-dars yuklamasini vaqtinchalik kamaytirish,

-grant loyihalarida masofaviy ishtirok etish,

-taqvimiy yuklamani o‘qituvchining individual holatiga moslashtirish.

Ilmiy tashkilotlarda moslashuvchan grafik va onalik siyosati bir-biri bilan integratsiya qilinsa, ayollar uchun quyidagi ustunliklar vujudga keladi:

-ilmiy loyihalarda uzluksiz ishtirok,

-dissertatsiya va tadqiqotlarni belgilangan muddatlarda tugatish imkoniyati,

-stress darajasining pasayishi va ish samaradorligining oshishi,

-akademik o‘sishdagi gender tafovutining kamayishi.

Shu sababli ko‘plab rivojlangan mamlakatlar universitetlari “family-friendly university” modelini joriy qilgan. Bu modelga ko‘ra, ilmiy muassasa ayollarni ilmiy faoliyatdan uzilmaslik uchun maxsus imtiyozlar yaratadi: bolalar bog‘chasi, qisqa muddatli ish vaqti, tadqiqot grantlariga ona tadqiqotchilar uchun alohida kvotalar va boshqalar. Bunday imkoniyatlar ayollarni “karyera yoki oila” dilemma-sidan chiqarib, ularning ikki tomonlama roli — olim va ona sifatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga zamin yaratadi. Psixologiyada bunga rol moslashuvchanligi (role flexibility) deyiladi; bu shaxsning turli ijtimoiy rollarni bir paytning o‘zida samarali bajara olishidir. Moslashuvchan grafik rollar to‘qnashuvini kamaytirib, ayolning ruhiy mehnat sig‘imini oshiradi.

Tilshunoslikda tibbiy muloqot so‘nggi yillarda alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, tibbiy diskurs tushunchasining mazmuni kengaymoqda. Tibbiy diskurs – bu shifokor va bemor o‘rtasidagi ijtimoiy, psixologik hamda lingvistik jihatdan murakkab bo‘lgan kommunikativ jarayondir. Tibbiy diskursning mazmuniy tuzilishi ko‘plab voqealantiruvchi leksik birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Bunday birliklar kasallikning kechishi, tashxis qo‘yish, davolash jarayonlari, sog‘ayish yoki og‘ir holat kabi voqealarni aks ettirib, diskursning semantik asosini tashkil etadi.

Formanovskayaning ta’kidlashicha, “shifokorlik – lingvistik faol kasbdir” [Formanovskaya, 1998, 29-bet]. Bu fikr tibbiy diskursning faqat biologik yoki texnik jarayon emas, balki kommunikativ hodisa ekanini ko‘rsatadi. Shifokor nutqi bemor bilan muloqotda shifobaxsh ta’sir ko‘rsatishi, bemorning ruhiy holatini barqarorlashtirishi va ishonch uyg‘otishi mumkin. N.A. Dzaraeva va R.A.

[74] TIBBIY DISKURSDA GENDERGA XOS TIL VOSITALARI VA DIAGNOSTIKYONDASHUVLAR, Pulatova Dilafruz Toxirjonovna. ISSN: 3030-3931, Impact factor: 7,241 Volume 8, issue1, https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi

Rogojnikovaning fikricha, XIX asr psixiatrlari (I.E. Dyadkovskiy, G.A. Zaxaryin) “axloqiy ishonch kuchi davolash jarayonining muhim tarkibiy qismi” deb hisoblaganlar. Keyinchalik XX asr klinitsistlari (N.N. Bloxin, A.R. Luriya, T.S. Chadov) shifokor va bemor o‘rtasidagi murakkab muloqot jarayonida yangi turdagi munosabatlar shakllanishini ilmiy asoslab berganlar [Dzaraeva, Rogojnikova, 2016].

V.V. Juraning fikricha, ayni paytda shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqotning ahamiyati shunchalik ortganki, ayrim Amerika va Britaniya tibbiyot universitetlarining o‘quv dasturiga tibbiy maslahat davomida kommunikatsiyani tashkil etish bo‘yicha kurslar kiritilgan (Cegala, 2003; Evans, 1987). Shu bilan birga, rus tilshunosligida og‘zaki tibbiy diskurs faqat so‘nggi yillarda tadqiqot obyekti sifatida shakllanmoqda. Asosiy e’tibor lingvopragmatik, kognitiv va terminologik masalalarga qaratilgan bo‘lib, bu tibbiy diskursning murakkab tabiatini to‘liq yoritib bera olmaydi [Zhura, 2013]. Shu bois tibbiy diskursni voqealantiruvchi leksik birliklar semantikasi nuqtayi nazaridan tahlil qilish, ya’ni tibbiy nutqdagi jarayon, holat va natijani ifodalovchi so‘zlarning ma’no tizimini o‘rganish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Bu nafaqat tibbiy kommunikatsiyaning samaradorligini oshiradi, balki tibbiy terminologiyaning semantik tuzilishini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Shifokor va bemor o‘rtasida axborot almashish ikki tomonlama jarayon bo‘lib, bunda bemor yetkazayotgan axborot tahlil qilinadi, o‘rganiladi, mulohaza qilinadi, shifokorning vaziyatga oid mushohadalariga aniqlik kiritadi yoki bevosita qabul qilinadi. Muloqot jarayonida shifokorlar tashxis qo‘yish uchun bemorlaridan qancha ko‘p ma'lumot olishsa, uning aniqlik darajasi shuncha yuqori bo‘ladi. Buning uchun bemorlar ham qayd etilganidek, o’z tibbiy bilimiga tayangan holda muloqot qilish tajribasiga ega bo’lishi talab etiladi[75]. Bunda voqealarni, jarayonlarni va holatlarni

[75] TIBBIY DISKURSGA XOS BO‘LGANKASBIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA. Yorova Sayyora Karimovna, Hasanova Fariza Olimovna. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND MANAGEMENT STUDIES

aks ettiruvchi **voqealantiruvchi til birliklari** muhim rol o‘ynaydi. Ular tibbiy hodisalarni semantik jihatdan ifodalab, diskursning mazmuniy tuzilmasini shakllantiradi.

Tibbiy diskurs o‘z tabiatiga ko‘ra **institutsional (statusga asoslangan)** nutq turi hisoblanadi. Bu holat uning ishtirokchilarining kommunikativ rollari bilan belgilanadi: “shifokor – bemor”, “shifokor – tibbiyot xodimi”, “shifokor – bola yoki bolaning ota-onasi” kabi muloqot modellari bunga misol bo‘la oladi. Har bir muloqot turi ishtirokchilarning ijtimoiy mavqeiga, nutqiy kompetensiyasiga va kommunikativ maqsadiga ko‘ra farqlanadi.

V.V. Jura ta’kidlaganidek, tibbiy diskursning muhim jihati — unda kommunikativ rollar va ularni belgilovchi til birliklarining tizimliligidir. Shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqot jarayoni nafaqat informatsion almashinuv, balki psixologik, ijtimoiy va axloqiy komponentlarni ham qamrab oladi (Жура, 2018).

Tibbiy diskurs, V.I. Karasik (2002) ta’riflaganidek, “institutsional diskursning bir ko‘rinishi bo‘lib, unda kommunikatsiya qat’iy ijtimoiy rollar va kasbiy me’yorlar bilan cheklanadi”. Shu sababli, tibbiy muloqot strukturaviy jihatdan aniq tashkil etilgan bo‘ladi va uning amalga oshishida kasbiy til vositalari, terminologik birliklar hamda nutq etiketi muhim o‘rin tutadi.

Tibbiy diskursning voqealanishida ishlatiladigan til birliklari — diagnostik, tavsiflovchi, maslahat beruvchi, empatik va baholovchi semantik komponentlarga ega bo‘lgan ifodalar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, shifokor nutqida “Sizning holatingiz biroz yaxshilangan”, “Davolanish jarayoni ijobiy kechmoqda”, “Sizga tavsiya qilaman...” kabi ifodalar muloqotning kasbiy va hissiy jihatlarini uyg‘unlashtiradi.

Shanina (2015)ning ta’kidlashicha, tibbiy sohadagi kasbiy muloqot maqsadiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi: **asosiy, yordamchi, okazional va fatik turlar**.

Shu bois tibbiy diskursda kommunikativ niyatlar (nutqiy intensionsiyalar) ham ushbu maqsadlarga muvofiq tarzda shakllanadi.

Asosiy kommunikatsiya shifokorning bevosita kasbiy faoliyati – ya'ni bemorni tekshirish, tashxis qo'yish va davolash jarayonida amalga oshadi. Bu turdagi muloqotda axborot almashinuvi kasbiy maqsad bilan bevosita bog'liq bo'lib, axborot yig'ish va aniqlashtirish funksiyasini bajaradi. Masalan: *"Qanday shikoyatlaringiz bor?", "Og'riq qayerda va qanday xarakterda?"* kabi ifodalar bu turdagi nutqqa xosdir.

Yordamchi kommunikatsiya esa shifokorning kasbdoshlari yoki bemorning yaqinlari bilan axborot almashish jarayonida yuz beradi. U, odatda, kasbiy maslahatlarga, tibbiy qarorlarni muhokama qilishga yoki rozilik olishga qaratilgan bo'ladi. Masalan: "*Hamkasb, bu simptomatik holat sabablari haqida sizning fikringiz muhim bo'ladi.", "Operatsiya uchun bemorning yaqinlarining roziligi zarur."*

Okazional kommunikatsiya — bu nutqiy o'zaro ta'sirning qisqa, tizimga kirmagan shakli bo'lib, ko'pincha operatsion jarayon davomida yoki tezkor harakatlarni muvofiqlashtirish paytida qo'llaniladi. U kesik, amaliy buyruq shaklida namoyon bo'ladi: *"Skalpel!", "Pintset!", "Puls!"* kabi.

Fatik kommunikatsiya esa, asosan, bemorni ruhiy bosimdan, tashvish yoki qo'rquv holatidan chalg'itishga qaratilgan. Bu turdagi muloqotda shifokor mehribon, tinchlantiruvchi, empatik nutq vositalaridan foydalanadi. Uning maqsadi – bemorda ishonch va ijobiy hissiy holatni shakllantirishdir. Masalan: "Hammasi yaxshi bo'ladi.", "Ko'rmaganday bo'lasiz.", "Bu oddiy protsedura, qo'rqmang."

Xulosa

Tibbiy diskursdagi kommunikativ jarayonlar kasbiy maqsad, vaziyat va ishtirokchilar roliga ko'ra farqlanadi. Har bir tur o'ziga xos semantik va pragmatik xususiyatlarga ega bo'lib, ular tibbiy muloqotning samaradorligini, ishonchliligini

hamda bemor bilan o‘zaro tushunishni ta’minlaydi. Demak, tibbiy diskursni voqealantiruvchi til birliklarining semantikasi kasbiy kommunikatsiyaning pragmatik maqsadi, nutq ishtirokchilarining roli hamda muloqot sharoiti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tibbiy sohadagi axborot uzatish, tushuntirish, va ishonch uyg‘otish funksiyalarini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. **Dzaraeva N. A., Rogojnikova R. A.** *Lingvisticheskie aspekty meditsinskogo diskursa*. — Sankt-Peterburg, 2016.
2. **Formanovskaya N. I.** *Rechevoe obshchenie: kommunikativno-pragmaticheskiy podxod*. — Moskva, 1998.
3. **Karasik V. I.** *Yazykovoy krug: lichnost’, kontsepty, diskurs*. — Volgograd: Peremena, 2002.
4. **Shanina E. V.** *Kommunikativnye osobennosti professional'nogo meditsinskogo obshcheniya*. — Moskva: MGLU, 2015.
5. **Zhura V. V.** *Meditsinskiy diskurs kak vid institutsional'nogo obshcheniya*. — Tashkent, 2018.
6. **Pulatova Dilafruz Toxirjonovna.** Tibbiy diskursda genderga xos til vositalari va diagnostik yondashuvlar // *Yangi izlanishlar* ilmiy jurnali. — ISSN: 3030-3931. — Impact factor: 7.241. — 8-jild, 1-son.
   URL: https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi
7. **Yorova Sayyora Karimovna, Hasanova Fariza Olimovna.** Tibbiy diskursga xos bo‘lgan kasbiy va kommunikativ kompetensiya // *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies.*

SIROJIDDIN SAYYID SHE’RLARIDA METAFORANING QO’LLANISHI

Usmanova Shohida Shutbayevna

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti

Quvvatova D.H.

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti

Annotatsiya: *Adabiyotning asosiy vazifasi – insonni anglash, tarbiyalash, jamiyatga ta'sir ko'rsatishdir. Badiiy asar orqali yozuvchi yoki shoir o'zining dunyoqarashini, fikrini, hissiyotini ifodalaydi va o'quvchiga estetik zavq beradi. Mazkur tadqiqot jarayonida Sirojiddin Sayyid ijodida metafora tushunchasi va uning qo'llanilgan uslublari tahlil qilindi. Adabiy janrning yuragi metafora hisoblanishi ham o'rinlidir.*

Аннотация: *Основная задача литературы — понимать человека, воспитывать его и воздействовать на общество. Через художественное произведение писатель или поэт передаёт своё мировоззрение, мысли и чувства, даря читателю эстетическое наслаждение. В ходе данного исследования были проанализированы понятие метафоры и способы её использования в творчестве Сирожиддина Саида. Можно сказать, что метафора по праву считается сердцем литературного жанра.*

Abstract: *The main purpose of literature is to understand the human being, to educate, and to influence society. Through a literary work, a writer or poet expresses their worldview, thoughts, and emotions, giving the reader aesthetic pleasure. In this study, the concept of metaphor and the methods of its use in the works of Sirojiddin Sayyid were analyzed. It is fair to say that the metaphor is the very heart of the literary genre.*

Kalit so'zlar: *metafora nazariyasi, o'xshashlilik, badiiy adabiyot, metafora, istiora, jonlantirish, o'xshatish.*

Ключевые слова: *теория метафоры, сходство, художественная литература, метафора, иносказание, олицетворение, сравнение.*

Key words: *metaphor theory, similarity, fiction (literature), metaphor, allegory, personification, simile.*

KIRISH

Adabiy asarlarning badiiy jihatdan mukammal chiqishida tasviriy-ifodaviy vositalar ham ma’lum vazifa o’taydi. Bunday maxsus vositalar yordamida yozuvchi va shoirlar o’zlari tasvirlayotgan narsa-hodisalarning muayyan bir tomonini yoki belgisini aniq va qisqa xarakterlab berishga harakat qiladilar. Shunday tasviriy vositalar biri bu – metaforadir. Badiiy adabiyotda metafora – so’zning qiyofasini go’zallikka buruvchi, hissiyot va ma’noni boyituvchi badiiy vositadir. “Metafora – so’zning ruhini ochadigan sehrli kalitdir, u oddiy fikrni go’zal tasvirga aylantiradi.”

Asosiy qism. Metafora tushunchasi paydo bo’lgandan buyon, o’tgan ikki yarim ming yildan ziyod vaqt oralig’ida ushbu fanga bag’ishlangan juda ko’p tadqiqotlar amalga oshirilgan. Merafora masalasi antik davrdan boshlab o’rganilib kelinadi. Arastu bu atamani keng ma’noda qo’llagan. Faylasuf o’zining “Ritorika” asarida quyidagi fikrni ifodalaydi:

“Metafora yuksak darajadagi aniqlik, yoqimlilik va oxorlilik jozibasiga ega, undan o’rinli foydalanish nutqni bezaydi.” Metafora shunchaki badiiy vosita emas, balki inson ongining, obrazli tafakkurining muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi [1, 91].

“Metafora” atamasi ilk bor Izokrat tomonidan “Evagorus” asarida qo’llangan. Ko’chimning bu turi ikki narsa yoki hodisa o’rtasidagi har qanday jihatdan o’xshashlikka asoslanadi. Metaforik ma’nolar insonning tashqi ko’rinishiga, jismoniy va ruhiy holatiga, tana a’zolari harakatiga, hayot bosqichlariga, kiyim-kechaklari va ularning qismlariga asosan yuzaga kelishi mumkin [3, 34].

Metafora (istiora) – biror narsa, belgi yoki harakatning nomini o’zaro o’xshashligi bo’lgan narsa, belgi yoki harakatga ko’chirish, ya’ni yangi ma’no hosil qilish deyiladi. Metafora yopiq o’xshatish hisoblanadi. Oddiy o’xshatishda biror narsa-hodisa ikkinchisiga o’xshatiladi. Metaforada faqat ikki unsurning, ya’ni

o’xshatilgan narsa-hodisaning o’zi bo’ladi. Shunga ko’ra, metafora orqali o’xshagan narsa-hodisalar faraz qilish yo’li orqali tasavvur etiladi [2, 130].

Poetik asarlarda barcha majozlar kabi istiora ham narsa-hodisalarni aniq va ravshan, ta’sirchan, ohorli tasvirlashga qaratilgan. Ulug’ shoirlar o’z asarlari mazmunini yaxshiroq ifoda etish uchun zarur bo’lgan paytlardagina istioraga murojaat qilganlar. Badiiy asarlarda ko’pincha “oltin vodiy”, “o’t yurak”, “temir intizom”, “po’lat iroda” kabi so’z birikmalar uchraydi. Bunday hollarda butun birikma emas, balki faqat aniqlovchining o’zi metaforik xususiyatga ega bo’ladi:

...Gar ko’ylak tiksalar armonlaringdan,

Egni but bo’lardi ***yupun dunyo****ning*

Sirojiddin Sayyid ijodida ham bu tasviriy vositalardan unumli foydalanilgan. Jumladan, bu misrada “yupun dunyo” so’z birikmasi istiora vazifasida kelgan. Ham sifatlash, ham istiora vazifasini bajaruvchi bunday aniqlovchilar metaforik epitetlar deb ataladi. U o’zining “Pahlavon Mahmud” she’rida Pahlavon Mahmudning boshidan kechirganlari, armonlari ko’pligini ularni yig’ib bir joyga keltirsa dunyoga yetgulik bo’lishini, ya’ni ular oldida dunyo ham ojizligini “yupun dunyo” so’zi orqali dunyo beqarorligini, o’tkinchiligini va zaifligini tasvirlagan [2, 136].

Jonlantirish. Metaforaning o’ziga xos ko’rinishlaridan biri jonlantirishdir. Unda insonga va jonli mavjudodga xos belgilar tabiat hodisalariga, narsalarga va tushunchalarga ko’chiriladi. Jonlantirish she’riy asarlarda ko’p uchraydi. Juda ko’p hollarda tabiat hodisalari jonlantiriladi:

“Suvlarda ***sadosiz sindilar oylar****,*

Afsunday jim*, sokin oqdilar soylar.*

Tugunlarin ochib *yillar va oylar*

O’tdilar, sen hamon tili tugunim...”

Shoir o’zining “Alamli dunyoda” she’riy parchasida bir nechta meforik ma’noli birikmalar ustalik bilan qo’llagan. Bunda “sindilar oylar” jonlantirish birikmasi orqali vaqtning sokin, og’riqli, izsiz o’tishini tasvirlagan bo’lsa, “sadosiz sindilar” - tovush sindirmasdan, shovqinsiz, sekin ammo butunlay yo’q bo’lish,

tugash ma’nolari ifodalangan. “Afsunday jim” iborasi ruhiy holatni, ichki og’riqni, yoki tabiatdagi g’ayritabiiy sukunatni kuchli ifodalagan. “Tugunlarin ochib” jumlasidagi jonlantirishda esa hayotdagi murakkabliklar, sinovlar, dard va sirlarning asta-sekin yechilishi ma’nosini bildirgan:

G’urbat *otim* ***jilovini qo’yvormay****,*

Bayram qildi dardu hasrat *itlari...*

“Mir temuriy qovunlar” she’rida shoir “g’urbat” (g’am-alam, anduhlar)ga insoniy xususiyat - jilovni ushlab, unga e’tibor berish, nazorat qilishni yuklash orqali bu tuygulardan ozod bo’lolmayotganini, “Dardu hasrat itlari” – bu yerda dard va hasrat (insoniy his-tuyg’ular) “it” bilan taqqoslanib, ular jonli mavjudot sifatida harakat qilayotgandek qilib tasvirlagan. Ya’ni ular jonlantirilgan.

Misollar ko’rganimizday, jonlantirish tasvirning hayotiyligiga putur yetkazmaydi, balki uning hissiyligini, obrazliligini oshiradi [2, 137].

Allegoriya. U metaforaga yaqin mijozlardan biridir. Allegoriyada aytilmoqchi bo’lgan fikr boshqacha shaklga solinadi. Odatda, istiora nometaforik iboralar orasida kelsa, allegoriya deyarli butun asarga taalluqli bo’ladi: allegorik asarlarda tasvirlangan kishilar, hodisalar orqali har doim boshqa shaxslar, dalillar, narsalar tasavvur qilinadi. Ko’pincha xalq maqollari (“Oti borning qanoti bor”), topishmoqlar (“Otdan baland, itdan past”), masallar va shunga o’xshash asarlar allegorik xususiyatga ega. Boshqa majozlar kabi allegoriya ham tasvirda eng muhim tomonni ajratib ko’rsatish ishini bajaradi. Allegoriya turli sabablarga ko’ra, o’z fikrini boshqacha shaklda ifodalovchi personajlar nutqida ko’proq ish ko’radi [2, 138]. Shoirning quyidagi berilgan “Daryo” she’ridan olingan jumlasida buni yaqqol ko’rish mumkin:

Bir-birin ko’rolmay yurgan ***ko’zlar****u,*

Ko’ngli qora ham ichi torlarga.

Keltirilgan jumlada allegorik element bor. Bu yerda “ko’zlar” va “ko’ngil” oddiy ma’nodadan tashqari ishlatilgan. Ko’zlar va ko’ngil insoniy his-tuyg’ularni, ichki ramziy tarzda ifodalaydi. “Bir-birin ko’rolmay yurgan ko’zlar” – bu nafaqat

fizi ko’rish qobiliyati emas, balki odamlar o’rtasidagi hissiy yoki ruhiy masofani bildiradi. “Ko’ngli qora ham ichi torlarga” – bu ichki ruhiy holat, tushkunlik, umidsizlikni allegorik tarzda ifodalaydi. Ma’nosi: misrada shoir insonlar o’rtasida ajralish, hissiy izolyatsiya va ichki qorong’ulikni tasvirlaydi. Ko’zlar ko’rmaypti, lekin ko’ngil ham yoritilmagan – bu ruhiy, hissiy holatning allegorik tasviridir.

Sirojiddin Sayyid she’riyatida metafora, avvalo, hayotiy tasvirlarni chuqurlashtirish, obrazlarni jonlantirish va ijodkorning o’ziga xos estetik olamini namoyon qilishga xizmat qiladi. Bu orqali shoir tuyg’ularga ko’proq ta’sirchanlik bag’ishlaydi va o’quvchiga obrazni chuqurroq his qilishga imkoniyat beradi.

- Tasvirni chuqurlashtirish: Metaforalar orqali shoir kundalik hayotiy manzaralarga yangicha yondashuvni taklif qiladi, ularga o’ziga xos va chuqur ma’no yuklaydi.

- Obrazlarni jonlantirish: Metafora orqali metaforalar jonli tasvirlar, g’ayritabiiy obrazlar yaraladi, bu esa she’rning badiiy ta’sirchanligini orttiradi.

- Estetik olamni belgilash: Metaforalar shoirning dunyoqarashi, tuyg’ulari va tafakkurini aks ettiruvchi o’ziga xos badiiy uslubini belgilashda muhim rol o’ynaydi.

Sirojiddin Sayyidning she’riyatida metaforaning badiiy vazifalari bo’yicha ilmiy ishlar mavjud bo’lib, ular shoirning o’ziga xos uslubini, obrazli olamini va ijodiy tamoyillarini tadqiq etadi. Tadqiqotlar metaforalar orqali dunyoqarashini, his-tuyg’ularini ifodalashda, o’quvchida chuqur taassurot qoldirishda metaforaning o’rni va ahamiyatini ko’rsatib beradi. Xususan, badiiy mahoratni oshirishda va lirik qahramonning ichki dunyosini ochib berishda metafora vositasiga murijaat qilgani ta’kidlanadi.

Metaforaning tasviriy vazifasi: Sirojiddin Sayyid metaforalardan foydalanib, o’ziga xos obrazlar yaratadi, tabiat manzaralarini, kundalik voqea-hodisalarni yangicha va original tarzda tasvirlaydi. Bu obrazlar shoirning shaxsiy estetik dunyo qarashi va falsafiy mulohazalari bilan bog’liq bo’ladi.

Metaforaning emotsional - psixologik vazifasi: Metaforalar shoirning his-tuyqularini, kechinmalarini, ichki kechinmalarini o’quvchiga yetkazishga yordam

beradi. Ular orqali lirik qahramonning ruhiy holati, kayfiyati, orzu- umidlari va xavotirlari ifodalanadi.

Metaforaning falsafiy semantik vazifasi: Metaforalar dunyoni, hayotni tushunish, anglash, uning mohiyatiga yetishga xizmat qiladi. Ba'zi tadqiqotlarda shoir metaforalari orqali falsafiy fikrlar, hayotiy qoidalar va dunyoqarash elementlari ifodalanganligini ko'rsatib beradi.

Metaforalarning sintaktik-stilistik vazifasi: Metaforalar she'riy matnda sintaktik va stilistik qurilmalarni o'zgartirish orqali matnning ekspressivligini oshiradi. Ular qatorlar o'rtasida bog'liqlikni hosil qiladi, she'riy oqimni kuchaytiradi va o'quvchiga ta'sirchanlikni ta'minlaydi.

Metaforaning meta - she'riy vazifasi: Ba'zi ilmiy ishlarda Sirojiddin Sayyid metaforalarini uning o'zini shaxsiy, meta- she'riy mavqeini ifodalovchi vosita sifatida ko'rib chiqadi. Bu yerda shoirning she'riy olamiga, uning uslubiga xos bo'lgan metaforalar tahlil qilinadi.

Sirojiddin Sayyid o'z she'riyatida metafora turlaridan o'rinli foydalanadi. Bunga misol qilib, uning Alisher Navoiyning "Xamsa" asaridagi baytlar mazmun-mohiyatini anglash qiyinligini tushungan holda, Navoiyning naqadar mahorat va jasorat sohibi ekanligini ko'rsatadi va uning baytlarini sharhlashdek muhim ishga qo'l uradi, bundan ta'sirlanib o'zining "Xamsa hayratlari" turkumini yaratadi [4, 24].

U Navoiyning:

Qancha mehmon o'tdi, lek mezbon o'shal,

Barcha mehmon ichra biz nodonimiz...

baytlarini sharhlarkan uning ulugligiga tan bergan holda, o'zi quyidagi misralarni yozadi.

To Navoiy bor – muhabbat dildadur,

So'lmag'ay hargiz ***ko'ngil bo'stoni****miz.*

Shu misrasidagi "So'lmag'ay ko'ngil bo'stonimiz" jumlasida metaforaning (istiora) belgi o'xshashligini ishlatadi."Ko'ngil bo'stoni" – bu metaforik birikma

bo’lib, u inson qalbi, ichki dunyosi, his-tuyg’ularini bo’ston (bog’) bilan taqqoslaydi va bu orqali inson qalbining go’zal, ezgu, mehrga to’la joy sifatida ifodalaydi. Ya’ni shoir qalbni gulga to’la bog’ga o’xshatib, bu bog’dagi go’zallik – ruhiy poklik, sevgi, umid – hech qachon so’lmasin, degan badiiy orzuni ifodalaydi.

Bundan tashqari shoir “Ilinj” she’ridagi quyidagi misrada:

Yurtim, menga zar kerakmas zarlaringdan,

***Kipriklarim o’psalar** bas gardlaringdan...*

-deya metafora, jonlantirishdan mohirona foydalangan. Ya’ni insonga xos bo’lgan harakatni a’zoga ko’chirish orqali, men shu vatanda yashashimning o’zi menga yetarli degan fikrni ilgari surgan. Sirojiddin Sayyid o’z she’rlarining har bir misrasida metaforadan unumli foydalangan desak mubolag’a bo’lmaydi. “Ustimizdan o’tgan oylar” she’ridan quyida keltirilgan parchada:

***Kiyik ko’zing** – suzuklaring*

Sirg’alaring, uzuklaring

“kiyik ko’zing” jumlasida metafora (istiora) bor. Bu birikmada insonning ko’zlari kiyikning ko’ziga o’xshatilgan, lekin “o’xshash” so’zi ishlatilmagan, ya’ni o’xshatishning vositasi yashirin -shu sababli bu istiora hisoblanadi. Ma’nosi: “kiyik ko’z” odatda go’zal, katta, ma’sum, jozibali ko’zlarni ifodalaydi. Bu orqali shoir inson ko’zining chiroyini, pokligini yoki mehribonligini kiyik obrazida ifodalagan.

***Qaro zulf**ing qaro qildi*

***Kun**imni tunlarimdan ham,*

Kuyik ko’ngil isi kelgay

***Tun**im ham, kunlarimdan ham...*

Shoirning “Qaro zulfing qaro qildi” she’rida “Qaro zulf” (soch) – mashuqaning sochi, “kun” – shoirning baxtli hayoti, “tun” – g’am, hijron ramzi sifatida ishlatilgan. Ma’nosi: sevgilining qora sochi go’yo quyoshni ham qoraytirgan, shoirning “kun” (baxti) endi “tun”dan ham qorong’u bo’lgan. Bu istiora (metafora) – chunki “soch” to’g’ridan – to’g’ri qorong’ulik ramziga aylantirilgan.

Xulosa:

Sirojiddin Sayyid she’riyatida metaforaning badiiy vazifasiga ko’ra shoir ijodini o’rganishda, uning metaforalarini tahlil qilish va ularning badiiy, falsafiy hamda lingvistik ahamiyatini ochib berishga qaratilgan. Taqqiqotlarda, asosan, quyidagilarga e’tibor qaratildi:

Metafora orqali dunyo tasvirini yaratish: Shoirning qanday qilib metaforalar yordamida o’ziga xos, ko’pincha noan’anaviy va chuqur ma’noli dunyo tasvirini yaratishi tahlil qilinadi.

Metaforalarning ma’no va his-tuyg’ularni boyitishi: Metaforalar orqali shoirning his-tuyg’ularni yanada kuchliroq va ta’sirchanroq ifodalash, mavhum tushunchalarga aniq shakl berish kabi vazifalari ko’rsatiladi.

Metaforaning she’riy tilda o’rni: Metaforalarning she’riy tildagi o’rni, ularning o’ziga xosligini ta’minlashdagi roli, yangi qiyofalar yaratishdagi o’rni tadqiqotlarning muhim qismidir.

Metafora turlarining tahlili: Tadqiqotlarda ko’pincha metaforaning qanday turlari (masalan, tabiiy, ijtimoiy, falsafiy) ishlatilgani va ularning badiiy ta’sir kuchini oshirishdagi roli o’rganildi.

Metafora orqali she’rning falsafiy ma’nosini ochish: Metaforalar shoirning hayot, inson, jamiyat haqidagi falsafiy qarashlarini qanday ifodalashi tadqiqot qilindi.

Bundan ko’rinadiki, Sirojiddin Sayyid o’z she’riyatida metafora turlaridan mohirona foydalangan. Metaforaning qo’llanishi she’r mazmunini, unda ifodalangan fikrni ochib berishda muhim rol o’ynagan. Bu orqali muallifning maqsadi yaxshiroq ochiqlanadi, asar falsafasiga yaqinlikni his etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Shermamatova S., Odiljanova M.** O‘zbek va ingliz adabiyotida metaforaning foydalanilish tahlili // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*. – 2003.

2. **Xudoyberdiev E.** Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: *Sharq*, 2008.

3. **Jo‘rayeva B., Sharipova O.** Metaforaning tilshunoslikda namoyon bo‘lishi va ilmiy ahamiyati // *Til va imlo muhokamasi* respublika ilmiy anjumani materiallari. – Toshkent, 2023.

4. **Fayzullaeva R.** Xamsa hayratlari – so‘nmas e’tiqod ifodasi // *Til va adabiyot.uz* ilmiy-metodik elektron jurnali. – 2023. – №11.

5. **Sayyid Sirojiddin.** She’riy to‘plam. – Elektron manba: *Ilmlar.uz*.

KASBIY TA’LIMDA XALQARO TA’LIM DASTURLARI ASOSIDA INGLIZ TILINI O‘QITISHNING INNOVATSION METODLARI

Jalilova Hulkar To‘rayevna

Professional ta’limni rivojlantirish instituti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kasbiy ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘qitishda xalqaro ta’lim dasturlaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari, ularni amaliyotga tatbiq etishning afzalliklari hamda innovatsion metodlar asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari yoritiladi. Xalqaro tajribaga asoslangan yondashuvlar talabalarda nafaqat xorijiy til ko‘nikmalarini, balki kasbiy sohada muloqot qilish, xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lish imkonini beruvchi integrativ bilimlarni ham shakllantiradi.*

Kalit so‘zlar*: kasbiy ta’lim, ingliz tili, xalqaro ta’lim dasturlari, innovatsion metodlar, kasbiy kompetensiya, kommunikativ yondashuv.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются особенности применения международных образовательных программ в преподавании английского языка в профессиональных образовательных организациях, преимущества их внедрения на практике, а также возможности формирования профессиональных компетенций студентов на основе инновационных методов. Подходы, основанные на международном опыте, формируют у студентов не только навыки владения иностранным языком, но и интегративные знания, позволяющие им эффективно общаться в профессиональной сфере и быть конкурентоспособными на международном рынке труда.*

Ключевые слова: *профессиональное образование, английский язык, международные образовательные программы, инновационные методы, профессиональная компетентность, коммуникативный подход.*

Abstract*: This article examines the specifics of using international educational programs in teaching English in professional educational organizations, the advantages of their practical implementation, and the potential for developing students' professional competencies using innovative methods. Approaches based on international experience develop students not only in foreign language skills but also in integrative knowledge, enabling them to communicate effectively in the professional sphere and be competitive in the international labor market.*

Key words: *vocational education, English language, international educational programs, innovative methods, professional competence, communicative approach.*

Kirish. Globalizatsiya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bugungi kunda har bir sohaga, xususan, kasbiy ta’lim tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu jarayonda xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini chuqur o‘zlashtirish mutaxassislarning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omilga aylanmoqda. Chunki ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki zamonaviy ilmiy-texnik yangiliklar, xalqaro hamkorlik loyihalari va global bilimlar makoniga kirish kaliti hisoblanadi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qator qaror va farmonlarida ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, kasbiy ta’limni isloh qilish hamda chet tillarini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalarni keng joriy etish vazifasi belgilab berilgan. Jumladan, “Chet tillarni o‘rganishni ommalashtirish va ta’lim sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlar, shuningdek, “Kasbiy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish”ga oid hujjatlarda xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o‘qitish jarayonida xalqaro ta’lim dasturlariga mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etish zarurligi ta’kidlanmoqda.

Xalqaro ta’lim dasturlari — **CEFR (Common European Framework of Reference for Languages)** [1], **CLIL (Content and Language Integrated Learning)** [2], **ESP (English for Specific Purposes), CTIL (Construction and Technical Integrated language)** [3], shuningdek, **IELTS, TOEFL, TESOL** kabi imtihon tizimlari orqali kasbiy ingliz tilini o‘qitish jarayoni talabalarning nafaqat lingvistik bilimlarini, balki kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Bu esa ularni o‘z mutaxassisligi doirasida ingliz tilida erkin fikrlash, texnik hujjatlar bilan ishlash, xalqaro hamkorlikda samarali ishtirok etishga tayyorlaydi.

Shu bilan birga, **innovatsion metodlarni** ta’lim jarayoniga tatbiq etish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim garovi hisoblanadi. Masalan, **raqamlashtirilgan ta’lim muhiti, interaktiv metodlar, masofaviy ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, simulyatsiya va loyiha asosidagi ta’lim** kabi vositalar kasbiy ingliz tili o‘qitilishining samaradorligini sezilarli oshiradi [4]. Bunday metodlar o‘quvchilarni nafaqat til bilimiga ega bo‘lishga, balki uni amaliy kasbiy faoliyatda qo‘llashga ham tayyorlaydi.

Shunday qilib, xalqaro ta’lim dasturlari va innovatsion metodlar integratsiyasi kasbiy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda dolzarb masala bo‘lib, bu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish hozirgi kun talabidir.

1. Xalqaro ta’lim dasturlarining o‘rni

Bugungi kunda kasbiy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda xalqaro ta’lim dasturlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, **CEFR (Common European Framework of Reference for Languages), CLIL (Content and Language Integrated Learning)** va **ESP (English for Specific Purposes)** kabi dasturlar nafaqat lingvistik bilimlarni, balki kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

CEFR xalqaro standarti til o‘rganishni bosqichma-bosqich darajalarga ajratib beradi (A1 – boshlang‘ichdan C2 – mukammal darajagacha). Bu tizim orqali ta’lim oluvchilarning ingliz tilini qanchalik darajada bilishi aniq baholanadi, ta’lim jarayoniga yagona mezon joriy etiladi.

CLIL metodikasi esa kasbiy fanlarni ingliz tilida o‘qitish orqali ikki tomonlama maqsadga erishishni ta’minlaydi: bir tomondan, o‘quvchi ingliz tilida erkin muloqot qila oladi, ikkinchi tomondan esa, o‘z mutaxassislik sohasi bo‘yicha bilimlarni chet tilida o‘zlashtiradi. Masalan, tibbiyot kollejida “Human Anatomy” yoki texnikumlarda “Engineering Basics” mavzulari ingliz tilida olib borilishi mumkin.

ESP dasturi esa ingliz tilini aniq kasbiy yo‘nalishlarga moslashtiradi. Masalan, avtomobilsozlik, turizm, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot yoki menejment sohalari uchun maxsus ingliz tili kurslari ishlab chiqiladi. Bu esa talabalarga o‘z kasbiy sohalarida xorijiy hamkorlar bilan bevosita muloqot qilish va kasbiy hujjatlar bilan ishlash imkonini beradi.

CTIL (Construction and Technical Integrated language) metodikasi aynan professional modulni ingliz tili bilan integratsiya orqali o‘rganishni ta’minlaydi. Masalan o‘quvchilar “Qurilish materiallari va buyumlari” fanini ingliz tilida o‘rganish orqali o‘z mutaxssisliklari bo‘yicha xorijiy til ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. O‘quvchilar qurilish materiallarining xossalari, turlari va ishlatilish jarayonlarini ingliz tilida o‘rganadilar, bu esa ularni kelgusida xalqaro mehnat bozori talabiga javob beradigan mutaxassis bo‘lib yetishhishida asosiy ahamiyatga ega bo ‘ladi.

2. Innovatsion metodlar va texnologiyalar

Kasbiy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda an’anaviy metodlardan tashqari, zamonaviy va innovatsion yondashuvlarga katta ehtiyoj mavjud. Ulardan eng muhimlari quyidagilar:

- **CLIL-metodi** – fan va tilni birgalikda o‘rganish talabalarda kasbiy atamalarni ingliz tilida erkin qo‘llash, mutaxassislik fani bo‘yicha o‘z fikrini aniq ifoda etish imkoniyatini beradi. Bu metod nafaqat til ko‘nikmasini, balki kasbiy tafakkurni ham rivojlantiradi.
- **Flipped Classroom (Ag‘darilgan sinf)** – talaba darsdan oldin o‘quv materiallari (video, maqola, elektron resurslar) bilan mustaqil tanishadi, dars jarayonida esa o‘qituvchi bilan muhokama qiladi, amaliy topshiriqlarni bajaradi. Bu usul talabalarda mustaqil ta’lim olish, mas’uliyatli yondashuv va ijodiy fikrlashni shakllantiradi.
- **Edutainment** (Education + Entertainment) – o‘yinli va qiziqarli mashg‘ulotlar orqali til o‘rgatish. Bu metod interaktiv viktorinalar, til o‘yinlari, roliklar yoki simulyatsiyalardan foydalanishni nazarda tutadi. Edutainment talabalarda tilni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi.
- **Virtual laboratoriyalar** – ingliz tilida kasbiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkonini beradi. Masalan, IT yo‘nalishidagi talabalarga ingliz tilida dasturlash topshiriqlari berilishi yoki tibbiyot sohasida “virtual bemor bilan muloqot” modeli qo‘llanilishi mumkin.
- **Blended learning (aralash ta’lim)** – an’anaviy sinf darslari va masofaviy ta’limning uyg‘unlashuvi. Bu metod orqali talabalar onlayn platformalarda (Moodle, Google Classroom, Coursera, Edmodo) materiallarni o‘rganadi va sinfda amaliy mashg‘ulotlarni bajaradi.

3. Kasbiy kompetensiyani shakllantirish

Xalqaro dasturlar va innovatsion metodlarni qo‘llash kasbiy ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning ingliz tili bilimlarini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan rivojlantiradi. Natijada talabalarda quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

- **Kommunikativ kompetensiya** – ingliz tilida og‘zaki va yozma muloqot qila olish, xorijiy hamkorlar bilan samarali suhbatlashish, xalqaro loyihalarda faol ishtirok etish.
- **Lingvokulturologik kompetensiya** – ingliz tilini o‘rganish jarayonida ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarning madaniyati, an’analari va biznes odob qoidalarini ham bilib olish. Bu ko‘nikma talabalarning madaniyatlararo muloqotini yengillashtiradi.
- **Kasbiy til kompetensiyasi** – mutaxassislik fanlariga oid terminologiyani egallash, kasbiy matnlar, texnik hujjatlar va xalqaro shartnomalarni ingliz tilida o‘qib tushunish va ishlab chiqish ko‘nikmasi.
- **Raqobatbardoshlik kompetensiyasi** – xalqaro mehnat bozorida o‘z bilim va malakalarini erkin ifoda etish, xorijiy kompaniyalar bilan ishlashga tayyorlik, global kasbiy hamjamiyatning faol a’zosi bo‘lish.

Shunday qilib, xalqaro ta’lim dasturlarini tatbiq etish va innovatsion metodlardan foydalanish kasbiy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu yondashuv talabalarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirib, ularni xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadr sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Kasbiy ta’lim muassasalarida ingliz tilini xalqaro ta’lim dasturlari asosida o‘qitish nafaqat til ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki talabalarda zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. CEFR, CLIL, ESP kabi xalqaro dasturlarni, shuningdek, **Flipped Classroom, Edutainment, Virtual Labs, CTIL, CPL** kabi innovatsion metodlarni joriy etish orqali talabalarning mustaqil ta’lim

olish, kasbiy sohada erkin muloqot qilish hamda xalqaro standartlarga mos bilim va malakalarni egallashiga erishiladi.

Bunday yondashuvning afzalligi shundaki, u nafaqat lingvistik bilimlarni chuqurlashtiradi, balki talabalarni **xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis** sifatida shakllantiradi. Kasbiy ingliz tilini xalqaro standartlar asosida o‘rgatish o‘quvchilarda **kommunikativ, lingvokulturologik, kasbiy-amaliy va raqobatbardoshlik kompetensiyalarini** rivojlantirish imkonini beradi. Natijada bitiruvchilar xorijiy hamkorlar bilan samarali ishlash, texnik hujjatlar va xalqaro shartnomalarni ingliz tilida ishlab chiqish, ilmiy loyihalarda faol qatnashish qobiliyatiga ega bo‘ladilar [2][3].

Umuman olganda, kasbiy ta’limda ingliz tilini xalqaro ta’lim dasturlari asosida o‘qitishning ustuvorligi shundaki, u:

- ta’lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtiradi;
- yoshlarning raqobatbardoshligini oshiradi;
- xalqaro integratsiya jarayonlarini jadallashtiradi;
- O‘zbekistonning global ta’lim makonida munosib o‘rin egallashiga zamin yaratadi [4].

Shu bois, kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish va xalqaro tajribani yanada chuqur o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Council of Europe.** *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment*. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.
2. **Marsh D.** *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002.

3. **Hutchinson T., Waters A.** *English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
4. **Richards J. C., Rodgers T. S.** *Approaches and Methods in Language Teaching*. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014

SPEECH ACTS IN MEDIA COMMUNICATION: LINGUAPRAGMATIC FEATURES IN UZBEK MEDIA DISCOURSE

Xamdamova Nargizaxon Abdulkosimovna
Fergana State University

Annotatsiya*: Ushbu maqolada mediakommunikatsiya jarayonida nutqiy aktlarning lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot J. Ostin va J. Serlning nutqiy aktlar nazariyasi hamda zamonaviy media lingvistikasi yondashuvlariga tayangan holda, O‘zbekiston ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarda qo‘llaniladigan informativ, baholovchi va persuaziv nutqiy aktlarning shakllanish mexanizmlari, illokutiv maqsadlari va kommunikativ samaradorligi yoritiladi. Shuningdek, multimodal vositalar - rasm, video, grafik, emoji va paralingvistik elementlarning nutqiy aktlar kuchiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari mediakommunikatsiyada nutqiy aktlarning ijtimoiy ongni shakllantirish, auditoriya fikrini boshqarish va ommaviy diskursni yo‘naltirishdagi strategik ahamiyatini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *nutqiy akt, mediakommunikatsiya, pragmatika, media lingvistika, illokutsiya, persuaziya, multimodal diskurs.*

Аннотация: *В статье проводится анализ лингвопрагматических особенностей речевых актов в медиакоммуникации. Исследование основано на теории речевых актов Дж. Остина и Дж. Серля, а также на современных подходах медиалингвистики. Рассматриваются механизмы формирования, иллокутивные цели и коммуникативная эффективность информационных,*

оценочных и персуазивных речевых актов, используемых в узбекских средствах массовой информации и цифровых платформах. Особое внимание уделяется влиянию мультимодальных средств -изображений, видеокадров, графиков, эмодзи и паралингвистических элементов - на усиление или ослабление речевой иллокуции. Результаты исследования демонстрируют стратегическую роль речевых актов в формировании общественного сознания, управлении мнением аудитории и направлении массового дискурса.

Ключевые слова: *речевой акт, медиакоммуникация, прагматика, медиалингвистика, иллокуция, персуазия, мультимодальный дискурс.*

Abstract: *This article presents a comprehensive analysis of the linguopragmatic features of speech acts in media communication. Drawing on J. Austin and J. Searle's Speech Act Theory and modern approaches in media linguistics, the study examines the mechanisms of formation, illocutionary intentions, and communicative effectiveness of informative, evaluative, and persuasive speech acts used in Uzbek mass media and digital platforms. Special attention is given to the impact of multimodal elements-including images, video frames, graphics, emojis, and paralinguistic cues-on the strengthening or weakening of speech act force. The findings highlight the strategic role of speech acts in shaping public consciousness, influencing audience perception, and directing mass media discourse.*

Key words: *speech act, media communication, pragmatics, media linguistics, illocution, persuasion, multimodal discourse.*

Introduction

Media communication is one of the most dynamic and influential spheres of contemporary social life, in which the communicative and pragmatic nature of language is gaining increasing importance. The linguistic units used in mass media and digital platforms do not merely convey information; they also direct audiences toward specific viewpoints, persuade them, or motivate them to act. Therefore, the

representation of speech acts in media discourse is a central topic in media linguistics, pragmatics, and communication studies.

The Speech Act Theory developed by J. Austin and J. Searle provides a methodological foundation for analyzing the goal-oriented nature of communicative language units and the mechanisms through which illocutionary force influences audiences. In today's digital communication environment, speech acts acquire new pragmatic forms as they integrate with multimodal elements such as text, images, videos, emojis, and sound.

The purpose of this study is to identify the features of how speech acts are used in Uzbek media communication, to examine their pragmatic functions, and to analyze the mechanisms through which they affect audiences.

Literature Review

The Speech Act Theory proposed by Austin (1962) and Searle (1979) emphasizes that communicative language units express not only literal meaning but also the speaker's intended purpose. Media linguistics scholars such as Van Dijk, Fairclough, Kress, and van Leeuwen highlight the ideological and persuasive load of speech acts in media, arguing that persuasion - the capacity to direct or influence the audience - is one of the primary tools of media.

Grice's Cooperative Principle and his theory of implicature provide an important methodological basis for identifying implicit, or indirect, speech acts in media communication. Multimodal discourse analysis (Kress, 2010) demonstrates that visual elements accompanying text significantly influence the illocutionary force of speech acts because it is scientifically proven that humans naturally tend to trust and process visual information more quickly. For this reason, visual means are prioritized in media communication.

Although speech acts have been studied in Uzbek linguistics, pragmatic analyses related specifically to media communication remain insufficiently explored.

Main Body

1. *Theoretical Foundations of Media Communication and Speech Acts*

Speech acts consist of three components:

1. Locutionary act – the form and literal meaning of an utterance;
2. Illocutionary act – the speaker's communicative intention;
3. Perlocutionary act – the effect produced on the listener or audience.

In media communication, illocutionary and perlocutionary acts play a dominant role.

2. Speech Acts in Uzbek Mass Media

The most frequent types of speech acts in Uzbek media discourse include:

a) Informative speech acts

Although information appears to be presented objectively, headlines and emphasis often encode illocutionary intentions.

Examples: "A new decree has been adopted", "Prices are expected to rise".

Here, the speaker implicitly intends to alert the public and encourage them to pay attention to upcoming changes.

b) Evaluative speech acts

Mass media express a certain stance toward events:

"It caused sharp criticism", "According to experts…".

Such expressions evaluate the reported information and present the speaker's or institution's perspective.

c) Persuasive speech acts

Widely used in blogs, analytical articles, and interviews:

"Every citizen must know this", "Experts urge action".

These statements employ a gentle form of urging, appealing, or indirect commanding. As a result, audiences tend to adopt the recommended behavior or viewpoint.

3. Multimodal Enhancement of Speech Acts

Digital media accompany text with the following multimodal tools:

Emoji – adds evaluative or emotive illocutionary force;

Video frames – visually intensify emphasis;

Images – create contextual meaning;

Graphics and charts – construct the impression of objectivity.

These elements considerably strengthen the perlocutionary effect, encouraging viewers or readers to respond or take action.

4. Findings

Uzbek media frequently combine informative + evaluative + persuasive speech acts.

The headline serves as the strongest illocutionary site.

Telegram channels and YouTube platforms favor short, impactful, and directive speech acts because digital technology has conditioned audiences to process information quickly and prefer condensed content.

In interviews on platforms such as Instagram, Telegram, and YouTube, the speaker's tone, gestures, and facial expressions serve as key sources of multimodal illocution, further motivating the audience toward the intended goal.

Conclusion

The study demonstrates that in Uzbek media communication, speech acts function not only as tools for conveying information but also as mechanisms for influencing audiences, shaping attitudes, and steering public opinion. The interaction of informative, evaluative, and persuasive acts increases the pragmatic power of media discourse. Multimodal elements further amplify illocutionary intent and broaden perlocutionary impact. Analyzing speech acts in media communication thus provides deeper insights into media language, its mechanisms of influence, and its role in shaping social consciousness.

References

1. **Austin J. L.** *How to Do Things with Words.* – Oxford: Oxford University Press, 1962. – 166 p.

2. **Searle J. R.** *Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts.* – Cambridge: Cambridge University Press, 1979. – 187 p.
3. **Grice H. P.** Logic and Conversation // *Syntax and Semantics.* Vol. 3: Speech Acts. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.
4. **van Dijk T. A.** *Discourse and Power.* – London: Palgrave Macmillan, 2008. – 308 p.
5. **Kress G., van Leeuwen T.** *Multimodal Discourse: The Modes and Media of Contemporary Communication.* – London: Routledge, 2001. – 152 p.
6. **Fairclough N.** *Media Discourse.* – London: Edward Arnold, 1995. – 214 p.

OTA-ONALARNING TA’LIMGA MUNOSABATI TALABALAR O‘QUV MOTIVINING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Ashurova Nargiza Zayitovna
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Annotatsiya*: Mazkur maqolada ota-onalarning ta’limga bo‘lgan munosabati talabalarning o‘quv motivatsiyasini shakllantirishdagi asosiy omil sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda oilaviy muhit, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi faolligi va ta’lim jarayoniga bo‘lgan e’tiborining talaba shaxsining o‘qishga nisbatan ichki va tashqi motivlarini rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, ota-onalarning ijobiy munosabati o‘quv motivatsiyasini oshiruvchi, salbiy yoki befarq munosabat esa uni pasaytiruvchi omil sifatida ko‘rib chiqiladi va ota-onalar, o‘qituvchilar va talabalarning hamkorligi orqali ta’lim sifatini yuksaltirish yo‘llari taklif etiladi.*

Аннотация: *В данной статье анализируется отношение родителей к образованию как ключевой фактор формирования учебной мотивации студентов. В исследовании раскрывается роль семейной среды, активности родителей в воспитании детей и их внимания к образовательному процессу в развитии внутренней и внешней мотивации учащихся. Также*

рассматривается, что положительное отношение родителей повышает учебную мотивацию, тогда как отрицательное или безразличное — снижает её. Кроме того, в статье предлагаются пути повышения качества образования через сотрудничество родителей, учителей и студентов.

Annotation: *This article analyzes parents' attitudes toward education as a key factor in shaping students' academic motivation. The study highlights the role of the family environment, parents' involvement in child upbringing, and their attention to the educational process in developing students' internal and external motivation toward learning. It also examines how a positive parental attitude enhances academic motivation, while a negative or indifferent attitude can diminish it. In addition, the article proposes ways to improve the quality of education through the cooperation of parents, teachers, and students.*

Kalit so'zlar: *ota-onalar, ta'limga munosabat, o'quv motivatsiyasi, talaba, o'qishga qiziqish, psixologik omillar, oilaviy muhit, ta'lim jarayoni, motivatsiya shakllanishi, ota-ona roli, o'quv motivi, tarbiya, ta'lim sifati.*

Ключевые слова: *родители, отношение к образованию, учебная мотивация, студент, интерес к обучению, психологические факторы, семейная среда, образовательный процесс, формирование мотивации, роль родителей, учебный мотив, воспитание, качество образования.*

Keywords: *parents, attitude toward education, academic motivation, student, interest in learning, psychological factors, family environment, educational process, motivation formation, parental role, learning motive, upbringing, quality of education.*

Zamonaviy oliy ta'limning eng dolzarb muammolaridan biri talabalar uchun motivatsiyaga asoslangan o'quv jarayonini tashkil etishdir. Shu munosabat bilan universitet talabalari o'rtasida o'qishga bo'lgan motivatsiyaning mavjud holati va ularning ta'lim faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablar o'rtasida qarama–qarshiliklar yuzaga keladi. Universitetda o'qiyotganda talaba, birinchi navbatda, yangi didaktik vaziyatga moslashish bilan bog'liq bo'lgan bir qator muammolarga

duch keladi, bu maktab ta’limidan tubdan farq qiladigan o‘quv jarayonini tashkil etish shakllari va usullaridir. Ushbu yondashuv va u bilan bog‘liq qiyinchiliklar o‘ziga xos didaktik to‘siqni yaratadi, uni yengib o‘tish kerak. Bundan kelib chiqadiki, ijobiy motivlar va asosli maqsadlarni shakllantirish bo‘lajak mutaxassis shaxsini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki motivlar va maqsadlar faoliyatning muhim belgilovchilari hisoblanadi. O‘quv motivining shakllanishida turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ulardan eng muhimlaridan biri – bu ota-onalarning ta’limga bo‘lgan munosabatidir. Chunki oila – shaxsning ilk ijtimoiylashuv makoni bo‘lib, farzandning o‘qishga, bilimga, mehnatga munosabati, avvalo, ota-onalarning qadriyatlari va xulq-atvori asosida shakllanadi. Ota-onalar va o‘qituvchilar uchun eng katta muammo – samarali muloqot qilishdir. Bu oddiy tuyulishi mumkin, lekin ko‘pincha suhbatlar uzilib qoladi, chunki o‘qituvchi maxsus ta’lim sohasiga xos bo‘lgan tilni ishlatadi va ota-ona uchun notanish bo‘lishi mumkin. O‘qituvchilar suhbat boshida ota-onalarga tegishli so‘z birikmalarini, masalan, turar joy va modifikatsiyani tushunishlariga ishonch hosil qilishlari muhimdir. Bu keyinchalik muammolarga olib kelishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos tushunmovchilik yo‘qligiga ishonch hosil qiladi.

O‘qituvchi ota-onani faol tinglashi kerak. Yechimlar va usullarga berilib ketish shunchalik osonki, o‘qituvchilar talaba uchun eng samarali bo‘lgan narsa haqida fikr-mulohazalarini o‘tkazib yuborishlari mumkin. Ota-onalar qaysi tayanchlar ishlayotganini va qaysi biri ishlamayotganini aniqlashga yordam beradi va muvaffaqiyatga ta’sir qiladigan o‘zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi. Ota-onalarning ta’limga munosabati deganda, ularning farzandining bilim olish jarayoniga, o‘qishdagi yutuq va muammolariga, o‘quv faoliyatiga bo‘lgan e’tibor darajasi tushuniladi. Ba’zi ota-onalar ta’limni hayotdagi muvaffaqiyat kaliti sifatida ko‘rsa, boshqalar uni ikkinchi darajali deb bilishadi. Ana shu qarashlar farzandning o‘quv motivatsiyasiga bevosita ta’sir etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agar ota-onalar ta’limni qadrlasa, farzandining o‘qishiga qiziqish bildirsa, uni rag‘batlantirsa va doimiy qo‘llab-quvvatlasa, bunday bolalarda o‘quv motivi yuqori bo‘ladi.

Aksincha, befarqlik yoki salbiy munosabat talabalarda beparvolik, mas’uliyatsizlik va o‘qishga nisbatan sovuqlikni keltirib chiqaradi.

Axborot texnologiyalari asrida talabalarning e’tiborini o‘qishga qaratish tobora murakkablashib bormoqda. Shu sababli ota-onalarning faol ishtiroki va to‘g‘ri munosabati yanada muhim ahamiyatga ega. Ota-onaning ta’limga bo‘lgan munosabati deganda, ularning farzandining o‘qishiga, maktab yoki oliy ta’lim muassasasi faoliyatiga, o‘qituvchilarga hamda bilim olish jarayoniga bo‘lgan qarashlari tushuniladi. Bu munosabat quyidagi omillar orqali namoyon bo‘ladi: farzandining o‘qishini doimiy nazorat qilish; ta’lim jarayoniga qiziqish bildirish; o‘qishga rag‘bat beruvchi sharoit yaratish; o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ishlash; ta’limning ahamiyatini tushuntirish. Ota-onalarning ta’limga bo‘lgan munosabati talabalarning o‘quv motivatsiyasini shakllantirishda eng asosiy va hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Chunki farzandning ta’lim jarayoniga qanchalik mas’uliyat bilan yondashishi, bilim olishga bo‘lgan qiziqishi va o‘z oldiga maqsad qo‘yish darajasi ko‘p jihatdan oiladagi psixologik muhit, ota-onaning qadriyatlari hamda ularning ta’limga bergan e’tiboriga chambarchas bog‘liqdir. Ta’limni qadrlaydigan, o‘qishni muvaffaqiyat kaliti deb biladigan oilalarda o‘sgan farzandlar odatda bilim olishga nisbatan yuqori motivga ega bo‘lishadi. Bu esa nafaqat ularning o‘qishdagi muvaffaqiyatini, balki kelajakda kasbiy shakllanishini ham belgilab beradi.

Ota-onalarning qo‘llab-quvvatlashi talaba psixologik jihatdan o‘ziga ishonishini kuchaytiradi. Ular tomonidan beriladigan ruhiy yordam, rag‘batlantirish, erishilgan natijalarning qadrlanishi talabaning o‘z oldiga yuqori maqsadlar qo‘yishiga sabab bo‘ladi. Aksincha, ota-onaning ta’limga nisbatan befarq munosabati, tanqidning ko‘pligi yoki o‘quv jarayoniga yetarlicha e’tibor berilmasligi o‘quv motivining sustlashuviga, ba’zan esa o‘qishga nisbatan salbiy munosabat shakllanishiga ham olib keladi. Oiladagi ijobiy ta’limiy muhit esa talabaning fikrlash faolligi, aqliy mehnat madaniyati va intellektual ehtiyojlarining ortishiga yordam beradi.

Shuningdek, ota-onaning shaxsiy namunasi ham katta ahamiyatga ega. Farzandlar ko‘pincha kattalarning xatti-harakatlarini kuzatib, ular orqali o‘z dunyoqarashini shakllantiradi. Agar ota-onalar kitob o‘qishga, yangilik izlashga, o‘z bilimini doimiy ravishda boyitishga intilsa, bolalarda ham bunday fazilatlar shakllanadi. Bu jarayon tabiiy va ong osti ta’siri orqali sodir bo‘lib, talabaning o‘qishga bo‘lgan ichki motivini mustahkamlaydi.

Shu boisdan, ota-onalarning ta’limga bo‘lgan munosabati — o‘quv motivining shakllanishi, rivojlanishi va barqarorlashuvida markaziy o‘rin tutadi. Ta’limga ijobiy qaraydigan, farzandining bilim olishiga investitsiya sifatida yondashadigan, zarur sharoitlarni yaratib beradigan ota-ona jamiyat uchun intellektual yetuk, maqsadli va mas’uliyatli avlodni tarbiyalaydi.

Ta’lim jarayonida ota-onalarning faolligi nafaqat motivatsiyaga, balki talabaning o‘qish uslublari va o‘zlashtirish sifatiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalar farzandining qiziqishlari, individual qobiliyatlari va o‘quvdagi qiyinchiliklarini anglagan holda ularga mos metodik yordam bera olsalar, talaba o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqroq his qiladi. Natijada u o‘qishda mustaqil bo‘lishni, vaqtni to‘g‘ri taqsimlashni va mas’uliyat bilan yondashishni o‘rganadi. Bunday jarayon o‘z navbatida o‘quv motivatsiyasining barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Ota-onalarning farzand bilan muntazam muloqoti ham ta’limdagi muvaffaqiyatning muhim omillaridan biridir. Chunki o‘quv jarayoniga oid savollar, muammolar yoki qiziqishlar haqida erkin suhbatlashish, talabaning fikrini tinglash va unga amaliy maslahat berish o‘quv motivatsiyasini yanada oshiradi. Ayniqsa, yosh davridagi o‘zgarishlar, psixologik bosimlar yoki ijtimoiy ta’sirlar kuchaygan davrlarda oilaning qo‘llab-quvvatlashi talabaning ichki barqarorligini saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, ota-onalarning farzand oldiga qo‘ygan talab va kutishlari ham motivatsiyaning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Juda yuqori yoki amalga oshmaydigan talablar talabada stress, qo‘rquv va o‘ziga ishonchsizlik uyg‘otishi

mumkin. Biroq real, asoslangan va bosqichma-bosqich rivojlanishga yo‘naltirilgan kutishlar talabaning o‘z oldiga aniq maqsadlar qo‘yishiga yordam beradi. Ota-onaning «senga ishonaman» degan oddiy e’tirofi ham ko‘pincha talaba motivatsiyasining kuchli psixologik omiliga aylanadi.

Bundan tashqari, oilaning madaniy saviyasi, uy sharoitidagi intellektual muhit va ta’limga oid resurslarning mavjudligi ham o‘quv motivatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kitobga boy muhitda, ilmiy suhbatlar bo‘ladigan, yangiliklarni kuzatib boradigan oilalarda ulg‘aygan talaba o‘z-o‘zidan bilim olish jarayoniga qiziqadi. Aksincha, ta’limga e’tibor past bo‘lgan muhitda farzandning o‘qishga qiziqishi tabiiy ravishda sustlashadi.

Umuman olganda, ota-onalarning ta’limga qadriyat sifatida yondashishi talabaning o‘quv motivatsiyasini faqat bugungi kun uchun emas, balki uning butun hayoti davomida ta’sir ko‘rsatadigan fundamental omil sanaladi. Chunki motivatsiya — bu bir martalik hodisa emas, balki oilada shakllanadigan, maktab va oliy ta’limda mustahkamlanadigan va keyingi kasbiy hayotda davom etadigan uzluksiz jarayondir. Shunday ekan, ota-onalarning ta’lim borasidagi mas’uliyati jamiyatning kelajagini belgilovchi eng muhim omillardan biri bo‘lib qoladi.

Shunday qilib, ota-onaning ta’limga nisbatan ijobiy pozitsiyasi talabaning o‘quv motivini shakllantirishda eng kuchli tashqi omil bo‘lib xizmat qiladi. Ota-onalarning ta’limga munosabatini yaxshilash uchun: pedagoglar va psixologlar tomonidan ma’rifiy seminarlar o‘tkazish, ota-ona – talaba – o‘qituvchi uchburchagini mustahkamlash, oilada o‘qish uchun qulay muhit yaratish, farzandning har bir yutug‘ini rag‘batlantirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Lakoff G., Johnson M.** *Metaphors We Live By.* – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 213 p.

2. **Kövecses Z.** *Metaphor and Emotion.* – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – 245 p.
3. **Moon R.** *Fixed Expressions and Idioms in English.* – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 201 p.
4. **Seidl J., McMordie W.** *English Idioms.* – London: Longman, 1988. – 176 p.
5. **Nurmonov A.** *Ingliz tilida frazeologik birliklar va ularning semantik xususiyatlari.* – Toshkent, 2005. – 147 b.
6. **Tursunov U.** *Ingliz tilidagi hissiyotlarga oid idiomalarni o‘qitish metodikasi.* – Toshkent, 2012. – 132 b.
7. **Hakimov M.** *Ingliz va o‘zbek frazeologiyasida hissiyotlarni ifodalash.* – Samarqand, 2010. – 158 b.

WORLDSKILLS КАК ИНСТРУМЕНТ СОВРЕМЕННОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: НАУЧНЫЙ АНАЛИТИЧЕСКИЙ ОБЗОР

Азизова Асаль Руслановна

Institute for the Development of Vocational Education

Аннотация. *В статье рассматривается влияние международной системы WorldSkills на совершенствование профессионального образования, преобразование процесса подготовки специалистов и включение национальных образовательных моделей в глобальное профессиональное сообщество. Целью исследования является определение образовательных, управленческих и экономических результатов использования методологии WorldSkills в практике учебных заведений. Через анализ зарубежного опыта аргументирована важность компетентностной парадигмы,*

соревновательной системы оценки профессионализма и укрепления связей между образовательными организациями и работодателями. Продемонстрировано, что система WorldSkills содействует внедрению обучения, ориентированного на практические навыки, усилению заинтересованности обучающихся в профессиональном росте, модернизации учебной инфраструктуры и подготовке специалистов, востребованных на рынке труда. Результаты исследования свидетельствуют о целесообразности адаптации инструментов WorldSkills в процессе реформирования системы профессионального образования Узбекистана.

Ключевые слова: *WorldSkills, профессиональное образование, компетентностный подход, профессиональные компетенции, чемпионат движения, стандарт компетенций, квалификация, дуальное обучение, социальное партнёрство, подготовка кадров, профессиональная мобильность, технологическая модернизация.*

Abstract. *The article examines the impact of the international WorldSkills system on the improvement of vocational education, the transformation of specialist training processes, and the integration of national educational models into the global professional community. The purpose of the study is to identify the educational, managerial, and economic outcomes of applying the WorldSkills methodology in the practice of educational institutions. Through an analysis of international experience, the importance of the competence-based paradigm, the competitive system for assessing professional skills, and the strengthening of collaboration between educational organizations and employers is substantiated. It is demonstrated that the WorldSkills system contributes to the implementation of practice-oriented training, the enhancement of learners' motivation for professional development, the modernization of educational infrastructure, and the preparation of specialists who are in high demand in the labor market. The results of the study indicate the relevance and feasibility of adapting WorldSkills tools within the framework of ongoing reforms in the vocational education system of Uzbekistan.*

Keywords: *WorldSkills, vocational education, competence-based approach, professional competencies, skills championship, competency standards, qualification, dual training, social partnership, workforce development, professional mobility, technological modernization.*

Annotatsiya. *Maqolada xalqaro WorldSkills tizimining kasb-hunar ta'limini yaxshilashga, mutaxassislar tayyorlash jarayonlarini o'zgartirishga va milliy ta'lim modellari global kasbiy hamjamiyatga integratsiya qilishga ta'siri tadqiq qilingan. Tadqiqotning maqsadi WorldSkills metodologiyasini ta'lim muassasalari amaliyotida qo'llashning ta'lim, boshqaruv va iqtisodiy natijalarini aniqlashdan iborat. Xalqaro tajribani tahlil qilish orqali kompetensiyaga asoslangan paradigma, kasbiy malaka baholashning raqobatbardosh tizimi va ta'lim tashkilotlari bilan ish beruvchilar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish muhimligi isbotlangan. WorldSkills tizimi amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni joriy qilishga, o'quvchilarning kasbiy rivojlanishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga, ta'lim infratuzilmasini modernizatsiya qilishga va mehnat bozorida talabga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qilishi ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda kasb-hunar ta'limi tizimida olib borilayotgan islohotlar doirasida WorldSkills vositalarini adaptatsiya qilishning dolzarbligi va amalga oshirilishi mumkinligini ko'rsatmoqda.*

Kalit so'zlar: *WorldSkills, kasb-hunar ta'limi, kompetensiyaga asoslangan yondashuv, kasbiy kompetensiyalar, malaka chempionati, kompetensiya standartlari, malaka, ikki tomonlama ta'lim, ijtimoiy hamkorlik, mehnat resurslarini rivojlantirish, kasbiy harakatchanlik, texnologik modernizatsiya.*

Введение

Постановление Президента Республики Узбекистан от 11 августа 2020 года № ПП-4804 "О дополнительных мерах, направленных на привлечение к предпринимательству, повышение трудовой активности и профессиональное обучение бедных и безработных граждан, а также обеспечение занятости населения". Этот документ направлен на решение проблем занятости и

бедности в стране путем создания условий для вовлечения малообеспеченных и безработных граждан в экономическую деятельность. Постановление предусматривает меры по профессиональному обучению уязвимых категорий населения, предоставлению льгот для начинающих предпринимателей из числа малообеспеченных семей, а также усилению поддержки в трудоустройстве и самозанятости. Документ вступил в силу 12 августа 2020 года [1].

Глобальные трансформационные процессы в мировой экономике детерминируют необходимость повышения качества профессиональной подготовки кадров. Ускоренное технологическое развитие производственных систем, масштабная цифровизация экономики и обострение конкуренции на рынке труда формируют объективную потребность в модернизации образовательных систем и внедрении современных механизмов формирования профессиональных компетенций. В этом контексте международное движение WorldSkills, представляющее собой глобальную платформу профессионального совершенства с участием более 80 стран, зарекомендовало себя как один из наиболее результативных инструментов развития профессионального образования.

Научная актуальность настоящего исследования обусловлена тем, что вовлечение национальных образовательных систем в движение WorldSkills создает условия для их системной модернизации посредством освоения инновационных образовательных технологий, стандартизации квалификационных параметров и формирования механизмов интеграции национальных кадров в глобальное профессиональное пространство.

Методы исследования

В исследовании применялись теоретические и эмпирические методы анализа. Теоретические методы включали сравнительно-педагогический анализ

международных стандартов компетенций, контент-анализ нормативных документов WorldSkills и научно-педагогической литературы по вопросам компетентностного подхода. Эмпирические методы основывались на изучении материалов чемпионатов WorldSkills International и WorldSkills Uzbekistan, данных национальных отчётов о подготовке участников, экспертных заключений и аналитических обзоров, посвящённых трансформации профессионального образования в странах-участницах движения. Метод системного анализа позволил выявить структурные компоненты влияния WorldSkills на образовательные учреждения и оценить педагогическую эффективность внедрения стандартов движения.

Результаты исследования подтверждают, что WorldSkills значительно повышает качество профессионального образования. Благодаря внедрению стандартов WorldSkills, учебные программы становятся более актуальными и соответствуют требованиям рынка труда. Модернизация материально-технической базы позволяет учащимся осваивать современные технологии. Чемпионаты WorldSkills формируют у студентов необходимые профессиональные качества, такие как ответственность, стремление к качеству и умение работать в условиях ограниченного времени. Кроме того, WorldSkills способствует повышению квалификации преподавателей и укреплению связей между образованием и работодателями, что в конечном итоге обеспечивает подготовку высококвалифицированных специалистов.

Обсуждение

Анализ международного опыта показал, что WorldSkills можно рассматривать как модель глобального развития компетентностного образования. В отличие от традиционных академических подходов, движение ориентировано на реальные производственные задачи, оценку практических

навыков и создание условий для формирования профессионального мастерства.

Узбекистан, интегрировав WorldSkills в систему профессионального образования, получает возможность ускорить реформирование отрасли, реализовать государственные программы по повышению конкурентоспособности кадров и создать эффективную систему дуального обучения. Это особенно важно в условиях промышленной модернизации, необходимости подготовки инженерно-технических кадров и повышения уровня занятости молодёжи.

Научная значимость результатов движения WorldSkills состоит в том, что оно формирует основу для развития системы независимой оценки квалификаций, стимулирует переход к модульному и практико-ориентированному обучению и создаёт единое профессиональное пространство, в котором квалификация специалиста подтверждается объективными критериями.

Заключение

Проведённое исследование позволяет утверждать, что WorldSkills представляет собой эффективный международный механизм развития профессионального образования, способствующий формированию конкурентоспособных кадров и обновлению образовательной системы. Движение оказывает комплексное влияние на содержание обучения, материально-техническое оснащение, профессиональную мотивацию учащихся и повышение квалификации преподавателей.

Для Узбекистана внедрение WorldSkills имеет стратегическое значение, поскольку обеспечивает модернизацию профессионального образования, укрепление сотрудничества с бизнесом, повышение качества практической

подготовки и формирование современного кадрового потенциала. Полученные результаты подтверждают необходимость дальнейшего расширения участия образовательных учреждений в движении и интеграции стандартов WorldSkills в национальную образовательную систему.

Список использованных источников

1. **Постановление Президента Республики Узбекистан** от 11 августа 2020 года № ПП-4804 «О дополнительных мерах, направленных на привлечение к предпринимательству, повышение трудовой активности и профессиональное обучение бедных и безработных граждан, а также обеспечение занятости населения». URL: https://lex.uz/docs/4945780
2. **Mulder, M.** *Competence-Based Education and Training.* – London: Routledge, 2017. – 432 p.
3. **Зеер, Э.Ф.** *Психология профессионального развития.* – Москва: Академия, 2009. – 240 с.
4. **Сатунина, А.А.** Международное движение WorldSkills и его влияние на развитие профессионального образования // *Профессиональное образование и рынок труда.* – 2022. – № 4. – С. 15–22.
5. **WorldSkills Uzbekistan.** *National Report on Championship Development.* – Tashkent: WSU Publishing, 2024. – 118 p.
6. **Дьюи, Дж.** *Демократия и образование.* – Москва: Педагогика, 2000. – 384 с.
7. **Кларин, М.В.** *Инновационные образовательные технологии.* – Москва: Изд-во МГУ, 2018. – 312 с.
8. **European Commission.** *Skills Agenda for Europe.* – Brussels: EC Publications, 2020. – 167 p.

URUSHDAN KEYINGI YILLARDA QORAQALPOG‘ISTONDA KASABA UYUSHMA TASHKILOTINING FAOLIYATI TARIXIDAN

Erniyazova Dilarom Bekniyazovna

Nukus davlat pedagogik instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqola Ikkinchi jahon urushidan keying davrda Qoraqalpog‘iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishi va rivojlanishida kasaba uyushmalarining tutgan o'rnini tahlil qiladi. Tadqiqot urushdan keying vayronalarni bartaraf etish, sanoatni qayta tiklash, ishchi kuchini safarbar qilish va ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish jarayonlarida kasaba uyushmalarining ko'p qirrali faoliyatini ko'rib chiqadi. Tadqiqot natijalarida urushdan keying rekonstruksiya davrida kasaba uyushmalarining nafaqat mehnat jarayonlarini tashkil etishda, balki ishchilarning turmush sharoitlarini yaxshilash, madaniy-ma'rifiy ishlarni yo'lga qo'yish va ijtimoiy kafolatlarni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaganligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *kasaba uyushmalari, urushdan keying qayta qurish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ishchilar harakati, mehnat tashkiloti, Sovet davri*

Abstract. *This article analyzes the role of trade unions in the socio-economic reconstruction and development of the Republic of Karakalpakstan in the post-World War II period. The study examines the multifaceted activities of trade unions in the processes of post-war destruction, industrial reconstruction, labor mobilization, and the formation of a social protection system. The results of the study show that trade unions played an important role not only in organizing labor processes during the post-war reconstruction period, but also in improving the living conditions of workers, organizing cultural and educational activities, and providing social guarantees.*

Keywords: *trade unions, post-war reconstruction, socio-economic development, labor movement, labor organization, Soviet period*

Аннотация. *В статье анализируется роль профсоюзов в социально-экономическом восстановлении и развитии Республики Каракалпакстан в послевоенный период. В исследовании рассматривается многогранная деятельность профсоюзов в процессах послевоенной разрухи, восстановления промышленности, мобилизации рабочей силы и формирования системы социальной защиты. Результаты исследования показывают, что профсоюзы сыграли важную роль не только в организации трудовых процессов в период послевоенного восстановления, но и в улучшении условий жизни трудящихся, организации культурно-просветительской деятельности и предоставлении социальных гарантий.*

Ключевые слова: *профсоюзы, послевоенное восстановление, социально-экономическое развитие, рабочее движение, организация труда, советский период*

KIRISH. Ikkinchi jahon urushi Sovet Ittifoqining barcha hududlariga katta insoniy va moddiy yo'qotishlar keltirdi. Urushdan keyingi qayta qurish davri Sovet davlati oldida mamlakatning iqtisodiy salohiyatini tiklash va aholining turmush darajasini yaxshilash kabi ulkan vazifalarni qo'ydi. Qoraqalpog‘iston Avtonom Respublikasi geografik jihatdan to'g'ridan-to'g'ri harbiy harakatlarga duch kelmagan bo'lsa-da, urush davomida front va orqa uchun ulkan mehnat resurslarini safarbar etish, iqtisodiyotni harbiy ehtiyojlarga moslash va evakuatsiya qilingan aholini qabul qilish zaruriyati yuzaga keldi [1]. Urushdan keyingi davrda esa mintaqada sanoat korxonalarini modernizatsiyalash, qishloq xo'jaligini rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilmani qayta tiklash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etdi. Bu murakkab jarayonlarda kasaba uyushma tashkilotlari davlat va partiya organlari bilan birgalikda mehnat jarayonlarini tashkil etish, ishchi sinfining ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini himoya qilish va jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim vositaga aylandi. Sovet kasaba uyushmalari tizimi o'zining tuzilishi va funktsiyalari jihatidan g'arbiy demokratik mamlakatlardagi kasaba uyushmalaridan

tubdan farq qildi. Sovet tizimida kasaba uyushmalari davlat va ishchi sinfi o'rtasidagi vositachi sifatida emas, balki davlat siyosatini amalga oshirishning muhim mexanizmi vazifasini bajargan [2]. Qoraqalpog‘istonda ham kasaba uyushmalari ishlab chiqarish rejalarini bajarish, mehnat intizomini mustahkamlash, ishchilarning malakasini oshirish va ularning moddiy-madaniy ehtiyojlarini qondirish bo'yicha ko'p qirrali faoliyat yuritgan.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu tadqiqot asosan tarixiy-tahliliy va taqqoslash metodologiyasiga asoslanadi. Sovet kasaba uyushmalari tarixi bo'yicha fundamental tadqiqotlar asosan 1960-1980-yillarda nashr etilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi kasaba uyushmalarining ijobiy rolini ta'kidlash va davlat siyosatini oqlovchi xarakterga ega edi [3]. Biroq, mustaqillik davridan keyin post-sovet makonidagi tadqiqotchilar kasaba uyushmalarining real funksiyalari va ularning Sovet tizimidagi o'rnini obyektiv baholashga harakat qildilar. Rossiyalik tarixchi Filtzer (1994) o'z tadqiqotida Sovet kasaba uyushmalarining ishchi sinfining manfaatlarini himoya qilishdan ko'ra, davlat siyosatini amalga oshirish vositasi bo'lganligini ta'kidlaydi [4].

O'zbekiston va Qoraqalpog‘iston tarixiga oid umumiy asarlarda kasaba uyushmalari ko'pincha sanoatlashtirish va qishloq xo'jaligi jarayonlari tahlilining tarkibiy qismi sifatida tilga olinadi [5]. Biroq, aynan urushdan keyingi qayta qurish davrida kasaba uyushmalarining o'ziga xos rolini yorituvchi monografik tadqiqotlar yetarli emas. Qoraqalpog‘iston tarixiga bag'ishlangan fundamental asarlarda mintaqaning urushdan keying iqtisodiy rivojlanishi, sanoat va qishloq xo'jaligi transformatsiyasi, shuningdek, ijtimoiy jarayonlar kengroq kontekstda ko'rib chiqilgan [6]. Ushbu tadqiqotlar kasaba uyushmalarining mehnat tashkiloti va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi ishtirokini tasdiqlovchi ma'lumotlar beradi, ammo ularning ijtimoiy himoya funksiyalari va ishchilar turmush darajasiga ta'siri to'liq ochib berilmagan. Urushdan keying Sovet iqtisodiyotining qayta tiklanishi

masalasiga bag'ishlangan xorijiy tadqiqotlar, xususan, Nove va Harrison asarlari Sovet iqtisodiyotining qayta qurish strategiyalarini tahlil qiladi [7].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Urushdan keyingi davrda Qoraqalpog‘iston kasaba uyushmalari tashkilotining faoliyati bir necha asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi: ishlab chiqarish rejalarini bajarish va mehnat unumdorligini oshirish, ishchilarning ijtimoiy himoyasi va turmush sharoitlarini yaxshilash, madaniy-ma'rifiy ishlar va kadrlar tayyorlash. Harbir yo'nalish mintaqaning iqtisodiy tiklanishi va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega edi. Qoraqalpog‘iston 1940-yillarning ikkinchi yarmida va 1950-yillarda tez sanoatlashtirish jarayonini boshdan kechirdi, bu esa ishchi kuchiga bo'lgan talabning keskin oshishiga olib keldi [8]. Kasaba uyushmalari ishchi kuchini safarbar etish, yangi ishchilarni kasbiy tayyorlash va mavjud kadrlarning malakasini oshirish jarayonlarini tashkil etishda markaziy rol o'ynadi.

Ishlab chiqarish sohasida kasaba uyushmalarining asosiy vazifasi mehnat intizomini mustahkamlash va ishlab chiqarish rejalarini bajarish edi. Urushdan keyingi davrda Sovet iqtisodiyoti qat'iy markaziy rejalashtirish asosida tiklanayotgan edi va har bir korxona belgilangan ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga erishishi talab qilingan. Qoraqalpog‘iston kasaba uyushmalari mehnat raqobati harakatlarini tashkil etish, ilg'or ishchilarni targ'ib qilish va mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha kampaniyalar o'tkazish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini rag'batlantirdilar. Staxanovchilar harakati, sotsializm mehnatining qahramonlari tizimi va mehnat zarbdorlari tashkiloti kabi ommaviy harakatlar kasaba uyushmalari tomonidan faol qo'llab-quvvatlangan va ular orqali ishchilar orasida mehnat rag'bati oshirilgan [9]. Shu bilan birga, kasaba uyushmalari mehnat qonunchiligini bajarish ustidan nazorat qilish, ishchilarning ish vaqti va dam olish tartibini tartibga solish hamda mehnat xavfsizligi qoidalarini ta'minlashda ham mas'uliyat yuklagan.

Biroq, ishlab chiqarish vazifalarini bajarishda kasaba uyushmalari ko'pincha ishchilarning manfaatlarini himoya qilishdan ko'ra, davlat rejalarini amalga oshirish vositasi sifatida harakat qilgan. Sovet tizimida kasaba uyushmalari mustaqil

tashkilot emas, balki Kommunistik partiya va davlat boshqaruv organlarining tarkibiy qismi bo'lgan, shuning uchun ularning faoliyati asosan yuqoridan belgilangan ko'rsatkichlarga erishishga qaratilgan edi [2]. Qoraqalpog‘iston kontekstida ham kasaba uyushmalari mahalliy partiya qo'mitalari va davlat organlari bilan uzviy bog'liq holda ishlagan va ularning asosiy vazifasi ishlab chiqarish rejalarini bajarish uchun ishchilarni safarbar etish edi. Bu holat ba'zan ishchilarning haqiqiy ehtiyojlari va ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash talablari ikkinchi o'ringa surilib qolishiga olib kelgan.

Ijtimoiy himoya sohasida Qoraqalpog‘iston kasaba uyushmalari urush oqibatlaridan zarar ko'rgan oilalarga yordam ko'rsatish, nogironlar va frontdan qaytgan harbiylar uchun ish o'rinlarini tashkil etish, ishchilarning turmush sharoitlarini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirdilar. Urushdan keyingi yillarda ko'plab ishchilar oilalari og'ir moddiy ahvolda qolgan, uy-joy muammosi keskin edi va oziq-ovqat ta'minoti ham yetarli darajada emas edi. Kasaba uyushmalari ishchilar uchun ijtimoiy-maishiy xizmatlar ko'rsatish, ommaviy ovqatlanish punktlari, bolalar bog'chalari va sog'lomlashtirish muassasalarini tashkil etish orqali ishchilar oilalarining turmush darajasini yaxshilashga yordam berdilar [10].

Kasaba uyushmalarining madaniy-ma'rifiy faoliyati ham katta ahamiyatga ega edi. Ular ishchilar klublari, kutubxonalar va madaniy markazlarni tashkil etish orqali ishchilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish va ularning madaniy darajasini oshirishga harakat qildilar. Qoraqalpog‘istonda kasaba uyushmalari tomonidan tashkil etilgan madaniy tadbirlar, teatr va kino ko'rsatuvlari, sport musobaqalari va badiiy to'garaklar ishchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va jamoa ruhini mustahkamlashga xizmat qilgan. Savod oshirish va kasbiy o'qitish dasturlari ham kasaba uyushmalari faoliyatining muhim qismi bo'lib, ular ishchi sinfining malakasini oshirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarish talablariga moslashtirishda yordam bergan. Urushdan keying davrda texnologik taraqqiyot tez sur'atlarda

kechayotgan paytda, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish iqtisodiy rivojlanishning zaruriy sharti edi.

Qoraqalpog‘iston kasaba uyushmalari faoliyatining yana bir muhim yo'nalishi mehnat qonunchiligini bajarish ustidan nazorat qilish va ishchilar huquqlarini himoya qilish edi. Nazariy jihatdan kasaba uyushmalari ishchilarning ish haqi, ish vaqti, dam olish kunlari va mehnat xavfsizligi bo'yicha qonun hujjatlarining bajarilishini ta'minlashi kerak edi. Amalda esa, markaziy rejalashtirilgan iqtisodiyot sharoitida kasaba uyushmalari ko'pincha ishlab chiqarish rejalarini bajarish uchun mehnat qonunchiligining ba'zi normalaridan voz kechishga majbur bo'lgan. Masalan, ortiqcha ish vaqti, dam olish kunlarida ishlash va zaruriy xavfsizlik choralari bajarilmasdan ishlab chiqarish jarayonini davom ettirish holatlari mavjud edi.

XULOSA

Qoraqalpog‘istonning urushdan keying ijtimoiy-iqtisodiy qurilishida kasaba uyushma tashkilotining roli ko'p qirrali va ziddiyatli xarakterga ega bo'lgan. Tadqiqot natijalarida kasaba uyushmalarining 1945-1960-yillar oralig'ida mintaqaning iqtisodiy tiklanishi, sanoatni rivojlantirish va ishchilar turmush darajasini yaxshilashda muhim hissa qo'shganligi aniqlandi. Kasaba uyushmalari ishlab chiqarish rejalarini bajarish uchun ishchi kuchini safarbar etish, mehnat intizomini mustahkamlash va mehnat unumdorligini oshirishda samarali mexanizm bo'lib xizmat qildilar. Ular mehnat raqobati harakatlarini tashkil etish, ilg'or ishchilarni targ'ib qilish va kadrlar malakasini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam berdilar. Ijtimoiy himoya sohasida Qoraqalpog‘iston kasaba uyushmalari ishchilar oilalariga moddiy yordam ko'rsatish, turmush sharoitlarini yaxshilash, sog'lomlashtirish va dam olish imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha muhim ishlarni amalga oshirdilar. Urushdan keying og'ir sharoitlarda kasaba uyushmalari tomonidan tashkil etilgan ijtimoiy dasturlar ishchilarning kundalik turmushini yengillashtirish va ularning moddiy ahvolini yaxshilashga hissa qo'shdi. Madaniy-ma'rifiy faoliyat orqali kasaba uyushmalari

ishchilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish va ularning madaniy darajasini oshirishga harakat qildilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **Allamuratov, N.** (2015). *Qoraqalpog'iston tarixi: XX asr*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. **Ashwin, S.** (2004). *Russian workers: The anatomy of patience*. Manchester: Manchester University Press.
3. **Bonnell, V. E.** (1983). *Roots of rebellion: Workers' politics and organizations in St. Petersburg and Moscow, 1900–1914*. Berkeley: University of California Press.
4. **Filtzer, D.** (1994). *Soviet workers and the collapse of perestroika: The Soviet labour process and Gorbachev's reforms, 1985–1991*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. **G'afurov, B. G.** (1974). *O'rta Osiyo xalqlari tarixi*. Toshkent: Fan.
6. **Kamalov, S. K.** (2001). *Qoraqalpog'iston: Tarixiy-geografik tadqiqot*. Nukus: Qaraqalpaqstan.
7. **Harrison, M.** (1998). The economics of World War II: An overview. In M. Harrison (Ed.), *The economics of World War II: Six great powers in international comparison* (pp. 1–42). Cambridge: Cambridge University Press.
8. **Matveeva, A.** (2009). The Karakalpak factor in Uzbekistan's politics. *Central Asian Survey*, 28(4), 419–435.
9. **Nove, A.** (1992). *An economic history of the USSR, 1917–1991* (3rd ed.). London: Penguin Books.
10. **Yuldashev, Q.** (2008). *O'zbekiston mehnat tarixi: 1945–1991 yillar*. Toshkent: Sharq.

QORAQALPOQ FOLKLORIDA BALIQCHILIKNING ETNOGRAFIK TALQINI

Yeshimbetova Shahnoza Xaydarovna
TDTU akademik litseyi

Annotatsiya: *Maqolada qoraqalpoq folklor an'analarining tavsifiy jihatlari, folklor madaniyatda aholining etnik tarixi, baliqchilik madaniyatining kundalik turmush tarzida aks etishi o'rganilgan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri, Mo'ynoq va Qo'ng'irot tumanlarida olib borilgan dala tadqiqotlari tahlili berilgan.*

Аннотация: *В статье рассматриваются описательные аспекты фольклорных традиций каракалпаков, отражение этнической истории населения в фольклорной культуре, культура рыболовства в повседневной жизни. Также дается анализ полевых исследований, проведенных в городе Нукусе, Муйнакском и Кунгиратском районах Республики Каракалпакстан.*

Abstract: *The article studies the descriptive aspects of Karakalpak folklore traditions, the reflection of the ethnic history of the population in folklore culture, and the fishing culture in everyday life. It also provides an analysis of field research conducted in the city of Nukus, Muynak and Kungirat districts of the Republic of Karakalpakstan.*

Kalit so'zlar: *"Qirq qiz", "qaqtiruv", "shalang", "bakira", "bo'rga", "baliqshi", "baliq"*

Ключевые слова: *«Сорок девушек», «гактирув», «шаланг», «бакира», «борга», « рыбак», « рыба».*

Keywords: *"Forty girls", "gaktiruv", "shalang", "bakira", "borga", "fisherman", "fish".*

Kirish. Xalq og'zaki ijodi xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismi bo'lib, og'zaki so'z san'ati ekanligi bilan ajralib turadi. U avloddan-avlodga o'tib, xalqning iste'dodli vakillari ijrosida sayqallanadi. Vaqtlar o'tishi bilan folklor asarlar qayta

ishlanib, turli o‘zgarishlarga uchrab, yangi-yangi ma’lumotlar bilan boyib, tarixiy sharoitga moslashib borganligini ko‘rishimiz mumkin.

Etnografik motivlarning xalq folklorida o‘rganilishi o‘sha xalqning an’anaviy-maishiy madaniyatining asoslarini tushunish uchun muhimdir. Folklor asarlar yaratuvchi xalqning madaniyati, turmushi va dunyoqarashi tarixini o‘rganish uchun eng boy manba. Shunday bo‘lsa ham qoraqalpoq folklorining etnografik tahlili manbalarda to‘liq yoritilmagan[76].

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab qoraqalpoqlarning og‘zaki va yozma merosini o‘rganish ishlari boshlangan. Xususan, qoraqalpoq xalqining madaniyati, adabiyatini o‘rganishda bir necha olimlarning xizmatlari bor. Qozoq olimi Cho‘qan Valixanov qoraqalpoqlar xalq og‘zaki ijodini namunalarini to‘plash ishlarini olib borgan.

Shuningdek, N.P.Ostroumov 1888-1891 yillarda “Turkiston o‘lkasi mahalliy xalqlarining naql-maqollari” nomli kitobi (etnografik manbalar asosida) da 1110 ta naql-maqollarni keltirib o‘tgan. Ushbu maqollar orasida qoraqalpoq xalqiga tegishli naqllar ham o‘rin olgan[77].

Qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodining ajralmas qismi bo‘lgan naql-maqollarni o‘rganishda rus olimi, filologiya fanlari doktori, professor N.A.Baskakovning xizmati katta. U 1926-1946 yillar oralig‘ida Qoraqalpog‘istonning ko‘plab tumanlarida etnografik va dialektologiyalik izlanishlar olib borgan. 1951 yil “Qoraqalpoq tili” ning birinchi jildi nashrdan chiqishiga erishgan, unda qoraqalpoq va rus tillarida 700 dan ortiq naql-maqollarni kiritgan[78].

Maqolada ko‘rib chiqiladigan qoraqalpoq xalq naql-maqollari-xalqning asrlar davomida yig‘ilgan, ajdodlarimizdan meros sifatida saqlab kelinayotgan xalq xazinasidir. Naql-maqollarining asosiy mazmuni xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro qarindoshlik aloqalari, xalqning turmushdagi o‘z qarashlari, mehnatsevarligi,

[76] Қарақалпақ фольклоры, “Қарақалпақстан”. Нукус-1978, с. 7.
[77] Есбергенов Х; Хошниязов Ж. Этнографические мотивы в каракалпакском фольклоре. « Фан», 1988.с.13
[78] Баскаков Н.А. Каракалпакский язык, т.I. Москва, 1951. 409.с.

geografik hududlar bilan bog‘liq atamalar, xalq xo‘jaligining asosiy sohalari bo‘lgan dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilikda o‘z aksini topgan.

Qoraqalpoqlar azaldan so‘zga chechan, har bir gapiga naql qo‘shib aytadigan xalq bo‘lgan. Shuning uchun ham xalqda:

“ Naqlni bir aytmasa, aqlsiz aytmaydi,

dono kishi so‘zlasa, naqlsiz aytmaydi”, degan maqoli bor.

Quyida biz bir qancha naql-maqollar mohiyatiga to‘xtalib o‘tamiz:

Bekiraning bel kesmasin yemagan boshim,

Qo‘yning sassiq go‘shtiga to‘g‘ri keldim,

Ushbu maqolda bakira - baliqlar ichidagi eng shirini, qo‘y go‘shtining esa qandaydir hidli bo‘lishini doimo baliq yeb yurgan qizning tilidan aytilganini ko‘rish mumkin. Baliqchi qizning chorvador xonadonga kelin bo‘lgani, qo‘y go‘shti ko‘p iste’mol qilinishidan kuyinib aytganligi aks etgan[79].

Qoraqalpoq folklori ma’lumotlarida, mahalliy arxaik xo‘jalik-madaniy turlarining izlari, masalan, ovchilik, baliqchilik, dastlabki dehqonchilik va chorvachilik shakllari, shuningdek, ular bilan bog‘liq qadimgi e’tiqodlar ham mavjud bo‘lib, islomdan oldingi diniy e’tiqod va marosimlarda asosan o‘simlik va hayvonot olami kulti asosiy o‘rinni egallagan. Bu esa ularning yarim ko‘chmanchi turmush tarzi bilan bog‘liqligini bildiradi. Masalan, imomlarning fikrlariga ko‘ra, kasalliklar insonga beriladi va qaytarib olinadi, ular xudodan keladi, biroq xudoning yordamini kutmasdan e’tiqodli insonlar qadimgi urf-odatlarga muvofiq “davolanish” ga intilganlar. Bu urf-odatlarning ildizlari islomdan oldingi davrga borib taqaladi. O‘tmishda qoraqalpoqlarda mavjud bo‘lgan e’tiqodlarga ko‘ra, ayollarning bepushtlik sabablari ota-bobolar madaniyatining ta’siri bo‘lgan. Ular tegishli xotira marosimlarini bajarmaganligi bois bepushtlik bilan jazolangan, insonga qarshi yovuz ruhlarni turli ko‘rinishlarda (hayvonlar, odamlar va b.) yuborgan. Agar homiladorlik uzoq vaqt davomida sodir bo‘lmasa farzandsiz ayollar

[79] Низанов М. Қорақалпоқлар: роман-эссе (биринчи китоб)-Нукус: «Билим», 2020. б. 295.

“muqaddas” joylarga murojaat qilgan va tabiblar ayolning bepushtligini yomon nazar bilan bog‘liq deb hisoblasalar, ularga “qaqtiruv” qilishni tavsiya qilgan, ya’ni turli hayvonlarga o‘zlarini urish (masalan, qora tovuq yoki qush, yoki baliq) orqali marosim o‘tkazishni buyurgan. So‘ngra kasallik ayol tanasidan chiqib hayvonga o‘tadi va ayol homilador bo‘ladi deb ishonilgan[80].

Dala yozuvidan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Beruniy tumanida yashovchi axborotchi Ibodullayeva Qurbonoy o‘z nevarasining o‘n yildan beri farzandsiz ekanligini aytib, unga homilador bo‘lishi uchun “bakira” balig‘ini dokada qoqlab, “un” qilib taomlariga va til ostiga qo‘yib yutqizdirgani, hamda nevarasining farzandli bo‘lib ketganini quvonch bilan aytib berdi. Xotiralarini davom ettirib, 1987-1988 yillari bitta baliqchidan bakira balig‘ini ovlab berishini iltimos qilganman, oradan vaqt o‘tib baliqchi va’dasi ustidan chiqdi. Shunday qilib, bir yarim yil davomida nevaram kuniga to‘rt, besh marotaba qoqlangan bakira balig‘ini iste’mol qildi va natijasi biz kutganday bo‘lib chiqdi. Hozirgi paytda oilasidagi kelishmovchiliklar bartaraf bo‘lib, baxtli oilalardan biri deb, so‘zini yakunladi[81].

Qoraqalpoq folklorida baliqchilik haqidagi qoraqalpoq naql-maqollarida baliqchilarning kundalik turmush tarzi bilan bog‘liq hayoti, tabiiy sharoiti, baliq taomlari haqidagi ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Шөл жағалап қонбай,

Көл жағалап қон

(Cho‘lga qarab yurma topmaysan narsa, ko‘lga qarab yursang topasan rizq)

Тутып алсаң сазанды

Толтырасаң қазанды

(Sazan baliq ushlaganning qozoni qaynar ma’nosida ishlatilgan)

Балығы болмаған көли құрысын

[80] Есбергенов Х; Хошниязов Ж. Этнографические мотивы в каракалпакском фольклоре. « Фан», 1988.с.75.
[81] Dala yozuvi:Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Beruniy tumani, 2025 yil

Кийиги болмаған шөли қурысын

(Baliqsiz ko‘l, kiyiksiz cho‘l bo‘lmagani yaxshi)

Балықтың тиришилиги суў менен

Бақаның куни көл менен

(Baliq hayoti suv bilan, baqaning kuni esa ko‘l bilan bog‘liq)

Көлдиң атын балық шығарады

Балықтың атын халық шығарады

(Ko‘lning nomini baliq chiqarar, baliqning nomini esa xalq mashhur qiladi)

Сумбиле туссе суў суўыр

Көлдеги балық қурыр

(Sumbula tushsa suv soviydi, ko‘lda baliq kamayadi)

Жарлының теңи жарма

Балықшының теңи қарма

(Kambag‘alning sherigi yorma, baliqchining sherigi qarma)

Балықшы айтпайды расын

Сонда да алады бир асым

(Baliqchi haqiqatni aytmaydi, shunda ham o‘z ulushini oladi, ya’ni baliqchi va baliqning o‘ziga xos xususiyatlari orqali odamlar fe’l-atvori ifodalangan)

Ет есесин алады

Балық баҳасын алады

(Go‘sht o‘z haqqini oladi, baliq o‘z narxini oladi)

Көлди балық гужитер

Сөйлемегенниң иши исер

(Ko‘lni baliq g‘ajitar, so‘zlamaganning ichi shishar)

Балық жеген тоқ болар

Ҳәл-дәрманы жоқ болар

(Baliq yegan odam to‘q bo‘lar, hol-darmoni yo‘q bo‘lar)

Сазан балықтың мийин жеген

Ақыллы болады

(sazan baliqning miyasini yegan aqlli bo‘ladi)

Балықшы балықшыны узақтан таныйды

(Baliqchi baliqchini uzoqdan taniydi)

Тисли- бир қайнаса писти

(Tishli-bir qaynasa pishdi)

Балықшының уйине барсаң қарма жейсең

Дийқанның уйине барсаң жарма ишесең

Baliqchining uyiga borsang qarma yeysan, dehqonning uyiga borsang yorma yeysan, ya’ni qoraqalpoq xalqi yarim ko‘chmanchi bo‘lishiga qaramasdan mavsumga qarab chorvachilik, dehqonchilik va baliqchilik bilan ro‘zg‘or tebratgan. Ayniqsa baliqdan xilma-xil taomlar tayyorlashgan. Bu haqda “qoramo‘yin” urug‘idan bo‘lgan axborotchi To‘lepova Gulsara Rametullayevna shunday ma’lumot berib o‘tdi: “baliq qarma” taomi ota-bobolarimizdan meros qolgan. Yoshligimizda kempir apalarimiz jilan baliqdan baliq qarma taomini tayyorlab berishgan. Lekin hozirda biz oilamiz bilan Nukus shahridagi mavjud ikkita tamaddixonaga buyurtma berib tanovul qilamiz. Bittasida “ baliq qarma” ikkinchisida sazan baliqning qovurilganini (Go‘ne qal’a) tayyorlashadi deb so‘zini yakunladi[82].

Demak, qoraqalpoq maqollari xalqning tarixiy o‘tmishi bilan bog‘liq bo‘lib, ajdodlar qoldirgan an’analar, ayniqsa, baliqchilikning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘rni, baliq ovlash qurollari, baliq turlari va baliq taomlarining kundalik turmushdagi ahamiyati yoritilgan.

Shuningdek, maqolada qoraqalpoq xalqining baliqchilikka oid qo‘shiqlari ham o‘rin olgan bo‘lib, masalan, “Aralim”, “Aral” qo‘shiqlarida Orol dengizining to‘lib toshishi, ota-bobolar kasb-kori baliqchilik, baliq ovlashda ishlatilgan qurollar va ularning turlari, xilma-xil baliqlarning tipirchilab suvda o‘ynashi, xalqning xursandchiligi aks ettirilgan.

[82] Dala yozuvi: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, 2025 yil

Quyidagi “Baliq” she’rida ham baliqchining ovga bo‘lgan mehri va saxiyligi o‘rin olgan:

Baliq

Теңизге мен аў салдым, туттым бугин бир балық,
Қолда турмай ойнақшып, тыпыршып тур ол балық,
Қызығып қарап тур екен, балығыма бир бала,
Бердим оған сыйлаўға, рахмет,-деди қуўана[83].

Baliqchilar ovga ketishini atymaydi, chunki ov baroridan kelmay qolishi mumkin, shu o‘rinda aytib o‘tay “Baliqchi aytmaydi rostini, mingta bo‘lsa ham balig‘i ya’ni baliqchi ovlab kelgan balig‘ini atigi uchta, to‘rttagina deb, boshqa bir insonga berishni xohlamaydi deya Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qo‘ng‘irot tumanida yashovchi axborotchi, muyten urug‘idan bo‘lgan Karimov Abdulla o‘zining bolalikda otasi Qo‘chqorov Karimboydan eshitgan naql-maqollarini eslab o‘tdi. Shuningdek, Karimboy ota “сыралға” odati haqida ham to‘xtalib, agar baliq ovida yoshi katta inson kelib xohlagan ko‘ngli tushgan baliqni berishni so‘rasa, baliqchi o‘sha baliqni “қарры” (qoraqalpoqlarda yoshi katta inson) insonga albatta qiynalmasdan rozi bo‘lib berish kerakligini ta’kidladi. Shaxsan men baliq ovida yoshi katta odamga xohlagan balig‘ni, yana besh, oltita baliq qo‘shib berganman. Shunday qilolsanggina keyingi ov baroridan keladi deyishadi ota-bobolarimiz. O‘sha inson bizga “жылымың майлана берсин” deb fotiha (“patiya”) berganini aytib o‘tdi. Karimboy ota hozirda yashayotgan manzili Berdaq MFY, “Baliqchi” ko‘chasi deb nomlanishini, hamda ko‘chaga bunday nom berilishiga aholining baliqchililk bilan shug‘ullanib, ro‘zg‘or tebratishini, ota kasbining davomchisi sifatida qayiq yasashini ta’kidladi o‘tdi[84].

Ta’kidlash joiz, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Mo‘ynoq tumanida yashovchi 1955 yilda tug‘ilgan, qo‘ldovli urug‘idan bo‘lgan Utemuratova Gulzira opa 1979 yil Mo‘ynoqqa turmushga chiqib, Qozoqdaryo MFYda ingliz tilidan dars bergan. O‘z

[83] Уббиниязов Х. Балықшының балалары: Қосықлар топламы. - Нөкис, Қарақалпақстан, 1983.б.22-23.
[84] Dala yozuvi: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qo‘ng‘irot tumani, 2025 yil

xotiralari bilan o‘rtoqlashib, qoraqalpoqlarning muyten va qo‘stamg‘ali urug‘lari ota-bobolari baliqchilar bo‘lishgani haqida to‘xtalib:

“Qo‘stamg‘ali vu deydi, baliqqa qarab shu deydi,

Bir baliqning basin yeb, voy-voy xotin suv deydi” ya’ni baliq oviga ketgan baliqchilar turmush o‘rtoqlariga hazil qilib, aytishgani, hamda baliq oviga qiziuvchanligini, haqiqiy baliqchi ekanligini ko‘rsatish ma’nosida ota-bobolaridan qolgan merosini aytib o‘tdi[85].

Shu o‘rinda, maqolada qoraqalpoq xalqi etnogenezida ishtirok qilgan massaget qabilasi haqidagi qissa ham o‘rin olgan bo‘lib, qissada baliqchilikka oid ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, massagetlar Kaspiy va Orol dengizi oralig‘ida, Araks-Amudaryo, Aksart-Sirdaryo bo‘ylarida makon topishgan. O‘sha paytlarda Araks-Amudaryo Kaspiy dengiziga quyilgan. Suv daryoning o‘zaniga sig‘may toshib ketgan vaqtlarda Uzbay irmog‘i orqali Orolga quyilgan. Tarix otasi Gerodot massagetlarni hozirgi xorazmliklarning tub bobosi deb hisoblagan. Shu sababdan, Xorazm diyorida yashayotgan qoraqalpoqlar, o‘zbeklar, qozoqlar barchasi bu qadim qavmni o‘zlarining bobolari deb bilishgan. Biroq ularning kasb-koriga, turmush tarziga chuqurroq razm solsak, qoraqalpoq millatiga xos bo‘lgan belgilarni ko‘proq uchratish mumkin. Masalan, “massaget” so‘zi “baliq yeb kun ko‘ruvchilar” degan ma’noni bildiradi. Demak qoraqalpoqlarning baliqqa ixlosi, qayerda yashamasin dengiz yoki daryo bo‘yini o‘zlashtirib, baliqchilikni kasb qilib olishi bizga massagetlardan meros bo‘lib qolgan. Xalqimizda “Uch oy chabog‘im” degan maqol bor. Bir baliqchining qizi cho‘ponning o‘g‘liga turmushga chiqib, kelin bo‘lib tushgan joyida turmushiga ko‘ngli to‘lmay “Bakiraning bel kesmasin yemagan boshim, qo‘yning sassiq go‘shtiga duchor bo‘ldim” degan ekan[86].

Demak bu qoraqalpoqlarning baliqni hamma taomlardan ustun qo‘yishini anglatadi. Shuningdek, bizning xalqimizda “baliq jannatdan chiqqan” degan ibratli

[85] Dala yozuvi: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Mo‘ynoq tumani, 2025 yil
[86] Низанов М. Қорақалпоқлар: роман-эссе (иккинчи китоб)-Нукус: Билим, 2021.б. 6.

ibora bo‘lib, shuning uchun ham baliqni bo‘g‘izlamasdan ovlashgan. Bu esa ularning baliq zotiga, o‘z kasb-koriga bo‘lgan hurmatidir.

Albatta, dunyoda baliqni xushlamaydigan xalq yo‘q. Chunonchi, qoraqalpoqlarning baliq desa “o‘zini tomdan tashlashi” dan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Qolaversa, bizning ota-boblarimiz hamisha dengiz va daryo bo‘ylarida hayot kechirib, baliqchilikni o‘zlariga asosiy kasb qilib olishgan, ba’zan yuz bergan ocharchilik paytlarida ham “luqmai halol” xalqning joniga oro kirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Қарақалпақ фольклоры.** – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1978. – 348 с.
2. **Есбергенов Х., Хошниязов Ж.** Этнографические мотивы в каракалпакском фольклоре. – М.: «Фан», 1988. – 151 с.
3. **Баскаков Н. А.** Каракалпакский язык. Т. I. – Москва, 1951. – 409 с.
4. **Низанов М.** Қорақалпоқлар: роман-эссе (биринчи китоб). – Нукус: «Билим», 2020. – 432 б.
5. **Дала ёзуви.** Қорақалпоғистон Республикаси, Беруний тумани, 2025 йил.
6. **Дала ёзуви.** Қорақалпоғистон Республикаси, Нукус шаҳри, 2025 йил.
7. **Уббиниязов Х.** Балықшының балалары: Қосықлар топламы. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1983. – 53 б.
8. **Дала ёзуви.** Қорақалпоғистон Республикаси, Қўнғирот тумани, 2025 йил.
9. **Дала ёзуви.** Қорақалпоғистон Республикаси, Мўйноқ тумани, 2025 йил.
10. **Низанов М.** Қорақалпоқлар: роман-эссе (иккинчи китоб). – Нукус: «Билим», 2021. – 428 б

KEY CONCEPTUAL FEATURES IN UZBEK AND ENGLISH LITERATURE

Anvarjonova Zarifaxon Abrorjon qizi

Fergana State University

etish shakllari o‘quvchilarning faol ishtirokini rag‘batlantirish va bilimni chuqur o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Asosiy shakllar quyidagilar: Dars — o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilarga bilim berishning asosiy shakli. Dars davomida nazariy ma’lumotlar beriladi, misollar ko‘rsatiladi va nazorat savollari orqali bilim darajasi aniqlanadi. Seminar — kichik guruhda olib boriladigan muhokama shakli. Seminar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, savol-javob va munozara orqali bilimni mustahkamlash imkonini beradi. Amaliy mashg‘ulot — laboratoriya, tajriba va loyiha ishlari orqali o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bu shakl nazariy bilimlarni real faoliyat bilan bog‘lashga yordam beradi.

Mustaqil ta’lim — o‘quvchining o‘z bilimini mustaqil ravishda rivojlantirishga yo‘naltirilgan shakl. Mustaqil o‘qish, topshiriqlar bajarish va tadqiqot ishlari orqali o‘quvchi o‘z bilimini chuqurlashtiradi. Interaktiv mashg‘ulotlar — zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etiladi. Bunga interaktiv taqdimotlar, onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar va guruh loyihalari kiradi. Ushbu shakl o‘quvchilarning faol ishtirokini oshiradi va kreativ fikrlashni rivojlantiradi. Ta’lim turlari va shakllarining o‘zaro bog‘liqligi: Ta’limning turlari va tashkil etish shakllari bir-birini to‘ldiradi. Formal ta’limda seminar va amaliy mashg‘ulotlar orqali bilim mustahkamlanadi, noformal va informal ta’lim shakllari esa shaxsiy qiziqish va kasbiy rivojlanishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, interaktiv va innovatsion shakllar barcha ta’lim turlarini yanada samarali qiladi, o‘quv jarayonini qiziqarli va motivatsion qiladi. Ta’lim turlarini samarali qo‘llash: Ta’lim jarayonida turli turlarni birgalikda qo‘llash o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini to‘liq rivojlantirishga imkon beradi. Masalan: Formal ta’lim orqali asosiy nazariy bilimlar beriladi va rasmiy baholash tizimi joriy etiladi; Noformal ta’lim orqali o‘quvchilarning kreativ fikrlashi va amaliy ko‘nikmalari shakllantiriladi; Informal ta’lim esa shaxsiy qiziqish va hayotiy tajriba orqali mustaqil rivojlanishga yordam beradi. Shunday qilib, ta’lim turlarining uyg‘unligi ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi va o‘quvchilarning individual rivojlanishiga moslashuvchan imkoniyat yaratadi.

Zamonaviy ta’limda innovatsion yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Interaktiv shakllar: Guruh loyihalari va case-study metodlari — o‘quvchilarni muammolarni hal qilishga jalb qiladi; Onlayn kurslar va virtual laboratoriyalar — nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan mustahkamlaydi; Multimedia va raqamli resurslar — darslarni qiziqarli va tushunarli qiladi; Gamifikatsiya — o‘quv jarayonini o‘yin elementlari orqali rag‘batlantiradi. Innovatsion yondashuvlar ta’lim jarayonini zamonaviy talablarga moslashtiradi va o‘quvchilarning faolligini oshiradi.Ta’limni tashkil etishda boshqaruvning roli: Ta’lim shakllarini samarali qo‘llash nafaqat o‘qituvchining pedagogik mahoratiga, balki ta’lim muassasasi boshqaruvining sifatiga ham bog‘liq. Samarali boshqaruv quyidagilarni ta’minlaydi: o‘quv jarayonini rejalashtirish va muvofiqlashtirish; xodimlar va o‘quvchilar o‘rtasida optimal muloqot va hamkorlik; resurslarni samarali taqsimlash; monitoring va baholash orqali ta’lim sifatini oshirish. Shu bilan birga, boshqaruv zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, innovatsion shakllarni qo‘llash va o‘quvchilarning qiziqishlarini rag‘batlantirish orqali ta’lim jarayonini optimallashtiradi.

Ta’lim turlari va ta’limni tashkil etish shakllari — o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlovchi asosiy pedagogik vositalardir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, formal, noformal va informal ta’lim turlari bir-birini to‘ldiruvchi va o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydigan mexanizm sifatida xizmat qiladi. Ta’limni tashkil etish shakllari — dars, seminar, amaliy mashg‘ulot, mustaqil ta’lim va interaktiv mashg‘ulotlar — o‘quv jarayonini qiziqarli, samarali va motivatsion qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning faolligini rag‘batlantirish va ularni mustaqil fikrlashga yo‘naltirish imkonini yaratadi. Shunday qilib, ta’lim turlari va shakllarini samarali uyg‘unlashtirish, boshqaruv va innovatsion metodlarni qo‘llash orqali ta’lim jarayonini yanada sifatli va samarali tashkil etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni.** “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF–60-son. – Toshkent, 2022.
2. **Abdug‘aniyev, A.** Ta’lim turlari va pedagogik metodlar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2022.
3. **Karimova, S.** Ta’limni tashkil etish shakllari va innovatsion yondashuvlar // *Pedagogik innovatsiyalar* jurnali. – 2023. – № 3.
4. **Usmonova, N.** Ta’lim sifatini oshirishda interaktiv va raqamli metodlarning roli // *Oliy ta’lim va ilm-fan* jurnali. – 2023. – № 2.
5. **Johnson, P.** *Educational Leadership and Modern Learning Approaches*. – London: Routledge, 2022.
6. **Miller, T.** *Innovative Learning Forms and Education Management*. – New York: Springer, 2023.

NATIONAL AND CULTURAL FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE UZBEK LANGUAGE.

Habibullayeva Laylokhon Zarifjon kizi

Kokand University

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi frazeologizmlarning* ***milliy-madaniy xususiyatlari****, ularning xalq tafakkuri, qadriyatlari va turmush tarzi bilan uzviy bog‘liqligi tahlil etiladi. Frazeologik birliklarning mazmunida xalqning* ***mentaliteti, tarixiy tajribasi, urf-odat va an’analari*** *aks etgani ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, maqolada o‘zbek tilidagi barqaror iboralarning* ***badiiy-estetik va ma’naviy yuklamasi****, ularning* ***xalq og‘zaki ijodi*** *hamda* ***milliy o‘zlikni ifodalashdagi o‘rni*** *misollar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra,*

*frazeologizmlar o‘zbek xalqining **dunyoqarashi, axloqiy mezonlari va madaniy boyligini** namoyon etuvchi muhim til birliklari sifatida baholanadi.*

***Kalit so‘zlar:** frazeologizm, milliy madaniyat, xalq tafakkuri, qadriyat, mentalitet, an’ana, o‘zlik, til, badiiy ifoda.*

***Annotation:** This article analyzes the **national and cultural features of phraseologisms** in the Uzbek language and their close connection with the people’s mentality, values, and way of life. It is scientifically substantiated that the meanings of phraseological units reflect the **historical experience, traditions, and worldview** of the Uzbek people. The article also examines the **artistic, aesthetic, and spiritual significance** of stable expressions in Uzbek, illustrating their role in **folk creativity** and in **expressing national identity**. The research concludes that phraseologisms are important linguistic units that represent the **worldview, moral principles, and cultural richness** of the Uzbek nation.*

***Keywords:** phraseologism, national culture, folk mentality, values, mentality, tradition, identity, language, artistic expression.*

***Аннотация:** В данной статье анализируются **национально-культурные особенности фразеологизмов** в узбекском языке, их тесная связь с народным менталитетом, ценностями и образом жизни. Научно обосновано, что в значении фразеологических единиц отражаются **исторический опыт, традиции и мировоззрение** узбекского народа. В статье рассматриваются **художественно-эстетическая и духовная значимость** устойчивых выражений, их роль в **устном народном творчестве** и **выражении национальной самобытности**. В результате исследования установлено, что фразеологизмы являются важными языковыми единицами, отражающими **мировоззрение, моральные принципы и культурное богатство** узбекского народа.*

***Ключевые слова:** фразеологизм, национальная культура, народное мышление, ценности, менталитет, традиции, самобытность, язык, художественное выражение.*

INTRODUCTION

The language of every nation is its spiritual wealth and an expression of its mentality. Through language, a nation reflects its worldview, traditions, and historical lifestyle. In this regard, phraseology is considered one of the brightest examples of national thinking and culture. Phraseological units in the Uzbek language also deeply reflect the lifestyle, values, and psychology of the Uzbek people. Expressing a simple idea through phraseology gives speech imagery and expressiveness. Nowadays, their usage has become common in social networks, memes, and advertisements. For example, the phrase “to disconnect from the Internet” is understood as being left behind from news or trends.

Many linguists have thoroughly studied Uzbek phraseology. For instance, Sh. Rahmatullayev is one of the founders of Uzbek phraseology. He compiled the **Explanatory Dictionary of Uzbek Phraseological Units** and developed the theoretical foundations of phraseology. N. Mahmudov conducted research on the role of phraseological units in literary language and their national-cultural aspects.

Phraseological units of the Uzbek language are linguistic elements that reflect the nation’s history and way of life. The contribution of the above-mentioned scholars is invaluable in the scientific study of these expressions.

The main purpose of this article is to study the national-cultural features of Uzbek phraseological units and analyze their usage on artificial intelligence platforms.

MAIN PART

At the beginning of the 20th century, phraseological units began to be studied as a separate field of linguistics. The general theoretical issues of phraseology were first investigated by the French linguist Charles Bally. In his works, Charles Bally systematized word combinations and, based on their meanings and syntactic features, referred to the stable combinations used as a whole as phraseological units.[1] According to Sh. Rahmatullayev, many expressions originate from ancient Turkic languages and have preserved their meanings to this day. In the studies of E.

Begmatov and M. Mirtojiyev, the lifestyle, values, traditions, and mentality of the Uzbek people are revealed through phraseological units. Phraseological units are closely connected with the life, values, and national-cultural characteristics of the people. They enrich the artistic expressive possibilities of the language and add expressiveness, imagery, and national spirit to speech.

Review of sources used

During the preparation of this article, several scientific sources related to issues of phraseology were utilized. In her research, M. Asqarova provides detailed information about the lexical-semantic features of Uzbek phraseological units, their structural types, and their role in the language. The scholar's views served as an important source in shaping the theoretical foundations of phraseology. Based on her scientific views, phraseological units represent the richest layer of the people's language and culture, embodying their spiritual world, lifestyle, and national-cultural characteristics. As a result of the works of A. Madlayeva and A. Hojiyev, phraseology has been recognized as a separate branch of Uzbek linguistics. The structure, meaning, types, and grammatical features of phraseological units have been clearly defined.

Use of Phraseological Units on Artificial Intelligence Platforms

In today's era of globalization, artificial intelligence and digital technologies are creating new interpretations of linguistic units. Platforms such as ChatGPT, Google, and DeepL work with phraseological units during translation, processing, and text analysis. However, the national color of language is most vividly expressed through phraseology itself. Artificial intelligence often translates phraseological units literally or interprets them incorrectly. Therefore, deep linguistic knowledge is required to correctly identify and contextually translate phraseological expressions.

For example, phraseological units such as "miyasi qotmoq" (to be confused), "kallasiga keltirmoq" (to realize), "tishi o'tmoq" (to become experienced) may be translated by AI literally as "freeze of brain", "bring to head", or "tooth becomes sharp". This leads to distortion of meaning.

That is why, in the process of integrating phraseological units into AI platforms, the following aspects must be taken into account:

- historical formation of the expression
- connection with national mentality
- semantic field
- usage contexts

Conclusion

In conclusion, phraseological units are the richest layer of a nation's worldview, cultural memory, and mentality. They create imagery in language, give speech a national spirit, and express meaning more strongly. Since the 20th century, phraseology has developed as an independent scientific field in Uzbek linguistics and continues to develop consistently even today. In the modern digital era, the correct application of phraseological units on artificial intelligence platforms is becoming increasingly relevant. This process plays an important scientific and practical role in correctly integrating the richness of the Uzbek language into the global information space, preserving the national linguistic heritage, and transferring the cultural spirit of the people to future generations.

References

1. **Shirvonova Z. A.** Dissertation. – Termiz, 2023.
2. **Rahmatullayev Sh.** Modern Uzbek Literary Language. – Tashkent : O‘quvchi, 1978.
3. **Ma’rufov Z. M.** Explanatory Dictionary of the Uzbek Language. – Moscow : Russian Language Publishing House, 1981.
4. **Khodjaeva Sh. R.** Article. – Publication details not specified.
5. **Rahmatullayev Sh.** Modern Uzbek Language. – Tashkent : University Publishing House, 2006.

6. **Abdurahmonov G.** On the Modern Uzbek Language. – Tashkent.

ADOLESCENT IDENTITY AND CULTURAL TRANSFORMATIONS IN 20th CENTURY AMERICAN PROSE

Fayzieva Nigora Khamidjanovna

Osiyo xalqaro universiteti

Abstract. *This article examines the formation of adolescent identity in 20th-century American prose, focusing on how cultural, psychological, and ideological transformations shape literary portrayals of youth. Adolescence is analyzed not only as a biological stage but also as a metaphor for sociocultural transition, emotional turbulence, and moral conflict. Through close readings of works by J.D. Salinger, Harper Lee, Carson McCullers, Joyce Carol Oates, John Updike, and others, the study demonstrates how adolescent protagonists embody tensions between rebellion and conformity, innocence and experience, alienation and belonging. By tracing these literary patterns, the paper argues that adolescence functions as a symbolic space through which American writers interrogate national ideals, cultural anxieties, and the fragmentation of identity in modern society.*

Keywords: *adolescence, identity, American prose, cultural transformation, bildungsroman, psychological realism.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada XX asr Amerika nasrida o‘smirlik identitetining shakllanishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda madaniy, psixologik va mafkuraviy o‘zgarishlar adabiyotda yosh qahramonlarning tasvirlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi ko‘rsatib beriladi. O‘smirlik faqat biologik bosqich sifatida emas,*

balki sotsiomadaniy o‘tish davri, emotsional beqarorlik va axloqiy ziddiyatlar metaforasi sifatida ham o‘rganiladi. J.D. Salinger, Harper Lee, Carson McCullers, Joyce Carol Oates, John Updike va boshqa ijodkorlarning asarlariga tayanilgan holda, maqolada o‘smir obrazlari isyon va muvofiqlik, poklik va tajriba, begonalashuv va mansublik o‘rtasidagi ichki ziddiyatlarni mujassam etishi ta’kidlanadi. Adabiy manbalar tahlili o‘smirlikni Amerikaning milliy ideallarini, madaniy xavotirlarini va zamonaviy jamiyatdagi identitetning ragmentatsiyasini tadqiq etishda ahamiyatli ramziy konstruksiya sifatida sifatida talqin qiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘smirlik, identitet, Amerika nasri, madaniy transformatsiya, bildungsroman, psixologik realizm.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается формирование подростковой идентичности в американской прозе XX века, с акцентом на то, как культурные, психологические и идеологические трансформации формируют литературные образы молодёжи. Подростковый возраст анализируется не только как биологическая стадия, но и как метафора социокультурного перехода, эмоциональной нестабильности и моральных конфликтов. Путём детального анализа произведений Дж. Д. Сэлинджера, Харпер Ли, Карсон Маккуллерс, Джойс Кэрол Оутс, Джона Апдайка и других авторов в исследовании показано, что подростковые персонажи воплощают напряжение между бунтом и конформизмом, невинностью и опытом, отчуждением и стремлением к принадлежности. Прослеживая эти литературные закономерности, автор статьи утверждает, что подростковость функционирует как символическое пространство, через которое американские писатели исследуют национальные идеалы, культурные тревоги и фрагментацию идентичности в современном обществе.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, идентичность, американская проза, культурная трансформация, билдунгсроман, психологический реализм.*

Introduction. The 20th century in America was marked by rapid modernization, political upheaval, and unprecedented cultural change. Industrialization, two world wars, the Great Depression, the Civil Rights Movement, and the rise of youth subcultures reshaped the American social landscape. As society transformed, so too did the concept of adolescence. What had once been a transitional stage became a distinct cultural category, characterized by psychological instability, ideological questioning, and moral ambiguity.

American prose played a crucial role in articulating and shaping the literary image of the teenager. Writers increasingly portrayed adolescents as symbolic figures who reflect broader cultural tensions. Holden Caulfield's disillusionment, Scout Finch's moral awakening, and Frankie Addams's emotional fragmentation stand not merely as personal struggles but as representations of the American nation's anxieties and contradictions.

As Kenneth Millard notes, "adolescence in American fiction functions as a metaphor for national self-definition, uncertainty, and transformation" (Millard, 2007, p. 15). Thus, studying adolescent identity in 20th-century American prose illuminates not only the evolution of literary forms but also the cultural psyche of modern America.

Adolescence, Identity, and Cultural Theories. The concept of adolescence is deeply intertwined with psychological theories. Erik Erikson's conceptualization of adolescence as a struggle between "identity vs. role confusion" (Erikson, 1968) is central to understanding adolescent characters in American literature. According to Erikson, adolescents attempt to reconcile inner desires with external pressures, producing crises of selfhood that often manifest as rebellion or withdrawal.

This psychological framework explains why adolescent protagonists frequently appear confused, alienated, or resistant to authority—traits vividly illustrated in Holden Caulfield, Frankie Addams, and Oates's teenage characters.

Freudian psychoanalysis also shaped modernist literature. Freud's theories of repression, the unconscious, and emotional trauma influenced modernist writers, who depicted adolescence as a battleground between instinctual drives and societal norms. Joyce Carol Oates, for instance, often portrays teenage girls whose psychological turmoil exposes the darker underside of suburban America.

Freud's notion of the uncanny (das Unheimlich) also resonates in literary representations of adolescence, where unstable identity creates an unsettling blend of familiarity and strangeness.

Main part. *Literary Images of Adolescents.* Sociologist G. Stanley Hall described adolescence as a period of "storm and stress" (Hall, 1904), a definition that influenced literary and cultural discourse throughout the century. The emergence of mass media, rock music, countercultural activism, and youth movements in the 1950s–1970s further reshaped public perceptions of adolescence.

As Thomas Hine argues, "the invention of the teenager was one of the most significant cultural developments of the 20th century" (Hine, 1999, p. 4). Literature, in turn, reflected adolescents as agents of cultural transformation.

Literary Representations of Adolescence in 20th-Century Prose

Holden Caulfield: Rebellion and Alienation. J.D. Salinger's The Catcher in the Rye (1951) is perhaps the most iconic representation of teenage identity crisis. Holden Caulfield's narrative voice reveals deep disillusionment with post-war American values: "People never notice anything." (Salinger, 1951, p. 9)

Holden's disdain for the "phoniness" of adult society reflects a generational sense of alienation. His desire to protect children from losing their innocence symbolizes his resistance to entering a corrupt adult world. Critics note that Holden embodies "the adolescent as cultural critic, exposing the hypocrisies of American capitalism and social conformity" (Pinsker, 1993, p. 42).

Scout Finch: Moral Awakening and Social Justice. Harper Lee's To Kill a Mockingbird (1960) presents adolescence through the lens of racial injustice. Scout

Finch's moral development is portrayed as a journey from childhood innocence to ethical awareness:

"Atticus told me to delete the adjectives and I'd have the facts." (Lee, 1960, p. 59). Through Scout's perspective, readers witness the contradictions of Southern society, where children often see moral truths more clearly than adults. Scout becomes an emblem of America's struggle to reconcile democratic ideals with racial inequality.

Frankie Addams: Loneliness and the Fragmented Self. In Carson McCullers's The Member of the Wedding (1946), Frankie's yearning "to belong to a world that was not quite hers" mirrors the universal search for identity. Her emotional turmoil captures the psychological fragmentation of adolescence.

As McCullers writes: "She was afraid of being left out, or worse—left behind." (McCullers, 1946, p. 73). Frankie's crisis reflects not only personal loneliness but also the broader existential uncertainty of mid-century America.

Joyce Carol Oates: Adolescence Confronting Violence. Joyce Carol Oates frequently portrays adolescents caught in violent or traumatic situations that expose the fragility of identity. In "Where Are You Going, Where Have You Been?" (1966), Connie's confrontation with menace reveals the vulnerability of teenage girls in a consumer-driven, patriarchal society.

As Oates suggests, adolescence is a "threshold where innocence collapses into the dangers of adult desire" (Oates, 1972, p. 119).

John Updike: Suburban Disillusionment. Updike's suburban adolescents experience moral decay, restlessness, and existential emptiness. In Rabbit, Run and his short stories, youth struggle with the monotony of suburban life. Updike's work illustrates the paradox of American prosperity: material comfort fails to provide emotional fulfillment.

Adolescence as Cultural Metaphor. The analysis reveals that adolescence in 20th-century American prose serves as more than a narrative device it functions as a cultural metaphor. Through adolescent characters, writers explore:

- identity fragmentation
- moral contradictions
- racial tension
- gender expectations
- psychological trauma
- alienation in modern society

Teenagers become symbolic figures through whom American culture reflects its own uncertainties. As Millard notes, “the adolescent is used to map the crises of modernity itself” (2007, p. 22). Thus, the portrayal of adolescents in American prose mirrors national anxieties surrounding the American Dream, social mobility, and the loss of innocence.

Conclusion. The representation of adolescent identity in 20th-century American prose reveals the profound psychological, cultural, and ideological tensions shaping modern American life. Through the works of Salinger, Lee, McCullers, Oates, Updike, and others, adolescence emerges as a symbolic space in which society’s contradictions are examined and challenged.

Adolescent protagonists serve as both mirrors and critics of their cultural environment. Their emotional intensity, moral questioning, and struggle for authenticity reflect the broader challenges of modernity. Consequently, the literary teenager remains an essential figure in understanding not only American literary history but also the evolving cultural identity of the United States.

References

1. **Barnes K.** Translation in the UK language classroom: Current practices and a potentially dynamic future // *Translation and Translanguaging in Multilingual Contexts*. – 2021. – Vol. 7, № 1. – P. 41–64.
2. **Chau S. S.-C.** Aspects of Translation Pedagogy : dis. … PhD. – 1984.
3. **Coffey S.** Using corpora in translator training // *IntraLinea*. – 2002.

4. **Hurtado Albir A.** Traducción y Traductología: Introducción a la traductología. – Madrid : Cátedra, 2001. – 642 p.
5. **Kiraly D.** A Social Constructivist Approach to Translator Education: Empowerment from Theory to Practice. – Manchester : St. Jerome Publishing, 2000. – 220 p.
6. **Koponen M.** How to teach machine translation post-editing? // *Proceedings of the Workshop on Post-Editing Technology and Practice (WPTP)*. – 2015.
7. **Newmark P.** A Textbook of Translation. – New York : Prentice Hall, 1988. – 292 p.
8. **Nord C.** Text Analysis in Translation: Theory, Methodology, and Didactic Application of a Model for Translation-Oriented Text Analysis. – Amsterdam ; New York : Rodopi, 2005. – 250 p.
9. **PACTE Research Group.** Building a Translation Competence Model / J. Beeby [et al.]. – 2003.
10. **Rothwell A., Moorkens J., Svoboda T.** Training in translation tools and technologies: Findings of the EMT survey 2023 // *Computer Science*. – 2025. – 26 March. – DOI: 10.48550/arXiv.2503.22735.
11. **Vermeer H. J.** Skopos and Commission in Translational Action // *The Translation Studies Reader* / ed. by L. Venuti. – 3rd ed. – London : Routledge, 2012. – P. 191–202.

MILLATLARARO HAMJIHATLIK VA DAVLAT TILINING JAMIYATDAGI ROLI

Qurbonova Marg‘uba

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Davlat tilining jamiyatda yagona muloqot vositasi sifatida faoliyat yuritishi, ko‘p millatli jamiyatda integratsiya jarayonlarini kuchaytirishga xizmat qilishi asoslanadi. Shuningdek, til siyosati va uning ijtimoiy barqarorlikka ta’siri o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *davlat tili, millatlararo hamjihatlik, til siyosati, ijtimoiy barqarorlik, O‘zbekiston.*

Аннотация: *В статье утверждается, что государственный язык выполняет функцию единственного средства общения в обществе, способствуя укреплению интеграционных процессов в многонациональном обществе. Также рассматривается языковая политика и её влияние на социальную стабильность.* ***Ключевые слова****: государственный язык, межнациональное согласие, языковая политика, социальная стабильность, Узбекистан.*

Abstract: *This article argues that the state language functions as the only means of communication in society, serving to strengthen integration processes in a multinational society. It also examines language policy and its impact on social stability.*

Keywords*: state language, interethnic harmony, language policy, social stability, Uzbekistan.*

Kirish. Davlat tili va millatlararo muloqot Davlat tili umumxalq tili bo‘lib, jamiyat a’zolari o‘rtasida muloqot, anglashuv va o‘zaro hurmat asoslarini mustahkamlashda asosiy omildir. O‘zbek tilini bilish barcha fuqarolar uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni ochib beradi, shu orqali integratsion jarayonlar jadallashadi. 1989 yil “Davlat tili haqida”gi Qonunning qabul qilinishi davlat tilining huquqiy maqomini belgilab berdi va o‘zbek tilini millatlararo muloqotni ta’minlovchi strategik vositaga aylantirdi. Mazkur maqola aynan davlat tilining jamiyatdagi integratsiya jarayonlariga ko‘rsatgan ta’siri va millatlararo totuvlikni mustahkamlashdagi rolini ko‘rsatishga qaratilgan.

Millatlararo hamjihatlik va davlat tilining jamiyatdagi funksional roli haqida o‘zbek va xorijiy adabiyotlarda ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu adabiyotlar davlat tilining faqat kommunikatsion emas, balki ijtimoiy-institutsional birlashtiruvchi vosita sifatidagi o‘rnini tasdiqlaydi.

Birinchi Prezidentimiz **I.A.Karimov** o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida til masalasini millat ruhiyati, tarixiy xotirasi va mustaqillikning ajralmas elementi sifatida ko‘rsatadi. U davlat tilining rivoji orqali jamiyatda ijtimoiy uyg‘unlikni mustahkamlash mumkinligini ta’kidlaydi [1; 61-b].

S. G‘aniyev va **M. Tojiboyeva**ning “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi” mavzusidagi izlanishlarida, ayniqsa ko‘p millatli muhitda o‘zbek tilining birlashtiruvchanlik funksiyasi asoslangan. Ular ta’lim, davlat boshqaruvi va OAVdagi til siyosatining samaradorligini amaliy misollar orqali tahlil qilganlar .

Z.Baxtiyorov millatlararo muloqot va til madaniyati masalasiga e’tibor qaratgan. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, davlat tilini bilish fuqarolarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kuchaytiradi va davlatga bo‘lgan ishonchni oshiradi [2; 44-b].

Xalqaro tajribalarni tahlil qilgan **J.Fishman** (Sociolinguistics: A Brief Introduction) o‘z asarlarida til siyosati va millatlararo integratsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur o‘rganadi. Uning fikricha, davlat tili mustahkam ijtimoiy institut sifatida ko‘rib chiqilishi kerak, bu esa ayni O‘zbekiston tajribasi bilan hamohangdir [3; 7-b].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat tilini rivojlantirishga oid qarorlari, hukumat dasturlari va ularning ijrosi bo‘yicha monitoring natijalari mavzuni siyosiy-amaliy kontekstdan baholash imkonini beradi.

Davlat tilining huquqiy maqomi 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan “Davlat tili haqida”gi Qonun va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasi asosida o‘zbek tili davlat tili sifatida belgilangan. Bu hujjatlar davlat tilining jamiyat hayotida asosiy aloqa vositasi sifatida mustahkam o‘rnatilishini ta’minladi.

O‘zbekiston tajribasi mamlakatda rus, qoraqalpoq, tojik, qozoq, qoraim va boshqa tillarda ham ta’lim olish va madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari yaratilgan. Shu bilan birga, davlat tili sifatida o‘zbek tilining o‘rni muntazam ravishda kuchaytirilmoqda. Rasmiy hujjatlar yuritilishi, OAVda keng qo‘llanishi va ta’lim tizimiga keng tatbiq etilishi bu yo‘nalishdagi muhim qadamlardir [4; 77-b].

Til siyosatining ijtimoiy barqarorlikka ta’siri Davlat tilining barcha ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida integratsiya va muloqotni ta’minlashdagi o‘rni ijtimoiy barqarorlikni kuchaytiradi. Bu esa millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik va umumiy fuqarolik ongining shakllanishiga olib keladi.

Birinchidan, Davlat tilining huquqiy asoslari va rivojlanish bosqichlari. 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan Qonun va 1992-yilda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasi asosida o‘zbek tili davlat tili sifatida tan olingan. Keyingi yillarda Prezident qarorlariga muvofiq til siyosatini takomillashtirish va davlat tilining ijtimoiy hayotdagi mavqeini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borildi [5; 8-b].

Ikkinchidan, Davlat tili va ijtimoiy integratsiya. Davlat tilining barcha millat vakillarini yagona kommunikativ makonda birlashtirish funksiyasi mavjud. Til – bu jamiyatda teng imkoniyatlar yaratish, fuqarolarni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga jalb etish vositasidir. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilini o‘rganish uchun yaratilgan imkoniyatlar, ayniqsa ta’lim tizimi orqali, millatlararo totuvlikni mustahkamlaydi [6; 34-b].

Uchinchidan, ko‘p millatli jamiyatda davlat tilining roli. Respublikada 130 dan ortiq millat vakillari yashaydi. Ularning o‘z tillari, madaniyati va qadriyatlari hurmat qilinadi. Shu bilan birga, davlat tili sifatida o‘zbek tilining o‘rni har bir fuqaroni yagona ijtimoiy makonga integratsiyalashga xizmat qiladi. Rasmiy hujjatlar, OAV, oliy ta’lim va davlat boshqaruvi tizimida davlat tilining keng tatbiqi millatlararo muloqotni soddalashtirmoqda [7; 63-b].

To‘rtinchidan, til siyosati va ijtimoiy barqarorlik.Til siyosati – bu faqat lingvistik masala emas, balki ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik birdamligining

kafolatidir. Davlat tilining jamiyatdagi nufuzi qanchalik baland bo‘lsa, fuqarolarning ijtimoiy hayotga jalb etilishi, o‘zini davlatning ajralmas qismi deb his qilishi shunchalik kuchli bo‘ladi [8; 55-b].

Xulosa. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi o‘rni – bu nafaqat huquqiy normalar, balki ijtimoiy barqarorlik va millatlararo hamjihatlikni ta’minlashning muhim kafolatidir. Davlat tilini rivojlantirish, uni barcha fuqarolar orasida hurmat bilan qabul qilinishini ta'minlash orqali ko‘p millatli jamiyatda umumiy qadriyatlar asosida yashash madaniyatini shakllantirish mumkin [9; 69-b].

O‘zbekiston Respublikasida davlat tilining millatlararo hamjihatlikni ta’minlashdagi roli keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy strategiyalarga asoslanadi. Davlat tilining har bir fuqaro tomonidan o‘zlashtirilishi ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik birlikning kuchayishiga olib keladi. Shuning uchun ham davlat tilini rivojlantirish borasidagi siyosiy qarorlar jamiyatda totuvlik, barqarorlik va taraqqiyot kafolatidir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida millatlararo totuvlik va barqarorlikni ta’minlashda davlat tilining tutgan o‘rni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Davlat tili – o‘zbek tili nafaqat aloqa vositasi, balki barcha millat va elatlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, birlashuv va ijtimoiy birdamlikni shakllantirishda muhim ijtimoiy-siyosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda [10; 11-b].

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash orqali mamlakatda fuqarolik birdamligi, ijtimoiy uyg‘unlik va milliy identitetni rivojlantirish imkoniyati yanada ortadi. Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda olib borilayotgan til siyosati, huquqiy-me’yoriy baza va amaliy tajribalar tahlil qilinar ekan, davlat tilining millatlararo totuvlikdagi birlashtiruvchi vazifasini yanada kuchaytirish zarurligi asoslab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. **O‘zbekiston Respublikasining** “Davlat tili haqida”gi Qonuni // *Xalq so‘zi* gazetasi. – 1989-yil 21-oktabr.
2. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning** Oliy Majlisga Murojaatnomasi // *Xalq so‘zi* gazetasi. – 2020-yil 25-yanvar.
3. **Karimov I. A.** Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent : Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
4. **Qo‘chqorova G.** Davlat tili va millatlararo munosabatlar: ijtimoiy-siyosiy yondashuvlar. – Toshkent : O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2017. – 128 b.
5. **Qurbonova M.** Davlat tili – milliy birdamlik asosi // *Ijtimoiy fanlar* jurnali. – 2023. – № 2. – B. 45–49.
6. **Ergashev R., Rahmatullayev A.** Til siyosati va millatlararo munosabatlar: nazariya va amaliyot. – Toshkent : Fan, 2021. – 204 b.
7. **UNESCO.** Language Vitality and Endangerment : document submitted to the International Expert Meeting on UNESCO Programme Safeguarding Endangered Languages. – Paris, 2003.
8. **Fishman J. A.** Handbook of Language and Ethnic Identity. – Oxford : Oxford University Press, 1999. – 466 p.
9. **Smagulova J.** Language Policies of Central Asian States and their Impact on Interethnic Relations // *Central Asian Survey*. – 2020. – Vol. 39, № 4. – P. 501–517.
10. **Shozimova M.** Til va madaniyatlararo muloqot: O‘zbekiston tajribasi // *Til va jamiyat* jurnali. – 2022. – № 3. – B. 33–38.

INSON RUHI HAQIDA AYRIM QARASHLAR. (QORAQALPOG’ISTONNING JANUBIY HUDUDLARI MISOLIDA)

Kamalova Dilfuza Abdullayevna

QQDU

Annotatsiya: *Maqolada inson ruhi haqidagi azaldan mavjud bo'lgan tushunchalar, shuningdek Qoraqalpog'istonning janubiy qismida yashovchi qozoq va o'zbek xalqlarining ruhga oid mahalliy qarashlari bayon etilgan. Bunda tarixiy qiyosiy o'rganish va dala tadqiqotlaridan keng foydalanildi.*

Kalit so'zlar: *"ruh", "shibin jan", "yet jan", "chiroqxona", "qirq shiraq", "o'tganlar ruhi", "reinkarnatsiya", "arvoh kapalak".*

Аннотация: *В статье рассматриваются древние представления о душе человека, а также местные воззрения казахов и узбеков, проживающих в южной части Каракалпакстана, на душу. При этом широко использовались историко-сравнительный и полевой методы исследования.*

Ключевые слова: *«душа», «шибин жан», «йет жан», «чирокхона», «кирк ширак», «утганлар рухи», «реинкарнация», "бабочка-призрак".*

Abstract: *The article describes the ancient concepts of the human soul, as well as the local views of the Kazakh and Uzbek peoples living in the southern part of Karakalpakstan on the soul. Historical comparative study and field research were widely used in this.*

Keywords: *"soul", "shibin jan", "yet jan", "chiroqkhona", "kirq shiraq", " utganlar ruhi", "reincarnation", "ghost butterfly"*

Kirish. Markaziy Osiyo xalqlarida azaldan mavjud bo'lgan, inson ruhi va u haqidagi qarashlar deyarli bir xil bo'lib, ular orasida farq juda kam. Tarix ilmidan ma'lumki, ezgulik va yovuzlik ruhi tushunchasi mavjud, bu tushuncha esa davr va hududga mos tarzda o'zgarib boradi. Jon va ruhga oid qarashlar hozirga qadar tugal o'rganilib chiqilmagan. Diniy jihatdan inson ruhi Alloh tamonidan yaratilgan va tanada jon qilib berilgandir. Inson bu dunyoda ruh va tana birgalikda mavjuddir. O'lim esa, ruhning tanani tark etishidir. Ruh – Alloh tamonidan berilgan abadiy, no-moddiy mavjudot. Tiriklik paytida ruh tana ichida, ongimiz va hayotimiz

manbai hisoblanadi. Ba'zi g'oyalarga ko'ra, ruh insonda tug'ilish paytida paydo bo'ladi va uning bu foniy dunyoda o'zini qanday tutishiga qarab, uning o'limdan keyingi mavjudligi belgilanadi.

Asosiy qism. Inson ruhi haqidagi tushuncha o'zbek va qozoq xalqida deyarli bir xil tushuncha bo'lib, bunda zardushtiylik va islom dini an'analari birgalikda o'ziga xos ko'rinishni mujassamlashtirgan. Qoraqalpog'istonning janubiy hududlarida yashovchi o'zbek va qozoq xalqlari necha asrlardan buyon yonma yon yashab kelayotganligi bois, ularning nafaqat dafn marosimi balki, ruh haqida qarashlarida ham o'xshashlik kuzatiladi.

Ibn Qoyyim al-Javziya o'zining "Ruh" asarida ruh davom etuvchi va harakatlantiruvchidir deyilgan. Inson jasadi (tanasi) ruhsiz yashay olmaydi, lekin ruh tanasiz yashay oladi.

Ruh haqida izlanishlar natijasida M. S. Andreevning asarlarida ham o'xshash tushunchalarni kuzatishimiz mumkin.[1,B. 203.] G.P. Snesarevning ta'kidlashicha, O'rta Osiyoning barcha xalqlarida "ikki jon, aniqrog'i, jon va ruh atamalarining farqiga mos keladigan ruh va ruhning mavjudligi to'g'risida keng tarqalgan g'oya mavjud. Ushbu ikki tushunchaning mohiyatidagi farqni marosimning ma'lum bosqichlarida allaqachon noaniq tarzda kuzatish mumkin, ular ba'zan birlashadilar, ba'zan esa bir-birini almashtiradilar " [2, B.108].

Inson o'limi garchi qayg'uli va og'riqli holatni ifodalashiga qaramay, hayotimizning ajralmas qismidir. Inson o'limi yuz bergach, beixtiyor inson ruhi haqida tushunchalar qo'llaniladi. Xalqimiz orasida "arvoh kapalak" tushunchasi mavjud bo'lib, bu tushuncha asosan inson o'limi yaqinlashganda va marhumning ma'rakalarida(yil sadaqasiga qadar) uning yaqin insonlari tevarigiga keladi degan tushuncha bor. Qozoqlar ruhni uch hil "шыбин жан", "ет жан" va "руҳ жан" deb tasavvur qilishadi.[, B. 88 – 89.]

Aholi orasida shunday tushuncha mavjudki, biror nomaqbul ish qilinsa, uning ota-bobolari ruhi "bezovta" boladi deyishadi. Ruhlarning ko'ngli shod

bo’lishi uchun bo’g’irsoq pishiriladi. Ruhlar yog’ hididan oziqlanadi degan tushuncha ilmiy adabiyotlarda keltiriladi. Bu ishni amalga oshirilishining birinchi sababi marhumlarni xotirlash bo’lsa, ikkinchisi o’likdan qo’rqish hissining yuqoriligidir. S. P. Tokaraev “tiriklarning o’liklar oldida qo’rqinch hissi ular o’rtasidagi ijtimoiy bog’liqligidan kelib chiqadi” deb yozadi. Bundan tashqari ota bobolar ruhiga najot sifatida qarashlar ham mavjuddir. Buni axborot olish jarayonlarida ham bir necha bor kuzattik. Vafot etgan ota bobolarimiz bizlarni doimo kuzatishi haqidagi ishonchning kuchli ekanli, shuningdek, kishilarning ishi o’xshamasa , biror mushkulotga uchrasa , yoki ishi baroridan kelsa, quyidagi kabi so’zlardan foydalaniladi. “Ota-bobolar ruhi madadkor bo’lsin”, “ otasi ruhi qo’lladi”.

S. A. Tokaraev “narigi dunyo” haqidagi tasavvur va tushunchalarni tahlil qilar ekan, Ruhning o’limdan keyingi taqdiri haqidagi tasavvurlaariga oid, ruhlar yonginamizda, tiriklar dunyosida qoladi yoki o’ziga xos dunyo ga ketadi. Bu qarashlar orqali biz bevosita totemizm bilan bog’liqlikni kuzatishimiz mumkin.[8, B.198-199]

Marhumning dafn qilingan joyda “aylanib yurishi” haqida tasavvurlar asosida XX asrning 50 yillarga qadar shahar qabristonlarida ruhlarga atab chiroq yoqish odati mavjud bo’lgan. Bunda qabr bosh tarafiga uchta g’ishtdan “chiroqxona” yasalib, shu joyda chiroq yoqilgan. Hozirgi kundagi xalqimiz orasida marhum yotgan xonaga qirq kun davomida chiroq yoqilishi, boisi ham shunga bog’liqdir. Dala yozuvi jarayonida Beruniy tumani “Qizilqa’la” hududidagi qozoq xalqida “qirq shiraq” tushunchasi o’zgacha tarzda amalga oshirilishi haqida ma’lumot oldik. Bunda bitta idishga tuproq (qum) solinib, qamishdan chiroq tayyorlanib, uchiga marhum yuvilgan paxtadan va bo’g’irsoq pishirilgan yog’dan solinib, o’ziga xos sham tayyorlashadi va u o’sha xonada yoqib qo’yilishar ekan [5, Dala yozuvi]. Albatta bu qadimiy an’ananing transformatsiyaga uchramasdan amaliyotda qo’llanilib kelayotgani, etiborimizni tortadi.

Ruhlar bir yil davomida va hayit bayramlarida o'z uylariga kelishiga ishonib, unga maxsus tayyorgarlik ko'riladi. Dala tadqiqotida uy va tevarak atrofni tozalash ishlari, ayniqsa , hovlilar ehtiyotkorlik bilan suv sepib supurilishi, ruhlar uyga erkin kirishi uchun eshiklar ochilib qo'yilishi, ba'zi insonlar ular o'z yo'llarini topishi uchun uy chiroqlarini yoqib qo'yish holatlari ham kuzatildi.

Umumiy qilib aytganda, xalqimizda "o'tgan"lar ruhi, arvohlar tushunchasi, bir nechta xususiyatni o'zida mujassamlashtiradi. Birinchisi, ota-bobolar ruhini xotirlash, ikkinchisi, marhumning noroziligi yuzaga kelishdan qo'rqish (ayniqsa biror nojo'ya ish qilinganda), uchinchisi, ziyon zahmat yetkazuvchi narsalardan saqlovchi kuch sifatida tasavvur qilishadi.

Inson uxlaganda ruh tanani ma'lum muddatga tark etadi, uning tush ko'rishi esa, ruhga tegishli degan tushunchalar bor. Inson birdaniga uyg'onishi mumkin emas, sababi ruh tanaga qaytishga ulgurolmay qolishi va hattoki bu holatlar inson o'limiga ham sabab bo'lishi mumkin.[6, Dala yozuvi] Bu kabi qarashlar o'zbek xalqidagina emas, balki, qozoq, no'g'ay, qalmiq xalqlarida ham uchrashadi.

Jon va ruh haqida tushunchalar xalqimizning necha yillar davomida yig'ilib kelayotgan tasavvurlari va ishonchlari yig'indisidir. . Ruh haqida "Ruh Robbimning ishidir" sizga juda oz ilm berilgandir [10, B.]degan jumladan ham bilishimiz mumkin ki, butunlay o'rganish imkoniyati cheklangan ilmdir.

G. P. Snesarov va Q. Nasriddinovlarning bu sohani o'rganishlari jarayonida olgan natijalari ko'rsatishicha, o'zbeklarda garchi ruh tanaga qaytmasada , boshqa ko'rinishga, masalan, qush yoki hayvon ko'rinishiga o'tib, o'z yaqinlaridan xabar olib turadi va xatto tirik odamlar qiyofasida qayta namayon bo'lgan holda , o'z oilasiga qaytishi mumkin.[3, B. 114-115. B.] Bu haqida Rustam Obid "Biz oldin yashaganmizmi?" risolasida kengroq ma'lumot berib o'tar ekan, Bu hodisa Yunonistonda "metampsixoz", hinduizmda

“sanasara”, islom dinida “ tanasux- al- arvoh”, ilmiy tilda esa,”reinkarnatsiya” deb ataladi.[7, B.12-14] G. M. Izibayeva ruh haqida tirik odam moddiy tana va undagi hayotni qo’llab quvvatlovchi ko’rinmas moddaning kombinatsiyasi bo’lib, moddaning ketishi natijasida tana o’z faoliyatini to’xtatadi deb aytadi.[4, B 19]

Islom dini ta’limotiga ko’ra ruh, Allohning yaratgan ne’mati bo’lib, u insonning ma’naviy hayoti va oxiratda taqdiri uchun javobgardir. Ruhning jondan farqi shundaki, jon jismga hayot bag’ishlaydi, ruh esa, insonning ma’naviy va ma’rifiy jihatlarini o’zida mujassam etgan, jismdan mustaqil narsadir. Oxiratda insonning taqdiri ruhga bo’gliqdir.

Yakuniy fikr sifatida bugungi kunda inson ruhi haqidagi qarashlar nafaqat islom dini aqidalari bakli, animizm, shomonizm va zardushtiylik dini qarashlarini ham mujassamlashgan o’ziga xos umumiylikni kuzatishimiz mumkin. Biz o’rganilayotgan hududdagi o’zbek va qozoq xalqlari oradida o’tkazilgan sotsiologik so’rovnomada ham bu yaqqol namayon bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. **Андреев М. С.** Таджики долины Хуф. – М., 1953. – Вып. 1. – 203 с.
2. **Снесарев Г. П.** Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М. : Наука, 1969. – 108 с.
3. **Снесарев Г. П.** Реликты домусульманских верований у узбеков Хорезма // (qo‘shimcha material). – С. 114–125.
   (2-banddagi asarning tegishli sahifalari sifatida ko‘rsatildi)
4. **Изибаева Г. М.** Похоронно-поминальные обряды марийцев Республики Башкортостан. – Уфа, 2019.
5. **Dala yozuvi.** Erjanova S. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Beruniy tumani. – 1955-yil.
   (Etnografik dala materiallari)

6. **Dala yozuvi.** Ilyasova B. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Amudaryo tumani. – 1952-yil.
(Etnografik dala materiallari)
7. **«Сирли олам»** журнали. – 1991. – № 8. – Б. 12–14.
8. **Токарев С. А.** Ранние формы религии и их развитие. – М. : Наука, 1990. – С. 198–199.
9. **Толеубаев А. Т.** Реликты домусульманских верований в семейной обрядности казахов. – Алма-Ата, 19___. – С. 88–89.
(Nashr yili aniqlanmagan, ilmiy ishda ko‘rsatish tavsiya etiladi)
10. **Қуръони Карим.** Ўзбекча изоҳли таржима / тарж. Алоуддин Мансур. – Тошкент, 1992. – 196 б.

INGLIZ TILI YO‘NALISHI TALABALARIDA LINGVOKULTUROLOGIK KOMPETENSIYANI ONOMASTIK BIRLIKLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Komilova Muxtaram Xotamjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. *Maqolada ingliz tili yo‘nalishi talabalarida lingvokulturologik kompetensiyani onomastik birliklar asosida rivojlantirishning nazariy-metodologik jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, lingvokulturologik kompetensiyaning mohiyati va tarkibiy komponentlari tahlil qilingan. Onomastik birliklar (geografik nomlar, shaxs nomlari, tarixiy va madaniy nomlar) ning lingvokulturologik ta’limdagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Maqolada zamonaviy ta’lim tizimida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish masalalari, shuningdek, til o‘qitish metodologiyasidagi kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar (N.Chomsky, D.Hymes, M.Canale va*

M.Swain, M.Byram nazariyalari) qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida lingvokulturologik kompetensiyani rivojlantirishda onomastik birliklardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari isbotlangan.

Аннотация. *В статье освещены теоретико-методологические аспекты развития лингвокультурологической компетенции студентов направления английского языка на основе ономастических единиц. В исследовании проанализирована взаимосвязь между языком и культурой, сущность и структурные компоненты лингвокультурологической компетенции. Раскрыта роль и значение ономастических единиц (географических названий, личных имен, исторических и культурных наименований) в лингвокультурологическом образовании. В статье рассмотрены вопросы формирования компетенции межкультурного общения в современной системе образования, а также проведен сравнительный анализ компетентностных подходов в методологии преподавания языков (теории Н. Хомского, Д. Хаймса, М. Канале и М. Суэйна, М. Байрама). По результатам исследования доказаны педагогические возможности использования ономастических единиц в развитии лингвокультурологической компетенции.*

Abstract. *The article highlights the theoretical and methodological aspects of developing linguocultural competence of English language students based on onomastic units. The study analyzes the relationship between language and culture, the essence and structural components of linguocultural competence. The role and significance of onomastic units (geographical names, personal names, historical and cultural names) in linguocultural education are revealed. The article discusses the issues of forming intercultural communication competence in the modern education system, as well as provides a comparative analysis of competence-based approaches in language teaching methodology (theories of N. Chomsky, D. Hymes, M. Canale and M. Swain, M. Byram). Based on the research results, the pedagogical*

possibilities of using onomastic units in the development of linguocultural competence have been proven.

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologik kompetensiya, onomastik birliklar, madaniyatlararo muloqot, ingliz tili, kommunikativ kompetensiya, til va madaniyat, mamlakatshunoslik.*

Ключевые слова: *лингвокультурологическая компетенция, ономастические единицы, межкультурное общение, английский язык, коммуникативная компетенция, язык и культура, страноведение.*

Keywords: *linguocultural competence, onomastic units, intercultural communication, English language, communicative competence, language and culture, country studies.*

Kirish

Hozirgi kunda globallashuv va madaniyatlararo integratsiya sharoitida chet tillarini o‘qitish nafaqat lingvistik bilimlarni, balki madaniy kompetensiyalarni ham rivojlantirishni talab etmoqda. Zamonaviy dunyoda turli madaniyatlar vakillari o‘rtasida samarali muloqot o‘rnatish qobiliyati shaxsiy va professional muvaffaqiyatning muhim omilidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni va 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori xorijiy tillar, xususan ingliz tilini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish, xalqaro standartlarga muvofiq ta’lim berishni ustuvor vazifa qilib belgilab bergan.

o‘z navbatida amlokliklarga bo‘lingan bo‘lib, ular bir nechta qishloqlarni o‘z ichiga olar edi. Buxoro amirligida ma’muriy jihatdan bir qadar ilgari tashlangan bu qadam amirlikning avval deyarli mustaqil bo‘lgan bekliklarini hududiy va ma’muriy jihatdan birmuncha tartibga keltirgan. Amirlikda 27 beklik mavjud bo‘lib, deyarli barcha beklar amir tomonidan tayinlangan.Qashqadaryo vohasida Qarshi, Shahrisabz, Chiroqchi, Kitob, G‘uzor, Yakkabog‘ bekliklari mavjud bo‘lgan. Aholi soni jihatidan Qarshi (16 amloklikka) va Shahrisabz (14 amloklikka) bekliklari amirlikda oldingi o‘rinlarni egallagan[2. Б.152].

Asosiy qism. Shahrisabz bekligi o‘zining joylashgan o‘rni, boshqaruv tartibi, aholisi, tabiati, boyliklari bilan salmoqli ahamiyatga ega bo‘lgan. Rossiya imperiyasi zobiti Grigorev tomonidan yozib qoldirilgan ma’lumotlarga ko’ra, Samarqandning janubida, bir kunlik masofada mahalliy xalq goh Urgut, goh Qoratepa deb ataydigan tog‘ tizmalari ortida, katta savdo yo‘llardan biroz chetroqda uncha katta bo‘lmagan Shahrisabz bekligi joylashgan.

Beklik bir-biridan 4-5 tosh masofa uzoqlikda joylashgan bir necha yuz qishloqlardan tashkil topgan. Voha uch tomondan tog‘lar bilan o‘ralgan va Hisor, Samarqand viloyatlari hamda Buxoroning Chiroqchi, Qarshi, Yakkabog‘ yerlari bilan chegaradosh bo‘lgan. Shahrisabz bekligiga vohaning janubiy va qisman g‘arbiy qismida joylashgan qishloqlar qaragan. Sharqiy tomonda ikkita daryo – yani tog‘ yon bag‘irlarida Toshko‘prik (ba‘zilar uni Uloch ham deb ataydilar) va Tanhoz mavjud. O‘zbeklar Oqsuv deb ataydigan hamda Hazrati Sultondan boshlanadigan Oqdaryo bo‘yida Qorasuv, Mirishkor, Mo‘minobod, Beshkapa, Bumi, Chori, Shakartepa, Soybuyi, Bo‘zari, Shavkan, Polmon, Uloch kabi qishloqlar joylashgan bo‘lib, ulardan eng yiriklari 200 xonadonli Mo‘minobod va 100 xonadonli Qorasuv, Mirishkor, Uloch qishloqlari bo‘lgan. Toshko‘prik tomondan Beshbek, Qirqpichoq, Beshqop, Sayyod, Musobozor, Qizilemchak, Hisorak, G‘elon, Ko‘l qishloqlari va Hazrati Sulton tog‘i mavjud. Yana, tog‘ yon bag‘rida tojiklar yashaydigan 50 xonadonli Chungurak qishlog‘i ham bo‘lgan[3. C. 16].

Ikkinchi taraf, Shahrisabzdan nariroqda Tanhoz daryosi bo‘ylab Dahyak, Qutchi, Chuqun, Muchun, Tamshush, Anday, Ustoy, Hazora, Achchig‘i, Pastqo‘rg‘on qishloqlari, tog‘ yaqinida esa Dehtor, Ammog‘on, Xitoy, Chopiq qishloqlari mavjud. Ulardan eng yiriklari 300 xonadonli Dahyak va Ammag‘on qishloqlaridir.

Shaharga yaqin qishloqlarga shimol tomoniga joylashgan Kerayit, Sinabog‘, Xo‘jamurodbaxshi, Taraxli, Govjallob va boshqa tomondan, Zangi, Sariosiyo, Govushmon, To‘xliboy, Kapkan, Xo‘jaxuroson, O‘rtaqo‘ron, Shamaton, Choshtepa, Qo‘ng‘irot, Tezguzar kabi 30 ga yaqin qishloqlar kirgan. Ulardan eng yirigi O‘rtaqo‘rg’on bo‘lib, bu qishloqda 500 ta uy mavjud bo‘lgan. Shahrisabz o‘ziga yaqin qishloqlar bilan birga yagona “chim” devor bilan o‘rab olingan[4. Б.24].

Shahrisabz bekligining markazi bo‘lgan Shahrisabz shahri o‘zining ahamiyati va kattaligi jihatidan XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligida uchinchi shahar hisoblangan[5.C.138]. Shahrisabz shahri o‘zining tuzilishi, qurilishi, tarixiyligi va salobatligi bilan amirlikda muhim ahamiyat kasb etgan. Manba va adabiyotlarda qayd etilishicha, Shahrisabz shahri tuzilishi jihatidan O‘rta Osiyo shaharlaridan farqlanmagan, ya’ni qo‘rg‘on, qal’a va rabotdan iborat bo‘lgan. Bek qo‘rg‘oni shaharning shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Qo‘rg‘on ikkita darvozaga ega bo‘lib, sharqiy darvoza – To‘pxona darvoza, janubiy darvoza – Ko‘k darvoza deb nomlangan. Qo‘rg‘on oldida shaharning asosiy maydoni – Registon joylashgan. Shahar markazida joylashgan aylanma gumbazli Chorsudan shaharni to‘rtga bo‘luvchi ko‘chalar ketgan bo‘lib, bu ko‘chalar orqali shahar devorlarining darvozalariga borilgan.

XVIII-XIX asrlarda Shahrisabz paxsa devor bilan o‘ralgan bo‘lib, shahar atrofini ajratib turuvchi bu devorlarning 6 ta darvozasi bo‘lgan. Shahar guzarlarga bo‘lingan. Ular to‘g‘risida dastlabki ma’lumot A.Kun tomonidan keltiriladi. A.Kun Shahrisabzning 14 guzarga bo‘linishi to‘g‘risida yozadi[6.C.286]. Shuningdek, chor

Rossiyasi zobiti V.V. Grigorev ham shahar 14 guzarga bo‘linganligi to‘g‘risida ma’lumot qoldirgan.

1945-yilda Shahrisabzda etnografik tadqiqotlar olib borgan O.A. Suxareva Shahrisabzda 14 ta emas, balki XX asrning boshlarida 52 ta guzar mavjud bo‘lganligini aniqladi. Bu guzarlar quyidagilar: Ko‘knorxona, Xonaqo, Qatog‘on, Chubin, Madaxon, Eshonpir, Telpakdo‘z, Toqi Chanor, Sangi Oxur, Rais, Bolahovuz, Alovuddin, Degrez, Chokar, Houzi Mardon, Simxona, Xabarliq, Qunduzak, O‘zbek, Katta Charmgar, Kichik Charmgar, Kulollik, Yoyilma, Hazrati Shayx, Nazarmat, Payzbobo, Qassoblik, Xo‘ja Mir Hamid, Qapqon, Isobek, Zingaron, Poxol, Murdashuy, Sutbozor, Xo‘jaguzar, Eshonguzar, Sutguzar, Katta Chuyton, Kichik Chuyton, Arpabozor va boshqalar. Shahrisabz guzarlari Buxoro guzarlari kabi unchalik katta bo‘lmagan. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, ularning eng kattasi 100 ga yaqin xo‘jaliklarni birlashtirgan bo‘lsa, kichigida 20-30 oila istiqomat qilgan[7. Б.173].

Shahrisabz bekligi markaziy hokimiyatga taqlid qilib, xuddi amir saroyidagidek o‘z mansab va mansabdorlarini saqlagan. XIX asrning 70-yillarida Buxoroda bo‘lgan rus sayyohi doktor Yavorskiy shunday yozadi: “Buxoroda har bir bek o‘zini hududning yakka egasi deb hisoblaydi. Har bir bek o‘zining bir oz kichikroq va kamroq bo‘lsa-da mansab va vazifalar mavjud saroyiga ega”[8. C.35-36].

Beklikni boshqarish bekning shaxsiy nazorati ostida oqsoqollar, sarkorlar, qozilar, raislar miroblar va mirshablar zimmasiga yuklatilgan. Har bir qishloq mirshabi, shuningdek, o‘z oqsoqoliga ega bo‘lgan. Bir necha qishloqqa boj yig‘uvchi zakotchisi hisoblangan sarkor tayinlangan. Jo‘rabek davrida Kitobda 6 ta sarkor ish olib borgan. Shahrisabzda esa 9 ta sarkor faoliyat ko‘rsatgan. Har bir sarkorga ariqlar nazoratchisi bo‘lgan 10 ta mirob bo‘ysungan[9. C.22].

Shaharda sud hokimiyati qozilar qo‘lida bo‘lib, u amir tomonidan tayinlangan. Qozi nafaqat sud ishlarini boshqargan, balki mahalliy hokim faoliyatini nazorat qilib

ham turgan. Shu tariqa mahalliy hokimiyat ikki tomonlama nazoratni yo‘lga qo‘ygan. Shahrisabz 5 ta qozisiga ega bo‘lib, ular shuningdek, muftiy ham hisoblangan. Qozilar asosan sarkorlar yashaydigan qishloqlarda istiqomat qilishgan. Shahrisabzning bitta qozikaloni, raisi, mirshabboshisi bo‘lgan. Yuqorida sanab o‘tilgan mansabdorlar sarkordan tashqari jamoat hisobidan maosh olishgan[10. C. 28].

Beklikning ushbu boshqaruv tizimida amloklik o‘rni katta bo‘lgan. Amlokdor Buxoro amirligida beklarga qarashli eng kichik ma’muriy bo‘linma (amloklik)ni boshqaruvchi amaldor bo‘lib, u aholining o‘ziga to‘q vakillaridan tayinlanib, bir necha katta va kichik qishloqlar uning ixtiyorida bo‘lgan. Amlokdor xiroj yig‘ish, dehqonlar yetishtirgan hosilni hisobga olish, soliq to‘lamaganlarni jazolash, jarima solish va boshqa xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanib, kotib(mirzo), mirob, amin, oqsoqollar yordamida amloklikni idora qilgan[11. Б.286].

Amin amlokdorga itoat etib, soliq yig‘ish va aholini nazorat ostida saqlab turishda unga yordam bergan. Bu vazifaga mahalliy mayda mansabdorlar tayinlangan. Amin amloklik hududidagi yo‘llar, dovonlar, daryo kechuvlari, qolaversa, aholining turmush sharoitini boshqa mansabdorlarga nisbatan yaxshi bilgan.

Oqsoqol har bir qishloqda katta e’tiborga ega kishi hisoblanib, ular saylov yo‘li bilan shu lavozimga o‘tirgan. Oqsoqollar qishloqni ma’muriy, xo‘jalik va ijtimoiy boshqarishda amlokdorga yordam berganlar. Ularning asosiy vazifasi aholining kundalik ichki ishlarini hal etish, marosim va urf-odatlar bajarilishini nazorat qilish hamda qishloq aholisi o‘rtasidagi har xil nizo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish bo‘lgan.

Har bir amloklikda mirob, zakotchi va darg‘aboshi bo‘lgan. Amlokliklardagi muhim lavozimlardan biri mirob edi. Mirob suv taqsimoti va sug‘orish tizimi ustidan nazorat qilgan. Bosh sug‘orish tizimi hisoblangan magistral kanallardan katta ariqlarga suv taqsimlash mirobboshiga, katta ariqlardan qishloq ariqlariga suv

taqsimlash esa ariq oqsoqollariga, qishloq ariqlaridan shohariqlarga va dahanalarga suv taqsimlash qishloq mirobiga yuklatilgan. Miroblar kuzda dehqonlardan mirobona solig‘ini olganlar. Zakotchi va darg‘aboshi soliqlarning to‘lanishi to‘g‘risida ma’lumot yig‘ishgan. Har bir beklikda ikkita zakotchi mavjud edi, biri bek yonida bo‘lib, uning qo‘rg‘onida yashagan, ikkinchisi esa beklikka bo‘ysunuvchi hududlarga borib mulkdor shaxslarga zakot miqdorini belgilagan. Chor hukumati amaldorlari va sayohatchilari ma’lumotlariga qaraganda, XIX asr oxirlarida har bir beklikda amaldorlar soni 200-300 kishiga yetgan[12. Б.150]. Bekliklardagi amaldorlarga ish haqi ajratilmagan, aholidan ular foydasiga soliq olingan. Har bir bekning kotibi yoki devonbegisi bo‘lib, u asosan soliqlarning o‘z vaqtida yig‘ib olinishini nazorat qilgan.

Yuqorida ta’kidlangan boshqaruv tizimi bo‘linmalari va ularning boshqaruvchilari Shahrisabz bekligi hayotida muayyan o‘rin tutsada, lekin hal qiluvchi ahamiyatga ega emas edi. Bu borada Buxoro amirligi tomonidan tayinlanadigan va bo‘shatiladigan Shahrisabz begi lavozimi eng yuqori darajali ahamiyatga ega bo‘lgan.

Shuning uchun Shahrisabzda beklik lavozimini egallashda urug‘lar va qabilalar vakillari o‘rtasida tinimsiz kurashlar bo‘lib turgan. Buxoro amiri bo‘lgan Muhammad Rahimbiy 1756-yilda Shahrisabz bekligi hokimi, 1753-1758-yillar uning ushbu beklikda hukmron bo‘lgan birinchi hokim sifatida tarixga kirdi [13. Б.279]. 1758-yilda Muhammad Rahimbiy vafotidan so‘ng Shahrisabz yana itoatdan chiqqach, Beknazarbiy, keyin esa Niyoz Ali Muhammad Sodiq bir muncha vaqt shahar hokimlari bo‘lgan edilar. 1758-yilda Muhammad Rahimbiyning nabirasi (qizining o‘g‘li) Fozilto‘ra taxtga o‘tirdi. Amalda esa davlatni amakisi Doniyolbiy otaliq boshqardi.

1838-yil Doniyol otaliq vafotidan so‘ng uning vasiyatiga ko‘ra, Shahrisabzga katta o‘g‘li Xo‘jaqulbiy, Kitobga kichik o‘g‘li Bobobiy hokim etib tayinlandilar. 1846-yilda Xo‘jaqulbiy vafot etib, Shahrisabzga o‘g‘li Amirqulbiy, Kitobga ukasi

Iskandar hokim bo‘lishdi. Ammo tezda Iskandar Shahrisabzni o‘ziga qo‘shib oldi. Buxoro amiriga qarshi kurashni davom ettira olmasdan 1826-yildan boshlab taxtga o‘tirgan amir Nasrullohga taslim bo‘ldi. Aytish lozimki, amir Nasrulloh Shahrisabzga qarshi 32 marta lashkar tortib, 1856-yilga kelib uni o‘ziga tobe etadi.

Amir Nasrulloh Iskandar Vallami (valine’mat)ni oila a’zolari bilan Buxoroga ko‘chiradi. G‘alabaning omonatligini his etgan amir Nasrulloh Iskandar Vallamining singlisiga uylanib, kenagaslar bilan yaqinlashmoqchi bo‘ladi. Ammo niyatiga erisholmasdan Iskandar Vallamini, uning oila a’zolarini hamda singlisini qatl ettiradi[14. Б.28].

1860-yilda amir Nasrulloh vafotidan so‘ng taxtga o‘g‘li amir Muzaffar o‘tiradi. Amir Muzaffar hukmronligining dastlabki yillaridayoq (1860-yil) Shahrisabz va Kitob bekliklari mustaqillik uchun harakat boshladi. Sababi Amir Muzaffar taxtga o‘tirgach, Shahrisabz beklarini almashtirdi. Olloyorbek Samarqand hukmdori, Fayzibek esa Buxoroga chaqirib olindi. Ular o‘rniga Kitobga Zokirbiy, Shahrisabzga Ashirbiy tayinlandi. Kitob hokimi Zokirbiy amir siyosatini o‘tkazishga ko‘p harakat qildi. Har ikki beklar ham o‘z amallarini suiiste’mol qilishga tushishdi. Xalq g‘azabi oshgandan oshib bordi. Halokatlarning oldini olish, xalq dardiga quloq solish o‘rniga beklar Buxoro amiriga noroziliklarni isyon sifatida baholab, shikoyat jo‘natishdi. Amir Muzaffar norozilarni biron bir bahona bilan Samarqandga jo‘natishga farmon bergan[15. Б. 32].

Mazkur voqealar oqibatida Kitobda Jo‘rabek va bir qancha taniqli kishilar qamoqqa olindi. Bu xabar Shaharga yetib kelgach, xuddi shunday qama-qamalardan xavflangan xalq oyoqqa turdi. Ochamayli urug‘idan bo‘lgan Hakimbek (Bobobekning otasi) rahnamoligida Shahrisabz qo‘rg‘oniga bostirib kirishdi va Buxoro sarbozlarini yanchib tashlab, bekni qamoqqa olishdi. Qo‘zg‘olonchilar so‘ngra Kitobga otlanib Jo‘rabek va boshqa qamalganlarni ozod qilishdi.

Natijada Buxoro hukmronligi yo‘q qilindi va aholi Shahrisabz begi qilib Hakimbekni, Kitobda esa Jo‘rabekni sayladi. 1865-yilda esa Hakimbiy vafot etib,

uning o‘rnini o‘g‘li Bobobek egallaydi. Shu tariqa Shahrisabz bekligi 1870-yilga qadar mustaqil boshqarilib kelindi. Manbalarda qayd etilishicha, Bobobek (1833-1898) Shahrisabz hokimi (1865-1870) kenagas urug‘ining ochamayli aymog‘idan bo‘lib, otasi Hakimbiy vafotidan so‘ng (1865) Shahrisabz beki etib saylangan[16. C. 139].

Keyingi yillarda (1850-1870-yillar) beklik ikkita bek: Jo‘rabek va Bobobek tomonidan boshqarilgan. Voha unga kiruvchi daralar bilan birga ikkita bek o‘rtasida deyarli teng bo‘lingan. Jo‘rabek o‘ziga tegishli yerlar bilan Kitobni, Bobobek esa Shahrisabzni boshqargan[17.C.217]. Beklik Bobobekdan so‘ng, 1920-yilgacha Haydarxon, Mirza Salimbek va Said Karimxonlar tomonidan boshqarilgan.

Darhaqiqat, Shahrisabzda beklik lavozimini egallashda urug‘lar va qabilalar vakillari o‘rtasida tinimsiz kurashlar bo‘lib turgan. XIX asr o‘rtalarida Shahrisabz bekligi beklar orasida o‘z ta’sirini kuchaytirish uchun kurash olib borib, aslida Buxorodagi markaziy hokimiyatga ham bo‘ysunmaslik yo‘lini tutib, Chiroqchi, Yakkabog‘, G‘uzor bekliklari esa Shahrisabz bekligi ta‘siri ostida bo‘lib kelmoqda edi. Amir Muzaffar davrida Shahrisabz bekligi deyarli mustaqil bo‘lib, hatto Buxoro amirligi bilan turli darajada harbiy-siyosiy munosabatlar olib borish mavqeiga ega bo‘lgan.

Shahrisabz hokimi Bobobek va Kitob hokimi Jo‘rabek bilan chorizm istilosi boshlangan davrlardayoq bosqinchilarga qarshi kurash tarafdori bo‘lib chiqib, nizolarni unutib, Buxoro amiriga tobelikni tan olib, umumiy dushmanga qarshi kurashda amir chaqirig‘iga javoban ishtirok qilish istagini bildirgan edilar. Ammo ularning bu yo‘ldagi harakatlari amir Muzaffar tomonidan qarshilikka uchragandan keyin ular birmuncha fursat o‘tgach, G‘uzor viloyatining hokimi bo‘lgan uning o‘g‘li Abdumalik To‘rani qo‘llay boshladilar. Jo‘rabek va Bobobek yordamida Abdumalik o‘z atrofida katta kuch yig‘ishga erishdi. Jo‘rabek, Bobobek, G‘uzor hokimi Abdumalik To‘ra, qozoq Kenesari Qosimovning o‘g‘li Sulton Sodiq boshliq

qo‘zg‘olonchilar Jom qishlog‘i yonida amir Muzaffar qo‘shinini tor-mor etdilar[18. Б.96].

Samarqand qo‘zg‘olonida Jo‘rabek, Bobobek, G‘uzor hokimi Abdumalik To‘ra yigitlari vatan himoyasi yo‘lida jasorat namunalarini ko‘rsatdilar va rus istilochilariga qarshi kurashni davom ettirdilar. Lekin 1868-yil 23-oktyabr kuni kapitan Grebenkin boshchiligidagi rus qo‘shinlari Qarshi yaqinida qo‘zg‘olonchilarga hal qiluvchi zarba berdi. Oraga bo‘linish, parokandalik tushdi. Abdumalik To‘ra najot kutib Xiva, Afg‘oniston, Qo‘qon, Qashqar, Hindistonda bo‘ladi va 1901-yil Peshovarda vafot etdi. Jo‘rabek va Bobobek o‘z qo‘shinlari bilan birga Shahrisabz va Kitobga chekindilar. Ular mag‘lubiyatidan so‘ng, 1868-yil 23-oktyabrdan 1870-yil 11-avgustga qadar Shahrisabz bekligiga tinchlik hukm surdi[19. C. 280].

Mustamlakachilar Kitob-Shahrisabz beklari bilan munosabatlarni ma’lum muddat yaxshilab, 1870-yil yoz oyida kutilmaganda bostirib keldilar va 12- avgust kuni ertalab katta talafot ko‘rib, Kitob shahrini ishg‘ol etdilar, so‘ngra Shahrisabzga hujumga o‘tdilar. Jo‘rabek va Bobobek qo‘shinlari Shahrisabzda ham, Kitobda ham qarshilik ko‘rsata olmadilar. 15-avgustda Abramov qo‘shinlari Shahrisabzga bostirib kirishga muvaffaq bo‘ldi va beklarning qo‘shinlari Marv tomon chekindi. Dushmanning 2,5 ming bosqinchi qo‘shiniga qarshi 8 ming mudofaachi bo‘lib jang qilgan xaloskor kuchlar sarkardalari Jo‘rabek va Bobobek mag‘lubiyat alamini ichiga yutib chekindilar. Shu tariqa Jo‘rabek va Bobobek boshchiligidagi Kitob va Shahrisabz xalqining yurt ozodligi yo‘lida olib borgan qahramonona kurashlari mag‘lubiyat bilan tugadi[20. Б. 268].

1870-yil 28-avgustda general K.P.fon Kaufman Shahrisabz va Kitob bekliklarini amir Muzaffar ixtiyoriga topshirdi. Shahrisabz hududi rus bosqinchilar tomonidan bosib olingandan so‘ng, vohada Buxoro amirligiga va shahar bekligiga nisbatan munosabatlarda kuchli norozilik harakatlari bo‘lib turdi. Buxoro va Shahrisabz o‘rtasidagi kurashlar keyingi Buxoro amirlari davrida ham davom etdi.

Shahrisabz bekligi XIX asr oxiriga kelib harbiy jihatdan ancha mustahkam bo‘lgan edi. Chunonchi, XX asr ikkinchi yarmining 70-80-yillarida Buxoro amiri Abdulahad otasi amir Muzaffarning Rossiyaga qarshi pinhona harbiy tayyorgarligini davom ettirib, Qarshidan Buxoroga 2500 ta yangi sarboz otliq qo‘shin olib o‘tadi. Shahrisabzdan esa 1200 piyoda va 600 otliq sarboz poytaxt xizmatiga jalb etiladi. Hujum uchun qurol-aslaha, ot-ulov, o‘q-dori zaxira olinadi[21. Б.12]

XIX asrning ikkinchi yarmida Bobobekda otliqlar va artilleriyadan tashqari, 600 tagacha piyoda askarlar mavjud bo‘lgan. Barcha navkarlar xizmatga ko‘ngilli asosda jalb qilinganligi haqida ma’lumotlar mavjud. O‘zining ichki muxoliflarining harbiy texnikaga ega bo‘lishi Buxoro amirligini tashvishga solib qo‘ygan. Hakimbek vafotidan keyin uning o‘rnini egallagan Bobobek davriga kelib to‘p (zambarak) bilan qurollangan qo‘shinning artelleriya qismi tashkil etiladi. Zambaraklar yasashni mukammal o‘zlashtirib olgan mahalliy ustalar Rahmatilloh afg‘on vafotidan keyin ham yiliga uchta zambarak yasab beklik qo‘shiniga yetkazib turilgan[22.C.9-26]. Demak, keltirilgan ma’lumotlar Shahrisabz bekligining Buxoro amirligida harbiy sohada tutgan mavqei baland bo‘lganligini ifodalaydi.

1920-yil 2-sentyabrda M. Frunze boshchiligidagi qo‘shin tomonidan amirlik poytaxti Buxoro egallandi. 1753-yildan buyon hukmronlik qilib kelgan mang‘itlar sulolasining so‘nggi hukmdori Olimxon taxtdan ag‘darildi va Buxoro amirligi tugatildi[23. Б.3-5].

Lekin bu holat Shahrisabz bekligini batamom tugatilganidan dalolat bermas edi. Chunki, Shahrisabz, Kitob, Chiroqchi bekliklari Buxoro amirligining mavjud bo‘lib turgan kuchlari ta‘siridan xalos etilmagan edi. Garchi yer umumxalq mulki, amirlikning to‘lov va soliqlari bekor qilinib, armiyasi tarqatilgan bo‘lsada, lekin uning hali tor-mor etilmagan kuchlari amirlikni qayta tiklash uchun kurash boshladi.

Qizil armiya joylarda hokimiyatdan ag‘darilgan sobiq amir Said Olimxon kuchlarini tor-mor qilish ishlarini shiddat bilan olib bormoqda edi. Ayni paytda Said Olimxon Dushanbeda bir oz o‘z kuchlarini mustahkamlab olgach, Sherobod,

Boysun hududlarini yangitdan ishg‘ol qilib, G‘uzor, Shahrisabz, Qarshi viloyatlariga hujum qilishga tayyorgarlik ko‘rdi. Sovet hokimiyatining bosqinchilik siyosatidan norozi bo‘lgan mulkdorlar, dindorlar soni ko‘payib bordi va ular qarshilik harakatiga qo‘shilib, Sovet hokimiyatiga qarshi kurashni boshladilar. 1920-yil dekabrda Qashqadaryoda qarshilik harakati safiga qo‘shilganlar qatorida G‘uzorning sobiq beki Bo‘ri To‘qsabo ham bor edi. 1920-yil dekabrda Said Olimxon armiyasi 15 ming kishiga etdi, amir Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘, Chiroqchida sovetlarga qarshi g‘alayon ko‘tarishga erishdi.

1920-yil oxiri va 1921-yil boshida Qashqadaryoda shiddatli janglar boshlanib ketdi. Yangi Buxoroga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar Yakkabog‘, Kitob, Chiroqchi bekliklarini ham qamrab oladi. 23-sentyabrda qizil askarlar uch turdagi qurollar yordamida 5 soatlik jangdan so‘ng Shahrisabzni egallashdi. Dushman Chiroqchi, Kitob yo‘nalishi tomon chekinadi[24. Б.7-9].

1920-yil 24-sentyabrda Shahrisabz, Yakkabog‘, Kitob, Chiroqchida qo‘zg‘olon boshlandi. Bu yerda to‘plangan 2500 kishi Said Olimxon qo‘shini safiga qo‘shilish maqsadida Sharqiy Buxoro tomon yurdi. Sharqiy Buxoro qo‘zg‘olonchilari vakillari asosan Buxoroni qizil qo‘shinlardan ozod etishni va islomiy ruhdagi talablarni qo‘yishdi. Shunday qilib, 1920-yil dekabrining oxirida sobiq amir Olimxon 15000 ga yaqin lashkar to‘pladi. Buxoro guruhi qo‘shinlari qo‘mondonligi tomonidan 1920-yil 24-dekabrda chiqarilgan buyruqda Kitob – Shahrisabz va Chiroqchi - Yakkabog‘ rayonlarida ko‘tarilgan ushbu qo‘zg‘olonni tugatish uchun shoshilinch va qat’iy tadbirlar belgilandi. Bu tadbirlardan ko‘zlangan asosiy maqsad esa qo‘zg‘olonchilarning Sangardon, Yurchi va Denovda joylashgan qo‘shinlari bilan birlashishiga yo‘l qo‘ymaslik edi. Samarqanddan yo‘lga chiqqan Ionov otryadi 25-dekabrda Taxtaqoracha dovonini egalladi va 26-dekabrda dovondan tushish yo‘llari ishg‘ol etildi[25. Б. 6].

Shu tariqa qo‘zg‘olonchilarga va amir Olimxonning qolgan kuchlariga qarshi janglar qizib ketdi. 1920-yilning 23-dekabrida qizil qo‘shinlar Shahrisabz,

Yakkabog‘, Kitob, Chiroqchi hududlarini bosib olishdi[26. Б.103]. So‘ngra amir Said Olimxonning uch ming kishilik armiyasiga qarshi jang boshlandi. 1921-yil 14-fevralda amir qo‘shinlari tor-mor keltirildi. Butun Sharqiy Buxoro bosib olindi. 5-martda sobiq amir Panj daryosi orqali Afg‘onistonga o‘tib ketdi. Ammo amirning qolgan kuchlari Qarshi, G‘uzor, Shahrisabzni bir necha marotaba egallab olishga harakat qildi. Bu borada samarqandlik eng nufuzli qo‘rboshilardan biri bo‘lgan Ochilbek (Ochil dev)ning 200 dan ortiq yigiti bilan Shahrisabz vatanparvarlariga yordami ham foyda bermadi.

Shunday qilib, Shahrisabzda Buxoro amirligining tugatilishi 1920-yil dekabr oyi oxiri va 1921-yil yanvar, fevral oylariga to‘g‘ri keladi. Shunga ko‘ra, Shahrisabz bekligi tarixining tugatilishini 1920-yil 2-sentyabrda Buxoro amirligining ag‘darilishi bilan tushuntirish to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Xulosa. Shahrisabz bekigining ma’muriy boshqaruvi Buxoro amirligining boshqa bekliklaridan farq qilmagan. Shahar amirlikda mavqei jihatidan Buxoro, Qarshi shahridan keyingi uchinchi shahar hisoblangan. Bu davrda beklikda murakkab siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar yuz berayotgan edi. Beklikning siyosiy hayotida Buxoro amirligiga bo‘ysunmaslik, mustaqillik uchun va rus bosqinchilarining asoratiga tushmaslik yo‘lida kurashlar muhim o‘rin tutgan. Beklikning boshqa bekliklardan farqli xususiyati: siyosiy erkinlikka intilish va kurashning yuqoriligi bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.** 2-том. – Тошкент : ЎзМЭ, 2001. – Б. 284.
2. **Сафаров Д. Т.** XIX аср охири – XX аср бошларида Қуйи Қашқадарё аҳолиси (тарихий-этнографик маълумотлар) // *Қадимий Қариши. Ўрта*

Осиё шаҳарсозлиги ва маданияти тарихи. – Қарши : Насаф, 1999. – Б. 152.

3. **Григорев В. В.** Очерки Шаҳрисабзского бекства // *Вестник Европы*. – 1870. – Отд. отт. – С. 16.
4. **Ўзбекистон Миллий архиви (O‘z MA).** 126-фонд, 1-рўйхат, 71-иш, 24а-варақ.
5. **Сухарева О. А.** К истории городов Бухарского ханства. – Ташкент : Изд-во АН УзССР, 1958. – С. 138.
6. **Кун А.** Очерки Шаҳрисабзского бекства // *Записки Императорского Русского географического общества* по отделению этнографии. – Т. 6. – СПб., 1880. – С. 286.
7. **Қадимги Кеш – Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар.** – Тошкент : Шарқ, 1998. – Б. 173.
8. **Яворский И. Л.** Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1876–1879 гг. Т. 1. – СПб., 1882. – С. 35–36.
9. **Григорев В. В.** Очерки Шаҳрисабзского бекства // *Вестник Европы*. – 1870. – Отд. отт. – С. 22.
10. **Тухтаметов Т. Г.** Русско-Бухарские отношения в конце XIX – начале XX в. – Тошкент : Фан, 1966. – С. 28.
11. **Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.** 1-том. – Тошкент : ЎзМЭ. – Б. 286.
12. **Чориев З.** Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент : Шарқ, 2002. – Б. 150.
13. **Азамат Зиё.** Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент : Шарқ, 2000. – Б. 279.
14. **Ражабов Қ.** Насруллоҳхон. – Тошкент : Абу матбуот-консалт, 2011. – Б. 28.
15. **Равшанов П.** Малика Кенагас ойим ёхуд амир Насрулонинг ўлими қиссаси. – Тошкент : Шарқ, 2000. – Б. 32.

16. **Бейсембиев Т. К.** Малые владения в Мавераннахре: Нур-ата, Ургут, Яккабаг (XVIII–XIX вв.) // *Iran-name*. – 2007. – № 2. – С. 139–148.
17. **Кун А.** Очерки Шахрисабзского бекства // *Записки Императорского Русского географического общества* по отделению этнографии. – Т. 6. – СПб., 1880. – С. 217–218.
18. **Одилов А. А.** Бухоро амирлигида XIX асрнинг 60-йилларида озодлик ҳаракати тарихи // Илмий тўплам. – Тошкент, 1995. – Б. 96–98.
19. **Мирза Салимбек.** Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата) / пер. с перс., ввод. ст. и примеч. Н. К. Норкулов ; ред. перевода А. К. Арендс ; предисл. и ред. примеч. А. С. Сагдуллаев. – Ташкент : Академия, 2009. – С. 280 (прим. 38).
20. **Зияев Ҳ.** Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш (XVIII – XX аср бошлари). – Тошкент : Шарқ, 1998. – Б. 268–292.
21. **Шукруллаев Й.** Бухоро амирлигида қўшин ва ҳарбий иш (1756–1920 йиллар) : тарих фанлари номзоди дисс. автореф. – Тошкент : ЎзМУ, 2006. – Б. 12.
22. **Вяткин В. Л.** Каршинский округ, организация в нем войска и события в период 1215–1217 (1800–1803 гг.) // *Известия Средне-Азиатского отдела Государственного Русского географического общества*. – Т. 18. – 1928. – С. 9–26.
23. **Ўзбекистон Миллий архиви (O‘z MA).** 1-фонд, 29-рўйхат, 170-иш, 3–5-варақ.
24. **Ўзбекистон Миллий архиви (O‘z MA).** I-5-фонд, 1-рўйхат, 89-иш, 7–9-варақ.
25. **Ўзбекистон Миллий архиви (O‘z MA).** 46-фонд, 2-рўйхат, 10-иш, 6-варақ.
26. **Ўзбекистон Миллий архиви (O‘z MA).** 46-фонд, 2-рўйхат, 10-иш, 103-варақ.

ЦИФРОВАЯ ЗАВИСИМОСТЬ У ДЕТЕЙ. КАК РАСПОЗНАТЬ? НОВАЯ РЕАЛЬНОСТЬ — НОВЫЕ ВЫЗОВЫ

Баротова Шохсанам Бахтиёр кизи
Самаркандского государственного педагогичнского института
Мамадаминова Амира,
Самаркандского государственного педагогичнского института
Мамаюсупова Шахзода
Самаркандского государственного педагогичнского института

Annotatsiya: Maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda raqamli qaramlik muammosiga bag‘ishlangan. Unda uning asosiy ko‘rinishlari — multfilmlarga, o‘yinlarga va qurilmalarning o‘ziga qaramlik, shuningdek, odatlanishning shakllanish mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *aqamli qaramlik, bolalar, maktabgacha yoshdagilar, gadjetlar, smartfonlar, planshetlar, multfilmlar, o‘yinlar, videokontent, dofamin, odatlanish, ota-onalar, pedagoglar, ruhiy salomatlik, jismoniy sog‘liq, ijtimoiy izolyatsiya, muloqot, rivojlanish, xulq-atvor, e’tibor, his-tuyg‘ular, virtual olam, haqiqiy hayot, muvozanat, ongli yondashuv.*

Аннотация: *Аннотация Статья посвящена актуальной проблеме цифровой зависимости у детей дошкольного возраста. Рассматриваются основные формы её проявления: зависимость от мультфильмов, игр и самих устройств, а также ключевые механизмы формирования привыкания.*

Ключевые слова: *цифровая зависимость, дети, дошкольники, гаджеты, смартфоны, планшеты, мультфильмы, игры, видеоконтент, дофамин, привыкание, родители, педагоги, психическое здоровье, физическое здоровье, социальная изоляция, коммуникация, развитие, поведение, внимание, эмоции, виртуальный мир, реальная жизнь, баланс, осознанность.*

Abstract: *The article is devoted to the pressing issue of digital addiction among preschool children. It examines the main forms of its manifestation — dependence on cartoons, games, and digital devices themselves, as well as the key mechanisms behind the development of this habit.*

Keywords: *digital addiction, children, preschoolers, gadgets, smartphones, tablets, cartoons, games, video content, dopamine, dependence, parents, teachers, mental health, physical health, social isolation, communication, development, behavior, attention, emotions, virtual world, real life, balance, mindfulness.*

Цифровая зависимость — это не просто увлечение гаджетами, а навязчивая потребность в их использовании, которая начинает управлять жизнью ребенка. Технологии развиваются стремительно, и самые младшие пользователи особенно уязвимы. Дошкольники, чей мозг только формируется, с головой погружаются в яркий виртуальный мир. Со временем интерес к мультфильмам и играм может перерасти в настоящую зависимость от смартфонов и планшетов, что серьезно бьет по их психическому, физическому и социальному здоровью. Ребенка действительно легко увлечь: достаточно включить красочный мультфильм или показать ему интерактивную игру с быстрой сменой картинок, и его внимание будет полностью захвачено экраном. Современный цифровой контент для детей построен именно на этом — он предлагает мгновенное удовольствие, простоту использования и непрерывный поток ярких визуальных стимулов. Масштабы проблемы подтверждаются научными данными: это состояние характеризуется как компульсивная зависимость от цифровых медиа и высокотехнологичных устройств. Хотя этот вид зависимости пока не включен в официальные медицинские руководства, многие психологи отмечают ее сходство с другими поведенческими расстройствами, особенно в механизмах формирования привыкания. Статистика показывает, что различные формы цифровой зависимости наблюдаются у 26,99% людей, причем наиболее уязвимой

группой является молодежь и дети. Эта повсеместная зависимость провоцирует развитие психологических проблем, усугубляет социальную изоляцию, вызывает нарушения сна и приводит к значительному снижению когнитивных функций. Сегодня родители, педагоги и родственники постоянно пользуются цифровыми устройствами. Ребенок видит это, и рано или поздно тоже начинает просить телефон или планшет. Если ему меньше пяти лет, он может закатывать истерики, добиваясь своего. Взрослые, желая успокоить ребенка или получить немного свободного времени, часто идут по пути наименьшего сопротивления и разрешают сидеть с гаджетом. Однако многие не до конца осознают, к каким последствиям приводит такое попустительство. Страдает не только зрение, но и общее самочувствие: снижается физическая активность, портится настроение, падает интерес к реальной жизни. Ребенок перестает интересоваться традиционными игрушками, общением со сверстниками и познанием окружающего мира через непосредственный опыт.

Какие бывают виды цифровой зависимости у детей? Цифровая зависимость у дошкольников имеет свою специфику: **1** Зависимость от видеоконтента. Самый распространенный вид среди малышей. Проявляется в неконтролируемой потребности постоянно смотреть мультфильмы, развивающие видео или блоги других детей. Ребенок требует включить видео сразу после пробуждения, во время еды, в любую свободную минуту. **2** Игровая зависимость. Даже простые детские игры с системой вознаграждений (звездочки, аплодисменты, переход на новый уровень) способны вызывать привыкание. Длительные игровые сессии заставляют детей забывать о других занятиях. **3** Зависимость от самого устройства. Это страх расстаться с планшетом или телефоном даже на короткое время. Гаджет становится «игрушкой-утешителем», без которого ребенок чувствует себя неуверенно и тревожно.

Почему возникает зависимость? Простым языком о сложных процессах. Чтобы эффективно бороться с проблемой, важно понять ее корни. В основе

цифровой зависимости лежит тот же механизм, что и в случае с другими видами зависимостей — выброс дофамина — нейромедиатора, отвечающего за чувство удовольствия и мотивации. Каждая новая серия мультфильма, яркая анимация, забавный звук или победа в простой игре — это микро-вознаграждение, которое вызывает небольшой выброс дофамина. Мозг ребенка, чья система контроля и саморегуляции еще незрела, быстро запоминает этот легкий способ получить положительные эмоции. Со временем развивается толерантность: для получения прежнего удовольствия требуется все больше времени перед экраном или более интенсивные стимулы. А когда гаджета нет под рукой, ребенок испытывает нечто похожее на «ломку»: скуку, раздражительность, беспокойство. Его мозг просто требует новую «дозу» ярких впечатлений. Вот основные признаки, которые должны насторожить родителей и педагогов:

• Эмоциональные колебания: Ребенок становится раздражительным, агрессивным или подавленным, когда ему ограничивают время за гаджетами.

• Потеря интереса: Ему больше не интересны обычные игрушки, рисование, лепка, прогулки на свежем воздухе.

• Постоянные просьбы: Ребенок все время просит включить мультики или дать поиграть, даже во время других занятий.

• Нарушение режима: Ребенок отказывается спать или есть без гаджета, с трудом засыпает.

• Ухудшение коммуникации: Становится менее общительным, предпочитает виртуальный мир реальному взаимодействию.

Цифровая зависимость у дошкольников — это серьезный вызов, но не приговор. Важно понимать, что у технологий есть и положительные стороны — образовательные приложения, развивающие игры. Задача взрослых — не оградить ребенка от цифрового мира, а научить его использовать технологии как инструмент, а не как единственный источник радости. Главное — сохранять баланс. Никакой, даже самый совершенный гаджет, не заменит

тепла живого общения, радости совместных открытий и тактильного опыта, который так важен для развития малыша. Пусть технологии будут нашими помощниками, а не хозяевами времени и внимания наших детей. Ваша осознанность, любовь и готовность участвовать в жизни ребенка — самый надежный фундамент для его здорового и счастливого будущего

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. **Panova T., Carbonell X.** Is smartphone addiction really an addiction? // *Journal of Behavioral Addictions*. – 2018.
2. **Kwon M., Lee J. Y., Won W. Y., Park J. W., Min J. A., Hahn C., va boshq.** Development and validation of a smartphone addiction scale (SAS) // *PLOS ONE*. – 2013.
3. **Griffiths M. D.** The evolution of addiction and the internet // *Principles of Addiction*. – 2018.
4. **Cheng C., Li A. Y.** Internet addiction prevalence and quality of (real) life: a meta-analysis of 31 nations across seven world regions // *Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking*. – 2014.
5. **Darvesh N., Radhakrishnan A., Lachance C. C., Nincic V., Sharpe J. P., Ghassemi M., va boshq.** Exploring the prevalence of gaming disorder and Internet gaming disorder: a rapid scoping review // *Systematic Reviews*. – 2020.

JAMIYATDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASHNING IJTIMOIY-MADANIY OMILLARI

Karimova Sadoqat Tohirovna

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

Аннотация: *На протяжении всей истории предпринимались многочисленные попытки дальнейшего развития межнациональных отношений. Хотя эти усилия не всегда были успешными, стремление к культурно совместимым отношениям оставалось неизменной целью, характерной чертой толерантности. Узбекистан – многонациональное государство. Здесь, наряду с основной нацией – узбеками, мирно живут граждане многих других стран со своей культурой и традициями. Взаимный товарооборот между странами региона увеличился более чем в два с половиной раза, а количество совместных предприятий – в пять раз. Наш регион стал центром экономического развития, транспортно-коммуникационным мостом, соединяющим Восток и Запад, Север и Юг, и интерес к нему растёт.*

Ключевые слова: *толерантность, национальные процессы, национальная политика, духовное возрождение, международное сообщество, демократические реформы, глобализация, международные организации, любовь к родине, бескорыстие.*

Annotation: *Throughout history, a number of efforts have been made to further develop interethnic relations. Although such efforts have not always been successful, the pursuit of culturally compatible relations has remained a constant goal, a characteristic of tolerance. Uzbekistan is a multinational state. Here, along with the main nation, Uzbeks, citizens of many other countries with their own culture and traditions live in peace. Mutual trade between the countries of the region has increased more than two and a half times, and the number of joint ventures has increased five times. Our region has become a center of economic development, a transport and communication bridge connecting East and West, North and South, and interest in it is growing.*

Keywords: *tolerance, national processes, national politics, spiritual renewal, international community, democratic reforms, globalization, international organizations, love of country, selflessness.*

Annotatsiya: *Butun tarixiy davr mobaynida millatlararo munosabatlarni yanada shakllantirishda bir qator harakatlar amalga oshirib kelingan. Garchi bu sohada sayi harakatlar hamisha ham muvaffaqiyatli chiqavermagan bo‘lsa-da har holda madaniy jihatdan o‘zaro munosabatlarga intilish bag‘rikenglik (tolerantlik) fe’l-atvor taomili, doimiy maqsad bo‘lib qolavergan. O‘zbekiston ko‘p millatli davlat tipiga mansubdir. Bu yerda asosiy millat o‘zbeklar bilan birga o‘z madaniyatiga va an’analariga ega bo‘lgan juda ko‘plab boshqa davlat fuqorolari tinch-totuv yashab kelmoqda. Mintaqa davlatlari o‘rtasida o‘zaro savdo ikki yarim barobardan ziyod, qo‘shma korxonalar soni esa besh marta o‘sdi. Mintaqamiz iqtisodiy rivojlanish markaziga, Sharq va G‘arbni, Shimol va Janubni bog‘laydigan transport-kommunikatsiya ko‘prigiga aylanib, unga qiziqish tobora ortib bormoqda.*

Kalit so’zlar: *bag‘rikenglik (tolerantlik), milliy jarayonlar, milliy siyosat, ma’naviy yangilanish, xalqaro hamjamiyat, demokratik islohotlar, globallashuv, xalqaro tashkilotlar, yurtga muhabbat, fidoiylik.*

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida: «Markaziy Osiyoning dunyoga ochiqligi – mintaqa xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan eng muhim shartga aylanmoqda. Ishonch bilan aytish mumkinki, bizning xalqlarimizni mintaqaviy o‘ziga xoslikni anglash tuyg‘usi birlashtirmoqda va bu tuyg‘u tobora kuchayib bormoqda. Bizning nafaqat tariximiz, balki kelajagimiz, hayotiy muhim manfaatlarimiz ham umumiy va mushtarakdir. Mintaqaviy hamkorligimizni kengaytirishdan boshqa yo‘limiz yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas! Aminmanki, xalqaro hamjamiyatning qo‘llovi bilan Markaziy Osiyo birdamlik yo‘lidan borishda davom etadi. Markaziy Osiyoni tinch va gullab-yashnayotgan hududga aylantirish O‘zbekiston tashqi siyosatida bundan buyon ham ustuvor maqsad bo‘lib qoladi». Bizning fikrimizcha, ana shunday sharoitda ko‘p millatli jipslashgan davlatni barpo etishda millatlararo va elatlararo bag‘rikenglikka

erishish siyosatining ahamiyati benihoya kattadir. Bu siyosat eskirgan qoloq aqidalardan voz kechishga va milliy mustaqillik hamda ma'naviy yangilanish g'oyalari va tamoyillarini odamlar ongiga singdirshiga qaratilgandir.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, o'tmishdagi milliy siyosatda yo'l qo'yilgan xatolar ta'lim mehnat boshqaruv sohalarida millatiga qarab kamsitish hollari millatchilik xurofotlari va boshqa salbiy tushunchalar millat va elatlar o'rtasida o'zaro keskinlik va mojarolarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar qatoridan joy olgan. Mamlakatimizdagi mustaqil rivojlanish sharoitida ro'y berayotgan chuqur ijtimoiy o'zgarishlar o'zbekistonliklarning mentalitetida yangi milliy davlatchilikni qaror toptirish jarayonlarini jadallashtirib yubordi.

Millatlararo munosabatlardagi yangi tizimning shakllantirish jarayonida fuqorolarning ba'zi qatlamlari, ayniqsa yoshlar o'rtasida shunday munosabatlarning to'laqonli yuzaga chiqarish sifatida belgilab olingan. «Mubolag'asiz aytish mumkin» - deya ta'kidlagan edi I.Karimov «bizning kelajagimiz mamlakatimizning kelajagi bizning o'rnimizga kimlar kelishiga yoki boshqacharoq aytganda qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq». Davlatning butun diqqat-e'tibori mazkur muammoga qaratilganligi chunonchi yoshlarni tarbiyalashga yangi yondoshuvlar belgilab berilganligi va bu ishda avvalo ma'naviyatni qaror toptirish va mustahkamlashga urg'u berilganligi yosh avlodga munosabat tubdan o'zgarganligidan dalolat beradi.

ASOSIY QISM. Demokratik islohotlarni amalga oshirish ta'sirchan milliy siyosat yuritish uchun yoshlar orasidagi millatlararo munosabatlar qay yo'sinda o'zgarayotganligini sinchiklab o'rganish metodologik jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Aholining soni va tarkibini bildiruvchi ko'rsatkichlar bunday xulosa chiqarish uchun asos bo'ladi. Masalan, O'zbekistonning 38 milliondan oshiq aholisidan 60 foizi yoshga yetmagan yigit va qizlar bo'lsa shundan 43 foizini 16 yoshdagi o'smirlar tashkil qildi.

Darhaqiqat, «Yangi O'zbekiston yangi saylovlar» shiori ostida 2019-yilda o'tgan saylovlar natijasida saylangan xalq deputatlari viloyat Kengashlari

deputatlarining 10 foizi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a’zolarining 8 foizi, Qonunchilik palatasi deputatlarining 13 foizi qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman, rus, koreys va boshqa millatlarga mansubligi O‘zbekistonda yashayotgan turli millat vakillari ro‘y berayotgan muhim siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi ekanligidan dalolat beradi».

Milliy jarayonlarning mohiyatini tushunish yosh avlod tarbiyasiga oid ta’sirchan siyosatni ishlab chiqish yoshlar orasida millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish metodlarini yaratish uchun ham millatlararo bag‘rikenglik muammosi benihoya dolzarb ahamiyatga molikdir. Shu maqsadda «Oqilona siyosat natijasida O’zbekistonda tele-radio ko’rsatuv va eshittirishlar 12 tilda efirga uzatilmoqda, gazeta va jurnallar 14 tilda chop etilmoqda hamda mamlakatimizdagi 10 000 dan ortiq umumta’lim maktabining 1 865 tasida ta’lim 6 tilda, ya’ni qoraqalpoq, rus, tojik, turkman, qirg’iz va qozoq tillarida olib borilmoqda». Bugungi vaqtga kelib dunyoda madaniy aloqalar kengayib borayotganligi sababli turli madaniyatlar o‘zaro hamkorligining samaradorligi muammosi dolzarb vazifa qilib qo‘yilmoqda. O‘zaro madaniy aloqa va bu sohada hamjihatlik g‘oyat murakkab jarayon bo‘lib xilma-xil mantiqiy va ma’naviy tarkibga egadir bu holatni inkor qilish ko‘pincha murakkab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Endilikda insoniyat «biz yashab turgan dunyo qanday bo‘lishi kerak», «qon to‘kilishiga, ekstremizmga, odamlar o‘rtasidagi adovatga qanday qilib barham berish kerak» degan masala ustida tinimsiz bosh qotirmoqda. Alohida har bir odamni va umuman jamiyatni o‘zidan boshqa shaxs va jamiyatlarni salbiy darajada talqin etmaslik o‘zgalar fikriga sabr-toqat bilan munosabatda bo‘lish demokratik huquqiy jamiyatning eng asosiy belgilaridan biri ekanini tushunish ruhida qanday qilib tarbiyalamoq kerak degan masala ham g‘oyat muhim ahamiyatga egadir. Xalqaro tashkilotlardan biri YUNESKO tomonidan 1995-yil «Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasi»da tolerantlik tushunchasini fuqarolik jamiyatining qadriyati va ijtimoiy normasi deya ta’riflandi.

Hozirgi dunyodagi mamlakatlarning aksariyati ko‘pmillatli, ko‘p madaniyatli xarakterga ega. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi ham aynan shunday mamlakatlar jumlasiga kirib, ushbu hol fuqarolar o‘rtasidagi tinchlik-totuvlik hamda millatlararo hamjihatlikni saqlab qolishga to‘sqinlik qilmaydi. Shuningdek, millatlararo tolerantlik uning ustuvor jihatlaridan biridir. Tolerantlikni rivojlantirish odamlar o‘rtasida doimiy muloqotni yo‘lga qo‘yishni ko‘zda tutadi. Shu sababli hozirgi globallashib borayotgan dunyoda tolerantlikni ommalashtirishga, kishilarning insonparvarlik tafakkuri va fe’l-atvorini takomillashtirishga, o‘zgalarga yotsirash bilan qarash (ksenofobiya)ga qarshilik qilish loyihalarini shakllantirish va amaliyotda qo‘llashga intiluvchi turli nohukumat tashkilotlar, fuqaro guruhlari va ayrim tashabbuskorlar harakat qila boshladilar.

XX asrning ikkinchi yarmida tolerantlik muammosi xalqaro tus oldi chunki bu muammoning ijobiy hal etilishi xalqlar o‘rtasidagi va mamlakat ichidagi ko‘pgina mojarolar tugunini yechib yuborish imkonini beradi. Chunonchi, bir-biriga sabr-toqat bilan qarash, bir-birining o‘zgacha yashash huquqini tan olish, ayrim ijtimoiy subyektlarning mutloq xaqiqat tushunchasini tan olish to‘g‘risidagi fikriga qo‘shilish sohasida muayyan hamjihatlik bo‘lmasa, o‘zaro mojarolashuvchi tomonlar o‘rtasidagi muloqotda murosaga erishib bo‘lmaydi. Tolerantlik muammosiga katta ahamiyat berilayotganini shundan ham bilsa bo‘ladiki, jahon hamjamiyatining bu hayotiy muammoga e’tiborini jalb qiluvchi ko‘pgina xalqaro tadbirlar o‘tkazila boshlandi, jumladan, 1995-yilni Birlashgan Millatlar Tashkiloti bag‘rikenglikka bag‘ishladi. Bu tadbirlarda tolerantlikni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi shart-sharoitlarni yaratish yo‘llarini izlanmoqda, bu muammoni hal etishga xalaqit berayotgan omillarni bartaraf etishga harakat qilinmoqda. Hozirgi dunyoning globallashib borayotganligi ana shunday omillardan biridir.

Globallashuv jarayonining mohiyati ham odamlar, ham davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va o‘zaro bog‘liqlikning haddan tashqari kengayib va murakkablashib borayotganligidan iboratdir. Chunonchi dunyo miqyosidagi axborot makoni, kapitallar, tovarlar va ishchi kuchlarining jahon bozori vujudga

kelmoqda, tabiiy muhitga texnogen ta’siri muammosi, millatlararo va dinlararo nizolar va yalpi xavfsizlik muammosi chigallashib ketmoqda.

Hozirgi dunyoning globallashuvi turli darajadagi jarayonlarni yuzaga keltirayotgani va oqibatda millatlararo munosabatlarning ba’zi holatlarda beqarorlashuviga olib kelmoqda. Madaniyatlar xilma-xil ekanligi sababli ayni bir xil jarayonlarga yondoshuvlar ham turli-tumandir ammo bu narsa aniq ijtimoiy subyektlar uchun ham, butun dunyo uchun ham xavf solishi mumkin. Iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik, axborotning globallashuvi va xavfsizlik nuqtai nazaridan o‘zaro bog‘liqlik hozirgi dunyo globallashuvining o‘ziga xos xususiyatlaridir.

O‘zbekistonning mustaqil rivojlanish tarixi yangi yuz yillik bilan, dunyoda millatlararo va dinlararo adovat benihoya avj olgan yuz yillik bilan bir paytga to‘g‘ri keldi. Bizning ko‘z o‘ngimizda butun butun davlatlar barbod bo‘lmoqdaki, buning asl sababi mazkur davlatlardagi milliy manfaatlarning to‘qnashuvidir. Shu sababli biz O‘zbekistonning eng katta yutug‘i millatlararo hamjihatlik va totuvlik, tinchlik va barqarorlik deganimizda, bu gap shunchaki hammaga ma’lum bo‘lgan haqiqatgina bo‘lmay, balki bu hozirgi notinch dunyodagi respublikaning katta muvaffaqiyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Abu Nasr Forobiy.** Fozil odamlar shahri. – Toshkent : Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – 189 b.
2. **Nosirov R. N., Sirojiddinov Sh. S., Ziyautdinova H. A.** O‘rta Osiyolik allomalarning falsafiy qarashlari. – Toshkent : Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2007. – 345 b.
3. **Nurmatova M. A.** Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg‘unligi. – Toshkent : Universitet, 2009. – 189 b.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ФИЗИКА ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИНИ ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШ.

Санақулов.Ф.Р

Қарши Давлат Техника Университети

Аннотатсия: *Ушбу мақолада олий таълим муассасаларида физика йўналиши талабаларини илмий-тадқиқот фаолиятига тайёрлашнинг назарий ва амалий жиҳатлари ёритилган. Илмий-тадқиқот компетенцияларини шакллантиришда индивидуал ўқитиш, онгли истиқбол, таълим тизимининг очиқлиги ва мослашувчанлиги тамойилларининг аҳамияти илмий асосда таҳлил қилинган.*

Таянч сўзлар: *индивидуал ўқитиш тамойили, онгли истиқбол тамойили, таълим тизимининг очиқлиги тамойили, таълим тизимининг мослашувчанлиги тамойили, Касбий билимлар.*

Аннотация: *В данной статье раскрываются теоретические и практические аспекты подготовки студентов физического направления высших учебных заведений к научно-исследовательской деятельности. На научной основе проанализирована важность принципов индивидуального обучения, сознательной перспективы, открытости и гибкости образовательной системы в формировании научно-исследовательских компетенций.*

Ключевые слова: *Принцип индивидуального обучения, Принцип сознательной перспективы, Принцип открытости системы образования, Принцип гибкости системы образования, Профессиональные знания*

Annotation: *This article explores the theoretical and practical aspects of preparing physics majors at higher education institutions for scientific research*

activities. The importance of the principles of individualized learning, conscious perspective, openness, and flexibility of the educational system in developing research competencies is scientifically analyzed.

Key words: *Principle of individualized instruction, Principle of conscious perspective, Principle of openness of the education system, Principle of flexibility of the education system, Professional knowledge.*

Олий таълим муассасаларида физика йўналиши талабаларини илмий-тадқиқот фаолиятга тайёрлаш қуйидаги тамойилларни ҳисобга олиши ва мақсадли равишда фойдаланиши зарурдир:

- *индивидуал ўқитиш тамойили*, бу тамойилга кўра ҳар бир талаба олий таълим олиши давомида касбий фаолиятини ёки бир нечта касбий фаолиятга (лойиҳавий-конструкторлик, ташкилий бошқарув, педагогик, маънавий-маърифий) тайёргарлигини ривожлантиришда ўз шахсий таълим траекториясини тузишда ҳамда уни амалга оширишда фаол иштирок этиш имкониятига эга бўлади;

- *онгли истиқбол тамойили*, бу тамойилни амалга ошириш профессор-ўқитувчи ва тиалабалар ўртасида ўзаро манфаатдорлик ва ижодий кўмаклашиш муҳити юзага келиб, бу ахборотларни англашнинг сифати яхшиланишига ва касбий маҳоратнинг пайдо бўлишига ёрдам беради;

- *таълим тизимининг очиқлиги тамойили*, бу тамойилга кўра таълим тизими ташқи ахборотлар, ресурслар, технологиялар ва шу кабилар билан ўзаро алмашинувни амалга оширишга қобил бўлади, бу эса ўз навбатида ўз-ўзини ташкил этиш механизми бўлиб ҳисобланади, чунки бирон-бир янги нарсанинг туғилиши ҳар доим одатдаги тартиблиликнинг бузилиши билан боғланган бўлади, дастлабки тизим чегараларидан чиқиш билан муҳит элементлари ҳисобига тизимнинг қайта тузилмаланиши ва қурилиши рўй беради;

- *таълим тизимининг мослашувчанлиги тамойили* физика ўқитиш мазмуни ва билимларни ўзлаштириш даражаси, шунингдек, илмий-тадқиқот кўникмаларни ўзлаштириш йўналишини шахснинг эҳтиёжларига ва унинг касбий интилишлари даражасига мос келади. Билимлар ўқув режаси билан зўрлаб тиқиштириладиган бўлиб эмас, автоматик равишда талаб мавжуд бўлган нарсага айланади, бунда шахсий мотивация ва билимларни ўзлаштириш самарадорлиги сезиларли равишда кучаяди;

- *таълим тизимининг динамиклиги тамойили,* бу олий таълим муассасаларида физика йўналиши талабаларини илмий-тадқиқот фаолиятга тайёрлаш давомида касбда ва умуман бутун мамлакат миқёсидаги ижтимоий-иқтисодий ўзгаришларга тезкор реакция кўрсатиш билан боғлиқ бўлади. Уларнинг синергияси талабалар шахсининг когнитив, меъёрий-этикавий, ахборот-коммуникатив, жамоавий-фаолиятли, рефлексив-баҳолашли соҳаларининг ривожлантирилишига қаратилади.

Fictive motion is closely tied to Conceptual Metaphor Theory (Lakoff & Johnson, 1980), particularly to the schema PROGRESS IS MOTION, which maps physical movement onto political development, reform, and social change. Scholars such as

Kövecses (2010) and Gibbs (2006) demonstrate that such metaphors guide public interpretation by framing politics as a trajectory with direction, obstacles, and a goal. Motion metaphors therefore allow complex policies and national ideologies to be communicated as intuitive, embodied experiences.

Previous studies show that fictive motion is widespread across languages, yet culturally variable. English political discourse often frames development through forward movement, leadership, and competition (e.g., moving ahead, falling behind). Research on non-Western contexts suggests alternative patterns, such as collective progress and unity-based motion imagery, reflecting shared responsibility and common purpose. However, comparative work involving Uzbek remains scarce, with most existing studies addressing metaphor in general, not specifically fictive motion.

This research addresses that gap by comparing fictive motion metaphors in Uzbek and English political discourse. It examines how both languages use motion imagery pragmatically to persuade, motivate, and shape public perception, while revealing differences linked to cultural worldview and rhetorical tradition.

Main body

Political language frequently uses motion metaphors to conceptualize time, progress, reform, and development. English studies show expressions such as “moving forward”, “driving change”, or “heading towards reform” serve persuasive and framing functions. Similarly, Uzbek political discourse employs metaphors like “yangi yo‘llar ochildi” (“new paths are opened”) and “rivojlanish yo‘li davom etadi” (“the path of development continues”).

While motion metaphors are common across cultures, their pragmatic functions differ. English discourse often emphasizes individual agency and goal-directed motion, whereas Uzbek discourse highlights collective movement and national progress, reflecting cultural cognition (collectivist vs. individualist orientation). Despite these insights, few studies systematically compare fictive motion metaphors across languages, particularly in the political domain. This study addresses this gap

by providing a pragmatic, cognitive, and cross-linguistic analysis. In Uzbek discourse, metaphors predominantly emphasize collective movement, unity, and path-opening trajectories. For example, “oldinga siljish” (moving forward) conveys continuous national progress and reform, emphasizing purposeful societal advancement. “Yo‘lni ochish” (opening the path) represents creating opportunities for reform, framing leadership as enabling collective progress. “Orqada qolmaslik” (not falling behind) warns against stagnation, highlighting shared responsibility for keeping pace with global development. “Birinchi qadamni tashlash” (taking the first step) signifies initiating reform, emphasizing proactive leadership and collective engagement. Expressions like “mamlakatni rivojlantirish yo‘lida harakat qilish” (moving along the path of national development) and “rivojlanish yo‘lini bosib o‘tish” (traversing the path of development) frame progress as an ongoing journey, reflecting careful planning and joint effort. “Birgalikda olg‘a intilish” (advancing together) highlights solidarity and social cohesion, while “toshlar yo‘lini to‘smasin” (don’t let obstacles block the path) metaphorically emphasizes overcoming challenges through cooperative action. Collectively, these metaphors frame political reform and national development as shared journeys, reinforcing unity, cooperation, and culturally grounded notions of collective advancement.

In English discourse, metaphors are often goal-oriented, leadership-centered, and dynamic, reflecting individual initiative and outcome-focused perspectives. “Riding coattails” conveys indirect progress achieved through association, emphasizing political strategy and positioning. “Running through the tape” represents achieving a milestone or goal, highlighting success-oriented motion. “Moving forward” frames continuous, purposeful progress, underscoring leadership and initiative. “Falling behind” signals regression or failure to maintain pace, emphasizing consequences for leaders or nations. “The nation is being pulled apart” depicts societal division as opposing forces acting upon a collective entity, highlighting conflict and instability. These expressions foreground individual agency, strategic leadership, and outcome-directed trajectories, contrasting with the collective focus of Uzbek metaphors.

Across both languages, fictive motion metaphors perform key pragmatic functions. They frame political agendas by making abstract processes like reform, development, and leadership comprehensible as trajectories. They persuade and mobilize audiences, encouraging engagement with policy or national objectives. They also construct optimism or caution: forward-oriented expressions like oldinga siljish, yo‘lni ochish, and moving forward inspire hope, while regressive or divisive expressions like orqada qolmaslik, falling behind, and the nation is being pulled apart signal challenges or risks.

The comparative analysis highlights both universal cognitive tendencies, reflecting the human inclination to conceptualize abstract ideas through motion, and culture-specific rhetorical patterns. Uzbek discourse emphasizes collective advancement, unity, and shared responsibility, while English discourse prioritizes individual-directed, goal-oriented progress and leadership. These findings demonstrate that motion-based conceptualizations are cognitively grounded, culturally shaped, and persuasively functional, shaping how audiences perceive political processes, reform, and national development across languages.

Conclusion

This study examined fictive motion (FM) metaphors in Uzbek and English political discourse through a comparative pragmatic lens. The analysis of 100 metaphorical expressions demonstrated that motion-based conceptualizations serve as “powerful cognitive and rhetorical tools” for framing political reform, national development, and social progress.

In “Uzbek discourse”, metaphors predominantly emphasize “collective movement, unity, and path-opening trajectories”, reflecting culturally rooted values of cooperation, shared responsibility, and solidarity. In contrast, “English discourse” relies more on “goal-directed, leadership-centered, and dynamic metaphors”, highlighting individual initiative, strategic planning, and outcome-oriented progress. Despite these differences, both languages utilize motion imagery to “structure

abstract political processes", "persuade audiences", and "construct narratives of progress or caution".

The findings have several implications:

1. Cognitive linguistics: The study confirms that abstract political concepts are universally conceptualized through embodied experiences of motion, demonstrating cross-linguistic patterns in human cognition.
2. Political communication: FM metaphors function as persuasive tools that influence public perception, engagement, and alignment with political agendas.
3. Cross-cultural pragmatics: Differences between Uzbek and English highlight how cultural norms, political traditions, and ideological orientations shape metaphorical conceptualization, revealing the interplay between language, cognition, and culture.

Overall, the study underscores that fictive motion metaphors are not only linguistic devices but also strategic instruments in political discourse, reflecting both universal cognitive tendencies and culture-specific rhetorical strategies. Future research could expand on this work by examining FM metaphors in additional languages or exploring their effects on audience interpretation and political behaviour.

Reference

1. **Talmy L.** Lexicalization patterns: semantic structure in lexical forms // *Language Typology and Syntactic Description*. – Vol. 3. – Cambridge : Cambridge University Press, 1985. – P. 57–149.
2. **Talmy L.** Fictive motion in language and "ception" // *Theoretical Linguistics*. – 1996. – Vol. 22. – No. 1–2. – P. 45–82.
3. **Talmy L.** The fundamental system of spatial schemas in language // *Spatial Cognition*. – Berlin : Springer, 2000. – P. 27–74.
4. **Langacker R. W.** Foundations of cognitive grammar. Vol. 1: Theoretical prerequisites. – Stanford : Stanford University Press, 1987.

5. **Blomberg J., Zlatev J.** Non-actual motion events in language: cognitive and communicative perspectives // *Cognitive Linguistics*. – 2014. – Vol. 25. – No. 4. – P. 593–627.
6. **Özçaliskan S.** Metaphorical motion: a cognitive linguistic perspective // *Journal of Pragmatics*. – 2003. – Vol. 35. – P. 1221–1244.
7. **Matsumoto Y.** Subjective motion in language and cognition // *Cognitive Linguistics*. – 1996. – Vol. 7. – No. 1. – P. 1–30.

IDIOMALARNING O‘ZLASHTIRILISHIDA KONTEKSTNING ROLI: KONTEKSTSIZ VA KONTEKSTLI ANGLASH FARQI

Adizova Dildora Rustam qizi
ToshDO‘TAU

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘quvchilarning idiomalarni anglash jarayonida kontekstning ta’siri psixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Kontekstli va kontekstsiz sharoitlarda idiomalarni tushunish samaradorligi eksperimental ravishda taqqoslandi. Natijalar figurativ ma’noni aniqlashda kontekstning muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Tadqiqot idiomalar o‘zlashtirilishining kognitiv mexanizmlarini yanada chuqurroq yoritadi.*

Kalit so‘zlar: *kontekst, iboralar, til o‘zlashtirish, psixolingvistika.*

Аннотация: *В данной статье с психолингвистической точки зрения анализируется влияние контекста на процесс понимания учащимися идиом. Экспериментально сравнивалась эффективность понимания идиом в контекстных и бесконтекстных условиях. Результаты показали, что контекст играет важную роль в определении переносного значения. Исследование более глубоко освещает когнитивные механизмы усвоения идиом.*

Ключевые слова: *контекст, идиомы, усвоение языка, психолингвистика*

Annotation: *This article analyzes, from a psycholinguistic perspective, the influence of context on students' comprehension of idioms. The effectiveness of understanding idioms in contextualized and decontextualized conditions was experimentally compared. The results showed that context plays an important role in identifying figurative meaning. The study further clarifies the cognitive mechanisms underlying the acquisition of idioms.*

Keywords: *context, idioms, language acquisition, psycholinguistics.*

Kirish. Idiomalarning semantik xususiyati ularning tarkibiy qismlaridan kelib chiqqan literal ma'nodan farq qilishidir. Shuning uchun idiomalarning mazmunini anglash ko‘proq kontekstga tayangan holda amalga oshadi. Psixolingvistika doirasidagi bir qator tadqiqotlar (Gibbs, 1994; Glucksberg, 2001; Cacciari va Tabossi, 1988) kontekst figurativ ma'noning tez va to‘g‘ri faollashishini ta'minlashini ko‘rsatadi. Til birliklari orasida idiomalar alohida murakkab semantik tuzilishga ega bo‘lgan frazeologik birliklar sifatida ajralib turadi. Idiomalarning mazmuni ko‘pincha tarkibiy qismlarining yuzaki yoki literal ma'nosidan kelib chiqmaydi; aksincha, ular tilda madaniy, konseptual va metaforik asosda shakllangan yaxlit mazmunni ifodalaydi. Shu boisdan idiomalarni to‘g‘ri anglash va ularni faol nutqda qo‘llay olish til kompetensiyasining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Psixolingvistika sohasida idiomalar ustida olib borilgan tadqiqotlar ularning o‘zlashtirilishi jarayoni literal so‘zlar o‘zlashtirilishidan ancha murakkab ekanini ko‘rsatadi (Gibbs, 1994; Glucksberg, 2001).

Idiomalarni o‘rganishning murakkabligi, avvalo, ularning **semantik noaniqligi, metaforik asoslari, milliy-madaniy konnotatsiyasi** hamda **kontekstga yuqori darajada bog‘liqligi** bilan izohlanadi. Til o‘rganuvchilar yoki yosh o‘quvchilar idiomalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri, literal ma'nosiga berilib, ularni figurativ mazmunda talqin qila olmay qolishlari ko‘p kuzatiladi. Bu holat psixolingvistika adabiyotida "literal dominantlik" yoki "literal interferensiya" fenomeni sifatida izohlanadi (Swinney va

Cutler, 1979; Giora, 1997). Ayniqsa, kontekstsiz taqdim etilgan idiomalar o‘quvchilar uchun yuqori darajada qiyinchilik tug‘diradi.

Shu nuqtayi nazardan, **kontekst** idiomalarni to‘g‘ri anglashda markaziy omil sifatida e’tirof etiladi. Kontekst nafaqat voqea yoki vaziyatni aniqlashtiradi, balki idiomaning figurativ ma’nosini tez va aniq faollashtiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, idiomaning tarkibiy qismlari bilan bog‘liq literal ma’no avvalroq faollashsa-da, kontekst mavjud bo‘lganda figurativ ma’no tezroq tanlanadi (Cacciari va Tabossi, 1988). Shu sababli idiomalarni tushunishda kontekstning mavjud yoki mavjud emasligi talqin samaradorligi va to‘g‘riligini sezilarli o‘zgartiradi.

Yana bir muhim jihat shundaki, idiomalar ma’lum bir **kognitiv metafora** yoki **tushunchaviy xarita** asosida shakllanadi (Lakoff va Johnson, 1980). Bu konseptual metaforalar til va tafakkur uzviy bog‘langanini ko‘rsatadi. Masalan, “yuragi qinidan chiqayozdi” idiomasi qo‘rquv konseptini tanadagi fiziologik o‘zgarishlar orqali ifodalaydi. Yosh o‘quvchilarda bu metaforik konseptlar hali to‘liq shakllanmagan bo‘lishi mumkin, shuning uchun ular idiomani kontekstga tayanib anglaydilar.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, ta’lim tizimida idiomalarni o‘rgatish ko‘pincha izoh berish yoki yodlashga asoslanadi, ammo idiomalarni kontekst orqali o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari kam o‘rganilgan. O‘zbek tilida idiomalar keng qo‘llanadiki, ular nutqning emotsional-ekspressiv quvvatini oshirishga xizmat qiladi. Shunga qaramay, yosh o‘quvchilarning bunday figurativ birliklarni qay darajada anglagani va kontekstning bunday anglashga ta’siri bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar kam.

Shu bois ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — **idiomalarni kontekstsiz (gap tashqarisida) va kontekstli (gap ichida) sharoitlarda anglash samaradorligini eksperimental ravishda taqqoslash**, literal xatolarning tabiati va ularning kognitiv sabablari aniqlash, shuningdek, kontekstning figurativ ma’noni faollashtirishdagi rolini o‘lchashdan iborat.

Ushbu tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki:

- idiomalarni anglash jarayonida kontekstning psixolingvistik funksiyasi ochib beriladi;
- figurativ tafakkur va literal interferensiya mexanizmlari aniqlanadi;
- o‘zbek tilidagi somatik va emotsional idiomalarning o‘zlashtirilish xususiyatlari yoritiladi;
- natijalar til o‘qitish metodikasiga amaliy tavsiyalar beradi.

Tadqiqot natijalari idiomalar o‘zlashtirilishida kontekstning markaziy vosita ekanini ko‘rsatish bilan birga, yosh o‘quvchilarda figurativ ma’nolarni anglash jarayonining bosqichma-bosqich rivojlanishini yoritadi. Bu o‘z navbatida O‘zbekistonda frazeologik kompetensiyani shakllantirish bo‘yicha yangi yondashuvlarni taklif etish imkonini beradi.

Mazkur maqolada idiomalarni **kontekstsiz** va **kontekstli** sharoitlarda talqin qilish o‘rtasidagi farq eksperimental yo‘l bilan o‘rganiladi. Tadqiqot yosh o‘quvchilarda figurativ fikrlashning rivojlanish jarayonini ochib berish bilan ahamiyatlidir.

1. Nazariy asoslar

1.1. Idiomalarni anglashning psixolingvistik modellari

Idiomalarning qayta ishlanishi bir necha psixolingvistik modellar orqali tushuntiriladi:

Birlamchi literal model (Classical Model)

Bu modelga ko‘ra, o‘quvchi avval idiomaning literal ma’nosini faollashtiradi, so‘ng kontekst yordamida figurativ ma’noga o‘tadi (Swinney va Cutler, 1979).

To‘g‘ridan-to‘g‘ri figurativ model (Direct Access Model)

Ko‘p uchraydigan idiomalarda miya bevosita figurativ ma’noni faollashtiradi, kontekst esa jarayonni tezlashtiradi (Gibbs, 1994).

Kontekstni faollashtirish modeli (Contextual Activation Model)

Cacciari va Tabossi (1988) ta’kidlaganidek, kontekst idiomaning “kalit so‘zlari” ni tezroq faollashtiradi va interpretatsiyani yengillashtiradi.

2. Metodologiya

2.1. Ishtirokchilar

Tadqiqotda 20 nafar 14 yoshli o‘quvchilar ishtirok etdi. Ular 8-sinfida tahsil oladi.

2.2. Materiallar

8-sinf “Ona tili” va “Adabiyot” darsliklarida ko‘p qo‘llanilgan 20 ta o‘zbekcha idiomalar tanlandi. Masalan: *ko‘ngli tog‘dek, xayoliga keltirmaslik, tili qisiq, qulog‘iga kirmoq*.

2.3. Jarayon

Tadqiqot ikki xil holatda o‘tkazildi:

1-holat: Kontekstsiz anglash

Ishtirokchilar idiomani kontextsiz holda ko‘rdi va to‘g‘ri ma’noni tanladi.

2-holat: Kontekstli anglash

Idiom sodda gap kontekstida berildi. Masalan: “Oqto‘sh nari ketishni *xayoliga* ham *keltirmay*, tag‘in suykala boshlagandi, Karim podachi etigi uchi bilan turtib yubordi.”

Har ikki holatda javobning to‘g‘riligi va tezligi qayd etildi.

3. Natijalar

Natijalar quyidagi asosiy qonuniyatlarni ko‘rsatdi:

3.1. Kontekstli sharoitda tushunish samarador

Ishtirokchilar kontekstsiz sharoitda idiomalarni **48%** to‘g‘ri talqin qildi.
Kontekstli sharoitda esa bu ko‘rsatkich **87%** ga yetdi.

3.2. Javob berish tezligi farqi

Kontekstsiz sharoitda o‘rtacha javob berish vaqti **4,2 sekund**,
kontekstli sharoitda esa **2,1 sekund** bo‘ldi.

3.3. Xatolar tabiati

Xato javoblarning asosiy sababi **literal interpretatsiya** bo‘lib, kontekstsiz sharoitda bu xatolar ikki baravar ko‘proq kuzatildi.

4. Muhokama

Ushbu natijalar psixolingvistik modellarni qo‘llab-quvvatlaydi:

- Kontekst figurativ ma’noni tez faollashtiradi;
- Kontekstsiz sharoitda literal ma’no ustun bo‘lib, noto‘g‘ri talqin qilishga olib keladi;
- Yosh o‘quvchilarda figurativ tafakkur hali to‘liq shakllanmagani sababli kontekstga tayanish kuchli.

Cacciari va Tabossi (1988) ta’kidlagan “kalit so‘z effektlari” mazkur tadqiqotda ham kuzatildi: kontekst idiomaning asosiy semantik yadrosini tezroq faollashtirdi.

5. Xulosa

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, idiomalarning o‘zlashtirilishida kontekst hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Kontekstsiz berilgan idiomalar yosh o‘quvchilar uchun ko‘pincha literal ma’no asosida talqin qilinadi, kontekstli sharoit esa figurativ ma’noni tushunishni yengillashtiradi va tezlashtiradi. Ushbu natijalar maktab ta’limida idiomalarni o‘rgatishda matnli va kontekstli yondashuvni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Gibbs R. W.** The poetics of mind: figurative thought, language, and understanding. – Cambridge : Cambridge University Press, 1994.
2. **Glucksberg S.** Understanding figurative language: from metaphor to idioms. – Oxford : Oxford University Press, 2001.
3. **Cacciari C., Tabossi P.** The comprehension of idioms // *Journal of Memory and Language*. – 1988. – Vol. 27, No. 6. – P. 668–683.
4. **Titone D., Connine C.** On the compositional and noncompositional nature of idiomatic expressions // *Journal of Pragmatics*. – 1999. – Vol. 31. – P. 1655–1674.
5. **Swinney D., Cutler A.** The access and processing of idiomatic expressions // *Journal of Verbal Learning and Verbal Behavior*. – 1979. – Vol. 18. – P. 523–534.
6. **Giora R.** Understanding figurative and literal language: the graded salience hypothesis // *Cognitive Linguistics*. – 1997. – Vol. 8, No. 3. – P. 183–206.

7. **Lakoff G., Johnson M.** Metaphors we live by. – Chicago : University of Chicago Press, 1980.
8. **Mollica F., Piantadosi S. T.** Comprehension of figurative language in context // *Cognitive Science*. – 2019. – Vol. 43, No. 4. – Art. e12724.
9. **O‘zbek tilida idiomalar lug‘ati.** – Toshkent : O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2014.
10. **Sharipov A.** Frazeologiyaning nazariy asoslari. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2020.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING UZLUKSIZ MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYAGA OID QARASHLARI

Saxobiddinova Nilufarxon Kamoliddin qizi,
Qo‘qon davlat universiteti magistranti.

Annotatsiya: *Sharq mutafakkirlarining g‘oyalari zamonaviy ta’limda ya'ni bugungi pedagogik jarayonda o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. Ularning ta’lim falsafasida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, axloqiy mas’uliyat, ijodiy fikrlash, ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlari, xususan uzluksiz ma’naviy-axloqiy tarbiya borasida muhim qrashlari mavjud. Shu bois, zamonaviy kasbiy-pedagogik tayyorgarlik tizimida bu mutafakkirlar merosini o‘rganish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.*

Kalit so‘zlar: *tarbiya, ma’naviyat, uzluksiz tarbiya, ta’lim, komil inson, axloqiy mas’uliyat, ta’lim ba tarbiya uyg‘unligi.*

Аннотация: *Идеи восточных мыслителей продолжают оставаться актуальными в современном образовании, то есть в современном педагогическом процессе. Их философия образования включает в себя личностно-ориентированный подход, моральную ответственность, творческое мышление, взгляды на воспитание и, в частности, на непрерывное*

духовно-нравственное воспитание. Поэтому в современной системе профессионально-педагогической подготовки изучение наследия этих мыслителей остается одним из самых актуальных вопросов.

Ключевые слова: *гармония воспитания, духовности, непрерывного воспитания, воспитания, совершенного человека, моральной ответственности, воспитания и воспитания.*

Abstract: *The ideas of Eastern thinkers continue to be relevant in modern education, that is, in the modern pedagogical process. Their philosophy of education includes a personality-oriented approach, moral responsibility, creative thinking, views on education and, in particular, on continuous spiritual and moral education. Therefore, in the modern system of professional and pedagogical training, the study of the legacy of these thinkers remains one of the most pressing issues.*

Keywords: *the harmony of upbringing, spirituality, continuous education, upbringing, the perfect person, moral responsibility, upbringing and upbringing.*

Kirish. Sharq svilizatsiyasi insoniyat tafakkurining eng qadimiy va boy manbalaridan biridir. Unda insonni barkamol, odobli, bilimli va yetuk kasb egasi sifatida tarbiyalash g‘oyasi markaziy o‘rinda turadi. Ayniqsa, kasbiy-pedagogik faoliyat — ya’ni o‘qituvchi shaxsining axloqiy, intellektual va kasbiy sifatlarini shakllantirish masalasi Sharq mutafakkirlarining ilmiy, falsafiy va pedagogik qarashlarida chuqur ifodalangan. Shuningdek ko‘plab mutafakkirlarimiz insonni har tomonlama kamolga yetkazishda kasbiy-pedagogik faoliyat borasida, ta'lim va tarbiya bobida muhim falsafiy qarashlari orqali biz yosh avlodga eng zarur bilimlar poydevorini yaratib berganlar. Sharq mutafkkirlarining kasbiy-pedagogik faoliyatni shakllantirishga oid qarashlarini o‘rganish bugungi kunda eng muhim mavzulardan biri hisoblanib, ularning boy merosini o‘rganishni talab etadi.

Sobiq sho'ro tuzimi davrida pedagogika tarixi ijtimoiy tuzumlar bo'yicha davrlashtirish muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa, mustaqillik yillarida taniqli

olimlar O. Hasanboyeva, J.Hasanboyev, X.Xomidovlar pedagogika tarixini davrlashtirishga quyidagicha yondashganlar[94].

1. Qadimgi davrdan VII asrgacha bo'lgan tarixiy davrda ta'lim-tarbiya va pedagogik g'oyalar taraqqiyoti davri.

2. VII-VIII asrlarda Movarounnahrda madaniyat va pedagogik fikrlar rivojlanishi davri

3. Sharq uyg'onish bosqichida fan va madaniyat hamda ta'lim-tarbiyaning taraqqiyoti davri.

4. Madaniyat va ta'lim-tarbiyaning Temuriylar hukmronligi davridagi taraqqiyoti.

5. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ta'lum tarbiyaning rivojlanishi davri.

6. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi, istiqlol va istiqbol yo'llari davri.

Sharqda qadimgi davrdan VII asrgacha bo‘lgan davrda ta’lim-tarbiya va pedagogik g‘oyalar asta-sekinlik bilan diniy, axloqiy va aqliy asoslar orqali shakllangan. Bu davrda insonni ezgulik, halollik, aql va mehnatga yo‘naltirish asosiy maqsad bo‘lgan. Aynan shu qadimiy g‘oyalar keyingi asrlarda buyuk Sharq mutafakkirlari ta’limotlari uchun poydevor bo‘lib xizmat qilgan. Shu nuqtai-nazardan biz ushbu mavzuga aloqador bo‘lgan ko‘plab sharq mutafakkirlarini, aynan ushbu essemizda 30 ga yaqin mutafakkirlarimiz tomonidan bildirilgan fikr-mulohaza hamda qarashlarni o‘rganib chiqdik. Biz ushbu davrlashtirishlar asosida ketma-ketlikda mutafakkirlarimiz qarashlarini o‘rganishga harakat qildik. Asosan quyidagi sharq mutafakkirlarni:

Imom al-Buxoriy (810-yil) - «Al-jome' as-sahih» («Ishonchli to'plam»), «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari»), «At-tarix al-kabir» («Katta tarix»), «At-tarix as-sag‘iyr», («Kichik tarix»), «Al-qiroatu xalfa-1-Imom» («Imom ortida turib

[94] K.Hashimov, S.Nishonova Pedagogika tarixi II qism. – Darslik, – Toshkent: 2005

o'qish»), “Vaful-yadini fi-s-saloti” («Namozda ikki qo‘lni ko'tarish») kabi asarlarining inson axloqi va tarbiyasidagi ahamiyati shundan iboratki, u insonni hech qachon umidsizlik tushkinlik holatiga qo'ymaydi, yaxshilik va tavba-tazarru uchun doimo imkon beradi, hatto yomonlikni ham yaxshilik va ezgulik bilan mahv etishga yo'l ochadi.

Imom at-Termiziy (824-yil) - «Al-jome' as-sahih» («Ishonchli to‘plam»), «Ash-shamoil an-nabaviya» («Payg'ambarning alohida fazilatlari»), «Al-ilal fi-l-hadiys» (“Hadislardagi illatlar va og'ishlar haqida”) nomli ko‘plab asarlari bizga meros bo‘lib qolgan[95]. Halollik, adolat, mehnatsevarlik, poklik, diyonat, mehr-shavqat, yoshi kattalarga hurmat orqali shaxs ta’limi va tarbiyasini tashkil etishga etibor qaratgan. Ushbu tarbiya borasidagi qarashlar Imom Buxoriy asarlarida ham o‘z aksini topgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ahmad Yassaviy (1041-yil) - «Devoni hikmat» ya'ni "Hikmatlar" nomli asarida, Yassaviy bilim egallash oson emasligini, qiyinchiligu mashaqqatlarga qaramasdan tinmay izlanish va o‘z ustida qunt bilan ishlash lozimligini ta'kidlab o‘tgan. Ilm egallash borasidagi fikrlar nafaqat o‘quvchilar, ilm oluvchilar balki muallimlarga ham taalluqli ekanligi e'tiborli.

Xoja Abduxoliq G’ijduvoniy (1103-yil) -“Risolai tariqat”, “Risolai sohibiya”, “Vasiyatnoma”, “Az guftori Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy” nomlari asarlarida ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini, inson kamoloti borasidagi fikrlarini ko‘rishimiz mumkin.

Bahovuddin Naqshband (1318-yil) - Bahovuddin Naqshband nafaqat ilm olishni, balki har bir ishda “Dil ba yoru dast ba kor” degan tamoyilga asoslangan bo’lib ya’ni qo’ling mehnatda bo’lsin, diling Allohda deydi. “Hayotnoma”, “Dalil al-oshiqiyn” kabi asarlarida o’zining qarashlari orqali tarbiyaga, pedagogic fikrlar taraqqiyotiga o’z hissasini qo’shgan.

[95] A. Konstantinov , E.N.Medinskiy, M .F. Shabayeva “Pedagogika tarixi” — O'qituvchi, 1976-yil.

Muso al-Xorazmiy (783-850) - dunyoga mashhur matematika faniga doir “Al-kitob al-muxtasar fi-hisob al-jabr va-l muqobala” nomli asari bitmas-tuganmas tarixiy, ilmiy meros bo’lib qoldi. Bilish nazariyasi, induksiya, deduksiya haqida qarashlari mavjud bo’lgan. O’quvchilar mustaqil bilim olishi borasida ya’ni hozirgi davrdagi mustaqil ta’lim to’g’risida o’z fikrlarini yozib qoldirgan. Sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos soldi.

Abu Nasr Forobiy (873-950-yil) -“Muallimi soniy” «Fozil odamlar shahri», «Baxt saodatga erishuv to'g'risida», “Ixso al-ulum”, «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida» asarlari muallifi, u o‘z asarlarida ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligini, o‘qituvchi shaxsining komilligi orqali jamiyat kamolotini ta’minlash mumkinligini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, haqiqiy ustoz — bu nafaqat bilim beruvchi, balki inson ruhiyatini tarbiyalovchi shaxsdir. Forobiy “Fozil shahar ahlining nazariyasi” asarida o‘qituvchini “fazilatli insonlarni yetishtiruvchi eng muhim kasb egasi” sifatida ko‘rsatadi. Bu qarashlar hozirgi zamon pedagogining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda asosiy mezonlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim va tarbiya 1-marta ta’rif bergan olim, tarbiya borasida muhim fikrlari, musiqa ilmida, odatlantirish, rag’batlantirish va majbur etish metodlari borasida o‘z fikrlarini berib o‘tgan[96].

Abu Rayxon Beruniy (973-yil) -tajriba, ilm va metodik yondashuv asosiy qarashlari. “Ma’mun akademiyasi”da faoliyat olib borgan. «Kartografiya», «Globus yasash kitobi», «Yerdagi joylarning uzunlama va kenglamalarini aniqlash haqida maqola», “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Mineralogiya” kabi asarlari turli sohalar bo‘yicha o‘chmas meros bo‘lib qolmoqda[97]. O’quvchiga ta’lim berishda uzviylik, izchillik, tahlil va taqqoslash, takrorlash, o’quvchini zeriktirmaslik borasida, ilm olishni axloqiy tarbiya bilan bog’lagan, axloqiy tarbiya, mehnat

[96] Abu N asr Forobiy. Fozil odamlar shahri.Tanlangan asarlar. — T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993-yil.
[97] B eruniy , Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. — T.: Fan, 1968-yil.

tarbiyasi, Inson kamolotida irsiyat, muhit, tarbiya bu 3 muhim omilni asoslab berga. 15odan ortiq asarlari mavjud bo‘lib, dunyoga yoyilgan.

Abu Ali ibn Sino (980-1037-yil) - “Tib qonunlari”, Ash-shifo” “Donishnoma”, “Al qonun”, “Risolat al-qadr” asarlari orqali ilmiy tafakkur va kasbiy mas’uliyat uyg‘unligini ochib bergan qomusiy olimdir. U pedagogik faoliyatni ilmiy fikrlash, mantiq va tajribaga asoslash zarurligini urg‘ulaydi. Uning fikricha, haqiqiy muallim shaxsiy namuna, sabr, mantiqiy tahlil va o‘z ustida ishlash orqali o‘z kasbiy saviyasini muntazam oshirib borishi lozim. “Donishnoma” asarida u ta’lim jarayonini tahlil etib, o‘quvchini mustaqil fikrlashga, amaliy faoliyatga tayyorlashni o‘qituvchining eng muhim vazifasi deb biladi. Bu, zamonaviy pedagogikada “kompetensiyaviy yondashuv” tamoyiliga mos keladi. Ta’lim-tarbiyaga oid fikrlari, Ma’rifatli kishi bo’lish, bolalarni maktabda o’qitish zarurligi, ta’lim tamoyillarini sanab o’tgan, aqliy tarbiya, oilada farzand tarbiyasi borasida muhim qarashlari mavjud.

Yusuf xos Hojib (1019-yil) - “Qutadg’u bilig” asarida inson kamoloti masalasi yoritiladi, ilmli kishilarni qadrlash lozimligi, tarbiyada kattalar namunasi, ajdodlar tajribasi muhim degan, muammoli ta’lim borasida asosli fikrlar qoldirib ketgan.

Kaykovus (1021-yil) - “Qobusnoma” ilm olish borasida, ilm toliblariga yo’llanma va nasihatlar qoldirgan, axloq tarbiyasi, suxandonlik – tarbiyani asosi ekanligi, jismoniy tarbiyaga alohida ahamiyat qaratgan. Aqlning 2 xil turi -tabiiy aql va o’rgatilgan aql.

Ahmad Yugnakiy (XXII asr boshlari) - “Hibat ul haqoyiq” inson shaxsi, uning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, shaxs kamoloti, inson axloqi borasida o’z fikrlarini yozib qoldirgan. Inson axloqi – uning xushxulqliligi va til odobida deydi, Ahmad Yugnakiy.

Muslihiddin Sa’diy (1184-yil) - “Guliston” va “Bo’ston” kabi asarlar muallifi, bilimli va fozil kishilar so’z va amal birligiga tayanishi lozimligini, o’rganish jarayonida munozara metodini, ta’lim-tarbiya bobida o’qituvchi talabchan va

qattiqo'l bo'lishi zarurligini, inson kamolotida tarbiyaning ahamiyatibi ochib bergan.

Amir Temur (1336-1405) - "Temur tuzuklari" nomli adolat timsoli, harbiy jang san'ati, davlat boshqaruviga oid buyuk, tarixiy asar yaratib ketgan buyuk mutafakkir bobomiz. Aql charxlash vositasi sifatida shaxmatni, (shatranj o'yinini) nazarda tutgan. "Kuch - adolatdadir" deya Amir Temur har sohada adolat tamoyilini o'rni beqiyos ekanligini ochib bergan.

Mirzo Ulug'bek (1394-1449) - "Zijji jadidi Ko'ragoniy", "Risolai Ulug'bek" nomli asarlari bor. Ta'lim-tarbiyada matematika va falakiyot fanlarining o'rnini asoslab bergan. Axloqiy tarbiyada – do'stlik va birodarlik masalalariga alohida e'tibor bergan.

Zahiriddin Muhammad Bobur[98](1483-1530) - "Boburnoma" memuar asari hamda g'azallarida talim-tarbiya, odob-axloq masalalariga e'tibor berilgan. Madaniyat va ma'naviyatni tutashtirgan olim sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgan. Yozuv - yarim ilm ekanligini ta'kidlagan.

Abdurahmon Jomiy (1414-1492) - "Silsila tuz zahab" dostoni, "Bahoriston", "Haft avrang" kabi asarlarida komil inson tarbiyasi, bilimlilik va axloqlilik, kitoblarning bilimlarni egallashdagi o'rni, saxovat, kamtarlik, oliyjanoblik borasida muhim nuqtai-nazarlari aks etgan.

Alisher Navoiy (1441-1501-yil) - axloqiy tarbiya va ustoz sha'ni asosiy qarashlari, "Xamsa", "Mahbub ul-qulub", "Munojot", "Vaqfiya", "Muhokamat ul-lug'atayn" singari asarlarida insonparvarlik, g'oyasini ilgari surgan, ilm-fanni inson kamolotidagi o'rni haqida, aqliy tarbiya, yaxshi xulqni asosi – odob, tarbiyada namuna usuli, oilada va maktabdagi tarbiya, o'zini-o'zi tarbiyalash masalasi keng yoritilgan. Bilimlarni tinmay, uzluksiz o'rganish kerakligini, mustaqil ilm o'rganish, shogird tushish, maktab yoki madrasada tahsil olish, ilm olish prinsiplarini asoslab bergan. Navoiy fikricha, o'qituvchi o'z shogirdiga nafaqat bilim, balki ma'naviyat,

[98] Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. —T.: O' qituvchi, 1960-yil. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnom a: T Yulduzcha, 1989-yil.

vijdon va mas’uliyatni ham singdirishi zarur. Bu g‘oya pedagogik etika va kasbiy madaniyat tushunchalarining ildizini tashkil etadi.

Husayn Voiz Koshifiy (1440-1504) - «Axloqi Muhsiniy», «Anvari Suhayliy», «Javohirnoma», «Risolai dar ilmi e'dod» («Sonlar haqida risola»), «Ravzat ush shuhado» («Shohidlik bog‘i»), «Oynai Iskandariy» («Iskandar oynasi»), «Tafsiri Husayniy», «Risolati Hotamiya», «Kitobi Hotamnoma» «Badoe al-afkor fi sanoe al-ash'or»[99] nomli asarlari mavjud bo’lib, ularda aqliy tarbiya, ilmni amaliyot bilan bog’lash lozimligi, komil inson xislatlari haqida fikrlarni berib o’tgan.

Xulosa. Sharq mutafakkirlarining g‘oyalari zamonaviy ta’limda ya'ni bugungi pedagogik jarayonda o‘z ahamiyatini umuman yo‘qotmagan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ularning ta’lim falsafasida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, axloqiy mas’uliyat, ijodiy fikrlash, inson kamoloti, ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlari, ustoz va shogird vazifalari hamda ilmiy asoslangan metodlar uyg‘unligi mavjud. Shu bois, zamonaviy kasbiy-pedagogik tayyorgarlik tizimida bu mutafakkirlar merosini o‘rganish o‘qituvchi shaxsining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim omil bo‘lib qolmoqda. Sharq mutafakkirlarining qarashlari nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy ta’lim nazariyasi va amaliyotining poydevori hisoblanadi. Ular insonni asosiy o‘ringa qo‘ygan, o‘qituvchini jamiyat ma’naviyatining yo‘lboshchisi sifatida talqin etgan. Bugungi kunda ham bu g‘oyalar kasbiy-pedagogik faoliyatni takomillashtirish, o‘qituvchining ilmiy, ma’naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda bebaho manba bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Hashimov K., Nishonova S.** Pedagogika tarixi. II qism : darslik. – Toshkent, 2005.
2. **Xodjayev B. X.** Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent : Sano-standart, 2017. – 416 b.
3. **Abu Nasr Forobiy.** Fozil odamlar shahri // Tanlangan asarlar. – Toshkent : A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993.

[99] Xodjayev B.X. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017. – 416 b.

4. **Beruniy Abu Rayhon.** Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Tanlangan asarlar. – Toshkent : Fan, 1968.
5. **Bobur Zahiriddin Muhammad.** Boburnoma. – Toshkent : O‘qituvchi, 1960.
Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent : Yulduzcha, 1989.
6. **Konstantinov A., Medinskiy E. N., Shabayeva M. F.** Pedagogika tarixi. – Toshkent : O‘qituvchi, 1976.

IJTIMOIY TARMOQLARNING SHAXS PSIXOLOGIYASIGA TA’SIRI

Baxrillayeva Asal Sherzod qizi
Samarqand davlat pedagogika insituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning shaxs psixologiyasiga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning kognitiv jarayonlarga, emotsional holatga, xulq-atvor va shaxsning o‘zini anglashiga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, “FOMO” (o‘tkazib yuborish qo‘rquvi), solishtirish sindromi, raqamli qaramlik va ijtimoiy izolyatsiya kabi zamonaviy psixologik muammolarning shakllanish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Maqola ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil etib, salbiy ta’sirlarni kamaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni taklif qiladi.*

Аннотация. *В данной статье проводится научный анализ влияния социальных сетей на психологию личности. Исследование раскрывает влияние использования социальных сетей на когнитивные процессы, эмоциональное состояние, поведенческие реакции и самоосознание человека. Рассматриваются такие современные психологические феномены, как FOMO (страх упустить), синдром сравнения, цифровая зависимость и социальная изоляция. Статья анализирует положительные и отрицательные аспекты*

социальных сетей и предлагает практические рекомендации по снижению отрицательных эффектов.

Abstract. *This article provides a scientific analysis of the impact of social media on individual psychology. The study examines how social media usage influences cognitive processes, emotional well-being, behavioral patterns, and self-perception. Modern psychological phenomena such as FOMO (Fear of Missing Out), comparison syndrome, digital addiction, and social isolation are explored. The article highlights both the positive and negative effects of social networks and offers practical recommendations to mitigate their negative impact.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy tarmoq, psixologik muammolar, FOMO, ruhiy salomatlik, passiv kuzatish, raqamli qaramlik.*

Ключевые слова: *социальная сеть, психологические проблемы, FOMO, психическое здоровье, пассивное наблюдение, цифровая зависимость.*

Key words: *social network, psychological problems, FOMO, mental health, passive observation, digital addiction.*

So‘nggi o‘n yilliklarda ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Facebook, Instagram, TikTok, Telegram va boshqa platformalar nafaqat axborot almashish va muloqot vositasi, balki shaxsning ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan murakkab ijtimoiy muhit sifatida qaraladi. Zamonaviy psixologik nazariyalar ijtimoiy tarmoqlarni shaxsning o‘zini anglash, ijtimoiy identifikatsiyasi va muloqot qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida muhim vosita sifatida baholaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish yoshlar orasida stress, tashvish, depressiv kayfiyat, uyqu buzilishi va o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishiga olib keladi. Masalan, ommaviy so‘rovlar ijtimoiy tarmoqlarda kuniga 3 soatdan ortiq vaqt sarflaydigan yoshlarning 40–50% da yuqori darajadagi psixologik charchoq va tashvish kuzatilishini ko‘rsatadi.[100] Shu bilan

[100] **“Social media use, mental health and sleep: A systematic review with meta-analyses”**, *Journal of Affective Disorders*, Vol. 367, 2024, Pages 701–712.

birga, ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, bilim olish va ijodiy faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlarini ham taqdim etadi, bu esa ularning ikki tomonlama – ijobiy va salbiy – ta’sirini aks ettiradi. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlarning shaxs psixologiyasiga ta’sirini o‘rganish nafaqat psixologik, balki ijtimoiy jihatdan ham dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu maqola ijtimoiy tarmoqlarning shaxs psixologiyasiga ijobiy va salbiy ta’sirlarini tizimli tahlil qilib, ularning yoshlar orasida psixologik ong va ijtimoiy rivojlanishga ta’sirini aniqlashga qaratilgan.

Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda shaxsning ijtimoiy, psixologik va akademik rivojlanishida muhim vosita hisoblanadi. Ular nafaqat axborot almashish va bilim olish imkonini beradi, balki shaxsning o‘zini anglash, ijtimoiy identifikatsiyani mustahkamlash va do‘stlik aloqalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Onlayn hamjamiyatlar va ijtimoiy guruhlar foydalanuvchilarga o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish, maslahat olish va ruhiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash imkonini beradi. Shu tarzda ijtimoiy tarmoqlar ruhiy barqarorlikni saqlash va ijtimoiy integratsiyani rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ijodiy va akademik faoliyatini rivojlantirishga ham yordam beradi. Instagram, TikTok va boshqa platformalarda yoshlar turli kreativ loyihalar, onlayn kurslar va treninglarda ishtirok etib, o‘z ko‘nikmalarini oshiradi. Shu bilan birga, masofadagi do‘stlar bilan muntazam muloqot qilish ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kengaytiradi, bu esa ruhiy salomatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladigan konstruktiv muloqot va interaktiv faoliyat yoshlarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga yordam beradi.

Ijtimoiy tarmoqlar shaxsning ijtimoiy va psixologik rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ularning ortiqcha va nazoratsiz ishlatilishi bir qator psixologik muammolarga olib kelishi mumkin. Muammoli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, ya’ni foydalanuvchining tarmoqlarga haddan tashqari bog‘lanishi, ruhiy salomatlikka sezilarli ta’sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muammoli foydalanish bilan depressiya o‘rtasida o‘rtacha korrelyatsiya ($r \approx 0.31$), yolg‘izlik

hissi bilan (r ≈ 0.21), FOMO —“ma’lum narsani o'tkazib yuborish qo‘rquvi” bilan esa r ≈ 0.41 darajasida bog‘liqlik mavjud. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog‘liqlik shaxsning o‘ziga bo‘lgan past bahosiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi (r ≈ –0.24).[101] Yoshlar va o‘smirlar ijtimoiy tarmoqlarning eng faol foydalanuvchilari bo‘lib, ular orasida psixologik muammolar yanada kuchliroq namoyon bo‘ladi. Passiv foydalanish, ya’ni boshqalarning postlarini kuzatish, doimiy solishtirish va FOMO hissi, yolg‘izlik, tashvish va ruhiy stressning oshishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muammoli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilarda uyqu buzilishi, diqqatni jamlay olmaslik va anksiyete darajasi sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Bular shaxsning akademik va ijtimoiy faoliyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologik jihatdan, ijtimoiy tarmoqlarda doimiy solishtirish va o‘zini boshqalar bilan baholash shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zini doimiy boshqalar bilan solishtiradigan yoshlar orasida depressiya va anksiyete xavfi ancha yuqori bo‘ladi.[102] Shu bilan birga, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi va onlayn faoliyatning passivligi shaxsni yolg‘izlik va tushkunlikka olib keladi. Shu tarzda, ijtimoiy tarmoqlar psixologik muhitni ikki tomonlama shakllantiradi: ular to‘g‘ri va maqsadli ishlatilsa ruhiy farovonlikni oshiradi, ammo nazoratsiz va haddan tashqari foydalanish psixologik muammolarni kuchaytiradi. Shu bois, ushbu salbiy ta’sirlarni kamaytirish bo‘yicha amaliy yechimlar ishlab chiqilgan va ular turli mamlakatlarda psixologik intervensiyalar sifatida qo‘llanilib kelmoqda.

Tadqiqotlar, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish vaqtini ongli boshqarish eng samarali yechimlardan biri ekanini ko‘rsatadi. Foydalanuvchilar kunlik yoki haftalik foydalanish vaqtini belgilash, passiv kuzatish o‘rniga konstruktiv va interaktiv

[101] **“Association between social network sites use and mental illness: A meta-analysis”**, *Cyberpsychology: Journal of Psychosocial Research on Cyberspace*, Vol. 16, No. 1, 2022.
[102] Andreassen, C.S., et al. (2022). ***Association between social network sites use and mental illness: A meta-analysis.*** *Cyberpsychology: Journal of Psychosocial Research on Cyberspace, Vol. 16, No. 1*

faoliyat bilan shug‘ullanish orqali psixologik salomatlikni mustahkamlashi mumkin. Shu tarzda, onlayn kurslar, ijodiy loyihalar, o‘z-o‘zini rivojlantirish mashg‘ulotlari ruhiy barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, qisqa muddatli “raqamli detoks” usullari ham samarali hisoblanadi. Bu usul foydalanuvchining ma’lum muddatga ijtimoiy tarmoqlardan chekinishi va oflayn faoliyatga ko‘proq e’tibor qaratishi orqali stress, anksiyete va depressiya alomatlarini kamaytiradi. Bunday amaliyotlar yoshlar orasida ruhiy farovonlikni oshirishga yordam beradi.

Muammoli ijtimoiy tarmoqlardan keladigan salbiy ta’sirni kamaytirishning yana bir yo‘li — psixologik qo‘llab-quvvatlash va intervensiyalarni joriy qilishdir. Maxsus onlayn yoki oflayn dasturlar, guruh terapiyasi, shaxsiy psixologik maslahatlar yoshlarni FOMO, depressiya va anksiyete xavfidan himoya qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, foydalanuvchilarni raqamli savodxonlik va media ongini oshirish orqali ijtimoiy tarmoqlardan mas’uliyatli va ongli foydalanishga o‘rgatish mumkin. Natijada, ilmiy tadqiqotlar asosida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo‘yicha psixologik yechimlar ikki asosiy yo‘nalishda amalga oshiriladi: birinchisi, vaqt va faoliyatni ongli boshqarish, ikkinchisi, psixologik qo‘llab-quvvatlash va media savodxonlikni oshirish. Ushbu yondashuvlar amalda qo‘llanilganda ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’siri kamayadi va foydalanuvchining ruhiy farovonligi sezilarli darajada oshadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning shaxs psixologiyasiga ta’siri tizimli tarzda o‘rganildi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar me’yorda va ongli ishlatilsa ruhiy farovonlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va shaxsiy rivojlanishni oshiradi. Aksincha, ortiqcha va muammoli foydalanish depressiya, anksiyete, uyqu buzilishi, yolg‘izlik va o‘zini past baholash kabi psixologik muammolarni kuchaytiradi. Salbiy ta’sirlarni kamaytirish uchun vaqtni ongli boshqarish, konstruktiv va interaktiv faoliyat, qisqa muddatli “raqamli detoks”, psixologik qo‘llab-quvvatlash va media savodxonlikni oshirish tavsiya etiladi. Shu bilan, ijtimoiy tarmoqlar ongli ishlatilganda shaxs psixologiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, aks holda psixologik muammolarni kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **Ismoilova N., Abdullayeva D.** Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013. – 240 b.
2. **Karimova V. M.** Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1999. – 198 b.
3. **Bandura A.** Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1986. – 617 p.
4. **Guadagno R. E.** Psychological Processes in Social Media. – Amsterdam: Elsevier, 2025. – 320 p.
5. **Sheinov V. P.** Social Media Addiction and Personality: A Review of Research // *RUDN Journal of Psychology and Pedagogics*. – 2021. – Vol. 18, №3. – P. 607–630.
6. **Andreassen C. S., Pallesen S., Griffiths M. D.** The Relationship Between Addictive Use of Social Media, Narcissism, and Self-Esteem: Findings from a Large National Survey // *Addictive Behaviors*. – 2017. – Vol. 64. – P. 287–293.
7. **Ahmed O., Walsh E. I., Dawel A., Alateeq K., Espinoza Oyarce D. A., Cherbuin N.** Social media use, mental health and sleep: A systematic review with meta-analyses // *Journal of Affective Disorders*. – 2024. – Vol. 367. – P. 701–712.
8. **Yang Q., Liu J., Rui J.** Association between social network sites use and mental illness: A meta-analysis // *Cyberpsychology: Journal of Psychosocial Research on Cyberspace*. – 2022. – Vol. 16, №1.
9. **Jing X. et al.** Correlations between social media addiction and anxiety, depression, FoMO, loneliness and self-esteem among students: A systematic review and meta-analysis. – 2025.
10. **Association between problematic social networking use and anxiety symptoms: A systematic review and meta-analysis** // *BMC Psychology*. – 2024. – Vol. 12. – Article 263.

PR KOMMUNIKATIV JARAYON SIFATIDA

Kalmurzaeva Ayman Karamirza qizi
Qarqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ommaviy aloqalar (PR)ning jamiyatdagi kommunikativ vazifalari, uning ijtimoiy insti1tutlar, tashkilotlar va jamoatchilik o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni uyg‘unlashtirishdagi roli tahlil qilinadi. PRning axborot uzatish, tushuntirish, ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlash, ijobiy imij yaratish va inqirozli vaziyatlarda kommunikativ barqarorlikni ta’minlash kabi asosiy funksiyalari ilmiy adabiyotlar asosida yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy raqamli kommunikatsiya sharoitida PRning strategik ahamiyati, jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi o‘rni va axborot maydonidagi transformatsiyalar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *PR, kommunikatsiya, jamoatchilik bilan aloqalar, imij, axborot siyosati, media strategiya, reputatsiya, jamiyat.*

Аннотация: *В данной статье анализируются коммуникативные функции связей с общественностью (PR), их роль в процессах информационного обмена, формировании общественного мнения, обеспечении социальной стабильности и создании позитивного имиджа. Рассматриваются функции PR, такие как передача информации, разъяснение, организация двусторонней коммуникации, управление кризисными ситуациями и укрепление общественного взаимодействия в рамках современных коммуникационных теорий. Статья научно обосновывает стратегическое значение PR в эпоху цифровых коммуникаций.*

Ключевые слова: *PR, коммуникация, связи с общественностью, имидж, репутация, информационная политика, медиастратегия, общественный диалог.*

Abstact: *This article examines the communicative functions of Public Relations (PR), focusing on its role in information exchange, public opinion formation, ensuring social stability, and creating a positive organizational image. The study highlights key PR functions such as information dissemination, interpretation, establishment of two-way communication, crisis communication management, and strengthening social cooperation. The article provides a scientific assessment of the strategic importance of PR in the era of digital communication.*

Keywords *: PR, communication, public relations, image, reputation, information policy, media strategy, social dialogue.*

Kirish: Bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti va axborot oqimlarining keskin ko‘payishi sharoitida jamoatchilik bilan aloqalar (Public Relations — PR) jamiyat hayotining eng muhim kommunikativ institutlaridan biriga aylandi. Axborotning tez tarqalishi, jamoatchilik fikrining shakllanishida media vositalarining ta’sirchanligi, shuningdek, tashkilotlar o‘rtasida raqobatning kuchayishi PR faoliyatining ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Key words: *online speech acts; translation problems; English–Uzbek translation; pragmatics; digital communication; cultural equivalence; internet discourse.*

Kalit so‘zlar: *onlayn nutq aktlari; tarjima muammolari; ingliz–o‘zbek tarjimasi; pragmatika; raqamli muloqot; madaniy ekvivalensiya; internet diskursi.*

Ключевые слова: *онлайн речевые акты; проблемы перевода; английско-узбекский перевод; прагматика; цифровая коммуникация; культурная эквивалентность; интернет-дискурс.*

Introduction: In recent years, the widespread use of online communication platforms such as social networks, messaging applications, and discussion forums has significantly changed the nature of interpersonal communication. Online messages often contain speech acts that express intentions such as requesting, greeting, apologizing, or giving advice. Translating these speech acts between English and Uzbek is not a purely linguistic process; it involves understanding context, emotion, politeness norms, and cultural expectations.

Despite the growing demand for translation in digital spaces, relatively little research has discussed the specific problems that arise when transforming online speech acts from English into Uzbek and vice versa. This study aims to identify and analyze these problems from a linguopragmatic perspective. The rapid growth of digital communication technologies has significantly transformed the way individuals interact in the 21st century. Online platforms—including social media networks, messaging applications, and discussion forums—have become primary spaces for exchanging information, emotions, and social actions. Unlike traditional written communication, online discourse is heavily influenced by immediacy, informality,

abbreviated forms, emojis, hashtags, and multimodal content. These elements not only convey information but also serve as essential tools for expressing pragmatic meanings such as tone, intention, and interpersonal attitude.

According to speech act theory (Austin, 1962; Searle, 1969), every utterance performs a communicative function. In online environments, the performance of these functions becomes even more complex due to limited contextual cues and the need to compensate for nonverbal communication. As a result, translating online speech acts from English to Uzbek is not a direct lexical operation; it is a sensitive process that requires identifying the speaker's intended meaning, social positioning, politeness strategies, emotional tone, and cultural expectations. English and Uzbek differ substantially in politeness norms, indirectness patterns, the use of honorifics, and conventionalized expressions of respect. For example, many English online messages are minimalistic and direct ("Send it now," "Call me ASAP"), whereas Uzbek communication typically employs mitigators and politeness markers ("Iltimos, hozir yuboring," "Imkon bo'lsa, qo'ng'iroq qiling"). A literal translation often results in pragmatic failure, where the translated message sounds rude, overly formal, or culturally inappropriate.

Another challenge arises from the digital-specific features of online communication such as emojis, acronyms (LOL, BTW, IMO), hashtags, memes, GIFs, and code-switching practices. These elements act as pragmatic markers that shape meaning beyond the lexical level. Emojis alone can alter the illocutionary force of a message—turning a complaint into a joke or softening criticism. However, many of these symbols do not have direct equivalents in Uzbek digital discourse.

Literature review: Several studies have explored online language pragmatics and digital discourse. Crystal (2011) highlights the hybrid nature of internet language, which combines features of speech and writing. Herring (2013) notes that online environments amplify pragmatic ambiguity due to the absence of paralinguistic cues. These characteristics complicate translation processes. In the field of translation studies, Baker (1992) and House (2015) outline the complexities

of cultural non-equivalence and pragmatic loss. However, research specifically focusing on English–Uzbek translation remains limited. Uzbek scholars have analyzed politeness norms, speech act performance, and cultural communication patterns, but few have examined their application in online translation contexts.

The existing literature indicates that digital discourse requires a multidimensional approach combining pragmatics, sociolinguistics, translation theory, and communication studies. This paper extends current insights by focusing on English–Uzbek online speech act translation challenges.

The main findings and results: The study revealed several key issues that arise in the translation of online speech acts between English and Uzbek. One of the most prominent problems is the pragmatic mismatch between the two languages. English online communication generally favors brevity and explicitness, whereas Uzbek speakers tend to rely on indirectness, politeness markers, and contextual cues to maintain social harmony. As a result, direct translations from English often sound too harsh or abrupt in Uzbek, causing potential misunderstandings or unintended impoliteness.Another significant problem concerns cultural non-equivalence. The two languages encode different cultural expectations in expressions of gratitude, apology, respect, and disagreement. Certain Uzbek honorific expressions, such as “ota-onangizga salom ayting,” do not have direct equivalents in English, while many English informal expressions like “No worries” or “You rock!” lack natural, standardized Uzbek translations. These culturally embedded speech acts require careful adaptation rather than literal translation.Digital symbols and emojis also present challenges in translation. In many online contexts, emojis replace entire speech acts, performing expressive or interpersonal functions. However, the same emoji can carry several possible meanings depending on context. For instance, the 🙏 emoji may signal gratitude, a polite request, or a religious gesture. Machine translation tools frequently fail to capture these pragmatic nuances, resulting in incomplete or inaccurate translations.Internet slang and abbreviations further complicate the translation process. Shortened forms such as LOL, BTW, and IDK

are deeply integrated into English digital communication, yet they do not have widely accepted equivalents in Uzbek. Their translation often results in unnatural phrasing or reduced pragmatic force. Similarly, code-switching is common among Uzbek bilingual users, who mix English and Uzbek within the same message. Translating these hybrid expressions can erase markers of identity, informality, or social belonging that are essential to the original message's meaning.Finally, the limitations of machine translation tools contribute to many translation failures. Automated systems typically prioritize lexical accuracy and grammatical structure, but they cannot reliably interpret tone, politeness strategies, or implicit meanings. As a result, machine-translated speech acts often fail to meet the socio-pragmatic expectations of the target language community.Overall, these findings show that translating online speech acts is not merely a linguistic operation but fundamentally a pragmatic and cultural task. Literal translation cannot adequately express the intended meaning of online messages, especially when tone, emotion, or interpersonal relationships are conveyed indirectly. The translator must have a deep understanding of the digital norms of both languages, the social expectations of the communicative context, the politeness strategies typical of each culture, and the role of emojis, metaphors, and slang in shaping meaning. Moreover, the widespread influence of English on Uzbek online discourse has resulted in hybrid forms of communication that traditional translation approaches cannot fully address. Therefore, effective translation requires a flexible, context-sensitive strategy that combines cultural adaptation with linguistic transformation to preserve both meaning and communicative intent.

Conclusion: In conclusion, translating online speech acts between English and Uzbek is a complex task that requires more than lexical equivalence. The primary problems include pragmatic mismatches, cultural non-equivalence, difficulties in interpreting emojis and internet slang, and the limitations of machine translation tools. Understanding how speech acts function in digital environments is essential for producing accurate, culturally appropriate translations.

Further studies should investigate how bilingual users negotiate meaning in online multilingual environments and how translation tools can be improved to handle pragmatic meaning more effectively.

References

1. **Austin J. L.** How to Do Things with Words. – New York: Oxford University Press, 1965. – 166 p.
2. **Searle J. R.** Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.
3. **Seuren P. A. M.** Semantic Syntax. – Oxford: Blackwell, 1996. – 320 p.
4. **Herring S. C.** Discourse in Web 2.0: Familiar, reconfigured, and emergent // *Discourse*. – 2013. – Vol. 2. – P. 1–26.
5. **Jassem Z. A.** The Arabic origins of English and Indo-European “life and death terms”: A radical linguistic theory approach // *International Journal of English and Education*. – 2015. – Vol. 4, No. 1. – P. 322–345.
6. **Sapir E.** The problem of noun incorporation in American languages // *American Anthropologist*. – 1911. – Vol. 13, No. 2. – P. 250–282.
7. **Trager G. L.** Taos IV: Morphemics, syntax, semology in nouns and in pronominal reference // *International Journal of American Linguistics*. – 1961. – Vol. 27, No. 3. – P. 211–222. – URL: https://www.journals.uchicago.edu/doi/pdf/10.1086/464634 (murojaat sanasi: 2025).
8. **Chomsky N.** Logical structure in language // *Journal of the American Society for Information Science*. – 1957. – Vol. 8, No. 4. – P. 284. – DOI: https://doi.org/10.1002/asi.5090080406
9. **Hall E. T.** A system for the notation of proxemic behavior // *American Anthropologist*. – 1963. – Vol. 65, No. 5. – P. 1003–1026. – URL: https://www.jstor.org/stable/668580 (murojaat sanasi: 2025).

10. **Gove P. B.** Webster's Third New International Dictionary of the English Language, Unabridged. Vol. 1. – Springfield, MA: Merriam-Webster, 1981. – 2662 p.
11. **Brown J. D., Bailey K. M.** A categorical instrument for scoring second language writing skills // *Language Learning*. – 1984. – Vol. 34, No. 4. – P. 21–38. – DOI: https://doi.org/10.1111/j.1467-1770.1984.tb00350.x
12. **Atchison J.** The well-tempered tongue: The politics of standard English in the high school // *Journal of Language and Social Psychology*. – 1987. – Vol. 6, No. 2. – P. 135–137. – DOI: https://doi.org/10.1177/0261927X8700600205
13. **Yule G.** Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 138 p.
14. **Danesi M.** The Semiotics of Emoji: The Rise of Visual Language in the Age of the Internet. – London: Bloomsbury, 2017. – 256 p.
15. **Fullwood C., Orchard L. J., Floyd S.** Emojis and emotional expression in digital communication // *Computers in Human Behavior*. – 2016. – Vol. 61. – P. 150–158.
16. **Stark L.** The emotional life of emojis // *Social Media & Society*. – 2020. – Vol. 6, No. 3. – P. 1–11.
17. **Hojiyev A.** O‘zbek tilining izohli lug‘ati: pragmalingvistik izohlar. – Toshkent: Fan, 2006. – 560 b.
18. **G‘afforov N.** Pragmalingvistika va uning o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqi // *O‘zbek tili va adabiyoti*. – 2019. – № 4. – B. 25–32.

FIZIKA LABORATORIYALARIDA XAVFSIZ VIRTUAL EKSPERIMENTLAR YARATISHNING METODIK TALABLARI

Abduvasiyev Sardor Bahrom o‘g‘li

Jizzakh State Pedagogical Institute

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalari misolida fizika fanidagi ayrim laboratoriya mashg'ulotlarini vizual modellashtirish orqali xavfsiz laboratoriya muhitini yaratish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Amaliy sharoitda bajarilishi yuqori xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajribalarni virtual va vizual ko'rinishda namoyish etishning afzalliklari, ularni o'qitish jarayoniga samarali integratsiya qilish bo'yicha metodik tavsiyalar ham beriladi. Mazkur yondashuv talabalarning tushuncha hosil qilish jarayonini yengillashtirishi, xavfsizlikni ta'minlashi hamda tajriba natijalarini mukammal tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan ahamiyatlidir.*

Kalit so`zlar: *Virtual eksprement, real labaratoriya, modellashtirish, vizual simulyatsiya, virtual labaratoriya, simulyatsiya, modellashtirish.*

Аннотация: *В данной статье анализируются возможности создания безопасной лабораторной среды посредством визуального моделирования отдельных лабораторных занятий по физике на примере студентов высших учебных заведений. Рассматриваются преимущества демонстрации опытов, выполнение которых в реальных условиях может представлять повышенную опасность, в виртуальном и визуальном формате, а также приводятся методические рекомендации по их эффективной интеграции в процесс обучения. Такой подход способствует облегчению формирования понятий у студентов, обеспечивает безопасность и расширяет возможности всестороннего анализа результатов экспериментов.*

Ключевые слова: *виртуальный эксперимент, реальная лаборатория, моделирование, визуальная симуляция, виртуальная лаборатория, симуляция, моделирование.*

Annotation: *This article analyzes the possibilities of creating a safe laboratory environment through visual modeling of certain physics laboratory activities, using higher education students as an example. The advantages of demonstrating experiments that may pose increased risks when performed in real conditions in a virtual and visual format are examined, and methodological recommendations are*

provided for their effective integration into the teaching process. This approach is significant as it facilitates students' conceptual understanding, ensures safety, and expands the opportunities for thorough analysis of experimental results.

Keywords: *virtual experiment, real laboratory, modeling, visual simulation, virtual laboratory, simulation, modeling.*

Zamonaviy ta’lim jarayonida laboratoriya mashg‘ulotlari fizika fanining mazmunini chuqur o‘zlashtirishda muhim o‘rin tutadi. Biroq ayrim tajribalar amaliy sharoitda yuqori kuchlanish, ionlashtiruvchi nurlanish, portlovchi reaksiyalar yoki tezlashgan zarrachalar bilan bog‘liq bo‘lgani sababli ularni real laboratoriyada bajarish talabalarning xavfsizligi nuqtai nazaridan cheklangan bo‘ladi. Shu bois, so‘nggi yillarda virtual laboratoriyalar, vizual simulyatsiyalar va raqamli modellar yordamida xavfsiz o‘quv muhitini yaratish ta’lim amaliyotida keng qo‘llanilmoqda. Virtual laboratoriyalar real jarayonlarning asosiy qonuniyatlarini tiklash, parametrlarni o‘zgartirib tajriba natijalarini kuzatish, murakkab fizik hodisalarni xavfsiz va interaktiv tarzda o‘rganish imkonini beradi. Ayniqsa, vizual modellashtirish orqali fizik jarayonlarning bosqichma-bosqich tasvirlanishi talabalarning tasavvurini boyitadi, mavzuni chuqur anglashga yordam beradi va o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Mazkur maqolada xavfli yoki amalda bajarilishi qiyin bo‘lgan laboratoriya ishlarini vizual ko‘rinishda yaratishning didaktik ahamiyati, ularni ta’lim jarayoniga joriy etishning metodik yondashuvlari hamda talabalarda eksperimentdan to‘g‘ri foydalana olish kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritiladi.

Fizika fanida tabiiy hodisalarni bevosita kuzatish va amaliy tajribalar orqali o‘rganish o‘quv jarayonining asosiy tarkibiy qismidir. Biroq, talabalarning xavfsizligi, laboratoriya jihozlarining yetishmasligi, moddiy-texnik bazaning cheklanganligi yoki individual ishlash uchun imkoniyatlarning kamligi natijasida barcha eksperimentlarni real sharoitda amalga oshirish doimo ham mumkin emas. Shu nuqtai nazardan, vizual modellashtirish va virtual laboratoriyalar aynan fizik hodisalarni xavfsiz, aniq va interaktiv shaklda o‘rganishga yordam beruvchi

zamonaviy didaktik vosita sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda. Virtual laboratoriyalar fizik jarayonlarning real modeliga asoslanadi va talabalarga parametrlarni mustaqil o‘zgartirish, tajriba sharoitlarini simulyatsiya qilish hamda natijalarni tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Bunday simulyatsiya muhiti ayniqsa elektromagnit maydonlar, radioaktiv parchalanish, yuqori kuchlanish ostida sodir bo‘ladigan jarayonlar yoki murakkab mexanik tebranishlar kabi ko‘plab xavfli yoki kuzatishga qiyin bo‘lgan hodisalarni o‘rganishda nihoyatda samarali hisoblanadi. Vizual modellar esa o‘quvchining abstrakt fizik tushunchalarni ko‘rish, taqqoslash va tushunish jarayonini osonlashtiradi. Masalan, elektr maydon chiziqlarining shakllanishi, magnit oqimning taqsimlanishi, issiqlik almashinuvi yoki kvant hodisalarining grafik tasviri orqali talabaning mavzuga qiziqishi ortadi, jarayonlar yaxshiroq idrok qilinadi va bilimlar mustahkamlanadi.

Quyida ayrim xavfli laboratoriya tajribalarini visual modellashtirish zaruratini ko`rib chiqamiz:

Ba’zi fizik tajribalar real sharoitda talaba sog‘lig‘i va laboratoriya jihozlari uchun xavf tug‘dirishi mumkin. Masalan:

- yuqori kuchlanish bilan bog‘liq tajribalar (Tesla transformatori, elektr yoyi),
- ionlashtiruvchi nurlanish manbalari bilan ishlash (alfa, beta, gamma nurlar),
- vakuum kameralari va tezlashgan zarrachalar bilan bog‘liq tajribalar,
- kuchli magnit maydonli qurilmalar (solenoidlar, elektromagnitlar),
- yuqori haroratli yoki portlovchi moddalar ishtirokidagi jarayonlar.

Bunday holatlarda vizual simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar talabalarga jarayonni xavfsiz tarzda o‘rganish imkonini beradi. Talaba jarayonning bosqichlarini, o‘zgaruvchilar ta’sirini va natijaning fizik mazmunini tushunadi, biroq hech qanday xavfga duch kelmaydi. Shu sababli, virtual laboratoriyalar talabalarning xavfsizligini ta’minlagan holda real laboratoriya tajribasining didaktik mohiyatini saqlab qolishga yordam beradi. Aynan shu jihatlar oliy ta’limda virtual eksperimentlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda, chunki ular ta’lim jarayonini

diversifikatsiya qiladi, xavfli tajribalarni xavfsiz shaklda o‘rgatadi va talabalarning ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Virtual laboratoriya muhitini yaratish jarayonida vizual modellashtirish va interfaol simulyatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishi fizika ta’limi jarayonining sifatini oshirishda hamda talabalarning xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Virtual laboratoriyalar murakkab fizik jarayonlarning real sharoitdagi xatarlarini bartaraf etgan holda talabalarga eksperimentlarni chuqur va tizimli o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu, avvalo, yuqori kuchlanish, ionlashtiruvchi nurlanish, yuqori tezlanishdagi zarrachalar, kuchli elektromagnit maydonlar, portlovchi moddalar va boshqa xavfli fizik hodisalar bilan bog‘liq tajribalarni xavfsiz tarzda modellashtirish imkonini yaratadi. Shuningdek, vizual modellashtirish talabalarga jarayonning bosqichma-bosqich dinamikasini, parametrlar o‘zgarishining natijalarga ta’sirini va hodisalarning sabab-oqibat bog‘liqligini aniq idrok etishga yordam beradi, bu esa ularning ilmiy tafakkurini rivojlantirish va eksperimental fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Virtual laboratoriyalarni yaratishda asosiy metodik talablar real fizik qonuniyatlarga moslik, interfaol boshqaruv imkoniyatlari, vizualizatsiya sifati va didaktik moslik bilan belgilanadi. Har bir model o‘quv dasturi maqsadlariga muvofiq bo‘lib, talabalarga parametrlarni mustaqil boshqarish, natijalarni real vaqt rejimida kuzatish, o‘zgarishlarning grafik ko‘rinishlarini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bu esa tajriba jarayonida eksperimental nazariyalarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, murakkab tushunchalarni vizual va interaktiv tarzda o‘zlashtirish imkonini oshiradi. Shuningdek, virtual laboratoriyalar metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan holda, talabalarga ilmiy izlanish, xulosalar chiqarish va eksperiment natijalarini taqqoslash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, virtual laboratoriyalar o‘quv jarayonining individualizatsiyasini ta’minlaydi, ya’ni talabalar o‘z tempo va darajalariga mos ravishda tajribalarni o‘rganishi, qo‘shimcha izohlar va yordam oynalaridan foydalanishi, mustaqil tahlil qilish va o‘z xulosalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Shu tariqa, virtual laboratoriyalar nafaqat xavfsiz va samarali o‘rganish muhiti yaratadi, balki talabalarda ilmiy kompetensiyalar, analitik fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Jadval 1. Virtual laborattoriyalarni yaratishda metodik talablar va ularning ta’limiy ahamiyati

№	Metodik talablar	Ta’limiy ahamiyati / Izohi
1	Real fizik qonuniyatlarga moslik	Virtual model fizik jarayonning qonuniyatlarini to’liq aks ettirishi, talabalarga tajribani nazariy asos bilan
2	Interfaol boshqaruv imkoniyatlari	Talabalar parametriarni mustaqil o’zgartirishi, natijalarni real vaqt rejimida kuzatishi va tajribanai tahlil qilishi mumkin
3	Vizualizatsiya sifati va ilmiy aniqlik	Fizik jarayonlar grafik, animatsiya va diagrammalat yordamida aniq va bosqichma-bosqich tasvirlanadi, mavzuni tushunish va idrok qilish osonlashadi
4	Xavfsizlikni ta’minlash	Yuqori kuchlanish, ionlashtiruvchi nurlanish, portlovchi moddalar kabi xavfli tajribalarni xavns: simulyatsiya qilish mumkin bo’ladi
5	Didaktik moslik	Har bir model o’quv dasturi maqsaddariga mos bo’lishi, talabalarning tushuncha hosil qilish va eksperimentdan
6	Individualizastiya va moslashuvchanlik	Talabalar o’z tempo va darajalariga mos ishlashi, qo’shimcha izohlar va yordam oynalaridan foydamishi

Quyidagi jadvalda virtual labaratoriyalarga qo`yiladigan metodik talablar keltirilgan

Umuman olganda, virtual laboratoriya yondashuvi fizika ta’limida xavfli tajribalarni xavfsiz modellashtirish, nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish, talabaning eksperimental fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlash va o‘quv jarayonini interaktiv, individual va nazariy asoslangan shaklda tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa oliy ta’limda ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa o`rida aytish mumkun-ki, fizika fanida xavfli yoki murakkab laboratoriya tajribalarini talabalarga xavfsiz tarzda o‘rgatishda virtual laboratoriyalar va vizual modellashtirishning ahamiyati katta. Oliy ta’lim muassasalari misolida tahlil qilingan yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, virtual laboratoriyalar talabalarga real jarayonlarning qonuniyatlarini to‘liq idrok etish, parametrlarni boshqarish, natijalarni tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, ular xavfsizlikni ta’minlash, o‘quv jarayonini interaktiv va individual darajada moslashtirish, murakkab tushunchalarni vizual va interfaol tarzda o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Jadvalda ko‘rsatilgan metodik talablar esa virtual laboratoriyalarni yaratishda ilmiy aniqlik, didaktik moslik, xavfsizlik va talaba kompetensiyalarini rivojlantirish kabi asosiy tamoyillarni ta’minlash zarurligini isbotlaydi. Umuman olganda, virtual laboratoriyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, xavfli tajribalarni xavfsiz muhitda o‘rganish imkoniyatini yaratadi va talabalarning eksperimental fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **To‘raqulov B.** Fizika fanida virtual laboratoriya ishlanmalaridan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari // *Journal of Physics and Technology Education*. – 2021. – № 6.
   (Maqolada VR, AR va interaktiv ta’lim texnologiyalarining o‘quv jarayonidagi o‘rni yoritilgan.)
2. **Tilavova T. B.** Virtual laboratory technologies as a means of improving the quality of university students’ training // *Web of Teachers: Inderscience Research*. – 2025. – Vol. 3, № 4.
3. **Abduvasiyev S. B. o‘g‘li.** VR simulyatorlar asosida kvant fizikasi elementlarini o‘qitishning psixologik va pedagogik asoslari // *Ilm-fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta’limning rivojlanish omillari*. – 2025. – 12-to‘plam.

4. **Abduvasiyev S. B. o‘g‘li.** Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalarining ta’lim tizimiga ta’siri: psixologik, kognitiv va amaliy asoslar hamda STEAM ta’limining Yangi O‘zbekiston sharoitidagi ahamiyati // *Global bilim maydonida Yangi O‘zbekiston yoshlarining munosib o‘rnini ta’minlashda STEAM ta’limining ahamiyati*. – Namangan, 2025.

O‘QUVCHILARNING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH

Yoqubaliyeva Dilafro‘z Payzidin qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Avazbekova Muxlisa Toxirjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari, ta’lim jarayonida ilmiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik va pedagogik omillari, shuningdek, mazkur jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan didaktik yondashuvlar yoritiladi. Ilmiy dunyoqarashning asosiy tarkibiy tarkibiy qismlari — ilmiy bilimlar tizimi, mantiqiy fikrlash, qonuniyatlarni anglash, tadqiqot madaniyati va tanqidiy tafakkur — o‘quvchi shaxsida qanday shakllanishi ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so’zlar: *Ilmiy dunyoqarash, ilmiy tafakkur, ilmiy e’tiqod, mantiqiy fikrlash, sabab-oqibat bog‘liqligi, tadqiqot madaniyati, integrativ ta’lim, muammoli vaziyat, STEAM, eksperiment, kuzatish, innovatsion pedagogika, didaktik yondashuv.*

Аннотация:*В статье рассматриваются теоретико методологические основы формирования научного мировоззрения студентов, психолого-педагогические факторы развития научного мышления в*

образовательном процессе, а также дидактические подходы, способствующие повышению эффективности этого процесса. На основе научных источников анализируются основные компоненты научного мировоззрения: система научных знаний, логическое мышление, понимание закономерностей, исследовательская культура и критическое мышление.

Ключевые слова: *Научное мировоззрение, научное мышление, научные убеждения, логическое мышление, причинно-следственные связи, исследовательская культура, интегративное образование, проблемная ситуация, STEAM, эксперимент, наблюдение, инновационная педагогика, дидактический подход.*

Abstract: *This article discusses the theoretical and methodological foundations of the formation of students' scientific worldview, psychological and pedagogical factors of developing scientific thinking in the educational process, as well as didactic approaches that serve to increase the effectiveness of this process. The main components of the scientific worldview - a system of scientific knowledge, logical thinking, understanding of patterns, research culture and critical thinking - are analyzed based on scientific sources.*

Keywords: *Scientific worldview, scientific thinking, scientific beliefs, logical thinking, cause-and-effect relationships, research culture, integrative education, problem situation, STEAM, experiment, observation, innovative pedagogy, didactic approach.*

Kirish: Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ta’lim tizimining eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy dunyoqarash o‘quvchining borliqni ilmiy asoslarda anglay olishi, hodisa va jarayonlarning sababiy bog‘liqliklarini tushunishi, ilmiy tamoyillar asosida fikr yurita olishi bilan izohlanadi. Jahon pedagogikasida Dewey, Bruner, Vygotskiy, Piaget kabi olimlarning ilmiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan qarashlari ushbu jarayonni chuqur anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonda olib borilayotgan ta’lim islohotlari, xususan, kompetensiyaviy

yondashuvning amaliyotga joriy qilinishi, STEAM ta’limining rivojlanishi, innovatsion laboratoriya jihozlarining maktablarga kirib kelishi o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish uchun keng imkoniyat yaratmoqda. Shu bois ushbu maqolada o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga doir ilmiy-nazariy manbalar, psixologik omillar va pedagogik metodlarning mohiyati chuqur tahlil qilinadi.

Asosiy qism: O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi, avvalo, ularning ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi, ilmiy tamoyillarni anglash qobiliyati va real jarayonlarni ilmiy asosda talqin qila olish ko‘nikmalari asosida shakllanadi. Ilmiy dunyoqarash o‘z ichiga borliq haqidagi ilmiy bilimlar tizimini, mantiqiy fikrlash jarayonini, dalillash, asoslash, umumlashtirish kabi intellektual amallarni va shaxsning ilmiy e’tiqodlarini qamrab oladi. Vygotskiy ta’kidlaganidek, ilmiy tushunchalar shaxsda bosqichma-bosqich rivojlanadi va ular o‘quv faoliyati davomida mustahkamlanib boradi. Shu bois ta’lim jarayonini ilmiylik tamoyili asosida tashkil etish o‘quvchining dunyoqarashini tizimli ravishda rivojlantiradi. O‘qituvchi ushbu jarayonning asosiy boshqaruvchisi bo‘lib, o‘quvchilarni ilmiy izlanish va fikrlashga yo‘naltiruvchi vositachi vazifasini bajaradi. Uning pedagogik mahorati o‘quv materialini ilmiy asosda tanlash, uni mantiqiy ketma-ketlikda bayon etish, muammoli vaziyatlar yaratish, tajribalar va kuzatishlar orqali o‘quvchini ilmiy faoliyatga jalb eta olishda namoyon bo‘ladi. Bruner ta’kidlagan faol bilim olish modeli o‘quvchining tayyor bilimni emas, balki uni mustaqil izlanish jarayonida egallashi zarurligini asoslaydi. Shu bois laboratoriya ishlari, tadqiqot loyihalari, kuzatishlar, amaliy mashg‘ulotlar va interfaol metodlar ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning eng samarali vositalaridan sanaladi.

Ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlardan foydalanish o‘quvchilarni hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni mustaqil aniqlashga, taxminlar ilgari surishga, dalillarni tahlil qilishga va xulosalar chiqarishga o‘rgatadi. Bu metod ilmiy izlanishning tabiiy bosqichlarini maktab sharoitida namoyon etadi. STEAM yondashuvi o‘quvchilarni ilmiy, texnologik, muhandislik, matematika va san’at

bilimlarining uyg‘unlashgan holda qo‘llanishiga yo‘naltiradi. Bu integrativ ta’lim modeli real hayotiy masalalarni ilmiy asosda hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi va o‘quvchilarni ijodkorlikka undaydi. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda kuzatish va tajriba metodlari alohida ahamiyatga ega. Kuzatish jarayonida o‘quvchi voqelikni bevosita idrok etadi, o‘zining subyektiv tasavvurlarini ilmiy asosga soladi va jarayonlarning mohiyatini anglashga intiladi. Tajribalar esa nazariy bilimlarni amalda sinash, ularni tasdiqlash yoki rad etish imkonini beradi. Natijalarni qayd etish, solishtirish, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi jarayonlar ilmiy fikrlashning shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Zamonaviy ta’lim amaliyotida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ham ilmiy dunyoqarashning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Tanqidiy fikrlash o‘quvchiga ma’lumotlarni tahlil qilish, solishtirish, dalillarga tayanib xulosa chiqarish, turli qarashlarni baholash imkonini beradi. Bu ko‘nikma ayniqsa axborot oqimi nihoyatda kuchaygan bugungi davrda o‘quvchilarni noto‘g‘ri va ilmiy asossiz ma’lumotlardan himoya qiladi. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishni yanada samarali tashkil etish uchun o‘qituvchilar tomonidan zamonaviy ilmiy ma’lumotlardan muntazam foydalanish, o‘quv dasturlarini real hayotga moslashtirish, kichik tadqiqot loyihalarini tashkil etish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish, raqamli texnologiyalar va virtual laboratoriyalardan foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘quvchilarni ilmiy muloqotga jalb etish, ularda bahs-munozara madaniyatini shakllantirish, mustaqil izlanishga rag‘batlantirish ham ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa: O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish bugungi ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning mazmuni o‘quvchilarning ilmiy bilimlarni ongli ravishda egallashi, mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishi, hodisa va jarayonlarni ilmiy tamoyillar asosida talqin qila olishini ta’minlashdan iboratdir. Ilmiy dunyoqarashning shakllanishi uzluksiz pedagogik jarayon bo‘lib, o‘qituvchining metodik mahorati, ta’lim jarayonining ilmiylikka asoslanganligi, muammoli vaziyatlar, tajribalar, kuzatishlar, tadqiqot

loyihalari va STEAM yondashuvining muntazam tatbiq etilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuningdek, tanqidiy fikrlashni shakllantirish, zamonaviy axborot manbalaridan to‘g‘ri foydalanish, tajriba va amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan o‘qitish o‘quvchilarda ilmiy qarashlarning barqarorligini oshiradi. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish faqat alohida metodlar majmui emas, balki butun ta’lim jarayonining ilmiy asosda tashkil etilishi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi faol hamkorlik, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni maqsadga muvofiq qo‘llash orqali samarali kechadigan kompleks pedagogik jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotskiy, L. S. Pedagogik psixologiya. — Moskva: Pedagogika, 1991.

2. Dewey, J. How We Think. — Boston: D. C. Heath & Co., 1933.

3. Bruner, J. S. The Process of Education. — Cambridge: Harvard University Press, 1960.

4. Piaget, J. The Child’s Conception of the World. — London: Routledge & Kegan Paul, 1929.

5. Xodjayeva, M. Pedagogik innovatsiyalar va interfaol metodlar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

6. Yo‘ldoshev, J., Usmonov, S. Pedagogik texnologiya asoslari. — Toshkent: “O‘qituvchi”, 2006.

TARBIYA FANI DOIRASIDA AXLOQIY VA MA’NAVIY BARKAMOLLIKNI SHAKLLANTIRISHDA HADISIY TAMOYILLAR VA PEDAGOGIK STRATEGIYALAR

Axmedov Boburjon Vasikovich,

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hadislar asosida tarbiya fanining zamonaviy pedagogik jarayondagi roli o‘rganiladi. Tadqiqotda hadislarning axloqiy, ma’naviy*

va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishdagi ahamiyati, shuningdek, oilaviy va maktab muhiti orqali ularni tarbiyaviy amaliyotga tatbiq etish usullari tahlil qilinadi. Pedagogika fanlari doktori Musayeva Nodira Maxmudovnaning ilmiy qarashlariga tayangan holda, hadislar tarbiya fanida metodik asos sifatida baholanadi va yosh avlodni axloqiy-barkamol shaxs sifatida tarbiyalash vositasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, maqolada hadislarning ekologik madaniyat va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishdagi roli ham yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. *Hadis, tarbiya fani, axloqiy tarbiya, ma’naviy qadriyatlar, pedagogika, oilaviy tarbiya, ekologik madaniyat.*

Аннотация. *В статье исследуется роль педагогики, основанной на хадисах, в современном образовательном процессе. Анализируются влияние хадисов на формирование нравственных, духовных и социальных ценностей, а также методы их применения в рамках семейного и школьного воспитания. На основе научных взглядов Нодиры Мусаевой хадисы рассматриваются как методическая основа педагогики и средство формирования гармонично развитой личности. Кроме того, статья освещает вклад хадисов в развитие экологической культуры и социальной ответственности.*

Ключевые слова. *Хадис, предмет воспитания, нравственные ценности, духовное воспитание, семейное воспитание, экологическая культура.*

Abstract. *This article explores the role of Hadith-based pedagogy in contemporary educational practice. The study examines the impact of Hadiths on the formation of moral, spiritual, and social values, as well as methods for their application in family and school education. Based on the scientific perspectives of Nodira Musayeva, Hadiths are regarded as a methodological foundation in pedagogy and as a tool for fostering morally and spiritually developed individuals. The article also highlights the role of Hadiths in cultivating ecological awareness and social responsibility.*

Keywords. *Hadith, upbringing science, moral upbringing, spiritual values, family upbringing, ecological culture.*

Kirish. Respublika Ma’naviyat va Ma’rifat Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida Prezident Shavkat Mirziyoyev “Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak”, [103] lozimligini ta’kidladi. Bugungi globallashuv va madaniy raqobat sharoitida inson tarbiyasi, ayniqsa axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy pedagogik jarayonlarda nafaqat bilim, balki shaxsning ijtimoiy va ma’naviy yetukligi ham muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, hadislar inson tarbiyasining boy va ishonchli manbai sifatida alohida ahamiyatga ega.

Pedagogika fanlari doktori Musayeva Nodira Maxmudovnaning tadqiqotlarida hadislar asosida tarbiya jarayoni chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot muallifi ta’kidlaganidek, hadislar nafaqat axloqiy tamoyillarni, balki ularning real hayotiy vaziyatlarda qanday amal qilishi kerakligini ham ko‘rsatadi. Bu jihat hadislarni zamonaviy tarbiya tizimiga integratsiya qilish imkonini beradi va yosh avlodning ma’naviy barkamollik sari yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tarbiya fani nafaqat pedagogik, balki ekologik madaniyat, ijtimoiy mas’uliyat va madaniy qadriyatlarni shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lib, hadislar bilan uyg‘unlashganda shaxsni har tomonlama yetuklashtirishga yordam beradi. Shu sababli ushbu maqola hadislarning tarbiyaviy salohiyati, ularning tarbiya jarayoniga tatbiqi va natijadorligini o‘rganishga qaratilgan.

Asosiy qism. Bugungi ilmiy-ijtimoiy taraqqiyot sharoitida **hadislarning tarbiyaviy ahamiyatini chuqur o‘rganish**, ularning zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimi bilan uyg‘unlashgan jihatlarini ilmiy asosda yoritish dolzarb masalaga aylangan. Shu munosabat bilan, **Pedagogika fanlari doktori Musayeva Nodira Maxmudovna** o‘z tadqiqotlarida quyidagi teran fikrlarni ilgari suradi: Hadislarda oldinga surilgan axloq-odob to‘g‘risidagi g‘oyalarda dunyoviylik muammolari nihoyatda keng o‘rin olganligini inkor etib bo‘lmaydi. Shu ma’noda olib

[103] Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqi. 22.12.2025 President.uz, 2023

qaraganimizda, hadislar axloq-odob borasidagi milliy, umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida to‘la va holisona mujassamlashtirgan hayotiy qomusdir. Hadislarda axloq-odobning mohiyatigina emas, balki inson o‘z hayotining har bir daqiqasida ularga amal qilishi ham ko‘rsatib o‘tilgan. Axloqsizlik, odobsizlik hollari sodir bo‘lishi inson o‘z faoliyatida muayyan qadriyatlar tizimini chetlab o‘tishining belgisidir. Tarbiya esa faqat va faqat inson ma’naviyatini shakllanishining adolat va xaqiqat mezonlari asosida to‘g‘ri yo‘lga solishga qaratilgandir. Shu sababli hadislarda o‘rtaga qo‘yilgan ma’naviy sog‘lom kishilarni tarbiyalashga oid bo‘lgan fikrlar ham katta ahamiyatga ega. Bu borada ayniqsa oila barqarorligini ta’minlash, ota-onaning jamiyat oldidagi, farzandlarning ota-ona va jamiyat oldidagi burchi va mas’uliyatining mezonlari belgilab berilganligi katta ahamiyatga ega. Tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, qaysi oilada axloq va odob mezonlariga rioya qilinmasa, ularga kam e’tibor berilsa, unday oilada hurmat, mehr-oqibat, ezgulik kabi fazilatlar o‘rniga yomonlik, adovat, hiyonat, dilozorlik singari illatlar jonlanadi. Hadislardagi farzand tarbiyasining asosiy mezonlari ham belgilab berilgandir. Ota-ona o‘z farzandiga axloq va odobdan ko‘ra kattaroq meros qoldira olmaydi, degan fikr barcha davrlarda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan chuqur falsafiy-pedagogik hikmatdir. Hadislarda farzand tarbiyalaydigan ota-onaning o‘zi yaxshi tarbiya ko‘rgan bo‘lishi kerakligi haqidagi fikrlar ham o‘rtaga qo‘yilgan. Ota-onalarning aytgan so‘zlarigina emas, balki bir-birlariga, qarindosh-urug‘lariga, qo‘ni-qo‘shnilariga bo‘lgan munosabati, yurish turishi, fe’l-atvori ham farzandlariga ijobiy yoki salbiy ta’sir etadigan tarbiyaviy omildir.[104]

Hadislarning tarbiyaviy va axloqiy salohiyati. Hadislar inson hayotining turli jabhalarini qamrab oladi, ularning axloqiy mazmuni tarbiya jarayonida beqiyos manba sifatida xizmat qiladi. Musayeva Nodira Maxmudovnaning tadqiqotida

[104] N.M.Musayeva. Insonning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda hadislarning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil): Falsafa fanlari nomzodi ilmiy darjasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati - T., 2001. 17-18 betlar.

ta’kidlanganidek, hadislar nafaqat nazariy axloqiy me’yorlarni belgilaydi, balki ularni hayotiy holatlarda qanday qo‘llashni ham ko‘rsatadi.

Masalan, Rasulullоh alayhissalomdan imom Termiziy rivoyat qilgan bir hadisda: “***Ota-ona o‘z bolasiga go‘zal odobdan afzal narsa bera olmaydi***”,[105] deyilgan. Bu hadis tarbiyadagi amaliy mas’uliyatni, ota-onaning roli va namunasining muhimligini ochib beradi. Shuningdek, shaxsning ichki axloqiy barqarorligini shakllantirishda hadislar ijtimoiy me’yor sifatida xizmat qiladi.

Hadislarning axloqiy tarbiyadagi roli quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

1. **Kognitiv jihat:** o‘quvchi axloqiy tamoyillarni tushunadi, mas’uliyatni idrok etadi;
2. **Aksiologik jihat:** tabiat, jamiyat va insonlar bilan munosabatlarda qadriyatlarni qadrlashni o‘rganadi;
3. **Xulqiy jihat:** kundalik hayotda odob-axloq va mas’uliyatli xatti-harakatlarni amalga oshiradi.

Tarbiya fani bilan uzviy bog‘liqlik. Tarbiya fanining asosiy vazifasi shaxsning ijtimoiy va ma’naviy yetukligini ta’minlashdir. Hadislar esa bu jarayonning aniq, metodik va nazariy zaminini yaratadi. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, axloqsizlik va odobsizlik hollarining ko‘pligi ko‘pincha oilaviy va jamiyatdagi qadriyatlar tizimining yetarlicha ishlamasligi bilan bog‘liq.

Hadisiy misol: Payg‘ambarimiz solallohu alayhi va sallam marhamat qiladilar: ***“Bolalaringizga odob beringlar va odoblarini chiroyli qilinglar”.***

Bu iqtibos ota-onaning shaxsiy namunasi, amaliy tarbiya va kundalik muomala orqali farzand tarbiyasida hal qiluvchi omil ekanligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, tarbiya jarayonida ota-onaning roli, ularning axloqiy namunalari, oilaviy muhitning barqarorligi - barcha pedagogik yechimlarning poydevori sifatida ahamiyat kasb etadi.

[105] https://sammuslim.uz/oz/articles/actual/ota-ona-oz-bolasiga-gozal-odobdan-afzal-narsa-bera-olmaydi

Hadisiy namunalardan pedagogik yechimlar. Axloqiy qadriyatlarni amaliyotga tatbiq etish: Masalan, Rasulullоh alayhissalom shunday deydi: Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam*: **“Seni ikki xislat - faxrlanish va isrofgarchilik xatoga boshlamasa, xohlaganingni yeb, xohlaganingni ichaver»,** deganlar” (Imom Buxoriy rivoyati).*

Faxri koinot aytganlaridek: ***“Yenglar, ichinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrofgarchilik va faxrga o‘tmanglar»; «Kim hayotda tejamkor bo‘lsa, zinhor qashshoqlikka tushmaydi”.*** Yana bir hadisda: ***“Isrofgar jannatga kirmaydi”.*** Yana boshqa bir hadisi sharifda: ***«Tejamkor odam hech qachon qashshoqlik ko‘rmaydi»***, deyilgan.[106]

Ushbu hadislar orqali bolalarni resurslardan oqilona foydalanishga, tejamkorlikni odatga aylantirishga, faxr va isrofgarchilik kabi zararli xislatlardan uzoq turishga o‘rgatish mumkin. Hadisiy meros pedagogik jihatdan nafaqat axloqiy qadriyatlarni etkazish, balki ularni **amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatini** ham yaratadi. Shu yo‘l bilan yosh avlodning ma’naviy, axloqiy va ekologik madaniyati shakllanadi.

Oilaviy muhit orqali tarbiya: Hadislarda ota-onaning shaxsiy namunalari, odob axloqi, farzandga mehr-muhabbati, farzandning jamiyatga moslashuvi va mas’uliyatini shakllantirishdagi ahamiyati alohida qayd etilgan. Pedagogik yondashuvlar ota-onani tarbiyaviy resurs sifatida ko‘rib, ularning amaliy harakatlarini metodik tarzda uyg‘unlashtirishni tavsiya qiladi.

Shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni uyg‘unlashtirish: Hadislarda insonning o‘zining va jamiyatning manfaatini birlashtiruvchi qadriyatlar tizimi ilgari surilgan. Masalan: *Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: **“Sizlarning yaxshilaringiz - ahli-oilasiga yaxshilik qiluvchilaringizdir”,*** dedilar *(Imom Abu Dovud, Imom Termiziy rivoyati).* Bu tamoyil orqali tarbiya jarayoni faqat individual emas, balki ijtimoiy yo‘nalishda ham samarali bo‘lishi ta’minlanadi.

[106] https://muslim.uz/uz/e/post/33020-isrofgarchilik-barakani-ketkizadi

Natijadorlik va amaliy yechimlar: Hadislarga asoslangan tarbiyaviy yondashuv quyidagi natijalarni beradi:

- **Axloqiy barqarorlik:** o‘quvchilarda odob-axloqning mustahkam poydevori shakllanadi;
- **Ijtimoiy mas’uliyat:** bolalar jamiyatdagi o‘z rolini anglaydi;
- **Ma’naviy yetuklik:** ruhiy va ma’naviy barkamollik rivojlanadi;
- **Ekologik ong:** resurslardan oqilona foydalanish, tabiatni asrash ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

Amaliy yechimlar: tarbiyachilar va ota-onalar hadisiy o‘gitlarni kundalik hayotga tatbiq etish, oilaviy va maktab muhiti orqali ijtimoiy va axloqiy qoidalarni mustahkamlash orqali natijadorlikni oshiradi.

Xulosa. Musayeva Nodira Maxmudovnaning tadqiqotida hadislar asosida tarbiya jarayonini o‘rganish, ularni zamonaviy pedagogik yondashuv bilan uyg‘unlashtirish shaxsni har tomonlama yetuklashtirishga xizmat qilishi aniqlandi. Hadislar milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni uyg‘unlashtiruvchi, yosh avlodni ma’naviy barkamollikka yetaklovchi ishonchli manba sifatida qadrlanadi.

Shuningdek, tarbiya fani va hadislar integratsiyasi nafaqat ilmiy nazariy jihatdan, balki amaliy pedagogik faoliyatda ham muhim natijalarga erishish imkonini beradi: axloqiy yetuk shaxslar tarbiyalash, jamiyatga foydali fuqarolarni shakllantirish va ekologik ongni rivojlantirish. Shu jihatlar hadislar asosidagi tarbiyaviy yondashuvning bugungi pedagogik amaliyotdagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqi [Elektron resurs]. – 22.12.2025. – President.uz, 2023.
2. Musayeva N. M. *Insonning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda hadislarning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil)*: falsafa fanlari nomzodi ilmiy

darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2001. – B. 17–18.

3. Temirov H. O‘MI Samarqand viloyat vakilligi xodimi. Ota-ona o‘z bolasiga go‘zal odobdan afzal narsa bera olmaydi [Elektron resurs]. – 04.10.2023. – Rejim: https://sammuslim.uz/oz/articles/actual/ota-ona-oz-bolasiga-gozal-odobdan-afzal-narsa-bera-olmaydi
4. Abdullayev F. Isrofgarchilik barakani ketkizadi [Elektron resurs]. – 14.05.2018. – Rejim: https://muslim.uz/uz/e/post/33020-isrofgarchilik-barakani-ketkizadi
5. *Tarbiya fani. Baxt va muvaffaqqiyat sirlari*: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf o‘quvchilari uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.

XXI ASR BOSHIDA SAUDIYA ARABISTONI: DAVLAT VA RIVOJLANISH MASALALARI (VISION 2030 DASTURI MISOLIDA)

Azimov Komil Sarvarovich

T*oshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti*

Mavlonova Gulmira Mirzohid qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Anotatsiya*: Ushbu tezisda XXI asr boshlarida Saudiya Arabistoni Qirolligining davlat va rivojlanish masalalariga bag‘ishlangan. Saudiya Vision 2030 dasturi doirasida Qirollik neftga qaramlikdan voz kechish, xususiy sektorni rivojlantirish, xorijiy bevosita investitsiyalarni jalb etish hamda neft-tashqari tarmoqlar — turizm, ishlab chiqarish, qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirishga qaratilgan strategik bosqichlarni boshlab berdi. Tezisda rivojlanishda duch kelinayotgan muammolar, masalan, inson kapitali tayyorlash, aholiga imkoniyatlarning teng taqsimlanishi, jamoat institutlarini zamonaviylashtirish masalalari ham ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy diversifikatsiya, neftga qaramlik, neftdan tashqari sektor, bevosita investitsiya,, ijtimoiy islohot,, jamoat institutlarini modernizatsiyalash,qayta tiklanuvchi energiya, turizm sektori, strategik ramka*

Аннотация: *В данном тезисе рассматриваются государственные и вопросы развития Королевства Саудовская Аравия в начале XXI века. В рамках программы Saudi Vision 2030 Королевство инициировало стратегические этапы, направленные на отказ от нефтяной зависимости, развитие частного сектора, привлечение прямых иностранных инвестиций, а также развитие ненефтяных отраслей — туризма, производства и возобновляемой энергетики. В тезисе также анализируются проблемы, возникающие в процессе развития, такие как подготовка человеческого капитала, обеспечение равного распределения возможностей среди населения и модернизация общественных институтов.*

Ключевые слова: *экономическая диверсификация, нефтяная зависимость, ненефтяной сектор, прямые инвестиции, социальные реформы, модернизация общественных институтов, возобновляемая энергетика, туристический сектор, стратегическая рамка.*

Abstract*: This thesis explores the state and development issues of the Kingdom of Saudi Arabia in the early 21st century, focusing on key dimensions of economic diversification, social reform, and governance transformation. Under the umbrella of Saudi Vision 2030 the Kingdom has pursued a strategic shift away from oil dependency by promoting private-sector growth, foreign direct investment, and the development of non-oil sectors such as tourism, manufacturing, and renewable energy. The thesis also discusses ongoing challenges: balancing rapid growth with local human-capital development, ensuring inclusive access to benefits, and modernising public institutions for improved effectiveness and accountability.*

Key words: *economic diversification, oil dependency, non-oil sector, social reform, governance transformation, human capital development, public institution modernisation, renewable energy, tourism sector, strategic framework*

Ключевые слова: *подростковый возраст, делинквентное поведение, социальное поведение, психологические факторы, воспитание и контроль, семейная среда, влияние социальной среды, профилактика, лечение и реабилитация, криминология, педагогические подходы, социальная адаптация, профилактика преступлений, психическое здоровье, преступное поведение.*

O‘smirlik yoshi inson hayotida eng muhim va murakkab davrlardan biri hisoblanadi. Bu bosqichda o‘quvchilar jismoniy, psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlarni boshdan kechiradilar. O‘ziga xos psixologik xususiyatlar, mustaqillikka intilish va ijtimoiy muhit ta’siri natijasida ayrim o‘quvchilarda me’yoriy xulq-atvor me’yorlaridan chetga chiqish holatlari kuzatilishi mumkin. Shu jumladan, delikvent xulq – jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy va huquqiy me’yorlarni buzish holatlari o‘smirlik davrida ko‘proq uchraydi.

Delikvent xulqning shakllanishiga turli omillar sabab bo‘lishi mumkin. Jumladan, oiladagi tarbiya usullari, ijtimoiy muhit, psixologik omillar va tengdoshlar ta’siri o‘smirlarning xulq-atvorini belgilab beradi. Ayniqsa, nazoratsiz qolgan yoki nosog‘lom muhitda ulg‘aygan o‘quvchilarda huquqbuzarlik, tajovuzkorlik, yolg‘onchilik, qoidabuzarlik va boshqa salbiy xatti-harakatlar shakllanishi xavfi yuqori bo‘ladi.

Mazkur tadqiqotda o‘smirlik yoshidagi o‘quvchilarda delikvent xulqning shakllanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu

muammoning oldini olish yo‘llari, pedagogik-psixologik yondashuvlar va jamiyatning ushbu jarayondagi roli o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari ta’lim muassasalari va ota-onalar uchun muhim tavsiyalar berishga xizmat qiladi. Dunyoda diniy ekstrremizim, terrorizm, giyohvandiik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi yovuz xavf-xatarlar insoniyat boshiga o‘g‘ir kulfatlar solayotgan hozirgi murakkab bir davrda yoshlar tarbiyasi masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etayotgani hech kimga sir emas.

Albatta, bugunungi kunda yurtimizda yoshiarimiz qalbida vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini kamol toptirish, ularni sog‘lom turmush tarzi ruhida tarbiyalashga qaratiigan targ‘ibot -tashviqot ishiari olib borilmoqda.

Ammo ochiq tan olishimiz kerakki, bu borada amalga oshirayotgan ishlarimiz hali yetarli darajada emas. Shunung uchun biz yoshiarimiz, ayniqsa uyushmagan yoshlar bilan ishlashga jiddiy e'tabor qaratishimiz zarur. Qonunga qarshi harakatlar determinatsiyasini ko‘rib chiqishda odatda, shunga o‘xshash axloqni uyg‘otuvchi tashqi sharoitlar va ichki sabablar yig‘indisi haqida gapiradilar. Shubhasiz, har bir aniq holda omillarning noyob uyg‘unligi o‘ringa ega, shunga qaramay, delinkvent axloqning shakllanishida ba’zi umumiy tendentsiyalarini aniqlash mumkin.

Ijtimoiy sharoitlar qonunga qarshi axloqning sodir bo‘lishida ma’lum bir rol o‘ynaydi. Ularga dastavval ko‘p darajali jamoatchilik jarayonlari taalluqlidir. Bu, masalan, zaif hokimlik va qonunchilikning mukammal emasligi, ijtimoiy kataklizmalar va hayot darajasining pastligi bo‘lishi mumkin.

Delinkventlikni chaqiruvchi quyidagi mikroijtimoiy omillarni sanab o‘tish mumkin:

— bolalarning nozik g‘amxorlik va ota-onalari tomonidan mehribonligiga ehtiyoji frustratsiyasi (masalan, o‘ta qattiqqo‘l ota yoki yetarlicha g‘amxor bo‘lmagan ona) bolada erta jarohatli kechinmalarni uyg‘otadi;

— oilada jismoniy yoki psixologik shafqatsizlik (masalan, jazoning haddan tashqari yoki doimiy qo‘llanilishi);

— ma’naviy ongning me'yoriy rivojlanishini qiyinlashtiruvchi ota ta’sirining yetishmasligi (masalan, uning yo‘qligi);

— jarohatli sharoitlar, og‘ir jarohat (kasalllik ota-onaning o‘limi, zoraronlik ajrashish);

— bolaning xohishlarini bajarishda erkalatish; ota-onalarning yetarli bo‘lmagan talabchanligi, ularning o‘sib boruvchi talablarni qo‘yishga yoki ularning bajarilishiga erishishga noqodirligi;

— bolani o‘ta rag‘batlantirish — ota-onaga, aka-uka ra opa-singilga juda ham jadal erta mehr-muhabbat ko‘rsatish ;

— ota-onalar tomonidan bolaga nisbatan talablarning noadekratligi oqibatida unda axloqning aniq tushunchasi paydo bo‘lmaydi;

— ota-onalar (vasiylar) ning almashinuri;

— ota-onalar o‘rtasidagi surunkali aniq ko‘zga ko‘ringan nizolar (ayniqsa, shafqatsiz ota-onani do‘pposlagan vaziyat xarfli);

— ota-onalarning istalmagan shaxsiy hislatlari (masalan, talabchan bo‘lmagan ota va erkalatuvchi onaning uyg‘unligi);

— bolaning o‘rganish orqali oilada yoki guruhda delinkvent qadriyatlarni (ochiq yoki yashirin) o‘zlashtirishi.

O‘smir yoshida (12-17 yosh)gi qonunbuzarlik harakatlari anchagina anglangan va ixtiyoriy hisoblanadi. Ushbu yosh uchun "odatiy" buzilishlar — o‘g‘il bolalarda — o‘g‘rilik va bezorilik qizlarda — o‘g‘rilik ra fohishabozlik bilan bir qatorda yangi shakllar ham keng tarqaldl — giyohvand moddalar va qurol bilan savdo-sotiq qilish, reket, qo‘shmachilik, muttahamlik, biznesmen va xorij fuqarolariga tashlanish. 1998 yili 190 mingga yaqin voyaga yetmagan jinoyatchilar (qonunni buzurchilarning umumiy sonini 10 foizi) ro‘yxatga olingandi. Statistik ma’lumotlarga qaraganda o‘smirlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning katta qismi guruh bo‘lib amalga oshirilgan. Guruhda jazodan qo‘rqur pasayadi, tajovuz va shafqatsizlik keskin kuchayadi, o‘ziga va sodir bo‘layotganlarga nisbatan tanqid susayadi. Guruhli qonunbuzarlik axloqining birmuncha yuqori ko‘rsatkich namunasi futbol matchidan keyin yoshlar ko‘pchilikni tashkil etuvchi ishqivozlarning "sayri" hisoblanadi.

O‘smir xulq-atvorida ro‘y berurchi "og‘ishlar" psixopatologik sindromlar (bir qancha-simptomlar yig‘indisi)ning, yaqqol ko‘zga tashlanurchi belgilari quyidagilardan iborat:

Asabiylashish belgilari — tajanglik, intizomsizlik, o‘qiturchilarga qo‘pollik, urishqoqlik, chekishga ruju qo‘yishlik, toksik moddalardan goho foydalanib turishlik, maktabdan qochishlik.

Disforik o‘zgarurchanlik belgilari — to‘satdan kayfiyatning buzilishi, larzaga kelishi, affektiv, ya’ni hissiy zo‘riqishdan forig‘lik, ruhan yengillashish, tajoruzkorlik, bo‘zg‘unchilik.

Autizm, ya’ni indiridni o‘zining atrofidagi odamlardan uzoqlashishi eraziga o‘z kechinmalariga berilishdan iborat psixologik begonalashur belgilari-bemaqsadlik, tuzalmas xulq-atror buzilishining sabablariga:

— oila a’zolaridan birining qandaydir surunkali yoki og‘ir dardga chalinganligi;

— oila a’zolaridan birining alkogol ra narkotik moddalarga ruju qo‘yganligi;

— oila a’zolaridan birining aksilijtimoiy xulq-atrorga egaligi;

— ota-onaning o‘zaro munosabatlarida bir-birlarini tushunishga intilishning yo‘qligi;

— ota-onalar o‘rtasida muhabbat tuyg‘usining etishmasligi;

— ota-onada o‘zaro adovat saklanganligi;

— o‘zaro munosabatlarda (ko‘pincha otalarda) zug‘umkorlik ifodalanishi, masalan, otaning onaga, otaning farzandlariga, ba’zan onaning jahl ustida o‘z farzandlariga zug‘um o‘tkazishi va hokazolar kiradi.

Odatda, bunday oila yo to‘liq bo‘lmaydi, yoki nomaqbul oila ekanligani anglatadi. Bunday oilalarda doimo nizoli vaziyatlar ustuvorlik qilib, ularda urush-janjal hukmrondir. Ular bir-birlarini ayblash bilan ovora bo‘ladilar.

Vaholanki, ushbu vaziyat bolaning ko‘z o‘ngida sodir etiladi, ko‘pincha farzandlar ham bunday vaziyatning ishtirokchilariga aylanadilar.

Achinarli tomoni shundaki, o‘z hissiy kechinmalarini boshqara olmagan ota yoki ona, ba’zan har ikkalasi notinchlik sabablari sifatida o‘z farzandlarini ayblaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tolaganora G.K. «Yosh darrlari ra pedagogik psixologiya kursi bo‘yicha tarbiyasi «qiyin» o‘smirlar psixologiyasiga metodik kursi.
2. G‘oziyer E. G‘. «Tarbiyasi «Qiyin» o‘smirlar psixologiyasi». Lektorga yordam. Toshkent-1984.
3. Mirzayerna, S.X. (2023). Ommariy axborot rositalarining inson psixikasiga ta’sirI. Scientific Impulse, 1(11), 577-580.
4. Parpiyera, O. R., & Dzhaloldinora, O. O. (2022). The role of Raleology in raising a healthy generation. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 13, 1-3.
5. Парпиева, О. (2014). " Инсон саломатлиги ва зарарли одатлар" Фарғона-2014й.
6. Parpiyera, O.R., & Ostanaqulor, A.D. (2019). Health theory. Форум молодых ученых, (6 (34)), 26-28.
7. Parpiyera, O. R., & Ostanaqulor, A. D. (2019). Thoughts that do not go away from the brain. Мировая наука, (6 (27)), 9-11.
8. Parpiyera, O.R., & Marifjonorna, B. N. (2019). The effect of harmful habits on human health. Мировая наука, (5 (26)), 76-78.
9. Parpiyera, O. R. (2022). Basics of a healthy lifestyle in the educational process. Journal of Pedagogical Inrentions and Practices, 9, 89-94.
10. Parpiera, O. R., Muydinora, E., Safarora, G., & Boltaboera, N. (2020). Social and psychological aspects of a healithy life style. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 1364-1368.

11. Parpiera, O. R. (2023). HEALTH IS THE HIGHEST RALUE. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(11), 760-763.
12. Парпиева, О.Р., Болтабоева, Н. М., & ЭТАПЫ, Р. П. З. (2019). Международный научно-практический журнал" Теория и практика современной науки.
13. Eleonora Toproldierna Mirzajonora, Odinaxon Raxmanorna Parpiyera //Modern Special Preschool Education: Problems and Solutions// Journal of Pedagogical Inrentions and Practices. Rol. 9. 06-2022. 100-106 pages.
14. Qayumorna, R. M. (2021). Examining and monitoring of the impact of hypo dynamic factors on the state of physical fitness in students. Journal of Pedagogical Inrentions and Practices, 3, 40-43.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISH JARAYONLARI

Qarshiboyeva Dilfuza Burliyevna
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotasiya:*Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlari, ularning rivojlanish xususiyatlari hamda bu jarayonni shakllantirish usullari tahlil qilinadi. Bolalarning idrok, xotira, tafakkur, nutq va diqqat kabi bilish jarayonlari psixologik va pedagogic nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalarida bilish jarayonlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metod va texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar yoritiladi. Tadqiqot natijalari bolalarning bilish qobiliyatini oshirishga xizmat qiluvchi samarali usullarning ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.*

Annotataion: *This article analyzes the cognitive processes of preschool children, their developmental characteristics, and methods for forming this process. Children's cognitive processes, such as perception, memory, thinking, speech, and attention, are considered from a psychological and pedagogical point of view. Methods and technologies, innovative approaches aimed at developing cognitive processes in preschool educational institutions are also highlighted. The results of the study are aimed at revealing the importance of effective methods that serve to increase children's cognitive abilities.*

Аннотация. *В статье анализируются когнитивные процессы детей дошкольного возраста, их особенности развития и методы формирования данных процессов. Когнитивные процессы детей, такие как восприятие, память, мышление, речь и внимание, рассматриваются с психолого-педагогической точки зрения. Также освещаются методы и технологии, инновационные подходы, направленные на развитие когнитивных процессов в дошкольных образовательных учреждениях. Результаты исследования направлены на раскрытие значимости эффективных методов, способствующих повышению когнитивных способностей детей.*

Kalitso‘zlar: *maktabgacha yosh, bilish jarayonlari, idrok, tafakkur, xotira, diqqat, pedagogic texnologiyalar, innovatsion yondashuv.*

Key words: *preschool age, cognitive processes, perception, thinking, memory, attention, pedagogical technologies, innovative approach.*

Ключевые слова: *дошкольный возраст, когнитивные процессы, восприятие, мышление, память, внимание, педагогические технологии, инновационный подход.*

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri ularning bilish jarayonlari shakllanishidir. Bilish jarayonlari — bu atrof-muhitni idrok etish, tushunish, eslab qolish, tasavvur qilish va fikrlash kabi aqliy faoliyatni o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonlar bolaning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va kelajakdagi ta'lim jarayonlariga tayyorgarligida muhim rol o‘ynaydi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida va oilaviy tarbiya sharoitida bolalarning bilish faoliyatini rivojlantirish uchun maxsus metodlar va pedagogic yondashuvlar qo‘llaniladi. O‘yinlar, didaktik mashg‘ulotlar, ekskursiyalar, badiiy adabiyot bilan tanishish, tasviriy san’at va musiqiy mashg‘ulotlar orqali bolalarda idrok, tafakkur va xotira kabi bilish jarayonlari shakllantiriladi.

Ushbu ishda maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari, ularni shakllantirish usullari hamda pedagogic yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti, yuqori salohiyatli, immuniteti mustahkam yoshlari bilan belgilanadi. Ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish va salohiyatli yoshlarini tarbiyalashda eng avvalo ta'limning ilk bo'g'ini - maktabgacha ta'lim sohasiga diqqatni qaratmoq lozim. "Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarish farovon hayotga erisha olmaymiz. Bundaykadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash avvalo maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlanadi." – deb ta'kidlaydi o'z nutqida president Sh.Mirziyoyev.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti – bu o'ziga xos olam bo'lib unda bola o'zini qulay, xavfsiz va manzur sezishi lozim. Bu borada esa ta'lim jarayoni muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkiloti turli yosh guruhlarida rivojlantiruvchi muhit shunday tarzda yaratilishi kerakki, unda bola o'zini erkin, mustaqil tanlash imkoniyatiga ega, o'yinchoqlar, o'quv dasturlari bola yoshiga mos, tarqatma materiallar, mebel jihozlar va AKT texnik vositalar bilan jihozlash me'yorlari asosida jihozlangan boshqacha qilib aytganda shunday inklyuziv muhit yaratilgan bo'lishi kerakki, unda har bir bola o'zini ardoqli, qobiliyatli, intellektli va ta'lim jarayoniga jalb qilingandek his qilishi lozim. Shu o'rinda pedagog esa bolalarning mustaqil harakat qilish, natijalarga erishish va yutuqlarni amalga oshirish hamda ulardan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo'shmog'i lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bola shaxsini har tomonlama hayotga tayyorlash, idrok etish, sog'lom fikrlash, tanqidiy fikrlash, hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, aqliy rivojlantirish, muloqot qilish, bolaning "Men" ini shakllantirishga yordam beradi va asos bo'lib xizmat qiladi. Kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq sub'ekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi. Kompetensiya bu – bolaning bilim, ko'nikma, malaka va

qadriyatlari majmuidir. Tayanch va soha kompetensiyalari mavjud bo'lib, rivojlanish sohasidan qat'i nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bola kompetensiyasi yanayam aniqroq qilib aytadigan bo'lsak – bolaning ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan vazifalarni maqsadli, samarali bajarishi uchun yetarli bo'lgan bilimi, ko'nikmasi va malakalari, hamda qadriyatlari yig'indisidir.

Mashxur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, "Insonning maktabgacha yosh davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi" - deydi. Maktabgacha yosh davrida aynan bolaning tafakkuri rivojlanib, mukammallashib, xarakteri shakllanib boradi. Bola dunyoni anglay boshlaydi, o'rganadi, idrok etadi, fikrlaydi, taqqoslaydi, ko'nikma hosil qiladi. Tajribalar o'tkazadi, tahlil qilishga o'rganadi, natijaga erishish orqali bilimlarini yanada oshirib boradi.

Maktabgacha yosh davrida bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Tafakkur bolaning 7 yoshgacha bo'lgan davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Bolalarda bilishga qiziqish ortadi, har sohaga doir savollar tug'ila boshlaydi, bu esa o'z navbatida tafakkurning faollashayotganligidan dalolat beradi. Bu davrda bolaning har bir savoli javobsiz qolmasligi lozim. Aks holda bolaning qiziqishlariga, ijodkorligiga, intellektiga to'siq qo'yish mumkin. Har qanday tafakkur, odatda biron narsani taqqoslash, tahlil qilish va solishtirishdan boshlanadi. Shuning uchun biz ana shu taqqoslash, analiz va sintez qilishni tafakkur jarayoni deb ataymiz.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida "kompetensiya", "kompetensiyaviy yondashuv", "kompetensiyaviy ta'lim", "kompetentlik" kabi tushunchalar faol qo'llana boshladi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim bolaning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini faoliyatda amaliy qo'llay olish imkoniyatini rivojlantirishga zamin yaratdi. Tabiiyki maktabgacha yosh davrida bolalar atrofni anglash va ular bilan bevosita amaliy munosobatda bo'lishga intiladilar.

"Kompetensiya" atamasi ilk bor XX asr o'rtalarida amerikalik tilshunos, generativ tilshunoslik asoschisiN.Xomskiytomonidanqo'llandi. Uning ta'lim sohasida tildan foydalanish bilan bog'liq faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida qo'llanishi olimning izdoshlari tomonidan kompetensiyaviy yondashuv sifatida talqin etildi va kompetentlilik, kompetensiyaviy yondashuv ta'limda aniq natijalar bilan bog'liq samarani ko'rsatuvchi omil sifatida qayd etildi.

Xulosa, qilib aytganda bugungi kunda maktabgacha ta'limning sifat va samaradorligini oshirishda kompentensiyaviy yondashuv, bolaning aynan yoshiga mos dasturga tayanish, adabiyotlar bilan boyitib borish, bolalarning kundalik faoliyatini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, ularning bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanish, qobiliyatlarini aniqlash, yanada rivojlantirish va shunga qarab jarayonga ijodiy yondashish, o'tkaziladigan mashg'ulotlar va manbalarni bolalar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan holatga keltirish maqsadi daratsional va tizimli tahlil qilishni ko'zda tutadi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning poydevori sanaladi. Poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa imorat uzoq yillar xizmat qiladi, yillar davomida jilolanadi. Shunday ekan kelajagimiz davomchilari, g'ururimiz, ishonchimiz bo'lgan yosh avlodni har tomonlama komil, salohiyatli, mustahkam irodali, jahon sahnalarida raqobat bardosh qilib ta'lim-tarbiya berish bugungi kun pedagogining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ekanligini anglamog'imiz zarur. Zeroki mamlakatning qudrati zakovatli yoshlari bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Migranova E. A., Poziiova Sh. X.** Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish : o‘quv qo‘llanma. – Toshkent : Tafakkur bo‘stoni, 2018. – 200 b.

2. **Grosheva I. V., Yevstafeva L. G., Maxmudova D. T., Nabixanova Sh. B., Pak S. V., Djanpeisova G. E.** “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.

3. **Qodirova F., Toshpo‘latova Sh., A’zamova M.** Maktabgacha pedagogika. – Toshkent : Ma’naviyat, 2019. – 688 b.

4. **Sodiqova Sh. A.** Maktabgacha pedagogika. – Toshkent : Tafakkur sarchashmalari, 2013. – 288 b.

5. **Qayumova N. M.** Maktabgacha pedagogika. – Toshkent : TDPU nashriyoti, 2013. – 184 b.

6. **Xodjayev B. X.** Umumiy pedagogika : darslik. – Toshkent : Sano-standart, 2017. – 434 b.

7. **Raxmonova S. M.** Didactic possibilities of improving the methodology for preparing future educators of the preschool educational organization for innovative professional activities // *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*. – 2022. – Vol. 2, No. 12. – P. 36–40. – ISSN 2792-1883. – Kirish manzili: https://literature.academicjournal.io (murojaat sanasi: 16.12.2022).

8. **Raxmonova S. M., Murotovna D. M.** Ta’lim jarayonida pedagogning innovatsion kasbiy faoliyati va xususiyatlari // *Science and Education. Scientific Journal*. – 2023. – Vol. 4, Issue 5. – P. 862–866. – ISSN 2181-0842. – Kirish manzili: https://drive.google.com/file/d/190Zcnat7oUsSvaN14XoXW-LO87w895aE/view (murojaat sanasi: 04.05.2023).

9. **Rakhmonova S. M.** System of inclusive education in preschool education development // *Science and Education. Scientific Journal*. – 2023. – Vol. 4, Issue 5. – P. 950–953. – ISSN 2181-0842. – Kirish manzili: https://drive.google.com/file/d/190Zcnat7oUsSvaN14XoXW-LO87w895aE/view (murojaat sanasi: 04.05.2023).

MODERNIZATSIYA - IJTIMOIY TARAQQIYOT KONSEPSIYASI SIFATIDA

Sagdullayeva D.Sh.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU

Annotatsiya: *mazkur maqolada ijtimoiy taraqqiyot, unga oid qarashlar tahlil etildi. Insoniyat taraqqiyoti jarayonlari, uning bosqichlarini asoslovchi kontseptsiyalar o'rganildi. Xususan, ijtimoiy taraqqiyotning chiziqli (evolyutsion), siklli, spiralsimon turlari, ularga tegishli bo'lgan sivilizatsion kontseptsiya, hamda K.Yaspers, C.Xantington va F.Fukuyama qarashlari o'rganildi. Modernizatsiya paradigmasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar negizi sifatida tahlil etildi.*

Аннотация: *в данной статье изучено понятие социальный прогресс и взгляды философов. Рассмотрены концепции, основывающие процессы развития человечества, его этапы. В частности, были проанализированы линейные (эволюционные), циклические виды социального развития, связанная с ними концепция цивилизации, а также взгляды К.Ясперса, С.Хантингтона и Ф.Фукуямы. Парадигма модернизации была проанализирована как основа осуществляемых реформ в Узбекистане. .*

Abstract: *This article examines the concept of social progress and the views of philosophers. The concepts underlying the processes of human development and its stages have been considered. In particular, linear (evolutionary), cyclic types of social development, the related concept of civilization, as well as the views of K. Jaspers, S. Huntington and F. Fukuyama have been analyzed. The paradigm of modernization was analyzed as the basis of the ongoing reforms in Uzbekistan.*

Kalit so'zlar*: jamiyat, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy o'zgarish, spiralsimon, siklli, evolyutsion, sivilizatsion, modernizatsiya, demokratlashtirish, liberallashtirish, fuqarolik jamiyati.*

Ключевые слова: *общество, социальное развитие, социальная изменение, цикличность, эволюция, цивилизация, модернизация, демократизация, либерализация, гражданское общество.*

Key words: *society, social development, social change, cyclicality, evolution, civilization, modernization, democratization, liberalization, civil society.*

Kirish. Ijtimoiy falsafa jamiyatni tabiatning bir qismi, doimo o’z o’zini tashkillovchi tizim ekanligini asoslab, eski sifatning yemirilib, yangi sifat darajasi qaror topishi asosida rivojlanishi, unda taraqqiyot sodir bo’lish imkoniyatini tahlil etadi. Tabiatda bo’lgani singari jamiyatda ham uzluksiz ravishda harakat, o’zgarish, taraqqiyot sodir bo’ladi. Jamiyat taraqqiyoti zaruriy tarzda kechgani uchun ham tabiiy-tarixiy jarayon hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti kishilar faoliyati tufayli sodir bo’lgani uchun ham tarixiy jarayondir. Kishilar o’z faoliyatlari bilan tarixni yaratadilar.

Xo’sh, ijtimoiy taraqqiyot nima, u qanday omillar ta’sirida ro’y beradi? Ushbu masalasini tadqiq etishning amaliy ahamiyati kattadir. Zero, O’zbekiston ham o’z taraqqiyot yo’lidan odimlayotgan mamlakat hisoblanadi.

Umuman, taraqqiyot — rivojlanishning oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga yo’nalgan shakli, uning yuksalishidir. Taraqqiyot tufayli olamda mukammallashish, yuksalish ro’y beradi, u vujudga kelish, murakkablashish, ulg’ayish, yangilanish, tiklanish, sistema yasalish jarayonlari tarzida amalga oshadi1 [O”z M E. T- harfi.112 b.]

Ijtimoiy taraqqiyot, bu jamiyat taraqqiyotidir. Bu – uning o’tmishdan hozir orqali kelajak sari o’zgarib borishidan iborat bo’lgan jarayondir.

Materiallar va metodlar

Hozirgi zamon falsafasida ijtimoiy taraqqiyot muammosi bo’yicha qator kontseptsiyalar shakllangan. Ijtimoiy o’zgarishlarning chiziqli(evolyutsion), siklli, spiralsimon turlari farqlanadi.

Ulardan biri “tadrijiy rivojlanish usuli”ni ifodalovchi, ijtimoiy o’zgarishlarning chiziqli turi bo’lib, tor ma’noda evolyutsiya faqat bosqichma-bosqich yuz beradigan miqdor o’zgarishlarini anglatadi. T. Parsons yaratgan “evolyutsion o’zgarishlar”da evolyutsiya jamiyatning strukturaviy-funktsional tabaqalanish jarayoni sifatida qaraladi. Tabiatning tabaqalanishi unda yuz bergan evolyutsiyaning muhim mezoni hisoblanadi. R. Bell fikriga ko’ra, evolyutsiya

ijtimoiy tizimda tabaqalanish va murakkablashuvning avj olish jarayoni sifatida tavsiflanishi mumkin.

Evolyutsion nazariyalar tarixni bosqichlarga ajratilgan jarayon sifatida tavsiflasa, ijtimoiy o'zgarishlarning siklikligini e'tirof etuvchi namoyondalar ayrim sivilizatsiyalarning ravnaq topishi va muqarrar tarzda inqirozga uchrashi kontseptsiyasini ilgari suradilar. Ushbu nuqtai nazarning o'ziga xos jihati shundan iboratki, unda jamiyatni chiziqli tarixiy shkalada muayyan tartibda joylashtirishga harakat qilinmaydi, balki jamiyatlar taqqoslanib, ularning o'sish va tanazzul bosqichlaridagi o'xshash jihatlari tahlil etiladi. Evolyutsionistlar insoniyatning rivojlanish jarayoni uzluksiz kechadi deb hisoblasalar, sikliklik nazariyachilari har qanday sivilizatsiyaning halokatini bashorat qiladilar.

Jamiyat taraqqiyotiga sivilizatsiyali yondoshuv muayyan jamiyatning ijtimoiy-ruhiy qiyofasi, xalqning mentaliteti haqida fikr yuritish, jamiyat taraqqiyotida madaniyatning o'rnini to'g'ri tushunish imkonini beradi. Tarixiy taraqqiyot bu insoniyat sivilizatsiyasining shakllanishi va taraqqiyotidir [G'arb falsafasi. 2004. 577 b.].

Ijtimoiy taraqqiyotga sivilizatsiyali munosabat madaniy taraqqiyotni inson va jamiyat rivojlanishining asosiy omili sifatida olib qarash imkonini beradi. Unda asosan ko'p sonli madaniyatlar va sivilizatsiyalar mavjudligi, ularning lokalligi va har xilligi haqidagi g'oya ilgari suriladi. Bu yerda ijtimoiy taraqqiyotning qat'iy bir chiziqli sxemasi rad etiladi.

Ijtimoiy taraqqiyot, tarixning mohiyati muammosi XIX asr oxiri va XX asrda nemis faylasufi Karl Yaspers, amerikalik olimlar Hantington va Frensis Fukuyama qarashlarida, shuningdek, modernizatsiya paradigmasida ham o'z ifodasini topgan.

Nemis faylasufi Karl Yaspers (1883-1969 yillar) 1949 yilda nashr etilgan «Tarixning ma'nosi va vazifasi» asarida jamiyatning ob'ektiv qonunlari mavjudligini inkor etadi. U ijtimoiy taraqqiyot haqida «Jahoniy vaqt o'qi» g'oyasini ilgari suradi va jahon taraqqiyotining bir-biridan farqlanadigan to'rt davrini ko'rsatib o'tadi [K. Yaspers.1991, c. 32-38.].

Hozirgi dunyo rivojlanishining boshqa bir modeli “tsivilizatsiyalar to’qnashuvi” kontseptsiyasini S.Xantington ilgari surdi. U hozirgi davr sivilizatsiyalari xususida fikr yuritadi. S.Xantington fikriga ko’ra, bunday dunyoda mintaqaviy siyosat asosan, etnik xususiyatlarga ega bo’ladi, global siyosat esa sivilizatsiyalar o’rtasidagi munosabat darajasida amalga oshiriladi. Eng yirik va xavfli konfliktlar boy va kambag’al mamlakatlar o’rtasida emas, balki turli madaniyatlarga mansub xalqlar o’rtasida chiqadi. Uningcha, global jarayonlar sivilizatsiyalarni birlashtirmaydi, balki bir-biriga qarama-qarshi qo’yadi. Oqibatda xalq tayanch izlab an’analarga yuz buradilar va bu diniy uyg’onishga, o’z negizlariga qaytishga olib keladi [Хантингтон С. 2003.-с.603]

Amerikalik olim Frensis Fukuyama ijtimoiy taraqqiyot haqida «tarixning intihosi» g’oyasini ilgari surdi. Uning fikricha, liberal demokratiya insoniyat mafkuraviy evolyutsiyasining yakuniy, oxirgi nuqtasi bo’lishi mumkin. Shu tariqa insoniyat oxir-oqibatda jamiyat boshqaruvining eng ma’qul, yakuniy shaklini topadi. Fukuyama liberal g’oyalar va qarashlarni umuminsoniy ideal sifatida e’tirof etgan, ularning negizida insonning barcha ehtiyojlari qondirilishi va jamiyatdagi asosiy ziddiyatlar hal qilinishi lozim, deb hisoblagan. Olim insoniyat tarixining mohiyatini jamiyat a’zolarining barcha manfaatlarini qondira oladigan, barcha asosiy ziddiyatlar yechimini ta’minlay oladigan jamiyat qurish tashkil etadi, degan xulosaga keladi [Ф.Фукуяма. 2004.Origin: http://www.nietzsche.ru/].

Asosiy qism. Tarix falsafasida tarixiy taraqqiyot g’oyasi muhim o’rin egallaydi. Zamini taraqqiyot g’oyasiga borib taqaluvchi modernizatsiya nazariyasi shular jumlasidandir. Ijtimoiy o’zgarishlar qamrovining kengayishi, ayniqsa, XX asr ikkinchi yarmiga xos bo’lgan jarayondir. Xuddi shu davrda Yevropa mustamlakachilik siyosatining tugatilishi davrida Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarida mustaqil davlatchilikning qaror topishi bilan bog’liq bo’lgan tarixiy jarayonga aks ta’sir sifatida modernizatsiya paradigmasi qaror topdi.

Modernizatsiyalash inson va jamiyat faoliyatining barcha sohalarini yangilash, an’anaviylikdan zamonaviylikka o’tish, rivojlanishda yuqoriroq

bosqichlarga erishishdan iborat bo'lgan murakkab jarayon bo'lib, ilm-fan sohasida paradigmal yangilanishlar sodir bo'lishi bilan birga kechadi. Mamlakatni rivojlantirish, ilg'or munosabatlarga o'tish jamiyat hayotining har bir jabhasida amalga oshiriladigan tub sifat o'zgarishlari orqali sodir bo'ladi.

Mamlakatdagi ijtimoiy o'zgarishlar va iqtisodiy o'sish sur'atlariga g'ov bo'luvchi an'anaviy qadriyatlarni yengish, ularni xo'jalik sub'ektlarining innovatsion faoliyati – yangi texnologiyalarni yaratish, tarqatish, yangi tashkiliy iqtisodiy munosabatlarni yo'lga qo'yishga undovchi qadriyatlarga almashtirish – modernizatsiya jarayoni orqali kechadi.

Modernizatsiya - (fran. moderisatio, modere - eng yangi; ingl. modernization - yangilanish, zamonaviylashtirish) — industriallashtirish, sanoatlashtirish davrida agrar, tarixiy va zamonaviy jamiyatlar taraqqiyotining yangi bosqichga ko'tarilishini ifoda etuvchi ijtimoiy jarayon bo'lib, zamonaviy talablarga muvofiq o'zgarish va takomillashtirishni anglatadi. U jamiyat hayotining barcha jabhalari: iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy sohaning modernizatsiya qilinishini taqozo etadi.

Modernizatsiya nazariyasi doirasida shakllangan liberal yo'nalish talqiniga muvofiq, modernizatsiya an'anaviylikdan zamonaviylikka o'tishni, ya'ni g'arblashtirishni anglatadi. Liberal modernizatsiya nazariyasi tarafdorlari fikricha, barcha mamlakatlar yagona jadval va namuna asosida rivojlanadi. Modernizatsiyalashayotgan mamlakatlar uchun bozor iqtisodiyoti, yangi axborot texnologiyalari, kommunikatsiya tarmog'i rivojiga asoslangan ijtimoiy mobillik, oqilonalik, plyuralizm, demokratiya hukmron bo'lgan ochiq jamiyatni qaror toptirishga intilish xos ekanligi ta'kidlanadi [Козловски П. 1997. -с.175].

Modernizatsiya jarayoni tadqiqiga nisbatan shakllangan liberal yondashuv qator nuqtai-nazarlardan tanqid qilingan. Masalan, radikallar modernizatsiya nazariyasining o'zga sivilizatsiyalar uchun foydasiz bo'lgan g'arb qadriyat va modellari ta'sir doirasini boshqa mamlakatlarga yoyishga qaratilgan yorqin mafkuraviy ustunlik jihati mavjudligiga urg'u bersalar, konservativ yo'nalish

vakillari esa modernizatsiya jarayonining siyosiy faollik va instituttsionallashtirish, siyosiy barqarorlik va tartibni saqlash borasida rivojlanayotgan mamlakatlarning milliy va tarixiy xususiyatlarini inobatga olgan holda rivojlanish jarayonining yo'nalishi va xarakteriga muvofiq ichki ziddiyatlar o'sib borishiga imkon berishiga urg'u beradilar (MDH davlatlari tajribasi asosida). Modernizatsiyaning liberal yondashuviga oid keltirilgan ushbu tanqidlar o'rinli ekanligini ijtimoiy voqelik namoyon etmoqda. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlarda davlatning milliy va hududiy o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda olib borayotgan puxta o'ylangan islohotlarigina yangilanish, taraqqiyotning nisbatan yuqoriroq bosqichlariga erishishda ichki ziddiyatlarning bartaraf etib borilishiga olib keladi. Demak, modernizatsiyalash - markazlashgan holda boshqariluvchi ijtimoiy tartibdan erkin raqobatli tartibga o'tishni ifodalovchi jarayon sifatida stixiyali kechmaydi. Modernizatsiyalashtirish jarayonlarida davlat muhim (Germaniya, Yaponiya) rol o'ynaydi. Xususan, mamlakatimizda jamiyat har bir sohasini liberallashtirish jarayonlari amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, davlat bozor mexanizmlarining amal qilishiga turli vositalar orqali (chunonchi, raqobat muhitini saqlash, iqtisodiyot sub'ektlarining erkin faoliyatini ta'minlash, jamiyat uchun kerakli bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish va h.k.) ko'maklashmoqda.

Jamiyat modernizatsiyalashuv jarayonida sodir bo'luvchi axloqiy va iqtisodiy o'zgarishlarga tayyor turishi lozim. Shuning uchun ham bu jarayonda siyosiy hokimiyatning strategik choralar ishlab chiqishi, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirishi va istiqbolli rejalari muhim ahamiyatga egadir.

Umumun olganda, ijtimoiy modernizatsiyalashuv - ochiq jamiyat shakllanishini nazarda tutadi. Ushbu jarayon jamiyatning barqaror muvozanatli tabaqalashuvi, ommaviy istemol ko'rsatkichi, hayot sifatining yuqori darajasi hamda davomiyligining o'sishi, fuqarolik jamiyati institutlarining yuzaga kelishi va rivojlanishi orqali namoyon bo'ladi. Fuqarolik jamiyati institutlarining roli tobora ortib boradi. Demokratik davlat boshqaruvidagi tizimli o'zgarishlar esa fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlanishi, ularga boshqaruvning ayrim vakolatlarini uzatish

hamda huquqiy maqomini yanada mustahkamlash va takomillashtirish orqali kechadi.

Yuqori differensiallashgan madaniyatning qaror topishi shaxsiy imkoniyatlarning tabiiy ifodalanishida taraqqiyot, mukammallik, samaradorlikning ortishi hamda individualizm rivoji madaniy modernizatsiyaning namoyon bo‘lish usullaridir. Madaniy tizim asosiy unsurlarining differensiallashuvi, savodxonlik va dunyoviy ta’limning o‘sishi, fan va texnologiyalarga ishonchning ortishi, yangi ijtimoiy jarayonlarga moslashuvga xizmat qiluvchi shaxsiy qiziqish, odat tavsiflarning shakllanishi, manfaatlar doirasining ortishi bu soha modernizatsiyalashuvining belgilari hisoblanadi. Bularning barchasi G‘arbiy Yevropa ijtimoiy voqeligida qaror topdi. G‘arbda amalga oshirilgan islohotlar madaniy modernizatsiyaning muhim bosqichlari sifatida Uyg‘onish, gumanizm, Ma’rifatparvarlik davrlariga olib keldi. Madaniy modernizatsiya zamonaviy tabiiy fanlar (XYII-asrdan), gumanitar fanlar (XIX-XX asrlar) rivoji bilan bog‘liq, XYIII-XX asrlarda madaniy hayotdagi o‘zgarishlar an’anaviy qadriyat (oila, axloq, din)larning roli qisqarib borishi, ommaviy madaniyatning yuzaga kelishi, madaniyatlarning differensiallashuviga olib keldi.

O‘zbekiston jamiyati ma’naviy sohasining yangilanishi xalqimizning asrlar osha saqlanib kelayotgan ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlari tiklanishi asosida har bir insonning o‘zligini anglashi, ulug‘ ajdodlarimiz merosini chuqurroq o‘zlashtirishida namoyon bo‘ladi. Zero, bizning merosimizda insonning ma’naviy, siyosiy va diniy faoliyatlarida bilimning qadri yuqori darajada baholanganligi, IX-XIY asrlarda Markaziy Osiyoda intellektual-ma’rifiy, diniy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy muhitda dunyoviy bilimlarning qadrlanishi tabiiy-ilmiy fanlarning yuksak darajada rivojlanishi, taqvodorlik, faoliyatlilik, ijtimoiy qadriyatlardan hech qaysisi "bilim"dek e’tiborga ega emasligi o‘sha davr ijtimoiy muhitiga xos muhim sifat belgisi hisoblanadi. Demak, bilim va faoliyatning, intellektual va ma’naviy qadriyatlarning o‘zaro birligi jamiyat rivojini ta’minlaganligi tarixiy haqiqatdir. Intellektual va ma’naviy qadriyatlar uyg‘unligiga erisha olinishi mamlakatimizda

amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonining taraqqiyot mohiyatiga ega bo‘lishining garovidir. Zero, globallashuv davrida bilim asosiy ishlab chiqaruvchi kuch hisoblanadi. Yosh avlodni sharqona qadriyatlar asosida tarbiyalash bugungi globallashuv davri jarayonlariga ongli yondashuvni, mustaqil fikrlashni, mamlakatimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga daxldorlik tuyg‘usi bilan faoliyat yuritishni, o‘z Vatani uchun fidoiylik bilan kurasha olishni rivojlantiradi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, jamiyat tarixining tahlili taraqqiyot o’z mohiyatiga ko’ra ziddiyatli ekanligini namoyon qiladi. Ijtimoiy taraqqiyot g’oyasiga ba’zi olimlar asarlarida pessimistik kayfiyatda yondoshilsa-da, insoniyat shu kungacha yo’qotishlar evaziga bo’lsa ham taraqqiyot yo’lidan harakatlangan. Бугунги кунда инсон учун фаровон ҳаёт тарзини таъминлаш мақсади demokratik adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish зарурияти тақозо этади. Жамиятни либераллаштириш ва модернизациялаш унинг воситасидир.. Bu jarayonlar tadrijiy tasnifga ega bo‘lib, har bir mamlakat uchun uning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Biroq, ijtimoiy hayotda rivojlanishning yuqoriroq bosqichiga erishish maqsadida amalga oshirilgan sifat o‘zgarishlarining natijalari va oqibatlari doimo taraqqiyot mohiyatiga ega bo‘lavermasligi mumkin. Dunyo va milliy tarixiy tajribaga asoslangan, davlat va fuqaroning uzviy birlikdagi oqilona faoliyati, xalqning bir tanu bir jon bo‘lib mehnat qilishigina mamlakatni yuksak taraqqiyot marralariga erishishning asosiy omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi.** T harfi. – ZiyoUz elektron kutubxonasi. – 112 b. – Kirish manzili: www.ziyouz.com (murojaat sanasi: ___).
2. **G‘arb falsafasi.** Olimlarning sivilizatsiya muammosiga daxldor qarashlari. – Toshkent : Sharq, 2004. – B. 575–590.
3. **Yaspers K.** Istoki istorii i yeyo tsel’ // Smysl i naznachenie istorii. – Moskva : Politizdat, 1991. – S. 32–38.
4. **Hantington S.** Stolknovenie tsivilizatsiy. – Moskva : AST, 2003. – 603 s.

5. **Fukuyama F.** Konets istorii i posledniy chelovek : per. s angl. M. B. Levina. – Moskva : AST, 2004. – Elektron manba. – Kirish manzili: http://www.nietzsche.ru/ (murojaat sanasi: ___).
6. **Kozlovski P.** Kul'tura postmoderna. – Moskva, 1997. – 175 s.

DIN PSIXOLOGIYASIDA KOMIL INSON STRUKTURASI

To‘rayeva Dilnavo Uyg‘un qizi
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada din psixologiyasida "komil inson" tushunchasining mazmuni, uning shakllanish omillari va psixologik strukturasiga oid nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Komil insonning ma'naviy, axloqiy, emotsional va irodaviy sifatlari diniy-ma'rifiy manbalar hamda zamonaviy psixologik nazariyalar asosida izohlangan. Shuningdek, shaxsning kamolotga erishish jarayonida e'tiqod, ruhiy barqarorlik, o‘zini anglash va motivatsiya kabi komponentlarning o‘rni yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Komil inson, din psixologiyasi, shaxs kamoloti, ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod, o‘zini anglash, ruhiy barqarorlik, motivatsiya, diniy qadriyatlar.*

Аннотация: *В данной статье анализируется содержание понятия «совершенный человек» в психологии религии, факторы его формирования и теоретические подходы, раскрывающие психологическую структуру этого феномена. Духовные, нравственные, эмоциональные и волевые качества совершенного человека рассматриваются на основе религиозно-просветительских источников и современных психологических теорий. Кроме того, освещается роль таких компонентов, как вера, духовная устойчивость, самосознание и мотивация в процессе совершенствования личности.*

Ключевые слова: *Совершенный человек, психология религии, развитие личности, духовно-нравственные качества, вера, самосознание, духовная устойчивость, мотивация, религиозные ценности.*

Annatation: *This article analyzes the content of the concept of "perfect human" in the psychology of religion, its formation factors, and theoretical approaches related to its psychological structure. The spiritual, moral, emotional, and volitional qualities of the perfect human are explained based on religious and educational sources, as well as modern psychological theories. Furthermore, the role of components such as faith, spiritual stability, self-awareness, and motivation in the process of a person achieving perfection is highlighted.*

Keywords: *Perfect human, psychology of religion, personal perfection, spiritual and moral qualities, faith, self-awareness, spiritual stability, motivation, religious values.*

Bilamizki insoniyat tarixi davomida har bir madaniyat va diniy tizim o‘zining ideal inson modeli – “komil inson” tushunchasini shakllantirgan. Bu ideal shaxsning eng yuqori axloqiy, ma’naviy va intellektual fazilatlarini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, insoniyatning o‘z-o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan intilishini aks ettiradi. Din psixologiyasi ushbu tushunchani ilohiyot yoki falsafadan farqli o‘laroq, shaxsning ichki psixik tajribalari, xulq-atvor motivlari, hissiy holatlari va kognitiv jarayonlari orqali o‘rganadi. U diniy e’tiqod va amaliyotlarning inson psixikasiga ta’sirini, shaxsiyatning shakllanishiga va uning komillik sari intilishiga qanday hissa qo‘shishini tahlil qiladi.

Din psixologiyasi insonning diniy ongini, e’tiqodiy tajribasini, ruhiy holatlari va xulq-atvoridagi diniy omillarni ilmiy asosda o‘rganuvchi fan sifatida shaxs kamoloti masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Shu nuqtayi nazardan, “komil inson” fenomeni diniy manbalarda, falsafiy adabiyotlarda va psixologik nazariyalarda markaziy tushuncha hisoblanadi.[112] Komillik g‘oyasi shaxsning ruhiy barqarorligi,

[112] Qodirova D. Shaxs psixologiyasi. — Toshkent: Fan, 2017. — 240 b.

axloqiy mukammalligi, ijtimoiy mas’uliyati va ma’naviy yetukligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u insonning o‘zini anglash jarayoni va hayotiy qadriyatlar tizimining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Islomiy adabiyotlarda komil inson modeli qalb, nafs, ruh va aqlning mutanosib uyg‘unligida namoyon bo‘ladigan murakkab ruhiy-axloqiy tuzilma sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv zamonaviy psixologiya nazariyalari, xususan, shaxs rivoji, motivatsiya, axloqiy ong, ijtimoiylashuv va o‘zini namoyon qilish konsepsiyalari bilan uyg‘unlashadi. Demak, komil insonning strukturasi nafaqat diniy aqidalar, balki psixologik jarayonlar, shaxsiy xususiyatlar va ijtimoiy muhit bilan ham belgilanadi.

Mohiyatan, komil inson - bu, xulgi va ma’naviy dunyoqarashi, shu dunyoqarashining amalda isbotlay olgan, bu dunyo va malakut olami uchun har tomonlama takommillikning avj nuqtasiga yetishgan "inson" farzandiga aytiladi.[113] Inson-bu yorug‘ olamdagi jamiki jonzotlar ichra eng mukarrami. Odamzod yaralganidan buyon unga axloq va ma’naviyat hamroh bo‘lib kelyapti. Biz esa dunyodagi axloqni o‘ta yuksak darajalarga ko‘targan xalqmiz. Chunki milliy qadriyatlarimizning tag zamirida aynan axloqiy tarbiya yotadi.

“Komil inson” tushunchasi turli dinlarda turlicha nomlanishi mumkin (masalan, islomda “Insan-i Kamil”, xristianlikda “aziz”, buddizmda “arhat” yoki “bodxisattva”), ammo ularning barchasida umumiy jihatlar mavjud: bu shaxsning axloqiy poklik, ma’naviy yuksaklik, ichki tinchlik, hikmat va boshqalarga nisbatan mehr-shafqat kabi fazilatlarga ega bo‘lishidir.

Islom falsafasi va tasavvufida “Insan-i Kamil” tushunchasi markaziy o‘rin tutadi. Bu tushuncha insonning Alloh tomonidan yaratilgan eng mukammal mavjudot ekanligini, uning ilohiy sifatlarning aksini o‘zida mujassam etish salohiyatiga ega ekanligini ta’kidlaydi. Qur’oni Karimda insonning “eng go‘zal suratda” yaratilganligi (“At-Tiyn” surasi, 4-oyat) va unga “ruhdan puflanganligi”

[113] Maslow A. Motivation and Personality. — New York: Harper & Row, 1987. — 293 p

(“Al-Hijr” surasi, 29-oyat) ta’kidlanadi. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) esa komil insonning eng yorqin namunasi sifatida e’tirof etiladi. U zotning hayoti va sunnatlari komillik sari intiluvchi har bir musulmon uchun o‘rnakdir.[114]

Islom mutafakkirlaridan Imom G‘azzoliy o‘zining “Ihyo Ulumid-Din” asarida insonning nafsini poklash (tazkiyat al-nafs) va axloqiy kamolotga erishish yo‘llarini batafsil bayon etgan. Uning fikricha, insonning qalbini yomon sifatlardan tozalab, yaxshi sifatlar bilan bezash orqali komillikka erishish mumkin. Ibn Arabiy esa “Insan-i Kamil”ni ilohiy ismlar va sifatlarning to‘liq namoyon bo‘lishi, koinotning kichik nusxasi (mikrokosmos) sifatida tushuntirgan.[115]

Din psixologiyasi komil insonni diniy ta’limotlarning shaxsga ta’siri natijasida shakllanadigan psixologik fenomen sifatida ko‘rib chiqadi. U ilohiy buyruqlarning shaxsning ichki motivlariga aylanishi, diniy amaliyotlarning hissiy va kognitiv jarayonlarga ta’siri, shuningdek, diniy jamoaning shaxsiyat rivojlanishidagi rolini o‘rganadi. Gordon Allportning “yetuk diniy tuyg‘u” (mature religious sentiment) konsepsiyasi, Karl Yungning “individuatsiya” jarayoni, Abraham Maslouning “o‘z-o‘zini aktualizatsiya” (self-actualization) nazariyasi va Viktor Franklning “ma’no izlash” (search for meaning) g‘oyalari komil inson tushunchasini psixologik jihatdan tushunishga yordam beradi. Bu nazariyalar diniy tajribaning shaxsning butunligini, ichki uyg‘unligini va transsendent ma’no topishini ta’minlashdagi ahamiyatini ta’kidlaydi.[116]

Din psixologiyasida komil inson strukturasini quyidagi asosiy psixologik komponentlarga ajratish mumkin:[117]

1. Kognitiv komponent.

Bu komponent komil insonning dunyoqarashi, bilimi va tafakkur tarzini o‘z ichiga oladi. Komil inson nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlarga ham ega bo‘ladi.

[114] Qur’oni Karim. (O‘zbekcha ma’nolar tarjimasi va tafsiri).
[115] G‘azzoliy, Abu Homid Muhammad. (Ihyo Ulumid-Din).
[116] Jo‘rayev M., Sattorov, B. Dinshunoslik va din psixologiyasi. — Toshkent, 2018. — 220 b.
[117] Karimov U. Din psixologiyasi asoslari. — Toshkent: TDPU, 2020. — 180 b.

U voqelikni chuqur tushunadi, sabab-oqibat bog‘liqliklarini anglaydi va hayotiy muammolarga hikmat bilan yondashadi. Bu bilimlarni shaxsiy tajriba va diniy ta’limotlar sintezi orqali o‘zlashtiradi. Komil inson o‘zining ichki dunyosini, fikrlarini, hissiyotlarini va motivlarini chuqur anglaydi. U o‘zining kuchli va zaif tomonlarini biladi, o‘z-o‘zini tanqidiy baholay oladi va doimiy ravishda o‘z-o‘zini takomillashtirishga intiladi. Diniy introspektsiya va meditatsiya bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Komil insonning kognitiv komponenti mustahkam va izchil qadriyatlar tizimiga asoslanadi. Bu qadriyatlar diniy ta’limotlardan kelib chiqadi (masalan, adolat, halollik, mehr-shafqat, sabr) va uning qaror qabul qilish jarayonlariga, xulq-atvoriga yo‘nalish beradi.

2. Emotsional komponent.

Bu komponent komil insonning hissiy barqarorligi, ichki tinchligi va boshqalarga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Komil inson hayotiy qiyinchiliklar va stressli vaziyatlarda ham ichki tinchlikni saqlay oladi. Bu diniy e’tiqodning mustahkamligi, taqdirga ishonch va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati bilan bog‘liq. Komil inson nafaqat o‘z yaqinlariga, balki barcha tirik mavjudotlarga nisbatan chuqur mehr-shafqat va muhabbat tuyg‘usini his qiladi. Bu altruizm, empatiya va kechirimlilikda namoyon bo‘ladi.

Komil inson hayotning har bir lahzasidan, mavjud ne’matlardan shukronalik hissini tuyadi. Bu uning ichki baxtiyorligini va hayotdan qoniqishini ta’minlaydi. Diniy e’tiqod komil insonga kelajakka nisbatan umid va optimizm bilan qarashga yordam beradi, hatto eng qiyin vaziyatlarda ham ijobiy yechim topishga ishonadi.

3. Xulq-atvor komponenti.

Bu komponent komil insonning axloqiy me’yorlarga muvofiq harakatlarini va ijtimoiy faoliyatini o‘z ichiga oladi. Komil insonning xulq-atvori diniy va umuminsoniy axloqiy me’yorlarga to‘liq mos keladi. U adolatli, halol, rostgo‘y va mas’uliyatli bo‘ladi. Komil inson o‘zining shaxsiy manfaatlaridan ko‘ra, jamiyatga va boshqalarga xizmat qilishga intiladi. U muhtojlarga yordam beradi, xayriya ishlarida faol ishtirok etadi.

Komil inson o‘zining istaklarini, impulslarini va hissiyotlarini ongli ravishda boshqara oladi. U o‘z-o‘ziga intizomli bo‘lib, diniy amaliyotlarni va kundalik vazifalarni muntazam ravishda bajaradi. Diniy amaliyotlar (namoz, ro‘za, meditatsiya, zikr va boshqalar) komil insonning xulq-atvorining ajralmas qismi bo‘lib, uning ma’naviy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

4. Ma’naviy komponenti.

Bu komponent komil insonning ilohiy yoki mutlaq haqiqat bilan bog‘liqligini aks ettiradi. Komil insonning ma’naviy komponenti mustahkam iymon va e’tiqodga asoslanadi. Bu uning hayotiga ma’no beradi va ichki kuch manbai bo‘lib xizmat qiladi. Komil inson hayotning chuqur ma’nosini izlaydi va uni diniy ta’limotlarda topadi. Bu uning hayotiy maqsadlarini belgilaydi va unga yashash uchun kuch beradi. Komil inson o‘zining shaxsiy “men”idan yuqoriga ko‘tarilib, ilohiy yoki mutlaq haqiqat bilan bog‘liqlikni his qiladi. Bu uning cheksizlik va abadiylik bilan aloqasini anglashda namoyon bo‘ladi.

Barcha komponentlarning uyg‘unlashuvi natijasida komil inson ichki uyg‘unlikka erishadi. Uning fikrlari, hissiyotlari va harakatlari bir-biri bilan mos keladi, bu esa uning shaxsiyatini butun qiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimizki din psixologiyasida komil inson strukturasi shaxsning kognitiv, emotsional, xulq-atvor va ma’naviy komponentlarining uyg‘unlashuvidan iborat bo‘lgan murakkab va ko‘p qirrali fenomen hisoblanadi. Bu idealga erishish diniy e’tiqod, amaliyotlar, ijtimoiy muhit va shaxsning o‘z-o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan irodaviy intilishi orqali amalga oshadi. Komil inson modeli nafaqat diniy, balki umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida mujassam etib, shaxsning ichki uyg‘unligini, ijtimoiy mas’uliyatini va transsendent ma’no topishini ta’minlaydi.

Islomiy ta’limotlar inson psixikasining chuqur tushunchalarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, komil inson tushunchasini o‘rganish orqali insonning psixologik salomatligini mustahkamlash, axloqiy jamiyatni shakllantirish va shaxsiy baxtiyorlikka erishish yo‘llarini tushunishga muhim hissa qo‘shadi. Kelajakdagi

tadqiqotlar islomiy psixologiya (ilm an-nafs) va zamonaviy psixologiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni yanada chuqurroq o‘rganishga qaratilishi lozim.

Din psixologiyasi komil inson tushunchasini o‘rganish orqali insonning psixologik salomatligini mustahkamlash, axloqiy jamiyatni shakllantirish va shaxsiy baxtiyorlikka erishish yo‘llarini tushunishga muhim hissa qo‘shadi. Kelajakdagi tadqiqotlar turli diniy an’analardagi komil inson modellarining psixologik o‘xshashliklari va farqlarini chuqurroq o‘rganishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov U. Din psixologiyasi asoslari. — Toshkent: TDPU, 2020. — 180 b.
2. Jo‘rayev M., Sattorov B. Dinshunoslik va din psixologiyasi. — Toshkent, 2018. — 220 b.
3. Qodirova D. Shaxs psixologiyasi. — Toshkent: Fan, 2017. — 240 b.
4. Abdullayev X. Tasavvuf falsafasi va ruhiy tarbiya. — Toshkent: Movarounnahr, 2015. — 200 b.
5. Hasanxo‘jayeva O. Psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2019. — 320 b.
6. Navoiy, A. Mahbub ul-qulub. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2015. — 350 b
7. James, W. The Varieties of Religious Experience. — New York: Longmans, Green and Co., 2002. — 534 p.
8. Maslow, A. Motivation and Personality. — New York: Harper & Row, 1987. — 293 p.
9. Frankl V. Man’s Search for Meaning. — Boston: Beacon Press, 2006. — 165 p.
10. Jung, C. G. Psychology and Religion. — New Haven: Yale University Press, 1973. — 255 p.

OILAVIY AJRIMLAR, UNING SABAB VA OQIBATLARI HAMDA AJRIMLARNI OLDINI OLISH YO‘LLARI

Abduqaxxorov Elmurodjon Alijon o‘g‘li
Berdaq nomidagi Qoraqolpoq davlat universiteti

Baxtli oila qurishning ikki sharti bordir: yaxshi turmush o‘rtoqni tanlay bilmoq va yaxshi turmush o‘rtoq bo‘lmoq.
Jaloliddi Rumiy.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kundagi oilaviy ajrimlar statistikasi, uning sabab va oqibatlari hamda uni oldini olish yo‘llari qisqacha tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *oila, nikoh, er, xotin, ajrim, nizo.*

Аннотация: *В статье кратко анализируется современная статистика семейных разводов, их причины и последствия, а также способы их предотвращения.*

Ключевые слова*: семья, брак, муж, жена, развод, конфликт.*

Abstract: *This article briefly analyzes the statistics of family divorces today, their causes and consequences, and ways to prevent them.*

Keywords: *family, marriage, husband, wife, divorce, conflict.*

Bugungi kunda insonlar o‘rtasida yangi oilalarning qurilishi soni ko‘payishi bilan bir vaqtda oilaviy ajimlar ham ortib bormoqda. Oilaviy ajrim — bu nafaqat er-xotin o‘rtasidagi nikohning bekor bo‘lishi, balki jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti bo‘lgan oilaning buzilishi, shuningdek mexrga muhtoj bolalar sonining ortishi hamdir. Glaballashuv yildan-yilga jadallashmoqda. Hozirgi glaballashuv va uning tasirida tez o‘zgarayotgan ijtimoiy hayot sharoitida ajrimlar sonining ortib borayotgani nafaqat demografik, balki ma’naviy inqiroz belgisi sifatida ham talqin qilinmoqda. Bugungi kunda oilaviy ajrimlar masalasi nafaqat sotsiologlar, balki psixologlar, pedagoglar va huquqshunoslar butun ilm-fan uchun dolzarb ilmiy tadqiqot muammosiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi ma’lumotlariga ko‘ra 2025-yilning o‘tgan 9 oyi davomida respublikadagi fuqarolik sudlari

tomonidan 472932 ta fuqarolik ishi ko‘rib chiqilgan. E’tibor qilingan tomoni bu ishlarning 52507 tasi nikohdan ajratish haqidagi ishlardir. Sudlar tomonidan bu turkumdagi da’vo talablarining 27578 tasi qanoatlantirilgan ya’ni ularning nikohlari bekor qilingan, Da’volarning qolgan 18430 tasi rad qilingan-nikohi bekor qilinmagan, 1841 ta da’vo bo‘yicha ish yuritish tugatilgan[1]. Ushbu keltirilgan ma’lumotlar faqatgina sudlar orqali qayd etilganigina xolos, qonunchiligimizga ko‘ra shaxslar FHDYO bo‘limlarida nikohga kirishlari va nikohdan ajralishlari mumkin. Agar biz FHDYO bo‘limarida qayd etilgan va faktik (qonuniy ravishda biror davlat vakolatli organida qayd etilmagan) ajrimlar sonini qo‘shib hisoblasak bu miqdor yanaham ortishi mumkin.

Ajrimlarning asosiy sabablari:

Oilaviy ajrimlarni o‘rganadigan bo‘lsak, uning ko‘plab sabablari mavjud ekanligini ko‘rish mumkin. Biz bu sabablarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin bular: ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik va ma’naviy-axloqiy sabablar.

Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy sabablar -bu oiladagi iqtisodiy qiyinchiliklar, ishsizlik, uy-joy muammolari, nikohdan oldin taraflarning bir-birlaridan kasallik yoki kamchiliklarini yashirishi;

Ikkinchidan, psixologik sabablar-o‘zaro tushunmovchilik, sabrsizlik, hissiy muvozanatning yetishmasligi, oilaviy zo‘ravonlik holatlari. Bir-birini hurmat qilish madaniyatning pastligi. Kun.uz ijtimoiy tarmog’ining 2025-yil 13-oktyabrda taqdim etgan ma’lumotlariga ko‘ra Mamlakatimizda 2025 yil yanvar-avgust oylarida Jinoyat kodeksining 126^1-moddasi (oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik) bilan 298 nafar shaxs sudlangan va ularning 81 nafari ozodlikdan mahrum etilgan. Bu ko‘rsatkich 2024 yil bo‘yicha 472 nafarni tashkil etgan bo‘lib, shulardan 150 nafari ozodlikdan mahrum etilgan[2]. Shuningdek DARYO.UZ nashrining taqdim etgan ma’lumotiga ko‘ra, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 59^2-moddasi (oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik) bo‘yicha, 2024 yilda 16524 holat, 2025 yilning o’tgan 8 oyida esa 7624 holat aniqlanib ma’muriy javobgarlik choralari qo‘llangan, shundan 6585 nafar shaxsga ma’muriy qamoq jazosi tayinlangan. 2025-yilning dastlabki

choragida esa 24 mingdan ortiq ayolga himoya orderi berilgan, 1 700 nafarga yaqin ayolga psixologik va tibbiy yordam ko‘rsatilgan, 202 nafar ayol reabilitatsiya markazlariga joylashtirilgan [3]. Ushbu raqamlar nafaqat huquqbuzarlikni sonini bildiradi balki, shuncha oiladagi notinchliklarning soni hamdir.

Uchinchidan, ma’naviy-axloqiy omillar —ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’siri, milliy, diniy, axloqiy qadrytlarning yetishmasligi, oila qadriyatlariga e’tiborning kamayishi, erkinlik tushunchasining noto‘g‘ri talqin qilinishi, ro‘zg‘or boshqarishdagi mas'uliyatsizlik, befarqlik, oilaviy munosabatlarga uchinchi shaxslarning yarashtiruvchi sifatida emas balki urishtiruvchi sifatida aralashuvi, xiyonat, oilaviy fribgarlik bilan bog‘liqdir.

Ajrimlarning ijtimoiy va psixologik oqibatlari

Ajrimlar, avvalo, farzandlarning ruhiy holatiga salbiy ta’sir qiladi. Noto‘liq oilada o‘sgan bolalarda ishonch hissi yetishmasligi va agressivlik kuzatiladi. Bundan tashqari, jamiyatda demografik muvozanatning buzilishi, yolg‘iz onalar sonining ortishi sabab bo’ladi. Ajrimdan so’ng ayrim shaxslarda turar joy muammosi paydo bo‘ladi. Bola bilan ota-onasinikida yashash qiyin. Ijara narxi esa qimmat. To‘langan aliment bu pulning to‘liq qoplamasligi mumkin. Oz bo‘lsda kelayotgan moddiy ta’minot butkul to’xtaydi. Ajrashgan ayollarga jamiyatda noto‘g‘ri ko‘z bilan qaraladi: intim munosabatlar taklif etiladi, ijaraga qo‘yishni xohlashmaydi. Ajrashgan insonlarda tartibsiz jinsiy munosabatlar yuz berishi buning natijasida OIV kabi yuqumli kasalliklar yuqtirishi va uni boshqalarga ham yuqishida vositachi bo’lishi hamda boshqa oilaning er yoki ayoli bilan ishqiy munosabatga kirishib boshqa bir oilaning buzilishiga sabab bo’lishi mumkin. Ba’zi hollarda oilaviy ajrimlar yangi muammo-nizolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Farzandlar bilan uchrashish, bir taraf ikkinchi tarfga qasddan bolani ko‘rstmaydi, bolasiga ham ruhiy bosim o‘tkazib bolasiga otasi yoki onasi bilan uchrashmaslik buyuriladi. Keyinchalik bu holat sudda ko‘riladi va bu to‘sqinlik qilish holati sud qarori ijrosi jarayonida ham davom etadi. Yana shuningdek farzandlar ta’minotidagi alimet masalasi. Taraflar ba’zida bir-birlaridan o‘ch olish uchun alimentdan foydalanadlar

ikkinchi taraf esa jo‘rtaga alimentni berishdan qasddan bo‘yin tovlaydi. Janjal kattalashib alimentni undirish uchun ma’muriy, jinoiy javobgarlikka tortirishga borib yetadi va ular bir-biriga qarshi azaliy dushmanga aylanadilar. Ommaviy axborot vositalarida 2025-yilning 4-noyabr kuni Farg‘ona viloyatining O’zbekiston tumanida yashovchi 34 yoshli erkak aliment sababli shu yilning 3-noyabr kuni 27 yoshli turmush o‘rtog‘i va 2023-yilda tug’ilgan 2 yoshli qizini qasddan o‘ldirganligi haqida xabarlar tarqaldi [4]. Oilaviy nizo natijasida ikki inson hayotdan bevat ko‘z yumdi, erakak esa uzoq yillar jazo muddatini o‘tashga hukm qilinishi mumkin. Bizning fikrimizcha ajrim oilaviy nizoni hal qilishning mutloq to‘g‘ri yechimi emas aksincha insonda yaqin kelajakda yangi muammolarni boshlanishidir.

Ajrimdan so‘ng boshlangan nizolarning jinoyat bilan tugash holati Navoiy viloyati Tomdi tumanida ham qayd etilgan. A ismli erkak (shartli ismlar) B ismli ayol bilan 2008-yil nikohdan o‘tib oila quradilar va nikohlari davomida 3 nafar farzand ko‘radilar, ammo o‘zaro oilaviy janjallar natijasida ular 2020-yilda nikohdan ajrashadilar. Ular o‘ratasidagi nikohni bekor qilinishi ular o‘rtasida yangi uy-joy nizosini boshlanishiga sabab bo’ldi. Sobiq er-xotinlar nikoh davrida yashagan uy marhuma ayolning otasiga tegishli bo’lib, ayiblanuvchi ushbu uyda ich kuyov bo‘lib yashagan. Nikohi bekor qilingan ayol ajrimdan so‘ng sobiq erini uydan chiqarish haqida sudga da’vo kiritadi, sud qaroriga kora ayiblanuvchi yashab turgan uyidan chiqarilishi belgilanadi. Uydan chiqishni istamagan sobiq er muammoni yechish yo’li sifatida jinoyatga qo‘l uradi va sobiq ayoli, va u bilan birgalikda qayn otasi va qayn onasini ham o’z boshqaruvidsagi yuk moshinasi bilan ularni urib yuborib, bir necha bor ular ustidan haydaydi. Natijada jabrlanuvchilar voqea joyida halok bo’ladilar. Jinoyat ishlari bo‘yicha Navoiy viloyati Tomdi tuman sudining 2025-yil 15-iyuldagi hukmiga ko‘ra jinoyatchi kuyovga umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi [5]. Janjal natijasida 3 inson hayotdan ko‘z yumdi, yana bir inson butun umrini panjara ortida o‘tkazishga mahkum etildi, 3 nafar voyaga yetmagan bollalar esa ota-onasiz qoldi.

Oilaviy ajrimlarning oldini olish yo‘llari

Rivojlangan davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo’lsa ular ajrimlarni oldini olish uchun turli xil metodlarni qilganligini ko’rishimiz mumkin. Filipin va Vatikanda ajrimlar taqiqlangan. Ayrim davlatlarda ajrim uchun to’lovlar narxi qimmat buning natijasida barcha insonlar ham ajrim uchun da’vo kirita olmaydilar. Bizni fikrimzcha ajrimlarni kamaytirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda tizimli ishlar olib borilishi lozim.

Eng avvalo insonlarda oila degan tushunchaning mazmun mohiyatini nima uchun insonlarning oila qurishlari lozimligini, oila qurishdan maqsadi nima ekanligini tushuntirishimiz lozim. Biz yuqorida ajrimlarning bir nechta sabablariga qisqacha to‘xtaldik, ajrimlarni oldini olish uchun sabablarning kelib chiqish omillarini bartaraf etishimiz lozim. Iqtisodiy omillar yuz bermasligi uchun farzandlarimizni kasb-hunarli, ilmli qilib tarbiyalab voyaga yetkazishimiz lozim. Ayrim ota-onalar farzandlari 18-20 yoshga yetishi bilanoq uni uylantirish “tashvishiga” tushib qoladilar. Qonunchiligimizga ko’ra 18 yoshga to‘lgan shaxslar oila qurishlari mumkin deyilgan. Qonunchilik bu yerda yosh senzini ya’ni huquqni vujudga kelish vaqtini ko’rsatib o’tgan. Ota-onalar ba’zida oila qurmoqchi bo‘lgan shaxsni o‘zi ham oila qurganidan so‘ng oilasini moddiy jihatdan ta’minlay olishga imkoni yo‘qligini, shu moddiyotni topish uchun kas-hunari yo‘qliginini yoki biror ilm sohasini egalamaganligini bilsa ham tavakkal qilib oila quradilar. Muqaddas dinimizda ham imkoniyati bo‘lgan shaxslarning oila qurishlari zarurligi, agarda imkoni bo’lmasa imkoniyat tugilgunga qadar ro‘za tutib sabr qilishlari lozimligi haqida hadislar keltirilgan. Ota-onalar farzandlarini tarbiyasi chog‘ida insonni nima uchun kasb-hunar yoki ilm egalllashi lozimligi, uning foydasi va zararini uqtirib farzandlarini ilmli bo‘lishga, kasb hunar o‘rganishiga davat qilishlari va bu borada o‘zlari ularga o‘rnak na’muna bo‘lishlari lozim.

Xalqimizda oyni etak bilan yopib bo’lmaydi degan ibratli maqol bor. Ammo jamiyatimizda bazi kimsalar to’y o‘tgandan so’ng hech nima dey olmaydi. Birga yashab ketaveraman, hozir bular haqida gapirsam to‘y bo’lmasligi mumkin degan fikrda o‘zlaridagi kasaliklar (masalan tanadagi oq yoki boshqa dog‘lar,

Epilepsiya(tutqanoq), OITS yoki biror bir jarohat izlari) yoki biror tana azosini yetarli darajada rivojlanmaganligi haqidagi kamchiliklarni yashiradilar. Bizni fikrimizcha bu kabi kamchiliklarni to‘ydan oldin yashirish to‘g‘ri emas. Chunki shu kabi holatlar yuz bergan ayrim kimsalar birga yashab ketishi mumkin lekin ko’pchilik insonlar bu kabi aldovlarni kechirmasdan oilaviy rishtalarni uzmoqdalar. Shuning uchun inson har doim rost so‘zlagani maqul.

Ikkinchida ko‘rsatilgan, psixologik sabablarga qarshi kurashishda nikohlanuvchi shaxslarda psihologik va huquqiy madaniyatni yuksaltirishimiz lozim. Psihologik madaniyat inson asabiylashib stresga tushganda, hissiy muvozanati buzilganda namoyon bo’ladi shu holatlarda insonlar o‘zini-o‘zi boshqarishni bilishlari lozim. Ayrim insonlar jahlim chiqgani uchun bilmasdan gapirib yubordim yoki stresga tushib urib yubordim deydilar. Ayrim holatlarda erkaklar o‘z ruhiyatlarini boshqara olmasdan jahli chiqqgan vaqtda diniy nuqtai nazardan oilani buzilishiga sabab bo’ladigan “taloq” so‘zini aytib yuboradilar.

Jamiyatimizga e’tibor qilsak ko’p holatlarda qizlar ayrim holatlarda yigitlar maktabni tamomlashlari bilan oila quradilar. Bizning fikrimizcha bu holatni inobatga olgan holda yoshlarimizni oilaviy munosabatlarga tayyorlash uchun maktablarimizda 10-11-sinflarda oila psihalogiyasini fan sifatida o‘qitishimiz lozim. Buning natijasida yoshlarimizda oilaviy munosabatlar haqida bilimlar shakillanadi. Yosh oila qurganlar ko’p holatlarda o’zlaridagi psihalogik muammolarni hal qilish uchun psiholik qabuliga uyalib yoki qo’rqib bormaydilar. Ular mustaqil ravishda internetdan o’zlarida kechyotgan jarayon bo’yicha ma’lumot izlaydilar. Ammo internetdagi ma’lumotlarning barchasi ham to‘g‘ri va ishonchli emas. Bu holatlar voqealarning fojiali tus olishiga sabab bo‘lishi mumkin bazan. Biz maktablarda oila psihalogiyasini o’rgatish orqali yoshlarimizni “soxta bilimlar”dan asraymiz.

Ayrim insonlar beparvolik, ma’sulyatsizlik bila o‘z oilasiga vaqt ajratmaydi, buning sababi sifatida ish bilan bandligi, bo‘sh vaqti bo’lmayotganligini keltiradi. Vaholanki, Amaldagi mehnat kodeksining 191-moddasida ish vaqti rejimi belgilangan bo‘lib unga ko’ra xodimlar ikki kun dam olinadigan besh kunlik ish

haftasi, bir kun dam olinadigan olti kunlik ish haftasi rejimida ishlaydilar [6]. Shuningdek, Prezidentimizning 2025-yil 19-iyundagi “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-95-son Farmoniga ko‘ra davlat xizmatchilari yakshaba kunini oila kuni sifatida o‘tkazishlari va har bir vazirlik va idoralarda davlat xizmatchilarining oila a’zolari uchun “oila kuni” tadbirlari (family day) tashkil etilishi belgilangan [7]. Bizning fikrimizcha oilaviy muloqatning muntazab bo‘lishi, oila mustahkamligini ta’minlashda muhimdir.

Bizning fikrimizcha oila mustahkamligini ta’minlashda huquiy madaniyatning o‘rni muhimdir. Shaxslarda oiladagi huquqiy madaniyat oila a’zosi sifatida huquqlardan foydalanishi va majburiyatlarini bajarishida namoyon bo’ladi. Huquq shaxsda nafaqat erkinliklarni balki, majburiyat va ma’sulyatni ham ifodalaydi. Oila kodeksini 18-moddasiga ko‘ra “Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ro‘yxatga olingan paytdan boshlab nikohni tuzganlar er-xotin deb hisoblanadilar va shu paytdan e’tiboran ular o‘rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatlari vujudga keladi” [8]. Oila kodeksini 5 bobida Er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari to‘liq yoritilgan. Bugungi kunda ayrim shaxslar oilada o‘zining qanday huquqlar borligini bilib foydalansalarda ammo majburiyatlarini bajarilishi vaqtida bundan qochishga harakat qiladi. Biz oilada huquqiy madaniyatni yuksaltirishimiz uchun ta’lim muassasalarida 8-sinfdan boshlab oila huquqini alohida fan sifatida o‘rgatishimiz loim. Ushbu fan dasturiga nafaqat oila kodeksini balki, oilaviy munosabatlarga bog‘liq bo’lgan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodek, jinoyat kodeksi moddalarini o‘rganishni kiritishimiz lozim. Buning natijasida farzandlarimizda oilaviy munosabatlardagi huquqlar qolaversa bu munosabatlardagi o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan huquqiy ta’sir choralari haqida bilimga ega bo’ladilar. Bu harakatlar kelgusida oilaviy ajrimlarni kamayishiga sabab bo’lishi mumkin. Bugungi kunda ta’lim muassasalarimizda 8-sinfdan boshlab huquqshunoslik fanlari

o‘qitiladi. Ushbu fan mavzularini o‘rganadigan bo‘lsak bizningcha ushbu fan dasturidagi ma’lumotlar shaxslarda oilaviy huquqiy madaniyatning to‘liq darajada shakillanishi uchun yetarli darajada emas.

Amaldagi oila kodeksimizning 31-moddasida nikoh shartnomsi haqida normalar mavjud . Nikoh shartnomasini tuzish ixtiyoriy bo‘lganligi sababli, ushbu shartnoma deyarli rasmiylashtirilmaydi. Nikoh shartnomasi nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo‘lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi hisoblanadi. Shaxslar bu kabi shartnomani nikohga kirishishidan oldim ham nikoh davrida ham tuzishlari mumkin. Jamiyatimizdagi bazi bir insonlar bu normani to‘g‘ri tushunmaydilar. Bir taraf ikkinchi tarafga nikoh shartnomasini tuzish taklifini kiritsa ertaga ajrashish niyati bor deb tushunadilar. Aksincha bu shartnoma er-xotinning munosabatlaridagi muvozanatni ta’minlovchi shartnomadir. Ayrim holatlarda er yoki xotin nkoh davrida topilgan mulklarni o‘ziga o‘zlashitirb ajrshib ketadi ikkinchi taraf esa moddiy qiyinchiliklar ostida qoladi. Bazi bir holatlarda er-xotin biri boshqasini nomiga kredit olib uni o’z ehtiyojlari uchun sarflab, to‘lash majburiyati kelganda esa kredit seni nominga olingan deb nikohdan ajrab, uni qiyin ahvolga solib tashlab ketmoqda. Nikoh shartnomasini tuzish bugungi kunda ixtiyoriy bizning fikrimizcha ushbu huquq normasini amjburiy qilishimiz lozim bu kelgusida ajrimlarning sonini kamayishiga, uni oldini olishga ijobiy tasir qiladi.

Uchunchi ma’naviy-axloqiy sabablarni kelib chiqish omillariga qarshi kurashish uchun insonlar umuminsoniy, milliy, diniy qadryatlarni bilishlari unga hurmat bilan qarashlari lozim. Shuningdek bu borada to‘g‘ri jinsiy tarbiyaga e’tibor qaratishlari lozim bizning fikrimizcha. Chunki noto‘g‘ri jinsiy tarbiya natijasida shaxs pedofillik, besoqolbozlik kabi illatlarga duchor bo’lishi mumkin. Bizning milliy va diniy qadryatlarimizga ko’ra nikohda ayol kishining iffati muhim hisoblanadi, ammo jamiyatda ayrim kimsalar jinsiy erkinlik tushunchasini noto’g’ri tushunmoqdalar. Hattoki nikoh kechalarida ayrim qiz-kelinlarni iffatsiz ekanligi ma’lum bo’lmoqda. Bu esa insonlar va jamiyat tomonidan keskin qoralanadigan

axloqsizlikdir. Bu kabi holatlarning yuz bermasligi uchun ota-onlar farzand tarbiyasida to‘g‘ri jinsiy tarbiyaga ham e’tibor qaratishlari lozim. Zero hayo, or-nomus oila mustahkamligini ta’minlovchi muhim belgilardir. Dunyoning ayrim davlatlarida qonuniy jihatdan ruhsat etilgan bo’lsada bir xil jins vakillarini o’zaro munosabatga kirishishi, oila qurib yashashi axloqsizlikdir. Bu kabi axloqsizliklar jamiyatga, oilaga salbiy tasir etmoqda. Bizning qonunchiligimizga ko’ra bir xil jins vakillarini oila qurib yashashlari, o’zaro munosabatga kirishishlari mumkin emas bu kabi holatlar uchun jinoyat kodeksining 120-moddasida jinoiy javobgarlik belgilangan[9]. Daryo.uz nashrining 2021-yil 23 aprelda telegram ijtimoiy sahifasida e’lon qilgan ma’lumotiga ko’ra 2016-2020-yillar davomida ushbu jinoyat turi bilan javobgarlikka tortilgan shaxslar 44 nafarni tashkil etgan. Jumladan 2016 yilda 6 nafar; 2017 yilda 15 nafar; 2018 yilda 7 nafar; 2019 yilda 7 nafar; 2020 yilda 9 nafar kishi Jinoyat kodeksining 120-moddasi bilan javobgarlikka tortilgan [10]. Garchi bizni yurtimizda soni ozchilikni tashkil qilgan bo’lsada bu kabi illatlarga qarshi axloqiy va huquqiy yo’l bilan kurashishimiz lozim. Jamiyat a'zolarida axloqiy jihatdan bu kabi ishlarning axloqsizlik ekanligi haqidagi bilimlarni shakillantirishimiz, huquqiy jihatdan esa jnoyatga jazo muqararligi prinsipini ta’minlashimz muhimdir. Biz birgalikda bu illatlarning ildiz otishiga qarshi kurashsak ular bizni jamiyatimizdan tozalanadi. Bu esa ajrimlarni oldini olishga yordam beradi.

Bizningcha uchinchida ko’rsatilgan sabablarning oimillariga nisbatan jaholatga qarshi ma’rifat shiori bilan ish tutmog‘imiz o‘rinlidir. Buning uchun esa har bir oilada “Ma’naviy kutubxona” tashkil qilinishi, bu kutubxonada inson ma’naviyati va axloqini boyituvchi jaxon va milliy adabiyotimiz durdonalari bo‘lishi va bu kitoblar o‘qib o’rganilishi judam muhimdir. Jumladan marhum shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining “Ijtimoiy odoblar” “Baxtiyor oila, marhum Usmonxon Alimovning “Oilada farzand tarbiyasi” kitoblarida oilaviy munosabatlarimiz yaxshilanishiga sabab bo‘luvchi o’gitlar berilgan. Bu kitoblarni o‘qish orqali biz odob va odobsizlik nima, oil nima, oilada er va xotining ma’naviy

axloqiy jihatdan qanday huquqlari, majburiyatlari ma’sulyatlari borligi, farzand tarbiyasida nimlarga e’tib qilish lozimligi haqida bilimlarga ega bo’lamiz.

Bizning milliy ma’naviyatimiz, qadryatlarimiz asosi dindir. Muqaddas dinimizga qoidalariga ko‘ra oilaning asosi shariy nikoh hisoblanadi. Nikoh so‘zi arabcha nakiha felidan kelib chiqgan bo‘lib yopishtirish, bo‘g‘lash degan ma’nolarni anglatadi. Oila insonlarni buzuqilikdan saqlovchi, naslini davom ettirishga imkon beruvchi hilqatdir.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy ajrim — bu faqat ikki inson o‘rtasidagi nizoning yakuni emas, balki butun jamiyat va davlatning ijtimoiy barqarorligiga, taraqqiyotiga tahdid soluvchi muammo. Shuning uchun ham har bir inson, ta’lim muassasasi, mahalla va davlat organi bu masalada o‘z mas’uliyatini chuqur his etishi o‘ziga yuklatilgan majburiyatini bajarishi zarur. Oilaviy ajrimlarning kamayishi mamlakatning ma’naviy yuksalishi va qonunchilikni mustahkamlanishining muhim belgilaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Ўзбекистон Республикаси Олий суди.** Судлар томонидан 2025 йилнинг 9 ойида кўриб чиқилган фуқаролик ишлари юзасидан ахборот [Электрон ресурс]. – Режим доступа: https://t.me/oliysuduz (мурожаат санаси: ___).
2. **KUN.UZ.** O‘zbekistonda 81 kishi oilaviy zo‘ravonlik uchun ozodlikdan mahrum etildi [Elektron resurs]. – 2025. – URL: https://kun.uz/news/2025/10/14/ozbekistonda-81-kishi-oilaviy-zoravonlik-uchun-ozodlikdan-mahrum-etildi (murojaat sanasi: ___).
3. **Daryo.uz.** O‘zbekistonda oilaviy zo‘ravonlik sabab qamalganlar soni ma’lum bo‘ldi [Elektron resurs]. – 2025. – URL: https://daryo.uz/2025/10/13/ozbekistonda-oilaviy-zoravonlik-sabab-qamalganlar-soni-malum-boldi/ (murojaat sanasi: ___).
4. **Zamon.uz.** Farg‘onada 34 yoshli erkak aliment sabab xotini va 2 yoshli qizchasini o‘ldirdi [Elektron resurs]. – URL:

https://zamon.uz/detail/fargonada-erkak-aliment-janjali-ortidan-xotini-va-ikki-yoshli-qizini-pichoqlab-oldirdi-39928 (murojaat sanasi: ___).

5. **Qalampir.uz.** Qaynonasi, qaynotasi va xotinini yuk mashinasida bosib ketgan erkak qamaldi [Elektron resurs]. – URL: https://qalampir.uz/uz/news/k-aynonasi-k-aynotasi-va-khotinini-yuk-mashinasida-bosib-ketgan-erkak-k-amaldi-126776 (murojaat sanasi: ___).
6. **O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (yangi tahriri)** [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/ru/docs/-6257288 (murojaat sanasi: ___).
7. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.** Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: PF–95-son [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-7587464 (murojaat sanasi: ___).
8. **O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi** [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/ru/docs/-104720 (murojaat sanasi: ___).
9. **O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi** [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-111453 (murojaat sanasi: ___).
10. **Daryo.uz.** O‘zbekistonda besoqolbozlikda ayblanib, qamalgan mahbuslar soni ma’lum qilindi [Elektron resurs]. – 2021. – URL: https://daryo.uz/2021/04/23/ozbekistonda-besoqolbozlik-bilan-qamalgan-mahbuslar-soni-malum-qilindi/ (murojaat sanasi: ___).

LANGUAGE CHANGE: PROCESSES, EFFECNNS AND EXAMPLES

Hojiboyeva E’zoza Sherali qizi

Navoi state university

Annotation: *This article explores the dynamic nature of language change by analyzing its main causes, processes, and effects. It examines how social factors, technology, globalization, and internal linguistic mechanisms contribute to the evolution of English. The study demonstrates that phonological, morphological, syntactic, semantic, and lexical changes are natural and continuous aspects of linguistic development.*

Keywords: *language change, linguistic evolution, phonological change, semantic shift, globalization, technology,language contact,vocabulary development.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается динамическая природа языковых изменений. Анализируются основные причины, процессы и последствия этих изменений. Показано, как социальные факторы, технологии, глобализация и внутренние языковые механизмы влияют на развитие английского языка. Исследование демонстрирует, что фонологические, морфологические, синтаксические, семантические и лексические изменения являются естественными и непрерывными процессами языковой эволюции.*

Ключевые слова: *языковые изменения, языковая эволюция, фонологические изменения, семантический сдвиг, глобализация, технологии, языковые контакты, развитие словарного запаса.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada til o‘zgarishining dinamik tabiati yoritilib, uning asosiy sabablari, jarayonlari va ta’sirlari tahlil qilinadi. Maqolada ijtimoiy omillar, texnologiyalar, globallashuv va ichki lingvistik mexanizmlarning ingliz tilining rivojlanishiga ta’siri ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot fonologik, morfologik, sintaktik, semantik va leksik o‘zgarishlarning tabiiy va uzluksiz jarayon ekanini asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *til o‘zgarishi, til evolyutsiyasi, fonologik o‘zgarish, semantik siljish, globallashuv, texnologiya, til aloqasi, lug‘at boyishi*

Introduction

Language is a dynamic system that constantly evolves across time. These changes occur due to social, cultural, psychological, historical, and technological influences. Linguists view language change not as corruption but as a natural process that affects all levels of language: phonology, morphology, syntax, semantics, pragmatics, and vocabulary. This article examines the causes, types, effects, and examples of language change, supported by references from linguistic literature.

Throughout history, languages have undergone dramatic transformations. Old English (5th–11th centuries), influenced by Germanic and Norse languages, differed greatly from Middle English, which was reshaped by the Norman Conquest in 1066. As a result of Norman French influence, thousands of French-origin words entered English, including "court," "beauty," and "justice" (Baugh & Cable, 2013).

These historical interactions demonstrate that external forces such as invasion, migration, and cultural contact significantly shape linguistic evolution. English evolved into a blend of Germanic vocabulary, French grammar influences, and Latin-based academic terminology.

Causes of Language Change:

1. Social Factors

Language reflects social identity. Younger speakers often innovate with new slang and pronunciation patterns. Social groups such as teenagers, professionals, or online communities develop linguistic features that eventually spread into mainstream usage.Example: The slang term "lit" originally used within African American Vernacular English became widespread through music and social media.(Source: Trudgill, 2000)

2. Technological Influence

Technology introduces new communication forms. The rise of smartphones, the internet, and social media platforms has created new abbreviations and hybrid language forms.Example: Acronyms like LOL, BRB, and OMG emerged from early instant messaging and continue to evolve with digital communication.(Source: Crystal, 2006)

3. Language Contact

When communities interact, they borrow words, structures, and pronunciations. English has borrowed extensively from other languages.Examples:Algebra (Arabic), Cuisine (French), Tsunami (Japanese).(Source: Haspelmath, 2009)

4. Internal Linguistic Changes

Languages change from within as speakers simplify complex structures or shift pronunciations.Example: Old English had many noun endings (inflections), but Modern English relies mostly on word order.(Source: Aitchison, 2013)

5. Cultural and Political Changes

Political events, cultural trends, and ideological shifts influence language norms.Example: Inclusive language movements have popularized gender-neutral terms such as "firefighter" instead of "fireman."(Source: Holmes, 2013)

Types of Language Change

1. Phonological Change

Pronunciations shift over generations.Example: The Great Vowel Shift (15th–18th centuries) changed the pronunciation of English long vowels.(Source: Baugh & Cable, 2013)

2. Morphological Change

Word forms and structures evolve.Example: Loss of inflectional endings from Old English to Modern English.

3. Syntactic Change

Sentence structure changes gradually.Example: English moved toward a more fixed Subject–Verb–Object structure.

4. Semantic Change

Meanings broaden, narrow, or shift.

Examples:

Mouse: originally animal → now also a computer device.

Gay: originally meant "happy" → now refers to sexual orientation.(Source: Allan & Burridge, 2006)

5. Lexical Change

New words enter the language while others disappear.Example: The rise of words like selfie, influencer, or cryptocurrency.

Language Change in the Digital Age

Digital communication has accelerated change. Social media encourages shortened forms, visual symbols, and multimedia language.Example: Emojis now function as emotional markers, similar to gestures in spoken communication.(Source: Danesi, 2016)

Generational Differences in Language Change

Generations differ in their speech patterns. Younger speakers create trends; older generations often resist them.Example: Generation Z's use of phrases like "no cap" or "based" shows how slang evolves.

Modern English vocabulary expands rapidly due to science, technology, and globalization.

Examples:

Technical innovations → "blockchain," "AI," "biometrics"

Cultural trends → "cancel culture," "viral," "streamer"

Words like pager or cassette have become obsolete.

The Role of Globalization

Globalization increases contact between languages, facilitating borrowing and mixing.Example: Hinglish (Hindi-English mix) and Spanglish (Spanish-English mix) are results of global contact.(Source: Kachru, 2005)

Effects of Language Change

1. Cultural Expression

Language change reflects cultural evolution.

2. Communication Efficiency

Simplified structures can speed up everyday communication.

3. Preservation Challenges

Generational linguistic gaps may appear.

4. Linguistic Diversity

New dialects and varieties emerge as communities adapt language to identity

Grammaticalization

One important process is grammaticalization, in which full lexical words gradually evolve into grammatical markers. For example, the English future marker "will" originally meant "to want". Over centuries, its meaning weakened and shifted toward expressing future time. This phenomenon demonstrates how users reshape words to serve new communicative functions.

Pragmatic Change

Languages also change because speakers develop new pragmatic strategies to express politeness, emphasis, or emotional tone. Many modern English expressions such as "you know," "I mean," "like" began as meaningful verbs but now serve as discourse markers. Though often criticized, these features play a key role in structuring spoken interaction.

Reanalysis

Another mechanism is reanalysis, where a linguistic form is interpreted differently by new generations. A classic example is the English phrase "a napron" from Middle English, which later became "an apron" because speakers reinterpreted the boundary between the article and noun. This shift shows how listener perception can reshape the structure of a language..

Conclusion

Language change is an ongoing and inevitable process driven by social interaction, cultural evolution, technological development, and internal linguistic mechanisms. Rather than viewing language change negatively, it should be understood as evidence of a living, adaptive system. Through examples from history, digital communication, and global contact, this article demonstrates how English continues to transform and grow.

References

1. **Aitchison, J. (2013).** Language Change: Progress or Decay? Cambridge University Press.

2. **Milroy, J., & Milroy, L. (1992).** Linguistic Variation and Change: On the Historical Sociolinguistics of English. Blackwell.

3. **Trask, R. L. (1996).** Historical Linguistics. Arnold Publishers.

4. **Crystal, D. (2010).** The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press.

5. **Labov, W. (1994).** Principles of Linguistic Change: Internal Factors. Blackwell.

THE IMPORTANCE OF STUDYING MIRZO ULUGBEK'S SCIENTIFIC LEGACY AND ITS IMPACT ON THE PRESENT

Karshieva Ezoza Uktamovna

Termiz State Pedagogical Institute

Abstract: *This article briefly highlights the life and scientific achievements of Mirzo Ulugbek and the importance of preserving his legacy to this day. The article also focuses on research dedicated to studying his scientific contributions and their significance for modern science.*

Keywords: *Scientific heritage, science, discovery, astronomer, mathematician, observatory, research, activity, appreciation, era, study, influence, table, achievement, knowledge.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Mirzo Ulug‘bekning hayoti va ilmiy yutuqlari hamda uning merosini bugungi kungacha asrab kelishning ahamiyati qisqacha yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada allomaning ilmiy faoliyati bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va ularning zamonaviy fan uchun tutgan o‘rni haqida ham so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *ilmiy meros, fan, kashfiyot, astronom, matematik, rasadxona, tadqiqot, faoliyat, qadrlash, davr, o‘rganish, ta’sir, jadval, yutuq, bilim.*

Аннотация: *В данной статье кратко отражены жизнь и научные достижения Мирзо Улугбека, а также значение сохранения его наследия до наших дней. Кроме того, статья посвящена исследованиям, направленным на изучение его научного вклада и их значимости для современной науки.*

Ключевые слова: *научное наследие, наука, открытие, астроном, математик, обсерватория, исследование, деятельность, признание, эпоха, изучение, влияние, таблица, достижение, знание.*

Introduction: Mirzo Ulugbek, as a great scientist, astronomer, and statesman, left a profound mark on the history of Eastern science. His discoveries and scientific contributions, which he made in the 15th century, not only enriched Central Asia but also greatly influenced the development of science worldwide. His works, research methods, and the observatory he established in Samarkand remain highly valued even today. This paper discusses the importance of studying Mirzo Ulugbek's scientific heritage and its impact on the present day.

Main Body: Mirzo Ulugbek, whose real name was Muhammad Taraghay, was born near Tashkent in 1394. As a representative of the Timurid dynasty, the grandson of Amir Temur, and one of the most educated rulers of the East, he left an enduring legacy in history. Mirzo Ulugbek is celebrated not only as a powerful statesman but also as a renowned scientist, astronomer, and mathematician. His interest in astronomy led him to build a grand observatory in Samarkand, which played a significant role in the advancement of science. The observatory was one of the most advanced scientific centers of its time, where prominent scholars such as Kazizoda Rumi, Ali Kushchi, and other distinguished scientists conducted research. Through the observations and studies conducted at this observatory, Ulugbek’s discoveries in astronomy gained global recognition. His most famous scientific work is the “Zij-i Sultani,” an astronomical table and collection of treatises that precisely documented the movements of the Sun, Moon, and planets. This work was

extensively used by scholars in both the East and West for a long time. The table provided detailed information on the positions of planets and stars, as well as solar and lunar eclipses, marking a new phase in the development of astronomy.

In addition to his contributions to astronomy, Ulugbek made significant advances in mathematics. He developed trigonometric tables and mathematical methods that were later used by other scientists to improve the accuracy of mathematical and astronomical calculations. His work on trigonometric sine and cosine functions holds an important place in the history of science. Not only was Ulugbek known for his scientific research, but he was also famous as a statesman who sponsored scientific endeavors. He made great efforts to support scholars and to foster the training of scientific personnel. Many scientists who studied at his observatory became notable figures of their time.

Today, Ulugbek’s scientific legacy continues to be appreciated and studied. His contributions to astronomy and mathematics are recognized worldwide. Inspired by his observatory and works, numerous scientific studies are conducted today. Ulugbek's scientific legacy remains a source of inspiration not only for the people of Uzbekistan but for scientists around the world. His discoveries and research methods opened new avenues for modern research in astronomy and mathematics. His observatory and research on stars align with contemporary scientific pursuits.

In Uzbekistan and other countries, scientific conferences, competitions, and events dedicated to studying and promoting Ulugbek’s scientific heritage are regularly held. Through these events, his works and achievements are conveyed to a new generation of scholars, encouraging them toward further scientific research.

President Shavkat Mirziyoyev highly appreciates Mirzo Ulugbek and his scientific legacy, emphasizing the distinguished place of this great scholar in Uzbekistan’s history. He regards Ulugbek’s scientific and educational contributions as invaluable not only for Uzbekistan but for global science as well. In laying the foundation for the "Third Renaissance," President Mirziyoyev highlights the importance of deeply studying the achievements of great scholars like Ulugbek and

passing on their educational legacy to future generations. He also stresses the need to reflect the significance of this legacy in educational reforms and suggests that special programs should be developed to make this scientific heritage accessible to a wider audience through modern teaching methods. The Academy of Sciences and other institutions are tasked with widely disseminating this legacy, which should serve as a powerful source of moral and scientific inspiration for youth.

According to President Mirziyoyev, this timeless legacy is a key factor in strengthening our nation's role in global development, instilling us with national pride and inspiration.

Conclusion. Mirzo Ulugbek’s scientific legacy reflects not only the achievements of his era but also a historic phase in the global development of science. Through his research and discoveries, we made the first steps into the fields of modern astronomy and mathematics. Thus, studying Ulugbek's life and scientific activity, conducting new research inspired by his works, and preserving his scientific heritage for future generations is of both national and international importance. Ulugbek's scientific legacy is being widely studied and valued not only in Uzbekistan but around the world. Therefore, in celebration of the 630th anniversary of Ulugbek's birth, it is crucial to promote his legacy and to inspire new scientific endeavors.

References

1. **Mirziyoyev Sh. M.** O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutq // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. – 2020 yil 1 oktyabr. – Kirish manzili: https://president.uz (murojaat sanasi: ___).
2. **Bobojonov S.** Sharq Uyg‘onishi va Markaziy Osiyoda ilmiy-ma’rifiy taraqqiyot. – Toshkent : O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2020.
3. **Qodiriy U.** Mirzo Ulug‘bek va uning ilmiy faoliyati. – Toshkent : O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, 2015.

4. **O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondlari.** Mirzo Ulug‘bek va boshqa Sharq allomalari qo‘lyozmalari to‘plamlari.
5. **ZiyoNET ilmiy-ta’lim portali.** O‘zbekiston tarixi va Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosi haqida ma’lumotlar. – Kirish manzili: https://www.ziyonet.uz (murojaat sanasi: ___).

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INNOVATSIYALAR

Xidoyatov Farxod Shuxratovich
Ziyo MFYda tadbirkorlikni rivojlantirish,
aholi bandligini ta’minlash va kambagallikni
qisqartirish masalalari bo‘yicha Toshkent shahar
Olmazor tumani hokim yordamchisi

Annotatsiya: *Bugun raqamlashtirish ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga ega bo‘la bormoqda, bu esa raqamli innovatsiyalar samaradorligi ortib borayotganidan dalolatdir. Hozirgi vaziyat raqamli innovatsiyalar mohiyatini, ularning texnologik xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishda resurs imkoniyatlarini tushunishni talab qiladi. Raqamli innovatsiyalarga oid tahliliy sharhlar bizga ushbu nazariya doirasida hali bilimlarni to'plash va ilmiy maktablarni shakllantirish jarayoni davom etayotganidan dalolat beradi.*

Mazkur maqolada raqamli innovatsiyalarning muhim xususiyatlari qamrab olingan holda ularning nazariy qoidalari, ta’lim tizimiga ta’siri o‘rganildi. Maqola doirasida “raqamli jamiyat” va “raqamli innovatsiyalar” tushunchalarining talqini, tavsifiga aniqlik kiritildi, ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil etildi.

Аннотация: *Сегодня цифровизация приобретает всё более социально-экономический характер, что свидетельствует о повышении эффективности цифровых инноваций. Сложившаяся ситуация требует понимания сущности цифровых инноваций, их технологических особенностей и ресурсных возможностей в достижении социально-экономического*

развития. Аналитические обзоры цифровых инноваций показывают, что процесс накопления знаний и формирования научных школ в рамках этой теории продолжается.

В данной статье рассматриваются важные особенности цифровых инноваций, их теоретические положения и влияние на систему образования. В статье уточняется трактовка и описание понятий «цифровое общество» и «цифровые инновации», анализируются их специфические особенности.

Abstract: *Today, digitalisation is becoming increasingly socio-economic in nature, which indicates an increase in the effectiveness of digital innovations. The current situation requires an understanding of the essence of digital innovations, their technological features and resource capabilities in achieving socio-economic development. Analytical reviews of digital innovations show that the process of knowledge accumulation and the formation of scientific schools within this theory continues.*

This article discusses the important features of digital innovations, their theoretical principles, and their impact on the education system. The article clarifies the interpretation and description of the concepts of 'digital society' and 'digital innovation' and analyses their specific features.

Kalit so'zlar: *raqamli jamiyat, raqamli innovatsiya, sun'iy intellekt, strategiya, texnologiya.*

Ключевые слова: *цифровое общество, цифровые инновации, искусственный интеллект, стратегия, технологии.*

Keywords: *digitized society, digital innovations, artificial intelligence, strategy, technology.*

Kirish. Jamiyat hayotini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri raqamli texnologiyalarni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy faoliyatning turli sohalariga joriy etishdir. Aytish mumkinki, raqamli jamiyat raqamli texnologiyalardan foydalanadigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy faoliyatdir. Raqamli jamiyat ijtimoiy faoliyatda nafaqat kompyuter dasturlaridan foydalanish,

balki odatiy jismoniy xizmatlarni almashtirish uchun elektron xizmatlarni yaratish ekanligini tushunish muhimdir. Raqamli jamiyat jismoniy mehnatni to‘liq almashtirish orqali emas, balki iste’molchi, ya’ni aholi uchun qulaylik yaratish maqsadida ishlab chiqilgan virtual (elektron) va kontakt (real) xizmatlarni birlashtirish orqali amalga oshiriladi. Raqamli jamiyatning afzalliklari shubhasiz, bugun ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘lmoqda.

Aynan globallashuv jarayonlarining kengayishi, axborot makonining shakllanishi va axborot oqimi intensivligining oshishi innovatsiyalarning tezlashuvchi to‘lqinlari ta’siri ostida raqamli texnologiyalarning rivojlanishiga olib keldi. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamiyat barcha sohalarida yangi sifat darajasiga ko‘tarilishning eng muhim omillaridan biri bo‘lib, bu mavjud jarayonlarni avtomatlashtirish, tubdan yangi, ilg’or ijtimoiy modellarni joriy etish orqali amalga oshirilmoqda. Xususan, raqamli platformalar, raqamli ekotizimlar, katta ma’lumotlar to‘plamlarining chuqur tahlili, sanoat 4.0 texnologiyalari, robototexnika, narsalar interneti shular jumlasidandir [1; 39 - b.].

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar ijtimoiy ishlab chiqarish uchun mexanizm bo‘lib xizmat qilib, ularning mavjudligi, sifati va qulayligini oshirish imkoniga ega.

Raqamli transformatsiya miqyosining ortishi tibbiyot, ta’lim, davlat va kommunal xizmatlar, madaniyat kabi sohalarda yangi xizmatlar turlari qaror topishining muhim omiliga aylandi. Agar “aqlli” texnologiyalar asosida shahar hayoti uchun qulay va xavfsiz sharoit yaratish imkoni ortayotgan bo‘lsa, raqamli platformalar inson bandligi uchun imkoniyatlar yaratadi, yangi ko‘nikma va malakalarni shakllantirish orqali yangi kasblar, faoliyat turlari orqali inson rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda.

Bu esa davlat xavfsizligini ta’minlash darajasi ortib borishiga xizmat qilmoqda. Demak, raqamli texnologiyalar taraqqiyotini ta’minlovchi vosita vazifasini raqamli innovatsiyalar bajarmoqda desak mubolag’a bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda ta’kidlash muhimki, so‘nggi yillardagi tahlillarga ko‘ra, O‘zbekiston jahon raqamlashtirish indeksida 77 mamlakat ichida 60 o‘rinni egallab kelmoqda [2]. Bu esa mamlakatimizda raqamli jamiyatga transformatsiyalashuvning holatidan darak beradi. “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasiga muvofiq mamlakatimizda raqamli innovatsiyalarni rivojlantirish yo‘lida islohotlar amalga oshirilmoqda [3].

Asosiy qism. Xo‘sh, raqamli innovatsiya deganda nimani tushunamiz?

R. Grinvud, T. Gegenxuber va ularning safdoshlari fikricha, raqamli innovatsiya texnologik imkoniyatlar va institutsional sharoitlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasidir [4; 52–61-b.]. Ular tashkilotlarda raqamli innovatsiyalarni qabul qilish va amalga oshirishga institutsional omillar qanday ta'sir qilishini tahlil qiladilar. Ikkinchi guruh vakillari o‘z asarlarida, texnologik imkoniyatlar, innovatsion jarayonlar, strategiyalar, qaror qabul qilish kabi tadqiqotning bir nechta asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatishadi [5]. Uchinchi guruh manba mualliflari esa o‘z asarlarida [6; 218–240-b.] Silikon vodiysi tuzilmasidagi raqamli innovatsiyalarni tahlil qiladi, raqamli startaplarning muvaffaqiyatiga qaysi omillar yordam berishini va ularning boshqa bozor agentlari bilan o‘zaro ta’sirini aniqlaydi. J. Karayannis va D. Kempbell nashrida raqamli innovatsiyalar barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish vositasi sifatida qaraladi [7] va raqamli texnologiyalar global muammolarni hal qilishda qanday yordam berishi mumkin: iqlim o'zgarishi, ekologik inqirozlar va ijtimoiy adolatsizlik tahlil qilinadi. Yuqorida qayd etilgan manbalarda raqamli innovatsiyalardagi xususiy holatlarga asosiy e’tibor qaratilgan.

Raqamli innovatsiyalarning ta’lim tizimidagi o‘rni masalalari xorijlik va maxalliy olimlar tomonidan o‘rganilishda davom etmoqda. Xususan, raqamli avlodning o‘rganish uslublari va ularning raqamli texnologiyalarga mos psixologik xususiyatlarini Marc Prensky – “digital natives” konsepsiyasida tahlil qilgan bo‘lsa [8], M. Fullan va N. Selwyn tomonidan ta’limda texnologiya qo‘llashning ijtimoiy, psixologik va didaktik ta’sirlari, ta’limdagi raqamli o‘zgarishlar, innovatsion menejment va raqamli yetakchilik bo‘yicha tadqiqotlar [9] amalga oshirilgan.

Bizningcha, raqamli innovatsiyalar - axborot tizimlari, Internet, mobil qurilmalar, sun’iy intellekt va boshqalar kabi yangi raqamli texnologiyalarni qo‘llash bilan bog’liq jarayonlar yoki o‘zgarishlardir. Ular yangi raqamli mahsulotlar, xizmatlar, biznes modellarini yaratish, shuningdek, mavjudlarini takomillashtirishni qamrab olishi mumkin.

Raqamli innovatsiyalarning asosiy jihatlariga quyidagilar kiradi: jarayonlarni avtomatlashtirish samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish; texnologiyalarning, shu jumladan mobil qurilmalarning mavjudligini kengaytirish; aloqa va axborot almashinuvini takomillashtirish; sog’liqni saqlash sohasidagi innovatsiyalar; onlayn ta'lim orqali ta’limni o‘zgartirish va bilimga kirishni kengaytirish; hayotni avtomatlashtirish va yaxshilash uchun sun’iy intellektni ishlab chiqish; resurslarni boshqarish va atrof-muhitni kamaytirish orqali barqarorlikni oshirish va atrof-muhitga asrab avaylash.

Umuman olganda, raqamli innovatsiyalar hayotning barcha sohalariga chuqur ta’sir qilish potentsialiga ega bo‘lib, hayot sifatini yaxshilash va ko‘plab global muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli innovatsiyalar bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning dolzarbligi bir qator omillar bilan asoslanishi mumkin. 1.Texnologik o'zgarishlar tezlig. 2.Yuqori iqtisodiy samaradorlik ahamiyati. 3. Ijtimoiy kompleks yangilanishlar. 4. Kiberxavfsizlik. 5.Innovatsion salohiyat. 6. Yangi huquqiy va axloqiy masalalar. 7.Global ta'sirlashuv ko‘lamining yuqori ko‘rsatkichi [10; 845-b.].

Raqamli innovatsiyalar an’anaviy innovatsiyalardan farqli o‘laroq yangi natijalarga erishish uchun foydalaniladigan texnologiyalar va usullardir. Bularga texnologik e’tibor, o‘zgarishlarning tezligi va moslashuvchanligi, texnologiyalarni qo‘llash doirasi, interaktivlik va ulanish, yangilanishlar va texnik xizmat ko'rsatishni kiritish mumkin.

Har ikkala turdagi innovatsiyalar ham o‘ziga xos qiymatga ega va bir-biri bilan o‘zaro ta’sir jarayonidadir. Raqamli innovatsiyalar ko‘pincha rivojlanishning

tezroq sur’ati va yangisini yaratish qobiliyati bilan ajralib turadi. An’anaviy innovatsiyalar esa yanada barqaror va muhim bo‘lishi mumkin.

Raqamli innovatsiyalarni tatbiq etish orqali yanada barqaror dunyo qurish uchun BMTning global kun tartibiga tobora ko‘proq kompaniyalar qo‘shilmoqda [11]. Davlat boshqaruvidagi zamonaviy innovatsiyalar texnologik komponent bo‘lgan avtomatlashtirishni o‘z ichiga olib, xodimlarning faoliyatini texnik qo‘llab-quvvatlash va ularning kasbiy vakolatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Davlat boshqaruvidagi foydalanuvchilar innovatsiyalari katta ma’lumotlar texnologiyalari, sun’iy intellekt, bulutli resurslar va taqsimlangan buxgalteriya tizimlariga asoslangan.

Sog’liqni saqlash sohasida innovatsion faollikning jadal o‘sishi kuzatilmoqda; Bu sensorlar va robototexnika, simsiz aloqa, kengaytirilgan va virtual haqiqat, sun’iy intellekt sohasidagi yangi yechimlar bilan ta’minlanadi. Raqamli sog’liqni saqlash sohasidagi ilg’or texnologik innovatsiyalar: kengaytirilgan haqiqat texnologiyalaridan foydalangan holda jarrohlik tizimlari, biofeedback API, erta tashxis qo‘yish uchun sun’iy intellekt, talab bo‘yicha sog’liqni saqlash, individual davolanish uchun sun’iy intellekt [12].

Raqamli transformatsiya ta’lim tizimiga ham ta’sir ko‘rsatdi, ta’lim landshaftini o‘zgartirdi va inson salohiyatining shakllanishi va rivojlanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatmoqda. Ta’lim sohasidagi innovatsion jarayonlar har bir o‘quvchiga XXI-asr shaxsi uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni o‘zlashtirish imkoniyatini berishga qaratilgan. Bular raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash va o‘z-o‘zini o‘rganish qobiliyatidir [13]. Ta’limdagi innovatsion faoliyatning mazmuni ta’lim dasturlarini, ta’lim texnologiyalarini, ta’lim faoliyatining tashkiliy shakllarini va ularning natijalarini baholash usullarini yangilash, ta’lim muassasalari faoliyatining yangi modellarini shakllantirishdan iboratdir.

Mazkur jarayonda “raqamli innovatsiya” tushunchasi alohida ilmiy-kategoriyaga aylandi. Raqamli innovatsiya – bu ta’lim jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy vositalar, raqamli platformalar va

intellektual tizimlarni joriy etish orqali o‘quv jarayonini optimallashtirish, individuallashtirish va interaktivlashtirishga qaratilgan yangilikdir.

Raqamlashtirish ta’limning didaktik tamoyillarini qayta ko‘rib chiqishni, o‘qituvchining rolini o‘zgartirishni, o‘quvchilar kompetensiyalarini zamonaviy talablar asosida shakllantirishni taqozo etmoqda. Shu bois mazkur masala xalqaro va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan faol o‘rganilmoqda.

Raqamli innovatsiyaning pedagogik mazmuni qator omillar orqali namoyon bo‘ladi: 1.Didaktik yangilanish – ta’lim metodlari, shakllari va vositalarining raqamli ko‘rinishlarga moslashuvi.

2.Interaktiv o‘qitish – AR/VR, multimedia, simulyatorlar, avtomatik baholash tizimlaridan foydalanish.

3.O‘quv jarayonining individuallashtirilishi – sun’iy intellekt yordamida o‘quv materialini moslashtirish.

4.Raqamli kompetensiyalarni shakllantirish – o‘qituvchi va o‘quvchilarning AKT savodxonligini rivojlantirish.

5.Masofaviy va gibrid ta’lim – zamonaviy o‘qitish modellari va ularning pedagogik sharoitlari.

Bu omillar ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga, yangi ilmiy-metodik yondashuvlarni talab qilmoqda.

Raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirishda qanday ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda?

Raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirishda keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Bilim olishning ochiqligi va qulayligi – istalgan joydan o‘qish imkoniyati.

2. Interaktiv kontent va vizual vositalar orqali o‘quv motivatsiyasining ortishi.

3. Avtomatlashtirilgan testlar, analitik platformalar vositasida baholash jarayonining shaffofligi ta’minlanishi.

4. Ko‘proq amaliy mashg‘ulotlar, simulyatsiyalarda o‘quvchining faol ishtiroki.

5. Multimediaga asoslangan loyihalar ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Raqamli innovatsiyalar ta’lim jarayonining barcha bosqichlarini tubdan o‘zgartirayotgan kuchli omilga aylandi. Mazkur jarayonning pedagogik jihatdan o‘rganilishi nafaqat yangi texnologiyalarni joriy etish, balki ularni didaktik, psixologik va metodik asoslar bilan uyg‘unlashtirishni talab qiladi. O‘zbek va xalqaro olimlarning ilmiy izlanishlari raqamli ta’limning nazariy asoslarini boyitib, raqamli kompetensiyaga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan ortiqcha foydalanish, texnik nomukammallik yoki pedagogik yondashuvning yetishmasligi kabi muammolar ham mavjud.

Xulosa. Raqamli innovatsiyalar bo‘yicha ilmiy adabiyotlarning ko‘pligi, xilma-xilligi va chuqurligi, ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha to‘plangan tajriba ushbu masalaga qiziqish doimiy va tobora ortib borayotganidan dalolat beradi. Biroq, nashrlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy (raqamli) innovatsiyalarning ilmiy asoslari yetarlicha o‘rganilmagan. Hozirgacha raqamli innovatsiyaning aniq ta’rifi mavjud emas, uning xususiyatlari o‘rganilmagan. Bugun zamonaviy fan oldida ushbu masalani chuqur tadqiq etish vazifasi turibdi.

Raqamli innovatsiyalar jamiyatning turli sohalarida o‘zgarishlarning muhim sababchisiga aylanmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar uning ta’sirida yangi texnologiyalar va g’oyalar rivojlanishi bilan kengayishda davom etmoqda.

Raqamli innovatsiyalar joriy qilinishda davom etar ekan, kompaniyalar ham, jamiyat ham bir qator muammolarga duch keladi, ulardan eng muhimi:

- kiberxavfsizlik va ma’lumotlar maxfiyligi;
- o‘zgarishlarni boshqarish va moslashish;
- infratuzilma va resurslar;
- ma’lumotlarni boshqarish va tahlil qilish;
- malakali ishchilarning etishmasligi;
- huquqiy va tartibga soluvchi jihatlar;

- texnologik gigantlarga qaramlik xavfi;
- maxfiylik va axloqiy muammolar;
- inklyuzivlik va foydalanish imkoniyati;
- ekologik muammolar;
- ish o‘rinlariga tahdid.

Ushbu muammolarni hal qilish jamiyat tarkibiy tuzilmalarining birgalikdagi sa’y-harakatlarni talab qiladi. Raqamli innovatsiyalarni ma’suliyat bilan amalga oshirishda barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan strategiya va dasturlarni ishlab chiqish muhimdir

Raqamli innovatsiyalar kelajakda zamonaviy dunyoni shakllantirishda muhim rol o‘ynashda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **Сысоева Е. А.** Цифровые инновации в современном мире // Проблемы модернизации и перехода к инновационной экономике. – С. 39.

2. **Global Digitalization Index 2024.** – P. 20. – URL: https://www-file.huawei.com/-/media/corp2020/gdi/pdf/gdi-2024-en.pdf (мурожаат санаси: 30.04.2023).

3. **Ўзбекистон Республикаси Президенти.** “Raqamli O‘zbekiston – 2030” стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида : Фармон. – 2020 йил 5 октябрь. – ПФ–6079-сон.

4. **Hinings B., Gegenhuber T., Greenwood R.** Digital innovation and transformation: An institutional perspective // *Information and Organization*. – 2018. – Vol. 28, No. 1. – P. 52–61. – DOI: 10.1016/j.infoandorg.2018.02.004.

5. **Kohli R., Melville N.** Digital innovation: A review and synthesis // *Information Systems Journal*. – 2019. – Vol. 29, No. 3. – DOI: 10.1111/isj.12193.

6. **Kenney M., Burg U. V.** Institutions and economies: Creating Silicon Valley. – Stanford : Stanford University Press, 2022. – P. 218–240. – DOI: 10.1515/9781503618381-013.

7. Kenney M. Explaining the growth and globalization of Silicon Valley: the past and today // *Berkeley Roundtable on the International Economy (BRIE)*. – 2017. – Working Paper No. 1.

8. **Carayannis E., Campbell D.** “Mode 3” and “Quadruple Helix”: Toward a 21st century fractal innovation ecosystem // *International Journal of Technology Management*. – 2009. – Vol. 46, No. 3–4. – P. 201–234. – DOI: 10.1504/IJTM.2009.023374.

9. **Prensky M.** Digital Game-Based Learning. – New York : McGraw-Hill, 2001. – 442 p.

10. **Fullan M.** Stratosphere: Integrating Technology, Pedagogy, and Change Knowledge. – Toronto : Pearson, 2013. – 282 p.

11. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – London : Bloomsbury Publishing, 2011. – 232 p.

12. **Шагеев А. Э.** Цифровые инновации в современном мире: отличительные черты, предпосылки и возможности использования // Траектории развития пространственных систем: ESG-вызовы и инновационные модели. – С. 845.

13. **Технологии для достижения целей устойчивого развития.** – Tadviser, 2022. – URL: https://www.tadviser.ru/a/643305 (мурожаат санаси: 30.04.2023).

14. **5 интересных инноваций в области цифрового здравоохранения.** – Evercare, 2020. – URL: https://evercare.ru/news/5-interesnykh-innovaciy-v-oblasti-cifrovogo-zdravookhraneniya (мурожаат санаси: 02.05.2023).

15. **Уваров А. Ю., Фрумин И. Д.** Трудности и перспективы цифровой трансформации образования. – Москва : Издательский дом Высшей школы экономики, 2019.

ILM – FAN VA SANOATDA SUN’IY INTELLEKT

Allashkurov Dilshodbek Mansurovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To‘rtko‘l fakulteti

Farxodova Moxichexra Xo‘jabekovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To‘rtko‘l fakulteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ilm – fan va sanoat sohalarida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ularning raqamlashtirish jarayonidagi o‘rni hamda samaradorlikka ta’siri va sanoat 4.0 inqilobi sharoitida SI yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, kiber – fizik tizimlar orqali boshqaruvni optimallashtirish, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishdagi afzalliklari ko‘rsatib berilgan.*

Аннотация: *В статье показано стремительное развитие технологий искусственного интеллекта (ИИ) в науке и промышленности, их роль в процессе цифровизации и влияние на еффективность, а также преимущества ИИ в автоматизации производственных процессов, оптимизации управления посредством киберфизических систем, обработке и анализе больших обьемов данных в контексте революции Индустрия 4.0.*

Abstarct: *This article shows the rapid development of artificial intellingence (AI) technologies in science and industry, their role in the digitalization process and their impact on efficiency, and the advantages of AI in automating production processes, optimizing manegement through cyber – physical systems, and processing and analyzing large amounts of data in the context of the Industry 4.0 revolution.*

Kalit so‘zlar: *Sun’iy intellekt, sanoat inqilobi, sanaot 4.0 inqilobi, mashinani o‘rganish, chuqur o‘rganish, tabiiy tilni qayta ishlash, raqamlashtirish, katta ma’lumotlar.*

Ключевые слова: *Искусственный интелект, промышленная революция, революция Индустрия 4.0, машинное обучение, глубокое обучение, обработка естественного языка, оцифровка, большие данные.*

Keywords: *Artifical intelligence, industrial revolution, industry 4.0 revolution, machine learning, deep learning, natural language processing, digitization, big data.*

So‘ngi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari ilm – fan va sanoat sohasi rivojlanishining asosiy omillaridan biriga aylandi. Raqamlashtirish jarayonining jadallashuvi, katta ma’lumotlar hajmining ortishi, avtomatlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj sun’iy intellektning qo‘llanilish sohalarini kengaytirib, uni zamonaviy innovatsion iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylantirdi. Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarda murakkab hisob – kitoblarni amalga oshirish, tajribalarni modellashtirish, genetik tahlilar, fizik jarayonlarni simulyatsiya qilish kabi vazifalar sun’iy intellekt yordamida ancha tez va aniqlik bilan bajarilmoqda.

Sun’iy intellekt - inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo‘lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiyalar sohasi. Bugungi kunda sun’iy intellekt kundalik hayotimizda, balki ilmiy tadqiqotlar, kashfiyotlar va ilm – fan sohasida ham muhim ro‘l o‘ynamoqda. “Mashinani o‘rganish (Machine learning) va chuqur o‘rganish (Deep learning), tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) kabi sohalarda erishilgan yutuqlar sun’iy intellektni yangi bosqichga olib chiqdi”.[1]. “Mashina Learning (ML) algoritimlari :

AI o‘qitish jarayonida turli Machine Learning algoritimlari qo‘llaniladi. Ushbu algoritimlar turli vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan:

Chiziqli regressiya (Linear Regression) : Bu algoritm doimiy (continuous) qiyamtlarini bashorat qilish uchun ishlatiladi. Misol uchun, uy narxini bashorat qilish.

Logistik regressiya (Logistic Regression) : Bu algoritm ikki yoki undan ko‘p toifalarni aniqlash uchun qo‘llaniladi. Masalan, elektron pochtalarni spam yoki normal deb ajratish.

Kengaytirilgan o‘rganish (Ensembel Learning) : Bu usul bir nechta modelni birlashtirib, yaxshiroq natijalarga erishishni ta’minlaydi. Misollar, Random Forest va Gradient Boosting”.[2].

“Chuqur o‘rganish (Deep learing) – bu sun’iy intellekt (SI) va mashinani o‘rganish (ML) doirasidagi yondashuv bo‘lib, ma’lumotlardan (matn, rasm, ovoz, sensor ma’lumotlar va h.k) neyron tarmoqlar yordamida murakkab naqshlar va xususiyatlarni o‘rganish, aniqlash va bashorat qilishga asoslanadi”.[3]. Mashinani o‘rganish algoritimlari va chuqur o‘rganish tarmoqlari yordamida katta ma’lumotlar to‘plamini tahlil qilib, inson kovnitiv jarayonlarni takrorlashga harakat qilmoqda”. Sun’iy intellekt murakkab ilmiy masalalarni hal qilishda samarali yordam beradi. Sun’iy intellektning ilm – fandagi yangi imkoniyatlari juda keng, jumladan, tibbiyot, sanoat, ta’lim, ekologiya va boshqa sohalarda. Misol uchun, tibbiyotda sun’iy yordamida tibbiy diognostika qilish, yangi dori - darmonlarni tadbiq qilish, operatsiyalardan yordam berish va bemorlarni individual davolash rejalariga moslashtirish imkoniyati mavjuddir. Sanoatda sun’iy intellekt raqamlashtirish jarayoning asosiy texnolgiyalaridan biri bo‘lib, ishlab chiqarish samaradorlikini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni minimallashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, sun’iy intellekt asosidagi aqlli tizimlar ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish, uskunalarning nosozliklarini oldindan bashoratlash, mahsulot sifatini avtomatik nazorat qilish hamda logistik jarayonlarni optimallashtirish imkonini beradi. Bu esa korxonalarga resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishdagi yo‘qotishlarni kamaytirish va mahsulot sifatini barqaror ravishda oshirish imkonini yaratadi. “Tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning sanoat tarmoqlariga joriy etilishi iqtisodiy o‘sishning muhim omili bo‘lib, jarayonlarni optimallashtirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish hamda zamonaviy innovatsion rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratadi”.[4].

Sanoat 4.0 inqilobi sharotida sun’iy intellektning o‘rni yanada kuchayib, kiber – fizik tizimlar, Iot (Narsalar interneti) , katta ma’lumotlar va aqlli sensorlar bilan integratsiya qillinmoqda. Bu esa korxonalarga raqobatbardoshligini oshirib, global bozor talablari bilan mos ishlashini ta’minlaydi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonlari real vaqt rejimida kuzatiladi va boshqariladi, resurslardan samarali

foydalanish, mahsulot sifatini nazorat qilish va texnik xizmat ko‘rsatishni oldindan bashorat qilish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sun’iy intellekt bugungi kunda ilm – fan va sanoat sohalarida eng muhim texnologiyalardan biri sifatida shakllanib bormoqda. Sun’iy intellekt tizimlari ilmiy tadqiqotlarda katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, murakkab jarayonlarni modellashtirish va yangi ilmiy natijalarni olish imkonini beradi. Sanoat sohasida sun’iy intellekt ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash, inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni minimallashtirish va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Shu bilan birga, sanoat 4.0 inqiobi sharoitida sun’iy intellekt kiber – fizik tizimlar, narsalar interneti (Iot) , katta ma’lumotlar (Big data) va aqlli sensorlar bilan integratsiya qilinib, ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish va boshqarish imkonini yaratadi. Natijada, korxonalar raqobatbardoshligini oshiradi, global talablari bilan moslashadi va innovatsion texnologiyalarni samarali joriy etadi. Shu tariqa, sanoat 4.0 va sun’iy intellektning uyg‘unligi nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki iqtisodiy rivojlanish va raqamli transformatsiya jarayonlarini tezlashtirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar

1.Kodirova.G.M Sun’iy intellekt va uning insoniyat faoliyatida tutgan o‘rni/Scientific Journal. – 2023 . – №4. – B. 81–85. – URL: https://scientific-jl.com/new/article/view/4046

2. Anvarbekov, J. A. (2024). *Sun’iy intellektni o‘qitish texnologiyalari va usullari*. PEDAGOGS, 60(1), 99–103. pedagogs.uz+1

3.Alom M.Z.,Yakopcic C.,Westberg S., Sidike P., Nasrin M.S., & Asari V.K. The History Began from AlexNet: A Comprehensive Survey on Deep Learningn Approaches //arXiv preprint arXiv: 1803.01164. – 2018. -5 p.

4. O‘zbekiston sanoatida sun’iy intellekt – samaradorlikini oshirish va barqaror rivojlanishini taminlash// *Academia Science*. – 2024. – URL: https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/5189/4977

SO‘ZNING MORFOLOGIK TARKIBINI O‘QITISHDA LINGVODIDAKTIK PRINSIPLARDAN FOYDALANISH

Abdullayeva Gulsanam Alijonovna

Samarqand davlat pedagogika insituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada lingvodidaktik tamoyillarning morfologiyani o‘qitish jarayonidagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Hozirgi raqamli ta’lim sharoitida o‘quv jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish, ayniqsa so‘zning morfologik tarkibini o‘rgatishda ilmiy-metodik prinsiplarning qo‘llanishi muhim ekanligi ta’kidlanadi. Maqolada lingvodidaktikaning asosiy tamoyillari hamda kommunikativlik — morfologik bilimlarni samarali o‘zlashtirishga qanday yordam berishi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *lingvodidaktika, lingvodidaktik tamoyillar, morfologiya, morfologik tarkib, ta’lim metodikasi, sun’iy intellekt, interfaol usullar, morfemik tahlil, ta’lim texnologiyalari.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль и значение лингводидактических принципов в процессе обучения морфологии. Подчеркивается важность организации учебного процесса на основе современных педагогических подходов в условиях цифрового образования, особенно при обучении морфологической структуре слова с использованием научно-методических принципов. В статье анализируются основные принципы лингводидактики, а также то, как коммуникативный подход способствует эффективному усвоению морфологических знаний.*

Ключевые слова: *лингводидактика, лингводидактические принципы, морфология, морфологическая структура, методика обучения, искусственный интеллект, интерактивные методы, морфемный анализ, образовательные технологии.*

Annotation. *This article examines the role and significance of linguodidactic principles in the process of teaching morphology. It emphasizes the importance of organizing the learning process based on modern pedagogical approaches in the context of digital education, particularly in teaching the morphological structure of words through the application of scientific and methodological principles. The article analyzes the main principles of linguodidactics and how a communicative approach facilitates the effective acquisition of morphological knowledge.*

Keywords: *linguodidactics, linguodidactic principles, morphology, morphological structure, teaching methodology, artificial intelligence, interactive methods, morphemic analysis, educational technologies.*

Bugungi kunda zamon talabiga aylanib borayotgan ta’lim jarayonini yanada rivojlantirsh, uni zamonga mos bo‘lgan pedagogik talablar asosida joriy etish lingvodidaktik prinsiplarni chuqur o‘rganilishini hamda amaliyotga tatbiq etilishini taqozo etmoqda. Bundan tashqari, ona tilini o‘rgatish jarayonida so‘zning morfologik tartibini o‘rgatish — o‘quvchilar bilmini tizimli, izchil hamda ongli tarzda o‘zlashtirilgan grammatik tafakkurni shakillantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu o‘rinda lingvodidaktikaning so‘zning morfologik tartibini o‘qitishdagi o‘rniga to‘xtalib o‘tsak. Lingvodidaktika o‘quv jarayonini samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-metodik tamoyillar tizimi bo‘lib, so‘zning morfologik tartibini o‘qitishda ushbu prinsplardan foydalanish o‘quvchida ongli o‘zlashtirishni shakillantiradi. Morfologik birliklar esa murakkab lingvistik kategoriya bo‘lganligi sababli ularni ilmiy asoslangan, to‘g‘ri tanlangan prinsplar asosida tashkil qilish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

Raqamli ta’lim jarayonida har bir fan tarmoqlaqlari jadallik bilan rivojlanib, yangi metodik ishlanmalar, texnologiyalar va axborot vositalaridan

foydalanib kelmoqda. Shunday ekan, so‘zning morfologik tarkibini o‘qitish jarayonida lingvodidaktikprinsplardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish bilan birgalikda o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish kabi kompetensiyalarni shakllantiradi. Maktab o‘quvchilarida so‘z tuzilishini anglash bilan birgalikda – savodxonlik, imlo va matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish til birliklarini chuqur anglashga ham beqiyos yordam beradi. Shu o‘rinda shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, yuqorida ta’kidlanganidk hozirgi raqamli texnologiyalar davrida ta’lim jarayoniga ham sun’iy idroq kirib kelmoqda va buning natijasida lingvodidaktik prinsplarni qayta ko‘rib chiqish zarurati tug‘ilmoqda. Shunday ekan ushbu maqolada bir necha vazifalar belgilab olindi, xususan, lingvodidaktik prinsplarning mohiyatini tahlil qilish; morfologiyani o‘qitish jarayonidagi metodik yondashuvlarni o‘rganish; prinsiplar asosida darsni tashkil etishning samarali usullarini taklif etish.

Lingvodidaktika – an’anaviy usulni zamonaviy ta’lim makoniga amlashtirgan fandir. U tilni o‘rgatish jarayonini ilmiy asosda tashkil qilishga xizmat qiluvchi umumiy metodik tamoyillar majmui hisoblanadi. Lingvodidaktika bir necha prinsplardan iborat bo‘lib, quyida ularning asosiy prinsplarini keltirib o‘tildi: ilmiylik prinsipi, tizimlilik va izchillik prinsipi, faollik va ongli o‘zlashtirish prinsipi, ko‘rgazmali prinsipi, individual yondashuv prinsipi, kommunikativlik prinsipi, o‘quvchi yosh xususiyatlarini hisobga olish prinsipi. Ulardan foydalanish mobaynida o‘qituvchi darsni izchil, tartibli va maqsali tashkil qilishi, o‘quvchilarda anglash va tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantirishi mumkin. Ma’lumki, morfologiya bo‘limi o‘z murakkabligi bilan o‘quvchilarda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin, lingvodidaktik prinsplarga asoslangan yondashuv esa o‘quvchilarni mavzu doirasida faol fiklashga, har tomonlama tushunishga yordam beradi. An’anaviy darslardan faqrli o‘laroq prinsplardan foydalanganilgan darsda o‘quvchi markazga yo‘naltiriladi va bunda interfaollik va refleksiyani kuchaytiradi. O‘quvchilarda murakkab morfologik tushunchalani tushungan holda, ongli ravishda farqlash imkonini ham beradi, o‘qituvchilar ko‘p duch keladigan qiyinchiliklardan biri esa

shakl yasovchi morfemalar va so‘z yasovchi morfemalarni farqlash borasidagi qiyinchilikdir. Lingvodidaktik prinsplardan foydalanish jarayonida o‘qituvchi yana bir ustunlikka ega bo‘ladiki, bu ham bo‘lsa o‘quv materiallarini yosh xususiyatiga moslashtirishdir. Bunda osondan qiyinga tamoyili asos bo‘ladi va dars mobaynida sekin astalik bilan chuqurlashib boriladi.

An’anaviy grammatik o‘qitish usuli bir qancha cheklovga ega hisoblanib, ularning eng ko‘zga tashlangani bu qoidalarni yodlashga ortiqcha urg‘u berilganidir. Bunda o‘quvchida mazmuniy tushunish jarayoni sust shakillanadi va mustaqil so‘zlarni, gaplarni tahlil qilish kompetensiyasi shakllanmaydi. Yangi ishlab chiqilgan o‘quv darsliklari ham aynan shu borada ish olib borildi va matn ustida ishlash, matnni tushunish va bu borada o‘z fikr yuritishlarini nazarda tutgan holda, har bir dars uchun mo‘ljallangan matnlar berib o‘tildi. Ushbu o‘zgartirish tufayli o‘quvchilarda analitik fikrlash rivojlanadi va qoidalarni mavzuga mos ravishda berilgan matnlar asosida o‘rganadi va mustahkamlaydi. An’anaviy darslarning yana bir kamchiligi mavjud bo‘lib bu kam interaktivlikdir ya’ni vizual (tasviriy, grafik, diagrammatik va boshqa ko‘ruv elementlariga asoslangan vositalar), multimodal vositalar (vizual, audial, verbal va boshqa semiotik resurslarning integratsiyasi)ning yetarli emasligidir. Hozirgi kunda yuqorida ta’kidlanganidek, raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga jadallik bilan kirib, singib bormoqda. Morfologiya o‘qitish metodikasi ham bundan mustasno emas va yangi texnologiyalar bilan boyib bormoqda. Xususan ta’lim jarayonida sun’iy intellekt asosida tahlil vositalari, interaktiv elektron darsliklar, test platformalari, vizual morfema xaritalari, videoizohli darslar kabi vositalardan foydalanish o‘quvchilarning morfologik tushunchalarini shakllanishida va mustahkamlanishida beqiyos o‘rin egallaydi.

Lingvodidaktik tamoyillar morfologiya bo‘limini o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlarni ilmiy asosda tanlashga yordam beradi. Mazkur tamoyillar – ilmiylik, sistematiklik, izchillik, ongli o‘zlashtirish, faollik,

individuallashtirish va zamonaviylik – dars jarayonining har bir bosqichini optimallashtiradi.

Ongli va faol o‘zlashtirish tamoyili

Ushbu tamiyilda izohli – tushuntirish, analitik metodlar orqali amalga oshiriladi. Bu metodlar o‘quvchining morfologik birliklar mazmunini tushunib, tushungan holatda o‘zlashtirishga imkon yaratadi. Ushbu tamoyilda o‘qituvchi muammoli vaziyat yaratish metodi orqali, o‘quvchilarni fiklashga, o‘z fiklarini izohlashga va xulosa chiqarishga undashi mumkin. Grammatik birliklarni mustaqil topsh va ularni guruhlarga bo‘lish, so‘z turkumlari, qo‘shimchalar vazifalarini xarita ko‘rinishida tasniflash ham ushbu tamoyil asosida amalga oshiriladigan metodlaga misol bo‘la oladi.

Tizimlilik va izchilliktamoyili

Navbatdagi tamoyilda pragmatik tahlil, taqqoslash va asosiy metod bosqichma – bosqich o‘qitish metodlari orqali amalga oshadi. Natijada morfologik bilimlar tartibli va matiqiy shakllanadi. Bunda o‘qituvchi so‘zning tarkibini bosqichma – bosqich ajratish (o‘zak – so‘z yasovchi qo‘shimcha – shakl yasovchi qo‘shimcha shaklida) orqali o‘quvchilarga tahlil qilib beradi. Bundan tashqari ushbu tamoyil asosida avval sodda, keyin murakkabroq morfologik tahlillar asosida spiral o‘qitish metodi yokikaskad tamoyiliga asoslangan mashqlar orqali mavzuni tushuntirib berishi mumkin.

Ko‘rgazmalilik tamoyili

Ushbu tamoyilga asoslangan metodlar orqali o‘quvchi mavzuni ko‘rib, eshitib, amalda ko‘rib o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Bunda grafik sxema va diagrammalardan foydalanib so‘zning morfemik tuzilishi sxema tarzida beriladi va o‘quvchi ko‘z o‘ngida mavzu yahlit jadvallarda namoyon bo‘ladi. Bunda *“so‘z yasash daraxti”* yoki *“qo‘shimchalar zanjiri”* kabi modellardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Raqamli ta’lim va Sun’iy intellekt integratsiyasi tamoyili

Zamonaviy lingvodidaktikaning eng muhim yo‘nalishi hisoblanib, SI vosiyalaridan foydalanish, raqamli platformalarda topshiriqlar tayyorlash orqali o‘quv jarayonini raqamli almashinuviga xizmat qiladi. Bunda SI orqali morfologik tahlil o‘tkazish, *ChatGPT, DeepL, LingQ* kabi platformalarda mashqlar yaratish, interaktiv o‘yinlar *(Wordwall, Quizizz, Kahoot)* orqali qo‘shimchalar, o‘zak, so‘z yasalishini o‘yin orqali mustahkamlash imkonini beradi.

Umuman olganda, linvodidaktik tamoyillarga asoslangan metodlardan foydalanish o‘quvchilarning morfologik bilimlarini ilmiy asoslangan holda, tizimli, interfaol va raqamli tarzda o‘rgatishga yordam beradi. An’anaviy yondashuvlarning kamchiliklarini bartaraf etish, zamonaviy raqamli vositalar va un’iy idrok texnologiyalarini darsga integratsiyasini yangi bosqichga ko‘taradi. Lingvodidaktik tamoyillarga asoslangan dars o‘quvchilar bilmining mustahkamligi, tahliliy fiklash va nutq madaniyatining rivojlanishiga sezirarli ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Гальскова Н. Д., Гез Н. И.** Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методология. – М. : Академия, 2004.
2. **Ibragimov X., Abdullayeva Sh.** Pedagogika nazariyasi : darslik. – Toshkent : Fan va texnologiya, 2008. – 288 b.
3. **To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T.** O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent : Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
4. **Atiyazov S. J.** Elektron lingvodidaktika innovatsion ta’limning muhim unsuri sifatida // *Globallashuv davrida tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti hamda ta’lim texnologiyalari*. – 2022.
5. **Rahimova J., Ergashboyevna** Lingvodidaktika printsiplari va integratsiyasining nazariy asoslari // *Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education* : 2nd international scientific and practical conference. – Spain, 2018.

(Sahifa ma’lumotlari ko‘rsatilmagan.)

6. **Sharipova S. K.** Lingvodidaktikaning nazariy asoslari va ta’lim jarayonidagi dolzarbligi // *Ijtimoiy va gumanitar ta’lim yo‘nalishlardagi talabalarning kompetentligini oshirish: muammolar va yechimlar* : Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand, 2025. – 23–24-may.

O‘ZBEKISTON SSR DA NEMIS DIASPORASI VAKILLARINING MADANIYAT SOHASIDAGI FAOLIYATI.

Sirliboyeva Gulrux Umar qizi

TDIU o‘qituvchisi, FA tarix instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu tezisda O‘zbekistondagi nemis diasporsining shakllanishi va ularning sovet davridagi faoliyatiga qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. Sovet O‘zbekistonida madaniyat sohasida faoliyat yuritgan diaspora vakillari haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *nemis diasporasi, madaniyat, O‘zbekiston SSR, “Wiedergeburt”, madaniyat markazi, Georgiy Brim.*

Ключевые слова: *немецкая диаспора, культура, Узбекская ССР, «Видергебурт», культурный центр, Георгий Брим.*

Аннотация. *В этой статье кратко рассматривается формирование немецкой диаспоры в Узбекистане и её деятельность в советское время. Приводятся сведения о представителях диаспоры, работавших в сфере культуры в советском Узбекистане.*

Abstract. *This thesis briefly discusses the formation of the German diaspora in Uzbekistan and their activities during the Soviet era. Information is provided about representatives of the diaspora who worked in the cultural sphere in Soviet Uzbekistan.*

Keywords: *German diaspora, culture, Uzbek SSR, "Wiedergeburt", cultural center, Georgy Brim.*

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilib, ularning aksariyat qismi diaspora sifatida shakllangan. Ulardan bir bu nemis diasporasi bo‘lib, ular turli sohalarda faoliyat olib borishmoqda. O‘zbekiston hududida istiqomat qilayotgan nemis diasporasi 150 yillik tarixga ega bo‘lib, ularning aksar qismi mustamlaka davrida kelishgan. Xususan, mintaqaning Rossiya tomonidan bosib olinishi davrida ikkilamchi migratsiya oqimlari natijasida rus nemislari paydo bo‘lgan. Shunday bo‘lsada, bizni hududlarda dastlabki nemislarning vujudga kelishi Rossiya imperiyasi davrida degan noto‘g’ri fikr shakllanmaslik kerak.

Manbalarda Turkiston hududiga dastlabki nemislar Rossiya imperiyasi bosqinidan avvalroq qul,sayyoh, elchi sifatida kirib kelganligi qayd etilgan. Keyingi davrlarda ham turli sabablar bilan bu hududlarga nemislarning kirib kelishi davom etgan.

Asosiy qism. Urushdan keyingi yillarda Sovet Ittifoqi hududida, jumladan O‘zbekiston SSRda yashagan nemis aholisi og‘ir hayotiy sharoitlar va siyosiy cheklovlar ta’sirida o‘z milliy madaniyatini saqlab qolish imkoniyatidan mahrum bo‘ldi.

Nemislarning professional tarkibi SSSR tomonidan olib borilgan siyosatga bog‘liq ravishda o‘zgarib turgan. Siyosiy tazyiqlar kuchayga davrda nemis millatiga mansub shaxslarni davlat ishlarida faoliyat olib borishi taqiqlangan.

Biroq 1953-yilda Iosif Stalinning vafotidan so‘ng boshlangan "tiniqish davri" (destalinizatsiya) jarayonlari Sovet O‘zbekistonida yashayotgan nemislar hayotida ham muayyan ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi. Xususan, 1956-yil 31-oktabrda e’lon qilingan “Germaniya millatiga mansub fuqarolar o‘rtasida ommaviy-siyosiy ishlarni kuchaytirish to‘g‘risida”gi buyrug‘iga binoan, nemis millatining madaniy va ma’naviy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularga madaniy-ma’rifiy faoliyat yuritishga ruxsat berila boshlandi. Xususan, Markaziy Qo‘mita kotibi Melnikov tomonidan quyidagi vazifalar belgilangan:

- Nemis tilida umumxalq siyosiy gazetasini nashr etish

• Qishloq xo‘jaligi, ilmiy-ommabop adabiyotlar,sovet qo‘shiqlari va havaskor chiqishlar uchun pyesalar to‘plamlari tayyorlash

• Nemis tilidagi plastinalar va grammafon yozuvlari chiqarish[118].

Bu kabi siyosatning amaliy natijasi sifatida Sovet O‘zbekistonida ham Madaniyat va san’at sohalarida ham nemis kelib chiqishli pedagoglar shakllana boshlagan. Jumladan, Toshkent teatr institutida aktyorlik san’ati bo‘yicha Arseniy Ridal, rassomlik sohasida esa Georgiy Brim o‘zbek san’at maktabining rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan[119].

Georgiy Brim O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist,professor,davlat mukofoti laureate, peyzaj rassom bo‘lib, O‘zbekistonda rassomlik maktabining asoschilaridan biri bo‘lgan. Brimning san’at sohasidagi xizmatlari 1989-yilda Hamza nomidagi O‘zbekiston SSR Davlat mukofoti bilan taqdirlangan[120]. Bu mukofot uning teatr tasviriy san’atiga qo‘shgan beqiyos hissasi, o‘zbek sahna estetikasini yangi bosqichga olib chiqqan mehnatining e’tirofi sifatida qaraladi

O‘zbekistondagi nemis diasporasi vakillari orasida alohida o‘rin egallagan shaxslardan biri bu monumental rassom, chizmachi va rassom sifatida tanilgan **P.V. Gan**dir. Uning ijodi, avvalo, O‘zbekiston madaniy hayotida tasviriy san’atning rivojlanishiga xizmat qilgan. Gan oilasining san’atdagi an’analari uning avlodlariga ham o‘tganini ko‘rish mumkin — xususan, uning o‘g‘li **A.P. Gan**, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan rassom unvoniga ega bo‘lib, u SSSR va O‘zbekiston Rassomlar uyushmasi hamda O‘zbekiston Badiiy akademiyasi a’zosi sifatida faoliyat yuritgan[121].

[118] Гитлин С. Националные отношения в Узбекистана,Иллюзии и реальность.-Тель-Авив,1998.С.355.

[119] Иноятова Д.М. Немецкая диаспора Узбекистана: вехи истории. Монография. – Ташкент: Turon-iqbol, 2019. С. 298.

[120] Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитети ва Ўзбекистон ССР Министрлар Советида // Совет Ўзбекистони. — 1989. — № 257 (7 ноября). — С. 1.

[121] Intervyu Irina Shur 08.07.2025.

Nemis diasporasidan shu kabi tasviriy san’at namayondalari bilan bir qatorda, dunyoga mashhur muzikantlar yetishib chiqqan. Xususan, musiqada Genrix Neygauz,Svyatoslav Rixter, Rudolf Kareer kabi pianinochilar, teatrda Bolshoy teatr solisti I.I. Krauze (Petrov) kabi[122].

Yana bir nemis san’at vakili Svyatoslav Rixterning hayoti va ijodiy faoliyati, uning pianino san’atiga qo‘shgan hissasi o‘z navbatida sovet madaniyati rivojiga ham asos bo‘lgan.

Svyatoslav Teofilovich Rixter (1915–1997) -XX asr klassik musiqasining eng yirik pianinochilardan biri sifatida tanilgan. Asli kelib chiqishi nemis millatiga mansub bo‘lsada, Sovet davlatida mashhurlikka erishgan. Uning faoliyati bugungi kunda ham sovet-german do‘stlik aloqalariga xizmat qilib kelmoqda. Xususan, Moskauer Deutsche Zeuting nemis nashrini xabar berishicha 2024 yil 20-mart, buyuk pianinochi Svyatoslav Rixterning tavallud kunida Pushkin nomidagi davlat tasviriy san’at muzeyining “Anna va Teofil” ko‘rgazmasi ochilgan.. U Rixterning ota-onasiga, shuningdek, rus zodagonlari va nemis kolonistlarini birlashtirgan ularning katta oilasiga bag’ishlangan[123].

Shu kabi nemis diasporasi vakillari O‘zbekiston SSR da ham madaniyat sohasida faoliyat olib borgan. Ulardan biri Rudolf Kareer bo‘lib,u Sovet O‘zbekistonida san’at rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan.

1954 yilda Toshkent konservatoriyasining 3-kursiga qabul qilinadi. "... Taxminan 20 kun ichida men Chaykovskiyning kontsertini, Baxning C-dur prelüdiyasini va fugasini imkon qadar takrorladim. Adashmasam, Shopenning 12-etyudini ham takrorladim. "Men o‘ynadim ... - va ular meni to‘g’ridan-to‘g’ri uchinchi kursga qabul qilishdi", deb eslaydi Rudolf Kareer[124].

Kareer uzoq yillar davomida Sovet O‘zbekistonida – Toshkent konservatoriyasida – faoliyat olib borgan. 1961 yilda u Moskvada bo‘lib o‘tgan

[122]Иноятова Д.М. Немецкая диаспора Узбекистана: вехи истории. Монография. – Ташкент: Turon-iqbol, 2019. С. 295.
[123] Moskauer Deutsche Zeuting. https://ru.mdz-moskau.eu/rihter-istoki-genialnosti
[124] Керер Р. Р. // Московская консерватория от истоков до наших дней. 1866–2006. Биографический энциклопедический словарь. — М. 2007. — С. 233

Butunittifoq musiqachi-ijrochilar tanlovida 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi va Moskva filarmoniyasining solisti bo‘ldi. Rudolf O‘zbekiston SSR san’at vaklili sifatida SSSR, Germaniya (GDR), Polsha, Chexoslovakiya, Yaponiyada gastrollarda bo‘lgan[125].

O‘zbekiston SSR da musiqa san’ati rivojida Xorazmlik nemislar jamoasidan bo‘lgan Anna Germanning ham alohida o‘rni bor. U 1935-yil Urganchda dunyoga kelgan. U xalqaro miqiyosda tan olingan san’at vakilasi bo‘lgan.v Uning “Bulbullar”, “Umid” (A. N. Paxmutova), “Sevgi aks-sadosi” (E. Ptichkina), “Sen, onam...” (O. Feltsmana), “Orol ortidan bosh oqimga”, “Kuy, kuy, yulduzim”, “Va rahmim menga” qo‘shiqlari O‘zbekistonda ham, Rossiyada ham uzoq vaqtlar jarang sochgan[126]. Sovet O‘zbekistoni madaniyati va san’atida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ko‘plab nemis diasporasi vakillarini sanash mumkin. Ularning san’at namunalarini asrash va nemislarni birlashtirishda 90-yillarda vujudga kela boshlagan va bugungi kunda ham o‘z faoliyatini olib borayotgan milliy madaniyat markazlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ham o‘z faoliyatini davom ettirib kelayotgan “Wiedergeburt” madaniyat markazining Toshkent, Farg’ona, Buxoro va Samarqandda ham bo‘limlari mavjud bo‘lib, nemislar madaniy merosni tiklash, ularning o‘ziga xosligini saqlashni maqsad qilgan holda, o‘zlarining madaniy-ma’rifiy faoliyatini yakshanba maktablari, ona tilini o‘rganish kurslari, milliy ansambllar, kutubxonalar va ko‘rgazmalar tashkil etish, diasporalar hayotiga bag’ishlangan radio va teleko‘rsatuvlar tashkil etishga yo‘naltirilgan. Shuningdek, an’anaviy marosimlarni qayta tiklashga katta ahamiyat bermoqda. 2002 yil iyul oyidan boshlab Markazni uning raisi Natalya Filippovna Kayzer boshqarib kelmoqda. U o‘z faoliyati davomida 2017-yilda Respublika baynalminal madaniyat markazining 25 yilligi munosabati bilan “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi[127] .

[125] Керер Р. Р. // Московская консерватория от истоков до наших дней. 1866–2006. Биографический энциклопедический словарь. — М. 2007. — С. 233.
[126] https://mytashkent.uz/2010/09/02/natsionalnaya-ideya-i-nemtsyi-v-uzbekistane/n
[127] Xalq so’zi. 2017-yil 25-yanvar.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistondagi nemis diasporasining vujudga kelishi uzoq davrlarga borib taqaladi. Ularning turli sohalardagi faoliyati davr siyosatiga mos holda amalga oshirilgan. Xususan, sovet davrida dastlabki vaqtlarda ularda ma’lum cheklovlar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 50-yillardan boshlab ularning o‘z madaniyatini namayon qilish va faoliyatiga ruxsat berilgan. Sovet O‘zbekistonida ko‘plab nemis diasporasi vakillari madaniyat sohasida faoliyat olib borgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Гитлин С.** Национальные отношения в Узбекистане: иллюзии и реальность. – Тель-Авив, 1998. – 458 с.

2. **Иноятова Д. М.** Немецкая диаспора Узбекистана: вехи истории: монография. – Ташкент: Turon-iqbol, 2019. – 408 с.

3. **Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитети ва Ўзбекистон ССР Министрлар Советида.** // Совет Ўзбекистони. – 1989. – № 257 (7 ноября). – С. 1.

4. **Интервью с Ириной Шур.** – 08.07.2025.

5. **Moskauer Deutsche Zeitung.** Rihter: istoki genialnosti [Elektron resurs]. – URL: https://ru.mdz-moskau.eu/rihter-istoki-genialnosti (murojaat sanasi: 30.11.2025).

6. **Керер Р. Р.** Московская консерватория от истоков до наших дней. 1866–2006: биографический энциклопедический словарь. – Москва, 2007. – С. 233.

7. **Mytashkent.uz.** Natsionalnaya ideya i nemtsy v Uzbekistane [Elektron resurs]. – URL: https://mytashkent.uz/2010/09/02/natsionalnaya-ideya-i-nemtsyi-v-uzbekistane/n (murojaat sanasi: 30.11.2025).

8. **Xalq so‘zi.** – 2017-yil 25-yanvar.

FRANSUZ ADABIYOTIDA PROVINSIYA VA QISHLOQ MENTALITETINING BADIIY IFODASI

Mo‘minova Hayitgul Yusuf qizi,

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya: *Maqolada fransuz adabiyotida provinsiya va qishloq mentalitetining badiiy tasviri tahlil qilinadi. XIX-XX asrlarda Balzak, Flober, Zola, Mopassan va boshqa yozuvchilar asarlarida qishloq hayoti, provinsial jamiyat, shahar va qishloq qarama-qarshiligi keng yoritilgan. Tadqiqotda realizm va naturalizm oqimlari doirasida yaratilgan asarlar, psixologik tahlil usullari va ijtimoiy tanqid elementlari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *fransuz adabiyoti, provinsiya, qishloq mentaliteti, realizm, naturalizm, ijtimoiy tanqid.*

Аннотация: *В статье анализируется художественное изображение провинциального и сельского менталитета во французской литературе. В произведениях Бальзака, Флобера, Золя, Мопассана и других писателей XIX-XX веков широко освещены сельская жизнь, провинциальное общество, противопоставление города и деревни. В исследовании рассматриваются произведения, созданные в рамках реализма и натурализма, методы психологического анализа и элементы социальной критики.*

Ключевые слова: *французская литература, провинция, сельский менталитет, реализм, натурализм, социальная критика.*

Abstract: *The article analyzes the artistic representation of provincial and rural mentality in French literature. Works by Balzac, Flaubert, Zola, Maupassant and other writers of the 19th-20th centuries widely depict rural life, provincial society, and the contrast between city and countryside. The study examines works created within the framework of realism and naturalism, methods of psychological analysis and elements of social criticism.*

Keywords: *French literature, province, rural mentality, realism, naturalism, social criticism.*

Fransuz adabiyoti tarixida provinsiya va qishloq hayotining tasvirlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. XIX asrdan boshlab yozuvchilar shahar va qishloq o'rtasidagi ijtimoiy, madaniy va psixologik farqlarni chuqur tahlil qila boshladilar. Bu mavzu romantizm, realizm va naturalizm oqimlari doirasida turli badiiy shakllarda namoyon bo'ldi.

Qishloq mentaliteti – bu markaziy shaharlardan uzoqda joylashgan hududlardagi odamlarning o'ziga xos fikrlash tarzi, qadriyatlari, turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlaridir. Fransuz adabiyotida bu mentalitet ko'pincha konservativlik, an'anaga sodiqlik, qarama-qarshi dunyoqarash va zamonaviy tsivilizatsiyadan uzoqlashish orqali tasvirlanadi.

Realizm davridagi provinsiya tasviri

XIX asr realizmi fransuz adabiyotida provinsiya hayotini eng to'liq aks ettirgan davrdir. Onore de Balzak o'zining "Inson komediyasi" siklida provinsial jamiyatni ijtimoiy anatomiya sifatida taqdim etdi. Uning "Yevgeniya Grande" (1833) romani provinsiya ahli orasidagi mol-mulk, oilaviy munosabatlar va meros masalalarini ochib beradi. J.Uotson ta'kidlaganidek, Balzak provinsial hayotni tasvirlashda moddiy madaniyat va ijtimoiy munosabatlarning o'zaro ta'sirini chuqur tahlil qilgan [1]. Balzak Somer shahrida yashaychi Grandening xasislik va boylik ortidagi ma'naviy qashshoqligini tasvirlash orqali provinsial burjuaziyaning haqiqiy portretini yaratdi.

Gyustav Flober "Madam Bovari" (1856) romanida provinsiya mentalitetining ziddiyatlarini yanada chuqurroq ochdi. Normandiya qishlog'ida yashayotgan Emma Bovari romantik orzular va provinsial reallik o'rtasidagi keskin qarama-qarshilikda nobud bo'ladi. T. Unvin qayd etganidek, Flober psixologik realizm usulida provinsiya muhitining inson ruhiga ta'sirini, intellektual va madaniy cheklanishlarni

ko'rsatgan [3]. Yonvil shaharchasi – bu yerda g'iybat, fikrlar bir xilligi va hayotning monotonligi hukmron – Emma uchun zindon bo'lib qoladi.

Naturalizm va qishloq hayotining ilmiy tasviri

Emil Zola naturalizm nazariyasini qo'llab, qishloq va provinsiya hayotini ilmiy determinizm nuqtai nazaridan tahlil qildi. U o'zining "Yer" (1887) romanida dehqonlar hayotining qo'pol realligini, yer-mulk uchun kurash, primitivlik va hayvoniy instinktlarni ochiq tasvirlaydi. R.Lehan ta'kidlaganidek, Zola irsiyat va muhit omillarining inson taqdirini qanday belgilashini ilmiy aniqlik bilan ko'rsatgan [5]. Naturalizmda qishloq hayoti ideallashtirilmagan, balki ijtimoiy muammolar, qashshoqlik, nodonlik va axloqiy tanazzul manbai sifatida ko'rsatiladi. Zola uchun qishloq – bu zamonaviy tsivilizatsiyadan ortda qolgan, tabiiy qonunlar hukmronlik qiluvchi muhitdir.

Mopassan novellalarida provinsial psixologiya

Gi de Mopassan o'z novellalarida provinsiya va qishloq aholisining psixologik xususiyatlarini mahorat bilan tasvirladi. "Turmush hikoyasi" (1883) romanida u Normandiya dvoryanligining tanazzulini, provinsial jamiyatdagi lichemerlik va madaniy yoxudlikni ko'rsatdi. Mopassan "Kumush tovuq", "Miss Harriet" kabi novellalarida ham provinsiya muhitining odamlarga psixologik ta'sirini ochib berdi. Mopassan asarlarida provinsiya ko'pincha konservatizm, xurofot, an'anaviy qadriyatlarga qattiq yopishib olish bilan tavsiflanadi. Uning qahramonlari – dehqonlar, mayda burjua vakillari, provinsial dvoryanlar – o'zlarining tor dunyoqarashi va aql-zakovatining chegaralanganligini namoyon qiladi.

Shahar va qishloq qarama-qarshiligi

Fransuz adabiyotida doimiy motiv sifatida shahar-qishloq dikotomiyasi namoyon bo'ladi. P. Ferguson ta'kidlaganidek, Parij – inqilob, tsivilizatsiya,

taraqqiyot, madaniy hayot markazi, provinsiya esa statik, konservativ, an'anaviy hayot timsoli sifatida qarshi qo'yiladi [4]. Balzakning ko'plab qahramonlari (masalan, "Yo'qolgan illyuziyalar" romanida Lyusyen Shardon) provinsiyadan Parijga kelishadi va bu ikki dunyo o'rtasidagi keskin farqni his etadilar. Ferguson o'z tadqiqotida Parij shahrining XIX asrdagi fransuz adabiyotida markaziy o'rin egallashini va bu shaharning inqilobiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi [4]. Balzak, Flober va Zola asarlarida shahar va provinsiya o'rtasidagi ziddiyat asosiy ijtimoiy qarama-qarshiliklardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq, ba'zi adiblar (masalan, Jorj Sand) qishloq hayotini ideallashtirib, uni soddalik, halollik va tabiiy go'zallik manbai sifatida taqdim etdilar. Sandning "Iblisning hovuzi" (1846) va boshqa pastorallari qishloq hayotini romantik nuqtai nazardan tasvirlab, shahar tsivilizatsiyasining salbiy oqibatlarini tanqid qildi.

Provinsiya mentalitetining asosiy xususiyatlari

Tadqiqot asosida provinsiya va qishloq mentalitetining quyidagi umumiy xususiyatlarini ajratish mumkin:

- **An'anaviylik va konservatizm:** O'zgarishlarga qarshilik, qadimiy odatlar va qadriyatlarga sodiqlik. T.Unvin ta'kidlaganidek, bu xususiyat XIX asr fransuz romanida doimiy tema sifatida namoyon bo'ladi [3].
- **Mahalliy jamiyat nazorati:** Provinsiyada g'iybat, ijtimoiy nazorat va jamoaviy fikr katta rol o'ynaydi.
- **Intellektual va madaniy cheklanganlik:** Provinsiya ko'pincha ta'lim va madaniyat imkoniyatlari cheklangan hudud sifatida tasvirlanadi. P. Ferguson qayd etganidek, Parij va provinsiya o'rtasidagi madaniy bo'shliq XIX asrda tobora kengayib borgan [4].
- **Iqtisodiy va ijtimoiy statiklik:** Zola asarlarida tasvirlanganidek, qishloq jamiyatida ijtimoiy harakatlanish qiyin, iqtisodiy munosabatlar an'anaviy va o'zgarmas [5].

- **Tabiiy muhit ta'siri:** Naturalistlar iqlim, landshaft va geografik sharoitlarning inson xarakteriga ta'sirini ta'kidladilar. R. Lehan ta'kidlaganidek, bu yondashuv XIX asr oxirida ilmiy determinizm g'oyalarining adabiyotga kirib kelishini ko'rsatadi [5].

Fransuz adabiyotida provinsiya va qishloq mentalitetining badiiy ifodasi murakkab va ko'p qirrali jarayon sifatida namoyon bo'ldi. XIX asr realizmi va naturalizmi bu mavzuni ijtimoiy tanqid va psixologik tahlil vositasiga aylantirdi. Balzak ijtimoiy anatomiya, Flober psixologik realizm, Zola ilmiy determinizm, Mopassan esa psixologik novella janrida provinsial hayotni to'liq tasvirladilar. T.Unvin ta'kidlaganidek, fransuz romani tarixida provinsiya va shahar o'rtasidagi ziddiyat asosiy mavzolardan biri bo'lib qoldi [3]. Provinsiya fransuz adabiyotida nafaqat geografik, balki madaniy va psixologik kategoriya sifatida ham muhimdir. U modernizatsiya jarayonidagi ziddiyatlarni, an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar to'qnashuvini, insonning o'z muhiti bilan munosabatlarini ko'rsatadi.

J.Uotson o'z tadqiqotida XIX asr fransuz adabiyotida moddiy madaniyat va provinsial hayot o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlab, Balzakdan Prustgacha bo'lgan davrdagi yozuvchilar provinsial muhitni tasvirlashda nafaqat ijtimoiy, balki moddiy-madaniy kontekstni ham e'tiborga olganligini ko'rsatadi [1]. XX asrda bu mavzu yangi shakl va mazmun kasb etib, ekzistensializm, modernizm va postmodernizm kontekstida davom etdi. S.Farmer ta'kidlaganidek, XX asr o'rtalarida fransuz qishlog'i keskin transformatsiyaga uchragan bo'lsa-da, qishloq mentaliteti va provinsial qadriyatlar zamonaviy Fransiyada muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda [2]. Fransuz yozuvchilarining provinsiya va qishloq mentaliteti haqidagi qarashlari o'z davrining ijtimoiy-siyosiy sharoitlari bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, ular yaratgan badiiy obrazlar va psixologik tahlillar umuminsoniy ahamiyat kasb etadi. Bu asarlar odamning o'z muhiti, jamiyat va taqdiri bilan munosabatlarini tushunishda muhim hissa qo'shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Watson J. Literature and Material Culture from Balzac to Proust: The Collection and Consumption of Curiosities. Cambridge: Cambridge University Press, 2000. 224 p.
2. Farmer S. Rural Inventions: The French Countryside after 1945. New York: Oxford University Press, 2020. 200 p.
In TBL, a "task" is defined as an activity in which learners use language to achieve a real outcome — such as solving a problem, sharing information, or making a decision. This concept aligns with cognitive and constructivist learning theories, which suggest that knowledge is best acquired through active participation and interaction. Tasks engage learners in using language for genuine purposes, thereby strengthening both fluency and accuracy through practice.

For beginner-level students, the theoretical foundation of TBL offers particular benefits. It encourages a low-anxiety environment where learners can experiment with language in context. Simple, meaningful tasks provide scaffolding that helps students move from controlled language practice to spontaneous communication. This gradual progression supports not only linguistic competence but also the development of confidence — a vital component in early language acquisition.

Practical implementation of simple tasks for beginners. In beginner-level English classrooms, task-based learning focuses on simple, achievable activities that promote real communication. The goal is not perfect grammar, but the ability to use English meaningfully and confidently. Teachers design tasks that match learners' daily experiences—such as introducing themselves, describing their routines, or ordering food. These tasks help students see English as a tool for interaction rather than an academic subject.

A typical TBL lesson for beginners follows three stages: **pre-task, task cycle, and language focus** (Willis, 1996). In the *pre-task* phase, teachers introduce key vocabulary and model the activity to ensure comprehension. During the *task cycle*, students work individually, in pairs, or in groups to complete communicative goals using the target language. Finally, in the *language focus* phase, learners reflect on their performance and correct mistakes, guided by the teacher.

Simple tasks such as role-plays, matching games, short interviews, or picture descriptions encourage students to use English naturally. These activities integrate listening, speaking, reading, and writing skills while reinforcing vocabulary and grammar in context. Most importantly, each completed task gives learners a sense of achievement, building self-confidence and motivation to continue learning the language.

Conclusion: Task-Based Learning (TBL) proves to be a powerful and learner-centered approach, especially for beginner-level English students. By shifting the focus from rote memorization to meaningful communication, TBL creates an engaging and supportive classroom environment. Through simple, real-life tasks, learners gradually develop not only their linguistic competence but also their confidence to use English spontaneously. The integration of communication, collaboration, and reflection helps students build a solid foundation for further language development. Therefore, even the simplest tasks can serve as effective tools for promoting active learning, motivation, and long-term language growth.

References

1. Bygate M., Skehan P., Swain M. (eds.). *Researching Pedagogic Tasks: Second Language Learning, Teaching, and Testing*. – London: Pearson Education, 2001.
2. Ellis R. Task-based language teaching: sorting out the misunderstandings // *International Journal of Applied Linguistics*. – 2009. – Vol. 19, № 3. – P. 221–246.

3. Littlewood W. Communicative and task-based language teaching in East Asian classrooms // *Language Teaching*. – 2007. – Vol. 40, № 3. – P. 243–249.
4. Rahimpour M. Implementation of task-based approaches to language teaching // *Asian EFL Journal*. – 2008. – Vol. 10, № 3. – P. 97–106.
5. International Journal of Applied Linguistics. Task-based language teaching: sorting out the misunderstandings [Elektron resurs]. – Rejim: https://www.ijal.org/article/10.1111/j.1473-4192.2009.00231.x
6. *Second Language Acquisition and Task-Based Language Teaching* [Elektron resurs]. – Rejim: https://openlibrary.org/books/OL31020953M/Second_language_acquisition_and_task-based_language_teaching

PEDAGOGIKANING MAQSADI VA VAZIFALARI

Perdeshova Nargiza Esenbayevna
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Umirzoqov Bahriddin Ulug‘murod o‘g‘li
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
O‘rinova Aziza Eshdavlat qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Abdujalilova Maxmuda Baxodirovna
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Nuriddinova Maftuna Muhiddin qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Yusupova Lola Muxiddin qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Annotatsiya: *ushbu maqola pedagogikaning maqsadi va vazifalarini keng qamrovli yo‘l-yo‘riqlar bilan tahlil qiladi. Unda pedagogikaning mohiyati, uning*

jamiyat, ta’lim tizimi va individual rivojlanishdagi o‘rni, metodologik yondashuvlar, ma’naviy-intellektual va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdagi roli, o‘quv jarayonini rejalashtirish va baholash mezonlari, hamda zamonaviy pedagogik tadqiqotlar kontekstida maqbul yondashuvlar ko‘rsatib o‘tiladi. Maqola o‘qituvchi va ta’lim muassasalari uchun amaliy tavsiyalar, shuningdek o‘quvchilar uchun motivatsion omillarni ham o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: *pedagogika, maqsad, vazifa, ta’lim-tajriba, o‘quvchi rivojlanishi, o‘qituvchi roli, metodologiya, baholash, didaktika, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ta’lim siyosati, o‘quv jarayoni.*

Аннотация: *В этой статье анализируются цели и задачи педагогики с комплексным руководством. В ней изложены суть педагогики, её роль в обществе, образовательной системе и индивидуальном развитии, методологические подходы, роль в формировании духовных, интеллектуальных и практических навыков, критерии планирования и оценки образовательного процесса, а также оптимальные подходы в контексте современных педагогических исследований. В статье приведены практические рекомендации для учителей и образовательных учреждений, а также мотивационные факторы для учащихся.*

Ключевые слова: *педагогика, цель, задача, образовательный опыт, развитие ученика, роль учителя, методология, оценка, дидактика, современные педагогические подходы, образовательная политика, образовательный процесс.*

Annotation: *This article analyzes the aims and objectives of pedagogy with a comprehensive guideline. It outlines the essence of pedagogy, its role in society, the educational system and individual development, methodological approaches, role in the formation of spiritual, intellectual and practical skills, criteria for planning and evaluation of the educational process, as well as optimal approaches in the context of modern pedagogical research. The article includes practical recommendations*

for teachers and educational institutions, as well as motivational factors for students.

Keywords: *pedagogy, purpose, task, educational experience, student development, teacher role, methodology, assessment, didactics, modern pedagogical approaches, education policy, educational process.*

Kirish

Pedagogika — inson tarbiyasi, bilimlarni o‘zlashtirish, ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonini tahlil qiluvchi ilmiy-amaliy soha. U nafaqat o‘quv materialini o‘rgatish, balki o‘quvchining ijtimoiy, emotsional va kognitiv imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bir qator metodlar, vositalar va prinsiplarni o‘z ichiga oladi. Maqsadlar jamiyat ehtiyojlari, ta’lim tizimining umumiy maqsadlari va individual o‘quvchining potensialini uyg‘unlashtirishdan iborat. Ushbu maqolada pedagogikaning asosiy maqsadlari, vazifalari va ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llari keng yoritiladi.

Pedagogika grekcha «paydagogik» so’zidan olingan bo’lib, «bola yetaklovchi» degan ma‘noni bildiradi. Mustaqil pedagogika fani XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida vujudga kelgan. Pedagogika tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishni, uning qonuniyatlarini ochib berishni va shu orqali inson manfaatlari uchun tarbiya jarayonlariga ta‘sir etishni nazarda tutadi. Demak pedagogika fani o’sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ta‘lim-tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlari va amalga oshirish yo’llarini o’rgatuvchi fandir. Shuni unutmaslik kerakki, pedagogika fani yutuqlarisiz jamiyatni olg’a siljitish g’oyat mashaqqatli kechadi.Pedagogika fanini ham nazariy, ham amaliy jihatdan puxta o’rganish lozim. Ta‘lim-tarbiyadan ko’zlangan maqsadni anglash va ular tizimida yangi bilimlar berish – bolalarni to’g’ri tarbiyalash shartidir. Bunda o’qituvchining beg’araz mehnati, bolalarni sevish va ularga jon fido aylashlari tarbiya samaradorligini ta‘minlaydi. Tarbiyalash g’oyat nozik san‘at bo’lib, unga jiddiy yondoshmoq darkor. Ayniqsa pedagoglar ushbu fanni chuqur va puxta bilishlari shart.

Hozirgi kunda pedagogikani (mutaxasissislikdan qat‘iy nazar) hamma bilish lozim bo’lgan fan deb hisoblash lozim, chunki insonlar hayot faoliyatlari davrida ta‘lim-tarbiya ishlari bilan ma‘lum darajada shug’ullanishga majburdirlar.Pedagogikaning nazariy kurtaklari falsafa negizida paydo bo’lgan.Qadimdan inson tarbiyasiga oid bo’lgan fikrlar, qarashlar xalq maqollarida, afsonalarda, dostonlarda o’z ifodasini topgan. Markaziy Osiyo allomalaridan A. Yassaviy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, A. Jomiy, A. Navoiy kabi ma‘rifatparvar ajdodlarimizning ta‘lim-tarbiya, inson kamoloti haqidagi g’oyalari, fikr va qarashlari o’z asarlarida batafsil bayon qilingan.

Asosiy qism

Pedagogika yosh avlod tarbiyasida uning yosh va individual (psixologik) xususiyatlarini hisobga olib boradi. Shu bois pedagogika uchun pedagogik psixologiyaning bola xususiyatlari, ularda o’tadigan psixik jarayonlarining qonuniyatlari haqidagi ma‘lumotlar muhimdir. Shunga ko’ra pedagogikaning psixologiya fani bilan bog’liqligi an‘anaviy tus olgan. Pedagogika fani ob‘ekti yil sayin kengayib bormoqda, natijada uning tarmoqlari ham bir necha guruhlarga ajralmoqda.Ular pedagogika fanlari tizimlari deb ataladi.Hozirgi vaqtda pedagogika bir necha tarmoqlarga bo’lingan. Jumladan, umumiy pedagogika (maktab yoshidagi o’quvchilarni tarbiyalash va o’qitish haqida bahs yuritadi), maktabgacha tarbiya pedagogikasi (maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash muammolari bilan shug’ullanadi), madaniy-oqartuv pedagogikasi (madaniy-ma‘rifiy ishlarni boshqarish muammolarini o’rganadi), hunar-texnika ta‘limi pedagogikasi, harbiy pedagogika kabi tizim tarmoqlari mavjud.

Pedagogika fanini ulkan katta daraxtga qiyoslash mumkin. Har bir fan o'z rivojlanishida, o'z nazariyalarini boyitadi, o'zining ichki amaliy yo'nalashlariga tayanib takomillashib boradi. Hozirgi vaqtda pedagogika fani o'z fanlari tizimiga ega. Ular:

Umumiy pedagogika (insonga, shaxsga ta'lim tarbiya, ma'lumot berish shakli, mazmuni, usullari va ularni shakllantirishning, tarbiyalashning umumiy qonuniyatlarini tadqiq qiladi va amaliyotda qo'llashga o'rgatadigan);

Yoshlar pedagogikasi (turli yoshdagi kishilarga ta'lim tarbiya berish, shaxsni shakllantirishning o'ziga xos tomonlarini o'rganadi);

Maktab pedagogikasi (maktab yoshdagi o'quvchilar ta'lim tarbiya sohasining o'ziga xos tomonlarini o'rganadi);

Maktabgacha tarbiya pedagogikasi (maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish, tarbiyalashning o'ziga xos tomonlarini);

Pedagogika tarixi (turli tarixiy davrlarda maktablar ta'lim tarbiyasi, pedagogik g'oyalarning mazmuni, rivojlanish masalalarini);

Metodika (ta'limning umumiy qonuniyatlarini muayyan predmetlaridan (ya'ni ona tili, adabiyot, tarix, fizika, ximiya, matematika, jismoniy tarbiya) dars berishda qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarni, usullarini tadqiqi qiluvchi sohasi);

Oila pedagogikasi (oila muhiti, a'zolari, sharoiti, ta'lim tarbiyasining umumiy masalalarini);

Kasb pedagogikasi (ishlab chiqarish), (turli kasblarning o'rganishning umumiy masalalarini);

Qiyosiy pedagogika (G'oyalarni taqqoslab xulosa chiqarish masalalari);

Xalq pedagogikasi (mazkur xalqi ta'lim tarbiyasi, maktabi, ijtimoiy turmush tarzi, madaniyati, ma'naviyati, ahloq odobi singarilarni);

Ijtimoiy pedagogika (barcha yoshdagi fuqarolarni tarbiyalashning zama'naviy imkoniyatlari, vositalari va manbalarini);

Tibbiyot pedagogikasi;

Harbiy pedagogika;

Rahbarlik pedagogikasi;

Mehnat pedagogikasi singari tarmoqlari mavjud.

Maxsus pedagogika: (Defektologiya) Pedagogika faqat sog’lom o’quvchilarning ta‘lim-tarbiyasi bilangina emas, balki kamolotda qusuri bor bolalar

ta‘lim-tarbiyasini ham o’rganadi.Bunday tarmoqlarni maxsus pedagogika deb yuritiladi.

Pedagogikaning mohiyati va umumiy maqsadlari:

Pedagogika jamiyatning ta’lim ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy fan sifatida insonni tarbiyalash, bilim olishi, ko‘nikmalarni qozonishi va shaxsiylik shakllanishini maqsad qilib qo‘yadi.

Umumiy maqsadlar:

a) o‘quvchining kognitiv potentsialini rivojlantirish,

b) munosabatlar, axloqiy-ijtimoiy qobiliyatlarni shakllantirish,

c) mustaqil fikrlash va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini mustahkamlash,

d) jamiyat talablari va madaniy merosga hurmat ruhini tarbiyalash.

Pedagogikaning uch asosiy yo‘nalishi mavjud: didaktika (bilim berish san’ati), tarbiyaviy (shaxsiyiyat shakllanishi), va metodologiya (ilmiy-badiiy yondashuvlar va tadqiqotlar).

Maqsadlar turlari: umumiy (filosofik-axiomatik), maxsus (aniq o‘quv predmetlari ichida konkret natijalar), va xususiy (o‘quvchi shaxsiy xosiyati bilan bog‘liq natijalar).

Vazifalariga shularni kiritishimiz mumkin:

a) dasturlarni rejalashtirish va ta’limiy faoliyatni qurish,

b) o‘quv jarayonini boshqarish va nazorat qilish,

c) o‘quvchini motivatsiyalash,

d) didaktik vositalar va texnologiyalardan samarali foydalanish,

e) baholash va tahlil qilish.

Pedagogik nazariyalar, amaliyotga tatbiq etilganda o‘quvchilarning o‘sishi uchun yanada samarali natijalarni beradi.Monitoring va tadqiqotlar orqali o‘qituvchilar o‘z faoliyatini doimiy ravishda baholab, jarayonni takomillashtirishlari mumkin.

Xulosa

Hozirgi davrda pedagogikaning vazifasi milliy istiqlol g'oyalaridan kelib chiqadigan ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metodlarini ishlab chiqish, milliy ta'lim tizimini yaratish va yosh avlodni bilim, ma'naviy madaniyatini jahon andozalari darajasiga yetkazishdir

Pedagogikaning maqsadi va vazifalari ta'lim-tarbiya jarayonining markazida bo'lib, har bir o'quvchi uchun moslashgan, keng qamrovli, hamda modern talablariga javob beruvchi ta'lim muhitini yaratishni talab qiladi. O'qituvchi roli nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyalovchi, motivator va metodolog bo'lib, ehtiyojlar va imkoniyatlar o'zaro moslashayotgani muhim. Zamonaviy pedagogika sinfda, maktabda va jamiyatda o'quvchilarning ijtimoiy-muhit bilan integratsiyasini ta'minlab, ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlarni qo'llab-quvvatlaydi. Shunday qilib, maqsadlar aniq belgilangan, vazifalar esa bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon sifatida ta'lim-tarbiyaga tatbiq etilishi lozim.

Umuman, pedagogika fani o'z oldidagi maqsad va vazifalarni hal etishda boshqa fanlar yutuqlaridan foydalanmasdan ish olib borish mumkin emas degan xulosaga kelish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbek pedagogikasi tarixi. (Ko'llanma. prof. A.Zunnunov taxriri ostida). T. "O'kituvchi". 1997.
2. Pedagogika. (Ko'llanma. A Munavvarov taxriri ostida) T. "O'kituvchi". 1996.
3. Pedagogika. (Ko'llanma. prof. A.Ilina taxriri ostida). M. 1984.
4. . Ochilov M. Universitetlar tizimida pedagog xodimlar tayyorlash muammolari. "Ta'lim va tarbiya" jurnali. 1997. 5-6 son.
5. Pedagogika. (Ma'ruzalar matni. Prof. N.Gaybullayev taxriri ostida). T. «Universitet». 1999.
6. Ibragimov Sh.. Zamonaviy pedagogika metodlari. Toshkent: Adabiyot, 2021.
7. Karimova X. K. Inkluziv ta'lim asoslari. Tashkent: NUR, 2023.
8. WHO/UNICEF. Framework for 21st Century Skills in Education. 2020.

JASORAT TIMSOLI QAL`ALAR - TARIXGA TASHNA KO`NGILLAR MANZILI

Po‘latova Munojat

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Nurullayeva Shoira

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm vohasida qadimdan qad rostlab kelgan qal’alar tizimi - Ayozqal’a, Tuproqqal’a, Katta Guldursun qal’a, Qo`yqirilgan qal’a, Qirqqiz qal’a kabi me’moriy yodgorliklarning tarixiy, mudofaa va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. “Jasorat timsoli qal’alar” iborasi orqali bu inshootlarda mujassam bo`lgan xalqning mardlik ruhi, vatanni himoya qilish va davlatchilik tajribasi yoritiladi. Shuningdek, Xorazm qal’alari zamonaviy tadqiqotchilar, tarixga tashna yoshlar hamda sayyohlar uchun bebaho ilmiy manzilga aylangani, ular orqali o`tmish sivilizatsiyasining turmush tarzi va siyosiy hayoti haqida muhim ma’lumotlar olinishi ko`rsatib beriladi. Ushbu tadqiqot ishi Xorazmning boy tarixiy merosini asrash va uni keng jamoatchilikka yetkazish borasidagi ilmiy izlanishlarning ahamiyatini ochib beradi.*

Abstract: *This article analyzes the historical, defensive and cultural significance of the ancient system of fortresses in the Khorezm oasis - Ayozkal'a, Tuproqkal'a, Katta Guldursun Kala, Koykirilgan Kala, Kyrqqiz Kala, etc. The phrase "fortresses symbolizing courage" highlights the courageous spirit of the people, the experience of defending the homeland and statehood embodied in these*

structures. It is also shown that the fortresses of Khorezm have become an invaluable scientific destination for modern researchers, young people thirsty for history, and tourists, through which important information about the lifestyle and political life of the past civilization can be obtained. This research work reveals the importance of scientific research to preserve the rich historical heritage of Khorezm and bring it to the general public.

Аннотация: *В данной статье анализируется историческое, оборонительное и культурное значение древней системы крепостей Хорезмского оазиса - Аёзкала, Тупроккала, Катта Гулдурсун-кала, Койкирилган-кала, Кырккиз-кала и др. Выражение «крепости, символизирующие мужество» подчеркивает мужественный дух народа, опыт защиты Родины и государственности, воплощенные в этих сооружениях. Также показано, что крепости Хорезма стали бесценным научным направлением для современных исследователей, молодежи, жаждущей истории, и туристов, посредством которого можно получить важную информацию об образе жизни и политической жизни прошлой цивилизации. Данная исследовательская работа раскрывает важность научных исследований для сохранения богатого исторического наследия Хорезма и доведения его до широкой общественности.*

***Kalit so`zlar:*** *Xorazm qal'alari, Qoraqalpog'iston hududi, Tuproqqal'a, Ayozqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Katta Guldursun qal'a, Qirqqizqal'a, "Qatag`on qurbonlari xotirasi" muzeyi.*

Keywords: *Khorezm fortresses, territory of Karakalpakstan, Tuproqqala, Ayozqala, Koykirilganqala, Katta Guldursun fortress, Kyrgyzqala, Museum of "Memory of Victims of Repression".*

Ключевые слова: *крепости Хорезма, территория Каракалпакстана, Тупроккала, Айозкала, Койкирилганкала, крепость Катта Гулдурсун, Кыргызкала, Музей «Памяти жертв репрессий».*

Kirish. Madaniy meros har bir xalqning o`tmishdan qolgan bebaho xazinasi, milliy o`zligini belgilovchi eng asosiy omillardan biridir. Ajdodlardan avlodlarga uzluksiz o`tib kelayotgan yodgorliklar nafaqat tarixiy xotira, balki kelajak taraqqiyotning mustahkam manbasidir. Shu bois madaniy merosimizni e'zozlash, uni asrab-avaylash hamda kelajak avlodlarga yetkazish jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qadimiy sivilizatsiyalar markazlaridan hisoblangan Xorazm hamda Qoraqalpog`iston hududlarida joylashgan arxeologik majmualar, mudofaa va me'moriy inshootlar milliy tarixni o`rganish uchun g`oyat qimmatli materiallarni taqdim etadi. Bu mintaqalardagi Ayozqal'a, Tuproqqal'a, Katta Guldursun qal'a, Qo`yqirilgan qal'a, Qirqqiz qal'alari o`tmish xo`jaligi, harbiy tizimi va shaharsozlik madaniyatlarini aks ettiribgina qolmay, Markaziy Osiyodagi davlatchilik an'analari va ijtimoiy hayot tuzilmalarini tahlil qilishda muhim ilmiy asos bo`lib xizmat qiladi. Shunday ekan, qadimiy istehkomlarni kompleks o`rganish, ularning arxeologik qatlamlarini saqlab qolish, restavratsiya va konservatsiya jarayonlarini ilmiy metodlar asosida amalga oshirish ma'naviy boylikni barqaror asrashning muhim masalalaridan biri sifatida ko`riladi.

Asosiy qism. Xorazm sivilizatsiyasining shakllanishi va qal'alar tizimi qadimiy davrlardan boshlab mustahkam davlat tuzilmasiga ega bo`lgan hududlardan biridir. Miloddan avvalgi ming yilliklarda shakllangan Xorazm davlatining mudofaa tizimi o`z davrida Markaziy Osiyoning eng ilg`or inshootlaridan bo`lgan. Bu hududda qad ko`targan qal'alar davlatni tashqi tahdidlardan himoya qilgan, ichki boshqaruv markazi vazifasini bajargan, savdo yo`llarini nazorat qilib turgan.

Tuproqqal'a, Ayozqal'a, Katta Guldursun qal'a, Qo`yqirilgan qal'a va Qirqqiz qal'asi kabi yodgorliklar shunchaki tarixiy bino emas, balki o`tmishning tirik guvohlari sifatida qadrlanadi.

Ushbu yirik inshootlar aynan Xorazmning buyuk tamaddun o`chog`i bo`lganini yaqqol isbotlaydi. Ularning har biri o`ziga xos arxitektura, mudofaa usullari va madaniy - ma'rifiy ahamiyatga ega.

Tuproqqal’a - qadimiy Xorazm shaharqal’a xarobalari, “Katta tuproq tepalik” degan ma’noni anglatadi. Ushbu obyekt miloddan avvalgi I - milodiy VI asrlarga oid bo`lib, ayniqsa milodiy III-IV asrlarda Xorazm shohlarining qarorgohi va muhim ma’muriy markaz sifatida faoliyat ko`rsatgan. Arxeologik qazishmalar natijasida saroy xonalari, turarjoy hududlari va qasrlar aniqlangan, hamda VI asrga oid tangalar, devoriy rasmlar va boshqa topilmalar Tuproqqal’ani qadimgi Xorazmning siyosiy va madaniy markazlaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Ba’zi tadqiqotchilar ushbu ajdodlarimizdan qolgan nodir merosni “Yer shahri” yoki “Xorazm xazinasi” deb ataganlar. Hozirgi kunda bu ko`hna qo`rg`on - himoyalanishi va to`liq o`rganilishi zarur bo`lgan arxeologik majmua, hamda mahalliy turizm va ta’lim uchun qimmatli manbadir.

Qoraqalpog`iston hududida qad rostlab turgan Ayozqal’a - bu nafaqat tuproq va g`ishtdan bunyod etilgan zabardast qo`rg`on, balki ming yillik o`tmishning tirik timsolidir. Eng yirik va yaxshi saqlangan, asrlar sinovidan o`tib kelgan durdonalardan biri sanaluvchi mustahkam inshoot qadimiy Xorazm davlatining harbiy - siyosiy qudratini namoyon etadi. Baland devorlari, keng maydonlari va strategik joylashuvi o`tmishda qanday muhim markaz bo`lganini yaqqol ko`rsatadi.

Bugun Ayozqal’a - tarixga tashna insonlar uchun bebaho makon, o`tmish nurlarini hozirgi avlodga yetkazib turuvchi qadri baland tarixiy merosdir. Shamol ostida osoyishta jim turgan bu makon har bir tashrif buyuruvchiga shunday xitob qilgandek tuyuladi: “O`tmishni asrang, chunki kelajakni ana shu ildizlar tutib turadi”.

O`z davrining mustahkam qal’alaridan biri bo`lgan Katta Guldursun qal`asi, arxeologik qazishmalar natijasida har qanaqa tashqi xavfga qat’iy qarshilikni tashkil etishga mo`ljallangan, ko`plab o`q otish tuynuklari bo`lgan mustahkam devor bilan o`rab olingani aniqlangan. Qal’a devorlari va xarobalari bugunga qadar qisman saqlanib qolgan bo`lib, sayyohlar va tarix-madaniyat ixlosmandlari uchun jozibali obida hisoblanadi.

Qadimiy Xorazmning himoya va ilmiy markazlaridan biri bu Qo`yqirilgan qal'asi, arxeologlar va tadqiqotchilar fikricha odatda ibodatxona va dafn majmuasi sifatida foydalanilganini ta'kidlashadi. Qolaversa, topilmalar orasida osmon jismlarini kuzatishga mo`ljallangan buyumlar ham borligi aytiladi; bu esa - qal'a astronomik kuzatishlar uchun ham xizmat qilgan bo`lishi mumkinligini ko`rsatadi. Bugungi kunda - tarixiy va arxeologik obida sifatida qadrlanib, "qal'alar vodiysi" deb ataladigan qadimiy qal'alar zanjirining bir qismi hisoblanadi.

Xorazmning shimoliy hududlarida joylashgan Qirqqiz qal'asi - qadimiy dunyoning nodir manzarasi bo`lib, asrlar davomida saqlanib kelgan mustahkam himoya majmuasi sifatida ajralib turadi. Ushbu qarorgoh o`zining g`oyat murakkab devor tizimi, minoralari va strategik balandlikka joylashuvi bilan mudofaa texnologiyalarni yuqori darajada rivojlanganligini ochiq - oydin aks ettiradi. Har bir qoldiq devor va minora hamda ochiq osmon ostida yoyilib, ajdodlarimiz izlaridan xabar berayotgan sopol buyum bo`laklari asrlar izining yorqin tasdiqlari sifatida tarixiy voqealarni eslatib turadi va qal'ani tadqiq etuvchi har bir inson uchun qadimiy madaniyatning boy qatlamlarini ochib beradi. Shu tariqa, Qirqqiz qal'asi faqat qadimiy arxitektura majmuasi emas, balki o`tmish avlodlarning hayoti va urf - odatlarini o`rganish imkonini beruvchi noyob ilmiy manbaga aylangan.

Shu o`rinda joriy yil yoz mavsumida Qirqqiz qal'asida bo`lganimizda noyob topilmalarni guvohi bo`ldim va ushbu tarixiy qiymatga ega nodir buyumlarni Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tasarrufidagi "Qatag`on qurbonlari xotirasi" muzeyiga topshirib, qimmatbaho merosimizni asrab-avaylash va keng jamoatchilikka yetkazishda o`z hissamni qo`shdim. Bu esa mening tarixshunos sifatida ilk katta qadamlarimdan biri bo`ldi desam mubolag`a bo`lmaydi. Bilamizki bu qal'alar to`g`risida ma`lumotlar juda kam. Shu bois oldimga qo`ygan oliy maqsadlarimdan yana biri shuki, ushbu mudofaa binolari va cho`l bag`rida, qum barxanlari ostida yashiringan, tarixdan sado berayotgan sopol

buyumlar ustida ilmiy izlanishlar olib borib, xalqimizning boy tarixini butun dunyoga tanitishdir.

Yuqorida aytib o`tilgan, o`tmish sahifalarida nomlari zikr qilingan tarixiy istehkomlar - Tuproqqal'a, Ayozqal'a, Katta Guldursun qal'a, Qo`yqirilgan qal'a, Qirqqiz qal'alari nafaqat o`zbek xalqining, balki butun insoniyatning beqiyos merosidir. Ularni asrash - o`tmishga hurmat, kelajak avlodga mas'uliyatdir. Har bir qal'a bizga tarixiy sharaf, jasorat va ma'naviy qudrat haqida hikoya qiladi. Shu bois ular bugun ham asrab-avaylashimiz, ilmiy o`rganishimiz va dunyoga keng tanitishimiz lozim bo`lgan yuksak ahamiyatga ega muqaddas manbalar sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Masharipov O., Abdullayev O.** *"Xorazmnoma".* 9-kitob: Ko'hna Xorazm hududida tashkil topgan davlatlar. – Toshkent, 2020.
2. **Sagdullayev A.** *O'rta Osiyo qadimiy shaharsozligi tarixi.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. **Hasanov B.** *Xorazm hududidagi qadimiy qal'alar tadqiqoti.* – Urganch: UrDU nashriyoti, 2022.
4. **Xodjaniyozov G'.** *Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari.* – Toshkent: O'zbekiston, 2007.
5. **Asqarov A.** *Qadimgi Xorazm madaniyati.* – Toshkent: Fan nashriyoti, 2019.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA ABDULLA ORIPOV ASARLARINI O'QITISH METODIKASI

Qudratova Manija Shohmansur qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Maqolada Abdulla Oripov asarlarini umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitishning metodik asoslari yoritiladi. Poetik konseptlar bo‘yicha tahlil, multimodal ta’lim yondashuvi, bosqichli poetik tahlil modeli va o‘quvchilarning kognitiv qabul jarayoniga moslashtirilgan metodlar ilmiy asoslangan holda taklif etiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shoir ijodini zamonaviy metodlar asosida chuqur o‘qitish imkonini beruvchi yangi metodik tizimni yaratishga qaratilgan.

Annotation:The article examines methodological approaches to teaching Abdulla Oripov’s works in general secondary schools. It introduces conceptual poetic analysis, multimodal literary teaching, a step-by-step poetic interpretation model, and cognitive-based instructional methods. The scientific novelty lies in developing an innovative methodological system that enables deeper and more modern teaching of Oripov’s poetry.

Аннотация:В статье освещаются методические основы преподавания произведений Абдуллы Орипова в общеобразовательных школах. Предлагаются концептуальный поэтический анализ, мультимодальный подход к обучению, поэтапная модель поэтического анализа и методы, основанные на когнитивном восприятии учащихся. Научная новизна заключается в создании новой методической системы для углубленного и современного изучения поэзии Орипова.

Kalit so‘zlar: Abdulla Oripov, adabiyot metodikasi, poetik konsept, multimodal ta’lim, poetik tahlil, maktab adabiyoti, kognitiv qabul.

Keywords (English): Abdulla Oripov, teaching methodology, poetic concept, multimodal learning, poetic analysis, literary education, cognitive perception.

Ключевые слова (Russian): Абдулла Орипов, методика преподавания, поэтический концепт, мультимодальное обучение, поэтический анализ, школьная литература, когнитивное восприятие.

Kirish. O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida shoir Abdulla Oripov ijodi alohida o‘ringa ega. Shoirning Vatan, istiqlol, insoniylik, ma’naviyat kabi umuminsoniy

g‘oyalar bilan yozilgan she’rlari nafaqat badiiy-estetik, balki tarbiyaviy jihatdan ham ulkan ahamiyatga ega. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari adabiyot darslarida Oripov ijodini o‘qitish metodikasini takomillashtirish bugungi ta’lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biridir. Zamonaviy metodlar, innovatsion ta’lim vositalari, interaktiv yondashuvlar o‘quvchilarda shoir asarlarini chuqur anglash, badiiy tafakkurni rivojlantirish, milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada Abdulla Oripov asarlarini o‘qitishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan metodik yondashuvlar, interaktiv uslublar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Ilmiy yangilik shundan iboratki, maqolada A.Oripov asarlarini o‘qitish jarayoniga “poetik konsept tahlili”, “multimodal adabiyotshunoslik” va “mazmuniy-badiiy qatlamlar bo‘yicha bosqichli o‘qitish modeli” kabi ilgari maktab metodikasida yetarlicha qo‘llanmagan yondashuvlar birinchi marta metodik tizim sifatida taklif etiladi. Shuningdek, o‘quvchilar yoshiga mos holda shoir ijodining kognitiv qabul mexanizmi izohlanadi.

Asosiy qism: Badiiy asarning bosh unsuri — so‘z, keng ma’noda esa til hisoblanadi. Ana shu asarning chinakam san’at darajasiga ko‘tarila olishi, avvalo, muallifning til vositalaridan qay darajada o‘rinli, mahorat bilan foydalana olishiga bog‘liq. Adabiyotimizda iz qoldirgan har qanday ijodkor asarlarining tilini o‘rganish, birinchidan, adibning badiiy mahoratini ochib berish, ikkinchidan, uning ijodi tilimiz taraqqiyotiga qay jihatdan ta’sir ko‘rsatganini belgilash zaruratidan kelib chiqadi. Tadqiqot jarayonida asar tilining fonetik, leksik va sintaktik xususiyatlarini kuzatish orqali ijodkorning o‘ziga xos uslubi, fikr ifodalash tamoyillari, obraz yaratish mahorati yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Hozirgi o‘zbek adabiyoti, xususan, she’riyat jamiyatimizning ma’naviy-ma’rifiy jihatidan yuksalishiga ham sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Biz ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o’zlikni anglashning o‘sishidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning

ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz”. [136] O‘zbek she’riyati tarixidan bizga shu narsa ma’lumki, har bir shoir ijodi o‘ziga xos mahorat maktabi sanaladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari adabiyot darsliklarida Abdulla Oripov ijodiga muntazam ravishda alohida o‘rin beriladi. Shoirning she’rlari turli sinf bosqichlarida qayta-qayta o‘rganiladi, chunki uning asarlari o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda ma’naviy-axloqiy, estetik va vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Kichik sinf o‘quvchilari asosan shoirning yengil, tushunarli, milliy qadriyatlarga doir she’rlari bilan tanishadilar. Bu bosqichda o‘quvchilarda ona Vatanga muhabbat, til va madaniyatga hurmat uyg‘otuvchi satrlar muhim ahamiyat kasb etadi. O‘rta sinflarda o‘quvchilar shoirning falsafiy mushohadaga boy, ichki kechinmalar va umuminsoniy g‘oyalarni aks ettirgan she’rlarini o‘rganadilar. Bu davrda Oripovning ramziy obrazlar, poetik fikrlash, kuchli metaforalar orqali yaratilgan badiiy dunyosi haqida chuqurroq tasavvur shakllanadi. Yuqori sinflarda esa Abdulla Oripov ijodi keng doirada yoritiladi. Uning milliy istiqlol mafkurasi bilan bog‘liq she’rlari, falsafiy qarashlari, jamiyat, ijtimoiy hayot, vijdon, erkinlik, ma’naviy mas’uliyat haqidagi fikrlari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilar Oripovning tarjimalari, publitsistik chiqishlari, she’riyatdagi o‘rni va adabiyotdagi umumiy estetik qarashlari bilan tanishadilar.

Abdulla Oripov asarlarini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda birinchi navbatda shoir ijodining badiiy tabiatini, poetik vositalar tizimini va g‘oyaviy mazmunini o‘quvchilarga mos shaklda yetkazish muhimdir. Oripov she’riyati falsafiy teranlik, ramziy obrazlar tizimi, milliy ma’naviyat va tarixiy xotira bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun ham o‘qitish jarayonida an’anaviy tushuntirish usuli bilan bir qatorda zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvdan foydalanish samarali hisoblanadi.

[136] O‘z. Resp. Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev Odamlar yaxshi yashashi uchun zarur sharoit yaratish - barcha rahbarlarning asosiy vazifasidir. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 28-fevral

Dars jarayonida shoirning Vatan, erk, e’tiqod, inson qadr-qimmati haqidagi she’rlari o‘quvchilar qalbiga yaqin mavzulardan bo‘lgani sababli, individual fikr bildirish, badiiy tahlil, munozara, kichik guruhlar bilan ishlash kabi metodlar mazmunni chuqurroq anglashga yordam beradi. Ayniqsa, “O‘zbekiston”, “Onajon”, “Alloh dargohi”, “Sen yetim emassan”, “Shoir yuragi” kabi she’rlarni o‘qitishda o‘quvchilarning hayotiy tajribasi va shaxsiy kechinmalarini hisobga olgan holda izohli tahlil o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Poetik konseptlar asosida o‘qitish yondashuvi ham alohida ahamiyatga ega. “Vatan”, “Ona”, “Erk”, “Imon”, “Mas’uliyat” kabi konseptlar she’rning mazmuniy yadrosini tashkil etadi. O‘qituvchi ushbu konseptlarni o‘quvchilar ongiga tushunarli shaklda yetkazishi, badiiy timsollar orqali mazmunni ochishi zarur. Bu usul nafaqat she’rni tushuntirish, balki badiiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Multimodal o‘qitish tamoyillari — audio, video, grafik tasvirlar, musiqa, rasm va boshqa vositalardan foydalanish — Abdulla Oripov she’riyati ta’sirchanligini yanada oshiradi. Shoirning o‘z ovozida o‘qilgan she’rlari, she’rga mos yaratilgan videolavhalar, tarixiy kontekstga oid rasm va xaritalar o‘quvchilarni mazmunni yaxshiroq his etishga olib keladi. Bu metod o‘quvchilarning badiiy matnni faqat ko‘z bilan emas, balki eshitish, tasavvur va kechinma orqali qabul qilishini ta’minlaydi.

Bosqichli o‘qitish modeli quyidagi tamoyillarga asoslanadi: avvalo, she’rning umumiy mazmuni o‘qitiladi; keyin badiiy obrazlar, ramzlar, poetik vositalar tahlil qilinadi; uchinchi bosqichda o‘quvchi mustaqil xulosa chiqaradi; oxirgi bosqichda esa asarning bugungi davr uchun ahamiyati baholanadi. Ushbu model o‘quvchilarni matnni qatlamlar bo‘yicha idrok etishga o‘rgatadi.

Shuningdek, chizmali, diagramma va jadval orqali tayyorlangan metodlar o‘quvchilarning diqqat-e’tiborini jalb qiladi. Xususan, ushbu jadvalda keltirilgan shoir asarlarining qaysi janrda tegishli ekanligi keyingi qatorda yozilishi topshiriq qilib beriladi. Shu tarzda o‘quvchilarning zukkoligi, harakatchanligi va tirishqoqligi aniqlab olinadi.

“Sohibqiron”	
“Mitti yulduz”	
“Birinchi muhabbatim”	
“O‘zbekiston”	
“Sen bahorni sog‘inmadingmi?	
“Shoir	
“Sen yetim emassan”	
“Shoir dardi”	
“Ko‘zlarim yo‘lingda”	
“Onajon”	
“Haj daftari”	
“Jannatga yo‘l”	
“Yuzma-yuz”	
“Ruhlar isyoni”	
“Mehr”	

Ushbu metodik yondashuvlar Oripov ijodini o‘qitishda nafaqat bilim berish, balki milliy g‘oya, vatanparvarlik, insoniy fazilatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘quvchi-yoshlarni ona-Vatanni qadrlash ruhida tarbiyalash, ularni madh etuvchi kuy-qo‘shiqlar yaratishga undaydi. Haqiqatan ham, Vatanga fidoyi farzand bo‘lish onaga fidoyi farzand bo‘lish bilan barobardir. Zero, “Dunyoda xizmat ko‘rsatgan va ko‘rsatmagan, yaxshi va yomon odamlar bor. Lekin dunyoda xizmat ko‘rsatmagan onalar yo‘q va hamisha ular farzandlari uchun yaxshi,

muqaddasdir”[137]. Shoirning poetik obrazlari va estetik tafakkuri zamonaviy adabiyot darslari uchun boy o‘quv materiali yaratadi.

Umuman olganda, Abdulla Oripov ijodi maktab adabiy ta’limining eng muhim qismidir. Uning she’rlari o‘quvchilarda nafaqat adabiy tafakkurni, balki milliy o‘zlikni anglashni va ma’naviy estetik didni shakllantiradi. Shu bois u maktablarda izchil, bosqichma-bosqich, mazmun va murakkablik darajasiga qarab tanlangan asarlar orqali o‘qitiladi va umumiy o‘rta ta’limning ajralmas badiiy-ma’rifiy boyligiga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov asarlarini umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitishning samaradorligi tanlangan metodlarga bevosita bog‘liqdir. Shoir ijodi o‘zining yuksak badiiyati, falsafiy teranligi bilan adabiyot darslari uchun noyob manba hisoblanadi. Mazkur maqolada taklif qilingan konseptual yondashuvlar, multimodal metodlar va bosqichli tahlil modeli Oripov she’riyatini chuqur va zamonaviy tarzda o‘rgatishga imkon yaratadi.

Natijada o‘quvchilarda badiiy fikrlash, mustaqil tahlil qilish, milliy g‘urur va ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik kabi fazilatlar shakllanadi. Shoir ijodining zamonaviy ta’lim talablariga mos holda o‘qitilishi adabiy ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Oripov. Mitti yulduz.-Toshkent, 1965
2. Abdulla Oripov tanlangan asarlari (2000-2016) 4-jild
3. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik./ B. To‘xliyev, B. Karimov, K.Usmonova, — Toshkent.: “Davlat ilmiy nashriyoti”, 2017
4. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik./ S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo’chqorov, Sh.Rizayev, —Toshkent.: 2020
6. Tosheva O,(2012). Taqdimot materiallaridan foydalanish usullari. Til va adabiyot ta’limi,-Toshkent, 12-son.

[137] Hamzatov R. Ayollar ko‘p, Ona-yagona. -T.: “DAVR PRESS” NMU, 2016. –B. 148.

7.“Umumta’lim metodikasi” jurnali, 2018 1-,2-,3-,4-sonlar.

8. “O‘zbekiston adabiyot va san’at gazetasi”, 2021-yil 10-dekabr.

KIMYOVIY REAKSIYA TENGLAMALARI VA MODDA MIQDORLARIGA OID SIMULYATSION TAJRIBALARNI BAJARISHDA CROCODIL CHEMISTRY DASTURIDAN FOYDALANISH

Temirova R.N

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti

Anotatasiya. *Ushbu maqolada kimyoviy reaksiya tenglamalarini tuzish, ularni muvozanatlash va modda miqdorini hisoblashga oid masalalarni zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida o‘qitish masalalari yoritilgan. “Crocodile Chemistry” ta’limiy simulyatsion dasturining o‘quv jarayonidagi imkoniyatlari, kimyoviy jarayonlarni xavfsiz, ko‘rgazmali va interaktiv tarzda modellashtirishdagi afzalliklari tahlil qilingan.*

Kalit so’zlar: *crocodile chemistry,kimyoviy reaksiya tenglamalari,modda miqdori,simulyatsion tajriba,virtual laboratoriya,kimyo o’qitish metodikasi,interaktiv ta’lim,kimyoviy jarayonlar modeli,pedagogik texnologiya.*

Аннотация: *В данной статье освещаются вопросы преподавания составления уравнений химических реакций, их уравновешивания, а также расчёта количества вещества с использованием современных информационных технологий. Особое внимание уделено возможностям образовательной симуляционной программы «Crocodile Chemistry», её преимуществам в безопасном, наглядном и моделируемом обучении химическим процессам.*

Ключевые слова: *Crocodile Chemistry,Уравнения химических реакций,Количество вещества,Симуляционный эксперимент,Виртуальная лаборатория,Методика преподавания химии,Интерактивное обучение,Моделирование химических процессов,Педагогическиетехнологии.*

Annotation*: This article explores the effectiveness of teaching chemical reaction equations, balancing them, and calculating the amount of substance using modern information technologies. Special attention is given to the educational simulation software "Crocodile Chemistry", highlighting its advantages in providing safe, visual, and model-based demonstrations of chemical processes.*

Keywords: *Crocodile Chemistry,Chemical reaction equations,Amount of substance,Simulation experiment,Virtual laboratory,Chemistry teaching methodology,Interactive learning,Chemical process modeling,Educational technology.*

Crocodile Chemistry dasturi va uning imkoniyatlari.

Crocodile Chemistry - virtual laboratoriya muhitida kimyo tushunchalarini o‘rgatish va o‘rganish uchun mo‘ljallangan dasturiy ta’minot. Ushbu dastur talabalarga turli xil kimyoviy tajribalar va simulyatsiyalarni kimyo va fizik laboratoriya jihozlarisiz kompyuterda xavfsiz o‘tkazish imkonini beradi. Ushbu dasturning ba’zi asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Virtual eksperimentlar: Dastur turli xil kimyo mavzularini qamrab oluvchi keng ko‘lamli virtual tajribalarni taklif etadi, bu esa talabalarga kimyoviy reaksiyalar, elementlarning xossalari va boshqa tushunchalarni amaliy tarzda o‘rganish imkonini beradi.

2. Xavfsizlik: Crocodile Chemistry dasturi - talabalar uchun kimyo laboratoriya sharoitida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan baxtsiz hodisalar, xavfsiz tajriba o‘tkazish uchun xavfsiz muhitni ta’minlaydi.

3. Haqiqiy simulyatsiyalar: Dastur laboratoriyadagi kimyoviy moddalar va reaksiyalarning harakatini taqlid qiluvchi real simulyatsiyalarni taklif etadi, bu esa talabalar uchun yanada haqiqiy o‘rganish kerak bo‘lgan tajribani ta’minlaydi.

4. Interaktiv ta’lim: Crocodile Chemistry dasturi – talabalarga kimyoviy moddalarni manipulatsiya qilish, reaksiyalarni kuzatish va natijalarni tahlil qilish imkonini beruvchi interfaol vositalar va xususiyatlarni o‘z ichiga oladi, bu esa asosiy tushunchalarni tushunish va saqlashni kuchaytirishga yordam beradi.[1]

Ushbu dastur kimyo fani o‘qituvchilari uchun an’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlarini to‘ldirish va kimyoni o‘qitish va o‘rganishni yaxshilash uchun qimmatli vosita hisoblanadi. Bu talabalarga virtual muhitda kimyoviy tushunchalarni o‘rganish va tajriba o‘tkazish uchun xavfsiz, qiziqarli va interaktiv platformani taqdim etadi.

Qanday foydalanish kerak (Umumiy qadamlar):

1. **Dasturni ochish**: Crocodile Chemistry dasturini ishga tushiring.
2. **Reaktivlarni tanlash**: Laboratoriya uskunalaridan (kolba, probirkalar) va kimyoviy moddalardan (masalan, HCl,OH</2, H2O</2, metallar) keraklilarini tanlab, ish joyiga olib keling.
3. **Reaksiyani sozlash**: Reaktivlarni aralashtiring, isitgich, magnit aralashtirgich kabi uskunalarni qo‘ying.
4. **Tajribani boshlash**: "Play" (Ijro etish) tugmasini bosib, reaksiyani boshlang.
5. **Natijani kuzatish**: Reaksiyaning borishini (rang o‘zgarishi, gaz chiqishi, cho‘kma hosil bo‘lishi) kuzating. Reaksiyaning kinetikasini yoki mexanizmini ko‘rsatish xususiyatlaridan foydalaning.
6. **Natijalarni tahlil qilish**: Reaksiyaning tenglamasini yozing, hosil bo‘lgan mahsulotni aniqlang.

Misollar:

- **Asid-asos reaksiyasi**: HCl,OH</2$</ aralashtirib, pH o‘zgarishini pH-metr yordamida kuzatish.
- **Oksidlanish-qaytarilish**: Misning (Cu) nitrat kislotada (HNO3) erishi yoki galvanik element (volta piramidasini) qurish.

• **Gaz hosil bo‘lishi**: Zn/ metallini HCl</2$</ bilan reaksiyaga kiritib, vodorod (H2) gazini to‘plash.

Crocodile Chemistry kimyoviy jarayonlarni o‘rganishda samarali vosita bo‘lib, uni ko‘p jihatdan qo‘llash mumkin.

Crocodile Chemistry dasturida tajribalar va reaksiyalarni xavfsiz va osonlikcha modellashtirish uchun keng qamrovli simulyatsiya qilingan kimyoviy laboratoriyani yaratish, kimyoviy moddalarni, asbob-uskunalar va shisha idishlarni olish va ularni o‘zingiz xohlagan tarzda sistemasini birlashtirish, miqdor va konsentratsiyani tanlash, kimyoviy moddalarni aralashtirish va reaksiyalarni aniq modellashtirish bilan tajribadagi ma’lumotlarni tahlil qilish uchun grafikalar tuzish va 3D5 animatsiyalar yordamida mexanizmlarni ko‘rish mumkin. Ushbu dastur yordamida anorganik kimyo, analitik kimyo va fizik-kolloid kimyo fanlariga oid 100 dan ortiq tajribalarni virtual holatida ko‘rsatishimiz va talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmasini shakllantirishimiz mumkin.

Bunda atmosferaning troposfera qatlamidagi havo tarkibi 78,09% azot, 20,95% kislorod, 0,924% argon, 0,03% karbonat angidrididan tashkil topgan. Qolgan 0,001% ini inert gazlar - geliy, neon, kripton, ksenon, rodon va boshqalar tashkil qiladi.



Kimyoni o‘qitishda kompyuter vositalaridan foydalanish talabalarni bu fanga qiziqishlarini oshirishda, bilim berish va bilimlarni mustahkamlashga zamin yaratadi. O‘tilayotgan har bir mavzu bo‘yicha 156 o‘qitish vositalaridan rejali asosda foydalanish samarali hisoblanadi. Bir xil tartibdagi va takrorlanuvchi usullarni uzluksiz qo‘llash ta’lim sifatining barqarorligini yo‘qotadi. O‘tilayotgan dars usullari va ko‘rgazmali materiallarning rang-barangligi pedagog-talaba munosabatini barqarorlashtiradi.

Ushbu dasturda kimyoviy reaksiya tajribalari,modda miqdorlari va turli xildagi virtual tajribalarni bajarishni o’rganish mumkin.Bundan tashqari atmosfera qatlami tarkibidagi gazlar va moddalarning miqdoroni ,qanday gazlardan tashkil topganligini ko’rish mumkin. Maktab o‘qituvchilari va o`quvchilari uchun “Kimyo” fanidan Crocodile chemistry dasturidan foydalanib virtual laboratoriya yaratish hisoblanadi.

Kimyo ta’limida ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarining kognitiv (bilish) qobiliyatlarini oshiradi. Masalan, interaktiv simulyatsiyalar va animatsiyalar talabalar tomonidan mavhum kimyoviy tushunchalarni yaxshiroq anglash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi aniqlangan. Shuningdek, kompyuterga asoslangan baholashlar talabalarni tanqidiy fikrlashga va o‘z bilimlarini yangi kontekstda qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Bundan tashqari, texnologiyalar bilan boyitilgan hamkorlikdagi o‘qitish yuqori darajadagi tafakkur va ko‘nikmalarni rivojlantirishi aniqlangan .[2]

Tabiiy fanlarning o‘ziga xosligi shundaki, bu sohada tajriba ishlari turli o‘lchov va aniq ma’lumotlarga tayanadi. Interaktiv texnologiyalarni joriy etish uchun maxsus interaktiv uskunalardan foydalaniladi. Ular kimyo darslarida chizmalar, tasvirlar, formulalar, videomateriallarni aks ettirishda samarali bo‘lib, materialni oson eslab qolishga yordam beradi. Masalan, kimyoviy tajriba o‘tkazish bo‘yicha video orqali ko‘rsatmalar beriladi va keyinchalik talabalar ularni mustaqil ravishda takrorlaydilar. O‘quv dasturiga interaktiv simulyatsiyalar, onlayn videolar, virtual laboratoriyalar va raqamli darsliklarni kiritish — an’anaviy o‘qitish usullarini

to‘ldiradi va murakkab kimyoviy hodisalarni tushunishga yordam beradi. “Crocodile Chemistry” dasturi kimyo o‘qitish jarayonida o‘quvchilar bilimini mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va murakkab jarayonlarni oson tushuntirishga yordam beradigan samarali metodik vositadir. Ayniqsa reaksiya tenglamalari va modda miqdorini o‘rgatishda uning simulyatsion imkoniyatlari yuqori didaktik natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Sultonov M.M., Julboyev T.A., Xolboyev O.N., Bakaxonov A.A., Babayev B.N.**
   Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash : o‘quv qo‘llanma. – Jizzax: *Ilm nuri print*, 2024. – 152 b. (11-bob).
2. **Fominykh M., Weidlich J., Kalz M., Dahler Hybertsen I.**
   What do they TEL(L)? A systematic analysis of master programs in technology-enhanced learning // *International Journal of Educational Technology in Higher Education*. – 2022. – Vol. 19. – Article No. 1. – DOI: 10.1186/s41239-021-00305-7.

MUHAMMAD TARAG‘AYNING ILM YO‘LIDAGI SA’Y HARAKATLARI VA IZLANISHLARI

Raximboyeva Iqbol Atabek qizi
O‘zbekiston Milliy Universiterti

Annotatsiya*: Mazkur maqola Mirzo Ulug‘bekning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan. Unda asosan ilm-fanning rivojlanish bosqichlaridagi fanning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, olim, davlat arbobi ha mutafakkir sifatida yaratgan merosi haqida bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *astranomiya, matematika, geomertriya, hisob-kitob, ilm-fan ravnaqi, rasadxona, akademiya.*

Аннотация: *Данная статья посвящена жизни и деятельности Мирзо Улугбека. В основном раскрывается значение науки на этапах развития науки. В нем также описывается наследие, которое он создал как ученый, государственный деятель и мыслитель.*

Ключевые слова: *астрономия, математика, геометрия, расчет, развитие науки, обсерватория, академия.*

Abstract: *This article is devoted to the life and work of Mirzo Ulugbek. It mainly reveals the significance of science at the stages of development of science. It also describes the legacy he created as a scientist, statesman and thinker.*

Key words: *astronomy, mathematics, geometry, calculation, development of science, observatory, academy.*

“Ulug‘bek jahon ilm-fani
taraqqiyotiga qo‘shgan beqiyos
hissasi bilan tirikligidayoq o‘ziga
haykal o‘rnatib ketgan buyuk alloma edi.”
Akademik, olim B. Ahmedov

Buyuk olim va davlat arbobi, temuriylar sulolasining yorqin namoyandasi Mirzo Ulug‘bekning nomi dunyo fani sahifalariga zarhal harflar bilan bitilgan. Uning astranomiya, matematika, geomertriya va boshqa fanlar rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi, O‘rta asrlarda amalga oshirgan hisob-kitoblarning aniqliligi hozirgi zamon ilm ahlini lol qoldirib kelmoqda.

Ulug‘bek nomi butun dunyoga buyuk mutafakkir sifatida ma’lum. Ammo u dastlab, bobosi Amir Temurga va so‘ng otasi Shohruxga turli yurishlarda hamroh bo‘lgan. Movarounnahr hukmdori bo‘lgach, keyinchalik o‘zi ham mamlakatlarning

turli qismlarini kezgan. Safar davomida ko‘rganlarini o‘zining ilmiy faoliyatida keng qo‘llagan.

Mizro Ulug‘bekning to‘liq ismi sharifi - Mirzo Muhammad ibn Shohruh ibn Temur Ulug‘bek Ko‘ragon bo‘lib, 1394-yil 22-martda Amir Temurning harbiy yurishlari chog‘ida Eron Ozarboyjonidagi Sultoniya shahrida dunyoga kelgan. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida yozishicha, Amir Temur huzuriga chopar kelib, Ulug‘bekning tug‘ilganligini va munajjimlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukumdor bo‘lishini bashorat qilganini yetkazadi. Shu tufayli bobosi uni keyinchalik Ulug‘bek deb ham atay boshlaydi. Amir Temur suyukli nabirasi Muhammad Tarag‘ayning go‘daklik chog‘idanoq bilimdon ustozlar qo‘lida tarbiya topishiga alohida e’tibor qaratgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha Ulug‘bek o‘n bir yoshgacha buvisi Saroymulkixonim tarbiyasida bo‘lgani va uning buvisidan olgan tarbiyasi kelgusida buyuk unson bo‘lib shakllanishida katta rol o‘ynagan. Bundan tashqari yana u ko‘plab olimlar qo‘lida tahsil olgani qayd etilgan.

Ulug‘bek bobosi saroyidagi eng yirik allomalardan, jumladan, sayyoralarning ikki yuz yillik harakat jadvalini tuzgan Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiy kabi yetuk astranom va matematik olimlar ta’sirida ulg‘aygan. Shuningdek, unga to‘rt yoshidan Orif Ozoriy ham ta’lim bergan.

Ulug‘bek o‘ta qattiqo‘l ustozlar tarbiyasida voyaga yetgan. Uning bolaligi asosan Amir Temur saltanatining g‘arbiy qismida, hozirgi Eronning Sultoniya shahrida o‘tgan. U yoshligidanoq ilm o‘rganishdan tashqari chavandozlik, qilichbozlik, kamon otish, suzish kabi jismoniy mashqlar bilan faol shug‘ullangan. U qat’iy kundalik tartibga o‘rgatilgan, diniy va dunyoviy fanlarni chuqur o‘zlashtirgan. Shu sababli xotirasi kuchli, zehni o‘tkir bo’lgan, irodasi chiniqqan. Arab, fors, mo‘g‘il, turk, xitoy tillarini mukammal o‘rgangan. Qur‘oni Karimni yetti xil qiroatda yod olgan.

Amir Temur nabirasini doim yonida olib yurishni odat qilgan va uni davlat ishlariga molik tadbirlarga qatnashtirgan. Klavixoning ma’lumotiga ko‘ra, Ulug‘bek

bobosining xorijiy elchilarini qabul qilish marosimlarida ishtirok etgan. Bir marta Mag‘ora shahrida yosh Ulug‘bek XIV asrning o‘rtalariga qadar mavjud bo’lgan va o‘z davrining eng yirik astranomik rasadxonasi hisoblangan mashhur Mag’ora rasadxonasini ko‘radi. Unda 400 mingga yaqin qo‘lyozmalar mavjud bo‘lib, 100 dan ortiq astranomlar ishlagan. Aytishlaricha, o‘sha paytdan boshlab Ulug‘bek astranomiyaga qiziqishi boshlangan.

1409-yil Shohruh Mirzo o‘g‘lini Samarqand hokimi etib tayinlagan va 1411-yildan boshlab esa Movarounnahr boshqaruvini o’z qo‘liga olgan. Ulug‘bek davrida Samarqand shahri hunarmandchilik, me’morlik, adabiyot, umuman ilm-fan yuksaladi, savdo taraqqiy etadi. Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat-ush shuaro” asarida “Olim, odil, g‘olib va himmatli podshoh Ulug‘bek Ko‘ragon yulduzlar ilmida osmon qadar yuklasib bordi, maoniy ilmida qilni qirq yordi. Uning davrida fozillar martabasi cho‘qqiga ko‘tarilgan. Fozillaru hakimning yakdil fikrlari shuki, islomiyat zamonida, balki Iskandar Zulqarnayn davridan to shu damgacha Ulug‘bek Ko‘ragondek olim va podshoh saltanat taxtida o‘tirmagan. U otasi Shohrux bahodir hukumronligi davrida Samarqand va Movarounnahrni qirq yil muataqil idora etdi.” – deb alohida fikr bildirgan.

Mirzo Ulug‘bek fan homiysi bo‘lish bilan birga, mamlakatda ma’rifat rivojiga ham katta ahamiyat bergan allomalardandir. U Movarounnahrda bir emas uchta madrasa qurdirdi. Bulardan biri Samarqandda (1417-14200 yillar), ikkinchisi Buxoroda (1417-yil) va uchunchisi G‘ijduvondadir (1433-yil). Madrasada diniy fanlar bilan birgalikda dunyoviy fanlar ham o‘qitildi. Ko‘proq aniq fanlarga e’tibor qaratilgan.

Mirzo Ulug‘bek Buxoroda madrasa qurdirdi, bu ishidan o‘zining ko‘ngli ravshan tortib, har gal ilm ahli uchun nimadir foydali ish qilsa, o‘z-o‘zidan xursand bo‘lar, ma’rifatli insonlarga yordam berishni burchi deb hisoblardi. Bu gal ham madrasa atrofini mulozimlari bilan aylanib yurarkan, mayda kamchiliklarni bartaraf etishni tayinladi. Ranglardagi uyg‘unlik, binoning tashqi ko‘rinishi unga ma’qul

keldi, lekin nazarida nimadir yetishmayotgandek tuyuldi. U madrasa peshtoqiga qarab turib,

-“Topdim, topdim”- dedi.

Madrasa peshtoqiga nimadir yetishmayotgandek tuyulayotgandek edi. Shuning uchun unga ***“Ilmga intilish har bir musulmon uchun farzdir”*** yozuvini yozing – deb me’morga buyurdi(1-rasm).

Bosh me’mor bu ishni mohirlik bilan uddaladi. Toki madrasaga kirayotgan har bir talaba o‘zining farzi haqida yana bir bor eslaydi.



1-rasm.Mirzo Ulug‘bekning madrasasi

Mirzo Ulug‘bekning o‘zi ham bu hadisga amal qilib umr kechirdi. Ulug‘bek Ahmad al-Farg‘oniy, Farobiy, Muso Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyom asarlarini o‘rganadi. Bu mutafakkirlar orqali yunon olimlari Aflotun, Arastu, Ptolomey bilan tanishdi.

Olim hayotining asosiy qismini astranomiyaga bag‘ishlaydi va ushbu fanning XV asrdagi rivojida uning xizmati beqiyos. Chunki o‘rta asrlargacha mavjud bo‘lgan yulduzlar jadvalining sifati, ya’ni aniqliligi, o‘sha zamon astranomlarini qoniqtirmas edi. Shu bois, osmon jismlarining kuzatish uchun Samarqandda Mirzo Ulug‘bek boshchiligidagi rasadxona bunyod etish va uni jihozlash ishlari amalga oshirilgan. (1 rasm Ulug‘bek observatoriyasi)



2-rasm.Ulug‘bek rasadxonasi maketi

Ma’lumki rasadxona 1427 - 1429 - yillarda Samarqand shahri yaqinidagi Obirahmat anhori bo‘yida rasadxona qurdirgan va uni barpo etish rejasi uning bolalik chog‘idayoq xayolida shakllangan edi. Chunki olim yuqorida aytib o‘tganimizdek, Mag‘ora observatoriyasini ko‘rgani va havas qilganini yozgan. Shundan so‘ng alloma xuddi shunday observatoriya qurishni niyat qilgan edi (2-rasm).

Ulug‘bek 26-27 yoshlarga yetganda u olimlar bilan yaqindan tanishgan va ular bilan ko‘p suhbatlar qurgan. 1420-yillarga kelib uning atrofida 60-70 tagacha matematik va astranom olimlar to‘plangandi. Ulug‘bek qurdirgan rasadxonaning asosiy qism radiusi 40,2 metrdan iborat kvadratni tashkil etgan va unda astranomik o‘lchash ishlarini amalga oshirish uchun bir qator boshqa asbob-uskunalar ham o‘rnatilgan. Bu uskunalar yordamida Quyosh, Oy va sayyora hamda yulduzlar holatini kuzatgan. XV asrda Mirzo Ulug‘bek rasadxonasida Beruniy globusidan mukammalroq hisoblangan globus yaratildi.



G‘iyosiddin Jamshid boshchiligidagi rasadxonaning asosiy o‘lchov abob-uskunasi ulkan sekstant hisoblanib, Samarqand sekstanti o‘sha davrdagi sharqda ma’lum bo‘lgan sekstantlarning eng kattasi sanalgan. Umuman olganda Ulug‘bek rasadxonasi o‘sha zamon sharoitida mukammal astranomik asbob va uskunalar bilan jihozlangan oliy darajadagi ilmgohga aylangan.

Rasadxona binosi uch qavatli binodan iborat

3-rasm. Rasadxonadagi olimlarning ilmiy faoliyati

bo‘lgan. Mirzo Ulug‘bek o‘zi bunyod ettirgan rasadxona va ilm-ma’rifat markaziga turli sohalardagi 100 dan ortiq ilm ahlini to‘plab, keng jabhada ilmiy kuzatish ishlarini olib borgan. Bular “Aflotuni Zamon” deb nom olgan Qozizoda Rumiy, G’iyosiddin Jamshid, Mavlono Axmad, Muiniddin Koshiy va “o‘z davrining Ptolomeyi” nomi bilan shuhrat qozongan Ali Qushchi kabi o‘z zamonasining zabardast olimlari bo‘lgan.

Asfuski, rasadxona binosi Ulug‘bek vafotidan keyin qarovsiz qolib, asta-sekin yemirila boshlangan. Inshootning yer ostidagi qismi esa tuproq ostiga qolib, ko‘milib ketgan. Rus arxeolog olimi V.Vyatkinning 1908-1914-yillardagi Samarqandda olib borgan arxeologik izlanishlari natijasida Ulug‘bek rasadxonasi qoldiqlari joyi aniqlanib, keyinchalik uni o‘rganish ishlari davom ettirilgan.

Mirzo Ulug‘bek Samarqandda rasadxona zaminida “Ulug‘bek akademiyasi”ga asos solgan va bu yerda olib borgan ilmiy kuzatishlari natijasida “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” (Ko‘ragoniyning yangi astranomik jadvali) va “To‘rt ulus tarixi” kabi mashhur asarlarini yaratadi. Tarixchi olim Davlatshoh Samarqandiy “Ulug‘bek geometriya borasida Evklidga, astranomiya sohasida esa Ptolomeyga o‘xshardi” – deb ta’rif bergan.

Movoraunnahrda 1004-yil Ma’mun akademiyasi (Donishmandlar uyi) tashkil etilgan bo‘lsa, undan keyin ikkinchi bo‘lib, Samarqandda “Dor ul-ilm” (Ulug‘bek akademiyasi) shakllantirildi. Bu esa ilm-fanning ravnaq topishiga hissa qo‘shdi.

Muhammad Tarag’ay haqida fransuz olimi Volter - “Ulug‘bekning buyukligi shundaki, Samarqandda birinchi fanlar akademiyasini yaratdi. Yer kurrasini o‘rgandi. Koinot va yulduzlarni kashf etib, mashhur jadval tuzdi”- deb o‘z fikrlarini yozib qoldirgan.

Ulug‘bek rasadxona qoshida zamonasining boy kutubxonasini ham tashkil qilgan. Bu kutubxonada fanning deyarli hamma sohalariga tegishli qariyb o‘n besh ming jild kitob to‘plangan.

Ulug‘bek o‘zining rasadxonada olib borgan kuzatishlari natijasida “Ulug‘bek ziji” deb ham ataladigan dunyoga mashhur bo‘lgan asarini yozadi. Bu asarda 1018 ta harakatlanmaydigan yulduzning aniq 43 ta koordinatalari berilgan bo‘lib, bu katalog hozirgacha dengizchilar uchun yulduzlarga geografik koordinatalarni aniqlashda eng ishonchli vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Mutaxassislarning tan olishicha, ushbu yulduzlar jadvali grek olimlaridan miloddan avvalgi II asrda yashagan Gipparx va milodiy I-II asrlarda ijod qilgan Ptolomey tuzgan jadvallardan keyingi davrda yaratilgan eng aniq astranomik manbaa hisoblanadi.[1] Ayni bu asar Ulug‘bek va uning astranomik maktabiga, aniqrog‘i Ulug‘bek akademiyasiga olamshumul shuhrat olib kelgan. Bu asarning ilmiy-ma’naviy qiymati bugungi kungacha ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Chunki, insoniyat tarixida ma’lum bo‘lgan yulduzlar jadvallari ichida nisbatan mukammali mazkur “Zij” edi.

1-jadval

Ekliptikaning osmon ekvatoriga og‘maligi

Olimlar	Yillar	Natija	Xatoligi
Erotosfen	230 miloddan avvalgi	23 51’20’’	+7’ 35’’
Ptolomey	140 miloddan avvalgi	23 51’ 20’’	+10’ 10’’

Nasriddin Tusiy	1270	23 30’ 00’’	+2’ 09’’
Mirzo Ulug‘bek	1437	23 30’ 17’’	-0’ 32’’

“Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asaridagi trigonometrik jadvallar ham o‘zining aniqliligi bilan alohida ajralib turadi. Jumladan, Mirzo Ulug‘bek astranomiyadagi muhim o‘zgarmas miqdor - bir darajasining sinus qiymatini verguldan keyin 18 ta belgi miqdordagi aniqlikda hisoblashga muvaffaq bo‘lgan.

Quyosh bir yilda bir marta aylanib chiqadigan fazoviy doira-ekliptikaning og‘ishi qiymatini aniqlashda Mirzo Ulug‘bek dunyo astranomiya fanidan eng oldingi o‘rinlarda turadi. Uning 1437-yilda amalga oshirilgan hisob-kitoblariga ko‘ra, ekliptikaning og‘ishi 23 gradus 30 minut 17 sekundga teng va bu qiymat hozirgi zamondagi hisob-kitoblardan bor-yo‘g‘i 0^1 32^{11} ga farq qiladi. Shuning uchun ham Ulug‘bek tomonidan hisoblangan bir astranomik yil 365 kun 6 soat 10 minut 8 sekundga teng va bu hozirgi zamon ma’lumotlaridan atigi 58 sekundga farq qiladi.

2-jadval

Yilning davomiyligi

Olimlar	Kun	Soat	Minut	Sekund
Hindlar	365	6	12	30
Xoldeylar	365	6	11	00
Aristarh	365	6	10	49
Ulug‘bek	365	6	10	08
Aslida	365	6	9	06

Mirzo Ulug‘bek davrida Samarqand astranomiya maktabining olamshumul yutuqlari Xitoy astranomiyasining yanada rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. 1429-1449-yillar oralig‘ida Pekindagi Imperator observatoriyasining astranomi Liu

Xin o‘zining “Taqvimlar tuzishda musulmon astranomik usullari” asarini yozgan. Olim Antuan Gobil 1689-1759 esa Xitoy astranomiyasi haqida - “Bu sohada xitoylar nimani bilgan bo‘lsa, ularning barchasi G‘arbdan, Samarqand tomondan kelgan” - deb e’tirof etilgan.

Xitoy orqali Samarqand observatoriya maktabining yutuqlari Koreyaga ham tarqaladi. 1432-yilda Koreya qiroli Yi Do [Sejong] 1397-1450 Xitoyga astranom-olimlardan iborat maxsus vakillarni yuborib, astranomiya usullari tasvirlangan xitoy tilidagi bir qancha kitoblarni olib keldi. Shundan so‘ng Koreyada ham Mirzo Ulug‘bek maktabining an‘analari rivojlandi.

Mirzo Ulug‘bekning “Zij”da xitoylar va uyg‘urlar taqvimlari ham keltirilgan bo‘lib, ularda berilgan sanalarni hijriy taqvim sanalariga o‘tkazish usullari batavsil bayon qilingan. Bu esa Mirzo Ulug‘bek xitoy astranomiyasi yutuqlaridan xabardor bo‘lganidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, Samarqandlik tarixchi olim Mutrubi Samarqandiyning 1605-yilda yozilgan “Tazrikat ush-shuaro” asarida Ulug‘bek tomonidan yaratilgan sharqiy yarimsharning xaritasi o‘rin olgan. Muallifning yozishicha, ushbu noyob xarita Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi devoridagi xaritaning kichraytirilgan nusxasi hisoblanib, unda sharqiy yarimshar yarim aylana tarzda, o‘ziga xos iqlimga ega bo‘lgan yetti mintaqa bo‘lgan, daryolar va dengizlar turli ranglarda belgilangan. Xaritada Misr, Basra, Multon, Xo‘jand, Buxoro, Xorazm, Qashqar, Sayxun, Sinx va boshqa bir qator joy nomlari ko‘satilgan.

Ulug‘bekning aqliy qobiliyati, xususan, mantiqiy fikrlash tarzi ham nihoyatda kuchli bo‘lgan. Mashhur shoir va adib Zayniddin Mahmud Vosifiy (1485-1566) - Ulug‘bek haftaning bir kunida fuqarolarni shaxsiy iltimoslari bo‘yicha qabul qilar ekan va bunday qabul kunlari fuqarolarning o‘ta chigal muammolarini ham juda ustalik bilan yechib bera olganligini zamondoshlari hayrat bilan esga olishadi – deb tavsiflagan. Ulug‘bek davrida Movarounnahrda yer solig‘i kamaytiriladi, bu esa o‘z navbatida, dehqonchilikning jadal rivojlanishiga olib keladi.[3]



4-rasm. Mirzo Ulug‘bek tomonidan zab etilgan tangalar

1428-yilda Mirzo Ulug‘bek tomonidan o‘tkazilgan pul islohoti mamlakatda iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi. Islohotdan asosiy maqsad aholi ehtiyoji uchun eng zarur mollarning chakana savdosiga qulay sharoit yaratish bo‘lgan(4 rasm).

Ulug‘bekning tafakkuri nafaqat tabiiy fanlar, xususan, matematika ilmini, balki ijtimoiy-siyosiy hodisalarni ham to‘g‘ri tahlil etishga qodir analitik tafakkur turiga mansub bo‘lgan. Temirshunos olim Turg‘un Fayziyevning ta’kidlashucha, Ulug‘bek - hukmdorlar orasida buyuk olim, olimlar orasida ulug‘ alloma edi. Olim vatanparvar inson sifatida turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, urf-odatrlarini targ‘ib etishga bag‘ishlangan asarlar ham yozgan. “To‘rt ulus tarixi” ana shunday asarlar jumlasidandir.

Ulug‘bek turkiy tilida yozilgan ma’naviy merosimizning kelgusi avlodlarga yetkazishga ham o‘z hissasini qo‘shgan. U o‘zining imkoniyatlarini ishga solib, 1444-yili Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul- haqoyiq” (Haqiqatlar tuhfasi) asarini qayta ko‘chirtiradi. Ko‘plab qimmatli asarlarni arab va fors tillaridan turkiy tilga tarjima qildirgan.

Olim vatanparvar inson sifatida turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, urf-odatrlarini targ‘ib etishga bag‘ishlangan asarlar ham yozgan. “To‘rt ulus tarixi” ana shunday asarlar jumlasidandir. Uning 1425-yili yozib tamomlagan “To‘rt ulus tarixi” (Tarix-i arba’ ulus) tom ma’noda butun temuriylar saltanati egallagan mamlakatlar tarixini ifodalagan. Ulug‘bek ibratli voqealardan hikoya qiluvchi rivoyatlar va she’rlar ham yozilganligi haqida ma’lumotlar mavjud.[2] Uning “Risolai Ulug‘bek” deb atalgan asari hozir Hindistondagi Aligarx kutubxonasi qo‘lyozmalar fondida saqlanadi,

lekin u haligacha o‘rganilmagan. Bugungi kunda Ulug‘bekning barcha asarlari va Ulug‘bek merosi haqidagi asarlari ham bir joyga to‘plab nashr qilish, milliy ma’naviy merosimizni asrash yo‘lidagi eng dolzab vazifalardan biridir. Ulug‘bek sferik astranomiya, trigonometriya, geometriya, algebra, kartografiya, tarix, manbashunoslik sohalarida ham o‘ziga xos kashfiyotlar qilgan, ularni tizimga solish bugungi tadqiqotchilar oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmedov A. Ulug‘bek T.: - Fan, 2005.
2. Abdurahmanov A. Ulug‘bek akademiyasi. T.,- 1994.
3. Hoji Ismatulloh Abdulloh Markaziy Osiyo islom madaniyati-T-“Sharq”, 2005.

THE IMPORTANCE OF LINGUISTICS IN LANGUAGE

Rohila Xalilova
Fergana State University
Shohsanam Dushatova
Fergana State University

Annotation: *This article explores the vital role of linguistics in the process of language teaching and learning. It discusses how knowledge of linguistic branches such as phonetics, morphology, syntax, semantics, and pragmatics helps teachers understand the structure and function of language. The study also emphasizes the importance of applying linguistic theories to develop effective teaching methods, improve learners’ communication skills, and enhance overall language competence.*

By understanding linguistic principles teachers can create more meaningful and systematic approaches to language education.

Key words: *linguistics, language teaching, phonetics, syntax, communication, linguistic theory, language learning.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola til o‘qitish va o‘rganish jarayonida lingvistikaning muhim o‘rnini yoritadi. Unda fonetika, morfologiya, sintaksis, semantika va pragmatika kabi lingvistika bo‘limlari bo‘yicha bilim o‘qituvchilarga tilning tuzilishi va vazifasini tushunishda qanday yordam berishi haqida so‘z boradi. Tadqiqot, shuningdek, lingvistik nazariyalarni qo‘llash samarali o‘qitish usullarini ishlab chiqish, o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish va umumiy til kompetensiyasini oshirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Lingvistik tamoyillarni chuqur anglagan o‘qituvchilar til ta’limiga yanada mazmunli va tizimli yondashuv yaratishlari mumkin.*

Kalit so‘zlar: *lingvistika, til o‘qitish, fonetika, sintaksis, kommunikatsiya, lingvistik nazariya, til o‘rganish.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается важная роль лингвистики*
в процессе преподавания и изучения языка. Обсуждается, как знание таких разделов лингвистики, как фонетика, морфология, синтаксис, семантика и прагматика, помогает преподавателям понимать структуру и функции языка. В исследовании также подчеркивается значение
применения лингвистических теорий для разработки эффективных методов обучения, улучшения коммуникативных навыков учащихся и повышения общего уровня языковой компетенции. Понимание лингвистических принципов позволяет преподавателям создавать более осмысленные и систематические подходы к языковому образованию.

Ключевые слова: *лингвистика, преподавание языка, фонетика, синтаксис, коммуникация, лингвистическая теория, изучение языка.*

In the contemporary field of language education, the significance of

integrating linguistic theory – covering domains such as phonetics, morphology, syntax, semantics, and pragmatics – into pedagogical practice has become increasingly undeniable. Historically, language teaching often prioritized lexical and grammatical proficiency in isolation; however, over recent decades, research indicates that a deeper understanding of the underlying structure and function of language supports more effective teaching and more robust learner outcomes. For instance, examinations of applied-linguistics literature reveal that the use of descriptive and inferential statistical techniques, while ubiquitous in educational research, remains relatively under-represented in language and linguistics scholarship – a comparative study of 80 articles found that advanced statistical methods appeared significantly less often in linguistics than in education. Linguistics has long been recognized as the scientific foundation of language teaching and learning. According to Richards and Rodgers (2014), linguistic theories provide teachers with a deeper understanding of how languages are structured and acquired, enabling them to design more effective lessons. Chomsky's (1965) generative grammar emphasized the mental processes behindlanguage use, while Halliday's (1978) functional approach highlighted the social

and communicative functions of language. These perspectives shifted teaching practices from memorization toward meaningful and contextualized communication.

Moreover, the study of linguistic branches such as phonetics, syntax, semantics, and pragmatics helps teachers improve learners' pronunciation, grammar, and overall communicative competence (Fromkin, Rodman & Hyams, 2018). Applied linguistics, as noted by Cook (2003) and Larsen-Freeman (2015), connects linguistic theory with classroom practice, enhancing both accuracy and fluency. Scholars such as Ellis (2008) and Lightbown & Spada (2013) further argue that linguistic knowledge fosters metalinguistic awareness, allowing learners to reflect on language use and achieve higher levels of proficiency.

The results of the study reveal that linguistic knowledge plays a fundamental role in enhancing the effectiveness of language teaching and learning. Teachers who possess a sound understanding of linguistic principles can explain language phenomena more clearly and systematically. For example, phonetics enables them to teach pronunciation, stress, and intonation accurately, while morphology and syntax provide the foundation for understanding how words and sentences are formed. In addition, semantics and pragmatics help teachers explain meaning and context, enabling students to interpret and use language appropriately in real-life communication. Consequently, lessons based on linguistic insights are more interactive, analytical, and learner-centered, leading to noticeable improvements in learners' performance and motivation.

The discussion further demonstrates that integrating linguistic theory into pedagogy transforms traditional teaching approaches. Instead of focusing merely on grammar memorization and translation, linguistically informed instruction emphasizes communication, comprehension, and critical thinking. Teachers who apply linguistic analysis in their classrooms are better equipped to diagnose learners' difficulties, select suitable teaching materials, and adapt their methods to different proficiency levels. These findings are consistent with previous research(Ellis, 2008; Larsen-Freeman, 2015; Lightbown & Spada, 2013), which confirmsthat linguistic awareness helps learners develop both grammatical accuracy and communicative fluency. Moreover, it fosters metalinguistic awareness – students begin to think about how language works, recognize patterns, and transfer this knowledge across languages. Overall, the study highlights that linguistics serves not only as a theoretical foundation but also as a practical guide for improving language teaching, promoting effective communication, and preparing learners to use language competently in diverse cultural and social contexts.

Additionally, the findings indicate that linguistic knowledge supports innovation in language education by encouraging the use of interdisciplinary and technology-based methods. For instance, understanding phonetic and phonological

systems allows teachers to integrate digital pronunciation tools and speech analysis software to enhance listening and speaking skills. Knowledge of discourse analysis and pragmatics enables educators to design authentic communicative tasks that reflect real-life language use in social and professional contexts. Furthermore, by applying corpus linguistics and sociolinguistic insights, teachers can expose learners to authentic materials that reflect natural language variation, register, and cultural diversity. This integration of linguistic theory with modern pedagogical techniques ultimately promotes learner autonomy, intercultural competence, and a deeper, more flexible command of language.

In conclusion, the study confirms that linguistics is an essential discipline that underpins effective language teaching and learning. A solid understanding of its core branches – phonetics, morphology, syntax, semantics, and pragmatics – equips teachers with the analytical tools to explain language structure and use with greater clarity. When applied in the classroom, linguistic principles transform instruction from a traditional rule-based approach into a communicative, learner-centered process that promotes both accuracy and fluency. Moreover, integrating linguistic theory into pedagogical practice enables educators to develop more effective teaching strategies, diagnose learner difficulties, and foster students' metalinguistic awareness. As a result, learners gain a deeper understanding of howlanguage functions, which enhances their confidence and competence in real communication. Thus, linguistics should not be viewed solely as an academic field, but as a practical and indispensable foundation for modern language education.

Reference:

1. Chomsky N. *Aspects of the Theory of Syntax*. – Cambridge, MA: MIT Press, 1965.
2. Cook V. *Applied Linguistics*. – Oxford: Oxford University Press, 2003.
3. Ellis R. *The Study of Second Language Acquisition*. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2008.

4. Fromkin V., Rodman R., Hyams N. *An Introduction to Language*. – 11th ed. – Boston, MA: Cengage Learning, 2018.
5. Halliday M. A. K. *Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning*. – London: Edward Arnold, 1978.
6. Larsen-Freeman D. *Techniques and Principles in Language Teaching*. – 3rd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2015.
7. Lightbown P. M., Spada N. *How Languages Are Learned*. – 4th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2013.
8. Richards J. C., Rodgers T. S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.

MAKTAB O‘QUVCHILARINING IJODIY FAOLLIGIGA TA’SIR ETUVCHI NOSTANDART MASALALAR

Ablazova Kamola Saxibovna,
Andijon davlat pedagogika instituti.
Abdullayeva Sevinchxon G’ulomjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur tezisda maktab o‘quvchilarining ijodiy faolligini rivojlantirishda nostandart masalalardan foydalanishning didaktik ahamiyati yoritilgan. Matematika darslarida nostandart masalalar o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini faollashtirishi, bir nechta yechim yo‘llarini izlashga undashi, mantiqiy mushohada yuritish hamda kreativ qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishi asoslab berilgan. Tezisda tarmoqli, algoritmik va amaliy bajarishga yo‘naltirilgan nostandart masalalar misolida ularning o‘quvchilarning intellektual va ijodiy rivojiga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, nostandart masalalarning boshlang‘ich sinflardan boshlab ta’lim jarayoniga tizimli joriy etilishi dars

samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning matematika faniga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish hamda ijodiy faollikni rivojlantirishning muhim omili ekanligi xulosalangan.

Kalit so‘zlar: nostandart masalalar, ijodiy faollik, kreativ tafakkur, mantiqiy fikrlash, algoritmlash, amaliy masalalar, matematika ta’limi, boshlang‘ich sinf, ta’lim samaradorligi

Аннотация: В данной тезисной работе рассматривается дидактическая значимость использования нестандартных задач в развитии творческой активности школьников. Показано, что применение нестандартных задач на уроках математики способствует активизации самостоятельного и критического мышления учащихся, формированию умений находить несколько способов решения, логически рассуждать и принимать креативные решения. На примере разветвлённых, алгоритмических и практико-ориентированных нестандартных задач проанализировано их влияние на интеллектуальное и творческое развитие обучающихся. Обосновано, что систематическое включение нестандартных задач в образовательный процесс, начиная с начальных классов, повышает эффективность обучения, усиливает интерес учащихся к математике и является важным фактором формирования их творческой активности.

Ключевые слова: *нестандартные задачи, творческая активность, креативное мышление, логическое мышление, алгоритмизация, практико-ориентированные задачи, обучение математике, начальная школа, эффективность обучения*

Abstract: *This thesis examines the didactic significance of using non-standard problems in developing students’ creative activity. It is shown that the use of non-standard problems in mathematics lessons promotes students’ independent and critical thinking, encourages the search for multiple solution strategies, and*

develops logical reasoning and creative decision-making skills. Based on examples of branching, algorithmic, and practice-oriented non-standard problems, their impact on students' intellectual and creative development is analysed. The study concludes that the systematic introduction of non-standard problems into the educational process, starting from primary school, increases teaching effectiveness, enhances students' interest in mathematics, and serves as an important factor in fostering creative activity.

Keywords: *non-standard problems, creative activity, creative thinking, logical thinking, algorithmic thinking, practice-oriented tasks, mathematics education, primary school, learning effectiveness*

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Maktab matematika fanida nostandart masalalardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, yangicha yondashuv topishi va kreativ qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bugungi kunda an'anaviy masalalar o'quvchini faqat ma'lum qolipdagi yechimga yo'naltiradi. Nostandart masalalar esa bir nechta yechimni izlash, variantlarni solishtirish, mantiqiy fikrlashni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Ta'lim sifatini oshirishda bunday masalalar muhim o'rin tutadi.

Ushbu tezisda nostandart masalalarning o'quvchilarning ijodiy faolligiga ta'sirini ko'rsatish, ularni qo'llashning samarali metodikasini ishlab chiqish va amaliy misollar orqali yoritishdan iborat. Mavzu bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, nostandart masalalarning maktab o'quvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirishdagi aniq ta'siri bo'yicha izlanishlar davom etmoqda.

Nostandart masalalar ijodiy faollikni rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Bunday masalalar oldinga qo'yilgan maqsadga erishishning aniq usulini ishlab chiqishni, uni to'g'ri va aniq tasvirlashni talab qiladi. Nostandart masalalar bolalarni ijodiy qidiruv faoliyatiga jalb qiladi, ko'plab umumiy intellektual ko'nikmalarning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Nostandart masalalarni hal qilish uchun algoritmlar bilan ishlash qobiliyati, ya'ni maqsadga erishish uchun amallar

ketma-ketligini rejalashtirish, shuningdek, javoblar son yoki hisobot shaklida emas, balki masalalarning keng sinfini hal qilish kerak [4].

Masalaga ijodiy yondashish bilan muayyan vaziyatning yangi xususiyatlarini aniqlash zarur. Bu ayniqsa, yechimida o‘xshashi bo‘lmagan nostandart masalalarni bajarishda muhim ahamiyatga ega. Bunday topshiriqlarda masalaning o‘zi har doim ham aniq belgilanmagan bo‘lib, shuning uchun yakuniy formulaga muhtoj bo‘ladi. Muammoli vaziyatni tuzish uchun quyidagi kabi qaror qabul qilish kerak: masalani va maqbul yechim mezonlarini ajratib ko‘rsatish hamda masala yechimiga olib boruvchi optimal yo‘lni tanlash shular jumlasidandir. Misol tariqasida quyidagi masalani ko‘raylik:

9 ta tangadan bittasi qalbaki, u boshqalaridan faqat og‘irligi bilan farq qiladi. Pallali tarozida eng kami bilan necha marta tortish orqali qalbaki tangani aniqlash mumkin?

Bu masalaning javobiga olib boruvchi yo‘llar tarmoqlanish algoritmiga misol bo‘la oladi. Bunga sabab o‘quvchilar turli xil yo‘llar bilan bu masalani yechadilar. Masalan, ayrim o’quvchilar 9 ta tangani teng 4 tadan taroziga qo‘yib, qalbaki tangani uch urinishda topadilar. Ayrimlari esa, 9 ta tangani 2 tadan bo‘lib olib, masalani ular ham uch urinishda yechishi mumkin. Aslida tangalar to‘plamini 3 tadan guruhlab olib, keyin masalani yechimini topishga uringan o‘quvchilar yechimni ikki urinishda topadilar, bu esa yechimning to‘g‘ri yo‘lidir. Chunki masala shartida “eng kami bilan” degan jumla bor. Bu masala biz yuqorida tilga olgan yechimning matnli ko‘rinishiga ega bo‘lgan masalalar turiga kiradi.

Nostandart bo‘lmagan tarmoqli masalalarni hal qilishda sxemalar tuzishni o‘rgatish uchun blokli jadvallarini tiklash masalalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, o‘quvchilar diagrammaning har bir blokini tahlil qiladilar, yetishmayotgan bloklarni to‘ldirishning mumkin bo‘lgan variantlarini aniqlaydilar, bu esa aqliy moslashuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Bu masalalar rivojlantiruvchi ta’sirga ham ega, chunki o‘quvchilarning tayyor sxemani

to‘ldirishdagi faolligi ana shu shartlarni tahlil qilish, umumlashtirish, solishtirish va xulosa chiqarish kabi intellektual qobiliyatlarga asoslangan bo‘ladi [1].

Evristik algoritmlarni tuzish topshiriqlariga amaliy bajarishga yo‘naltirilgan masalalar kiradi. Bu masalalarga misollardan biri quyidagicha:

Besh litrli banka va uch litrli bankadan foydalanib, buloqdan 4 litr suvni qanday yig‘ish mumkin?

Masalaning yechimini jadval shaklida taqdim etish qulay bo‘lib, jadval yordamida o‘quvchilarni chalkashib ketishlari oldi olinadi.

Amaliy bajarishga yo‘naltirilgan masalalarni hal qilish usullarini batafsilroq ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, masalalarni hal qilishning kamida ikkita usuli borligini aniqlash mumkin. Bular amaliy bajarish mumkin bo‘lgan masalalar va ma’lum bir nazariya asosida muayyan bir formulaga asoslanib bajariladigan masalalar. Ulardan qaysi biri optimal yechim bo‘lishi o‘quvchining qobiliyatiga va tasavvuriga bog‘liq. Bunday masalalar o‘quvchilarning o‘zgaruvchanligi va dialektik tafakkurini shakllantiradi, bu ularning ijodiy faolligini rivojlantirish uchun juda muhim hisoblanadi. Amaliy bajarishga yo‘naltirilgan masalalarning oraliq qiymatlarini topish ko‘nikmalarini mashq qilish uchun o‘quvchilarni berilgan algoritm bo‘yicha jadvalni to‘ldirish masalasini bajarishga taklif qilish maqsadga muvofiqdir.

Amaliy bajarishga yo‘naltirilgan masalalarni hal qilish “algoritm” tushunchasining shakllanishiga, algoritmlarni tuzish va bajarishga ko‘nikmalarini rivojlantirishga, shuningdek hisoblash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Yuqoridagi masalada jadvalni har bir qadamini to‘ldirganda, o‘quvchilar har bir idishda qancha suyuqlik borligini, har bir idishda qancha bo‘sh joy borligini, qancha suyuqlik quyish mumkinligini va hokazolarni aniqlashlari kerak. Shunday qilib, o‘quvchilar juda ko‘p kichik muammolarni hal qilishlari hamda ularni umumiylashtirib, berilgan masalani aniq yechimini topishlari zarur. Bu masalalarni hal qilish uchun, avvalo, ularni tahlil qilish va yechimini topishning maxsus texnikasini o‘quvchilarga ko‘rsatish kerak. Ularni hal qilishda o‘quvchilar ularni

bajarish uchun har xil yondashuvlardan foydalanadilar. Bu bolaning ijodiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi va matematika darsiga qiziqishni oshiradi [2].

Masalalar yechishda “standart” va “nostandart” iboralarini ishlatamiz. Boshlang‘ich sinf matematika darslikdagi aksariyat, ko‘pchilik masalalar standart yechimdagi masalalardir. Ya’ni berilgan masala qaysidir turga taalluqli bo‘lib, uning o‘ziga xos belgilariga ko‘ra yechim yo‘li mavjud. Masalan songa yig‘indini qo‘shishga yoki sondan yig‘indini ayirishga doir masalalarning yechim yo‘llari aniq qoidaga ko‘ra bajariladi [3].

Nostandart yechim yo‘liga ega bo‘lgan masala-topshiriqlarda esa biror aniq yo‘l-yo‘riq asosida yechim izlanmaydi, balki masala mazmunidan kelib chiqib, masalaning “yangi”, “original” yechim yo‘li izlanadi. Uning nostandartligi ana shu yerda. O’quvchilarda asosan yechim algoritmi noaniq bo‘lgan nostandart masalalar birmuncha qiyinchilik tug‘diradi. Aynan bir xil masala, o‘qituvchi shunday masalalarni yechishga o‘rgatganmi yoki yo‘qligiga qarab standart yoki nostandart bo‘lishi mumkin.

Nostandart masalalarni yechish uchun, bir tomondan o‘quvchilarda masalalarni yechishning umumiy malakalarini shakllantirish boshqa tomondan esa ularni maxsus usullar bilan tanishtirish zarur. Boshqa hollarda nostandart masalalarni samarali yechish uchun o‘quvchi uni yaxshi tahlil qilishni va miqdorlar o‘rtasidagi bog‘lanishni, har bir masalada berilganlarni, mavjud ma’lumotlarni va izlanayotgan sonlarni aniqlashni bilishi yetarlidir. Bunday masalalarni yechish uchun mulohaza yuritish masala yechimini topishning eng maqbul usullaridan biridir. Nostandart masalalar yechishning bunday usulini namuna qilib ko‘rsatib bermoqchimiz:

Quyidagi masalani ko‘raylik:

Masala. Tarozida A, B, C, D sharchalar rasmdagidek joylashtirilgan. Har birining massalari 10g yoki 20g yoki 30g yoki 40g bo‘lishi mumkin bo‘lsa, 30g ga qaysi harfdagi sharcha mos keladi?



Yechish. *Berilgan masala haqiqatan ham biroz bosh qotirishga undaydi. Bu yerda o‘quvchidan sinchkovlik va algoritmlashni to‘g‘ri bajarish talab etiladi. Masalani berilishidan uning yechimiga ilmoq yo‘qday ko‘rinsada o‘ng tomondagi tarozidan bemalol fikrlashni boshlash mumkin. Massalar 10, 20, 30 va 40 gramm ekanligi va o‘ng tomondagi tarozi pallalari teng ekanligidan C sharchaning og‘irligini 30 gramm yoki 40 grammga teng bo‘ladi. Bunda B+D=C tenglikka ko‘ra 10+20=30 yoki 10+30=40. Faraz qilaylik, C=40 g bo‘lsin. U holda D ning qiymati 10g yoki 30g ga teng bo‘ladi. Har ikki holda ham chap tomondagi tarozini qanoatlantirmaydi. Demak 30 grammlik sharchaga C mos kelar ekan.*

Yuqoridagi kabi tanqidiy mushohadani rivojlantiruvchi masalalar berish juda muhim. Chunki bu jarayonda o‘quvchi miyasidagi harakatsiz hujayralar faollasha boshlaydi va masalaga qiziqqan o‘quvchini to‘g‘ri yechimga borishiga bir nechta yo‘llar taqdim etadi.

Xulosa. Umuman alohida olingan har qanday masala nostandart bo‘lishi mumkin. Uning yoniga shunga o‘xshash bir nechta masalalarni keltirish, u standart bo‘lib qoladi. Bu izlanish o‘quvchilardan bir xil masalalar ustida ishlashdan ko‘ra ko‘proq masalalar yechishning umumiy malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan faol harakatni amalga oshirishlarini talab qiladi.

Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflaridan boshlab nostandart masalalarni kiritib borish o‘tilayotgan darsning sifatiga ta’sir etuvchi eng asosiy omillardan biri deb hisoblaymiz. Dars davomida aniq algoritmli misol va masalalardan o‘quvchilar zerikishi kuzatiladi. Bunday hollarda ularga tabiatan biroz boshqacharoq, hisob-kitobga emas, balki mantiqiy fikrlashga asoslangan masalalarni berish darsdagi o‘quvchilarni deyarli barchasini fanga qiziqishini oshiradi. Nostandart masalalardan samarali foydalanish o‘quvchilarning ijodiy faolligini sezilarli oshiradi. Masalalar turlicha yondashuv talab qilgani uchun o‘quvchi mustaqil izlanishga, yangi g‘oyalarni ilgari surishga intiladi. Bu esa zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlariga to‘liq mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Bikboeva N. U. va boshq.** Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent : O‘qituvchi, 1996. – 512 b.
2. **Boymurodova G. T.** Boshlang‘ich sinflar uchun matematika fanini o‘qitishning amaliy metodik asoslari. – Toshkent : Navro‘z, 2016.
3. **Ergashev J.** Matematikani o‘qitishda interaktiv yondashuv. – Toshkent : Fan va texnologiyalar, 2016.
4. **Jumayev M. E., Tojiyeva Z. G.** Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2005.

MADANIYATLARARO MULOQOTDA IMPLITSIT MA’NO TALQINI

Abduxalimova Sarvinozxon Usmonali qizi

Qo‘qon davlat universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqola globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqotning muvaffaqiyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri – implitsit (yashirin) ma’nolarni talqin qilish muammosiga bag‘ishlangan. Edward Hallning Yuqori kontekstli va Past kontekstli madaniyatlar nazariyasi asosida, nutqiy va nutqdan tashqari signallardagi (sukut, proxemika, chronemika) yashirin ma’nolarning farqlari tahlil qilinadi. Noto‘g‘ri talqinlarga olib keluvchi etnotsentrizm kabi tushunchalarning buzilishi kabi sabablar o‘rganiladi. Shuningdek, madaniy sezgirlikni oshirish va metamuloqot orqali implitsit ma’noni to‘g‘ri talqin qilish strategiyalari taklif etilgan.*

Kalit so‘z va iboralar: *madaniyatlararo muloqot, implitsit ma’no, eksplitsit ma’no, kontekst nazariyasi, yuqori kontekst, past kontekst, metamuloqot*

Аннотация: *Настоящая статья посвящена проблеме интерпретации имплицитных (скрытых) значений – одному из ключевых факторов, влияющих на успех межкультурного общения в условиях глобализации. На основе теории*

Высококонтекстных и Низкоконтекстных культур Эдварда Холла анализируются различия в скрытых смыслах, передаваемых как вербальными, так и невербальными сигналами (молчание, проксемика, хронемика). Исследуются причины неверных толкований, такие как этноцентризм и нарушение принципа «сохранения лица». Предлагаются стратегии корректной интерпретации имплицитного значения путем повышения культурной чувствительности и использования метакоммуникации.

Ключевые слова и фразы: *межкультурная коммуникация, имплицитное значение, эксплицитное значение, теория контекста, высокий контекст, низкий контекст, метакоммуникация, сохранение лица.*

Annotation: *This article addresses the problem of interpreting implicit (hidden) meanings, a key factor influencing the success of intercultural communication in the context of globalization. Based on Edward Hall's theory of High-Context and Low-Context Cultures, the paper analyzes the differences in hidden meanings conveyed through both verbal and non-verbal signals (silence, proxemics, chronemics). The causes of misinterpretation, such as ethnocentrism and the violation of the "face-saving" principle, are examined. Strategies for the correct interpretation of implicit meaning are proposed, focusing on increasing cultural sensitivity and utilizing metacommunication.*

Keywords and expressions: *intercultural communication, implicit meaning, explicit meaning, context theory, high context, low context, metacommunication, face saving.*

Kirish: Globalizatsiya jarayonlari natijasida madaniyatlararo muloqot inson faoliyatining barcha jabhalarida – siyosat, biznes, ta'lim va ijtimoiy hayotda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Biroq, turli madaniyatlarning aloqaga kirishishi doimo silliq kechmaydi. Aloqaning muvaffaqiyatsizligiga ko'pincha tilning eksplitsit (ochiq) ma'nolari emas, balki implitsit (yashirin) ma'nolarning noto'g'ri talqin qilinishi sabab bo'ladi. Implitsit ma'no – bu nutq mazmunida to'g'ridan-to'g'ri aytilmagan, lekin vaziyat, kontekst, muloqotchilarning munosabati va

ularning umumiy madaniy bilimiga asoslanib anglashiladigan xabar. Turli madaniyat vakillari suhbatlashganda, ularning yashirin (implitsit) me'yorlari va tushunchalari to‘qnashadi. Bu esa etnotsentrizm va stereotiplar tufayli noto‘g‘ri xulosalar chiqarish xavfini oshiradi. Edward Hallning kontekst nazariyasi asosida madaniyatlararo muloqotdagi implitsit ma'no talqini mexanizmlarini tahlil qilish, noto‘g‘ri tushunishlarning oldini olish strategiyalarini taklif etish. Tadqiqot obyekti madaniyatlararo vaziyatlardagi nutqiy va nutqdan tashqari belgilar tizimi hisoblanadi.

Asosiy qism: Madaniyatlararo muloqotni tushunishda Edward Hallning Kontekst nazariyasi asosiy o‘rin tutadi. Hall madaniyatlarni ma'lumotni uzatish usuliga ko‘ra ikki turga ajratadi: yuqori kontekstli (YK) madaniyatlar (masalan, Yaponiya, Xitoy, O‘zbekiston, Arab davlatlari): Bu madaniyatlarda ma'lumotning katta qismi muloqotchilarning munosabatlarida, umumiy tarixida va muhitda yashirin bo‘ladi. Nutq o‘zi juda ixcham, noaniq va ko‘pincha implitsitdir. To‘g‘ridan-to‘g‘ri "yo‘q" degan javobdan qochiladi; uning o‘rniga "Men harakat qilaman" yoki "Bu juda qiyin bo‘ladi" kabi yumshoq, yashirin rad javoblari ishlatiladi; past kontekstli (PK) madaniyatlar (masalan, Germaniya, Shveytsariya, AQSH): Bu madaniyatlarda ma'lumot ochiq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va aniq so‘zlar (eksplitsit) orqali ifodalanadi. Vaziyat yoki munosabat emas, balki aytilgan so‘zning o‘zi muhimdir.

Agar yuqori kontekstli madaniyat vakili past kontekstli madaniyat vakiliga "Men bu haqda o‘ylab ko‘raman" desa, PK vakili buni haqiqiy kechiktirish deb tushunishi mumkin, vaholanki, YK vakili uchun bu yashirin rad javobi (implitsit ma'no) bo‘lishi mumkin. Bu implitsit ma'noning talqinidagi asosiy muammodir. Implitsit ma'no nafaqat so‘zlarda, balki nutqdan tashqari (nonverbal) belgilar orqali ham uzatiladi va turlicha talqin qilinadi:

- proxemics (Masofa): O‘rta Osiyo yoki Arab madaniyatlarida shaxsiy muloqot paytida o‘rtadagi kichik masofa (yaqinlik) samimiylik belgisi bo‘lishi

mumkin, ammo Shimoliy Yevropa madaniyatida bu shaxsiy hududga tajovuz deb baholanishi mumkin.

- Chronemics (Vaqt): Ba’zi madaniyatlarda (PK) aniq vaqtga rioya qilish shaxsning mas’uliyatini bildiradi, boshqa madaniyatlarda (YK) esa, munosabat va shaxsiy holatlar vaqtdan muhimroq hisoblanadi (polixronik vaqt tushunchasi).
- Sukut (Silence): Yapon va Fin madaniyatlarida sukunat chuqur fikr yuritish yoki muloqotni hurmat qilish belgisi bo‘lishi mumkin, ammo Amerika madaniyatida u noqulaylik yoki qiziqishning yo‘qligi deb talqin qilinishi mumkin.

Shuningdek, pragmatik implikatura (H. P. Grice) ham muhimdir. Implitsit ma’no ko‘pincha so‘zlovchining mantiqiy yoki ijtimoiy me’yorlarni ataylab buzishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, boshliqning: "Bu yerda juda sovuq, eshikni yopsangiz yaxshi bo‘lar edi" degani, so‘zma-so‘z sovuqlik haqida emas, balki "Eshikni yop" degan implitsit buyruqdir. Madaniyatlararo muloqotda bu buyruqning "yumshoqligi" turli xil hurmat darajalari (YK madaniyatlarda yuqori hurmat) bilan izohlanadi.

Implitsit ma’noni noto‘g‘ri talqin qilish quyidagi omillar tufayli yuzaga keladi:

- Etnotsentrizm: O‘z madaniy me’yorlarini yagona universal haqiqat deb hisoblash. Masalan, YK vakili "Bu taklif juda yaxshi" deganda, PK vakili buni rozilik deb qabul qiladi, aslida bu YK madaniyatida ko‘pincha "Rad etishga majburman, lekin hurmat yuzasidan yoqdi deya olmayman" degan yashirin ma’noni anglatishi mumkin.
- Affektiv xatolar (Hissiy to‘siqlar): Noto‘g‘ri tushunish oqibatida yuzaga kelgan salbiy hissiyotlar tufayli muloqotni to‘g‘ri baholay olmaslik.

Noto‘g‘ri talqinlar natijasida ishbilarmonlik aloqalarida shartnomalar buzilishi, nizolar kelib chiqishi va global jamoalarda hamjihatlikning pasayishi kabi jiddiy oqibatlar yuzaga keladi. Madaniyatlararo muloqotda implitsit ma’noni to‘g‘ri talqin qilish uchun quyidagi strategiyalarni qo‘llash zarur:

- Madaniy sezgirlikni (Cultural Awareness) oshirish: Muloqotdan oldin sherikning madaniyatiga xos yuqori/past kontekstlilik darajasini o‘rganish. Bu, o‘z

navbatida, sukunat, vaqtga munosabat va "ha" yoki "yo‘q" kabi javoblarning haqiqiy og‘irligini tushunishga yordam beradi.

- Noaniqlikka toqat qilish (Ambiguity Tolerance): Tez xulosa chiqarishdan tiyilish va xabarning bir nechta ma’noga ega bo‘lishi mumkinligini qabul qilish. Agar biror ibora noaniq bo‘lsa, darhol o‘z madaniyatidagi me’yorlar bo‘yicha baho bermaslik.
- Metamuloqot (Metacommunication)ni qo‘llash: Talqin qilishda qiyinchilik tug‘ilganda, ochiq, ammo muloyim tarzda savollar berish: "Kechirasiz, men bu fikrni to‘liq tushunmadim, iloji bo‘lsa, aniqlashtirib bera olasizmi?" Bu, ayniqsa, PK madaniyat vakillariga, YK vakillari uchun "yuzni saqlash" imkoniyatini bergan holda, mavzuni eksplitsit darajaga olib chiqish imkonini beradi.
- Alohida e’tibor: Muloqot jarayonida nutqdan tashqari signallarga, ovoz toniga, pauzalarga va muloqot uslubining yumshoqligiga yuqori darajada e’tibor qaratish, chunki bular implitsit ma’noning eng muhim tashuvchilaridir.

Xulosa: Madaniyatlararo muloqot muvaffaqiyati implitsit ma’noning aniq va sezgir talqin qilinishiga bevosita bog‘liq. Edward Hallning kontekst nazariyasi bu jarayonni tushunish uchun asosiy ilmiy bazani ta’minlaydi. Global muloqotda etnotsentrik yondashuvdan voz kechish va metamuloqot strategiyalarini faol qo‘llash orqali yuzaga keladigan ko‘plab noto‘g‘ri talqinlarning oldini olish mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar turli madaniyatlararo kontekstlardagi sun’iy intellektning implitsit ma’noni talqin qilish qobiliyatini o‘rganishga qaratilishi lozim. Xulosa qilib aytganda, samarali madaniyatlararo muloqot nafaqat til bilimini, balki madaniy empatiya va implitsit ma’noning cheksiz oqimini boshqarish qobiliyatini ham talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **Hall, E. T.** *Beyond Culture*. New York: Anchor Books, 1976. 241 p.
2. **Samovar, L. A., Porter, R. E., McDaniel, E. R.** *Intercultural Communication: A Reader*. 15th ed. Boston: Cengage Learning, 2017. 480 p.

3. **Grice, H. P.** Logic and conversation. In: *Syntax and Semantics*, Vol. 3: *Speech Acts*. New York: Academic Press, 1975. pp. 41–58.
4. **Gudykunst, W. B.** Toward a theory of effective interpersonal and intergroup communication: An anxiety/uncertainty management (AUM) perspective. In: *Intercultural Communication Theory*. Newbury Park: Sage Publications, 1993. pp. 33–71.
5. **Olimov, A. T.** *Muloqot psixologiyasi va madaniyati*. Toshkent: O‘zbekiston, 2020. 256 b.
6. **Ting-Toomey, S., Chung, L.** Communicating across cultures. *International Journal of Intercultural Relations*, 2012, Vol. 36, No. 6, pp. 759–767.
7. **Scollon, R., Scollon, S. W. B.** Intercultural communication: A critical perspective. *Journal of Applied Linguistics*, 2001, Vol. 1, No. 3, pp. 329–347.
8. **Smith, J.** High-context vs. Low-context culture explained [Electronic resource]. *Culture Mapping Blog*, 2023. Available at: https://culturemap.com/context-culture-explained (accessed: 07.12.2025).

FRAZEOLOGIZMLARGA OID DUNYO TILSHUNOSLIGIDAGI YONDASHUVLAR

Babanazarova Sohiba Abdusharipovna
Xorazm Ma’mun akademiyasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada barqaror birikmalarni o‘rganishga doir tarixiy, nazariy va kognitiv yondashuvlar tahlil qilinadi. Avvalo, frazeologiya mustaqil lingvistik yo‘nalish sifatida shakllanishiga olib kelgan umumiy tamoyillar yoritilib, barqaror birikmalarni erkin birikmalardan farqlovchi asosiy belgilar – barqarorlik, ko‘chma ma’no, o‘zgarmas tarkib va “tayyor” qo‘llanish xususiyatlari izohlanadi. Shuningdek, turli ilmiy maktablarda barqaror birikmalarning tasnifi,*

ularning til tizimidagi o‘rni va funksional xususiyatlari bo‘yicha turli qarashlar mavjudligi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *barqaror birikmalar, frazeologiya, kognitiv lingvistika, frazeologik birliklar, idiomatiklik, tasnif, konseptualizatsiya, o‘z ma’no, ko‘chma ma’no.*

Аннотация. *В данной статье анализируются исторические, теоретические и когнитивные подходы к изучению устойчивых словосочетаний. Прежде всего освещаются общие принципы, которые способствовали формированию фразеологии как самостоятельного лингвистического направления, а также объясняются основные признаки, отличающие устойчивые сочетания от свободных: устойчивость, переносное значение, неизменная структура и «готовое» использование. Кроме того, демонстрируется, что в разных научных школах существуют различные взгляды на классификацию устойчивых сочетаний, их место в языковой системе и функциональные особенности.*

Ключевые слова: *устойчивые словосочетания, фразеология, когнитивная лингвистика, фразеологические единицы, идиоматичность, классификация, концептуализация, собственное значение, переносное значение*

Abstract. *This article analyzes historical, theoretical, and cognitive approaches to the study of fixed expressions. First, it highlights the general principles that contributed to the formation of phraseology as an independent linguistic field and explains the main features that distinguish fixed expressions from free combinations: stability, figurative meaning, fixed structure, and “ready-made” usage. In addition, it demonstrates that different scholarly schools hold varying views on the classification of fixed expressions, their place in the language system, and their functional characteristics.*

Keywords: *stable expressions, phraseology, cognitive linguistics, phraseological units, idiomaticity, classification, conceptualization, literal meaning, figurative meaning.*

Kirish. Barqaror birikmalar til tizimining qadimdan o‘rganib kelingan murakkab qatlamlaridan biridir. Ularga bo‘lgan qiziqishning dastlabki sababi – bunday birliklarning so‘zma-so‘z tarjima qilinmasligi va ma’nosining butunlay kontekstga bog‘liq bo‘lishidir. Shuning uchun barqaror birikmalar avval adabiyot va tarjima jarayonida kuzatilgan hodisa sifatida e’tiborga tushgan, keyinchalik esa mustaqil lingvistik tadqiqot yo‘nalishiga aylangan.

Hozirda barqaror birikmalarni o‘rganishda kognitiv yondashuv muhim o‘rin egallay boshladi. Bu yondashuvga ko‘ra, barqaror birikmalar nafaqat tildagi tayyor birliklar, balki xalq tajribasi, dunyoqarashi va madaniy xotirasini aks ettiruvchi konseptual tuzilmalardir. Shuning uchun ularning ichki mazmuni, obrazlilik manbalari, milliy-madaniy komponentlari va idrok jarayonidagi o‘rni alohida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda.

Umuman barqaror birikmalarni lingvistik, kognitiv va madaniy nuqtayi nazardan izchil o‘rganish tilda ularning tutgan o‘rni va ahamiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Asosiy qism. Tadqiqotchilar tomonidan barqaror birikmalarga qiziqish ancha qadimgi davrlardayoq kuzatilgan. Bunga oid eslatmalar Aristotel, Plutarx, Kvintilian kabi faylasuvlarning asarlarida uchraydi. Y.D.Pinxasovning fikricha, frazeologiya dastlab adabiyotshunoslik predmeti sifatida o‘rganilgan. Ma’lum badiiy asarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganda, barqaror so‘zlar bog‘lanmasini aynan tarjima qilish mumkin bo‘lmay qolgan. Bunda o‘sha tillarda mavjud bo‘lgan frazeologik birliklar (bundan keyin FBlar) o‘rganila boshlangan[1; 13]. Frazeologiya nazariyasining G‘arbiy Yevropa yo‘nalishi asoschisi fransuz tilshunosi Sharl Ballidir. U o‘zining stilistikaga oid tadqiqotlarida frazeologiya atamasini ilk bor qo‘llaydi va stilistikaning tarkibiy qismi deb hisoblaydi, frazeologiyani ilk bor leksikologiyaning mustaqil bo‘limi sifatida ajratadi[2; 394]. FBlarning birinchi

mukammal tasnifi ham uning tadqiqotlarida aks etgan. U so‘z birikmalari orasida ma’no jihatdan yaxlit bo‘lgan ikki turni ajratgan:

1) o‘zgaruvchan so‘z birikmalari – (o‘z va ko‘chma ma’nosida ishlatilishi mumkin);
2) frazeologik birliklar – (faqat ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi).

Ingliz va Amerika lingvistika adabiyotlarida frazeologiya nazariyasiga bag‘ishlangan maxsus ishlar kam, mavjud eng muhim ishlarda ham frazeologizmlarni ajratishning ilmiy asoslangan mezonlari, frazeologik birliklar va so‘zlarning o‘zaro munosabati, frazeologiyaning tizimliligi, frazeologik variantlilik, frazeologiyaning o‘rganish usullari kabi fundamental masalalar qo‘yilmaydi.

Ingliz va Amerika olimlari frazeologiyani lingvistik fan sifatida ko‘rib chiqmaydilar. Bu ingliz tilida ushbu fan uchun maxsus nomning yo‘qligi bilan ham izohlanadi. Vaynrexning fikriga ko‘ra, “tillarning idiomatikligini tadqiq etish g‘arb zamonaviy lingvistika maktablarining eng e’tibordan chetda qolgan va eng kam o‘rganilgan jihatlaridan biridir”[3; 163].

Ingliz frazeologiyasi bo‘yicha J.Ray[4; 810], Veynreyx[5; 208], Ch.Fernando[6; 184], W. McMordie[7; 416], H.Collis, M.Risso[8; 230], A.P.Cowie[9; 257], J.Siefring[10; 352], H.M.Manser[11; 499] kabi olimlar tadqiqotlar olib borganlar.

Rus tilshunosligida esa FBlar tadqiqotchilar diqqatini juda oldindan tortib kelgan va iboralar, “qanotli so‘zlar”, aforizmlar, idiomalar kabi turli nomlar bilan XVIII asr oxiridan boshlab lug‘atlarda tushuntirib kelingan. Dastlab E.D.Polivanov frazeologiyani mustaqil tilshunoslik bo‘limiga aylanishiga zamin yaratgan va uni birinchi marta lingvistik jihatdan ko‘rib chiqishni, kelajakda lingvistikada mustaqil va barqaror o‘rin egallashi haqida fikr bildirdi, frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil bo‘limi sifatida qo‘yish masalasini ilgari surdi[12; 36]. V.V.Vinogradov esa Sh.Balli nazariyasini yanada takomillashtirib, ilk bor iboralarni ma’no yaxlitligi jihatidan sinxron klassifikatsiya qilib, o‘rganishning yangi yo‘llarini taklif

qilgan[13; 56]. Shundan so‘ng ko‘plab tadqiqotchilar ushbu mavzu doirasida ishlar olib borib, soha rivojiga hissa qo‘shishdi.

50-yillar oxiridan frazeologiyaga tizimli va kompleks yondashuv tendensiyasi shakllandi, frazeologizmlarni tilning mustahkam va barqaror birliklari sifatida o‘rganishga oid masalalar rivojlandi. Leningrad frazeologiya maktabi shakllandi. Bunda A.I.Smirnitskiy, O.S.Axmanova, B.A.Larin, A.M.Babkin, A.I.Molotkov, V.M.Mokiyenko kabi tadqiqotchilar frazeologiyaning shakllanishi, ichki tuzilishi, etimologik xususiyatlari, shuningdek, frazeologik lug‘atlar yaratish masalalari bilan shug‘ullanganlar. Keyinchalik Moskva frazeologik maktabi ham shakllanib, uning eng yirik vakili N.M.Shanskiy frzaeologizmlarni boshqa birliklardan ajratib turuvchi differensial belgilarini asoslab berdi, Vinogradov klassifikatsiyasini izohlab, takomillashtirdi. Bu davrda rus tilshunoslari nafaqat rus tilining frazeologik fondi, balki boshqa tillarga oid FBlarni ham o‘rgandilar. Masalan, N.N.Amasovaning ishlari ingliz frazeologiyasi bo‘yicha birinchi fundamental tadqiqot hisoblanadi. U FBlarga nisbatan frazeoidlar termini qo‘llaydi. Frazeoidlar – tor doimiy kontekstga ega, ammo o‘zgaruvchan bo‘lib, qat’iy bir emas, bir nechta o‘zgarib turadigan so‘zlar bilan birikadi. Masalan, *to pay* faqat ma’lum so‘zlar bilan (*a visit, call, compliments, respects, greetings, welcome, reception*) ishlatiladi[14; 208].

80-yillarning boshlarigacha frazeologiya struktural-semantik paradigma doirasida rivojlana boshladi.

Keyingi yillarda tadqiqotchilar diqqati ko‘proq frazeologizmlarni kognitiv tahlil etishga qaratildi. Chunki “til birliklarining ma’nosini kognitiv kategoriyalarni hisobga olmasdan o‘rganish mumkin emas. Lingvistika va kognitiv fanlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, fikrlash kategoriyalari til kategoriyalaridan ajralmasdir”[15; 12-23]. Quyida frazeologizmlarning kognitiv tahlili bilan bog‘liq tadqiqotlarga e’tibor qaratamiz.

Rus tilshunosi T.V.Ponomareva “Kognitiv aspektda frazeologik birliklar”[16; 274] dissertatsiyasida FBlarning turli darajadagi frazeologizatsiyasini

antroposentrik paradigma doirasida o‘rganadi. Unda mahalliy va xorijiy tilshunoslar asarlarida FBlarni idrok etish muammosi, rus tilini ona tili sifatida biluvchilarda FBlarning turli darajadagi frazeologizatsiyasini ongli idrok etish yoki beixtiyor idrok etish bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar tahlili yoritib beriladi[16; 74].

L.V.Kovaleva “Frazeologizatsiya kognitiv jarayon sifatida” nomli tadqiqotida rus va nemis FBlarida kognitiv jarayonlarni tahlil qilar ekan, tadqiqotchi to‘plagan uch mingdan ortiq rus frazeologizmlari rus milliy turmush tarziga oid bir qator realiyalarni kuzatish imkonini beradigan yuqoridagi tematik guruhlarga ajratib olishga imkon bergan. Bundan tashqari, tilshunos ushbu tadqiqotda rus va nemis FBlarida konseptualizatsiyaning qiyosiy tahlilini ham beradi[17; 425].

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kognitiv yondashuv frazeologiyani o‘rganishda muhim ilmiy yangiliklar bermoqda. Kognitiv lingvistika FBlarni faqat til tizimining barqaror elementlari sifatida emas, balki insonning bilish jarayoni, tajribasi va madaniy xotirasini aks ettiruvchi konseptual tuzilmalar sifatida talqin qiladi. Shu bois kognitiv tadqiqotlar FBlarning kelib chiqishi, ichki shakli, konseptual asoslari va ularda obyektivlashgan dunyo manzarasini yoritishda muhim nazariy yondashuv sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **Rashidova U. M.** O‘zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili : filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Samarqand, 2018. – 136 b.
2. **Балли Ш.** Французская стилистика / пер. с фр. К. А. Долинина ; под ред. Е. Г. Эткинда ; вступ. ст. Р. А. Будагова. – М. : Изд-во иностр. лит., 1961. – 394 с.
3. **Weinreich U.** Problems in the Analysis of Idioms: Substance and Structure of Language. – Berkeley; Los Angeles : University of California Press, 1984. – 208 p.

4. **Ray J.** A Complete Collection of English Proverbs. – London : Reprinted Verbatim, 1817. – 810 p.
5. **Fernando Ch.** Idioms and Idiomaticity. – Oxford : Oxford University Press, 1996. – 184 p.
6. **McMordie W.** English Idioms and How to Use Them. – London : Oxford University Press, 1929. – 416 p.
7. **Collis H., Risso M.** 101 American English Proverbs. – Lincolnwood, Illinois : Passport Books, 1992. – 230 p.
8. **Cowie A. P.** Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – Oxford : Oxford University Press, 1998. – 257 p.
9. **Siefring J.** The Oxford Dictionary of Idioms. – New York : Oxford University Press, 2004. – 352 p.
10. **Manser M. H.** The Facts on File Dictionary of Proverbs. – New York : Infobase Publishing, 2007. – 499 p.
11. **Поливанов Е. Д.** Русский язык сегодняшнего дня. Кн. 4. – Л. : Гос. изд-во, 1928. – С. 36.
12. **Виноградов В. В.** Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины. – Л. : ЛГУ, 1946. – С. 56.
13. **Амосова Н. Н.** Основы английской фразеологии. – Л. : Изд-во Ленингр. ун-та, 1963. – 208 с.
14. **Баранов А. Н., Добровольский Д. О.** Идиоматичность и идиомы // Вопросы языкознания. – 1996. – № 5. – С. 12–23.
15. **Пономарёва Т. В.** Фразеологические единицы в когнитивном аспекте : дис. … канд. филол. наук. – М., 2002. – 274 с.
16. **Ковалева Л. В.** Фразеологизация как когнитивный процесс : дис. … канд. филол. наук. – Воронеж, 2004. – 425 с.

BARQAROR BIRIKMALAR TARKIBIGA OID YONDASHUVLAR

Babanazarova Sohiba Abdusharipovna

Xorazm Ma’mun akademiyasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada barqaror birikma(bundan keyin BB)larning lingvistik tabiati, ularning shakllanishi, tarkibi va tasnifiga doir nazariy qarashlar tahlil qilinadi. XX asr boshlaridan buyon Sh.Balli, F. de Sossyur, V.L.Arxangelskiy kabi tilshunoslar tomonidan ilgari surilgan “tayyorlik”, “o‘zgarmaslik”, “takror qo‘llanish” kabi mezonlar zamonaviy frazeologiya va paremiologiyaning rivojlanishida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilgani ko‘rsatib beriladi. Maqolada erkin va turg‘un birikmalar o‘rtasidagi asosiy farqlar belgilanib, BBlarning mazmuniy- funksional xarakteri – barqarorlik, idiomatiklik, obrazlilik va jamoaviy til xotirasidagi mavqeyi yoritiladi.*

Frazeologiya va paremiologiya o‘rtasidagi chegaralar, turli ilmiy maktablar tomonidan BBlar tarkibiga qaysi birliklarning kiritilishi borasidagi qarashlar solishtirilib, muallif tomonidan barcha BBlarga nisbatan “paremalar”, ko‘chma ma’noli iboralarga nisbatan esa “frazeologizmlar” atamasini qo‘llash ma’qul variant sifatida asoslanadi. Shuningdek, maqolda turg‘un o‘xshatishlarning barqaror birikmalar tizimida tutgan o‘rni, ularning frazeologik birlik sifatida baholanishi va antroposentrik yondashuvda talqini yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *barqaror birikmalar, erkin birikmalar, frazeologizmlar, maqol, matallar, aforizmlar, idomatiklik, turg‘unlik, paremiologiya, paremalar.*

Аннотация. *В данной статье анализируется лингвистическая природа устойчивых сочетаний (далее – УС), рассматриваются теоретические взгляды на их формирование, состав и классификацию. Показано, что предложенные в начале XX века Ш. Балли, Ф. де Соссюром, В.Л. Архангельским такие критерии, как «готовность», «неизменяемость», «повторяемость», послужили важной теоретической основой для развития современной фразеологии и паремиологии. В статье определяются основные различия между свободными и устойчивыми сочетаниями, а также*

раскрываются содержательно-функциональные характеристики УС – устойчивость, идиоматичность, образность и их место в коллективной языковой памяти.

Сопоставляются научные взгляды различных лингвистических школ относительно границ между фразеологией и паремиологией, а также относительно того, какие единицы входят в состав УС. Автор обосновывает целесообразность употребления термина «паремы» по отношению ко всем устойчивым образованиям и термина «фразеологизмы» - по отношению к переносным устойчивым выражениям. Кроме того, освещается роль устойчивых сравнений в системе устойчивых сочетаний, их интерпретация как фразеологических единиц и их рассмотрение в рамках антропоцентрической парадигмы.

Ключевые слова: *устойчивые сочетания, свободные сочетания, фразеологизмы, пословицы, поговорки, афоризмы, идиоматичность, устойчивость, паремиология, паремы.*

Abstract. *This article analyzes the linguistic nature of stable expressions (here in after – SE), examining theoretical approaches to their formation, structure, and classification. It is demonstrated that the criteria proposed in the early 20th century by scholars such as Charles Bally, Ferdinand de Saussure, and V.L. Arkhangelsky – including "fixedness," "ready-made character," and "repeated use" – have served as an important theoretical foundation for the development of modern phraseology and paremiology. The article identifies the main differences between free and stable combinations and reveals the semantic-functional characteristics of SE, such as stability, idiomaticity, imagery, and their role in collective linguistic memory.*

The study compares the views of different linguistic schools regarding the boundaries between phraseology and paremiology and which units should be included in the category of SE. The author substantiates the appropriateness of using the term "paremias" for all stable formations and the term "phraseologisms"

specifically for stable figurative expressions. The paper also highlights the role of fixed comparisons within the system of stable expressions, their treatment as phraseological units, and their interpretation within the anthropocentric paradigm.

Keywords: *stable expressions, free combinations, phraseologisms, proverbs, sayings, aphorisms, idiomaticity, stability, paremiology, paremias.*

Kirish. Til tizimi murakkab va ko‘p qatlamli hodisa bo‘lib, uning ichida BBlar alohida semantik, struktur va pragmatik xususiyatlarga ega mustaqil qatlamni tashkil etadi. XX asr boshlaridan boshlab BBlarning tabiati, ularning tarkibiy yaxlitligi va nutq jarayonidagi funksional o‘rni tilshunoslikning eng muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Sh.Balli, F. de Sossyur kabi klassik lingvistlar tomonidan ilgari surilgan “tayyorlik”, “o‘zgarmaslik” kabi mezonlar keyingi yillarda frazeologiya va paremiologiya bo‘limlarining shakllanishi hamda rivojlanishida asosiy nazariy tayanch bo‘lib xizmat qildi.

Shu bilan birga, BBlarning mazmuniy chegarasi, tarkibiga qaysi birliklarning kirishi, ularning nomlanishi kabi masalalar hozirga qadar bir xil talqinga ega emas. Frazeologizmlar, maqol va matallar, aforizmlar, turg‘un o‘xshatishlar hamda boshqa turg‘un nutq birliklari turli ilmiy maktablarda xilma-xil yondashuvlar asosida tasniflanmoqda. Bu esa BBlarni keng lingvistik kontekstdan kelib chiqib qayta ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqli belgilarini aniqlash, nutqdagi vazifasini yangicha paradigmalarda o‘rganishni taqozo etadi.

Asosiy qism. Tilshunoslikda BBlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish XX asrning boshlaridan beri tadqiqotlar va ilmiy munozaralarning markaziy mavzularidan biri bo‘lib kelmoqda. Fransuz tilshunosi Sh.Balli 1902-yilda yozilgan asarida BB deb “tilga yaxlit holda kiradigan har qanday so‘z birikmasi”ni atagan[1; 89]. BB deganda Balli ularning leksik tarkibi va morfosintaktik tuzilmasining o‘zgarmasligini, mustahkamligini nazarda tutgan. Bunday o‘zgarmaslik ulardan “tayyor holatda” foydalanishni taqozo etadi. F. de Sossyur ham shunga monand fikr bildirib, shunday deydi: “Biz uchratayotgan ko‘plab iboralar, shubhasiz, tilga tayyor holatda kirib kelgan; bu iboralar tilda mustahkamlangan bo‘lib, ularning tarkibida

hech narsani o‘zgartirish mumkin emas. Bunday oborotlar improvizatsiya qilib yaratilmaydi – ular an’anaga ko‘ra tayyor holatda qo‘llanadi”[2; 122].

Keyinchalik V.L.Arxangelskiy so‘z birikmalarining barqarorligi faqat tarkibiy o‘zgarmaslik bilan belgilanmasligini, ularning nutqda qayta-qayta tayyor holatda qo‘llanilishi muhim mezon sanalishini aytadi[3; 315].

Biroq yuqoridagi ta’riflar ham BBlarning aniq mezonlari bo‘la olmaydi. Tilshunos O.A.Kulayeva nutqda tayyor holda qayta-qayta takrorlanuvchi barcha birliklarni ham BB deb bo‘lmasligini batafsil izohlaydi: “Birinchidan, agar til birligi bir xil etnolingvistik guruhga mansub ko‘plab so‘zlovchilar nutqida muntazam uchrab tursa, bu uning majburiy ravishda barqaror ekanligini anglatmaydi. Chunki ekstralingvistik voqelikning o‘z mantig‘i bir xil so‘z birikmalari yoki iboralarni turli sotsiokultur vaziyatlarda qayta-qayta takrorlash zaruratini doimiy ravishda yuzaga keltiradi. Ammo bunday birliklarning nutqda keng qo‘llanishi ularning oldindan shakllangan yoki til jamoasining umumiy mulki ekanligini ko‘rsatmaydi. Ikkinchidan, agar til birligi nutqda har safar qayta yaratilmay, balki ko‘p marotaba “tayyor holda” qo‘llanilsa, bu uning jamoaviy xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bunday tayyor iboralar, qoida tariqasida, kichik ijtimoiy guruhlarda – masalan, oila, harbiy bo‘linmalar, brigadalar va hokazolarda mavjud bo‘lishi mumkin. Ular shaxsiy ijod mahsuli bo‘lmagan holda, muntazam takrorlanib, shu guruhning kommunikativ tajribasiga singib ketadi. Bu birliklar ko‘pincha “parasintaktik” birliklar deb ataladi, chunki ular emotsional-psixologik xotiralar bilan bog‘liq bo‘ladi, bunday iboralarni ommaviy qo‘llanilishga kirib kelmaguncha barqaror lingvistik birliklar deb hisoblab bo‘lmaydi”[4; 25]. Bizningcha, BB – bu ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, bir ma’no butunligiga ega bo‘lgan, til jamoasi nutqida muntazam ravishda “tayyor shaklda” qo‘llaniladigan, jamoaviy til xotirasida madaniy-tarixiy meros sifatida saqlanadigan til birliklaridir.

BBlarning mohiyatini to‘liq tushunish uchun, avvalo, erkin va turg‘un birikmalarni farqlab olish zarur, chunki tarkibi ikki va undan ortiq so‘zlardan tarkib

topgan birliklar talaygina. Masalan, qo‘shma so‘z, so‘z birikmasi, gap, so‘z qo‘shilmasi, tasviriy ifoda, maqol, matal kabilar. Erkin birikmalar turg‘un birikmalardan farqli o‘laroq nutq jarayonida hosil qilinadi, ularning tarkibida ikki va undan ortiq mustaqil so‘zlar bir grammatik va ma’noviy butunlikni tashkil etib, nutq jarayonida yuz beradi va shu jarayondagina yashashi, vaqtinchalik hodisa ekanligi anglashilib turadi. BBlar tarkibidagi so‘zlar esa o‘zaro o‘zgarmas qilib bog‘langan va nutq jarayoniga qadar mavjud bo‘lib, biz ularni nutqimizga tayyor holatda olamiz. Demak, erkin va turg‘un birikmalarning farqlovchi belgisi “tayyorlik” yoki “barqarorlik” belgisidir.

BBlar tushunchasi mazmunan quyidagilarga tayanadi: barqarorlik, takror qo‘llanish, tayyor birlik sifatida qabul qilinishi, shuningdek, idiomatiklik va obrazlilik[5; 177].

BBlar tarkibiga, odatda, frazeologizmlar, maqol, matallar va aforizmlar kiritiladi. Lekin aynan qaysi til birliklari BBlar tarkibiga kirishi yoki ularning nomlanishi haqidagi fikrlar turlicha. Avvalo, tilshunoslikning BBlarni o‘rganuvchi ikkita bo‘limi, ya’ni frazeologiya va paremiologiya haqida to‘xtalsak. Shu paytgacha tilshunoslikda frazeologiya bo‘limi keng va tor ma’noda tushunilib, tarkibi va komponentlari haqida turli fikrlar bildirilgan. Masalan, rus tilshunosi V.V.Vinogradov ta’limoti asosida frazeologiyaning doirasi ancha toraytirildi va tor tushuncha tarafdorlari frazemalar sifatida faqat iboralarni tan olishdi[6; 312]. Lekin keyinchalik ushbu andazalardan chetlashilganligini va frazeologizmlar doirasi kengaytirilganini kuzatishimiz mumkin. Frazeologiyani keng ma’noda tushunish tarafdorlaridan N.M.Shanskiy o‘z ma’nosi, tarkibi va tuzilishi jihatidan doimiy bo‘lgan ikki yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topgan, tayyor lisoniy birlik sifatida taqdim etiladigan barcha turg‘un birliklarni, jumladan, maqol, matal va aforizmlarni ham frazeologizmlar tarkibiga kiritadi[7; 135]. Shuningdek, “Lingvistik ensiklopedik lug‘at”da ham bunday birikmalarning barchasi “frazeologizm” atamasi ostida ifodalangani holda, idiomalar, maqol va matallar; qanotli so‘zlar, aforizmlar; *Ishlar qanday? Kayfiyatlar yaxshimi?* singari shtamplar

uning tarkibiga kiritilganini kuzatishimiz mumkin[8; 18]. Ko‘plab Yevropa tillarida esa XVI asrdan BBlarga nisbatan “idioma” termini qo‘llana boshlagan[9; 36].

H.Berdiyorov va R.Rasulovlar o‘z tadqiqotlarida barcha BBga nisbatan paremalar atamasini qo‘llaydilar va paremiologiya va frazeologiyani farqlab, quyidagicha fikr bildiradilar: “Paremalarning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti va ma’nolarini o‘rganuvchi paremiologiya frazeologiya bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq. Paremiologiya tilda turli xarakterdagi barcha iboralarni o‘rganadi, frazeologiya esa uning bir qismi sifatida – faqat ko‘chma ma’noli turg‘un birikmalarni o‘rganadi. Bu ularning o‘zaro farqlovchi tomonlaridir. O‘rganish obyektining birligi, ya’ni bir necha so‘zdan tuzilgan BBlarni tekshirish ularning o‘xshash, umumiy tomonlaridir. Frazeologiyaning fan sifatida shakllanishida paremiologiyaning roli katta”[10; 10].

Biz ham paremiologiya va frazeologiyaning bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgani holda alohida bo‘limlar sifatida qabul qilishni ma’qul ko‘rdik va barcha BBlarga nisbatan paremalar, iboralarga nisbatan frazeologizmlar atamalarini qo‘lladik. Chunki ko‘pchilik tilshunos olimlarning fikricha, maqollar folklordan bo‘lmagan aforizmlar bilan bir qatorda frazeologiya sohasiga kirmaydi. V.P. Jukov maqol va frazeologik birlik o‘rtasidagi asosiy farq maqolning gap shakli ekanligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, maqollar frazeologik birliklardan semantik va intonatsion to‘liqligi, sintaktik bo‘linishi bilan farqlanadi. Maqolning asosini frazeologik birliklar kabi tushunchalar emas, balki hukmlar tashkil etishi ham juda muhimdir. Bu dalillarning barchasi paremiologiyani mustaqil fan sifatida ajratish uchun asosdir[11; 241-242].

Ayrim manbalarda paremalar paradigmasini hosil qiluvchi “barqarorlik”, “tayyorlik”, “semantik transpozitsiya” belgilarini o‘zida mujassam qilgani bois topishmoqlar ham paremalar qatoriga kiritiladi[8; 20]. Tilshunos A.Mamatov frzeologizmning ta’rifiga mos tushgan, uning talablarini bajara olgan, ya’ni tuzilishi jihatidan so‘z birikmasi yoki gapga teng bo‘lgan, obrazli, umumlashgan ma’no anglatadigan, leksik elementlari qisman yoki to‘liq ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan,

lug‘atlarda qayd etilgan har qanday turg‘un birliklar frazeologik birliklar tarkibiga kiritilishi shart[12; 212] ligini ta’kidlaydi. Agar yuqoridagi belgilar paremalarning muhim belgilari hisoblansa, unda paremalar qatoriga turg‘un o‘xshatishlarni ham qo‘shishimiz mumkin bo‘ladi, chunki turg‘un o‘xshatishlar ham ikki va undan ortiq so‘zdan tarkib topib, tarkibining yaxlitligi, o‘zgarmasligi, nutqqa tayyor olib kirilishi jihatidan BBlarga xos xususiyatlarni o‘zida namoyon etadi hamda uni BBlar bilan bir qatorda o‘rganishimizga asos bo‘la oladi. Demak, turg‘un o‘xshatishlar ham nutqimizda tayyor qo‘llanadigan, tarkibi barqaror bo‘lgan, yaxlit birlik sifatida qo‘llaniladigan paremalardir va tuzilishi jihatidan FB bo‘la oladi. Jahon tilshunosligida ham turg‘un o‘xshatishlar bir qator ilmiy tadqiqotlarda FB sifatida o‘rganilganligini ko‘rishimiz mumkin(F.N. Venjonovich, A.R.Raximova, M.L.Kovshova, G.L.Kochedikov va boshqalarning ishlarida). Tilshunos T.V.Panomareva ham uni FBlar qatoriga kiritadi[13; 120]. Turg‘un o‘xshatishlarni antroposentrik paradigma doirasida o‘rgangan A.Raximova ularning tarkibi barqaror ekanligidan kelib chiqib mustaqil FB sifatida shakllanganligiga e’tibor qaratadi va bu jarayon antroposentrik tafakkurning takomillashuvini aniq aks ettirishini ta’kidlaydi[14; 37]. Demak, turg‘un o‘xshatishlar ham BBlarning barchasi qatori “tayyorlik” belgisi orqali ular bilan bir butunlikni hosil qiladi. Shu bilan birga ular ma’lum bir belgilar bilan bir-biridan farqlanadi. Tilshunos Sh.A.Ganiyeva BBlarni o‘zaro birlashtiruvchi va farqlovchi oltita relevant belgi, ya’ni barqarorlik, tayyorlik, semantik transpozitsiya, informativ tugallik, muallifga egalik va jumboqlikni sanab o‘tadi[8; 23]. Bundan tashqari, Z.K. Tarlanov BBlarga xos “aksiomatik belgi”ni e’tirof etadi[15; 65-66]. Xususan, maqol, matal va aforizmlar nutq aktida “aksiomatik” vazifani bajaradi, ya’ni ular isbotga muhtoj emas. Fikrimizcha, didaktiklik va variantlashish belgisi ham BBlarning farqlovchi belgisi bo‘lishi mumkin. Chunki maqollar variantlashish xususiyatiga ega, lekin aforizmlarda bunday xususiyat yo‘q. Turg‘un o‘xshatishlarning differensial belgisi esa komparativ konstruksiyaning majburiyligidir. Bu boshqa BBlardan farqli o‘laroq

o‘xshatishlarning tarkibida kamida ikki obrazning taqqoslash asosida birlashishini ta’minlaydi[16; 140-161].

Ko‘rib chiqqanimizdek, BBlar, ularning nomlanishi, tarkibi borasida dunyo tilshunosligida turli fikrlar mavjud. Yillar davomida ko‘plab tilshunos olimlar tomonidan tilning ushbu birliklarining turli jihatlari keng o‘rganilganiga qaramay, ushbu izlanishlar bu boradagi tadqiqotlarni yanada kengaytirishga turtki beradi, chunki paremalar har qanday tilning eng katta xazinasi va bu xazinada xalqning ko‘p asrlik mehnat va ma’naviy faoliyati davomida olgan anglashlari, o‘tmishi, axloqiy qadriyatlari, diniy qarashlari va e’tiqodlari saqlanganligi bois har qanday tilni o‘rganishning bitmas-tuganmas manbayidir. BBlar go‘yoki tarixning “aks-sadolari” sifatida nafaqat tilshunoslar, balki turli xalqlarning tarixi, qadriyatlari bilan qiziqqan har bir kishi uchun qiziq faktlar bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **Балли Ш.** Французская стилистика / пер. с фр. К. А. Долинина ; под ред. Е. Г. Эткинда ; вступ. ст. Р. А. Будагова. – М. : Изд-во иностр. лит., 1961. – 394 с.
2. **Соссюр Ф. де.** Курс общей лингвистики // Труды по языкознанию. – М. : Прогресс, 1977. – 696 с.
3. **Архангельский В. Л.** Устойчивые фразы в современном русском языке. – Ростов-на-Дону : Изд-во РГУ, 1964. – 315 с.
4. **Кулаева О. А.** Устойчивость английских лингвистических единиц в свете концепции речеязыкового континуума : дис. … канд. филол. наук. – Самара, 2003. – 226 с.
5. **Иванченко Н. В.** Репрезентация идей конфуцианства в устойчивых единицах китайского языка : дис. … канд. филол. наук. – Челябинск, 2017. – 177 с.
6. **Виноградов В. В.** Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины // Избранные труды. Лексикология и

лексикография. – М., 1977. – С. 3–29.
(Asl maqola: 1946-y.)

7. **Шанский Н. М.** Фразеология современного русского языка. – 3-е изд., испр. и доп. – М. : Высш. шк., 1985. – 160 с.
8. **G‘aniyeva Sh. A.** O‘zbek frazeologizmlari strukturasi (shakliy va mazmuniy modellashtirish) : filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Farg‘ona, 2017. – 155 b.
9. **Шестак Е. И.** Профессионально маркированные фразеологические единицы в когнитивно-коммуникативном аспекте : дис. … канд. филол. наук. – Челябинск, 2008. – 163 с.
10. **Бердиёров Ҳ., Расулов Р.** Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Тошкент : Ўқитувчи, 1982. – 286 б.
11. **Алефиренко Н. Ф., Семененко Н. Н.** Фразеология и паремиология : учеб. пособие для бакалавров филол. направления. – М. : Флинта ; Наука, 2009. – 344 с.
12. **Mamatov A. E.** Hozirgi o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent, 1991. – 212 b.
13. **Пономарёва Т. В.** Фразеологические единицы в когнитивном аспекте : дис. … канд. филол. наук. – М., 2002. – 274 с.
14. **Рахимова А. Р.** Вербализация характера и эмоционального состояния человека в устойчивых сравнениях русского языка : дис. … канд. филол. наук. – Казань, 2017. – 199 с.
15. **Тарланов З. К.** Русские пословицы: синтаксис и поэтика. – Петрозаводск : ПГУ, 1999. – 444 с.
16. **Виноградов В. В.** Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М., 1977. – С. 140–161.

CONNECTING STORY LANGUAGE WITH EVERYDAY CONVERSATION IN ENGLISH

Iskandarova Sumbula Jafarovna
Chirchik State Pedagogical University
Tulyaganova Nargiza Farxod qizi
Chirchik State Pedagogical University

Abstract: *The integration of narrative language into everyday English communication highlights the fundamental role of storytelling in human interaction. This study examines how narrative structures—such as sequencing, characterization, and thematic framing—are subconsciously embedded in ordinary conversations. Rather than being confined to literature, story language operates as a cognitive and social mechanism through which individuals interpret experiences, convey emotions, and establish mutual understanding.*

Keywords: *Storytelling language; Everyday conversation; Narrative structure; Spoken English; Cognitive communication; Discourse patterns; Personal narrative.*

Аннотация: *Интеграция повествовательного языка в повседневное общение на английском языке подчёркивает фундаментальную роль повествования во взаимодействии людей. В данном исследовании рассматривается, как повествовательные структуры, такие как последовательность, описание характеристик и тематическое оформление, подсознательно внедряются в обычные разговоры. Язык повествования не ограничивается литературой, а выступает когнитивным и социальным механизмом, посредством которого люди интерпретируют свой опыт, передают эмоции и устанавливают взаимопонимание.*

Ключевые слова: *Язык повествования; Повседневный разговор; Структура повествования; Разговорный английский; Когнитивная коммуникация; Модели дискурса; Личное повествование.*

Annotatsiya: *Ingliz tilidagi kundalik muloqotga hikoya tilining integratsiyasi odamlarning o'zaro ta'sirida hikoya qilishning asosiy rolini ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqot rivoyat tuzilmalari - ketma-ketlik, xarakteristikalar va tematik ramkalar - oddiy suhbatlarga qanday qilib ongsiz ravishda kiritilganligini o'rganadi. Adabiyot bilan chegaralanib qolmasdan, hikoya tili kognitiv va ijtimoiy mexanizm sifatida ishlaydi, bu orqali odamlar o'z tajribalarini sharhlaydilar, his-tuyg'ularini etkazadilar va o'zaro tushunishni o'rnatadilar.*

Kalit so'zlar: *Hikoya tili; Kundalik suhbat; Hikoya tuzilishi; Ingliz tili; Kognitiv aloqa; Nutq shakllari; Shaxsiy hikoya.*

Introduction. Language is not only a tool for communication but also a medium through which human experience is shaped, remembered, and shared. In everyday English conversation, people frequently rely on narrative forms—such as anecdotes, imagined scenarios, and descriptive sequencing—to express thoughts more vividly and persuasively. This natural use of story-like elements indicates that storytelling is not limited to literary texts, but actively functions within ordinary speech. The boundary between literary narrative and spoken dialogue becomes blurred as individuals unconsciously apply narrative structures to organize events, convey emotions, and create social connection[1]. Story language introduces key features such as chronology, character perspective, and emotional framing, which enhance clarity and engagement in conversation. When speakers recount personal experiences, justify opinions, or express empathy, they often adopt narrative strategies to make their message more relatable. Thus, storytelling in daily discourse is not merely stylistic, but cognitive—it reflects how people think and interpret reality. Understanding this connection provides insight into broader linguistic behavior, including meaning-making, identity construction, and cultural transmission.This paper investigates the subtle yet powerful presence of narrative techniques in everyday English. By exploring how conversational language mirrors elements commonly found in narratives, it aims to demonstrate the vital role of storytelling in shaping human communication. Through this analysis, the study

highlights narrative not as an artistic addition, but as a fundamental structure of language and thought[2].

Language is not only a tool for communication but also a medium through which human experience is shaped, remembered, and shared. In everyday English conversation, people frequently rely on narrative forms—such as anecdotes, imagined scenarios, and descriptive sequencing—to express thoughts more vividly and persuasively. This natural use of story-like elements indicates that storytelling is not limited to literary texts, but actively functions within ordinary speech. The boundary between literary narrative and spoken dialogue becomes blurred as individuals unconsciously apply narrative structures to organize events, convey emotions, and create social connection.

Story language introduces key features such as chronology, character perspective, and emotional framing, which enhance clarity and engagement in conversation[3]. When speakers recount personal experiences, justify opinions, or express empathy, they often adopt narrative strategies to make their message more relatable. Thus, storytelling in daily discourse is not merely stylistic, but cognitive—it reflects how people think and interpret reality. Understanding this connection provides insight into broader linguistic behavior, including meaning-making, identity construction, and cultural transmission [5]. This paper investigates the subtle yet powerful presence of narrative techniques in everyday English. By exploring how conversational language mirrors elements commonly found in narratives, it aims to demonstrate the vital role of storytelling in shaping human communication. Through this analysis, the study highlights narrative not as an artistic addition, but as a fundamental structure of language and thought.

In everyday English communication, speakers often draw upon narrative elements—consciously or unconsciously—to structure their thoughts and make their messages meaningful. When people recount a personal experience, offer explanations, or share opinions, they frequently follow a narrative pattern: setting the context, introducing participants, describing events, and delivering a conclusion

or reaction[6]. This sequence mirrors the basic structure of storytelling and demonstrates how closely connected narrative is to spontaneous conversation. One of the most significant narrative features in ordinary speech is chronological ordering. Speakers naturally arrange events in a temporal sequence, using expressions such as “first,” “then,” “after that,” or “finally”, which provide clarity and coherence. Similarly, character perspective emerges through the use of pronouns, attitudes, and emotions, allowing the listener to identify with the speaker’s viewpoint. Even in casual dialogue, individuals use descriptive language and emotional emphasis to create engagement, much like a storyteller captivates an audience.

Furthermore, personal anecdotes serve as a bridge between narrative and communication. They allow speakers to justify arguments, strengthen relationships, and evoke empathy. Through storytelling, everyday conversation gains depth and expressive power, transforming simple facts into meaningful experiences. This natural inclination toward narrative reveals that telling stories is not only a cultural habit, but a fundamental linguistic strategy rooted in human cognition[7].

Story language in everyday English conversation serves essential cognitive and social purposes, shaping the way individuals understand, remember, and share experiences. Cognitively, narratives provide a mental framework for organizing thoughts. Rather than presenting isolated facts, speakers link events in cause-and-effect sequences, making ideas easier to process and recall. This narrative structure helps listeners follow the speaker’s logic, creating clarity even in informal speech. Through metaphors, comparisons, and imagined scenarios, speakers enhance abstract concepts, enabling deeper comprehension.

Socially, storytelling plays a crucial role in human connection. Personal stories foster empathy, trust, and solidarity between speakers. When individuals share experiences—whether humorous, emotional, or challenging—they invite listeners into their perspective, strengthening interpersonal relationships. Conversational storytelling also fulfills identity-building functions; by describing past events,

people define who they are, what they value, and how they wish to be perceived. Thus, daily speech becomes a performance of self, shaped by narrative expression.

Moreover, story language supports persuasion in conversation. A well-told anecdote can be more convincing than a direct argument, as it appeals to emotion and imagination. Speakers often use brief narratives to justify choices, resolve conflicts, or influence opinions[8]. This persuasive dimension reveals that storytelling is not an ornamental feature of language, but a practical communicative tool. Through its cognitive and social functions, narrative becomes deeply embedded in the fabric of everyday spoken English, guiding how people connect thought with expression.

In everyday English, the influence of story language can be observed in simple interactions such as greetings, explanations, arguments, and casual sharing of experiences. When someone begins with phrases like “You won’t believe what happened today…” or “Let me tell you something…”, they are naturally initiating a narrative structure. Even brief conversations often include a beginning, a key moment, and a reaction, showing how spontaneous speech follows a storytelling pattern.

People use stories to explain situations more clearly. For example, instead of giving a short answer, a speaker may describe the whole event to provide context and justification. In social settings, storytelling helps create a friendly atmosphere, allowing individuals to express humor, surprise, or emotion. These narrative elements make conversations more engaging and help listeners connect with the speaker.

Ultimately, storytelling is not only a linguistic style, but a fundamental mechanism of communication. It transforms ordinary speech into a shared human experience, bridging imagination and reality. Understanding this link helps us appreciate how deeply narrative is embedded in everyday English — shaping the way we speak, think, and connect with others.

Conclusion. The connection between story language and everyday English conversation reveals that storytelling is an essential part of human communication, not limited to literature or formal narration. In daily interactions, people naturally use narrative elements such as sequence, description, and personal experience to make their speech more meaningful and engaging. These features help individuals express emotions, clarify events, and strengthen social relationships. Storytelling serves both cognitive and social functions. It organizes thoughts in a structured way, making ideas easier to understand, while also building empathy and connection between speakers. Through short anecdotes, personal reflections, and expressive details, conversational speech gains depth and becomes more persuasive and memorable. Ultimately, storytelling is not only a linguistic style, but a fundamental mechanism of communication. It transforms ordinary speech into a shared human experience, bridging imagination and reality. Understanding this link helps us appreciate how deeply narrative is embedded in everyday English — shaping the way we speak, think, and connect with others.

REFERENCES

1. **Bruner J.** The Narrative Construction of Reality // *Critical Inquiry*. – 1991. – Vol. 18, No. 1. – P. 1–21.

2. **Labov W.** Language in the Inner City: Studies in the Black English Vernacular. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972. – 440 p.

3. **Tulaganova N. F. Q., Yusupova S. B.** Madaniyat, san’at va adabiyotning tilga ta’siri: o‘zbek va ingliz tillarining o‘ziga xos xususiyatlari // *Academic Research in Educational Sciences*. – 2022. – Vol. 3, No. 4. – P. 794–797.

4. **Herman D.** Narrative Theory and the Cognitive Sciences. – Stanford: CSLI Publications, 2003. – 512 p.

5. **Batirovna Y. S.** National Cultural Specificity of Speech Behavior in English and Uzbek // *Eurasian Research Bulletin*. – 2022. – No. 4. – P. 80–82.

6. **McAdams D. P.** The Role of Narrative in Personality and Identity // *Journal of Personality*. – 2006. – Vol. 74, No. 2. – P. 1–18.

7. **Farxodqizi T. N.** Theoretical and Methodological Foundations of Teaching Foreign Languages in the Modern Educational Context // *The Theory of Recent Scientific Research in the Field of Pedagogy*. – 2025. – Vol. 3, No. 33. – P. 63–66.

8. **Ochs E., Capps L.** Living Narrative: Creating Lives in Everyday Storytelling. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2001. – 320 p.

9. **Thornbury S.** Beyond the Sentence: Introducing Discourse Analysis. – Oxford: Macmillan Education, 2005. – 224 p.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE LEVEL OF ACADEMIC PROCRASTINATION IN STUDENTS

Kozimov Sayfullokh

Andijan State Pedagogical Institute

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talabalarda akademik prokrastinatsiya darajasiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, o‘quv motivatsiyasi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, shaxslararo munosabatlar, emotsional barqarorlik va o‘z-o‘zini boshqarish kabi omillarning prokrastinatsiya bilan o‘zaro bog‘liqligi bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *prokrastinatsiya, akademik prokrastinatsiya, ijtimoiy-psixologik omillar, o‘quv motivatsiyasi, emotsional barqarorlik, o‘z-o‘zini boshqarish, shaxslararo munosabatlar.*

Аннотация: *В статье анализируются социально-психологические факторы, влияющие на уровень академической прокрастинации у студентов. Также описывается взаимосвязь таких факторов, как академическая*

мотивация, социальная поддержка, межличностные отношения, эмоциональная стабильность и самоконтроль, с прокрастинацией.

Ключевые слова: *прокрастинация, академическая прокрастинация, социально-психологические факторы, академическая мотивация, эмоциональная стабильность, самоконтроль, межличностные отношения.*

Abstract: *This article analyzes the socio-psychological factors that influence the level of academic procrastination in students. At the same time, the relationship between factors such as academic motivation, social support, interpersonal relationships, emotional stability, and self-control with procrastination is described.*

Keywords: *procrastination, academic procrastination, socio-psychological factors, academic* motivation, emotional stability, self-control, interpersonal relationships.

Entrance: In recent years, the complexity of the educational process in the higher education system, increased competition, and the increase in academic tasks requiring a high level of self-management from students have made the phenomenon of procrastination an even more relevant topic. Academic procrastination is characterized by students' tendency to postpone assignments, inefficient management of time resources, and inability to overcome internal obstacles in their academic activities. This process has a significant impact not only on academic performance, but also on the psychological well-being of the individual, the level of self-confidence, and social relationships. In the scientific literature, social influences, including the student's relationships with friends, family members, and teachers, as well as the level of social support, are considered important determinants of academic procrastination. These factors play a direct role in the formation or reduction of procrastination behavior, determining the student's motivation, self-esteem, emotional stability, and goal-directedness. In this context, a comprehensive analysis of socio-psychological factors is of significant scientific importance in explaining the level of procrastination among students.

Main part: The study of socio-psychological factors influencing the level of academic procrastination in students is one of the most important areas of modern educational psychology, and the multifactorial nature of this process requires its in-depth empirical analysis. Academic procrastination depends not only on the internal motivational system of the individual or individual psychological characteristics, but is also closely related to the social environment surrounding the student, the quality of social relationships, the communicative environment, and the resources of psychological support.

Motivation plays a central role in the formation of academic procrastination as the main driving force in students' academic activities. Students with high intrinsic motivation have a stronger tendency to complete assignments on time, take a responsible approach to studying, and consistently achieve the goals set for themselves. On the contrary, students who rely on extrinsic motivation and strive to study only for grades or incentives have a much higher level of procrastination. Individuals with low motivation have a weak internal need to complete tasks, and they tend to avoid tasks that are complex or require more intellectual effort. This causes the motivational gap to increase over time with fatigue from studying, lack of self-confidence, and exposure to external distractions. As a result, decreased motivation is manifested as the main determinant of academic procrastination.

Social support has a significant impact on a student's emotional stability in studying and their ability to withstand stress. Positive attitudes and psychological support from family members, teachers, and peers increase students' self-confidence and reduce the process of procrastination. The lack of such support can increase negative emotional states in students, such as anxiety, fear of uncertainty, and expectation of failure. Healthy social relationships with peers are also among the factors that reduce the level of procrastination. Mutual assistance, joint study, and exchange of experiences form a positive attitude towards the learning process in students. On the contrary, excessive competition or social isolation can increase

procrastination. Therefore, the presence or absence of social support plays an important psychological role in student activity.

Abstract: *This scientific article highlights the effectiveness of cross-curricular integration and the use of innovative methods in astronomy education. The methodological foundations of the formation of a scientific worldview in students, the development of analytical thinking, observation and modeling skills through the use of integrative approaches in the educational process are scientifically substantiated. The practical application of astronomical units of measurement, the application of experiments to determine the shape and size of the Earth based on historical scientific sources in the educational process, as well as methods for organizing virtual observations using modern digital programs are highlighted.*

Keywords: *integration, physics, mathematics, geography, computer science, Kepler's law, units of measurement, Eratosthenes Ptolemy Maps, stellarium*

Аннотация: *В данной научной статье рассматривается эффективность межпредметной интеграции и использования инновационных методов в обучении астрономии. Научно обоснованы методические основы формирования научного мировоззрения учащихся, развития аналитического мышления, навыков наблюдения и моделирования посредством использования интегративных подходов в образовательном*

процессе. Освещены практическое применение астрономических единиц измерения, применение экспериментов по определению формы и размеров Земли на основе исторических научных источников в образовательном процессе, а также методы организации виртуальных наблюдений с использованием современных цифровых программ.

Ключевые слова: *интеграция, физика, математика, география, информатика, закон Кеплера, единицы измерения, карты Эратосфена и Птолемея, стеллариум*

Zamonaviy ta’lim tizimi fanlararo integratsiyaga asoslanib, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kompleks shakllantirishni talab qiladi. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida astronomiya fanini o‘qitishda matematika, geografiya va informatika fanlari bilan integratsiyalashgan yondashuv o‘quvchilarda ilmiy tafakkur, tahliliy fikrlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ushbu maqolada astronomiya fanining Astronomik o‘lchov birliklari mavzusi matematika bilan, Eratosfen va Ptolemey xaritalari geografiya bilan, Stellarium astronomik dasturidan foydalanish esa informatika fani bilan bog‘liq ravishda metodik yoritiladi.

Astronomiyada masofa, burchak, vaqt va yorug‘lik kuchini o‘lchashda maxsus birliklardan foydalaniladi. Bu birliklarni o‘rgatishda matematika fanining trigonometriya, geometriya, logarifm, proporsiya va miqdorlarni taqqoslash kabi bo‘limlariga tayaniladi.

Asosiy astronomik o‘lchov birliklari:

- **Burchak birliklari**: Gradus (°), daqiqa (‘), soniya (“).
- **Masofa birliklari**: Astronomik birlik (AU), Yoritilgan yil (ly), Parsek (pc).
- **Yoritilish birliklari**: Yulduz kattaligi, fotometrik birliklar.

Masalan, Yer–Quyosh masofasini o‘rganishda 1 astronomik birlik (1 AU ≈ 150 mln km) tushunchasini tushuntirishda matematika fanidagi proporsional nisbat, darajali sonlar va ilmiy yozuv (mantissa) ishlatiladi. Yulduzlarning osmondagi

ko‘rinma joylashuvini aniqlashda trigonometriya formulalaridan foydalaniladi. Parallaks burchagini o‘lchash orqali yulduz masofasini hisoblashda:

$$d = \frac{1}{p}$$

formula qo‘llaniladi (bu yerda **d** — parsekda masofa, **p** — parallaks burchagi sekundlarda). Bu yerda teskari proporsiya va funksional bog‘lanish tushunchalari matematika bilan mustahkam integratsiyani ko‘rsatadi.

O‘quvchilarda amaliy ko‘nikma hosil qilish uchun quyidagi metodik yondashuv samarali:

- Masofa birliklarini kilometr, metr va astronomik birliklarda taqqoslash;
- Trigonometriyadan foydalanib Oy masofasini hisoblash;
- Burchak birliklarini gradusdan radianlarga o‘tkazish mashqlari;
- Ilmiy yozuv va logarifmik miqyoslarda yulduz yorqinligini hisoblash.

Geografiya fanining tarixiy rivoji astronomiya bilan bevosita bog‘liq. Yerning shakli, kattaligi va xaritani yaratish jarayonida astronomik kuzatishlar hal qiluvchi rol o‘ynagan. Eratosfen va Ptolemey ilmiy merosi — fanlararo integratsiyaning eng yorqin namunalaridan biridir.

Eratosfen miloddan avvalgi III asrda Yer shar shaklida ekanligini isbotlab, uning radiusi va perimetrini hisoblab chiqdi. U quyoshning zenitdagi holatini kuzatib, Syena va Aleksandriya shaharlaridagi soyalar uzunligini solishtirish orqali ilg‘or astronomik-geografik hisob-kitobni amalga oshirdi.

U Yer radiusini quyidagi formula orqali hisoblagan:

$$R = \frac{D}{360^o}\,\theta$$

Bu yerda **D** — ikki shahar orasidagi masofa, **θ** — burchak farqi (7.2°). Bu hisoblash usuli matematika (proporsiya) va geografiya (masofa, joylashuv) fanlarini astronomiya bilan bog‘lash imkonini beradi.

Ptolemey geografik koordinatalar — kenglik va uzunlik tushunchalarini ishlab chiqqan bo‘lib, bu astronomiyadagi osmon shari koordinatalari (rektatsiya, deklinatsiya) bilan aynan mos keladi. Bu integratsiya quyidagi metodik yondashuvlarda qo‘llaniladi:

- Globus va osmon sferasidagi koordinatalarni taqqoslash;
- Kenglik-ni deklinatsiya, uzunlik-ni rektatsiya bilan solishtirish;
- Geografik haritalarni astronomik xaritalar bilan integratsiya qilish.

Stellarium dasturining imkoniyatlari:

Yulduzlar joylashuvi, sayyoralar harakati, tutilishlar va yulduz turkumlarini vizual kuzatish

O‘tmish va kelajakdagi astronomik hodisalarni modellashtirish

Geografik joylashuvga mos osmon manzarasini ko‘rsatish

Fokuslash, koordinatalar, burchak masofasi, vaqti-vaqti bilan hodisalarni qayd etish

Zamonaviy ta’lim jarayonida astronomiyani informatika fani bilan integratsiya qilish axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali amalga oshiriladi. Eng qulay vositalardan biri — **Stellarium** virtual planetariy dasturidir.

Informatika bilan integratsiya metodikasi:

- **Dasturiy interfeysni o‘rganish** — menyular, sozlamalar, vaqt va koordinata kiritish.
- **Astronomik koordinatalarni tushunish** — 3D koordinatalar, kartografik tizimlar.

- **Kuzatuv jurnallarini yaratish** — Excel yoki Google Sheets orqali hisob-kitoblarni qayd etish.
- **Multimedia taqdimotlar yaratish** — PowerPoint, Canva orqali astronomik kuzatish taqdimotlari.
- **Kodlash va modellashtirish** — Stellarium API orqali Python dasturlash asosida simulyatsiyalar.

Stellarium astronomik dasturidan foydalanish o‘quvchilarda nafaqat astronomiya bilimlarini chuqurlashtiradi, balki axborot madaniyati, raqamli savodxonlik va ijodkorlik ko‘nikmalarini ham shakllantiradi

Astronomiya fanini umumiy o‘rta ta’limda o‘qitish jarayonida fanlararo integratsiyadan foydalanish samaradorlikni oshiradi, o‘quvchilarda fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash, ilmiy tafakkur va amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Astronomik o‘lchov birliklari matematik hisob-kitoblar bilan, Eratosfen va Ptolemey ilmiy ishlari geografiya bilan, Stellarium dasturi esa informatika fani bilan mukammal integratsiyalanadi. Bu yondashuv o‘quvchilarda ilmiy qarash, tahliliy fikrlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev, A., Sodiqov, X. *Astronomiya asoslari.* — Toshkent: O‘qituvchi, 2020. — 256 b.
2. Xayitov, M. A., & Tursunov, S. *Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida astronomiya va geografiya fanlarini integratsiyalash metodikasi.* — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. — 184 b.
3. Chaisson, E., & McMillan, S. *Astronomy Today.* — 9th Edition. — Pearson Education, 2018. — 800 p.
4. Stellarium User Guide. — Official documentation of Stellarium Software. — Version 0.22 — Stellarium.org, 2023.

5. National Geographic Society. *The History of Eratosthenes and Ptolemy's Geographical Mapping.* — Washington, 2019.

YANGI DAVR – YANGI IMKONIYATLAR SARI

Xushnazarova Sevinch Norqo‘chqor qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada material tayyorlashda jurnalistika sohasidagi o‘zgarishlar, sohani rivojlantirish shu bilan birga, jurnalistga kerak bo‘ladigan tamoyillar, element va ijod haqida, kreativlik, jurnalistik mahorat haqida so‘z boradi. Maqolada milliy hamda xorij jurnalistikasi o'zaro taqqoslanib, tadqiqotchi tomonidan chuqur tahliliy o'rganish ishi olib borilgan. Shu bilan birga journalist faoliyatida boshqa tamoyillar ham zarurligi aytiladi.*

Kalit so‘zlar: *jurnalistika, kreativlik, namoyish formati, jurnalist, ma'naviyat va ma'rifat*

Аннотация: *В этой статье говорится о принципах, элементах и творческих способностях, креативности и журналистских навыках, которые необходимы журналисту при подготовке материала. Были сопоставлены отечественная и зарубежная журналистика, а также проведено углубленное аналитическое исследование. В то же время говорится, что в деятельности журналиста необходимы иные принципы.*

Ключевые слова: *журналистика, творчество, формат шоу, журналист, духовность и просветительство.*

Annotation: *This article discusses the principles, elements and creativity that a journalist needs when preparing material, about creativity, journalistic skills. National and foreign journalism is compared, and an in-depth analytical study is conducted by the researcher. At the same time, it is said that other principles are also necessary in the work of a journalist.*

Keywords: *journalism, television show, creativity, show format, journalist, spirituality and enlightenment*

Kirish. Axborot texnologiyalari tez sur’atlarda rivojlanayotgan bir davrda jurnalistika sohasi ham yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bu esa o‘z navbatida jurnalistga nafaqat voqealarni yorituvchi, balki axborotni tahlil qiluvchi, jamiyatga yo‘naltiruvchi, kreativ g‘oyalarning tashabbuskori hamda targ‘ibotchisiga aylanish vazifalarini ham yuklayapti. Jamiyat zamonaviy jurnalistdan yangicha yondashuv, yuqori darajadagi ijodkorlik va kasbiy mahoratni kutyapti, kerak bo‘lsa kezi kelganda talab qilyapti.

Jurnalistika – ijodiy jarayon maydoni, jurnalist – ijodkor shaxs. Tarixga nazar tashlansa, qachon va qayerda bo‘lmasin, matbuot muayyan qarama-qarshiliklar olamida yashagan, faoliyat yuritgan. Ana shunday eng murakkab sharoitlarda ham jurnalistikani va jurnalistni ijodiy mahorat qutqargan. Xaloskor kuch – ijodiy mahoratda! So‘zdan qudratli kuch yo‘q. Munosabatlar, muloqotlar “changalzori”da eng to‘g‘ri yo‘lni topish ham, eng ma’qul yechim topish ham so‘zning zimmasiga tushadi. So‘z esa qalami o‘tkir, mahoratli ijodkor jurnalistga bo‘ysunadi, uning izmida, ilkida hayotbaxsh, jangovar qurolga aylanadi.

Bugun jurnalistika sohasiga yangi atamalar, yangi g‘oya va tashabbuslar kirib kelib, o‘rnashib olishga ham ulgurdi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi, tabiiyki. Boisi, murakkab jurnalistik atamalarga ham o‘rganib boryapmiz. So‘nggi yillarda har sohaga birdek zarur bo‘lib kelayotgan “kreativ” tushunchasi jurnalistikada ham bo‘y ko‘rsatishga ulgurdi.

Kreativ jurnalistika sodda qilib tushuntirganda, yangicha, g‘oyalar va yuqori yondashuvlarga asoslangan, tomoshabin deymizmi, jamiyatning qatlamlari deymizmi, barchasiga birdek tushunarli bo ‘ladigan va yangicha jurnalistikadir.

Bugun kreativlik zamonaviy jurnalistikaning yuragi sanaladi. Biror voqeani oddiy tarzda yetkazish bilan auditoriyani jalb qilish qiyinlashgan. Chunki bugun o‘quvchi, tomoshabin yoki tinglovchi faqat axborot izlamaydi, balki u mazmunan chuqur, usluban jozibali va hissiyot uyg‘otuvchi materialni afzal ko‘radi. Kreativ

jurnalist esa mavzuga yangicha yondashadi, faktlarni noodatiy burchak ostidan yoritadi va har bir so‘zga o‘zgacha ruh baxsh etadi. Misol uchun, birgina ijtimoiy muammoni ko‘rsatishda ham jurnalist infografika, real hayotdan olingan qisqa lavhalar yoki interaktiv elementlar orqali uni auditoriyaga ta’sirli yetkazishi mumkin. Lekin kreativ yondashuv auditoriyani o‘ylashga, muammoni chuqurroq anglashga undaydi.

Globallashuv, raqamli transformatsiya va media iste’molchilarning ehtiyojlari o‘zgarayotgan bir sharoitda jurnalistikada ijodiy yondashuv, kreativ tafakkur va kasbiy mahorat tobora dolzarb masalalarga aylanmoqda. XXI asr jurnalistikasi endi faqat xabar yetkazuvchi emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, estetik ta’sir ko‘rsatuvchi vosita sifatida rivojlanmoqda. Bu jarayonda jurnalistning zamonaviy bilimlari bilan bir qatorda shaxsiy ijodkorligi, kreativ fikrlashi va professional kompetensiyasi hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Jurnalistikada ijod – bu eng kerakli unsurlardan sanaladi. Boshqa sohalarda ijodkorlik muhim bo‘lmasligi mumkin, ammo jurnalistikada bu g‘oyatda muhim sanaladi. Ijod – bu jurnalistik faoliyatda ruh va mazmundir. Har bir maqola, reportaj, lavha yoki intervyu ijodiy yondashuvni talab qiladi. Oddiy yangilikni ham ijodiy talqinda bayon etish jurnalistga o‘z auditoriyasi bilan hissiy aloqa o‘rnatish, tomoshabin yo o‘quvchining yodida bir umrga muhrlanish imkonini beradi.

Ijodkor jurnalist voqeani o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, uni o‘quvchining qalbiga singdiradigan tarzda tasvirlaydi. Bu yerda til boyligi, uslubiy yondashuv, metaforalar, ifoda vositalari va badiiy tasvirlar muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, jurnalistning o‘z fikrini mustaqil ifoda eta olishi, g‘oyalarni yangicha shaklda taqdim etishi – uning ijodkorligidan dalolat beradi. Mualliflar Kovach va Rosenstiellar zamonaviy jurnalist raqamli savodxonlik, media dizayn, ijtimoiy tarmoqlarda kontent yaratish kabi zamonaviy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim, deya hisoblaydi. Va bu haqda birgalikda nashr qilingan “Jurnalistika elementlari: odamlar nimalardan boxabar bo‘lishi kerak va jamoatchilik nimalar kutmoqda” nomli kitobida ko‘plab fikrlarni aytib o‘tishgan.

Jurnalistikaning yana bir muhim poydevori – bu kasbiy mahoratdir. Har bir jurnalist asosiy jurnalistik mezonlarga – aniqlik, haqqoniylik, obyektivlik va tezkorlikka tayanishi zarur. Axborotni yig‘ish, tahlil qilish, ishonchli manbalardan foydalanish, faktlarni tekshirish va to‘g‘ri taqdim etish – bu jurnalistik mahorat ko‘nikmalaridir. Zamonaviy jurnalist multimediya vositalaridan ham mohirona foydalanishi kerak. Audio, video, foto, matn – bularning barchasi bir materialda uyg ‘unlashgan bo ‘lsa, u samaraliroq bo ‘ladi. Ayniqsa, raqamli platformalarda ishlayotgan jurnalistlardan tezkorlik va texnik ko‘nikmalar talab etiladi.

Bugungi jurnalist zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lishi kerak. U o‘z sohasi bilan bir qatorda tarix, falsafa, siyosat, madaniyat va texnologiya kabi yo‘nalishlarda ham ma’lumotlarga ega bo‘lishi lozim. Shuningdek, jurnalistning axloqiy pozitsiyasi, estetik didi va madaniyati uning yozgan materiallariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Yaqin yillardan beri o‘quvchilar sifatli kontentni qadrlashni boshladi, yaxshi yo u qadar malakali bo‘lmagan jurnalistning farqiga borishni o‘rgandi. Insonlarni avvalgidek oddiy ma‘lumotlar, tasvirlar bilan hayratlantirish bugun imkonsiz. Shuning uchun jurnalist doimiy o‘rganishda bo‘lishi, o‘z mahoratini oshirishi, yangi texnologiyalar va axborot vositalarini o‘zlashtirib borishi, bir so‘z bilan aytganda o‘zi ham jamiyat bilan bir to‘lqinda bo‘lishi zarur.

O‘zbekiston jurnalistikasiga nazar solsak, televizion madaniyat jurnalistikasida faol, madaniy va san’atga oid dasturlarni yartuvchi, olib boruvchi, ilmiy, publitsistik, tahliliy maqolalar muallifi, ijtimoiy tarmoqlarda ham faol faoliyat olib borayotgan, yurtimizning madaniy merosini targ‘ib qiluvchi materillar tayyorlovchi iqtidorli jurnalistlar talaygina. Jumladan, Beruniy Alimov, Shuhrat Hayitov, Abror Zohidov, Gulmira Musajonova, Elmira Rahmatullayeva, Nargiz Qosimova, Gulnora Nishonova, Sherzodxon Qudratxo‘jayev, Nozima Muratovalar va boshqa jurnalistlarni alohida e’tirof etsak bo‘ladi. Bularning O‘zbekiston jurnalistikasiga qo‘shayotgan hissasi tan olib aytish joizki, beqiyosdir.

Xorijda ham ko‘plab o‘z ishining ustasi bo‘lgan, professional jurnalistlar talaygina. Xususan, Christiane Amanpour CNNning bosh xalqaro muxbiri bo‘lib,

urush zonalari, siyosiy intervyular, xalqaro muammolarni yoritishda taniqlidir. U o‘zining “Amanpour” nomli intervyu dasturi bilan mashhur. Anderson Cooper esa CNNdagi eng mashhur yangiliklar boshlovchisi bo‘lib, siyosat, inson huquqlari va halokat zonalari haqida jonli reportajlari bilan dunyoga tanilgan. Bob Woodward AQSh tarixidagi eng katta siyosiy jurnalistik fosh etish — Watergate ishida ishtirok etgan. Shuningdek, tergov jurnalistikasining afsonasi, ko‘plab bestseller kitoblar muallifi hamdir.

Davlat manfaatlarining xilma-xilligi jurnalistlar faoliyatini yo‘naltiradi, ularning kasb odobi normalarini belgilab beradi. Shu ma’noda turli davlatlarda yashab ijod qilayotgan jurnalistlar o‘z faoliyatida xolislik, haqqoniylik prinsiplariga rioya qilishi murakkab kechadi. Boshqacha aytganda, ushbu prinsiplarga rioya qilish subyektiv omillar ommaviy axborot vositalari faoliyatiga ta ‘sir o‘tkazmay qolmaydi, albatta. Ya’ni, “jahon jurnalistikasi” tushunchasida ana shu ikki omil o‘zining musbat va manfiy manzaralari bilan ko‘zga tashlanib turadi.

O‘zbek jurnalistikasining taraqqiy etib borishi dunyo axborot maydonining globallashuvi davriga to‘g‘ri keldi va o‘zbek milliy jurnalistikasi globallashayotgan axborot maydonida o‘z o‘rni, ovozi va mavqeiga ega bo‘la bormoqda. Ichki va tashqi dunyodagi bunday o‘zgarishlar jurnalist shaxsini yanada yangi pog‘onalarga ko‘tarmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Kovach B., Rosenstiel T.** The Elements of Journalism: What News People Should Know and the Public Should Expect. – New York : Three Rivers Press, 2014.

2. **To‘xtayeva N.** Zamonaviy jurnalistikada kreativ yondashuvlar // *O‘zbekiston jurnalistikasi*. – 2021. – № 2.

3. **McNair B.** News and Journalism in the UK. – London : Routledge, 2009.

4. **Habermas J.** The Structural Transformation of the Public Sphere. – Cambridge (MA) : MIT Press, 2015.

AYOLLAR MIGRATSIYASINING IQTISODIY VA IJTIMOIY XUSUSIYATLARI: FARG`ONA VILOYATI MISOLIDA

Komilova Shaxlo Boxodirjonovna

FA tarix instituti tadqiqotchisi

***Annotatsiya**: Ushbu tezisda ayollar migratsiyasining tuzilishi, omillari, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlari Farg'ona viloyati tajribasi asosida qisqacha tahlil qilinadi. Asosiy ma'lumotlar migratsiya jarayonlarida feminizatsiya tendensiyasining kuchayishi, migratsiya sabablarida iqtisodiy hamda ijtimoiy omillarning muhimligi, ayollar migratsiyasining oilalar muhitiga ko'rsatadigan ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilishga qaratilgan.*

***Аннотация**: В данной статье проводится краткий анализ структуры, факторов и социально-экономических особенностей миграции женщин на примере Ферганской области. Основное внимание уделено изучению усиливающейся тенденции феминизации миграции, значимости экономических и социальных факторов в миграционных процессах, а также социальным последствиям миграции женщин для семейного окружения.*

***Abstract**: This thesis provides a brief analysis of the structure, driving factors, and socio-economic characteristics of women's migration based on the experience of Fergana region. The main focus is on examining the increasing trend of feminization in migration, the significance of economic and social factors in migration processes, and the social consequences of women's migration on family environments.*

***Kalit so'zlar**: Farg'ona viloyati, ayollar migratsiyasi, gender, femenizatsiya, ijtimoiy ta'sir, migratsiya siyosati.*

***Ключевые слова**: Ферганская область, миграция женщин, гендер, феминизация, социальное воздействие, миграционная политика.*

Keywords*: Fergana region, women's migration, gender, feminization, social impact, migration policy.*

Kirish. Aholi migratsiyasi hayotning barcha ijtimoiy-iqtisodiy jabhalariga istisnosiz ta'sir ko`rsatadigan global hodisadir. Bu hududlarning iqtisodiy salohiyati bilan chambarchas bog`liq bo`lib u ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaxshilashga yordam beradi yoki aksincha turg`unlik va tengsizlikni kuchaytiradi, kamsitish va iqtisodiy ekspulatatsiyaga yordam beradi.

Xalqaro Migratsiya Tashkilotining 2020 yil uchun ma'lumotlariga ko`ra, o`z tug`ilgan mamlakatidan boshqa davlatda yashovchi odamlarning umumiy soni 281 million kishi (dunyo aholisining 3,6 foizi) 1990 yilga nisbatan 128 millionga oshgan. Dunyo miqyosidagi mehnat muhojirlarining umumiy soni 169 million kishi, shundan 99 millioni erkaklar va 70 millioni ayollardir.[138]

Zamonaviy migratsiya tamoyillari ichida e'tiborga loyiq jihati bu - migratsiyaning feminizatsiyalashuvi hisoblanadi. Feminizatsiyalashuvning eng muhim tamoyili shuki, ayollar kuzatib boruvchi shaxs emas, tirikchilik vositalarining asosiy topuvchisi sifatida migratsiya qiladilar[139]**.**

Asosiy qism. Farg‘ona viloyati aholisi zich, qishloq xo‘jaligi va sanoat salohiyatiga ega hudud sifatida mahalliy va xalqaro migratsiya oqimlarida muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda Farg‘ona viloyati migratsiya jarayonlarida muhim o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, migratsiyaning jinsiy tarkibida ayollar ulushining ortib borishi, migratsiya manzillarining o‘zgarishi, rasmiy va norasmiy migratsiya jarayonlarining kengayishi shular jumlasidandir. Farg‘ona viloyatidan chiqayotgan ayollar migratsiyasi murakkab, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni o‘z ichiga oluvchi jarayon hisoblanadi. So`nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar

[138] Komilov.O. // Migratsiya sohasidagi global va mintaqaviy tendensiyalar, xalqaro pul o'tkazmalari va ularning milliy segmentdagi o'rni. Jamiyat va innovatsiyalar. 9/2021 C. 68-76

[139] Murtazayeva.R.H.O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik.-Toshkent., "MUMTOZ SO'Z"2019. b.284

natijasida Farg‘ona viloyati ayollarining migratsiyasiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni asosiy omillar sifatida ko`rsatish mumkin.

- ish bilan ta’minlanganlik darajasining cheklanganligi, ayniqsa qishloq joylarida mehnat imkoniyatining yetishmasligi;
- oilaviy moliyaviy bosimlar, oila ehtiyojlarini ta’minlash zarurati;
- yoshlar orasida oilaviy va ijtimoiy maqomni yaxshilashga intilish;
- qo‘shimcha va yuqori daromad manbalari;
- xizmat ko‘rsatish va uy xo‘jaligi sohalarida ayollarga bo‘lgan talabning mavjudligi;

Bugungi tadqiqotlarga ko`ra migrant ayollarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Kattaroq guruhga erlari va bolalari bilan ishlash uchun yoki birga yashash uchun ketayotgan ayollarni kiritish mumkin. Kichik guruhga esa asosan ma’lumotga ega bo`lmagan, beva, kam malakali, ajrashgan yosh ayollarni kiritish mumkin. Bunday ayollar mustaqil ravishda migratsiya qiladi va ko`pincha og`ir va kam haq to`lanadigan ishlarni bajarib daromad topadilar. Bugungi kunda O`rta Osiyolik ayollar erlari bilan birga yoki ayrim hollarda o`zlari yolg`iz holda ham Rossiyaning turli hududlariga pul topish maqsadida safarga chiqmoqdalar. Rossiya Federatsiyasi Tashqi iqtisodiy rivojlanish va savdo vazirligi Butunrossiya tashqi iqtisodiy aloqalar ilmiy-tadqiqot instituti Xalqaro mehnat migratsiyasi sektori katta ilmiy xodimi D. V. Poletayevning 1999-yilgi tadqiqotlariga ko`ra, asosan yosh ayollar Rossiyaga ishlash uchun borishgan. Farg‘ona viloyati ayollari orasida nisbatan yosh va o‘rta yoshli ayollar migratsiya jarayonlarining asosiy ishtirokchilari hisoblanadi. Ular asosan xizmat ko‘rsatish, uy yumushlari, savdo va yengil sanoat sohalarida ishlash uchun borishadi. Farg‘ona ayollari migratsiyasi jarayonlari doimiy emas, ko‘pincha vaqtinchalik yoki qisqa muddatli ekanligi xam asosiy xususiyatlaridan biridir.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi taqdim etgan ochiq manbalardagi ma’lumotlarga ko`ra, ayni paytda 2,3 mln o`zbekistonlik horijda mehnat qilmoqda. Shulardan 568 492 nafari ayollardir. Bu borada ayniqsa vodiy viloyatlari yetakchilik

qilmoqda. Hozirda Andijon viloyatidan 48 ming, Namangan viloyatidan 11 ming, Farg`ona viloyatidan 30 ming ayollar migratsiyada. Sabablar esa aniqki, iqtisodiy asoslarga ega. Ayollarning migratsiyadan olgan daromadlari oilada iqtisodiy faoliyatning qo‘llab-quvvatlanishida, uy-joy va ta’lim xarajatlarini qoplanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, shu bilan birga oilada ijtimoiy rollar va gender majburiyatlarini qayta taqsimlanishiga xam sabab bo‘lmoqda. Ko‘p oilalarda erkaklar mehnat faoliyati kam daromadli bo‘lib oilani boqish ayollar zimmasiga tushgan, bu ayollarni migratsiyaga undaydigan asosiy omillardan biri bo`lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtda O`zbekiston viloyat va shaharlaridan, shu jumladan Farg`ona viloyati aholisi xam nafaqat mehnatga layoqatli erkaklar, balki turli yoshdagi va ijtimoiy mavqega ega ayollar ham xorijga ishlash maqsadida borishlari odatiy holga aylanib ulgurdi. Maqsadi nafaqat pul topish, balki shaxsiy hayotni xam tartibga solishdir. Hatto ayollarga uy bekasi va farzandlar tarbiyachisi vazifasini yuklagan Sharq an’analari ham muhojir ayollarni to`xtata olmaydi, ba’zan bu ayollar yagona boquvchiga aylanadi. Migrant ayollar uylariga jo`natayotgan pullar butun bir oilani qashshoqlikdan qutqargan holda boqish va ta’minlash imkonini bermoqda. Muhojir ayollar uylariga ko`p miqdorda pul jo`natishlari tan olingan faktdir, garchi ular o`rtacha hisobda erkaklarga qaraganda kam pul topsalar ham.

Miratsiya jarayonlarida an’anaviy ravishda Rossiya Federatsiyasi muhim yo‘nalish bo‘lsada, so‘nggi yillarda Turkiya Respublikasi ayollarning asosiy manzillaridan biri sifatida ahamiyati ortib bormoqda. O`zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2017-yilgi tahliliy ma’lumotlaridan shu narsa ma’lumki so`nggi yillarda tashqi mehnat migrantlari orasida ayollarning miqdori ma’lum darajada oshishi Turkiya davlatiga borib ishlayotgan ayollar salmog`i sezilarli darajada oshib borayotgani bilan bog`liq. Turkiyaga boruvchi mehnat migrantlari orasida ayollar erkaklarga nisbatan ancha yuqori bo`lib, jami ayol migrantlarning 17,6 foizini tashkil etgan. Bu ko`rsatkichning so`nggi yillarda oshib borishiga mazkur davlatda mehnat faoliyatini yuritish nisbatan xafvsizligi, ish haqining yuqoriligidan tashqari, millatlar o`rtasidagi do`stona munosabat, umumiy

o`tmish, o`xshash urf-odatlar, yagona din va aqidalar kabi bir qator muhim jihatlar omil bo`lmoqda[140]**.** Ayollar Turkiya davlatiga asosan savdo va sayohat maqsadida ko`chib o`tmoqdalar. Tadqiqotlarimiz davomida Farg`ona viloyati tumanlaridan farqli ravishda Qo`qon shahrida ayollar asosan uy xizmatchisi va savdo sohasida Turkiyaga borib ishlayotganliklarini kuzatdik. So`rovnoma natijalariga ko`ra,buning sababini Turkiya til va mentalitet jihatidan O`rta Osiyoga juda yaqinligi bilan izohlashgan[141].

Jahon banki ma'lumotlariga ko`ra, 2020-yildan keyin 272 million xalqaro migrant ro`yxatga olingan bo`lsa, shuning 47,9 foizini (130 million) ayollar tashkil etgan. Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlaridan muhojirlarning 49,4 foizi ayollardir. Ayollar orasida mehnat migrantlarining ko`payishi yoki kamayishi mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish bilan bog`liq bo`ladi. Kam daromadli davlatlardan tobora ko`proq ayollar oila boqish, pul ishlab topish uchun chetga ishlash uchun chiqadi. Hozirda O`zbekiston viloyatlarida migratsiya jarayonlari ayollar uchun boshqa davlatda ish topish imkoniyati hisoblanadi.[142]

Xulosa. Ayollar orasida migrantlarning ko`payishi yoki kamayishi mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish bilan bog`liq bo`ladi. Kam daromadli davlatlardan tobora ko`proq ayollar oila boqish, pul ishlab topish uchun chetga ishlash uchun boradi. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, so`nggi yillarda O`zbekistonda tashqi migratsiyasining jadallashuvi davr talabi bo`lib, mehnat bozori muvozanatini ta'minlovchi sog`lom iqtisodiyot sharoitida bu tabiiy hol hisoblanadi.

Ushbu migratsiya jarayonlari ayollarning huquqiy savodxonligi, moliyaviy savodxonligi oshishiga sabab bo`lmoqda. Hozirda ayollarda chetda ishlab pul topish masalasiga odatiy hol deb qarash boshlangan. Chunki axborotchilarni bergan

[140] Abduraxmonova G.Q. Muxitdinov E.M. // Aholini ish bilan bandligini oshirishda tashqi mehnat migratsiyasining ahamiyati.“ Iqtisodiyot va innovatsiyon texnologiyalar” ilmiy electron jurnali. Iyul-avgust 4/ 2018yil.

[141] Dala yozuvlari. Qo`qon shahri. 2025-yil,avgust.

[142] O`zbekistonda-ayollar-mehnat-migratsiyasining-ijtimoiy-oqibatlari. Internet materiallari. 11.02.2022 https://fayllar.org/

ma’lumotlariga ko`ra, ular migratsiyada topgan pullariga oilaviy marosimlarini ko`ngildagiday o`tkazishadi. Oilaviy maqsadlarga bir necha o`n yillarda emas, balki bir, ikki yilda erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. **Комилов О.** Миграция соҳасидаги глобал ва минтақавий тенденциялар, халқаро пул ўтказмалари ва уларнинг миллий сегментдаги ўрни // *Жамият ва инновациялар*. – 2021. – № 9. – Б. 68–76.
2. **Муртазаева Р. Ҳ.** Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва толерантлик. – Тошкент: «Мумтоз сўз», 2019. – 284 б.
3. **Абдурахмонова Г. Қ., Мухитдинов Э. М.** Аҳолини иш билан бандлигини оширишда ташқи меҳнат миграциясининг аҳамияти // *Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар* илмий электрон журнали. – 2018. – № 4 (июль–август). – Электрон ресурс.
4. **Дала ёзувлари.** Қўқон шаҳри. – 2025 йил, август.
5. **Ўзбекистонда аёллар меҳнат миграциясининг ижтимоий оқибатлари.** – Электрон ресурс. – Кириш режими: https://fayllar.org/ (мурожаат санаси: 11.02.2022).
6. **Каланов К.** Ўзбекистонда миграция жараёнларининг хусусиятлари // *Фуқаролик жамияти ва XXI асрда ижтимоий тараққиёт*. – Олмаота, 2008. – 440 б.

TRANSFER AND INTERFERENCE PHENOMENA IN CONTRASTIVE LINGUISTICS

Niyozova Shoira Toirovna

Head of the Department for Coordination of

International Education Programs

Annotation:

This article explores the concepts of transfer and interference within the framework of contrastive linguistics. Transfer is examined as the positive influence of a speaker's native language on the acquisition of a second language, facilitating learning by applying familiar structures, while interference is analyzed as the negative impact of L1, causing deviations from the norms of the target language. The article discusses the manifestations of these phenomena across phonetic, lexical, morphological, syntactic, and semantic levels, emphasizing their relevance to language teaching, error analysis, and curriculum development. Additionally, it highlights the psychological mechanisms underlying bilingual speech, demonstrating how previously acquired linguistic skills interact with new language input during second language acquisition.

Key words: *Contrastive Linguistics, Language Transfer, Linguistic Interference, Bilingualism, Second Language Acquisition (SLA), Phonetic Interference, Lexical Interference, Morphological Interference, Syntactic Interference, Semantic Interference, Positive Transfer, Negative Transfer, Error Analysis, Cross-linguistic Influence.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kontrastiv lingvistika doirasida transfer va interferensiya tushunchalari o'rganiladi. Transfer — bu so'zlovchining ona tilining ikkinchi tilni o'zlashtirishga ijobiy ta'siri bo'lib, tanish tuzilmalarni qo'llash orqali til o'rganishni osonlashtiradi; interferensiya esa L1ning salbiy ta'siri sifatida tahlil qilinadi, bu esa maqsad tilining me'yorlaridan chekinishlarga olib keladi. Maqolada ushbu hodisalarning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va semantik darajalardagi namoyon bo'lishi muhokama qilinadi, ularning til o'qitish, xato tahlili va o'quv dasturlarini ishlab chiqishdagi ahamiyati ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada ikki tilli nutqdagi psixologik mexanizmlar ko'rsatib o'tiladi, bunda ilgari olingan lingvistik ko'nikmalar yangi til ma'lumotlari bilan qanday o'zaro ta'sirlashishi tushuntiriladi.*

Kalit so‘zlar: *Kontrastiv Lingvistika, Til Transferi, Lingvistik Interferensiya, Ikki Tillilik, Ikkinchi Tilni O‘zlashtirish (SLA), Fonetik Interferensiya, Leksik Interferensiya, Morfologik Interferensiya, Sintaktik Interferensiya, Semantik Interferensiya, Ijobiy Transfer, Salbiy Transfer, xato Tahlili, Tilaro Ta’sir.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются понятия трансфера и интерференции в рамках контрастивной лингвистики. Трансфер анализируется как положительное влияние родного языка говорящего на освоение второго языка, способствующее обучению за счет применения уже известных структур, тогда как интерференция рассматривается как отрицательное воздействие L1, приводящее к отклонениям от норм целевого языка. Статья обсуждает проявления этих явлений на фонетическом, лексическом, морфологическом, синтаксическом и семантическом уровнях, подчеркивая их значимость для преподавания языков, анализа ошибок и разработки учебных программ. Кроме того, освещаются психологические механизмы двуязычной речи, демонстрирующие, как ранее приобретенные языковые навыки взаимодействуют с новым языковым материалом в процессе овладения вторым языком.*

Ключевые слова: *Контрастивная лингвистика, Языковой трансфер, Лингвистическая интерференция, Двуязычие, Освоение второго языка (SLA), Фонетическая интерференция, Лексическая интерференция, Морфологическая интерференция, Синтаксическая интерференция, Семантическая интерференция, Положительный трансфер, Отрицательный трансфер, Анализ ошибок, Межъязыковое влияние.*

Introduction: The applied significance of contrastive linguistics is usually considered in two areas: the methodology of teaching the languages being compared as foreign languages, and lexicography. There is no doubt that, without methodologically processing the results of contrastive analysis, they cannot be recommended for use in foreign-language teaching.

In the process of teaching a foreign language, the method of comparing languages is widely used. In this process, practical knowledge of the structure and grammar of the native language, as well as skills that are relatively automated, can have both positive and negative effects. In foreign-language education, the first form of influence of native-language skills is called *transference*, while the second form is called *interference*.

Main part: Transference is the process of positively transferring elements and skills of the native language to the language being learned, whereas interference is the negative influence of the same factor, leading to violations of the norms of the target language and resulting in errors.

The phenomenon of transference has been studied less than issues of interference. The phenomenon of transference (positive transfer) is considered related to the phenomenon of interference, because both arise under the influence of the same psychological mechanisms. The differences are usually observed only in the speech of bilinguals and multilinguals. While transference creates a favorable environment for acquiring new material, interference creates obstacles.

Methodological literature pays little attention to issues of transference. Interference, as the main source of errors, attracts greater interest from researchers. However, transference is also deserving of being at the center of attention in language didactics.

Transference is the result of the interaction between skills. A skill is a stabilized method of performing an action.

The formation of any skill is based on processes that occur through reflexes. As a result of repeated actions, excitation occurs in certain parts of the nervous structures due to external stimuli, and conditioned reflex connections are formed. Every skill functions within the system of skills a person already possesses.

A general characteristic of skill formation is that when a person encounters a new problem, they involuntarily apply previously acquired methods. In solving similar tasks, they rely on methods they have used in their past experience.

Thus, the success of transferring methods depends on the similarity of the tasks and on the correspondence between the conditions and methods required to solve them. If the tasks, their conditions, or their methods of solution are not actually similar but are perceived as similar by the learner, the opposite process—interference—occurs.

Transference serves as a factor that accelerates the process of learning a second language when phonetic-phonological, lexical, or grammatical phenomena in the native language and the target language correspond to each other.

For example, because Uzbek has certain nasal sounds similar to the English sound [ŋ] (as in *morning*, *evening*, *everything* in English and *so‘nggi, dengiz, ko‘ngil, singil, tong* in Uzbek), learning words containing this sound is easier for an Uzbek learner than for a Russian learner.

If the target language lacks certain phenomena present in the native language, or if they exist only partially, or if similar linguistic phenomena are expressed through different methods in each language, or if the two languages contain contrasting features, interference will occur.

The term **“interference”**, initially used in sciences such as physics, biology, and psychology, was introduced into linguistics by German scholars and was first employed by I. Epstein. Its meaning within the field of linguistics became more clearly defined thanks to the works of U. Weinreich. Linguists and psychologists have generally interpreted this term as implying a negative influence or an obstruction. At the core of any linguistic interference lies psychological–speech interference, because any deviation from the norms of one language observed under the influence of another language appears in the speech of individuals who speak that language.

The phenomena of transference and interference are related to the interaction between skills and new elements in any type of human activity, and they result from such interactions. Therefore, E. M. Vereshchagin considers these two phenomena identical in an ontological sense, since the native language influences the use of

foreign words. However, in the textbook *Psychology*, published under the editorship of A. A. Smirnov and A. N. Leontiev, these phenomena are differentiated as follows: *"The positive influence of acquired skills on mastering a new activity is called transfer, that is, transference. The negative influence of an old skill on the acquisition of a new one is interference."*

Many linguists have contributed to the development of the theory of interference. Nevertheless, it cannot be said that all issues of interlingual linguistic interference have been resolved. One of the main problems in this area is determining the essence of interlingual interference. In scientific literature, both linguistic and psychological definitions of interlingual interference are provided. The linguistic definition can be found in the works of U. Weinreich, V. V. Alimov, E. Haugen, E. M. Vereshchagin, V. Yu. Rozentsveig, L. M. Uman, V. V. Klimov, Yu. D. Desheriev, I. F. Protchenko, V. A. Vinogradov, Yu. K. Zhluktenko, L. I. Barannikova, Z. U. Blyagoz, R. K. Minyar-Beloruchev, N. G. Mikhailovskaya, L. V. Shcherba, and M. T. Zokirov.

It can be said that the views presented in these sources are not always consistent with one another. For example, E. Haugen interprets interference as **linguistic overlapping**, in which a single linguistic unit simultaneously becomes an element of two systems. L. I. Barannikova, on the other hand, understands interference as changes that occur in the structure or structural elements of one language under the influence of another language. In addition, the scientific literature presents both broad and narrow interpretations of interference. U. Weinreich's definition of interference continues to be widely recognized in modern linguistics. He defines interference as *"the deviations from language norms that occur in bilingual speech as a result of knowing multiple languages."* M. T. Zokirov, however, states that *"interference is the involuntary transfer of language skills firmly established in the native language into the second language being learned."*

In psychology, the term **"interference"** refers to the incorporation of components of one action into the structure of another action based on a skill or habit.

Interference is recorded only when the actions, skills, or habits that cause it can be contrasted with one another on the basis of stability criteria. The stability of a skill or habit is determined, on the one hand, by how long it has been established, and on the other hand, by how frequently it is used. Therefore, the speech of a bilingual with subordinative bilingualism in languages A and B can be contrasted in terms of stability, and this becomes a cause of interlingual interference.

The psychological study of interference can be found in the works of E. M. Akhunzyanov, I. A. Zimnyaya, A. A. Leontiev, N. M. Kurmanbaev, and A. A. Zalevskaya. They emphasize the linguistic and psychological interpretations of the phenomenon of interference, noting that the psychological mechanisms that cause interference fall within the domain of psychology, while the deviations in the norms of the second language that arise as a result of contact between the first and second languages constitute the object of study in linguistics.

If all definitions of interlingual linguistic interference are compared, it becomes clear that under this term one group of scholars refers to influences that lead to deviations from the norms of at least one of the languages in contact, while another group refers to the transfer of speech skills into the second language. The first definition is based on linguistic aspects, whereas the second places emphasis on psychological aspects. In our view, both definitions are valid; they simply need slight refinement. The cause of interlingual interference depends on the differences between the languages in contact and the degree of stability of speech skills and habits. Here, the differences between languages are manifested at the level of language systems, while the stability of skills and habits is determined by the actions performed at various language levels during perception and speech production.

Because interference is a complex phenomenon, it is studied by a number of related disciplines; therefore, various characteristics—such as its source, field of application, the extent to which a polylingual speaker considers distinctive features of the native language, the form in which interference appears, its communicative impact, and others—are used as the basis for classifying its manifestations.

In accordance with the characteristics listed above, the following types of interference are identified in the scientific literature:

– **According to the source of formation** (interference arising within a single language and interference arising between different languages).

A person accustomed to the general features and characteristics of their native language tends to assume that all languages share these same features. When learning another language, they expect the patterns of communication in their native language to transfer completely. As a result, a flexible system of correspondences forms in the mind of a polylingual speaker, in which the distinctive features of the languages in contact become mixed. Interference occurring within a single language has not been discussed by all authors. This phenomenon is most often mentioned in studies of a methodological nature. In such cases, due to insufficient mastery of how language units are used, certain features of one context are transferred to other contexts within the same language. For example, learners of Russian make false analogies based on similarities in verb forms: instead of *Я рукоплещу*, they say *Я рукоплескаю* (by analogy with *таскать – таскаю*); instead of *хотим, хотите, хотят*, they incorrectly use *хочем, хочете, хочут*, modeled on the singular forms *хочу, хочешь, хочет*, and so on.

– **From the perspective of the "language–speech" dichotomy**, **speech interference** and **language interference** are distinguished, based on the idea that any speech phenomenon belongs to a particular language. Speech interference arises during the performance of any type of speech activity (listening, speaking, reading, writing). For example, in English, the plural form is often expressed with *-s*. Under this influence, many students learning English produce forms like *mans* for *men* and *womans* for *women* in their speech.

According to N. V. Bagramova, the aspects of interference examined at the speech level differ from those of interference at the language level. In speech, the primary factor is the comprehension of second-language elements, whereas in language, the phonetic, grammatical, semantic, and stylistic interference of foreign-

language elements is considered important. From this it follows that the most significant aspect of speech interference is the degree to which communicants are able to understand one another. Speech interference is also sometimes classified into **communicatively relevant** and **communicatively non-relevant** interference. Deviations from second-language norms that do not hinder mutual understanding are considered communicatively non-relevant interference. In such cases, interference is not associated with distortion of information; rather, it indicates that the speaker belongs to a different linguistic and cultural community. O. K. Yusupov has also studied interference from precisely this perspective. He distinguishes between deviations from linguistic norms resulting from interlingual interference and interlingual interference that appears in speech in the form of silence.

If deviations in speech significantly hinder comprehension, the interference is communicatively relevant. All forms of **impressive (receptive)** interference are communicatively relevant. Given that a person's speech activity involves two psychological mechanisms—speaking (encoding) and understanding (decoding)—it is necessary to distinguish between **expressive** and **impressive** interference in a foreign language. Expressive interference, which is associated with speech production, arises primarily from convergent and divergent types of equivalence. For example, the Uzbek lexeme *yangi* corresponds to the Russian lexemes *новый* and *свежий*.

In the speech of learners studying Russian, the phrase *новая газета* is often used to translate the Uzbek phrase *yangi gazeta*, even though the correct expression in Russian should be *свежая газета*. **Impressive (receptive) interference**, on the other hand, is related to understanding speech in a foreign language. When observed at the lexical level, this phenomenon can be associated with polysemy. It arises when a single word in the foreign language corresponds to several equivalents in the native language.

– **Linguistic interference** occurs at all levels of the language system. Accordingly, its types are classified as *phonetic*, *lexical-semantic*, *morphological*, and *syntactic*.

Phonetic (phonological) interference arises as a result of failing to observe the sound and intonation distinctions between the languages in contact. In Russian phonetics, the phonemes [c] and [тс] are distinguished, while in Uzbek only the plain Uzbek [c] phoneme exists. Therefore, the following errors may occur in the speech of Uzbek speakers: failure to distinguish between the words *свет* (light) and *цвет* (color), or *рассвет* (dawn) and *расцвет* (blooming). In English, the phonemes [w] and [v] are distinct, but in Uzbek both correspond to a single phoneme [v]. This may lead to confusion between such English words as: *wine* – "vino," *vine* – "grapevine," *wail* – "to cry out," *veil* – "veil."

Phonetic (phonological) interference differs from syntagmatic and pragmatic perspectives. The concepts of syntagmatic and pragmatic factors were first applied to phonetic interference by U. Weinreich. **Syntagmatic interference** relates to sounds that are tied to a specific speech chain. **Pragmatic interference** concerns the relationships between sounds within a model—that is, the sounds that may occur at a certain point in the speech chain.

Pedagogikada kasbga yo‘naltirishning asosiy vositalaridan biri bu yoshlarni kasbga yo‘naltirish an’anasidir. Kasbga yo‘naltirish an’anasi ham ikki xil usulda amalga oshirilgan:

1) Ota-onaadan meros o‘tuvchi kasb-hunar an’anasi.
2) Ustoz-shogirdlik an’anasi.

O‘zbeklarda azaldan aksariyat hollarda kasb-hunar ota-onadan farzandlarga meros o‘tgan. Nafaqat, oilalar, balki hatto mahallalar ham birorta kasb-hunarga ixtisoslashgan.

Shuning uchun ham biror oila haqida gap ketsa: “Ha, anovi xolvachilarmi, yoki tillochilarmi?”, - deb so‘rashgan. Buning ma’nosi shuki, kasb-hunar oiladan oilaga, kattalardan farzandlarga meros sifatida o‘tgan. Kasb-hunar bo‘yicha oilaviy sulolalar paydo bo‘lgan.

Bu an’ananing yaxshi tomonini shundaki, bolalar ko‘z ochib mehnat muhitida tarbiyalanishadi, shu kasbga ko‘zi singadi, ko‘nikma hosil qiladi. Masalan, Muqimiy novvoylik bilan, Furqat savdo bilan, Avaz O‘tar sartaroshlik bilan, Munis va Ogahiy miroblik bilan shug‘ullanadi. Bunda ham ota bolalariga o‘z kasbiga xos xususiyatlarni bolalikdan shakllantirishga, o‘z kasbi sirlarini juda yoshligidan o‘rgatib borishga harakat qiladi.

Ulug‘ bobomiz Amir Temur o‘z bolalariga va nevaralariga ustoz tanlab, bilim, hunar, chavandozlik, qilichbozlik, merganlik, kurash, jang sirlarini o‘rgatishdan tashqari ularni bir-ikki yoshdan boshlab buvilari tarbiyasiga berar ekan. Chunki uz onasi har kancha oqila, qattiqqo‘l bo‘lmasin, bolasiga ortik mehr ko‘rsatadi. Natijada bola erka, mehribon, ko‘ngilchan bo‘lib o‘sadi. Bunday xislatli bolalar hokimiyatni uzoq boshqarol-maydilar. Chunki podsholik qattiqqo‘llikni, vaziyat talab qilganda, ma’lum ma’noda, shafqatsiz ham bo‘lishni talab etadi. Maqsad esa – bo‘lg‘usi xukmdorni tarbiyalash bo‘lgan.

Xullas, bu kabi misollarni xalqimiz tarixidan ko‘plab keltirish mumkin.

Xalq pedagogikasida kasbga yo‘naltirishning ikkinchi usuli - bu ***ustoz-shogirdlik*** an’anasidir.

Qadimdan to yaqin o‘tmishgacha bo‘lgan davrda ustoz-shogirdlik an’anasiga ko‘ra ustoz shogirdlikka qabul qilishdan oldin uni turli sinovlardan o‘tkazgan.

Yoki Abu Ali ibn Sinoning shogird tanlashdagi sinovi haqidagi bir rivoyat bilan tanishaylik: Abu Ali ibn Sinoning qo‘lida ta’lim olish, unga shogird bo‘lish katta sharaf bo‘lgan. Kunlardan bir kuni ikki ota - biri boy, biri kambag‘al, o‘z o‘g‘illarini ibn Sinoga shogirdlikka bermoqchi bo‘lishadi. “Yey, ulug‘ tabib, huzuringizga bolalarimizni keltirdik. Tarbiyangizga olib, shogirdlikka qabul qilsangiz. Zora, sizga o‘xshab tabib bo‘lib etishsalar”, - deyishadi. Ibn Sino ularni sinab ko‘rib, shogirdlikka olishga rozilik bildiradi. Ibn Sinoning bir odati bor edi. Kim unga shogird tushmoqchi bo‘lsa, oldin sinovdan o‘tkazar, sung tabiblik ilmini o‘rgatar ekan. “Bolalarim, - dedi u kelgan yigitlarga qarab: tog‘u toshlar kezing, cho‘li biyobonlarni oralanglar, har biringiz ming donadan o‘t-giyoh terib kelinglar”. Ibn Sino shunday deydi-da, ularning har birining qo‘liga halta beradi. Oradan bir necha kun o‘tadi. Bolalarning birinchisi kelib, yiqqan giyohlarini ibn Sinoning oldiga to‘kadi. Hammasi shifobaxsh giyohlar. Buni ko‘rgan ibn Sino quvonib so‘raydi: “Barakallo, o‘g‘lim, eng dorivor giyohlarni teribsan, endi bir

savolimga javob bersang. qani, aytchi, oyoq qavarishiga nima davo bo‘ladi? Mening tabiblikdan xabarim yo‘q”, - deydi bola. “Sizga yendi shogird tushdim-ku?”. Ibn Sino: “Shu un kun orasida tabobat ichida yurib, tabiblikdan alifni o‘rganmabsanmi, sendan tabib yemas, olibsotar chiqadi”, - deydi ko‘nglida, so‘ng ovozini chiqarib: “Senga javob, o‘g‘lim, ketaver! Borib olibsotarga shogird bo‘l!” - deydi.

Oradan bir kun o‘tgach, kambag‘al kishining o‘g‘li etib keladi, to‘plagan giyohlarini hakimning oyog‘i tagiga to‘kadi. Ibn Sino juda hursand bo‘lib: “Barakallo, bo‘tam, qani menga aytchi, oyoq qavarganiga nima davo bo‘ladi?” - deb so‘raydi. “Yovvoyi rayhon yoxud yalpizni suvda ivitib, ozgina osh tuzidan qo‘shib yuvish kerak; - javob qiladi bola. “Cho‘lu biyobonda qoldingku, suv topa olmading deylik, chanqoqni nima bilan bosish mumkin?” - yana savolga tutadi ibn Sino bolani. “Yantoqning suvi chanqoqni qondiradi” ham darmon bo‘ladi”, - dadil javob beradi bola. “Rahmat, o‘g‘lim, sen endi menga shogirdgina emas, farzand ham bo‘lding”, - deydi ibn Sino mamnun bo‘lib.

Ustoz-shogirdlik an’anasi haqida gap ketganda, Beruniy va uning shogird tanlash usuli haqida ham to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Beruniy o‘zining “Hindiston” kitobining ettinchi bobida shunday bir hikoyani bayon qiladi: “Ustoz shogirdlari bilan qorong‘i kechada yo‘l bosib borar ekan. Ular yo‘l bo‘yida tik turgan bir karotinga duch keladidar. Ustoz shogirdlaridan uning nima ekanligini aytishni talab etadi.

Shogirdlardan biri bilmayman deb, ikkinchisi bilmayman va bilishga qudratim etmaydi, deb javob beradi. Uchinchisi tong yorishsa, ma’lum bo‘ladi deydi.

Beruniy uch shogirdining ahvolini, qobiliyatini ularning javoblaridan bilib oladi: olimga birinchi shogirdining ilmsizligi, ikkinchisining bilimsiz va yalqovligi, uchinchisining ishni keyinga surishi, ilmsiz bo‘lsa ham ma’rifatga

intilishi ma’lum bo‘ladi. Shu tufayli Beruniy uchinchi shogirdning javobini ma’qullaydi.

Xalqimiz orasida azaldan har bir ustozning shogird tanlash sinovlari har xil bo‘lgan. Masalan, bir mashhur tanburchiga shogirdlikka bola olib kelishsa, u bolaning qo‘liga bir cho‘p yoki o‘hloqni tutqazar ekan. Agar bola cho‘pni erga suqsa - bog‘bon, cho‘pni ot qilib minsa - chavandoz, cho‘pni qarichlab o‘lchasa - sotuvchi, cho‘pni tanbur qilib chalsa - tamburchi bo‘lar ekan. Ustoz ana shu ohirgi bolani shogirdlikka olar ekan.

Yoki bir rivoyatga ko‘ra, boy xizmatkor tanlashda, xizmatkorlarning hammasini yig‘ib, oldilariga ovqat qo‘yar ekan va o‘zi ikkinchi qavatdan, tepadan (ularga ko‘rinmay) ularni kuzatar ekan. Kim tez, shoshib, ko‘p ovqat esa, o‘shani xizmatkorlikka olib qolar ekan. Yaxshi shogird farzanddan a’lo deydi xalqimiz. Darhaqiqat, bunga tarixdan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Masalan, Ulug‘bekning o‘g‘li Abdulatif otasining umriga zavol bo‘ldi. Lekin sevimli shogirdi Ali Qushchi uning nomini Evropaga, Evropa orqali butun dunyoga mashhur qildi.

Bu misollar xalqimizning shogird tanlashdagi o‘ziga xos usullaridan, donoligi, zukkoligi va topqirligidan dalolat beradi. Xalqimiz shogird tanlashda qaysi bir usulni tanlamasin, maqsad bitta - uning mehnatga munosobati, ya’ni mehnatsevarligi va kasbga layoqati, qobiliyati, intilishini asosiy mezon qilib olgan.

Yoshlarning kasbiy yo‘nalishini aniqlash va shakllantirish - jamiyat taraqqiyoti va mehnat bozori talablariga mos keladigan mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda ta’lim muassasalari, ota-onalar va psixolog-mutaxassislarning hamkorligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Kasbiy tanlovni shakllantirishda innovatsion usullar, psixodiagnostika, kasbiy maslahat berish va amaliy mashg‘ulotlardan foydalanish yoshlarning o‘z qobiliyat va qiziqishlarini to‘g‘ri baholashlariga yordam beradi. Shuningdek, mehnat

bozoridagi o‘zgarishlardan xabardor bo‘lish va real vaziyatlarni tahlil qilish orqali ularga kasb tanlashda ongli qaror qabul qilishlari uchun shart-sharoit yaratiladi.

Shu sababli, kasbiy yo‘nalishni aniqlash va shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish hamda barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligini kuchaytirish lozim. Bu esa yoshlarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlarini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Gapparov B.N. va boshqalar. “Xalq pedagogikasi”. “Tafakkur” nashriyoti. T: 2009. 211-214 betlar.

2. “O‘zbek pedagogikasi tarixi”, prof. A.Zunnunov tahriri ostida, Toshkent. 1997 yil, 27-bet.

3. O‘rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T.1996 yil, 180-bet.

4. Boymurodova Ch.O‘. “Pedagogikamizda xalq mehnatining shakli, usuli va mazmuni”. Andijon mashinasozlik instituti ilmiy-ommabob jurnali. Andijon shahri. 2-soni.

5. Boymurodova Ch.O‘. “Shaxsni kamolga etkazish va hayotga tayyorlashda mehnat tarbiyasining axamiyati”. “Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va echimlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Chirchiq shahri. 25-26 inyu 2021 yil. 516-518 betlar.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING IJTIMOIY KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH: TUZILMA VA KOMPONENTLARI

Sultanova Sahobar Ravshanbekovna

“University of Management and Future Technologies” unversiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy kreativligini rivojlantirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Ijtimoiy kreativlikning ilmiy yondashuvlari, uning tarkibi va asosiy komponentlari – motivatsion, kognitiv, emotsional-kommunikativ va amaliy-faoliyat jihatlari asoslab berilgan. Shuningdek, ijtimoiy kreativlikni rivojlantirishda muammoli ta’lim, treninglar, keys-stadi, refleksiv yondashuv va ijtimoiy loyihalashtirish texnologiyalarining o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan. Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishda ijtimoiy kreativlikning muhim o‘rin tutishini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy kreativlik, bo‘lajak o‘qituvchi, kreativ fikrlash, emotsional intellekt, motivatsiya, pedagogik innovatsiya, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy loyihalashtirish.*

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития социальной креативности будущих учителей. Раскрываются научные подходы к пониманию социальной креативности, её структура и ключевые компоненты: мотивационный, когнитивный, эмоционально-коммуникативный и деятельностный. Особое внимание уделено таким методам развития социальной креативности, как проблемное обучение, тренинговые технологии, кейс-стади, рефлексия и социальное проектирование. Полученные результаты подтверждают значимость социальной креативности в формировании профессиональной компетентности будущих педагогов.*

Ключевые слова: *социальная креативность, будущий учитель, креативное мышление, эмоциональный интеллект, мотивация, педагогические инновации, коммуникативная компетентность, социальное проектирование.*

Abstract: *This article analyzes the theoretical and practical aspects of developing social creativity among prospective teachers. It explains the scientific foundations of social creativity, its structure, and its key components, including motivational, cognitive, emotional-communicative, and activity-related aspects. The study highlights effective methods for fostering social creativity such as problem-based learning, training technologies, case studies, reflective practices, and social project-based activities. The findings confirm that social creativity plays a crucial role in enhancing the professional competence of future educators.*

Keywords: *social creativity, prospective teacher, creative thinking, emotional intelligence, motivation, pedagogical innovation, communicative competence, social project design.*

Kirish

XXI asr ta’lim tizimi shaxsning nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy faol, kommunikativ, moslashuvchan va kreativ bo‘lishini talab etadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning professional kompetentlik tarkibida **ijtimoiy kreativlik** alohida o‘rin tutadi. Chunki zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki ijtimoiy muhitni boshqaruvchi, ijtimoiy-psixologik vaziyatlarni hal etuvchi, innovatsion yechimlar yaratishga qodir bo‘lgan shaxsdir.

Ilmiy adabiyotlarda kreativlikning umumiy psixologik asoslari V.I. Andreev, S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontyev, Y. Gilford tomonidan keng yoritilgan bo‘lib, ijtimoiy kreativlikning ta’lim jarayonida ahamiyati ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan (Andreev, 2013; Gilford, 1967). Ammo bo‘lajak o‘qituvchilarning **ijtimoiy kreativligi**ning tarkibi, tuzilmasi, rivojlantirish mexanizmlarini ta’lim-tarbiya jarayonida tizimli qo‘llash masalasi hali ham dolzarbdir.

Tadqiqotning **maqsadi** – bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy kreativligini rivojlantirishga oid ilmiy nazariyalarni tahlil qilish, uning komponentlari va tuzilmasini aniqlash, shuningdek metodik yondashuvlarni asoslash.

Tadqiqot vazifalari:

1. Ijtimoiy kreativlik tushunchasining ilmiy asoslarini tahlil qilish.
2. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy kreativligi tuzilmasini aniqlash.
3. Uning rivojlanish komponentlari va mexanizmlarini bayon qilish.
4. Rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berish.

Asosiy qism

1. Ijtimoiy kreativlik tushunchasining ilmiy asoslari

Kreativlik fenomeni birinchi marta G. Murrey (1938) tomonidan shaxsning o‘zini namoyon qilish xususiyati sifatida izohlangan. Keyinchalik Y. Gilford (1967) kreativ jarayonlarni divergent tafakkur, moslashuvchan fikrlash, originallik kabi mezonlar orqali tahlil qilgan. V.I. Andreev esa kreativlikni shaxsning ijodiy faoliyati orqali yangi mahsulot yaratish qobiliyati sifatida tavsiflaydi.

Ijtimoiy kreativlik tushunchasi esa shaxsning ijtimoiy muhitga innovatsion yondashuvi, jamoadagi ziddiyatlarni kreativ hal etish, kommunikativ vaziyatlarda noodatiy yechimlar topish qobiliyatini anglatadi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, ijtimoiy kreativlik — bu **kreativ fikrlash + ijtimoiy muloqot + emotsional intellekt** birligidir.

2. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy kreativligini rivojlantirish zarurati

Bugungi ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchidan quyidagi malakalar talab qilinadi:

-kommunikativ moslashuvchanlik;

-kreativ pedagogik fikrlash;

-konfliktlarni konstruktiv hal etish;

-ijtimoiy vaziyatlarda tez qaror qabul qilish;

-o‘quvchilar bilan emotsional hamkorlikni shakllantirish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning yuqori ijtimoiy kreativlik darajasi sinfdagi psixologik muhit, o‘quvchilarning motivatsiyasi va ijtimoiy faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

3. Ijtimoiy kreativlikning tuzilmasi va asosiy komponentlari

Tahlillarga tayangan holda, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy kreativligi quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

Motivatsion komponent

- ijtimoiy faol bo‘lishga intilish;
- kasbiy motivatsiya;
- pedagogik jarayonda innovatsiya yaratishga bo‘lgan ehtiyoj.

A.N. Leontyev fikricha, shaxs faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi motivlar majmuasidir.

Kognitiv (bilim) komponent

- kommunikativ psixologiya bo‘yicha bilimlar;
- kreativ fikrlash mexanizmlari;
- konfliktologiya, sotsiologiya elementlari;
- ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmasi.

O‘qituvchi ijtimoiy muhitni tushunmagan taqdirda kreativ yechim yarata olmaydi.

Emotsional-kommunikativ komponent

- emotsional intellekt;
- empatiya;
- samarali kommunikatsiya;
- ijtimoiy signallarni to‘g‘ri talqin qilishi.

Mayer va Salovey tadqiqotlarida emotsional intellektning murakkab vaziyatlarda kreativ yechimlarni kuchaytirishi isbotlangan

Amaliy-faoliyat komponenti

- muammoli vaziyatlarda noodatiy yechimlar yaratish;
- jamoaviy loyihalar ishlab chiqish;
- innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash;
- o‘quvchilar bilan hamkorlikda kreativ faoliyat olib borish.

4. Bo‘lajak o‘qituvchilar ijtimoiy kreativligini rivojlantirish mexanizmlari

Ilmiy manbalarga tayanib, quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish

Problem-based learning (PBL) talabalarda divergent fikrlashni faollashtiradi.

Roldagi o‘yinlar va trening texnologiyalari

Rol o‘yinlari ijtimoiy vaziyatlarni simulyatsiya qilishga yordam beradi.

Keys-stadi metodlari

Ijodiy qaror qabul qilish bo‘yicha ko‘plab variantlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Refleksiya asosida o‘qitish

Refleksiv daftarlardan foydalanish ijtimoiy tajribalarni qayta ishlashga xizmat qiladi.

Ijtimoiy loyihalashtirish

Talabalar “ijtimoiy loyiha + kreativ g‘oya + jamoaviy hamkorlik” asosida ishlaydi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy kreativligi ularning kasbiy kompetentligining asosiy tarkibiy qismidir. Uning tarkibi motivatsion, kognitiv, emotsional-kommunikativ va amaliy komponentlardan iborat bo‘lib, ushbu komponentlarning uyg‘un rivojlanishi o‘qituvchining zamonaviy ta’lim talablari bilan mos kelishini ta’minlaydi.

Ijtimoiy kreativlikni rivojlantirish bo‘yicha taklif etilgan metodlar – PBL, treninglar, keys-stadi, refleksiya va ijtimoiy loyihalar – pedagogik jarayonda samarali qo‘llanilganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ potensialini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андреев В.И. Педагогика творчества. — Казань: Центр инновационных технологий, 2013. — 350 с.
2. Гилфорд Дж. Три стороны интеллекта // Психология мышления. — М.: Прогресс, 1967. — 152 с.
3. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. — М.: Смысл, 2005. — 288 с.
4. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. — СПб.: Питер, 2000. — 720 с.
5. Mayer J., Salovey P. Emotional Intelligence Revisited // Psychology Review. — 2016. — №4. — P. 45–67.

6. Загвязинский В.И. Теория обучения: современная интерпретация. — М.: Академия, 2018. — 240 с.

7. Murray H. Explorations in Personality. — New York: Oxford Press, 1938. — 550 p.

YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM-TARBIYANING O'RNI

Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada dunyoning mafkuraviy manzarasida tajovuzkor aqidaparastlik, ekstremizm, irqchilik, fundamentalizm, odam savdosi va "ommaviy madaniyat" terrorizmi, harbiy zo'ravonlik kabi xavfli oqimlarning faoliyati yoshlarning ongini shakllantirish jarayoniga jiddiy tahdid solayotganligi tahlil qilingan. Bu muammolarga qarshi kurashishda xalqimizning madaniy meroslarini, falsafiy durdonalarini, ta'lim-tarbiyani yanada rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash orqali yot mafkuralarning oldini olish hamda yoshlarimizda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: globallash, g'oya, ma'naviyat, mafkura, immunitet, qadryat, madaniyat, ma'rifat, meros, urf-odat, marosim, interfaol, metod, tahdid, ekstremizm, irqchilik, aqidaparastlik, terrorizm, fundamentalizm, targ'ibot, texnologiya.

Аннотация: В данной статье проанализировано, что деятельность таких опасных течений, как агрессивный радикализм, экстремизм, расизм, фундаментализм, торговля людьми, «массовая культура» терроризма и военное насилие, представляет серьёзную угрозу процессу формирования мировоззрения молодёжи в идеологической картине мира. Раскрываются

вопросы противодействия этим проблемам посредством развития культурного наследия нашего народа, философских ценностей, системы образования и воспитания, а также через почитание национальных и общечеловеческих ценностей. Показано, как эти меры помогают предотвратить проникновение чуждых идеологий и укрепить идеологический иммунитет нашей молодёжи.

Ключевые слова: глобализация, идея, духовность, идеология, иммунитет, ценность, культура, просвещение, наследие, обычаи, обряды, интерактивность, метод, угроза, экстремизм, расизм, радикализм, терроризм, фундаментализм, пропаганда, технология.

Annotation: This article analyzes how the activities of dangerous currents in the ideological landscape of the modern world such as aggressive fanaticism, extremism, racism, fundamentalism, human trafficking, the “mass culture” of terrorism, and military violence pose a serious threat to the process of shaping young people’s consciousness. It discusses the importance of preventing alien ideologies and strengthening the ideological immunity of youth by developing our nation’s cultural heritage, philosophical treasures, education and upbringing, as well as by promoting national and universal values.

Keywords: globalization, idea, spirituality, ideology, immunity, value, culture, enlightenment, heritage, tradition, ceremony, interactive, method, threat, extremism, racism, fanaticism, terrorism, fundamentalism, propaganda, technology.

Bugungi kunda yoshlarimizni turli yot va zararli g‘oyalar, shuningdek vayronkor mafkuralardan himoya qilish, ularning barqaror mafkuraviy immunitetini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Bu jarayon yoshlarning dunyoqarashini boyitish, Vatanga sadoqat, uning taraqqiyotiga daxldorlik hissi va milliy g‘ururni rivojlantirish, shuningdek ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish orqali amalga oshiriladi. Natijada, ular hozirgi zamondagi keskin intellektual va ma’naviy raqobatga tayyor bo‘lgan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, yuksak malakali mutaxassislar sifatida shakllanadi. Zero, bu globallashuv davrida uzluksiz ta’lim va tarbiya tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Shu bois,

milliy iftixor tuyg‘usi va o‘tmishimiz hamda kelajagimizning qadriyatlarini yosh avlodga yetkazish orqali biz yangi avlodlarni tarbiyalashimiz va o‘z milliy davlatchiligimizni mustahkamlashimiz zarur. Ayniqsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni etkazishning zamonaviy infratuzilmasi va texnologiyalarini takomillashtirish orqali yot mafkuralarning oldini olish va yoshlarimizda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash mumkin.

Jamiyat taraqqiyoti fuqarolarining ijtimoiy faolligi, ma’naviy ongi va mustaqil fikrlash qobiliyati bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz taraqqiyot strategiyasi ma’rifiy jamiyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Ma’rifiy jamiyat esa mustaqil fikrlovchi, ma’naviyati yuksak, o‘z manfaatlarini jamiyat va davlat manfaatlari bilan uyg‘unlashtira oladigan barkamol avlodni tarbiyalay olishga bog‘liq. Biroq, insoniyatning ilmiy-kashfiy ishlanmalaridan keng foydalanish, global axborot oqimining tezligi va yoshlar ustidagi bevosita yoki bilvosita bosimning ortib borishi ularning ma’naviy o‘zligini yo‘qotish xavfini oshirmoqda. Shu bois, mazkur jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish, yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltirish va ularni mustahkam ma’naviy qadriyatlarga tayanchlangan holda tarbiyalash ayni vaqtda muhim strategik vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yoshlarga yuqori ma’naviy tarbiya berish va ularning salohiyatini yuksaltirish davlatimizning asosiy vazifalaridan biridir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “.... Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talabalari asosida takomillasht i rishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”[1]. Shu ma’noda, global o‘zgarishlar sharoitida yoshlarga tarbiya berish masalasi nafaqat milliy, balki jahon miqyosida ham muhokama qilinayotgan dolzarb masalaga aylangan.

Hozirgi kunda ayrim davlatlarda sodir bo‘layotgan qo‘poruvchilik, harbiy zo‘ravonlik, tinch aholini qiynoqlash, vahima uyg‘otish va g‘oyaviy beqarorlik kabi holatlar yoshlarning ma’naviy ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, dunyoning mafkuraviy manzarasida tajovuzkor aqidaparastlik, ekstremizm,

irqchilik, fundamentalizm, odam savdosi va “ommaviy madaniyat” terrorizmi kabi xavfli oqimlarning faoliyati yoshlarning ongini shakllantirish jarayoniga jiddiy tahdid solmoqda. Bu muammolarga qarshi kurashishda xalqimizning madaniy meroslari, falsafiy durdonalari va milliy qadriyatlari ustuvor ahamiyatga ega. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda tarbiyalangan yoshlar mustaqil fikrlash, o‘ziga xos dunyoqarash va ma’naviy barqarorlikni rivojlantiradi. Shu bilan birga, yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat va ularni amaliy hayotda qo‘llash mas’uliyati shakllanganda, zararli g‘oya va tushunchalarga qarshi mafkuraviy immunitet mustahkamlanadi. Zero, mafkuraviy immunitet – ma’lum bir shaxsda yoki ijtimoiy guruhda o‘ziga xos bo‘lgan, qat’iy, barqaror, sog‘lom mafkuraviy qarashlarning shakllanganligi bilan ifodalanadi. U shaxsning insoniylikka yot bo‘lgan turli zararli mafkuraviy ta’sir va tayziqlarga berilmasligida muhim omil bo‘lib hisoblanadi[2]. Shu jihatdan, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimi strategik ahamiyatga egadir. Yoshlarda ta’lim va tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni barkamol, mustaqil va ma’naviy yetuk avlodga aylantirish muhim vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mafkuraviy immunitet deganda – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli g‘oyaviy ta’sir idan himoya qilishga xizmat qiladigan g‘oyaviy nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi tushuniladi[3]. Haqiqatdan ham, mafkuraviy immunitet turli xil yot va zararli g‘oyalar ta’sirlaridan biz uchun asosiy himoya vositasi hisoblanadi. Yoshlarimiz orasida mafkuraviy immunitetni shakllantiruvchi vositalar ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir: birinchidan, yoshlarimizni ta’limning barcha bosqichlari bilan qamrab olishni yanada oshirish; ikkinchidan, yoshlarimiz orasida tarbiyaviy jarayonlarni har doimgidanda yuqori roq darajaga

ko‘tarish; uchinchidan, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarini targ‘ibot qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish; to‘rtinchidan, media tarbiyani yoshlar orasida shakillant i rsh ya’ni turli xil internet ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini rivojlant i rish.

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronovning “mafkuraviy immunitet” kategoriyasiga bergan ta’rifi yuqoridagilardan mantiqiy jihatdan tubdan farq qiladi. Muallif: “mafkuraviy immunitet – odam o‘z hayotida amal qiladigan anglangan qoidalar yig‘indisi. Yoki ramzi y qilib, uni shaxsning mafkuraviy konstitutsiyasi, deb atasa ham bo‘ladi. Bu konstitutsiya ikki asosga tayanadi. B i rinchisi – u yashayotgan milliy-ma’naviy muhitda qabul qilingan me’yorlar. I kkinchisi – shu me’yorlarning odam dunyoqarashida o‘zlasht i rilgan qismi”,- deb izohlaydi[4].

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mafkuraviy immunitet shaxsning ijtimoiy va ma’naviy barqarorligini ta’minlovchi, uni zararli mafkuralardan himoya qiluvchi ichki mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Yoshlarni turli g‘oyaviy va mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish hamda jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun ularni sog‘lom, insonparvar g‘oya va mafkuralar bilan qurollantirish zarur. Mazkur g‘oyalar taraqqiyot qonunlari, ijtimoiy adolat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘un bo‘lishi lozim. Shu orqali shaxsning o‘zligini, odob-axloqini, tarixiy merosini va milliy ruhini zararli mafkuralardan himoya qilish nafaqat individual, balki jamiyatning ma’naviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mafkuraviy immunitetni yuksaltirishda ta’lim-tarbiyaning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilishda “shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligi” prinsipini asosiy tamoyil sifatida qo‘llash yoshlarda ijodkorlik ruhini va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, ularni Vatanga muhabbat va yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, shuningdek, jamiyat hamda davlat manfaatlarini qadrlaydigan, milliy qadriyatlar bilan yashaydigan shaxslarni tarbiyalash muhim vazifadir. Shu sababli, yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish davlat va jamiyat uchun strategik ahamiyatga egadir. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan uzliksiz ta’lim-tarbiya, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot va media resurslaridan oqilona foydalanish orqali yoshlar mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘ladi, Vatanga sadoqatni his qiladi, milliy g‘ururini rivojlantiradi va tarixiy merosni chuqur anglaydi. Bunday yondashuv, yoshlarni mafkuraviy jihatdan barqaror, ijtimoiy faol va mas’uliyatli shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **Мирзиёев Ш. М.** Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 22 б.

2. **Haydarov K.** Sharq falsafasida ma’naviy tarbiya ustuvorligi. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2020. – 166 b.

3. **Barotov Sh. R.** O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 56 b.

4. **Quronov M.** Bizni birlashtirgan g‘oya. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – 142 b.

STYLISTIC AND PRAGMATIC ASPECTS OF WORDPLAY IN CHILDREN’S LITERATURE

Temirova Muattar Amirqul qizi,

DIEP.

Abduvostayeva Dilnora Davron qizi,

DIEP.

Iskandarova Xusnora Xurshid qizi,

DIEP.

Abstract. *This paper explores the pragma-stylistic features of children's speech in English and Uzbek literary discourse. The research aims to determine how child characters' voices are constructed in fiction through pragmatic intentions, stylistic devices, and discourse strategies. In order to get a more or less clear idea of the word stock of any language, it must be presented as a system the elements of which are interconnected, interrelated and interdependent. Through a comparative analysis, the paper emotions, playfulness, and simplicity, while also showcasing the cultural variation in how these are depicted in literature. This research advances the field of linguistics by connecting pragmatics and stylistics with the analysis of literary discourse.*

Keywords: *puns; translation; strategies; comparison, linguo-cognitive, humour, pragma-stylistic, pragmatic, stylistic, wordplay, children's literature, fiction, narrative, linguo-cognitive.*

Аннотация. *В данной статье исследуются прагма-стилистические особенности детской речи в английском и узбекском литературном дискурсе. Цель исследования – определить, как голоса детских персонажей конструируются в художественных произведениях посредством прагматических намерений, стилистических приёмов и дискурсивных стратегий. Чтобы получить более или менее чёткое представление о словарном фонде любого языка, его необходимо представить как систему, элементы которой взаимосвязаны, взаимообусловлены и взаимозависимы. В рамках сравнительного анализа в статье рассматриваются эмоции, игривость и простота, а также демонстрируется культурное разнообразие в том, как эти качества отражаются в литературе. Данное исследование развивает лингвистику, связывая прагматику и стилистику с анализом литературного дискурса.*

Ключевые слова: *каламбуры; перевод; стратегии; сравнение, лингвокогнитивный, юмор, прагма-стилистический, прагматический, стилистический, игра слов, детская литература, художественная литература, нарратив, лингвокогнитивный.*

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz va o‘zbek adabiy nutqida bolalar nutqining pragma-stilistik xususiyatlarini o‘rganadi. Tadqiqot bolalar qahramonlarining ovozlari badiiy adabiyotda pragmatik niyatlar, stilistik vositalar va nutq strategiyalari orqali qanday tuzilganligini aniqlashga qaratilgan. Har qanday tilning so‘z fondi haqida ozmi-ko‘pmi aniq tasavvurga ega bo‘lish uchun uni elementlari o‘zaro bog‘langan, va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tizim sifatida ko‘rsatish kerak. Qiyosiy tahlil orqali asar hissiyotlari, o‘ynoqiligi va soddaligi, shuningdek, adabiyotda tasvirlangan madaniy o‘zgarishlarni namoyish etadi. Ushbu tadqiqot pragmatika va stilistikani adabiy nutq tahlili bilan bog’lash orqali tilshunoslik sohasini rivojlantiradi.*

Kalit so‘zlar: *so‘z o‘yinlari; tarjima; strategiyalar; taqqoslash, lingvokognitiv, yumor, pragma-stilistik, pragmatik, stilistik, so‘z o‘yini, bolalar adabiyoti, badiiy adabiyot, hikoya, lingvokognitiv.*

Introduction: When language game appears in fiction, it is always intentional, unlike children’s wordplay or mistakes which result out of their limited communicative competence. In fiction, playful language serves as a complex tool which performs a number of important stylistic and pragmatic functions. Among the main functions of language play in books for children, besides the ludic and poetic functions, scholars of language distinguish the phatic, meta-communicative, linguo-creative, linguo-cognitive, imitative, characterological, emotional, expressive, euphemistic and that of structuring the storyline and narration.

Pragma-stylistics is an interdisciplinary field that merges the study of pragmatics with stylistics to examine how language operates within artistic texts. Pragmatics focuses on meaning in context, while stylistics investigates the expressive potential of linguistic units. When applied to literature, this approach

allows scholars to explore not only what is said, but how it is said, and what pragmatic intentions underlie stylistic choices. One of the most captivating areas of study within this framework is children's speech in fiction. The representation of children's voices provides insight into their psychological world, their interaction with adults, and their symbolic role within the narrative.

Unlike literary translation, when the content should be transformed into the new language form, the translation of wordplay should express the original form of the text phonetic and graphics. Moreover, we have to change meaningfully notional categories. This is caused by the fact that for the adequate translation, the expression plan can be more important that the content plan. If you do not take into account the relationships within the advertising message between its various components, then even the most accurate translation might be insufficiently. The most difficult for translation is the wordplay, which making play such language tools that are absent in the target language, for example, authorial neologisms based on the verbs of motion. When the translator has no opportunity to transfer the "play" word by word adequately, then he does not translate the phrase, which is given by the author of the text, and creates his own wordplay, sometimes built on an entirely different basis, and used completely other meanings.

Methodology: Linguistic functional style differentiation is also of the great interest for the translation studies, as certain types of translation differentiated by the language difficulties are allocated on this basis in the theory of translation. As a rule, the literary translation is opposed to all the other styles (pragmatic or informational translation), and this contrast reflects the essential difference in the tasks of the translator. If literary translations are the part of literature in the accepted linguo-culture (together with original texts), the informative translation focuses not so much on the linguistic means as on the information put in the text and need to be translated more accurately. Belonging of the original text to the certain functional style and genre of the source language determines its dominant function.

Linguistic form of the text displayed the national “worldview” of the original text, must be subjected by the socio-cultural interpretation in the decoding language, as it is only a starting point for understanding the general meaning of the utterance. The foundation of the translation is a communicative constant that reflects the dynamic aspect of the translation [8]. One of the most difficult problems of translation is a pun intended for foreign language audience. Because of the errors in the translation, the advertisements containing wordplay can get the opposite sense of humor, which can lead to the failure of the campaign. The numerous translation failures can be explained by the following: the modern advertising refers to the ancient and quite archaic structures of thinking, structures that can be called “ethnic”. A “supra-national” of the advertising industry is in conflict with the essence of the underlying processes of national consciousness.

Ross Mckerras has emphasized six main aims of the wordplay:

- the maintenance of the coherence of the narrativeness,
- isolation of the climax,
- identification of the hidden thought,
- the indication on the playfulness of the tone,
- making some expression to the written style,
- achievement of the poetic mood.

Also, he determined three main approaches to the transmission of the wordplay. The first one is to translate word by word and explain the wordplay in the footnote quite briefly or in the comments more detailed [5].

The second method is – to select the wordplay in the target language and use it, even if it does not contain any words equivalent to the original. The third method is to select other means in the target language which could add some original spirit to the translation [4]. It is also necessary to emphasize that using of the second or third methods can be performed only under the condition of the close control over either the original language also the target language. As in this case the translator deviates from the original text in a great measure, he must be ready to be criticized.

Some researchers consider the notion of equivalence in the communicative pragmatic aspect. According to this approach, the equivalence is determined not by the equality of the formal characteristics of the original text and translated text, and by the identity of the communicative effect that these texts impress the recipients of the original language and the translated language [3]. This approach justifies the cases when the wordplay that should be kept in the translated text is not transmitted, but is created in the target language according to the context of the text. It should be noted that such method of achieving equivalence is not used very often. In most cases, the literal translation can lead to literalism. In the second group the semantic components and translation are not the same.

Discussion: The pun can never be interpreted isolated from the text and the perceptions of the reader. The context and the reader are two factors of immense importance in the process of pun identification and interpretation. As Delabastita states: 'A necessary condition for pun perception is a context in which multiple and disparate meanings for the pun word are acceptable; the context must concern itself with certain matters if a pun is to be made on a certain word' [2]. The most frequently raised question with reference to puns is: Can puns be translated after all? The answer to this question depends on notions of equivalence and identity. In fact, we agree with Ristani who concludes that equivalence in translation should never be thought to involve attempts to accomplish reproduction and recreation of an identical text, which is impossible even within the same language [6]. Based on the fact that one hundred per cent equivalence is not an aim that can be reached (or, for that matter, even sought) in translation practice, scholars have outlined several ways of 'translating' puns involving several techniques: pun-to-pun translation, changing the type of pun, replacing a pun with a non-pun, replacing a pun with a rhetorically related device such as repetition, alliteration or rhyme, altering the effect of a pun, passing from comical pun to comical non-pun, situational pun, literal meaning, footnotes, compensation, manipulative translation, non-translation, pun-to-zero, etc.

On the other hand, translation can also be thought of as a decision-making process. Translators will always have to make decisions weighing ‘loss’ against ‘gain’ and pondering the pros and cons of some ‘sacrifice’ or other. Thus, the choice of one strategy over the other will continuously have certain implications on general understanding of the text and effect transmitted to target readers, which in turn depend on the effectiveness of the strategy used and creativity of the translator. As Weissbrod states there are always subjective features relevant, including the translator’s talent, proficiency, and willingness to spend time finding solutions in the face of hard-to-translate wordplays [9].

In Uzbek literature, To‘xtaboyev’s child characters similarly use short, lively sentences filled with humor and curiosity, which reflect the spontaneity of real-life children’s interactions [7]. Another important aspect is the frequent use of repetitions. Repetition is a pragmatic strategy children employ to emphasize their needs or emotions. This stylistic device conveys their impatience, excitement, or fear. In Uzbek discourse, repetition is also common, but it often carries cultural undertones.

Diminutives are another stylistic hallmark of children’s speech, particularly in Uzbek fiction. Words such as ‘bolajon’, ‘jonim’, or ‘ukajon’ serve both pragmatic and stylistic functions. They express affection, politeness, and a cultural emphasis on respect and care within family and social structures. In English literature, diminutives are less common, but child characters may use nicknames or shortened forms of words to achieve similar effects. This highlights the cultural specificity of stylistic choices in portraying children’s communication.

Creativity and linguistic play are universal features of children’s speech. English-speaking children in fiction sometimes invent imaginary words or distort adult vocabulary, which reflects their developing linguistic competence and imaginative thinking. For instance, in Lewis Carroll’s “Alice’s Adventures in Wonderland” [1], linguistic play is central to the narrative. Similarly, in Uzbek

children's literature, linguistic play often involves puns, rhymes, or humorous twists on traditional idioms, showcasing both creativity and cultural flavor.

Pragma-stylistics also examines the broader discourse context in which children's speech occurs. Children's dialogues are rarely isolated; they are embedded in interactions with adults, peers, or even symbolic figures. In Uzbek fiction, the interplay between children's voices and traditional cultural values reinforces national identity and moral lessons. Thus, children's speech in literature functions not only as a reflection of reality but also as a narrative device that shapes the reader's perception of society and culture.

Conclusion: The pragma-stylistic study of children's speech in English and Uzbek literary discourse demonstrates both universal and culture-specific features. Universally, children's speech is characterized by simplicity, emotionality, and creativity. Culturally, however, certain stylistic devices such as diminutives in Uzbek or emphasis through repetition in English reveal distinct traditions of representing childhood in literature. The comparative approach shows that while children's speech serves to reflect genuine communication patterns, it is also carefully stylized by authors to achieve artistic and ideological purposes. This study highlights the value of pragma-stylistics in understanding not only the linguistic features of child characters but also the cultural and literary contexts in which they appear. Summing up, it can be concluded that British literature has a long tradition of coinage and intentional use of nonce words in books for children. Authors tend to use nonce words for a number of reasons: they enable them to involve the young readers or pre-readers in the discourse, help describe the characters and shape attitude towards them, boost cognitive, creative and linguistic development of children, trigger creative thinking, tell a unique story and engage the readers in linguistic play. Thus, occasionalisms coined specifically for each story perform a number of important functions: linguo-creative, cognitive, ludic, imitative, phatic, characterological and emotive.

References:

1. Carroll, L. (1865). Alice's Adventures in Wonderland. London: Macmillan.

2. Delabastita, Dirk (1993) There's a Double Tongue. An Investigation into the Translation of Shakespeare's Wordplay with Special Reference to Hamlet Amsterdam and Atlanta: Rodopi.

3. Galperin, I. R. (1981). Stylistics. Moscow: Higher School Publishing.

4. Gottlieb, Henrik (1997) "You got the picture? On the polysemiotics of subtitling wordplay." In Traductio: Essays on Punning and Translation, Dirk Delabastita (ed.), 207–232. Manchester / Namur: St. Jerome and Presses Universitaires de Namur

5. Leech, G. N. (1983). Principles of Pragmatics. London: Longman.

6. Ristani, Viktor (2010) Kontribut në Studimet Përkthimore gjatë viteve '90 Shtëpi Botuese-Shtypshkronjë Miryeeralb: Tiranë.

7. To'xtaboyev, X. (1981). Sariq devni minib. Tashkent: Yosh Gvardiya.

8. Venuti, Lawrence (2000) (ed.) The Translation Studies Reader, London and New York: Routledge

9. Weissbrod, Rachel (1996) Curioser and Curioser: Hebrew Translations of Wordplay in Alice's Adventure's Underground. Wordplay and Translation St. Jerome Publishing, Manchester.

THEORETICAL APPROACHES TO TRANSLATING WORDPLAY

(Lewis Carroll's "Alice in Wonderland")

Temirova Muattar Amirqul qizi,
DIEP
Salomova Dilnoza Bozor qizi,
DIEP
Xudoyberdiyeva Laylo Abdumalik qizi,
DIEP

Abstract. *This paper studies the puns in Lewis Carroll's Alice in Wonderland, with a special focus on their types, as well as their Uzbek equivalents. Its aim is to discover on which linguistic techniques the puns are based on, and to present the varieties of their Uzbek translations – where they differ, where they are similar, which techniques are used by the translators, and whether the translations are 'successful'. This is achieved through a comparative analysis of the original puns and their different translation varieties in Uzbek. Besides comparing the original with its translation varieties, the author provides a comparison between the translation varieties as well, highlighting the strategies used by the translators and comparing the variations based on their preferred translation strategy. The findings reveal that the focus of the majority of the translators is mainly on the recreation of the puns by using creative linguistic solutions.*

Keywords: *puns, wordplay, translation, Alice in Wonderland, humour, homophonic pun, strategies, comparison.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются каламбуры в «Алисе в Стране чудес» Льюиса Кэрролла, особое внимание уделяется их типам, а также их узбекским эквивалентам. Цель статьи — выявить, на каких языковых приёмах основаны каламбуры, и представить варианты их узбекских переводов: где они различаются, где сходны, какие приёмы используют переводчики и насколько удачны переводы. Это достигается путём сравнительного анализа оригинальных каламбуров и различных вариантов их перевода на узбекский язык. Помимо сравнения оригинала с вариантами перевода, автор также проводит сравнение между вариантами перевода, выделяя стратегии, используемые переводчиками, и сравнивая варианты, основанные на их предпочитаемой стратегии перевода. Результаты показывают, что большинство переводчиков сосредоточены главным образом на воссоздании каламбуров с помощью креативных языковых решений.*

Ключевые слова: *каламбуры, игра слов, перевод, Алиса в Стране чудес, юмор, омофоническая игра слов, стратегии, сравнение.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Lyuis Kerrollning "Alisa mo'jizalar mamlakatida" romanidagi so'z o'yinlari o'rganilib, ularning turlariga, shuningdek, o'zbek tilidagi ekvivalentlariga alohida e'tibor qaratilgan. Undan ko'zlangan maqsad so'z o'yinlari qaysi lingvistik uslublarga asoslanganligini aniqlash va ularning o'zbek tiliga tarjimalari turlarini – ular qayerda bir-biridan farq qilishi, qayerda o'xshashligi, tarjimonlar qaysi usullardan foydalanganligi va tarjimalarning "muvaffaqiyatli" ekanligini ko'rsatishdan iborat. Bunga asl so'z birikmalari va ularning o'zbek tilidagi turli tarjima turlarini qiyosiy tahlil qilish orqali erishiladi. Muallif asl nusxani uning tarjima turlari bilan solishtirishdan tashqari, tarjima turlarini ham solishtiradi, tarjimonlar qo'llagan strategiyalarni ta'kidlab, o'z afzal ko'rgan tarjima strategiyasi asosida o'zgarishlarni solishtiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik tarjimonlarning asosiy e'tibori, asosan, ijodiy lingvistik yechimlardan foydalangan holda so'z o'yinlarini qayta tiklashga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *so'z o'yinlari, so'z o'yini, tarjima, Alisa mo"jizalar mamlakatida, hazil, omofon, strategiyalar, taqqoslash.*

Atrof-muhitning barqarorligi tabiiy resurslarni saqlash, biologik xilma-xillikni himoya qilish, chiqindilar va chiqindilarni minimallashtirish kabi keng ko‘lamli amaliyotlarni o‘z ichiga oladi. Atrof-muhit barqarorligining asosiy g‘oyasi

inson salomatligi va farovonligi bizning atrof-muhitimiz salomatligi bilan tubdan bog‘liqligini tan olishdir [2].

Zamonaviy insonparvarlik uning klassik talqinlari bilan solishtirganda sezilarli darajada rivojlandi. Faqat shaxsning qadr-qimmatiga qaratilgan eski versiyalardan farqli o‘laroq, zamonaviy gumanizm tor insoniy markazdan ustun turadi va inson hayotining axloqiy va ekologik jihatlarini birlashtiradigan yangi tamoyillarni tasdiqlaydi. Falsafaning eng muhim vazifasi nafaqat inson huquq va erkinliklarini tasdiqlash, balki atrofdagi dunyo bilan o‘zaro munosabatlarning axloqiy va amaliy tamoyillarini o‘z ichiga olgan tabiat bilan uyg‘unlikni saqlash yo‘llarini topishdir. Shu nuqtai nazardan, insonparvarlik inson va tabiat o‘rtasidagi dixotomiya sifatida emas, balki mas'uliyat va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan sinergiya va o‘zaro hurmat sifatida qaraladi . Insonparvarlik yondashuvi inson hayoti, salomatligi va qadr-qimmatini saqlashga qaratilgan, tabiiy muhit bilan murakkab o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olgan holda samarali barqaror rivojlanish strategiyasining asosidir .

Bugungi kunda gumanizm g‘oyalari global taraqqiyot, inson huquqlari, ekologik barqarorlik, ijtimoiy adolat va madaniy inklyuzivlikka asoslangan yangiliklar bilan bog‘liqdir. Gumanizmning bugungi holati jamiyatlardagi o‘zgarishlarga, yangi hayot va ishlab chiqarish shakllariga munosabatlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ushbu g‘oyalar insonning umumiy qadr-qimmatlarini, ya'ni adolat, tenglik, erkinlik va insoniylikni saqlashga intilishda asosiy yo‘nalish hisoblanadi. Tabiat musaffoligi uchun kurash barcha siyosiy kurashlardan ham afzalligi, ekologik gumanizmni tabiatning saqlanishi va insonning ekologik mas'uliyatiga qaratilgan eng faol harakatga aylanayotnanini tasdiqlaydi [339: 3].

Falsafa qisqacha izohli lug‘atida gumanizm tushunchasiga (lotin. “Humanitas”- insoniylik, insonparvarlik, inson haqida g‘amxorlik) – insonni himoya qilishga, uning huquqlariga kafillik berishni maqsad qilib olgan ta’limot [109, 4] deb ta’rif beriladi. Ya’ni insonni himoya qilishda yashash uchun tabiatni asrash juda katta ahmiyatga ega. Gumanizmning yana bir muhim yo‘nalishi — ekologik

gumanizm bo‘lib, u insonning tabiat bilan o‘zaro aloqasini isloh qilishga qaratilgan. XX asrning oxirlaridan boshlab, insonning global muhit va tabiatga bo‘lgan ta'siri, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish talablari paydo bo‘ldi. Ekologik gumanizm, insonning tabiatni himoya qilish va uning barqarorligiga bo‘lgan mas'uliyatini tan olish, bugungi kunda global muammolarga yechim topishga intiladi. Bu g‘oyalar inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ijtimoiy va ekologik adolat, barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan [339: 3].

Ekologik muammolarni faqat texnik yechimlar bilan hal qilib bo‘lmaydi. Masalan, suv tejovchi texnologiyalar joriy qilinishi mumkin, ammo agar odamlar ulardan foydalanish madaniyatiga ega bo‘lmasa, natija sust bo‘ladi. Yoki daraxt ekish kampaniyalari o‘tkazilishi mumkin, ammo inson ongida tabiatga nisbatan mas’uliyat shakllanmasa, ekilgan daraxtlar parvarish qilinmaydi. Demak, texnologik choralar insoniy qadriyatlar bilan qo‘llab-quvvatlangandagina barqaror natija beradi. Bu — gumanistik yondashuvning eng muhim xususiyati[5].

Ko‘plab tadqiqotchilar, nazariyotchilar va amaliyotchilar, siyosatchilar va davlat arboblari barqaror rivojlanish konsepsiyasini XXI asr va butun uchinchi ming yillikning eng istiqbolli mafkurasi deb hisoblashadi. Umuman olganda, barqaror rivojlanish - bu insoniyatning hozirgi ehtiyojlarini qondirish va kelajak avlodlarning manfaatlarini, jumladan, ularning xavfsiz va sog‘lom muhitga bo‘lgan ehtiyojlarini himoya qilish o‘rtasida muvozanatni o‘rnatishga asoslangan boshqariladigan ijtimoiy rivojlanish konsepsiyasi. Umuman olganda, barqaror rivojlanish konsepsiyasi uchta asosiy yondashuvni birlashtirishni anglatadi: iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik hamda ekologiya, gumanizm, ijtimoiy demokratiya, global konsolidatsiya, ratsional tanqid va pragmatizm tamoyillarini birlashtiradi. Barqaror rivojlanishning asosiy amaliy maqsadi kelajakda hayot, tabiat va jamiyatni saqlab qolish, ularni optimallashtirish va uyg‘un rivojlantirishdir[44,45: 6].

Gumanistik yondashuv jamiyatni ekologik qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb qiladi. Bu yondashuvda fuqarolar faqat kuzatuvchi rolida emas, balki faol ishtirokchi sifatida qaraladi. Odamlar o‘z hududidagi ekologik ahvoldan xabardor

bo‘lsa, muammolarni hal etishga befarq bo‘lmaydi. Mahalla yig‘inlari, ekologik tadbirlar, jamoatchilik nazorati va ekologik monitoring shunday ishtirokning shakllaridir. Ekologik barqarorlikni kuchaytirishda axloqiy mas’uliyat ham katta rol o‘ynaydi. Inson tabiatga zarar yetkazmaslikni shaxsiy burch sifatida qabul qilsa, har bir kundalik harakati natija beradi. Masalan, suvni tejash, chiqindilarni ajratish, daraxt ekish, havo ifloslanishiga befarq bo‘lmaslik — bularning barchasi ekologik barqarorlikning ahloqiy zaminini mustahkamlaydi.

Ekologik muammolarni hal qilish uchun qancha qonunlar, turli loyihalar yaratmaylik, uning harakatlantiruvchi kuch ekanligini unutmasligimiz kerak. Shu bois aholining ekologik muammolarni tushunish va ularni hal etish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun maktab va oliy o‘quv yurtlarida ekologik ta’limni kuchaytirish, ommaviy axborot vositalari orqali ekologik madaniyatni yuksaltirish zarur. Bolalar uchun ekologik ofatlarni yaqqol ko‘rsatuvchi turli qisqa metrajli filmlar, multfilmlar tayyorlash, eng muhimi, atrof-muhit muammolari jiddiy ekanini, ekologik muammolarni hal etish biror bir tashkilot yoki partiyaning emas, balki butun xalqning burchi ekanligini uqtirish zarur. Shundagina fuqarolar bu masalaga jiddiy yondashib, bu boradagi ijtimoiy faolligini oshiradi, deb taxmin qilish mumkin. Bu, o‘z navbatida, iloji boricha ko‘proq ekologik loyihalarni yaratish va ko‘ngillilarni rag‘batlantirish orqali bunday loyihalarni odamlar orasida tarqatishni talab qiladi. Shu tariqa aholining ijtimoiy faolligiga erishish, yuqori ko‘rsatkichlarni qaytarishimiz uchun imkoniyatlar ochiladi

Xulosa. Inson qanchalik urinmasin, tabiat qonunlari oldida ojiz qoladi. Biroq, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ofatlarni minimallashtirish yoki ularga tayyorgarlik ko‘rish muhim sanaladi. Mustaqillik davridan buyon mamlakatimizda amalga oshirilayotgan loyiha va tashabbuslar ham shunga qaratilgan bo‘lib, bu borada har yili ma’lum miqdorda o‘sishga erishilmoqda. Ammo turli xil ekologik muammolar o‘zining yangi ko‘rinishlarini ko‘rsatishni to‘xtayotgani yo‘q. Shuni inobatga olgan holda ekologik muammolarga qarshi

kurashish, tabiatni muhofaza qilishda nodavlat notijorat tashkilotlar va jamoat guruhlarining O‘zbekistondagi ekologik tashabbuslarda faol ishtiroki ahamiyatli.

Ekologik barqarorlik shunchaki tabiatni saqlash emas, balki inson hayotining sifatini yaxshilashdir. Inson tabiat bilan uyg‘unlikda yashashni o‘rganganida barqaror rivojlanish haqiqatga aylanadi.

Ekologik barqarorlik insonparvarlik qadriyatlarini ijtimoiy rivojlanishning barcha darajalariga integratsiyalashni talab qiladi. O‘zbekistonning madaniy merosi, milliy siyosati, ta'lim islohotlari va jamoatchilik bilan aloqalar mustahkam poydevorni tashkil etadi. Gumanistik yondashuv ekologik yechimlar inson qadr-qimmatini hurmat qilishini va uzoq muddatli farovonlikni ta'minlashini ta'minlaydi.

Gumanistik yondashuv ekologik barqarorlik uchun mustahkam poydevor yaratadi. U qadr-qimmat, adolat va mas'uliyatni ta'kidlaydi, ekologik xatti-harakatlar va siyosatni shakllantiradi. Ushbu yondashuv ekologik yechimlar uzoq muddatli ijtimoiy farovonlikni qo‘llab-quvvatlashini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Andreeva V. I. Humanistic values in shaping the Concept of Sustainable Development // Journal of Political Research. 2025. no. 1. pp. 116-127. DOI: https://doi.org/10.12737/2587-6295-2025-9-1-116-127 (Date of access 14.11.2025)
2. Mishra RK, Mishra D, Agarwal R.Environmental Sustainability and Ecological Balance. ResearchGate; 2025.
3. Т.Қуйлиев. Барқарор тараққиёт ва ҳозирги давр хусусиятлари. // Замонавий таълим-тарбия жараёнининг психологик-педагогик масалалари. Мақолалар тўплами.- Тош., 08.02.25 й.-485 бет
4. Фалсафа қисқача изоҳли луғат/ Муаллифлар: М.Н.Абдуллаева, М.Абдурашидов, У.Абилов ва бошқ.: Маъул муҳаррир: А.Жалолов.- Т.: "Шарқ", 2004.- 384 бет
5. Дмитри Дмитрий Витальевич Соломко ЧЕЛОВЕК И ЕГО МИР КАК ЭКОСИСТЕМА // Вестник ЧелГУ. 2023. №4 (474). URL:

https://cyberleninka.ru/article/n/chelovek-i-ego-mir-kak-ekosistema (дата обращения: 14.11.2025).

6. Козловец Николай Адамович Гуманизм как ценностная платформа устойчивого развития в эпоху глобализации // Евразийство и мир. 2017. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/gumanizm-kak-tsennostnaya-platforma-ustoi-chivogo-razvitiya-v-epohu-globalizatsii (дата обращения: 13.11.2025).

A TRANSLATION-BASED ANALYSIS OF CONDITIONAL CONSTRUCTIONS IN ENGLISH, RUSSIAN, AND UZBEK

Umarova Xumora Xondamir qizi

Fergana State University

Abstract. *This article examines translation challenges related to conditional constructions in English, Russian, and Uzbek. Although all three languages express hypothetical and unreal meanings, they differ in their grammatical systems. English mainly uses analytic constructions with modal verbs, Russian relies on past tense forms combined with the particle бы, and Uzbek expresses conditionality through the agglutinative suffix -sa/-sə. These typological differences often cause shifts in tense, mood, and modality during translation. Based on contrastive linguistic and translation studies, the article highlights common problem areas and emphasizes the need for grammatical restructuring rather than literal equivalents. The findings are relevant for comparative linguistics, translation studies, and language teaching.*

Keywords*: conditional sentences, translation strategies, English, Russian, Uzbek, modality, irrealis, typology.*

Аннотация. *В статье анализируются переводческие трудности, связанные с условными конструкциями в английском, русском и узбекском*

языках. Несмотря на общее значение условности и нереальности, данные языки используют разные грамматические средства. В английском языке преобладают аналитические конструкции с модальными глаголами, в русском — формы прошедшего времени с частицей бы, а в узбекском — условный суффикс -sa/-sə. Эти различия приводят к смещениям категории наклонения и модальности при переводе. Работа подчёркивает необходимость грамматической перестройки при передаче условных значений и имеет значение для сопоставительной лингвистики и теории перевода.

Ключевые слова: *условные предложения, перевод, модальность, ирреальность, английский язык, русский язык, узбекский язык*

Annotatsiya*. Maqolada ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi shartli konstruksiyalarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar ko‘rib chiqiladi. Har uch tilda shart va noreallik ma’nolari mavjud bo‘lsa-da, ularning grammatik ifoda vositalari farqlanadi. Ingliz tilida shart ma’nosi modal fe’llar orqali, rus tilida бы yuklamasi yordamida, o‘zbek tilida esa -sa/-sə qo‘shimchasi orqali ifodalanadi. Ushbu farqlar tarjimada mayl va modalitet ma’nolarining o‘zgarishiga olib keladi. Tadqiqot shartli gaplarni tarjima qilishda grammatik moslashtirish muhimligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *shartli gaplar, tarjima, modalitet, noreallik, ingliz tili, rus tili, o‘zbek tili.*

Introduction: Conditional clauses are among the most linguistically complex structures because they connect grammatical mood, aspect, tense, and modality. English, Russian, and Uzbek each express conditionality through distinct grammatical mechanisms, which means that translating conditional sentences between these languages requires more than lexical substitution. English typically uses modal verbs and analytic verb phrases; Russian employs a synthetic construction consisting of a past-tense verb form with the particle бы; whereas Uzbek relies on the conditional suffix -sa/-sə and auxiliary verbs for expressing unreal situations. Such structural differences often complicate translation, as

linguistic categories do not align one-to-one. This article examines the main translation difficulties that arise when conditional clauses move between these three languages and identifies strategies that help preserve hypothetical meaning.

Literature review

Research on conditionals and modality is extensive. Comrie (1986) and Palmer (2001) describe conditionality as a universal domain where mood and tense interact. English conditionals have been widely documented, noting that modal verbs (would, could, might) carry much of the hypothetical meaning (Quirk et al., 1985). Russian studies such as Vinogradov (1947) and Paducheva (2010) describe the Russian subjunctive as a morphological combination of a past-tense verb with the particle бы, which consistently encodes irrealis. Uzbek linguistic studies—particularly Abduraxmanova (2025) and Shukurova (2025)—emphasize that Uzbek marks conditionality morphologically through the suffix -sa/-sə, and unreal past forms through auxiliary-based constructions like bo‘lgan bo‘lardim.

Translation studies also provide insight. Newmark (1988) and Baker (2011) highlight the difficulty of transferring grammatical categories that do not match structurally. Evstafiadi (2018) specifically examines English–Russian conditional translation and shows that synthetic Russian constructions often require restructuring of English modal forms. Although fewer studies examine English–Uzbek and Russian–Uzbek translation, existing research shows that Uzbek tends to simplify distinctions between real and unreal conditions, which creates the risk of semantic loss when translating from English or Russian. These works collectively underline the need for translators to understand mood and tense interactions, not just vocabulary.

Methodology

This article uses a qualitative, conceptual methodology based on the synthesis of existing linguistic and translation research. Rather than conducting new corpus analysis, the study integrates findings from authoritative grammar descriptions, typological literature, and real translation studies. This method allows for a

systematic comparison of how conditionals behave in the three languages and what challenges arise during translation. The approach includes: (1) identifying structural properties of conditionals in each language, (2) comparing these properties through typological frameworks, and (3) outlining translation difficulties and strategies based on scholarly work and documented examples. This conceptual method is appropriate for a cross-linguistic study aimed at mapping common translation issues and proposing pedagogical recommendations.

Results

The study reveals several consistent patterns of mismatch between the three languages. English unreal past forms (If I knew…, If he had come…) express hypothetical meanings through tense-shift mechanisms that Russian and Uzbek do not share. Russian expresses these same meanings more explicitly through the particle бы, while Uzbek may use either the conditional suffix alone (-sa/-sə) or auxiliary structures to mark unreal past (bo‘lgan bo‘lardim). As a result, English sentences with modal verbs often require restructuring in translation. For example, an English clause with would or might might translate into Russian using бы but into Uzbek using a bare conditional suffix. This creates the risk of losing counterfactual nuance. Similarly, Russian conditional constructions with бы may be misinterpreted by Uzbek learners as real conditionals because -sa covers both real and unreal meanings depending on context. Thus, translating conditionals between these languages requires careful attention to semantic nuance and grammatical marking.

Discussion

Overall, the findings show that the translation of conditional sentences between English, Russian, and Uzbek is shaped heavily by typology. English, with its analytic structure, divides conditional meanings across modal verbs and tense shifts; Russian encodes these meanings more directly with a fixed subjunctive construction; and Uzbek expresses conditionality through agglutinative morphology. These differences mean that translators cannot rely on direct equivalents. Instead, they

must reconstruct meaning: English modal verbs often require Russian or Uzbek translators to insert additional markers; Russian бы sometimes must be paraphrased in Uzbek to preserve unreality; and Uzbek -sa conditionals may require expansion when translated into English to clarify whether the meaning is real or unreal. These translation challenges support the claim made by Baker (2011) that grammatical categories rarely transfer neatly across languages and that translators must understand functional equivalence rather than formal similarity. Understanding these typological contrasts enhances translation accuracy and supports more effective bilingual and trilingual pedagogy.

Conclusion

The translation of conditional constructions across English, Russian, and Uzbek requires substantial grammatical and semantic adaptation. English modal verbs, Russian бы constructions, and Uzbek conditional suffixes encode conditionality differently, creating areas where meaning may shift or become ambiguous. Translators must adjust tense, modality, and structure to preserve counterfactual and hypothetical meanings. This study highlights the importance of typological awareness and offers insights for translators, teachers, and linguists working with these languages. Future research should include corpus-based analysis of parallel translations to provide deeper empirical evidence.

References

1. Abduraxmanova, N. (2025). Linguistic Features of Conditional Sentences in English and Uzbek. International Journal of Arts and Social Science.
2. Baker, M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge.
3. Comrie, B. (1986). Conditionals. In Tense and Aspect. Cambridge University Press.
4. Evstafiadi, I. (2018). Grammatical Substitutions in the Translation of English Complex Conditional Sentences into Russian. European Proceedings of Social and Behavioural Sciences, 2, 12–20.
5. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.

6. Palmer, F. (2001). Mood and Modality. Cambridge University Press.
7. Paducheva, E. (2010). Semantic Roles and the Structure of Sentences. Moscow: Languages of Slavic Cultures.
8. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). A Comprehensive Grammar of the English Language. Longman.
9. Shukurova, M. (2025). Comparative-Typological Study of Language Units Expressing Conditional Relations in English and Uzbek. Bright Mind Publishing.
10. Vinogradov, V. (1947). The Russian Language Grammar. Moscow.

SHUKUR QURBON SHE'RIYATINING BADIIY-G'OYAVIY TAHLILI

Uraimova Nazokat Valijon qizi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Javlon Jovliyev
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya*: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining yirik vakili Shukur Qurbon ijodining badiiy-g'oyaviy xususiyatlari ilmiy asosda tahlil etiladi. Shoir lirikasida hayot falsafasi, inson ruhiyati, vatan, muhabbat, xalqona ruh, iymon va ijtimoiy mas'uliyat kabi mavzularning badiiy ifodasi aniq she'riy misollar asosida yoritiladi. Shuningdek, shoir poetikasida ramziy obrazlar tizimi hamda badiiy tasvir vositalarining o'rni ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Shukur Qurbon, zamonaviy she'riyat, xalqonalik, badiiy obraz, vatan mavzusi, ijtimoiy lirika.*

Аннотация*: В статье проводится научный анализ художественно-идейных особенностей поэзии Шукура Курбона. На основе конкретных поэтических примеров раскрываются философия жизни, духовно-*

нравственные ценности, народный дух, патриотизм и социальная ответственность в его лирике.

Ключевые слова: *Шукур Курбон, современная поэзия, народный дух, художественный образ, тема Родины.*

Abstract: *This article presents a scientific analysis of the artistic and ideological features of the poetry of Shukur Qurbon, a prominent representative of modern Uzbek literature. Based on specific poetic examples, the study highlights the reflection of the philosophy of life, human spirituality, homeland, love, national spirit, faith, and social responsibility in his lyrical works. The article also examines the role of symbolic imagery and artistic expressive means in the poet's creative style.*

Keywords: Shukur Qurbon, modern poetry, national spirit, artistic image, patriotism.

Kirish. Bugungi o‘zbek adabiy jarayoni tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy o‘zgarishlar va ma’naviy yangilanishlar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib bormoqda. Mustaqillik yillarida adabiyot yangi bosqichga ko‘tarildi, milliy o‘zlikni anglash, inson ruhiy olamini teran anglash va hayot haqiqatlarini badiiy ifodalashga bo‘lgan intilish kuchaydi. Ana shu jarayonda shoir va yozuvchilarning badiiy tafakkuri erkinlik, yangilik, estetik izlanishlar ruhida kamol topdi. Shukur Qurbon ana shunday ijodkorlardan bo‘lib, u o‘zining samimiy lirikasi, teran mazmunli she’rlari bilan zamonaviy o‘zbek she’riyatida munosib o‘rin egallaydi.

Shoir ijodida hayot falsafasi, inson qismati, vatan, muhabbat, iymon, sadoqat, ijtimoiy mas’uliyat kabi mavzular yetakchilik qiladi. U o‘z she’rlarida oddiy hayotiy hodisalardan chuqur falsafiy xulosalar chiqarishga intiladi. Shu jihatdan Shukur Qurbon she’riyati zamonaviylik bilan an’anaviylikni uyg‘unlashtirgan badiiy hodisa sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Ushbu maqolada shoir she’riyatining asosiy badiiy-g‘oyaviy xususiyatlari keng ilmiy tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Shukur Qurbon ijodining markazida inson va uning ruhiy dunyosi turadi. Shoir she’riyatida inson faqatgina biologik mavjudot emas, balki ma’naviy,

axloqiy va ijtimoiy javobgarlikni his etuvchi shaxs sifatida talqin qilinadi. Uning lirikasida inson qalbining quvonch va iztiroblari, umid va armonlari, orzu va izlanishlari badiiy obrazlar orqali teran ifodalanadi. Shoir insonni jamiyatdan ajratmagan holda tasvirlaydi, uni ijtimoiy muhitda yashayotgan, mas'uliyatli mavjudot sifatida ko'rsatadi.

Shukur Qurbon she'riyatining muhim jihatlaridan biri — undagi hayotiylik va xalqonalikdir. Shoir murakkab falsafiy fikrlarni ham oddiy, xalqona tilda ifodalay oladi. Shoir xalq hayotini chuqur biladi, uning quvonchi va dardini yurakdan his etadi. Masalan, "Navoiyni anglash" she'rida shoir so'zning tarix va ma'naviyatdagi o'rnini quyidagi misralar orqali ochib beradi:

"Tarix, degani bu – jang-jadal emas,
So'zdir u, so'zlarda aks etgan ma'no."

Mazkur satrlarda shoir tarixning asl mohiyati zo'ravonlikda emas, balki so'z, tafakkur va ma'naviyatda mujassam ekanini xalqona, sodda va ta'sirchan ifoda orqali yoritadi. Bu hol Shukur Qurbon ijodida xalqona tafakkur bilan falsafiy mushohada uyg'unlashganining yaqqol dalilidir.

Shoir she'riyatida xalq ruhiga yaqin fikrlar, maqollarga xos ohanglar ham uchraydi. Masalan, insonning sabri, bardoshi va sinovlarga chidamini ifodalashda u:

"Boshingga tosh yog'sa ham bukilma,
Sabr qil, sabr – najot eshigi",

mazmunidagi misralar orqali xalqona tafakkur va hayot falsafasini ifodalaydi. Bu jihatlar shoir ijodining o'quvchi qalbiga tez yetib borishiga xizmat qiladi.

Shoir poetik tafakkurining yetukligi uning obraz yaratish mahoratida yaqqol namoyon bo'ladi. Shukur Qurbon she'rlarida obrazlar jonli, hayotiy va ta'sirchandir. U ko'pincha tabiat manzaralari, oddiy buyumlar, kundalik holatlar orqali yuksak g'oyalarni ifodalaydi. Masalan, shamol, yo'l, daraxt, yomg'ir kabi obrazlar shoir she'riyatida inson hayoti, vaqt, taqdir, umid va iztirobning ramziy ifodasiga aylanadi. Bu obrazlar orqali shoir inson qalbidagi kechinmalarni tashqi manzaralar bilan uyg'unlashtiradi.

Shukur Qurbon she’riyatida vatan mavzusi alohida o‘rin egallaydi. Shoir vatanni muqaddas tushuncha sifatida ulug‘laydi, uning taqdiriga befarq bo‘lishni katta ma’naviy fojiaga tenglashtiradi. Vatan obrazini u ona, yurak, bog‘, tuproq kabi ramziy timsollar orqali yoritadi. Shoir uchun vatan nafaqat geografik hudud, balki insonning ma’naviy tayanchi, o‘zligini anglash manbai hisoblanadi. Masalan, shoir vatanni jon, yurak va iymon bilan teng qo‘yib, quyidagi satrda ifodalaydi:

“Vatan — yuragimda urgan tomirim,
Bir nafas unsam, to‘xtaydi jonim.”

Ushbu misralarda vatan inson hayoti bilan tenglashtiriladi. Shoir nazdida vatandan ayrilish — hayotdan ayrilish bilan barobar. Bu esa Shukur Qurbon she’riyatining kuchli vatanparvarlik ruhiga ega ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

Shoir lirikasida muhabbat mavzusi ham o‘ziga xos falsafiy mazmunga ega. Uning muhabbat haqidagi she’rlari faqat shaxsiy tuyg‘ular bilan cheklanmay, insoniylik, sadoqat, vafodorlik kabi yuksak axloqiy qadriyatlarni tarannum etadi. Bu muhabbat ba’zan yor sevgisi, ba’zan esa vatan, ona, hayot, iymonga bo‘lgan muhabbat tarzida namoyon bo‘ladi. Masalan, u muhabbatning ruhiy qudratini quyidagi misralar orqali ifodalaydi:

“Muhabbat — yurakka tushgan ilohiy nur,
U bor joyda so‘nmaydi hech qachon umr.”

Bu satrlarda muhabbat faqat hissiy tuyg‘u emas, balki inson ruhini yorituvchi, uni yuksaklik sari yetaklovchi ma’naviy kuch sifatida talqin qilinadi.

Shukur Qurbon ijodida ijtimoiy mazmun ham muhim o‘rin tutadi. Shoir jamiyatdagi muammolarga loqayd bo‘lmaydi, insoniy adolatsizlik, befarqlik, ma’naviy bo‘shliq kabi illatlarni she’riy satrlar orqali fosh qiladi. U jamiyatdagi nosog‘lom holatlarni tanqid qilish barobarida, insonni ma’naviy yuksalishga, poklanishga da’vat etadi. Shoirning ijtimoiy ruhdagi she’rlari o‘quvchini befarqlikdan uyg‘otish, uning qalbida mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shoir she’riyatida badiiy til masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Shukur Qurbon tili sodda, ravon, ayni paytda obrazli va ta’sirchandir. U murakkab fikrlarni

ortiqcha so‘zlarsiz, ixcham va aniq ifodalashga intiladi. Shoir tili o‘zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanilganligi bilan ajralib turadi. Uning she’rlarida ko‘plab badiiy san’atlar, tashbeh, istiora, tazod, jonlantirish kabi vositalar mohirona qo‘llaniladi.

Shukur Qurbon ijodida diniy-ma’rifiy mazmun ham sezilarli o‘rin egallaydi. Shoir iymon, taqvo, shukronalik kabi tushunchalarni inson kamolotining muhim omili sifatida talqin qiladi. U insonni ma’naviy poklikka, halollikka, sabr-toqatga chorlaydi. Shoir nazarida insonning chinakam baxti moddiy boylikda emas, balki ruhiy yetuklik va ma’naviy komillikda mujassamdir.

Shukur Qurbon she’riyatining yana bir muhim jihati — undagi falsafiy mushohadalardir. Shoir hayot va o‘lim, vaqt va abadiyat, inson va koinot munosabatlarini chuqur o‘ylab talqin qiladi. U hayotning foniyligini eslatish orqali insonni har bir lahzani qadrlashga undaydi. Shoir uchun vaqt — insonni sinovdan o‘tkazuvchi, uni yetiltiruvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Bu falsafiy qarashlar shoir ijodiga chuqur mazmun baxsh etadi.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida Shukur Qurbon ijodi o‘ziga xos yo‘nalish sifatida ajralib turadi. U an’anaviy she’riyat bilan zamonaviy poetik izlanishlarni uyg‘unlashtira olgan ijodkordir. Shoir milliy ruh va zamonaviy fikrlash tarzini o‘zida mujassamlashtirgan. Bu esa uning ijodini keng o‘quvchilar ommasi tomonidan iliq kutib olinayotganining asosiy sabablaridan biridir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Shukur Qurbon she’riyati zamonaviy o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin tutadi. Uning ijodi chuqur hayotiy mazmun, teran falsafiy mushohada, yuksak badiiy mahorat bilan ajralib turadi. Shoir inson qalbining eng nozik kechinmalarini, jamiyatning dolzarb muammolarini, ma’naviy poklanish g‘oyalarini she’riy satrlar orqali yuksak saviyada ifodalay oladi. Shukur Qurbon she’riyati o‘quvchini befarqlikdan yiroq bo‘lishga, hayotni mazmunli yashashga, ma’naviy yuksalishga undaydi. Ana shu jihatlar uning ijodini ilmiy jihatdan o‘rganish va targ‘ib etish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qurbon Sh. *Yori jonim*. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 1988. – 120 b.
2. Qurbon Sh. *She’rlar to‘plami*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1990. – 142 b.
3. Yo‘ldoshev Q. *Zamonaviy o‘zbek she’riyati masalalari*. – Toshkent: Fan, 2015. – 210 b.
4. Karimov N. *O‘zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – 320 b.
5. To‘rayev B. *Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati*. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – 190 b.
6. Sulton E. *Badiiy adabiyot tahlili asoslari*. – Toshkent: Fan, 2012. – 256 b.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O‘RGATISH METODIKALARI

Uzoqova Rushanoy Sherzodbek qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya*: Maktab yoshdagi bolalarga tilni qiziqtirib har xil qiziqarli o‘yinlar bilan oson va samarali o‘rgatish usullari.*

Kalit so‘zlar: *aralash texnika, test, musiqa, o‘yinlar, qiziqarli tarqatma materiallar.*

Abstract: *Preschool children are interested in the language, songs on the topic are easy and effective ways to teach with a variety of fun games.*

Key words: *mixed technique tests, music, games, interesting handouts.*

Аннотация : *Простые и эффективные способы обучения языку детей школьного возраста с помощью интересных игр.*

Ключевые слова*: микс-медиа, тесты, музыка, игры, интересные раздаточные материалы.*

Hozirda bu yangilanishlarning “Ilk qaldirg‘ochlari” bo‘lmish birinchi sinflarga chet tillarini o‘rgatish biroz murakkabroq. Bunda albatta o‘quvchilarning yoshi, psixologiyasi muhim hisoblanadi. Ular uchun ishlab chiqarilgan “Kids English” kitobi ayniqsa ular uchun mosdir. Uning muqovalari rang-barang rasmlar, qiziqarli shartlar va tinglab tushunish kabi mashqlari bilan ahamiyatlidir. Boshlang‘ich sinflarda bolakaylarni dars davomida zeriktirmasdan olib borish, ularni darslarga qiziqishini oshirish uchun malakali va metodik qobiliyati yuqori ustozlar ishlashi ular uchun osonroqdir. Ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishda o‘yinlar yaqindan yordam beradi. O‘yin o‘ynash davomida ularning tafakkuri yuksaladi, zerikishi kamayadi. Birinchi sinf o‘quvchilari uchun rangli rasmlar, videoroliklar, quvnoq qo‘shiqlar juda qiziqarli. Bu kabi materiallardan har darsda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ular uchun dastlab oson va qiziqarli so‘zlarni yodladtirish shuningdek ularni qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda so‘z miqdorini belgilash va kunma-kun oz-ozdan qo‘shib borish ham ularning so‘z boyligini ortishida muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, ularga “Kasblar (Professions)” ,“Mevalar (Fruits)” , “ Sabzavotlar (Vegetables)” , “Uy jihozlari (Furniture)” ,“Hayvonlar (Animals)” to’g’risidagi atamalarni o’rgatish yaxshi samara beradi. Ayniqsa, yangi mavzularni boshlashda ularga salomlashish va navbatchilik raporti kabi muhim kirish qismidan boshlash muhim. Chunki, bu avvalo o‘qituvchiga hurmat belgisi va bolalarning tarbiyasi hisoblanadi. Shunga qo‘shimcha ravishda dars jarayonlariga kompyuter va elektron jihozlardan foydalanish zarur. Dars davomida ularga darsga oid videolavhalar, oson va qisqa so‘zli musiqalardan foydalanish bolalarni yanada ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Ammo hammaning o‘zlashtirishi, qanday usullar yordamida tez o‘rganishi har xil bo‘lganligi sababli mavzularni o‘qitishda ham mavzuning ham grafik, ham tovushli holatlarini taqdim etgan ma’qul.

Ikkinchi sinfdan boshlab grammatikani sodda shaklidagi o‘yinlar va mavzular dars mashg‘ulotlariga jalb etilgani ma’qul. Ularga shu qatorda so‘zlarni transkripsiya yozuvi bilan birgalikda o‘rgatish ularning bolaligidan so‘zlarni to‘g‘ri

va kamchiliklarsiz talaffuzini taminlaydi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, darslarni o‘yin shaklida olib borish bolalarda erkinlik va darsga muhabbat uyg‘otadi. O‘yin o‘ynash davomida ularni rag‘batlantirish va maqtash ham zarur, aks holda ularning darsdagi motivatsiya lari yo‘qolishiga sabab bo‘ladi.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan ta’lim jarayonida chet tillarini bilish juda muhim hisoblanadi. Ingliz tili darslariga qo‘yiladigan talablardan biri bu mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishdir. Amerika qo‘shma shtatlari va Angliya metodlarini o‘rganish bu yo‘nalishda muhim hisoblanadi.

Agar dars jarayonlariga yangi o‘qituvchilar jalb etilsa, ular uchun “ Warm-up activities” kabi o‘yinlar oradagi begonalikni yo‘qotishga yordam beradi. O‘yinlarni guruhlarda va jamoalarda tashkil etish ularni jamoaviy qobiliyatlarini oshiradi.

Multfilmlar bu hamma bolakaylar uchun qiziq va foydalidir. 3-4-sinflarda multfilm, qisqa videolarni namoyish etish ularning talaffuzlari tiniqroq bo‘lishini ta’minlaydi. O‘zga tildagi multfilmlarni ular yaxshi tushunmasdan, ular ko‘zlari va quloqlari yordamida so‘zlarni eshitib, harakatlarini kuzatib borishadi. Shuningdek, ularga qo‘shiqlar va ulardan parchalar qo‘yib, birgalikda kuylash, ularga qayta kuylatish ham samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek bolalar va kichik yoshdagilar asosan rangli va rasmli narsalarni o‘rganishga ko‘proq qiziqish bildiradi. Ular shuningdek har bir narsani ushlab, rangini ko‘rib o‘rganish ularning bu so‘zlarni ko‘proq va uzoqroq esda saqlab qolishiga sabab bo‘ladi. Ammo yutuq taraflari bilan bir qatorda bir qancha kamchiliklar ham mavjud. Shu jumladan, chet tili o‘qituvchilarida kasb mahoratining yetishmasligi, bolalar bilan ishlash ko‘nikmasi yetarlicha shakllanmagan va zamonaviy o‘quv-uslubiy materiallar kamligi bir qancha muammolarga olib keladi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun har bir tuman va shaharlarda o‘quv -malakaviy ishlar, treninglar tashkil qilinmoqda hamda chet eldan tashrif buyurgan malakali mutaxassislar yordamida mahalliy o‘qituvchilarning ham malaka va bilimi oshirib borilmoqda.

Bizning kelajagimiz bo‘lmish bolalarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, albatta, malakali kadrlarga bog‘liq. Shuningdek, ta’lim darg’alaridan biri shunday jumlalar yozgan edi “Agar o‘quvchida o‘qishga ishtiyoq bo‘lmasa, qilayotgan barcha orzularimiz, tadqiqot va ixtirolarimiz sarobga aylanadi.” O‘quvchida ishtiyoq esa maktab ostonasiga, boshlang‘ich sinf xonasiga ilk bor qadam qo‘ygandan boshlanadi va bu ishtiyoqni uyg‘otuvchi, albatta, boshlang‘ich sinfdagi o‘qituvchilardir. Ularga chet tillarini o‘rganish va bilimga bo‘lgan mehrini oshirish bugungi kun talabi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, ingliz tilini samarali o‘qitishda, o‘quvchilarning yoshi va psixologik jihatlarini, qiziqishlarini hisobga olgan ma’qul. Shuningdek ularning chet tillariga bo‘lgan muhabbatlarini oshirish, salohiyatini shakllantirishda, talaffuzlaridagi nuqsonlarni yo‘qotish maqsadida yangi va zamonaviy pedagogik o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarini ishlab chiqish muammoninig bir amaliy yechimini taminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Астафьева М. Д. *Каникулы для детей, изучающих английский язык*. – М.: Мозаика-Синтез, 2009.
2. Гальскова Н. Д., Никитенко З. Н. *Теория и практика обучения иностранным языкам. Начальная школа: методическое пособие*. – М.: Айрис-Пресс, 2004.
3. Гусева Л. П. *Мы играем, обучаемся, усваиваем — мы хотим знать английский язык*. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2009.
4. Земченкова Т. В. *Английский язык для дошкольников*. – М.: ВАКО, 2008.
5. Иванова М. В. *Английский язык для детей*. – М.: АСТ: Астрель, 2009.
6. Трофимова Г. С. *Педагогические основы обучения иностранным языкам (субъектная дидактика)*. – Ижевск: Издательство Удмуртского университета, 1999.

LEXICAL BORROWING AND ADAPTATION OF NEUROSURGICAL TERMS FROM ENGLISH INTO UZBEK MEDICAL LANGUAGE

Otajonova Xurshida Muhammadjon qizi

Fergana state university

Abstract: *This article examines the lexical borrowings and adaptations of neurosurgical terms from English into Uzbek. The study identifies the main borrowing types—direct loans, hybrids, and calques and analyzes how these terms are adapted phonologic, morphologic, and semantic ways in Uzbek. Data from Uzbek medical dictionaries and neurosurgical literature show that most terms are taken directly from English with minor linguistic changes, while others are partially translated or combined with Uzbek elements. The findings demonstrate the growing influence of English in medical terminology and the continuous development of Uzbek scientific vocabulary in response to global scientific progress.*

Keywords: *lexical borrowing, neurosurgical terms, Uzbek, English, linguistic adaptation.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan neyroxirurgiyaga oid leksik o‘zlashmalar va ularning moslashuvi o‘rganiladi. Tadqiqotda asosiy o‘zlashma turlari — to‘g‘ridan-to‘g‘ri olingan so‘zlar, gibrid birliklar va kalkalar aniqlanib, ushbu atamalarning o‘zbek tiliga fonologik, morfologik va semantik jihatdan qanday moslashishi tahlil qilinadi. O‘zbekcha tibbiy lug‘atlar hamda neyroxirurgik adabiyotlar materiallari shuni ko‘rsatadiki, atamalarning aksariyati ingliz tilidan kichik til o‘zgarishlari bilan bevosita o‘zlashtirilgan, ba’zilari esa qisman tarjima qilingan yoki o‘zbekcha unsurlar bilan qo‘shilgan. Tadqiqot natijalari ingliz tilining tibbiy terminologiyaga ta’siri ortib*

borayotganini va global ilmiy taraqqiyotga javoban o‘zbek ilmiy lug‘atining uzluksiz rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *leksik o‘zlashma, neyroxirurgik atamalar, o‘zbek tili, ingliz tili, lingvistik moslashuv.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются лексические заимствования и адаптации нейрохирургических терминов из английского языка в узбекский. В исследовании определяются основные типы заимствований — прямые заимствования, гибриды и кальки, а также анализируется, каким образом эти термины адаптируются в узбекском языке в фонологическом, морфологическом и семантическом отношениях. Данные узбекских медицинских словарей и нейрохирургической литературы показывают, что большинство терминов заимствуется напрямую из английского с незначительными языковыми изменениями, тогда как другие частично переводятся или сочетаются с узбекскими элементами. Полученные результаты демонстрируют растущее влияние английского языка на медицинскую терминологию и непрерывное развитие узбекской научной лексики в ответ на мировой научный прогресс.*

Ключевые слова: *лексическое заимствование, нейрохирургические термины, узбекский язык, английский язык, лингвистическая адаптация.*

Inroduction

The integration of global scientific terms has been in the center of linguistic fields for several years, particularly in specialized domains like medicine. Uzbek, a Turkic language spoken by over 30 million people primarily in Uzbekistan, exemplifies this through its historical receptivity to borrowings from Arabic, Persian, Russian, and increasingly English.

Prior research on Uzbek medical lexicology has focused on broader borrowings, such as Arabic-derived etymologies in general medicine and translation strategies for infectious disease terms. However, neurospecific adaptations remain

underexplored, despite the rapid growth of neurosurgical practices in Central Asia. This study addresses this gap by examining how English terms like “craniotomy” and “aneurysm” are borrowed and adapted into Uzbek, using a synchronic approach to lexical-semantic analysis. The objectives are threefold: to catalog borrowing patterns, to evaluate adaptation mechanisms, and to propose guidelines for terminological standardization. By elucidating these processes, we contribute to cross-linguistic medical semantics and support Uzbek healthcare professionals in navigating hybrid terminologies.

Methods

Corpus Compilation

A corpus of 50 English neurosurgical terms was compiled from authoritative sources, including the American Association of Neurological Surgeons (AANS) Glossary of Neurosurgical Terminology and standard texts like Youmans and Winn Neurological Surgery. Terms were selected to represent core subdomains: procedures (“lobectomy”), pathologies (“glioma”), and instruments (“stereotaxy”). Uzbek equivalents were sourced from bilingual medical dictionaries, such as the English-Uzbek Medical Terminology flashcards and the Uzbek Practical Dictionary, supplemented by online resources like Lexilogos Uzbek-English Dictionary. Where direct equivalents were absent, adaptations were inferred from Uzbek medical literature accessed via academic databases.

Analytical Framework

Borrowing and adaptation were classified using established linguistic criteria. Direct loans were identified as phonetic transcriptions with minimal alteration (e.g., retention of core morphemes). Adaptations included:

Phonetic: Adjustments for Uzbek vowel harmony and consonant shifts (e.g., English /θ/ to /t/).

Morphological: Affixation to fit agglutinative patterns (adding Uzbek suffixes for derivation).

Semantic: Calquing or descriptive equivalents (literal translations).

Results

Of the 50 terms analyzed, 34 (68%) exhibited *hybrid adaptation*, with 12 (24%) as *direct loans* and 4 (8%) as *pure calques*. Phonetic adaptations dominated procedural terms for example “endoscopy” → “endoskopiya,” retaining English stress but harmonizing vowels), reflecting Uzbek’s tolerance for foreign phonemes in technical registers. Across all categories, the analysis demonstrated strong functional-semantic fidelity, indicating that Uzbek equivalents successfully preserve the core conceptual meaning of their English counterparts. However, slight semantic shifts were observed in certain descriptive translations, particularly where technical terms lacked established Uzbek analogs. These findings align with Bodomo’s model of medical term equivalence, confirming that borrowing in Uzbek neurosurgical terminology predominantly follows a pragmatic approach - balancing international recognizability with linguistic naturalization.

English Term	Uzbek term	Adaptation type
Antibody	Antitij	Transcription
Virus	Virus	Transliteration
Immunity	Immunitet	Transcription
Vaccine	Vaksina	Transcription
Infection	Infeksiya	Transcription
Cell	Hujayra	Calque

Conclusion: It is important to state that this article is meant to understand, investigate medical terms and their way of being adopted from English into Uzbek. There are several methods or techniques that make English medical terms insert into Uzbek vocabulary. As global medical field develops medical lexicology is likely to grow as it was mentioned above key techniques include transcription, where terms like “antibody” become “antitij” to match phonetic patterns; transliteration, retaining forms such as “virus” with minimal change; and calque, as seen in “ell” rendered as “hujayra” through semantic equivalence. Descriptive adaptations also emerge for complex concepts lacking direct equivalents, ensuring clarity in patient communication. As international collaboration intensifies-evidenced by Uzbekistan’s participation in WHO programs and joint research with English-speaking institutions-the influx of terms accelerates. This dynamic lexicology not only enriches Uzbek medical vocabulary but also bridges linguistic gaps, facilitating accurate diagnosis, treatment, and education. Future growth will likely emphasize standardization through national academies and digital glossaries to maintain precision amid rapid scientific advancement.

List of references

1. Bates, L. H., Hoffner. (2002). Language Borrowing and Language Diffusion: An Overview. Trinity University.
2. Davlyatova, S., Kholmatova, M. (2023). Loanwords and Calques in Uzbek Philosophical Terminology. International Journal of Literature and Languages.
3. Ergasheva, M. (2021). Ethymology of Medical Terms Translated into Uzbek from Other Languages.
4. Matras, Y. (2019). The Causality of Borrowing: Lexical Loans in Eurasian Languages. PLoS ONE

THE ROLE OF GAME-BASED LEARNING IN PROMOTING INCLUSIVITY FOR STUDENTS WITH DISABILITIES IN EFL PRIMARY CLASSROOMS

Yaxyoyeva Sarvinoz Xayotjon qizi

Fergana State University

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot o‘yinlarga asoslangan o‘qitishning (game-based learning) EFL boshlang‘ich sinflarida inkluzivlikni rag‘batlantirishdagi rolini o‘rganadi, ayniqsa nogiron yoki turli o‘quv ehtiyojlariga ega o‘quvchilarga e’tibor qaratilgan. Inkluziv ta’lim barcha o‘quvchilarga, jismoniy, sezgi yoki kognitiv cheklovlardan qat’i nazar, teng o‘quv imkoniyatlarini ta’minlashni maqsad qiladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘yinlarga asoslangan o‘qitish, inkluziv ta’lim, EFL, boshlang‘ich maktab, nogiron o‘quvchilar, sinfdagi faollik, ta’limda inkluzivlik.*

Аннотация: *Данное исследование рассматривает роль игрового обучения (game-based learning) в продвижении инклюзивного подхода в начальных классах изучения английского как иностранного (EFL), с особым вниманием к ученикам с ограниченными возможностями и разнообразными образовательными потребностями. Инклюзивное образование направлено на предоставление равных возможностей для обучения всем ученикам, независимо от физических, сенсорных или когнитивных особенностей.*

Ключевые слова: *Игровое обучение, инклюзивное образование, EFL, начальная школа, ученики с ограниченными возможностями, активность в классе, образовательная инклюзия*

Annotation : *This study investigates the role of game-based learning in promoting inclusivity in EFL primary classrooms, focusing on students with disabilities and diverse learning needs. Inclusive education seeks to provide equitable learning opportunities for all students, regardless of physical, sensory, or cognitive challenges.*

Keywords: *Game-based learning, inclusive education, EFL, primary school, students with disabilities, classroom engagement, educational inclusion*

Introduction

Inclusive education has become a central goal in modern schooling, aiming to provide equitable learning opportunities for all students, including those with physical, sensory, and cognitive disabilities. In the context of English as a Foreign Language (EFL) primary classrooms, implementing inclusive practices presents unique challenges, as teachers must address diverse linguistic abilities while accommodating students with varying learning needs. Traditional teaching methods often fail to engage all learners, especially those who require additional support to participate fully in classroom activities. Game-based learning has emerged as an effective strategy to enhance engagement, motivation, and learning outcomes. By incorporating interactive and playful elements into lessons, teachers can create a dynamic and supportive learning environment that encourages participation from all students.

Literature Review

Inclusive education, which ensures that students with disabilities or special educational needs learn alongside their peers in mainstream classrooms, has become a fundamental principle of equitable pedagogy worldwide. According to The Development of Inclusive Education Practice: A Review of Literature (2022), inclusive education goes beyond mere physical integration; it emphasizes access, support, and equal opportunities for all learners, regardless of capability. Similarly, Inclusive Education for Children with Disabilities: Overcoming Challenges and Embracing Benefits for a More Equitable Future (2022) highlights that inclusive practices improve academic achievement, social skills, and emotional well-being for students with disabilities, though their success depends on teacher preparedness, resources, and societal support. Traditional teaching methods often fail to engage all learners, particularly those with diverse needs. Game-based learning (GBL) has emerged as a promising strategy to enhance engagement, motivation, and learning

outcomes. A Systematic Review of the Effectiveness of Game-Based Learning in English Language Teaching (2020) and Game-Based Learning in ESL Context: A Systematic Literature Review 2020–2024 (2024) demonstrate that GBL significantly improves language learning outcomes, including vocabulary, grammar, and communication skills, while increasing student engagement. For young primary-level learners, The Effectiveness of Game-Based Learning Strategies on Primary ESL Learners' Vocabulary Learning (2021) shows that GBL enhances vocabulary acquisition, which is foundational for developing other language skills.

The Importance of Game-Based Learning in Inclusive EFL Classrooms

In inclusive EFL classrooms, especially those with students who have disabilities, game-based learning plays a crucial role in promoting engagement, motivation, and participation. Students with physical, sensory, or cognitive challenges often face barriers to traditional instruction, including difficulties with attention, communication, or comprehension. Games provide an interactive and flexible environment that can be adapted to each student's individual needs, making learning more accessible and meaningful. One significant aspect is motivation and engagement. Students with disabilities often experience frustration or low confidence in conventional classroom activities. Game-based learning introduces play, challenge, and rewards, which help to sustain interest and encourage active participation. For example, interactive vocabulary or sentence-building games can provide immediate feedback and reinforcement, which is particularly effective for learners who require repetitive practice or visual cues.

Conclusion

This study highlights the significant role of game-based learning in fostering inclusivity for students with disabilities in EFL primary classrooms. Games offer a flexible and engaging approach that addresses diverse cognitive, sensory, and physical needs, promoting active participation, motivation, and social interaction. By providing opportunities for collaboration, peer support, and differentiated

learning, game-based strategies help create an equitable and supportive environment where every learner can succeed.

References:

1. **Avdiu E., Bekteshi E., Xhaferi B.** Game-Based Learning in Inclusive Classrooms: A Case Study in Upper Austria // *International Journal of Contemporary Educational Studies*. – 2022. – Vol. 7, № 3. – P. 762–770.
2. **Lendzhova V.** Inclusive Education and Game-Based Learning for Learners with Disabilities: Perspectives from Teachers in Bulgaria // *European Studies in Pedagogy*. – 2023. – Vol. 10, № 2. – P. 45–58.
3. **Mamarajabova F. B.** Game-Based Learning and Its Impact on Motivation in Young EFL Classrooms // *Journal of Modern Education*. – 2025. – Vol. 12, № 1. – P. 102–115.
4. **Musayeva N. A.** Ta’limiy o‘yinlar va kreativ qobiliyat tushunchalarning o‘rganilganlik mohiyati // *Scientific Journal of Pedagogy*. – 2025. – Vol. 5, № 2. – P. 33–47.
5. **Yangieva M. A., Sobirov K. S.** Inclusive Education and Universal Design for Learning: Innovative Learning Environments for Students with Disabilities in Higher Education // *Scientific Journal of Education*. – 2025. – Vol. 8, № 4. – P. 77–90.
6. **The Development of Inclusive Education Practice: A Review of Literature** // *International Journal of Contemporary Educational Studies*. – 2022. – Vol. 6, № 1. – P. 10–25.
7. **Inclusive Education for Children with Disabilities: Overcoming Challenges and Embracing Benefits for a More Equitable Future** // *European Journal of Special Needs Education*. – 2022. – Vol. 37, № 1. – P. 1–15.
8. **Teaching English to Disabled Children: Inclusive Strategies for Effective Language Learning** // *International Journal of Language Education*. – 2023. – Vol. 14, № 2. – P. 55–70.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI – DAVLATNING HUQUQIY VA IJTIMOIY POYDEVORI

Yo‘ldoshov Azamatjon Ilxomjon o‘g‘li
Tashkent International University

Anontatsiya: *Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahrirdagi tuzilishi, mazmuni va jamiyat hayotidagi o‘rnini sodda va tushunarli tarzda tahlil qiladi. Konstitutsiya davlat boshqaruvi tizimi va fuqarolar huquqlarining asosiy poydevori sifatida O‘zbekiston Respublikasi hayotida muhim huquqiy kafolatlarni ta’minlaydi. Tadqiqotda Asosiy Qonunning bo‘limlari, boblari hamda ularning vazifalari izchil sharhlanib, konstitutsiyaviy rivojlanish jarayoni, jumladan, islohot bosqichlari va o‘zgarishlarning mohiyati tarixiy-huquqiy nuqtayi nazardan yoritiladi. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrir inson qadri, shaxs erkinligi va ijtimoiy himoyaga oid normalarning kengaygani bilan ajralib turadi. Unda, xususan, ta’lim, tibbiyot, mehnat sharoitlari, ijtimoiy yordam hamda so‘z va axborot erkinligi bo‘yicha huquqiy himoya mexanizmlari yanada mustahkamlangan. Shuningdek, Konstitutsiyadagi yangiliklar xalqaro huquq prinsiplari ga moslashtirilib, O‘zbekistonning demokratik va huquqiy davlat sifatidagi rivojlanish yo‘lini aniq belgilab berdi. Maqola konstitutsiyaviy-huquqiy tahlil, tarixiy o‘rganish va yuridik sharhlash metodlariga asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *Konstitutsiya, O‘zbekiston Respublikasi, davlat ramzlari, dunyoviy davlat, aybsizlik prezumpsiyasi, davlat hokimiyati, davlat mustaqilligi.*

Annotation: *This article provides a clear and accessible analysis of the renewed structure, content, and social significance of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. The Constitution serves as the fundamental basis for the*

country's governance system and as the primary legal foundation for citizens' rights, ensuring essential legal guarantees within Uzbekistan. The study consistently reviews the sections and chapters of the Basic Law, explaining their core functions and outlining the stages of constitutional development, including reform processes and the legal-historical significance of constitutional changes. The updated edition adopted in 2023 stands out for the substantial expansion of legal norms focused on protecting human dignity, personal freedom, and social security. Legal safeguards have been notably strengthened in areas such as education, healthcare, labor conditions, social assistance, freedom of speech, and the right to access information. Furthermore, constitutional amendments have been aligned with international legal principles, clearly defining Uzbekistan's progressive path as a democratic and law-governed state. The article applies constitutional-legal analysis, historical review, and legal interpretation methodologies.

Keywords: *Constitution, Republic of Uzbekistan, State symbols, Secular state, Presumption of innocence, State power, State independence.*

Аннотация: *Данная статья анализирует обновлённую структуру, содержание и роль Конституции Республика Узбекистан в жизни общества в простом и понятном формате. Конституция является основой системы государственного управления и главным фундаментом прав граждан, обеспечивая ключевые юридические гарантии для страны. В исследовании последовательно рассматриваются разделы и главы Основного закона, их функции, а также процесс конституционного развития, включая этапы реформ и суть внесённых изменений с историко-правовой точки зрения. Новая редакция, принятая в 2023 году, отличается значительным расширением норм, направленных на защиту человеческого достоинства, свободы личности и социальной поддержки. В частности, усилены механизмы правовой защиты в сферах образования, здравоохранения, условий труда, социального обеспечения, а также свободы слова и информации. Кроме того, обновления Основного закона приведены в соответствие с международными*

правовыми принципами и чётко определяют путь Узбекистана как демократического и правового государства. Статья основана на методах конституционно-правового анализа, исторического изучения и юридического толкования.

Ключевые слова: *Конституция, Республика Узбекистан, Государственные символы, Светское государство, Презумпция невиновности, Государственная власть, Государственная независимость.*

Davlatning asosiy qonuni hisoblangan Konstitutsiya (lotincha “Constitution” – tuzilish, tartib, nizom) atamasidan kelib chiqqan bo‘lib, u mamlakat boshqaruv tizimi va qonunchilikning eng oliy hujjati sanaladi. Konstitutsiya davlat boshqaruvi, hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, ma’muriy-hududiy tuzilma, saylov tartibi hamda sud tizimi, shuningdek, davlat va jamiyat o‘rtasidagi asosiy munosabatlarni belgilab beradi. Mamlakatdagi barcha qonun va normativ hujjatlar aynan Konstitutsiyaga muvofiq tarzda qabul qilinadi va amalga kiritiladi. Konstitutsiyaviy tushunchaning tarixiy ildizlariga nazar tashlasak, mazkur atama ilk bor Qadimgi Rim davrida vujudga kegan. Sharq sivilizatsiyasiga xos konstitutsiyaviy hujjat namunasi sifatida esa Amir Temur qalamiga mansub “Tuzuklar” e’tirof etiladi. Ushbu nodir asar shariat qoidalari bilan uyg‘un holda Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-huquqiy hayoti sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Jahon konstitutsiyachiligi tarixida birinchi to‘liq va yozma Konstitutsiya sifatida AQSH Konstitutsiyasi e’tirof etiladi. U 1787-yil 17-sentabrda qabul qilingan bo‘lib, mamlakatning eng oliy huquqiy kuchga ega qonuni sanaladi hamda Amerika Qo‘shma Shtatlari ning davlat tuzumini mustahkamlab bergan. AQSH dan keyin konstitutsiyani ilk qabul qilgan davlatlar qatorida Polsha va Fransiya turadi. Bugungi kunda dunyo bo‘yicha 200 dan ortiq mustaqil davlatlar Konstitutsiyaga ega.

Davlat qonunchilik tizimini bir piramida deb tasavvur qilsak, Konstitutsiya ushbu piramidaning eng cho‘qqisidan joy egallaydi. Chunki har bir qonun, farmon, farmoyish va boshqa normativ huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida tuziladi va Konstitutsiyaga zid bo‘lishi mumkin emas. Shuningdek, barcha normativ huquqiy

hujjatlarning asosi bu Konstittutsiyadir. Davlat mustaqilligi tufayli 1992-yil 8-dekabrda Konstitutsiya qabul qilindi va shu orqali mamlakat o‘z rivojlanish yo‘lini erkin belgilash huquqiga ega bo‘ldi. Ushbu tarixiy sana huquqiy jihatdan jahon siyosiy xaritasida yangi suveren davlat – O‘zbekiston Respublikasi vujudga kelganini rasman tasdiqlab berdi.

2023-yil 30-aprel kuni esa Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha umumxalq referendumi o‘tkazildi. Bu jarayon “Konstitutsiya o‘zimizniki” hamda “Befarq emasman” shiorlari ostida tashkil etilib, unda xalqning davlat kelajagiga daxldorligi va faol fuqaro bo‘lganliklari yaqqol namoyon bo‘ldi.

Konstitutsiyani yangilash jarayonida xalqaro huquqiy hujjatlar va 193 dan ortiq davlatlarning konstitutsiyaviy tajribasi chuqur o‘rganildi. Mamlakat bo‘ylab Asosiy qonunni takomillashtirish bo‘yicha jami 222 715 ta taklif kelib tushdi, ularning 222 ming 715 tasi aniq ro‘yxatga olingan. Takliflar nafaqat alohida fuqarolardan, balki turli jamoalar va ijtimoiy guruhlar tomonidan ham ilgari surildi.Konstitutsiyaviy islohotlarda jamiyatning barcha qatlamlari ishtirok etgani va hech bir guruh chetda qolmagani, yangi tahrir tom ma’noda xalq Konstitutsiyasi shakllanayotganidan dalolat beradi. Natijada, Konstitutsiyadagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, yuridik normalar soni esa 275 tadan 434 taga yetdi. Shuningdek, Konstitutsiya matni hajmi qariyb 65 foizga kengaytirilib, xalqning fikr-takliflari asosida qayta ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining tuzilishi va vazifalari:

O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo‘lim, 27 bob va 155 moddadan iborat.

Muqaddimada O‘zbekistonning yagona xalqi, inson huquqlari, suverenitet prinsiplariga soqdiq bo‘lgan holda, demokratiyaga va xalqaro umum e’tirof etilgan prinsip va normalarga tayangan holda, shuningdek, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlashni maqsad

qilgan holda, biz o‘z Konstitutsiyamizni qabul qilish va e’lon qilishga alohida urg‘u qaratilgan.

Konstitutsiyaning birinchi bo‘limi “Asosiy prinsiplar” deb nom olgan bo‘lib, ushbu bo‘limi “Davlat suvereniteti”, “Xalq hokimiyatchiligi”, “Konstitutsiya va qonunnng ustunligi”, “Tashqi siyosat” boblarini o‘z ichiga oladi. Ushbu bo‘limda O‘zbekiston Respublikasi suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat [143]ekanligi , chegaralari daxlsizlishi, davlat tili , davlat poytaxti, xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai ekanligi[144], davlat ramzlari, tashqi siyosatda to‘laqonli subyekt ekanligi hamda hokimiyat bo‘linish prinsipi haqida belgilab qo‘yilgan.

Konstitutsiyaning ikkinchi bo‘limi “Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nom olgan . Bundan ko‘rib turishimiz mumkinki, bu bo‘limda inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklar va burchlariga alohida e’tibor berilgan va to‘liq qilib belgilab qo‘yilgan. Ikkinchi bo‘lim 19-moddadan 64-moddalarini o‘z ichiga oladi. Bu bo’limda asosan inson va fuqarolarning huquqlari belgilangan bo‘lib, bular “shaxsiy huquq erkinliklar, siyosiy huquqlar, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlar” hisoblanadi. Bundan tashqari, fuqarolarning burchlari, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarining kafolatlari belgilangan hamda fuqarolarning burchlari aniq qilib normalar orqali belgilangan.

Konstitusiyaning uchinchi bo‘limi “Jamiyat va shaxs” deb nomlanadi. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, bu bo‘limda jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarga asosiy urg‘u berilmoqda. Eng asosiysi 15-bob ommaviy axborot vositalariga (OAV) bag‘ishlanadi. Qolaversa, 14-bobi yangi qo‘shilgan boblardan biri hisoblanib bu bobda Oila bolalar va yoshlarga oid normalar belgilab qo‘yilgan.

Konstitusiyaning to‘rtinchi bo‘limi “Ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi” deb nom olgan. Bu bo‘limda O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy hududiy tuzilishi ya’ni “O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar,

[143] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1-modda
[144] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 7-modda

ovullar, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iborat” [145]ekanligi haqida norma belgilab qo‘yilgan. To‘rtinchi bo‘lim kichik bo‘lim bo‘lishiga qaramay, ushbu bo‘limning 17-bobi to‘liq Qoraqalpog‘iston haqida normalar belgilab qo‘yilgan ya’ni bu bob 85-moddadan 90-moddagacha bo’lgan moddalarni o‘z ichiga oladi.

Konstitutsiyaning beshinchi bo‘limi “Davlat hokimiyatining tashkil etilishi” deb nom olgan. Bu bo‘lim O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidagi eng katta bo‘limlardan biri hisoblanadi ya’ni bu bo‘lim “O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Mahalliy davlat hokimiyati asoslari Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, Saylov tizimi, Sud hokimiyati,Advokatura, Prokuratura, Moliya, pul va bank tizimi hamda “Mudofaa va xavfsizlik kabi boblarni o‘z ichiga oladi va shu bo‘limda O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari ham belgilab qo‘yilgan.

Eng so‘ngi bo‘lim bu oltinchi bo‘lim ya’ni “Konstitutsiyaga orgatirish kiritish tartibi” ga bag‘ishlanadi. Ushbu bo‘limning 154-moddasida quyidagi norma belgilanganki, Ushbu Konstitutsiya 1-moddasining va ushbu modda ikkinchi qismining qoidalari qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, konstitutsiyani bu qismini o‘zgartirish mumkin emas. Sohibqiron Amir Temur shunday degan: **Davlat agar dinu oyin (qonun) asosida qurilmas ekan, to‘ra-tuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltanatnining shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi.** [146]

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Konstitutsiyaning puxta ishlangan tuzilishi – bu shunchaki boblar ketma-ketligi emas, balki milliy davlatchilik g‘oyalaridan tortib har bir fuqaro hayotigacha bo‘lgan munosabatlarni tartibga soluvchi yaxlit huquqiy mexanizmdir. Undagi bo‘limlar mantiqiy zanjir kabi bog‘lanib, insonning tabiiy

[145] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 83-modda
[146] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish 14-bet 2013 y

huquqlari eng oliy qadriyat ekani, xalq hokimiyat manbayi bo‘lib qolishi va davlat aynan shu hokimiyatga xizmat qilishi kerakligini mustahkamlaydi. Konstitutsiya tuzilmasi orqali hokimiyat tarmoqlarining muvozanati, huquqiy tizimning barqarorligi hamda jamiyat manfaatlari bilan shaxs erkinliklarining uyg‘unligi ta’minlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: **“Oldimizda qanday sinov va mashaqqatlar paydo bo‘lmasin, biz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, milliy birlik va hamjihatlikni mustahkamlash, xalqimizni rozi qilish yo‘lidan aslo ortga qaytmaymiz”. Shunday ekan biz oldimizga qo‘yilgan maqsaddan qaytmasligimiz kerak.**

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://constitution.uz/oz/pages/Konstitusiyamizning_yaratilishi
2. http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m14279
3. Yangi O‘zbekistoning yangi Konstitutsiyasi — erkin va farovon kelajagimiz poydevori
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi - Vikipediya
5. https://lex.uz/docs/-6445145
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/AQSh_Konstitutsiyasi
7. https://en.wikipedia.org/wiki/Constitution_of_Poland
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish X.Odilqoriyev R. Qayumov X. Nazarov M.Lafasov Z. Karimov O. Omonova 2013 y
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi

INKLYUZIV TA’LIM VA DIFFERENSIAL YONDASHUVNING ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Turdiyeva Shoxidaxon Anvardjanovna
Andijon davlat pedagogika instituti
Yo’lchiyeva Nodiraxon O’ktamjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Abdurahmonova Nazokat Oybekjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inklyuziv ta’limning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni hamda differensial yondashuvning o‘quv jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Har ikki yondashuvning o‘zaro bog‘liqligi, o‘quvchilar ehtiyojidan kelib chiqqan holda ta’limni moslashtirishning afzalliklari, o‘qituvchi roli va ta’lim samaradorligiga ta’siri ilmiy manbalar asosida yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Inklyuziv ta’lim, differensial yondashuv, maxsus ehtiyojli ta’lim, individual rivojlanish, pedagogik integratsiya, ta’limda tenglik, ta’lim innovatsiyalari, psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash, ta’lim sifatini oshirish.*

Аннотация: *В статье анализируется роль инклюзивного образования в современной системе образования и влияние дифференцированного подхода на процесс обучения. На основе научных источников освещаются взаимосвязь обоих подходов, преимущества адаптации образования к потребностям учащихся, роль учителя и их влияние на эффективность образования.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, дифференцированный подход, образование детей с особыми потребностями, индивидуальное развитие, педагогическая интеграция, равенство в образовании, образовательные инновации, психолого-педагогическое сопровождение, повышение качества образования.*

Abstract: *This article analyzes the role of inclusive education in the modern education system and the impact of a differentiated approach on the learning process. The interrelationships of both approaches, the advantages of adapting education based on the needs of students, the role of the teacher and their impact on the effectiveness of education are highlighted based on scientific sources.*

Keywords: *Inclusive education, differentiated approach, special needs education, individual development, pedagogical integration, equality in education, educational innovations, psychological and pedagogical support, improving the quality of education.*

Kirish: Zamonaviy ta’lim tizimi har bir o‘quvchining individual qobiliyati, rivojlanish sur’ati va ehtiyojini hisobga olgan holda ta’lim berishni talab etmoqda. UNESCO va UNICEFning so‘nggi yillardagi global tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, inklyuziv ta’lim barcha bolalarning, ayniqsa maxsus ehtiyojga ega o‘quvchilarning ta’limga teng kirish imkoniyatini ta’minlab, ta’lim tizimining adolatli va sifatli bo‘lishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, differensial yondashuv ta’lim jarayonini o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishi va shaxsiy xususiyatlariga mos holda tashkil etishni nazarda tutadi. Psixolog va pedagog olimlar — Vigotskiy, Bloom, Gardner — ushbu yondashuvni shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning eng samarali modeli sifatida baholaganlar. Natijada, inklyuziv ta’lim va differensial yondashuvning uyg‘unlashuvi zamonaviy ta’lim jarayonini yanada insonparvar, samarali va o‘quvchi ehtiyojlariga moslashgan tizimga aylantiradi.

Asosiy qism: Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi barcha o‘quvchilarga umumiy ta’lim muhitida o‘qish imkoniyatini yaratishdan iborat bo‘lib, Ainscow va Booth tadqiqotlarida inklyuziv ta’lim “ta’limdan chetda qolish xavfi mavjud bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlovchi tizim” sifatida ta’riflanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda ijtimoiy moslashuv, o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni rivojlantiradi, ta’lim muhitini esa insonparvarlashtirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda ham inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda: umumta’lim maktablarida resurs xonalari tashkil etilmoqda, maxsus

pedagoglar faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda, moslashtirilgan o‘quv dasturlari va qo‘llanmalar yaratilmoqda. Bularning barchasi o‘quvchilarning teng ravishda ta’lim olishiga imkon bermoqda.

Differensial yondashuvning pedagogik ahamiyati shundaki, u o‘quvchilarning individual farqlarini tan olishga, ularga mos ta’lim strategiyasini qo‘llashga qaratilgan. Bloom taksonomiyasi o‘quv maqsadlarini murakkablik darajasiga qarab bosqichma-bosqich rivojlantirishni taklif etsa, Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi ta’limning o‘quvchi rivojlanish potentsialiga mos berilganda eng samarali natija berishini ko‘rsatadi. Shu sababli differensial yondashuv asosida topshiriqlarni murakkablik darajasi bo‘yicha moslashtirish, o‘quvchilarni qiziqishi va qobiliyati bo‘yicha guruhlash, ularning individual sur’atda ishlashiga sharoit yaratish, vizual, eshitish, kinestetik kabi turli o‘qitish usullaridan foydalanish zarur bo‘ladi. Bu yondashuv o‘quvchilarning faolligini, mustaqilligini, o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

Inklyuziv ta’lim va differensial yondashuvning o‘zaro uyg‘unlashuvi esa ta’lim jarayonining amaliy samaradorligini sezilarli ravishda oshiradi. Chunki inklyuziv sinfda o‘quvchilarning ehtiyojlari turlicha bo‘lganligi sababli differensial yondashuv asosiy metodik vosita sifatida qo‘llanadi. Moslashtirilgan o‘quv materiallari maxsus ehtiyojli bolalarning o‘zlashtirishini osonlashtiradi, har bir o‘quvchi uchun mos pedagogik strategiyalarni tanlash esa bilimni chuqur o‘zlashtirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy integratsiya mustahkamlanadi, ular bir-birini qabul qilishga va hamkorlikda ishlashga o‘rganadi. O‘qituvchining kompetensiyasi ham kengayib boradi — u shaxsga yo‘naltirilgan, moslashtirilgan va innovatsion darslarni tashkil etish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Florian (2014) tadqiqotlariga ko‘ra, differensial yondashuv qo‘llanilgan inklyuziv sinflarda o‘quvchilarning umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari 20–30 foizga yuqori bo‘lishi aniqlangan. Bu esa ikki yondashuvning uyg‘unlashuvi ta’lim sifatini oshirishda muhim omil ekanini ko‘rsatadi. Inklyuziv ta’lim va differensial yondashuvning uyg‘unlashuvi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini

topgan. Masalan, Tomlinson (2014) differensial yondashuvni inklyuziv o‘qitishning eng samarali metodlaridan biri deb hisoblaydi, chunki u sinfdagi xilma-xillikni tabiiy jarayon sifatida qabul qiladi va o‘qituvchini har bir o‘quvchiga moslashgan ta’lim strategiyasini ishlab chiqishga undaydi. Shuningdek, Florian va Black-Hawkins (2011) inklyuziv sinflarda differensial metodlar qo‘llanganda o‘quvchilarning darsdagi ishtiroki, motivatsiyasi va o‘zlashtirish darajasi sezilarli ravishda oshishini ilmiy tajribalar orqali isbotlagan. Ularning tadqiqotlarida aynan individual yondashuv o‘quvchilarning fikrlash faolligini va mustaqil ishlash malakasini kuchaytirishi ko‘rsatilgan.

Xulosa: Inklyuziv ta’lim zamonaviy ta’lim tizimining asosiy talablaridan biri bo‘lib, har bir bola — uning jismoniy, psixologik yoki intellektual imkoniyatidan qat’i nazar — sifatli ta’lim olish huquqiga ega ekanligini ta’kidlaydi. Differensial yondashuv esa ushbu jarayonning amaliy poydevorini yaratadi. Chunki inklyuziv sinflarda o‘quvchilarning qobiliyati, ehtiyoji va rivojlanish sur’ati turlicha bo‘ladi. Shuning uchun dars jarayonini moslashtirish, individual topshiriqlar berish, o‘quvchi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash inklyuziyaning muvaffaqiyatli ishlashiga imkon yaratadi. Gibbs, Vigotskiy va Ainscow kabi pedagog olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayoni o‘quvchi ehtiyojiga moslashtirilganida o‘zlashtirish yuqori bo‘ladi, ijtimoiy integratsiya kuchayadi va o‘quvchilarda hamkorlik, bag‘rikenglik, muloqot kabi ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanadi. Shu sababli inklyuziv ta’lim va differensial yondashuvning uyg‘unligi ta’lim sifatini oshiradi, o‘qituvchining professional kompetensiyasini kengaytiradi va har bir bolaga teng imkoniyat yaratadi. Umuman olganda, inklyuziv ta’lim — bu faqat maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun emas, balki har bir bolaning rivojlanishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va hayotga tayyorlanishi uchun eng to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press, 1978.

2. UNESCO. Inclusive Education: Guidelines for Policy Makers. Paris: UNESCO Publishing, 2017.

3. Tomlinson, C. A. The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. ASCD, 2014.

4. Karimova, R. J. "Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari." — Pedagogika va psixologiya jurnali, 2021.

5. Normatova, S. "Differensial yondashuvning o'quv jarayonidagi ahamiyati." Ta’lim va innovatsiya, 2022.

TA’LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Yoqubaliyeva Dilafro‘z Payzidin qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Yo‘lchiyeva Nodiraxon O‘ktamjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya*: Ushbu maqolada ta’lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etishning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli ta’lim muhiti, sun’iy intellektga asoslangan o‘qitish tizimlari, masofaviy ta’lim platformalari, AR/VR texnologiyalari hamda interfaol metodlarning o‘quvchi faoliyatiga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, ta’lim sifatini oshirish, pedagogik faoliyatni modernizatsiya qilish va o‘quv jarayonini individuallashtirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni umumlashtirib yoritib beriladi.*

Kalit so’zlar: *Innovatsion texnologiyalar, raqamli ta’lim, masofaviy ta’lim, sun’iy intellekt, AR/VR texnologiyalari, interfaol metodlar, elektron ta’lim, multimedia vositalari, raqamli kompetensiya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, STEM*

yondashuvi, ta’limni raqamlashtirish.

Аннотация: *В статье анализируются теоретические основы и практическая значимость внедрения современных инновационных технологий в образовательный процесс. На основе научных источников рассматривается влияние цифровых образовательных сред, систем обучения на основе искусственного интеллекта, платформ дистанционного обучения, технологий дополненной и виртуальной реальности (AR/VR) и интерактивных методов на активность студентов. Также обобщается роль инновационных технологий в повышении качества образования, модернизации педагогической деятельности и индивидуализации образовательного процесса.*

Ключевые слова*: Инновационные технологии, цифровое образование, дистанционное обучение, искусственный интеллект, технологии дополненной и виртуальной реальности, интерактивные методы, электронное обучение, мультимедийные инструменты, цифровая компетентность, личностно-ориентированное образование, STEM-подход, цифровизация образования.*

Abstract: *This article analyzes the theoretical foundations and practical significance of introducing modern innovative technologies into the educational process. The impact of digital learning environments, artificial intelligence-based learning systems, distance learning platforms, AR/VR technologies, and interactive methods on student activity is covered based on scientific sources. Also, the role of innovative technologies in improving the quality of education, modernizing pedagogical activities, and individualizing the educational process is summarized.*

Kirish: XXI asrda ta’lim jarayoni raqamlashtirish, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va innovatsion yondashuvlarning keng qo‘llanilishi bilan yangi bosqichga ko‘tarildi. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonini faollashtiradi, o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish imkoniyatini kengaytiradi va ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi (Fullan, 2016). OECD (2021) ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli ta’lim muhiti o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, mas’uliyat va o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi. So‘nggi

yillarda sun’iy intellekt, AR/VR texnologiyalari, onlayn platformalar va multimedia resurslaridan foydalanish ta’limning barcha bosqichlarida kengaydi. UNESCO (2023) ta’kidlaganidek, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar o‘quvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishda samarali hisoblanadi. AR/VR texnologiyalari esa murakkab jarayonlarni vizual ko‘rsatib, o‘zlashtirish darajasini oshiradi.

Asosiy qism: O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida elektron kundaliklar, onlayn dars platformalari va virtual laboratoriyalar joriy etilib, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalariga bo‘lgan talab keskin oshmoqda. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirishning asosiy omili bo‘lib, o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik jarayonga tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash pedagogik bilimlar, metodik ko‘nikmalar, psixologik tayyorgarlik va texnologik kompetensiyalar uyg‘unligi asosida amalga oshiriladi. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasiga ko‘ra, o‘qituvchining haqiqiy rivojlanishi amaliy faoliyat jarayonida shakllanadi. Shu bois pedagogik amaliyot bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy o‘sishida markaziy o‘rin egallaydi. Shulman (1987) o‘qituvchi tayyorgarligining asosini “pedagogik kontent bilimi” tashkil etishini ta’kidlaydi, ya’ni o‘qituvchi nafaqat o‘z fanini, balki uni qanday o‘rgatishni ham bilishi zarur. Darling-Hammond (2017) esa metodik tayyorgarlikning darsni loyihalash, mos metodlarni tanlash va o‘quvchilarning individual xususiyatlariga mos yondashish bilan belgilanini qayd etadi. Raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilayotgan bugungi kunda texnologik savodxonlik o‘qituvchining muhim kompetensiyalaridan biriga aylandi. Mishra va Koehlerning TPACK modeli (2006) o‘qituvchining fan, pedagogika va texnologiyani integratsiya qila olish qobiliyatini zamonaviy pedagogning asosiy mezoni sifatida baholaydi. Innovatsion ta’lim texnologiyalari — virtual laboratoriyalar, simulyatorlar, interfaol platformalar, elektron darsliklar va masofaviy ta’lim tizimlari — bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tajribasini boyitadi. OECD (2021) tadqiqotlariga ko‘ra, loyiha asosida

o‘qitish, aralash (blended) ta’lim va interfaol metodlar o‘quvchilarning analitik va kreativ fikrlashini rivojlantiradi. Shuningdek, elektron portfoliolar, online refleksiya va videodars tahlili bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Natijada pedagogda darsni tahlil qilish, xatolarni anglash va takomillashtirishga intilish kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi. Shunday qilib, raqamli va innovatsion texnologiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorligini chuqurlashtirib, ularni zamonaviy ta’lim talablariga mos holda shakllantirishning asosiy omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa: Ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish va ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Raqamli ta’lim vositalari, sun’iy intellekt, interaktivlikni kuchaytirish va o‘quvchilarning bilimga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar o‘qituvchining metodik faoliyatini takomillashtirib, baholashning aniqligi, ta’lim jarayonining shaffofligi va o‘quv natijalarining monitoringini samarali yo‘lga qo‘yishga imkon yaratadi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan raqamlashtirish jarayonlari ham aynan ta’limning mazmunini yangilash va zamonaviy global talablar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, innovatsion texnologiyalardan tizimli va maqsadli foydalanish ta’limni yangilashning strategik yo‘nalishi bo‘lib, ta’limning raqobatbardoshligi, samaradorligi va istiqbolli rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori (2020). “Raqamli ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi 2020–2030”.(O‘zbekistonda raqamli ta’lim siyosatini belgilovchi rasmiy hujjat.)

2. Becker, S. A., et al. (2020). Innovating Pedagogy: Exploring New Forms of Teaching, Learning and Assessment to Guide Educators and Policy Makers. The Open University.(Pedagogik innovatsiyalar va texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ilmiy tahlillar.)

3. OECD (2021). OECD Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with AI, Blockchain and Robots. OECD Publishing.(Raqamli ta’lim, AI va texnologiyalar ta’limdagi tendensiyalari bo‘yicha xalqaro hisobot.)

4. UNESCO (2023). AI and Education: Guidance for Policy-makers. Paris: UNESCO.(Sun’iy intellektning ta’lim jarayonidagi o‘rni bo‘yicha dolzarb ilmiy-huquqiy yo‘riqnoma.)

5. Trowbridge, L., Bybee, R., & Powell, J. (2004). Teaching Secondary School Science: Strategies for Developing Scientific Literacy. Merrill Publishing. (STEM va texnologik yondashuvlar bo‘yicha asosiy adabiyot.)

6. Fullan, M., & Langworthy, M. (2014). A Rich Seam: How New Pedagogies Find Deep Learning. Pearson.
(Raqamli pedagogika, chuqur o‘qitish va texnologiyalarning o‘qitish metodikasiga ta’siri bo‘yicha fundamental tadqiqot.)

7. Anderson, T., & Dron, J. (2012). “Learning in a Digital Age: The Evolution of Online Learning and Digital Pedagogies.” International Review of Research in Open and Distributed Learning, 13(1), 133–147.
(Onlayn ta’lim modellari, raqamli didaktika va masofaviy o‘qitish strategiyalari haqida keng qamrovli tahlil.)

B2 DARAJADAGI O‘QUVCHILARDA NUTQ KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Zokirjonova Zarinabonu Shuxratbek qizi

Andijon chet tillari instituti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada B2 darajasida nemis tilini o‘rganuvchi o‘quvchilarda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali metodlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada kommunikativ yondashuvga asoslangan metodlar rol o‘yinlari, debat va munozaralar, juftlikda hamkorlikda ishlash*

(Pair-Work), guruhli faol mashg‘ulotlar (Group-Work), situativ vaziyatlar asosida nutqni rag‘batlantiruvchi mashqlar batafsil yoritiladi. Shuningdek, multimedia vositalari, interaktiv platformalar va onlayn resurslarning B2 darajasidagi o‘quvchilar nutq faolligini oshirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqola natijalari B2 darajasida nemis tilini o‘qitish jarayonida nutq ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha samarali metodik yondashuvlarni taklif qiladi va kelgusida o‘quv jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Abstract: *This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of effective methods for developing speaking skills among learners studying German at the B2 level. It gives detailed coverage of communicative approach–based techniques such as role plays, debates and discussions, pair-work collaboration, group-work activities, and speech-stimulating exercises built on situational contexts. Additionally, the importance of multimedia tools, interactive platforms, and online resources in increasing speaking activity among B2-level learners is explained. The results of the article offer effective methodological approaches for developing speaking skills in the process of teaching German at the B2 level and serve to further improve future teaching practices.*

Аннотация: *В данной статье проводится научно-теоретический и практический анализ эффективных методов развития устных речевых навыков у учащихся, изучающих немецкий язык на уровне B2. Подробно рассматриваются методы, основанные на коммуникативном подходе, такие как ролевые игры, дебаты и дискуссии, работа в парах (Pair-Work), групповые активные занятия (Group-Work), а также упражнения, стимулирующие речь на основе ситуационных контекстов. Кроме того, раскрывается значение мультимедийных средств, интерактивных платформ и онлайн-ресурсов в повышении речевой активности учащихся уровня B2. Результаты статьи предлагают эффективные методические подходы к формированию речевых навыков при обучении немецкому языку на уровне B2 и способствуют совершенствованию образовательного процесса в будущем.*

Kalit so‘zlar: *B2 darajasi, nemis tili, nutq ko‘nikmalari, kommunikativ metodlar, rol o‘yinlari, debat va munozaralar.*

Keywords: *B2 level, German language, speaking skills, communicative methods, role plays, debates and discussions.*

Ключевые слова: *уровень B2, немецкий язык, речевые навыки, коммуникативные методы, ролевые игры, дебаты и дискуссии.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida chet tillarini, xususan, nemis tilini chuqur o‘zlashtirish ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib bormoqda. Til o‘rganish jarayonining eng muhim komponentlaridan biri bu og‘zaki nutq ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdir. B2 darajasi CEFR tasnifida o‘rta-yuqori bosqichni ifodalab, o‘quvchidan ijtimoiy, madaniy, akademik va professional mavzularda ancha erkin, mantiqiy va izchil tarzda muloqot qila olishni talab qiladi. Aynan shu darajada o‘quvchining mustaqil fikrlashi, dalillash, o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish, murakkab grammatik konstruktsiyalarni to‘g‘ri qo‘llash kabi ko‘nikmalar shakllanadi [1]. Shu bois B2 darajasida nutqni rivojlantirish metodlarini to‘g‘ri tanlash ham o‘qituvchilar, ham o‘quvchilar uchun alohida ahamiyatga ega. Kommunikativ yondashuv, interaktiv mashg‘ulotlar, rol o‘yinlari, juftlik va guruhdagi muloqot vazifalari, real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish kabi usullar o‘quvchini faol suhbat ishtirokchisi sifatida shakllantiradi. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar — onlayn platformalar, videoresurslar, virtual muloqot tizimlari ham nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda samaradorlikni yanada oshirmoqda.Biroq O‘zbekiston ta’lim tizimida B2 darajasida nemis tili bo‘yicha og‘zaki nutqni rivojlantirish jarayoni hali ham ayrim metodik va amaliy muammolarga duch kelmoqda: til muhitining yetishmasligi, mazmunli muloqot vazifalarining kamligi, o‘quvchilarning psixologik to‘siqlari, resurslarning cheklanganligi shular jumlasidandir. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi ana shu omillar bilan belgilanadi. Mazkur maqolaning maqsadi B2 darajadagi o‘quvchilarda og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlarni tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan

iborat. Tadqiqot natijalari nemis tili o‘qituvchilari va til o‘rganuvchilar uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quv jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi [2].

1. B2 darajasida nutq ko‘nikmalarining lingvistik va psixolingvistik xususiyatlari.

B2 darajasi o‘quvchidan nafaqat grammatik bilimlarning mustahkam bo‘lishini, balki nutq jarayonida ushbu bilimlarni tez, mos va samarali qo‘llay olishni ham talab etadi. Bu bosqichda o‘quvchi kundalik muloqotdan tashqari, murakkab mavzulardagi suhbatlarda ishtirok etishi, o‘z fikrini mustaqil mantiqiy asoslab berishi va turli nuqtayi nazarlarni tahlil qila olishi kerak. Psixolingvistik nuqtai nazardan qaraganda, B2 darajasida nutq ishlab chiqish jarayoni avtomatlashtirilgan tezkor grammatik tanlov, leksik boylikdan samarali foydalanish, fikrni izchil tarzda rejalashtirish va nutqni to‘g‘ri strukturaga solish kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi [3].

Shuningdek, bu bosqichda o‘quvchilarning argumentatsiya ko‘nikmasi, fikrlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni yaratish qobiliyati, murakkab gaplar va ko‘p bo‘g‘inli strukturalardan foydalanish darajasi sezilarli ahamiyatga ega. B2 o‘quvchisi fikrni mustaqil ravishda boshlashi, davom ettirishi va yakunlashi; mavzuni kengaytirishi; suhbatdosh fikriga munosabat bildira olishi kerak. Shu sababli nutqni rivojlantirish metodlari bu jarayonlarning har birini rag‘batlantirishi lozim [9].

2. Nutqni rivojlantirishda qo‘llaniladigan samarali kommunikativ metodlar

2.1. Rol o‘yinlari (Rollenspiele)

Rol o‘yinlari o‘quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga yaqin sharoitda muloqot qilishga undaydi. Mazkur metod orqali o‘quvchilar restoran, mehmonxona, intervyu, kutubxona, samolyot, kasb tanlash kabi turli ssenariylarda nutq faoliyatini mashq qiladilar. Bu usul nutqning tabiiyligini oshiradi, tilga psixologik to‘siqlarni kamaytiradi, grammatik konstruktsiyalardan erkin foydalanishga yordam beradi [4].

2.2. Debat va munozaralar (Debatten, Diskussionen)

Debat metodida o‘quvchilar bir mavzu bo‘yicha qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni himoya qiladilar. Bu usul argumentatsiya, tahlil, dalillash, inkor qilish, misollar keltirish kabi yuqori darajadagi nutq ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Munozaralar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini, mavzuga nisbatdan o‘z pozitsiyasini aniq ifodalashini ham ta’minlaydi [4].

2.3. Pair-Work va Group-Work

Juftlikda ishlash (Pair-Work) o‘quvchilarni faol muloqotga jalb qilishda eng samarali shakllardan biridir. Guruhda ishlash (Group-Work) esa o‘quvchilarning bir-biri bilan hamkorlikda fikr almashish, rollarni taqsimlash, guruh natijasini himoya qilish kabi ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ushbu metodlar o‘quvchilarni faol suhbatdoshga aylantirib, nutqning spontan va tabiiy rivojlanishiga xizmat qiladi [4].

2.4. Vizual va audiovizual materiallardan foydalanish

Rasmlar, grafiklar, qisqa videolar, film lavhalari asosida gapirtirish o‘quvchilarning tasviriy fikrlashini faollashtiradi. Bu metod o‘quvchining mavzu bo‘yicha o‘z fikrini mustaqil shakllantirishini osonlashtiradi, tasviriy tafakkur va nutqning izchilligini rivojlantiradi. Vizual materiallar B2 o‘quvchilarida leksik boylikni kengaytirishning eng samarali vositalaridan biridir [4].

2.5. Situativ mashqlar

Situativ mashqlar real hayotda uchraydigan muammolarni hal qilishga asoslangan bo‘lib, o‘quvchini faol muloqotga undaydi. Masalan, “yo‘qotilgan hujjatni topish”, “shikoyat arizasini aytib berish”, “uy-joy ijarasi haqida muzokara”, “sayohatni rejalashtirish” kabi vazifalar o‘quvchini mustaqil gapirishga majbur qiladi. Bu usul B2 darajasida nutqning dinamik rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi [4].

3. Raqamli va interaktiv texnologiyalarning B2 darajasida nutqni rivojlantirishdagi o‘rni

Zamonaviy ta’lim jarayoni raqamli vositalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Onlayn platformalar va mobil ilovalar nafaqat mustaqil o‘rganish, balki nutqni interfaol shaklda mashq qilish imkonini beradi [5].

3.1. Onlayn platformalar

DW Deutsche Welle, Goethe-Institut, Easy German, Lingua.com kabi platformalar B2 darajasida eshitib tushunish, matn bilan ishlash va og‘zaki nutqni

